omillar ta'sirini o'rganish imkonini beradi. Internet axborot resurslarida necha minglab fizika fanidan virtual tajribalar, komp'yuterlashtirilgan darslar va elektron qo'llanmalar mavjud [5]. O'z darslarida Internet resurslarini qo'llamoqchi bo'lgan o'qituvchi kerakli saytlar yoki fizika yo'nalishidagi axborot portallaridan o'ziga zarur bo'lgan o'quv materiallari ko'chirib oladi va mavzu texnologik xaritasida rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga moslashtiradi: - izohlarni rus tilidan o'zbek tiliga o'giradi; - kirillcha alfavitdagi yozuvlarni o'zbek lotin alifbosiga o'giradi; - musiqa - kommentariy - izohlarni o'zi qaytadan tayyorlaydi va h.o. Bizning fikrimizcha, bu moslashtirishlarni amalga oshirishda MS Office 2012 paketidan va AutoPlay Media Studio 7.0 dasturiy majmuasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Tavsiyamiz isboti sifatida ushbu dasturiy majmua vositasida «Elektr toki» mavzusi bo'yicha uzedu.uz portalidan ko'chirib olingan virtual tajribalarni namoyish qilamiz. Kondensatorni parallel va ketma-ket ulash. Maqsad: Kondensatorning zaryadsizlanishini tekshirish, uning sig'imini aniqlash va kondensatorlar ketma-ket va parallel ulanganida naviyaviy sig'imini hisoblashni o'rganish. Asbob va jihozlar: laboratoriya universal ta'minlash manbai, kondensatorlar to'plami, o'quv laboratoriya miillampermetri — O'LMA-01, o'quv laboratoriya voltmtri - O'LV-01, kalit va ulash simlari. Ishning nazariy asosi : Dars avvalida kondensatorlarning turlari va ulardan toydalanish lo'g'risida qisqacha ma'lumot beriladi [6]. Kondensatorning zaryadlanish va zaryadsizlanish jarayoni haqida qisqacha nazariy ma'lumot berilgach, tajriba qurilmasi yig'iladi va so'ngra belgilangan tartibda tajriba bajariladi. Tajriba natijalari asosida jadval toldirilib, xulosa chiqariladi va uni daftarga yozib olinadi. Kondensator ikkita bir xil o'tkazgichdan iborat bolib, bu o'tkazgichlar orasiga qalinligi ularning olchamlaridan juda kichik bo'lgan dielektrik qatlam qo'yiladi. Kondensatorni hosil qiluvchi o'tkazgichlarni uning qoplamlari deb ataladi. Kondensatorni zaryadsizlantirish jarayoni orqali uning sig'imini aniqlash usuli mavjud. Bu usul 2.2.1-chizmada berilgan elektr zanjiri asosida amalga oshiriladi. Avvalo kondensator tok manбайдan zaryadlanadi, so'ngra milliampermetr orqali zaryadsizlantiriladi. Kondensatorning elektr sig'imini aniqlashning bu usuli kondensator zaryadsizlanganda bergan tokni o'lchashga asoslangan. Agar kondensatorni bitta o'zgarmas tok manbaining o'zi hilan zaryadlab, keyin uni milliampermetr orqali zaryadsizlantirilsa, har safar milliampermetr ko'satkichi bir xil qiymatni ko'rsatadi. Binobarin, sig'imi ma'lum bo'lgan (etalon) kondensatorlarga ega bo'lib, tajriba yo'li bilan milliampermetr ko'rsatkichi kondensatorlar sig'imiga to'g'ri proporsional ekanligiga ishonch liosil qilish mumkin.



2.2.1. Chizma. Kondensatorlarni ketma-ket ulash

Noma'lum sig'imli kondensator sifatida to'plamdagi kondensatorlardan birortasini, masalan, sig'imi 1mF bo'lgan kondensatorni olish mumkin. Bunda tajribadan oldin sig'imi yozilgan joy qog'oz bo'lakchasi bilan yelimlab qo'yiladi. Yuqorida bayon qilingan usulda noma'lum sig'imli kondensatorning sig'imi topiladi. Keyin sig'imi ma'lum bo'lgan ikkita kondensator olinadi va ularni oldiniga zanjirga parallel, so'ngra ketma-ket ulab har safar yuqorida bayon qilingan usulda sig'imler aniqlanadi. Qurilmaining tuzilishi va ishlashi: 1 chizmaga ko'ra rasmda ko'rsatilgandek qilib elektr zanjiri yig'iladi. Qurilma milliampermetr, o'zgarmas sig'imli kondensatorlar to'plami, o'zgarmas tok manbai, neytral kontaktli (uch kontaktli) kalitdan tuzilgan. Neytral kontaktli kalitning chetki klemmasiga ta'minlash manbaining niusbat qutbi, o'rta klemmasiga kondensatorning bir uchi va ta'minlash manbaining manfiy qutbi, chetki klemmasiga milliampermetrning musbat o'lchash simi ulanadi. Milliampermetrning manfiy o'lchash simi ta'minlash manbaining manfiy qutbiga ulanadi.



2.2.2. Chizma. Kondensatorlarni parallel ulash

Qo'shimcha ma'lumot: Energiyani to'plash qobilyatiga ega bo'lganligi uchun elektrotexnika va radiotexnikada kondensatorlar qo'llaniladi. Kondensatorlarning xilma-xil turlari mavjud. Ular asosan ikki turga bo'linadi: o'zgaruvchan sig'imli kondensatorlar va o'zgarmas sig'imli. O'zgarmas sig'imli kondensatorlar o'z navbatida yana bir necha turga bo'linadi. Qoplamalari orasiga joylashtirilgan dielektrikning turiga qarab, kondensatorlar havoli, keramikli, slyudali, qoglozli va elektrolitik bo'ladi. Havoli kondensatorlar ko'proq radiouzaytirgichlarda ishlatiladi (sig'imi 10 yoki 100 pF atrofida). Keramik kondensatorlar yuqori kuchlanishga va yuqori temperaturaga bardosh beradi (sig'imi 10 dan 1000 pF gacha). Elektrolitik kondensatorlarning sig'imi juda katta bo'ladi (bir necha ming  $\mu$ F). O'zgaruvchan sig'imli kondensatorlar asosan radiopriyomniklarda qo'llaniladi[7].

Zamonaviy axborotlashtirilgan jamiyatda ta'lim jarayonini komp'yuterlashtirish xususiyatlarini o'rganish, masofaviy o'qitishda komp'yuter texnologiyalarining imkoniyatlarini taxlil qilish, laboratoriya ishlarini va tajribalarni olib borishda mavjud bo'lgan dasturiy - pedagogik vositalardan didaktik talablar darajasida foydalanish taxlili; ayniksa, sirtki ta'lim olayotgan talabalar uchun chunki bu guruxda ta'lim olayotgan talabalarni masalan: avtomatlashtirilgan o'rgatish kurslari, o'quv masalalarini echish uchun xisoblash, proekt-grafiklar, axborotlarni kidiruvchi va optimallashtiruvchi masalalar, malakaviy amaliy programmalar, testlar, kontrol' ishlarini komp'yuter texnologiyalaridan foydalanmasdan o'qitish mumkin emas. Programma-pedagogik vositalarga kuyiladigan talablar mavjud bo'lgan didaktik printsiplarni yangisi, sirtki ta'lim talabalari uchun, masofaviy ta'lim uchun yaratilayotgan komp'yuter programmalarini o'rgatish va kullash samaradorligini oshiradigan psixologik-ergonomik (kishining jismoniy kobilyatini o'rganish) vosita bilan tuldurish zarur. Zamonaviy komp'yuter vositalari masofaviy ta'limda laboratoriya mashgulotlarini virtual o'rganish imkoniyatini berib ularda mustakillik va tafakkurni rivojlantiradi. Shubhasiz ta'limning bunday shakli zamonaviy rivojlangan texnologiyalarni kullashni talab etadi. Bizning fikrimizcha bunday texnologiyani yaratishda tasavvurni rivojlantirish xar xil turdagi axborotlar bilan ishlarni bilish muvofiq bo'lgan echimlarni tayyorlash va qabul qilishga e'tibor berish lozim. Chunki talaba individual shugullanadi va maslahatlashuvchi hech kim bulmaydi. Bunday vaktida telekommunikatsion tarmoqlarda virtual o'quv guruhlari tashkil qilinadi. Yuqorida keltirilgan virtual tajribalar namoyishi shuni ko'rsatadiki, o'rta tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'qituvchi va yuqori kurslar talabalari mustaqil ravishda Internet resurslaridan turli animatsiyalar va komp'yuterlashtirilgan laboratoriya ishlarini ko'chirib olishlari va o'z darslarida qo'llash uchun tegishli hajm va mazmunda moslashtirib olishlari mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Adegoke, B. D. va Chukvuneye, N. (2013). Talabalarning amaliy fizika fanidan bilim olish natijalarini yaxshilash, qaysi yaxshiroq? Kompyuterda simulyatsiya qilingan tajribami yoki amaliy tajribami? IOSR tadqiqot va metodika jurnali Ta'lim (IOSR-JRME), 2(6), 18-26. <https://doi.org/10.9790/7388-0261826>
2. Aljanazrah, A. M. (2006). Kimyo o'qituvchisining malakasini oshirishning yangi modelini ishlab chiqish, joriy etish va baholasharalash ta'limga asoslangan. Shaker Verlag.
3. Aljuhani, K., Sonbul, M., Alhabiti, M., & Meccawy, M. (2018). Virtual fan laboratoriyasini (VSL) yaratish: Saudiya maktablarida virtual laboratoriyalarni qabul qilish. Smart Learning Environments <https://doi.org/10.1186/s40561-018-0067-9>
4. Alneyadi, S. S. (2019). Fan savodxonligida virtual laboratoriyani amalga oshirish: EURASIA Journal of Mathematics, Science and Technology Education, 15(12), 1-10. <https://doi.org/10.29333/ejmste/109285>
5. Altun, E., Demirdag, B., Feyziog'lu, B., Ates, A., & Cobanoğlu, İ. (2009). Interaktiv virtualni rivojlantirish umumta'lim maktablari uchun konstruktiv ta'lim faoliyati bilan boyitilgan kimyo laboratoriyasi. Procedia-ijtimoiy va xulq-atvor fanlari, 1 (1), 1895-1898. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2009.01.333>
6. Ambusaidi, A., Al Musawi, A., Al-Balushi, S., & Al-Balushi, K. (2018). 9-sinf o'quvchilarining yutuqlariga virtual laboratoriyadagi o'quv tajribalarining ta'siri va ularning virtual laboratoriya orqali fan va o'rganishga munosabati. Journal of Turk Science Education, 15(2), 13-29. <https://doi.org/10.11114/jets.v5i11.2743>.
7. Banchi, H. va Bell, R. (2008). Ko'p darajadagi so'rovlar. Fan va bolalar, 46(2), 26-29.
8. Jurayeva N.O. Specific aspects and principles of the method of organizing independent education of students. Actual problems of modern science, education and training". №8, Xorazm, 2022. – P. 23-27.
9. Jo'rayeva N.O. Mobile Softwareanwendungen zur Organisation unabhängiger Bildung// Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol. 2, Issue 1.5 (2022), – P. -661-664.
10. С.Ходжиев, Н.О.Жўраева. Некоторые указания и решением текстовые задачи связанные с работой. Pedagogik akmeologiya (maxsus son), 2022. -114-122

**IQTISODIYOTDA MATRISA VA DETERMINANTLARNING QO'LLANILISHI**

Abdullayev Sarvar Anvar o'g'li,  
Buxoro davlat Pedagogika institute, Aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi

*Annotatsiya* Bu ish algebra va sonlar nazariyasi fanining iqtisodiy masalalarga qo'llanilishiga bag'ishlangan. Bu ishda Matritsa va determinantlar orqali kundalik hayotimizda muhim bo'lgan bir nechta iqtisodiy masalalarni yechish jarayonlari qaralgan.

*Kalit so'zlar:* Matritsa, determinant, texnologik jarayon, ustun, satr.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАТРИЦЫ И ДЕТЕРМИНАНТ В ЭКОНОМИКЕ**

Абдуллаев Сарвар Анвар угли,  
Бухарский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры точных наук

*Аннотация:* Данная работа посвящена применению и алгебраической теории стамески к экономическим вопросам. В данной работе рассматриваются процессы решения ряда вайных в нашей повседневной жизни экономических задач посредством Матрицы и определителя.

*Ключевые слова:* Матрица, определитель, технологический процесс, столбец, строка

**USING THE MATRIX AND DETERMINANTS IN ECONOMICS**

Abdullayev Sarvar Anvar o'g'li,  
Bukhara State Pedagogical Institute, teacher of the Department of Exact Sciences

*Abstract:* Tax work is devoted to the use and algebraic theory of the chisel to economic issues. This paper discusses the processes of solving a series of Vainex in our daily life of economic problems through the matrix and the determinant.

*Key words:* Matrix, determinant, technological process, column, row.

Berilgan  $m$  ta satr va  $n$  ta ustundan iborat sonlarning to'g'ri burchakli jadvaliga  $m \times n$  o'lchamli matritsa deyiladi.

Matritsaning o'lchami uning satrlari soni va ustunlari soni bilan aniqlanadi. Matritsaning o'lchamini ifodalash uchun  $m \times n$  belgi ishlatiladi. Bu belgi matritsaning  $m$  ta satr va  $n$  ta ustundan tashkil topganini bildiradi.

Matritsani tashkil qilgan sonlar uning elementlari deyiladi. Matritsalar odatda lotin alfavitining bosh A, B, D, ... harflari orqali uning elementlari esa lotin alfavitining kichik harflari bilan belgilanadi.

Odatda  $m \times n$  o'lchamli matritsa quyidagicha belgilanadi:

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1j} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2j} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{i1} & a_{i2} & \dots & a_{ij} & \dots & a_{in} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{m1} & a_{m2} & \dots & a_{mj} & \dots & a_{mn} \end{pmatrix}$$

Matritsa  $A = (a_{ij})$ ,  $i = \overline{1, m}$ ;  $j = \overline{1, n}$ , shaklda ham ifodalanishi mumkin:

$i$ -satri,  $j$ -ustuni raqami.  $A$  matritsaning  $i$ -satr va  $j$ -ustunda joylashgan elementi  $a_{ij}$  bilan belgilanadi.

Matritsalarini ifodalashda  $\| \cdot \|$  yoki  $[\cdot]$  belgidan ham foydalaniladi.

*Misol:*  $A = \begin{pmatrix} 13 & -2 & 0 \\ -10 & 3 & 4 \end{pmatrix}$  -  $2 \times 3$  o'lchamli matritsadir.

*Matritsani songa ko'paytirish.*  $A$  matritsani -  $\lambda$  songa ko'paytmasi deb, elementlari  $b_{ij} = \lambda a_{ij}$   $i = \overline{1, m}$   $j = \overline{1, n}$  ko'rinishida bo'lgan  $B = \lambda A$  matritsaga aytiladi.

*Misol:* agar  $A = \begin{pmatrix} 1 & -5 \\ 3 & 2 \end{pmatrix}$  bo'lsa,  $4A = \begin{pmatrix} 4 & -20 \\ 12 & 8 \end{pmatrix}$  bo'ladi. So'ngi tenglikni  $\begin{pmatrix} 4 & -20 \\ 12 & 8 \end{pmatrix} = 4 \begin{pmatrix} 1 & -5 \\ 3 & 2 \end{pmatrix}$  ko'rinishda yozsak, matritsaning hamma elementlari umumiy ko'paytuvchisini, matritsa belgisidan tashqariga chiqarish mumkinligini ko'ramiz.

Xususiyl holda  $A$  matritsani 0 soniga ko'paytirsak nol matritsa hosil bo'ladi, ya'ni  $0 \cdot A = 0$ .

*Matritsalarini qo'shish.* Bir xil o'lchamli  $A$  va  $B$  matritsalarining yig'indisi deb, elementlari  $c_{ij} = a_{ij} + b_{ij}$  ko'rinishida bo'lgan  $C$  matritsaga aytiladi va quyidagicha yoziladi:

$$C = A + B.$$

*Misol:*  $A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & -1 & 4 \end{pmatrix}$ ,  $B = \begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ -1 & 2 & 5 \end{pmatrix}$  matritsalar yig'indisini topamiz:

$$C = A + B = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & -1 & 4 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ -1 & 2 & 5 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1+2 & 2+3 & 3+1 \\ 2-1 & -1+2 & 4+5 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 3 & 5 & 4 \\ 1 & 2 & 9 \end{pmatrix}.$$

*Matritsalarini ayirish.* Bir xil o'lchamli  $A$  va  $B$  matritsalarini ayirmasi deb, elementlari  $c_{ij} = a_{ij} - b_{ij}$   $i = \overline{1, m}$ ;  $j = \overline{1, n}$  ko'rinishida bo'lgan,  $C = A - B$  matritsaga aytiladi.

*Misol:* Ushbu  $A = \begin{pmatrix} 1 & 3 \\ 2 & 4 \\ 5 & -2 \end{pmatrix}$  va  $B = \begin{pmatrix} -2 & 3 \\ 4 & -3 \\ 1 & 2 \end{pmatrix}$  matritsalar ayirmasi

$$C = A - B = \begin{pmatrix} 1 & 3 \\ 2 & 4 \\ 5 & -2 \end{pmatrix} - \begin{pmatrix} -2 & 3 \\ 4 & -3 \\ 1 & 2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 - (-2) & 3 - 3 \\ 2 - 4 & 4 - (-3) \\ 5 - 1 & -2 - 2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 3 & 0 \\ -2 & 7 \\ 4 & -4 \end{pmatrix} \text{ kabi topiladi.}$$

*Matritsalarini ko'paytirish.* Ikkita matritsani ko'paytirish uchun birinchi matritsaning ustunlari soni ikkinchi matritsaning satrlari soniga teng bo'lishi shart.  $A$  va  $B$  matritsalarining ko'paytmasi deb, shunday  $C$  matritsaga aytiladiki, bunda  $C$  matritsaning elementlari  $A$  matritsaning har bir satr elementlarini mos ravishda  $B$  matritsaning har bir ustun elementlariga ko'paytirib, qo'shishdan hosil qilinadi. Yani  $C$  ning elementlari quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$c_{ij} = a_{i1}b_{1j} + a_{i2}b_{2j} + \dots + a_{ik}b_{kj} = \sum_{s=1}^k a_{is}b_{sj}, \quad i = \overline{1, m}; \quad j = \overline{1, n}. \text{ Bunda } A_{m \times k} \cdot B_{k \times n} = C_{m \times n}$$

Bunda  $A_{m \times k}, B_{k \times n}$  o'lchamlarga ega bo'lgan matritsalar.  $A \cdot B = C$  matritsa  $m \times n$  o'lchamga ega bo'ladi.

$$\text{Misol: } A_{2 \times 3} = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 0 \\ 3 & 4 & -1 \end{pmatrix} \quad B_{3 \times 2} = \begin{pmatrix} 0 & 2 \\ 1 & 0 \\ 4 & -5 \end{pmatrix}$$

$$C = A \cdot B = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 0 \\ 3 & 4 & -1 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 0 & 2 \\ 1 & 0 \\ 4 & -5 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \cdot 0 + 2 \cdot 1 + 0 \cdot 4 & 1 \cdot 2 + 2 \cdot 0 + 0 \cdot (-5) \\ 3 \cdot 0 + 4 \cdot 1 + (-1) \cdot 4 & 3 \cdot 2 + 4 \cdot 0 + (-1) \cdot (-5) \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2 & 2 \\ 0 & 11 \end{pmatrix}$$

Matritsaning bir qator xususiyatlarini ta'riflash va o'rganish uchun uning determinanti tushunchasi kerak bo'ladi. Determinantlar matritsa algebrasining asosiy tushunchasi.

Faqat kvadrat matritsalar uchun determinant tushunchasi ta'riflanadi.  $A$  matritsa determinanti  $|A|$  yoki  $\Delta$  kabi belgilanadi. Ayrim o'quv adabiyotlarida determinant atamasi aniqlovchi deb aytiladi.

*1-ta'rif.* Berilgan  $|A|$  determinantni tashkil etgan  $a_{ij}$  ( $i, j=1, 2, \dots, n$ ) sonlar *determinantning elementlari*, gorizontal ko'rinishda joylashgan  $a_{ij}$  ( $j=1, 2, \dots, n$ ) elementlar *determinantning i-satri* ( $i=1, 2, \dots, n$ ), vertikal ko'rinishda joylashgan  $a_{ij}$  ( $i=1, 2, \dots, n$ ) elementlar esa *determinantning j ustuni* ( $j=1, 2, \dots, n$ ) deyiladi.

**1-Masala.** Xo'jalikdagi 3 ta sigirdan sut sog'ilishi miqdori va undagi yog' va oqsil moddalar quyidagi jadval sifatida berilgan bo'lsin.

|         | Sog'ilgan sut miqdori $l$ . | Yog'liligi % | Oqsil % |
|---------|-----------------------------|--------------|---------|
| Govmush | 50000                       | 4,2          | 3,4     |
| Qashqa  | 4260                        | 4,0          | 3,5     |
| Merka   | 4850                        | 3,8          | 3,6     |

Barcha sutdagi umumiy yog' va oqsil miqdorlarini aniqlang.

Umumiy yog' va oqsil miqdorlarini aniqlash uchun quyidagi matrisalarni tuzamiz:

$$A = (5000 \quad 4260 \quad 4850), \quad B = \begin{pmatrix} 0,042 & 0,034 \\ 0,04 & 0,035 \\ 0,038 & 0,036 \end{pmatrix}$$

Ularni ko'paytmasi bilan barcha sutdagi umumiy yog' va oqsil miqdorlarini aniqlaymiz.

$$A \cdot B = (5000 \quad 4260 \quad 4850) \cdot \begin{pmatrix} 0,042 & 0,034 \\ 0,04 & 0,035 \\ 0,038 & 0,036 \end{pmatrix} = (564,7 \quad 493,7)$$

Demak hosil bo'lgan satr-matritsa sutdagi umumiy yog' va oqsil miqdorlarini beradi. Bundan kelib chiqadiki sutda 564,7 l yog' va 493,7 l oqsil bor ekan.

**2-Masala.** Xo'jalikda paxta, bug'doy, sholi ekiladi. Yillik reja shartli birliklarda  $X = (12, 4, 5)$  satr-matritsa orqali berilgan bo'lib, butun texnologik jarayonda har bir shartli birlik mahsulot uchun sarflangan mablag' shartli birliklarda quyidagi jadval orqali berilgan. Sarflangan mablag'lar qanday hisoblanadi?

|         | Urug' uchun | Qo'l mehnat uchun | Mex. Mehnat uchun | Sug'orish | O'g'it uchun |
|---------|-------------|-------------------|-------------------|-----------|--------------|
| Paxta   | 2           | 5                 | 6                 | 3         | 3            |
| Bug'doy | 3           | 0                 | 4                 | 1         | 1            |
| Sholi   | 4           | 4                 | 1                 | 5         | 1            |

**Yechish:** Texnologik jarayon deb urug' ekishdan boshlab, to hosilni yig'ib olguncha bo'lgan barcha ishlar yig'indisiga aytiladi.

Barcha xarajatlar matrisasini jadvaldan foydalangan holda

$$A = \begin{pmatrix} 2 & 5 & 6 & 3 & 3 \\ 3 & 0 & 4 & 1 & 1 \\ 4 & 4 & 1 & 5 & 1 \end{pmatrix}$$

ko'rinishda yozib olamiz. Yuqorida yillik reja shartli birliklarda  $X = (12, 4, 5)$  satr-matritsa orqali berilgan, demak sarflangan mablag'larni hisoblash uchun  $X$  va  $A$  matrisalar ko'paytmasidan foydalanib topamiz.

$$X \cdot A = (12 \quad 4 \quad 5) \cdot \begin{pmatrix} 2 & 5 & 6 & 3 & 3 \\ 3 & 0 & 4 & 1 & 1 \\ 4 & 4 & 1 & 5 & 1 \end{pmatrix} = (56 \quad 80 \quad 93 \quad 65 \quad 45)$$

Shunday qilib sarflangan mablag'lar (56 80 93 65 45) satr-matrisa ko'rinishda bo'ladi.

**3-Masala.** T vaqtda neftga bo'lgan talab chiziqli bo'lsin

$$q^t = \beta_0 + \beta_1 x_1^t + \beta_2 x_2^t + \beta_3 x_3^t + \beta_4 x_4^t + \beta_5 x_5^t$$

bu yerda yuqorigi indekslardagi t vaqt davrni ifodalaydi (darajani emas),

$x_1$  = neft narxi,  $x_2$  = o'rtacha daromad,  $x_3$  = o'rinbosar yoqilg'i narxi,

$x_4$  = komplemanin narxi (masalan, avtomobil) va  $x_5$  = aholi.

Neftga bo'lgan t vaqttdagi bu chiziqli talab vektor ko'rinishida quyidagicha ifodalanishi mumkin

$$q^t = \beta x^t = [\beta_0 \quad \beta_1 \quad \beta_2 \quad \beta_3 \quad \beta_4 \quad \beta_5] \begin{bmatrix} 1 \\ x_1^t \\ x_2^t \\ x_3^t \\ x_4^t \\ x_5^t \end{bmatrix}$$

Neftga bo'lgan talab (million barrel) ni  $q = \beta x$  modelida tushuntirish mumkin va bunda

$$\beta = [\beta_0 \quad \beta_1 \quad \beta_2 \quad \beta_3 \quad \beta_4 \quad \beta_5] = [4,2 \quad -0,1 \quad 0,4 \quad 0,2 \quad -0,1 \quad 0,2]$$

bo'lsin, deb faraz qilaylik. Tavsiflovchi o'zgaruvchilar vektori

$$x = \begin{bmatrix} 1 \\ x_1^t \\ x_2^t \\ x_3^t \\ x_4^t \\ x_5^t \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 1 \\ 30 \\ 18,5 \\ 52 \\ 12,8 \\ 61 \end{bmatrix}$$

bo'lganda neftga bo'lgan talabni hisoblash talab qilingan bo'lsin.

**Yechish.** Neftga bo'lgan talabni quyidagicha hisoblanadi

$$q = \beta x = [4,2 \quad -0,1 \quad 0,4 \quad 0,2 \quad -0,1 \quad 0,2] \begin{bmatrix} 1 \\ 30 \\ 18,5 \\ 52 \\ 12,8 \\ 61 \end{bmatrix} = [29,92]$$

Shunday qilib javob 29,92 million barrel.

**4-Masala.** Telefon apparatlarini ta'mirlovchi usta 70% telefonlarni past darajada, 20% o'rta darajada va 10% to'liq ta'mirdan chiqardi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 70% past darajada ta'mirlangan telefonlarni bir yildan keyin qayta 10% past darajada, 60% o'rta darajada, 30% ni to'liq ta'mirlashadi. O'rta darajada ta'mirlangan telefonlarni bir yildan keyin qayta 20% past darajada, 50% o'rta, 30% ni to'liq ta'mirlashadi. To'liq ta'mirlangan telefonlarni bir yildan keyin qayta 60% past darajada, 40% o'rta darajada ta'mirlashadi. Agar masala sharti shu tarzda davom etsa 1, 2, 3 – yillardan keyingi har bir darajada ta'mirlangan telefonlar



ulushini aniqlash talab qilingan bo'lsin.

**Yechish.** 1, 2, 3 – yillardan keyingi har bir darajada ta'mirlangan telefonlar ulushini aniqlashda matrisalar algebrasidan foydalanish qulay hisoblanadi.

$X_0 = (0,7 \ 0,2 \ 0,1)$  satr-matrisa orqali dastlabki ta'mirdan chiqqan telefon apparatlarini belgilaymiz.

70% past darajada ta'mirlangan telefonlarni bir yildan keyin qayta 10% past darajada, 60% o'rta darajada, 30% ni to'liq ta'mirlash, o'rta darajada ta'mirlangan telefonlarni bir yildan keyin qayta 20% past darajada, 50% o'rta, 30% ni to'liq ta'mirlash va to'liq ta'mirlangan telefonlarni bir yildan keyin qayta 60% past darajada, 40% o'rta darajada ta'mirlashlarni

$$A = \begin{pmatrix} 0,1 & 0,6 & 0,3 \\ 0,2 & 0,5 & 0,3 \\ 0,6 & 0,4 & 0 \end{pmatrix}$$

matrisa ko'rinishda yozib olsak, u holda 1, 2, 3 – yillardan keyingi har bir darajada ta'mirlangan telefonlar ulushi quyidagicha topiladi:

$$X_1 = X_0 \cdot A = (0,7 \ 0,2 \ 0,1) \cdot \begin{pmatrix} 0,1 & 0,6 & 0,3 \\ 0,2 & 0,5 & 0,3 \\ 0,6 & 0,4 & 0 \end{pmatrix} = (0,17 \ 0,56 \ 0,27);$$

$$X_2 = X_1 \cdot A = (0,17 \ 0,56 \ 0,27) \cdot \begin{pmatrix} 0,1 & 0,6 & 0,3 \\ 0,2 & 0,5 & 0,3 \\ 0,6 & 0,4 & 0 \end{pmatrix} = (0,291 \ 0,490 \ 0,219);$$

$$X_3 = X_2 \cdot A = (0,291 \ 0,490 \ 0,219) \cdot \begin{pmatrix} 0,1 & 0,6 & 0,3 \\ 0,2 & 0,5 & 0,3 \\ 0,6 & 0,4 & 0 \end{pmatrix} = (0,2585 \ 0,5072 \ 0,2343).$$

**5-Masala.** Korxonada  $n$  xil resurslardan foydalanib,  $n$  turdagi mahsulot ishlab chiqaradi.  $j$  turdagimahsulotning bir birlik miqdorini ishlab chiqarilishiga sarflanadigan  $i$ -resursning normasi  $A_{m \times n}$  matrisa bilan berilgan bo'lsin. Faraz qilaylik, korxonada ma'lum vaqt oralig'ida barcha turdagi mahsulotlardan  $x_{ij}$ -miqdorida ishlab chiqargan bo'lsin va u  $X_{n \times 1}$  matrisa bilan berilgan bo'lsin. Berilgan vaqt oralig'ida yalpi mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan barcha turdagi resurslarning matrisasi  $S$ -topilsin.

$$\text{Berilgan: } A_{4 \times 3} = \begin{pmatrix} 2 & 5 & 3 \\ 0 & 1 & 8 \\ 1 & 3 & 1 \\ 2 & 2 & 3 \end{pmatrix}, \quad X_{3 \times 1} = \begin{pmatrix} 100 \\ 80 \\ 110 \end{pmatrix}$$

**Yechish.** Sarflangan barcha resurslar matrisasi  $S$  berilgan  $A$  va  $X$  matrisalarning ko'paytmasiga tengdir, ya'ni

$$S = A \cdot X$$

Masala shartiga ko'ra

$$S = A \cdot X = \begin{pmatrix} 2 & 5 & 3 \\ 0 & 1 & 8 \\ 1 & 3 & 1 \\ 2 & 2 & 3 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 100 \\ 80 \\ 110 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 930 \\ 960 \\ 450 \\ 690 \end{pmatrix}$$

Demak, berilgan muddatda 930 birlik 1-turdagi resurslar, 960 birlik 2-turdagi resurslar, 450 birlik 3-tur va 600 birlik 4-yurdagi resurslar sarf qilinar ekan.

**6-Masala.** Oldingi masala shartida qo'shimcha har bir resursning tannarxi berilgan bo'lib, u  $P_{1 \times m}$  matrisa bilan aniqlansin.

Agar  $P_{1 \times 4} = (10, 20, 10, 10)$  bo'lsa, berilgan muddatda sarflangan barcha resurslarning to'liq narxi aniqlansin.

**Yechish.** Sarflangan barcha resurslarning narxini aniqlaydigan  $C$  matrisa berilgan  $P$  va  $S$  matrisalarning ko'paytmasi bilan aniqlanadi, ya'ni

$$C = P \cdot S \quad \text{yoki} \quad C = P \cdot A \cdot X$$

$$\text{Demak, } C = (10, 20, 10, 10) \cdot \begin{pmatrix} 930 \\ 960 \\ 450 \\ 690 \end{pmatrix} = 3990 \text{ (pul birligi)}$$

Biz bu maqolada matrisa, determinantlar va chiziqli tenglamalar sistemasi yordamida iqtisodiy masalaning matematik modelini tuzib va shu model asosida masalaning yechish sxemasi keltirdik va bir nechta misollarda buni qo'lladik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

A.G.Kurosh Oliy algebra kursi. Toshkent "O'qituvchi" 1976

Uzoqboyev, A., Abdullayev, S., & Abriyev, N. (2023). Robototexnik mexanizmlarning maxsusliklarini izlashda matritsaviy usulning qo'llanishi. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(1), 92-100.

Abdullayev S. Qisqartma konuslarini topish. Innovations in Technology and Science Education, 2(11), 90-93. (2023)

5. Sh.A.Ayupov, B.A.Omirov, A.X.Xudoyberdiyev, F.H.Haydarov Algebra va sonlar nazariyasi (o'quv qo'llanma). Toshkent. "Tafakkur-bo'stoni" 2019.

6. Jo'rayeva N. O., Vaxshulloeva D. Masalalarni tenglamalar yordamida yechish metodikasi. Образование и наука в XXI веке». Выпуск №26 (том 6) (май, 2022). -561-571 стр

7. Брюно А.Д. Солеев А. Локальная униформизация ветвей пространственной кривой и многогранники Ньютона // Алгебра и анализ Т. 3, вып. 1, (1991), С. 67-102.

8. A.Soleev, X.Nosirova. Darajali geometriyaning chiziqli bo'lmagan masalalarga qo'llanilishi. Monografiya. Samarqand: SamDU, 2017.

9. Баротов А.С. Алгоритм вычисления особенностей алгебраических кривых возникающих в робототехнике// Узбекский математический журнал.-Ташкент, 2011.-№ 1.-С.11-20.

10. Брюно А.Д. Солеев А. Локальная униформизация ветвей пространственной кривой и многогранники Ньютона // Алгебра и анализ Т. 3, вып. 1, (1991), С. 67-102.

11. Брюно А.Д. Солеев А. Классификация особенностей функции положения механизмов// Проблемы машиностроения и надежности машин. № 1, 1994.С.102-109.

## PECULIARITIES OF DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH

*Alaudinova Dilnoza Rustam qizi,  
Doctor of philosophy on pedagogical sciences (PhD), Termez state university  
<http://orcid.org/0009-0007-1704-8501>*

*Abstract. There are four major components of communicative competence. The components are as follows: linguistic competence, sociolinguistic competence, discourse competence, and strategic competence. The term communicative competence was originally defined by a man named Dell Hymes in 1966. He was reacting against the perceived deficiency of an American linguist. His discovery and explanation of how people speak in different situations formed what is known as communicative competence today.*

*Key words: translation, English, important, exercise, engage in, competence*

## ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

*Алаудинова Дильноза Рустам кызы,  
Доктор философии по педагогическим наукам (PhD), Термезский государственный университет*

*Аннотация. Выделяют четыре основных компонента коммуникативной компетентности. Компоненты следующие: лингвистическая компетентность, социолингвистическая компетентность, дискурсивная компетентность и стратегическая компетентность. Термин «коммуникативная компетентность» был первоначально определен человеком по имени Делл Хаймс в 1966 году. Он реагировал на очевидный недостаток американского лингвиста. Его открытие и объяснение того, как люди говорят в разных ситуациях, сформировали то, что сегодня известно как коммуникативная компетентность.*

*Ключевые слова: перевод, английский язык, важно, упражнение, заниматься, компетентность.*

## INGLIZ TILIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Alaudinova Dilnoza Rustam qizi,  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Termiz davlat universiteti*

*Annotatsiya: Kommunikativ kompetentsiyaning to'rtta asosiy komponenti mavjud. Komponentlar quyidagilardan iborat: lingvistik kompetentsiya, sotsiolingvistik kompetentsiya, nutqiy kompetentsiya va strategik kompetentsiya. Kommunikativ kompetentsiya atamasi dastlab 1966 yilda Dell Xayms ismli kishi tomonidan ta'riflangan. U amerikalik tilshunosning tanqisligiga qarshi munosabat bildirgan. Uning kashfiyoti va odamlarning turli vaziyatlarda qanday gapirishlari haqidagi tushuntirishlari bugungi kunda kommunikativ kompetentsiya deb ataladigan narsani shakllantirdi.*

*Kalit so'zlar: tarjima, inglizcha, muhim, mashq qilish, shug'ullanish, Malaka*

*Introduction. Communicative competence is important because it allows people of all different levels linguistically to speak to each other. It similarly allows for more positive interactions amongst one another. For example, teenagers would likely speak differently to their friends than they would to their grandmother or teacher.*

*The communicative competence definition is the capacity to utilize language in a grammatically correct way in different and appropriate social settings. The model of communicative competence deals with the functional parts of communication. It similarly deals with the correct use of the linguistic system. When both sides are balanced, language fluency comes into play. Simply put, communicative competence refers to how effectively one can communicate with someone else.*

*Literary review. Dell Hymes initially coined the term in 1966 when reacting against the perceived deficiency of Noam Chomsky's contrast between performance and competence. Chomsky was an American linguist famous for his analysis of the English language. Hymes dived into the ethnographic exploration of communicative competence to address the abstract notion of competence. He discovered that people speak differently in unique situations, which is a fact that most should accept as positive. Hymes' use of the term has evolved into what it is today.*

The goal of a competence-based approach is to ensure the quality of education by creating students' competencies that a future graduate can independently apply in professional activities. That is, students receive a large amount of practice during their time in higher education. Besides, they do not only receive a certain amount of theoretical knowledge, but also get opportunity to apply them in real professional conditions. Many scientists believe that competencies are acquired actions that ensure independent and creative implementation of professional activities (Hamitowa, 2017). The federal state standard of higher education defines them as a complex characteristic of the student's readiness to use the knowledge, skills and personal qualities obtained in standard and changing situations of professional activity (Ilyashenko et al, 2018a). B.I. Hassan asserts that competences are goals, competence is a result, and the measure for achieving them is an indicator of competence. That is, to date, there has been a transfer of priorities from the content of training to the results of educational activities, which students must demonstrate at the end of training. The focus of competence is to assess the competitiveness and relevance of graduates in the labor market (Tosolt 2010). The general problem of the formation of competencies has been studied by researchers for several years. This question is presented in the works of E.F. Zeer, G.K. Selevko, G.S. Trofimova, A.V. Farmhouse. The topic of the formation of competences with the use of e-learning tools is addressed by PK Petrov, O.A. Kozlov, T.A. Avalanche, A.A. Andreev, I.V. Sergienko. In our opinion, the acquisition of communicative competences is a prerequisite for the formation of a diverse personality, a competent professional (Garina, 2018). However, the issue of their formation remains open, since compliance with the requirements of the Federal State Educational Standards of Higher Education forces higher schools to reduce the amount of classroom pressure. We cannot fail to note that in order to preserve the quality of the educational services provided, electronic educational resources are important, since the use of traditional learning is losing its relevance (Ilyashenko et al, 2018b). Blended learning (using electronic technologies) has the most positive effect on graduate training in the context of the competence approach. Communicative competence solely depends on a person's age, skillset range, and overall intelligence. It can vary from age to age and from person to person. Below are two different examples of communicative competence.

Discussions. Michael Canale and Merrill Swain developed a model of communicative competence that consists of four distinct components: linguistic, sociolinguistic, discourse, and strategic. Respectively, competence in each area refers to one's ability to understand language and grammar, understand cultural knowledge, have competent conversational skills, and maintain control over language gaps. Depending on the person, one may be communicatively competent in two or three of these components or in all four. A person must be competent in at least one of these components to be considered for Canale and Swain's model.

In the process of acquiring communicative competence, both the teacher and the student go through several stages, to which we can attribute tolerance, understanding and acceptance of a foreign language, as well as ways of behavior in problematic communicative situations, knowledge of grammar and vocabulary. The four components of which any language teaching is based: reading, writing, speaking and listening to speech: we pay special attention to the last two. Communicative competence is the knowledge, skills and abilities necessary to understand others and create their own systems of speech behavior that correspond to the goals and situations of communication. Communicative competence has a complex character, it is a combination of speech, linguistic and educational-cognitive competencies. Communicative learning involves the formation of a communicative concept, that is, internal readiness and ability for verbal communication, orienting students to "enter" another cultural space.

Results. The communicative method, first of all, is designed to remove the fear of communication. It is very difficult to master communicative competence in English without being in the country of the language being studied. Therefore, an important task of the teacher is to create real and imaginary situations of communication in a foreign language lesson using various methods of work. The next method of developing communicative competence is the use of a lesson-excursion. The project method is one of the interactive methods of modern teaching, which makes it possible for students to effectively master foreign language communicative competence. The following stages can be distinguished in the project, corresponding to educational activities: motivational; planning- preparatory; information-operational; reflexive-evaluative. In general, the project method allows students to:

- show knowledge in the field of the language system;
- choose the right linguistic form, method of expression, depending on the communicative purpose and intention of the speaker; We use this method in a generalizing lesson on a specific topic. In order for the process of mastering a foreign language to be more successful, we try to look for new methodological techniques

that develop cognitive interest in learning and form a stable positive motivation for the subject. One of these techniques in English lessons is the “explanation” technique. We should give the students purely material in English and suggest that they determine what is being discussed there, that is, as if we are immersing ourselves in the language, that is, they should guess for themselves. Middle-level students are happy to explain to each other what they saw on the video, thereby developing oral communicative competence.

Conclusion. The methods of communicative methodology help in the formation of communicative competence, where the most common types of works are: pair work, work in small groups, general discussions, exchange of impressions, the use of roleplaying games. In conclusion that communicative competence is one of the most important components in teaching English, and the use of modern computer technologies, various methods and techniques in teaching make this process more successful and exciting.

#### Used literature

1. Алаудинова, Дилноза. «Written translation of texts related to different spheres.» Зарубежная лингвистика и лингводидактика 2.1 (2024): 13-18.
2. Алаудинова, Дилноза. «Frazeologik (turg'un) birikmalar va ularni tarjima qilish usullari.» Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 3.S/9 (2023).
3. Алаудинова, Дилноза. «Связь стилистики и когнитивной лингвистики на уроках языка.» Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков 1.1 (2023): 95-99.
4. Алаудинова, Дилноза. «Теоретический подход к компетенции устного общения.» Общество и инновации 3.3 (2022).
5. Алаудинова, Д. «Оғзаки Нутқни Ўстиришга Доир Ўтказилган Педагогик Тажриба Синов Натижалари.» О 'Zbekiston Respublikasi Oliy Va O 'Rta Maxsus Ta'lim Vazirligi O 'Zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti O 'Zbek Tili Va Adabiyoti Kafedra: 187.
6. Kizi, Alaudinova Dilnoza Rustam. «Lexical errors and shortcomings in the translation process.» European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies 3.10 (2023): 275-280.
7. Алаудинова, Дилноза. «Frazeologik (turg'un) birikmalar va ularni tarjima qilish usullari.» Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 3.S/9 (2023).

## MAKTABGACHA YOSHDAGI INTELLEKTIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIK DIAGNOSTIKASI

*Amirsaidova Shahnoza,  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, p.f..n*

*Bozorboyeva Nigora,  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi intellektida kamchiligi bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning dolzarbligi asoslab berilgan. Maqolada ushbu kontingentdagi bolalarni maktabga tayyorgarlikning darajasini aniqlashga qaratilgan empirikk tadqiqot metodikasi va natijalari keltirigan.*

*Tayanch so'zlar: aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar, maktab, maktabgacha yosh, maktabga tayyorlik, ixtiyoriy diqqat, shaxs.*

## ДИАГНОСТИКА ГОТОВНОСТИ К ШКОЛЬНОЙ ГОТОВНОСТИ ДЕТЕЙ С ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМИ ДЕФИЦИТАМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

*Амирсаидова Шахноза,  
Доцент Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами, к.п.н.*

*Бозорбаева Нигора,  
Аспирант Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами*

*Аннотация: В данной статье обоснована актуальность подготовки дошкольников к школе с нарушениями интеллектуального развития. В статье представлены методика и результаты эмпирического исследования, направленного на определение уровня готовности детей данного контингента к школе.*

*Ключевые слова: дети с нарушениями интеллектуального развития, школа, дошкольный возраст, готовность к школе, произвольное внимание, личность.*

## DIAGNOSTICS OF SCHOOL READINESS OF CHILDREN WITH INTELLECTUAL DEFICIENCIES OF PRE-SCHOOL AGE

*Amirsaidova Shahnoza,  
Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Ph.D*

*Bozorbayeva Nigora,  
Graduate student of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

*Abstract: this article is based on the relevance of preparing preschool children for school with a disability in mental development. The article cited the empirical research methodology and results aimed at determining the level of school readiness for children in this contingent.*

*Key words: children with mental developmental disabilities, school, preschool age, readiness for school, voluntary attention, personality.*

Kirish. Barkamol avlod deganda, avvalo, sog'lom nasl tushuniladi. Shu bois o'tgan yillar mobaynida yoshlarimizda nafaqat yuksak intellektual salohiyat, mustaqil fikr, keng dunyoqarashni shakllantirishga, balki ularni jismonan chiniqtirishga, ommaviy sportni rivojlantirishga, mamlakatimizning barcha xududlarida, xususan chekka qishloqlarda ham zamonaviy shart-sharotlar yaratilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Uzluksiz ta'limning ilk bosqichi sifatida maktabgacha ta'limga e'tibor bevosita shaxs rivoji, kamolotiga, baxtli farzandlarni voyaga yetkazishga g'amxo'rlik sifatida ifodalanadi. Shunday ekan ushbu qaror asosida amalga oshirilajak ishlar maktabgacha ta'lim tizimini, yanada takomillashtirib, samarali va zamonaviy ko'rinishga olib chiqadi. Aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi mavzusi hozirgi kunda juda dolzarbdir. Bolaning moslashishi va keyingi rivojlanishi uchun erta yoshda rivojlanish buzilishlarini tashxislash muhimdir. Intellektual yetishmovchilikda maktabgacha ta'limning ahamiyati juda yuqoridir. O'quv jarayonini to'g'ri

tashkil etish bilan bolaning orqada qolgan funktsiyalarini korreksiya qilish, uni ixtisoslashtirilgan maktabda o'qishga tayyorlash va jamiyatga moslashtirish mumkin. Shuning uchun maktab yoshidagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganishdagi ancha dolzarb muammolarda maktabga tayyorlashning samarali usullar va sharoitlarini tadqiq qilish zaruratini qayd etish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, maktab ta'limi va o'quv faoliyati aniq tushunchalardan uzoqdir. Maktab hayotini zamonaviy tashkil etish bilan, V. V. Davydov va D. B. Elkonin ta'kidlaganidek, o'quv faoliyati barcha o'quvchilarda rivojlanmaydi va o'quv faoliyatini o'zlashtirish ko'pincha maktab doirasidan tashqarida sodir bo'ladi. Shuning uchun maktabga psixologik tayyorgarlik muammosi ta'lim va hayotning mavjud an'anaviy shakllariga psixologik tayyorgarlik sifatida emas, balki maktabgacha yoshdagi o'quv faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar va manbalarning mavjudligi sifatida tushunilishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maktabda o'qishga tayyorlik aqliy faoliyatning ma'lum bir rivojlanish darajasini, kognitiv jarayonlarni, o'quvchining ijtimoiy pozitsiyasini qabul qilish qobiliyatini, bilish faoliyati va xatti-harakatlarini ixtiyoriy tartibga solishni o'z ichiga oladi. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning maktabga tayyorgarligini o'rganish maqsadida empirik tadqiqot amalga oshirildi. Tadqiqot bazasini 480-sonli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil qildi. Tadqiqot qatnashchilari sifatida katta maktabgacha yoshdagi bolalar orasidan 10 nafar bola – maktabgacha ta'lim tashkiloti bitiruvchilari saralanib olindi. Empirik tadqiqotni amalga oshirishda aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga tayyorgarligini aniqlash, diagnostika natijalarini taqqoslash, maktab ta'limi uchun muhim bo'lgan funktsiyalarning shakllanish darajasini aniqlash kabi vazifalar qo'yildi. Empirik tadqiqot 5ta blokdan tashkil topgan bo'lib:

1 blok.Ixtiyoriy diqqat va faoliyatni tartibga solish diagnostikasi (N. I. Gutkinaning «Uycha» metodikasi, «Grafik naqsh», «Tasvirlarni taqqosla»).

2 blok.Aqliy rivojlanish diagnostikasi («4chi ortiqcha»metodikasi).

3 blok.Umumiy xabardorlik va nutqiy rivojlanishning diagnostikasi (erkin suhbatda).

4 blok.Ta'lim uchun muhim qobliyatlar diagnostikasi (U. V. Ulenkovning» Archani yasash» metodikasi)

5 blok.Ta'lim motivatsiyasining shakllanganlik darajasini aniqlash ( L. I. Bojovich va N. I. Gutkinaning so'rovnomasi asosida).

Empirik tadqiqotning natijalariga ko'ra aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar 4 darajaga taqsimlandi (1-rasm):


1 daraja – bolalar o'z bajargan vazifa natijasini ob'ektiv baxolaydi, topshiriqlarni bajarish tamoyillarini tushunadi, aniq mantiqiy qoidalarga asoslanib namuna bilan taqqoslaydi. Tadqiqot natijasiga ko'ra aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar guruhidan 1 darajaga mansub bolalar aniqlanmadi va 0% ni tashkil qildi.

2 daraja – bolalar vazifani umumiy maqsad bilan yo'nalgan xolda bajarishga shoshiladi, kerakli natijaga erishmaydi va buni anglamaydi. O'z hoxishiga ko'ra namuna bilan o'zi ishining natijasini taqqoslamaydi. Taqqoslashni tadqiqotchi atgandan keyin amalga oshiradi va keyingina mustaqil xatolarini to'g'irlay boshlaydi. Tadqiqot qatnashchilari sarasidan bu darajadagi bolalar 20% (2 nafar bola) ni tashkil qildi.

3 daraja – bolalar qayta qayta chamalsh orqali vazifani amalga oshiradi, va natijada bari'bir xatolar qilishadi. Xatolarni payqamaydi va o'z ishining natijasini noadekvat baholaydi. O'z harakatlarini batafsil tushuntirib bera olmadi. Tadqiqot qatnashchilari sarasidan bu darajadagi bolalar 70% (7 nafar bola) ni tashkil qildi.

4 daraja – bolalar maqsadni qisman qabul qilishdi. Shakllarni qaerga qo'yish kerakligi, qandaydir rasm chizishi kerakligini tushunishadi. Namuna nimaga kerakligini tushunishmaydi. Vazifani to'g'ri bajarmasa xam natijadan mamnun bo'lishdi. O'z ishining natijasini noadekvat baholaydi.

Мактабгача yoshdagi intellektida kamchiligi bo'lgan bolalarda maktabga tayyorgarlik ko'nikmalarini tekshirish natijalari



Empirik tadqiqotning natijasi shuni ko'rsatdiki, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda tashqi, pozitsion va o'yin motivlari mavjud bo'lib, bu o'quv motivlari shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar.

Shunday qilib, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda o'rganish qobiliyati past darajadali gini k'uriш mumkin. Empirik tadqiqotda qatnashgan maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatning ayrim xususiyatlari bilan ajralib turadi: bolalarning diqqati beqarorlik bilan tavsiflanadi, persektiv operatsiyalarini bajarish tezligi pasayadi; xotira hajmi cheklangan, xotiraning sustligi, xajmi kichikligi bilan ajralib turadi. Maktabgacha yoshga kelib bu kontingentdagi bolalarda mantiqiy tafakkur shakllanmagan b'lib bu quyidagilarda namoyon bo'ldi: bolalar faqatgina ko'rgazma asosida umumlashirish operatsiyasini amalga oshirishga muvaffaq bo'ldilar, verbal vazifa materiallari asosida umumlashirishda bolalar qiyinchiliklarga duch kelishdi.

Aqliy rivoshlanishida muammosi bo'lgan bolalarda maktabga tayyorgarlikning intellektual va shaxs jihatidan nomukammalliklar namoyon bo'ldi. Umumiy jismoniy holatning nosog'lomligi, ishchanlikning sustligi, charchoqning tez yuzaga kelishiga va diqqatning beqarorligiga olib keldi.

Aqli zaif bolalarda maktab tayyorgarligini shakllantirishni kechiktiradigan umumiy sabablar: asab jarayonlarning inertligi, qattiqligi, bu ishlashning pasayishiga, charchoq va chalg'itishning kuchayishiga, maqsadli harakatlarning yo'qligiga, atrof-muhitga qiziqishning pasayishiga olib keladi; atrofda mo'ljal olish faoliyatning past darajasi; amaliy hissiy tajribani cheklash bilan bog'liq bo'lgan motorikani rivojlanmaganligi; faoliyatning yetarli emasligi, analizatorlarning o'zaro ta'sirining nomukammalligi, bu hissiy tajribani to'plashni qiyinlashtiradi; nutqning kech va nuqsonli rivojlanishi (lug'atning kambag'alligi, o'z bayonotlarini shakllantirishdagi qiyinchiliklar, bolaga qaratilgan nutqni tushunmaslik).

Xulosa.

Intellektual yetishmovchiligi bo'lgan bola bilan korreksion ishlarini erta boshlash nuqsonni iloji boricha yumshatishga va ikkilamchi nuqsonlarning paydo bo'lishining oldini olishga imkon beradi. Bola shaxsining barcha tomonlarini rivojlantirishga qaratilgan korreksion va rivojlantiruvchi faoliyat tizimi unga ijtimoiylashishning asosiy ko'nikmalarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Божович, Л.И. Психологические вопросы готовности ребенка к школьному обучению [Текст] / Л.И. Божович // Вопросы психологии ребенка дошкольного возраста. М.: Изд-во АПН, 1996.
3. Венгер, Л.А. Психологические вопросы подготовки детей к обучению в школе / Л.А. Венгер. М.: Просвещение, 1999. 289 с.
4. Выготский, Л.С. Проблема обучения и умственного развития в школьном возрасте [Текст]: хрестоматия по возрастной психологии / Под ред. О.А. Карабановой, А.И. Подольского. М.: Владос, 1999.
5. Кравцова, Е.Е. Психологические проблемы готовности детей к обучению в школе / Е.Е. Кравцова. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. 267 с.
6. Мухина, Т.П. Возрастная психология [Текст]: учеб. Для студентов пед. инс-тов / Под ред. Л.А. Венгера. – М.: Просвещение, 1995.
7. Нижегородцева, Н.В., Шадриков, В.Д. Психолого-педагогическая готовность ребёнка к школе / Н.В. Нижегородцева, В.Д. Шадриков. М.: Гуманитарный центр «ВЛАДОС», 2015. 256 с.



## BO'LAJAK PEDAGOGIK OTM MUTAXASSISLARINING EKOESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Ashurova Oygul Anvarjonovna,  
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

*Annotatsiya: Barqaror rivojlanish va ekologik ongni ta'minlash yo'lida oliy ta'lim dasturlariga ekoestetik qadriyatlarni integratsiya qilish zarur. Ushbu maqola bo'lajak pedagogik mutaxassislarda ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning texnologik yondashuvlarini o'rganadi. Ta'lim nazariyalari, atrof-muhit psixologiyasi va texnologik yutuqlar sintezi orqali ushbu maqola o'qituvchilar o'rtasida ekologik ong va estetik qadrlashni rivojlantirish strategiyalarini belgilaydi. Raqamli platformalar, immersiv tajribalar va interfaol vositalardan foydalangan holda, o'qituvchilar o'quvchilarda barqarorlik va tabiiy go'zallikni qadrlash uchun chuqur o'rnashgan majburiyatlarni singdirishi mumkin. Texnologiyani ekologik-estetik ta'limning yordamchisi sifatida qabul qilgan holda, oliy ta'lim muassasalari kelajakdagi pedagogik mutaxassislariga atrof-muhitni muhofaza qilish va estetik sezgirlikni rivojlantirishda ijobiy o'zgarishlar agenti bo'lish imkoniyatini berishi mumkin.*

*Kalit so'zlar: Texnologiya, Ekoestetik madaniyat, Oliy ta'lim, Pedagogika, Barqarorlik.*

## TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF ECOAESTHETIC CULTURE OF FUTURE PEDAGOGICAL AUTOMATION SPECIALISTS

Ashurova Aygul Anvarjonovna,  
teacher at Fergana State University

*Abstract: In the pursuit of sustainable development and environmental consciousness, the integration of eco-aesthetic values into higher education curricula is imperative. This article explores the technological approaches to developing an eco-aesthetic culture among future pedagogic specialists. Through a synthesis of educational theories, environmental psychology, and technological advancements, this paper delineates strategies for fostering eco-consciousness and aesthetic appreciation among educators-in-training. Leveraging digital platforms, immersive experiences, and interactive tools, educators can instill in students a deep-seated commitment to sustainability and the appreciation of natural beauty. By embracing technology as a facilitator of eco-aesthetic education, higher education institutions can empower future pedagogic specialists to become agents of positive change in promoting environmental stewardship and aesthetic sensibility.*

*Keywords: Technology, Eco-aesthetic culture, Higher education, Pedagogy, Sustainability.*

## ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ЭКОЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ АВТОМАТИЗАЦИИ

Ашурова Айгуль Анварджоновна,  
преподаватель Ферганского государственного университета.

*Аннотация: В стремлении к устойчивому развитию и экологическому сознанию интеграция экоэстетических ценностей в учебные программы высшего образования является обязательным условием. В данной статье исследуются технологические подходы к формированию эколого-эстетической культуры у будущих специалистов-педагогов. Посредством синтеза образовательных теорий, экологической психологии и технологических достижений в этой статье описываются стратегии развития экологического сознания и эстетического восприятия среди обучающихся педагогов. Используя цифровые платформы, иммерсивный опыт и интерактивные инструменты, преподаватели могут привить учащимся глубокую приверженность устойчивому развитию и понимание природной красоты. Принимая технологии в качестве средства содействия экоэстетическому образованию, высшие учебные заведения могут дать будущим специалистам-педагогам возможность стать проводниками позитивных изменений в продвижении бережного отношения к окружающей среде и эстетической чувствительности.*

*Ключевые слова: Технологии, Экоэстетическая культура, Высшее образование, Педагогика, Устойчивое развитие.*

*Kirish: Atrof-muhit muammolari va barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan davrda oliy ta'lim muassasalari bo'lajak pedagogik mutaxassislarda ekologik ong va estetik sezgirlikni rivojlantirish zarurligini*

tobora ko'proq e'tirof etmoqda. Ekologik estetik qadriyatlarni pedagogik mashg'ulotlarga integratsiyalashuvi o'qituvchi-pedagoglarning munosabati, xulq-atvori va o'qitish amaliyotini shakllantirishda chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muqaddima texnologiyaning kesishuvini o'rganish va oliy ta'limda ekoestetik madaniyatni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Insoniyat iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va atrof-muhit degradatsiyasi kabi dolzarb ekologik inqirozlar bilan kurashar ekan, inson farovonligi va sayyoramiz salomatligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tobora ortib bormoqda. Pedagoglar kelajak avlodlarning dunyoqarashi va xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, ularni atrof-muhitni muhofaza qilish va estetik qadrlashni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qadriyatlar bilan qurollantirishni ta'minlaydi.

Ekoestetik madaniyat tushunchasi ekologik ong va estetik sezuvchanlik integratsiyasini qamrab oladi, ekologik barqarorlik va tabiiy go'zallikni qadrlash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlaydi. Bu nafaqat ekologik tamoyillar va amaliyotlarni tushunishni, balki tabiiy dunyoning o'ziga xos qiymatiga chuqur hurmat va uning hayotiylikini ta'minlash majburiyatini ham o'z ichiga oladi.

Atrof-muhit psixologiyasi, estetik nazariya va pedagogik tamoyillar kabi nazariy asoslarga tayangan holda, ushbu maqola bo'lajak pedagogik mutaxassislarda ekoestetik madaniyatni tarbiyalashda texnologiya imkoniyatlarini yoritib beradi. Raqamli vositalar, immersiv tajribalar va interfaol platformalardan foydalanish orqali o'qituvchilar o'quvchilarni tabiat bilan chuqur bog'lanish va uning estetik boyligini qadrlashga yordam beradigan o'zgaruvchan ta'lim tajribalariga jalb qilishlari mumkin.

Nazariy asos:

Bo'lajak pedagog mutaxassislarda ekoestetik madaniyatni rivojlantirish atrof-muhit psixologiyasi, estetik nazariya va pedagogik tamoyillardan olingan tushunchalarni sintez qiluvchi mustahkam nazariy asos bilan ta'minlanadi. Ushbu bo'limda oliy ta'lim o'quv dasturlarida ekologik ong va estetik sezgirlikning integratsiyasini ta'minlovchi nazariy asoslar yoritilgan.

Atrof-muhit psixologiyasi odamlar va ularning tabiiy muhiti o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik haqida qimmatli tushunchalarni taqdim etadi. Atrof-muhit psixologiyasi o'z mohiyatida inson farovonligi va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlab, atrof-muhit omillarining kognitiv, emotsional va xulq-atvor jarayonlariga chuqur ta'sirini ko'rsatadi. Ekoestetik ta'limning markaziy o'rinini Edvard O. Vilson tomonidan ishlab chiqilgan biofilia tushunchasi tashkil etadi, bu tushuncha odamlarda tabiatga tug'ma yaqinlik borligini ta'kidlaydi. Ekoestetik ta'lim tabiat bilan chuqur bog'lanishni o'rnatish orqali ekologik o'ziga xoslik va daxldorlik tuyg'ularini tarbiyalashga, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, unga ehtirom bilan munosabatda bo'lishga intiladi.

Estetik nazariya go'zallik, ijodkorlik va sezgi tajribasining mohiyatini tushunish uchun falsafiy asos yaratadi. Immanuel Kant va Jon Dyui kabi faylasuflar asarlaridan ildiz otgan estetik nazariya inson borlig'ini boyitishda estetik qadrlashning ichki ahamiyatini ta'kidlaydi. Ekoestetik ta'lim bu doirani tabiiy landshaftlar, ekotizimlar va hodisalarga xos estetik fazilatlarini yoritib berish orqali kengaytiradi. Ekoestetik ta'lim tabiat dunyosining go'zalligi va xilma-xilligini qadrlashni rag'batlantirish orqali hissiy faollikni, xayoliy izlanishni va hissiy rezonansni rag'batlantiradi, odamlarning atrof-muhit bilan aloqasini chuqurlashtiradi va ekologik fuqarolik tuyg'usini tarbiyalaydi.

Pedagogik tamoyillar ta'lim sharoitida o'rganish va rivojlanishga yordam berish strategiyalari va yondashuvlarini belgilaydi. Ekoestetik pedagogikaning markaziy o'rni eksperimental ta'lim tushunchasi bo'lib, u o'quvchilarni atrof-muhit hodisalarini tadqiq qilish va izohlashda faol jalb qiluvchi amaliy, immersiv tajribalarga urg'u beradi. So'rovga asoslangan ta'lim va loyihaga asoslangan ta'lim kabi konstruktiv yondashuvlar talabalarga faol so'rov, hamkorlik va mulohaza yuritish orqali ekologik tushunchalar va tamoyillar haqidagi tushunchalarini shakllantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ijtimoiy-madaniy nuqtai nazarlar odamlarning atrof-muhitga munosabati va xatti-harakatlarini shakllantirishda ijtimoiy o'zaro ta'sirlar, madaniy kontekstlar va jamoaviy qadriyatlarning rolini ta'kidlaydi, ekologik hamjamiyat va umumiy mas'uliyat hissini rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi.

Atrof-muhit psixologiyasi, estetik nazariya va pedagogik tamoyillarning integratsiyasi oliy ta'limda ekoestetik madaniyatni rivojlantirish uchun yaxlit nazariy asos yaratadi. Ushbu fanlar bo'yicha tushunchalarni sintez qilish orqali o'qituvchilar nafaqat ekologik savodxonlik va estetik sezgirlikni, balki axloqiy ongni, tanqidiy fikrlashni va empatik faollikni rivojlantiradigan o'quv tajribalarini ishlab chiqishlari mumkin. Bundan tashqari, ekologik estetik ta'limni mustahkam nazariy asosga asoslash orqali o'qituvchilar inson farovonligi, atrof-muhitning barqarorligi va estetik qadrlash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq tushunishga yordam beradi, talabalarga

o'zlarining kasbiy amaliyotlarida ijobiy o'zgarishlar katalizatori bo'lish va keng qamrovli bo'lish imkoniyatini beradi.

Texnologiya bo'lajak pedagog mutaxassislarda ekoestetik madaniyatni tarbiyalashda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi, o'quvchilarni ekologik ong va estetik sezgirlikni rivojlantiruvchi immersiv ta'lim tajribasiga jalb qilish uchun innovatsion yondashuvlarni taklif etadi. Ushbu bo'limda o'qituvchilar ekoestetik ta'limni oliy ta'lim o'quv dasturlariga integratsiya qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan turli texnologik yondashuvlarni o'rganadi.

Virtual haqiqat (VR) texnologiyasi foydalanuvchilarni raqamli simulyatsiya qilingan muhitlarga cho'ndirib, ularga tabiiy landshaftlar, ekotizimlar va hodisalarning real tasvirlarini o'rganish va ular bilan o'zaro muloqot qilish imkonini beradi. VR simulyatsiyalaridan foydalangan holda, o'qituvchilar talabalarni uzoq cho'l hududlariga, marjon riflari yoki yomg'ir o'rmonlariga olib borishlari mumkin, ularga biologik xilma-xillik, ekotizim dinamikasi va atrof-muhit o'zgarishi haqida bevosita tajribalar berishlari mumkin. VR simulyatsiyalari tabiat bilan chuqur bog'lanishni va uning estetik boyligini qadrlashni kuchaytirib, hissiy ishtirokni, fazoviy idrokni va hissiy singdirishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, VR platformalari o'qituvchilarga shaxsiylashtirilgan va ekoestetik ta'limni qo'llab-quvvatlovchi turli xil o'rganish uslublari va afzalliklariga mos keladigan moslashtirilgan o'quv tajribalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyasi raqamli ma'lumotlarni real dunyo sozlamalariga qo'shib, foydalanuvchilarning idrokini va atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini kuchaytiradi. AR ilovalari virtual elementlarni jismoniy muhit bilan uyg'unlashtirgan interaktiv o'rganish tajribasini taklif etadi, bu esa talabalarga kontekstda ekologik tushunchalar va hodisalarni tasavvur qilish va o'rganish imkonini beradi. Masalan, AR ilovalari o'simliklar, hayvonlar yoki geologik shakllanishlar kabi tabiiy ob'yektlarga ma'lumotli qatlamlarni qo'shib, ekologik munosabatlar, moslashuvlar va ekologik xizmatlarning kontekstli tushuntirishlarini taqdim etishi mumkin. AR texnologiyasidan foydalangan holda, o'qituvchilar mavhum tushunchalar va real dunyo kontekstlari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish bilan birga, ekologik savodxonlik va estetik qadrlashni rivojlantiruvchi qiziqarli va interaktiv o'quv tajribalarini yaratishi mumkin.

Gamifikatsiya usullari o'quvchilarni o'quv maqsadlariga erishishda rag'batlantirish va jalb qilish uchun o'yin dizayni tamoyillarini ta'lim kontekstiga birlashtiradi. Qiyinchiliklar, mukofotlar va teskari aloqa mexanizmlari kabi o'yin elementlarini o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar barqaror xatti-harakatlarni rag'batlantirishlari va talabalar o'rtasida ekologik toza amaliyotlarni rivojlantirishlari mumkin. Masalan, o'yinga o'rnatilgan ilovalar o'quvchilarni virtual mukofotlar, peshqadamlar reytingi va ijtimoiy rag'batlarni taklif qilish orqali qayta ishlash, energiya tejash yoki barqaror transport kabi ekologiyaga asoslangan tadbirlarda ishtirok etishga undashi mumkin. Gamifikatsiya tajribaviy o'rganish, maqsadga yo'naltirilgan xulq-atvor va ichki motivatsiyani rag'batlantiradi, o'quvchilarga kundalik hayotlarida ekologik ongli odatlar va munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, o'yinlashtirilgan yondashuvlar hamkorlikda o'rganish va tengdoshlarning o'zaro ta'sirini osonlashtiradi, jamiyat tuyg'usini va atrof-muhitni boshqarish bo'yicha umumiy mas'uliyatni rivojlantiradi.

Ijtimoiy media platformalari eko-estetik kontentni tarqatish, onlayn amaliyot hamjamiyatlarini rivojlantirish va o'qituvchilar va talabalar o'rtasida hamkorlikda o'rganishni osonlashtirish uchun kuchli kanal bo'lib xizmat qiladi. Instagram, Twitter yoki YouTube kabi ijtimoiy media platformalaridan foydalanish orqali o'qituvchilar tabiiy dunyoning go'zalligi va xilma-xilligini namoyish etuvchi, estetik qadrlash va ekologik ongni ilhomlantiruvchi vizual jihatdan jozibali tasvirlar, videolar va hikoyalarni baham ko'rishlari mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy media platformalari o'qituvchilarga o'quvchilarni dialog, fikrlash va bilim almashishga jalb qilish imkonini beradi, bu esa virtual o'quv jamoalarida tegishlilik va o'zaro bog'liqlik tuyg'usini uyg'otadi. Bundan tashqari, ijtimoiy media platformalari atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari, rassomlar va jamoat faollari kabi tashqi manfaatdor tomonlar bilan aloqa o'rnatish va hamkorlikni osonlashtiradi, eko-estetik ta'limni turli istiqbollari va resurslar bilan boyitadi.

Amalga oshirish strategiyalari: Bo'lajak pedagog mutaxassislarda ekoestetik madaniyatni tarbiyalash bo'yicha texnologik yondashuvlarni amalga oshirish puxta rejalashtirish, strategik amalga oshirish va institutsional qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Ushbu bo'lim talabalarda ekologik ong va estetik sezgirlikni rivojlantirish uchun texnologiyani oliy ta'lim o'quv dasturlariga integratsiya qilishning amaliy strategiyalarini belgilaydi.

Fanlararo hamkorlik: Ekoestetik ta'limni samarali amalga oshirish pedagogika mutaxassislari, ekolog olimlar, rassomlar va texnologiya ishlab chiquvchilar o'rtasida fanlararo hamkorlikni taqozo etadi. Oliy ta'lim muassasalari ekologik tamoyillar, estetik sezgirlik va texnologik innovatsiyalarni o'zida mujassam etgan o'quv tajribalarini birgalikda ishlab chiqish uchun kafedralar va fanlar o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatishi mumkin. Fanlararo jamoalar innovatsion pedagogik yondashuvlar, raqamli resurslar va talabalarning turli ehtiyojlari va xohishlariga

javob beradigan interfaol vositalarni ishlab chiqish uchun turli tajriba va istiqbollardan foydalanishlari mumkin. Sinergetik hamkorlikni rivojlantirish orqali institutlar eko-estetik ta'limni turli istiqbollar, ijodiy tushunchalar va ilg'or texnologiyalar bilan boyitishi mumkin.

Texnologiyani oliy ta'lim o'quv dasturlariga integratsiya qilish o'quv maqsadlari, intizom standartlari va akkreditatsiya talablari bilan ataylab muvofiqlashtirishni talab qiladi. Institutlar raqamli resurslar, multimedia materiallari va talabalarni ekologik izlanish, estetik izlanish va aks ettirish amaliyotiga jalb qiluvchi interfaol tadbirlarni kiritish orqali mavjud kurslar, modullar yoki dasturlarga eko-estetik ta'limni birlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, muassasalar eko-estetik ta'limga aniq e'tibor qaratadigan maxsus kurslar, seminarlar yoki sertifikat dasturlarini taklif qilishlari mumkin, bu esa talabalarga ekologik barqarorlik va estetik qadrlash haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish imkoniyatini beradi. Ekoestetik ta'limni o'quv dasturiga kiritish orqali muassasalar barcha talabalarining turli fanlar va ta'lim sohalarida ekologik ong va estetik sezgirlikni rivojlantiruvchi o'zgaruvchan ta'lim tajribalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi mumkin.

Baholash ekoestetik ta'lim samaradorligini baholash va o'quvchilarning ta'lim natijalarini o'lchash uchun ajralmas hisoblanadi. Institutlar ekologik estetik ta'limning bir qator kognitiv, ta'sirchan va xulq-atvor o'lchovlarini, jumladan, bilimlarni egallash, tanqidiy fikrlash, ijodiy ifoda va axloqiy aks ettirishni o'z ichiga olgan baholash strategiyalarini ishlab chiqishi mumkin. Baholash usullari imtihonlar, viktorinalar va insholar kabi an'anaviy o'lchovlarni, shuningdek, raqamli portfellar, multimedia taqdimotlari va hamkorlikdagi loyihalar kabi innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, institutlar o'quvchilar o'rtasida doimiy muloqot, metabolish va o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'limni rivojlantirish uchun tengdoshlarning fikr-mulohazalari, o'z-o'zini baholash va aks ettiruvchi jurnallar kabi formativ baholash usullarini qo'llashlari mumkin. Baholash strategiyalarini pedagogik maqsadlar va ta'lim natijalariga moslashtirish orqali muassasalar ekoestetik ta'limning o'quv dasturiga samarali kiritilishini hamda o'quvchilarning ekologik savodxonlik va estetik qadrlash bo'yicha malakasini namoyon etishini ta'minlashi mumkin.

Ekoestetik ta'lim tashabbuslarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun institutsional yordam va resurslar muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalari ekoestetik ta'limning texnologik yondashuvlarini ishlab chiqish va joriy etishni qo'llab-quvvatlash uchun mablag', kadrlar va infratuzilmani ajratishi mumkin. Bunga raqamli texnologiyalar, dasturiy platformalar va multimedia resurslariga sarmoya kiritish, shuningdek, professor-o'qituvchilarga texnologiyani o'qitish amaliyotiga integratsiyalashda yordam berish uchun maxsus o'qituvchi dizaynerlari, texnologlari va yordamchi xodimlarni yollash kiradi. Bundan tashqari, muassasalar eko-estetik ta'limga yo'naltirilgan markazlar, institutlar yoki tashabbuslarni yaratishi mumkin, bu esa tadqiqot, innovatsiyalar va hamkorlik uchun markazni ta'minlaydi.

Bo'lajak pedagog mutaxassislar o'rtasida ekologik estetik madaniyatni shakllantirishda texnologiya integratsiyasi oliy o'quv yurtlari talabalarini XXI asrning muammolari va imkoniyatlariga tayyorlash uchun muhim imkoniyatdir. Ushbu tadqiqot davomida texnologik yondashuvlar talabalarni ekologik ong va estetik sezgirlikni rivojlantiruvchi o'rganish tajribasiga jalb qilish uchun innovatsion va immersiv yo'llarni taklif qilishi ayon bo'ldi.

Atrof-muhit psixologiyasi, estetik nazariya va pedagogik tamoyillardan olingan g'oyalarni sintez qilish orqali o'qituvchilar nafaqat ekologik savodxonlik va estetik qadrlashni, balki axloqiy ongni, tanqidiy fikrlashni va empatik faollikni rivojlantiradigan o'quv tajribalarini ishlab chiqishlari mumkin. Virtual haqiqat simulyatsiyalari, kengaytirilgan haqiqat ilovalari, o'yin usullari va ijtimoiy media platformalari orqali o'qituvchilar tabiat bilan chuqur aloqani va uning estetik boyligini qadrlashni kuchaytiradigan dinamik va interaktiv o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Bundan tashqari, fanlararo hamkorlik, professor-o'qituvchilar tarkibini rivojlantirish, o'quv dasturlarini integratsiyalashuvi, baholash strategiyalari va institutsional qo'llab-quvvatlash kabi strategik amalga oshirish strategiyalari texnologik yondashuvlarni oliy ta'lim o'quv dasturlariga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun zarurdir. Innovatsiyalar, tajribalar va doimiy takomillashtirish madaniyatini rivojlantirish orqali institutlar o'zlarini barqarorlik ta'limi va atrof-muhitni boshqarish bo'yicha etakchilar sifatida ko'rsatishi mumkin, talabalarga ekologik barqarorlik va estetik boyitishda ijobiy o'zgarishlar agenti bo'lish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Kellert, S. R., & Wilson, E. O. (Eds.). (1995). *The biophilia hypothesis*. Island Press.

Dewey, J. (1934). *Art as experience*. Perigee Books.

Wilson, E. O. (1984). *Biophilia*. Harvard University Press.

Gee, J. P. (2003). What video games have to teach us about learning and literacy. *Computers in Entertainment (CIE)*, 1(1), 20-20.

Dede, C. (2009). Immersive interfaces for engagement and learning. *Science*, 323(5910), 66-69.

Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., & Freeman, A. (2015). *NMC horizon report: 2015 higher education edition*. The New Media Consortium.

Oblinger, D. G. (2004). The next generation of educational engagement. *Journal of Interactive Media in Education*, 2004(1).

Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), 3-10.

Brown, J. S., Collins, A., & Duguid, P. (1989). Situated cognition and the culture of learning. *Educational Researcher*, 18(1), 32-42.

## TASVIRY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA TA'LIM VOSITALARI, BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LANISHI VA NAZARIY ASOSLARI

Avliyakulova Nafisa Muzafarovna,  
Buxoro davlat universiteti

*Annatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'at fanlarini o'qitishning texnik vositalari bilan o'qitish hamda talabalarni zamonaviy texnik vositalarni qo'llashning pedagogik asoslari, bilimlari bilan qurollantirish va ularni amaliy ish faoliyatida samarali qo'llashga o'rgatish orqali Tasviriy san'at fanlarini o'qitishning boshqa fanlar bilan bog'lanishi va nazariy asoslari yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: taraqqiyot, mutaxassis, qobiliyatlilik, iste'dod, tabaqalashtirish, ko'rgazmalilik.*

## ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ СРЕДСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА, СВЯЗЬ С ДРУГИМИ ПРЕДМЕТАМИ И ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ОСНОВА

Авлиакулова Нафиса Музафаровна,  
Бухарский государственный университет

*Аннотация. В данной статье объясняется связь преподавания с другими дисциплинами и теоретическими основами преподавания изобразительного искусства с использованием технических средств обучения и оснащения студентов педагогическими основами и знаниями использования современных технических средств и обучения их эффективно использованию их в практической трудовой деятельности.*

*Ключевые слова: развитие, специалист, способности, талант, дифференциация, эксгибиционизм.*

## EDUCATIONAL TOOLS FOR TEACHING FINE ARTS, RELATIONSHIP WITH OTHER SUBJECTS AND THEORETICAL FRAMEWORK

Avliyakulova Nafisa Muzafarovna,  
Bukhara State University

*Annotation. This article explains the connection between teaching and other disciplines and the theoretical foundations of teaching fine arts using technical teaching aids and equipping students with the pedagogical foundations and knowledge of using modern technical means and teaching them to use them effectively in practical work activities.*

*Key words: development, specialist, abilities, talent, differentiation, exhibitionism.*

**Kirish.** Yangi O'zbekistonimiz rivoji, taraqqiy etishi eng ilg'or davlatlar safida bo'lishi uchun, ya'ni bugungi jamiyatimiz oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarga ezgu niyatlarga erishish, jamiyatimizni yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqbolli amalga oshirilayotgan islohotlar taqdiri ko'p jihatdan zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq.

Hayotimizning barcha jabhalarida bo'lgani kabi ta'lim va tarbiyada ham ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda. 2020 yil 25 dekabr kuni yurtimizda birinchi marta "O'zbekiston yoshlari forumi" tashkil etildi. Forumda yurtboshimizning shaxsan qatnashishi, so'zlagan nutqlarida yoshlarni Vatanimizning eng katta boyligi va bebaho xazinasiga qiyoslagani, pandemiyani o'z boshidan o'tkazayotgan og'ir sinovli kunlarda ko'rsatgan mardlikni, jasoratni yuksak e'tirof etganidan dalolatdir. Shuning uchun aynan yoshlarimiz ikki davr-bugun va ertamiz, kelajagimiz vakillari, kelajagimiz yaratuvchilari hisoblanadi. Unib-o'sib kelayotgan yosh avlod xalqimiz, millatimiz davomchilari bo'lish bilan birga Vatanimizning eng katta boyligi va tayanchi, ustunlari ekanini barchamiz yodda tutishimiz lozimdir.

Yurtimiz aholisining 60 foizdan ziyodini tashkil qilayotgan yosh avlodning hayotiy manfaatlarini, ehtiyojlarini ta'minlash, ularning ezgu orzu-umidlari, intilishlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

2020 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidneti Sh. Mirziyoyev tomonidan imzolangan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra davlatimizda ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

ta'lim ustuvorligining tan olinishi;

ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi; ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi; ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi; insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi; jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi; ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi; bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik. Yuqoridagi qonunning 10-moddasida professional ta'lim tizimi ham yortilgan bo'lib, unga ko'ra yurtimizda quyidagi shakllardagi professional ta'lim turlari mavjuddir.

Metodlarning o'rganganlik darajasi. O'qitishning texnik vositalari bilan o'rganishdan maqsad talabalarni zamonaviy texnik vositalarni qo'llashning pedagogik asoslari, bilimlari bilan qurollantirish va ularni amaliy ish faoliyatida samarali qo'llashga o'rgatishdir. O'qitishning texnik vositalari mahsus didaktik materiallar (axborot manbalari) va qurilmalar (turli xil a'ratlar va mashinalar) majmuidan iborat bo'lib, o'qitish jarayonida to'g'ri va teskari bog'lanish kanallarini jadal ishlashini ta'minlaydi.

O'qitishning texnik vositalari fanini o'rganish va uni o'quvchilar tomonidan mashg'ulotlarda qo'llash quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ko'rgazmalilikni o'qitish jarayonida samarali qo'llash;
- uzatiladigan axborotni o'ptimallashtirish;
- o'quvchilarga bilim, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish;
- o'qitish texnik vositalarini asosiy vazifasi – o'qitish jarayonini samara-dorligini oshirishdir.

O'qitishning ta'lim vositalarining didaktik asoslari.

Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda o'quvchi va o'qituvchining mehnat unumdorligini oshirish, ya'ni o'quv- tarbiya jarayonini jadallashtirish masalasi pedogogika fanining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda . Xarhaqiqat, fan-texnikaning rivojlanishi tufayli o'quvchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan axborot miqdori nihoyatda ko'payib bormoqda. Bu axborotni o'quvchilarga an'anaviy usul va vositalar yordamida yetkazib berish esa murakkablashib bormoqda. Shunga qaramay ko'pgina ilmiy kashfiyot va yangiliklarni ma'lum asbob va apparatlar vositasida yoritib berish ta'lim jarayonini ancha osonlashtirishi mumkin.

Bunday sharoitda o'quv muddatini o'zgartirmay o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, talabalarga puxta va chuqur bilim berish, ularda mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini hosil qilish kabi vazifalarni amalga oshirishda ta'limning texnik vositalari alohida o'rin to'tadi.

Texnik vositalar bilan jihozlangan mahsus o'quv honalari-avtomatlashtirilgan auditoriyalar, zallar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Har bir mavzu material bo'yicha texnik vositalardan foydalanish metodikasi aniq va puxta ishlab chiqilgan va amalda sinalgan bo'lishi lozim, ularga xos mahsus didaktik materiallar esa uzluksiz ravishda takomillashtirilib borilishi zarur. Inson faoliyatida texnikaning qo'llanilishi, ayniqsa uning o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish maqsadida ishlatilishi o'ziga xos omillarga egadir. Bu omillar birinchidan, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining keskin o'zgarishiga, ikkinchidan, o'quvchiga yetkazilishi kerak bo'lgan voqea va xodisalarning chuqurroq o'rganilishi va o'zlashtirilishiga zamin tayyorlashdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari. Dasr jarayonida o'qituvchining faoliyati asosiy ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchiga o'z predmeti bo'yicha muayyan ma'lumotlarni yetkazish bilangina cheklanib qolmay, ularni idrok qilishga, mustaqil ishlashga o'rgatmog'i lozim. Ana Shu muammolarni xal qilishda texnik vositalar va eletron hisoblash texnikasining roli kattadir.

Didaktikaning barcha prinsiplari texnik vositalardan foydalanib tashqil qilingan o'quv-tarbiya jarayonida yuqori samara beradi. O'quv jarayonini tashqil etishdagi barcha pedogogik talablar ana Shu didaktika prinsiplarida o'z ifodasini topadi. Shu principlar asosida texnik vositalardan foydalanilgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Pedogog-olimlarning izlanishlari ta'limning texnik vositalari va hisoblash texnikasi yordamida didaktikaning quyidagi masalalarini xal qilishga erishish mumkinligini ko'rsatdi:

- ta'limning ilmiylik va sistemaliligini ta'minlash;

- ko'rgazmalilikni oshirish;
- o'quvchilarning bilim olishga ishtiyoqini oshirish;
- o'quvchilarning chuqur va mustahkam bilim olishini ta'minlash;
- o'quv materialni o'rganish va o'zlashtirish sur'atini tezlashtirish;
- ta'limni individuallashtirish;
- bilimlarning o'zlashtirilishini nazorat qilish sistemasini amalga oshirish;
- ma'lumotni uzatish va o'quvchi tomonidan qayta ishlash sur'atini oshirish;
- o'quvchilarning darsga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish;
- o'quvchilarda mustaqil bilim olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish.

Ko'rgazmalilikning ilmiy asoslari rus olimi I.P. Pavlov tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariya olim tomonidan kiritilgan birinchi va ikkinchi signal sistemalariga asoslangan. Pavlov fikricha hissiyot, qabul qilish va tasavvur etish tuyg'ulari hodisa va predmetlarning tashqi tomonini inoikos etadi. Hodisalarning ichki o'zaro aloqasi esa bilish jarayonining ikkinchi pog'onasi bo'lmish tafakko'r qilish orqali amalga oshadi. Mana Shu xollarni e'tiborga ogandagina ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin.

Axborotni uzatish va qabul qilishda ishlatiladigan texnik vositalar vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsipi, uning odam sezgi organlariga ta'siri, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida «qaytar aloqani» taminlashi va boshqa hususiyatlariga ko'ra klassifikasiya qilinadi.

Axborot beruvchi texnik vositalar jumlasiga tovush texnikasi qurilmalari, turli diaproektorlar, kinoprektorlar, radio, televedenie, videomagnitafon, videoproigrivetellar xamda o'quv plakatlari, namoyish qilish stendlari, laborotoriya qurilmalari, modellar, maketlar kiradi. Bundan tashqari, o'quvchilarga ma'lum o'quv materiali bo'yicha konsul'tativ ma'lumotlar beradigan qurilmalar xam axborot beruvchi texnik vositalar jumlasidandir.

Barcha nazorat qiluvchi texnik vositalar aniq bir o'quv materiali bo'yicha o'quvchi bilimni tekshirishga mo'ljallangan. Bu apparatlar nazorat qilish va O'z-o'zini nazorat qilish vositalari turlariga bo'linib, tanlash va yozma ravishda javob berish sistemalari asosida ishlaydi. Yordamchi texnik qurilmalarga o'qituvchi va o'quvchi mehnatini yengillashtiruvchi turli mehanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan klavishli hisoblash mashinalari, honani qorong'ilashtirish sistemasi, harakatlanuvchi sinf doskalari, sinf xonalarini telefon vositasida bog'lovchi avtomot qurilmalar kiradi.

Nazariy bilim negizida talabalarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin.

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi. Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

1. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlar, ijtimoiy tuzimning hususiyatlari.
2. Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad va vazifalar.
3. O'qitish qoidalaridan kelib chikadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Ta'lim jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas, muhim qismlaridan biri bo'lib u o'qitish, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish masalalari bilan Shug'ullanadi. Ta'lim nazariyasini "Didaktika" tuShunchasi bilan ham ifodalanadi. "Didaktika" so'zi grekcha "Didasko" so'zidan olingan bo'lib, "o'qitish, o'rgatish" degan ma'noni bildiradi. Didaktikaning o'rganish ob'ekti o'quv jarayoni, o'quv jarayonining rivojlanish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari va shakllaridir. Ta'lim jarayonining asosiy mohiyati tarihan to'plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga etkazish, avlodlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ma'lum tizim orqali amalga oshirish bo'lib hisoblanadi.

Albatta, avloddan-avlodga o'tib borgan sari ijtimoiy tajriba hajmi, demak bilimlar hajmi ham ortib boradi. Fan va tehnikaning rivoji ham ilmiy bilimlarning hajmiga va karakteriga ta'sir ko'rsatadi. Bularning hammasi esa o'z navbatida ta'lim tizimida o'z aksini topadi. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish asosi bo'lib hizmat qiladi. Chunki aynan ta'lim tizimi jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy, ilmiy dunyoqarashini shakllanishida eng asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarihiy yuksalish, yangilanish bosqichlarida aynan ta'lim tizimini isloh qilish muhim o'rin tutgan. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish darajasidan hamda Shu jamiyatning talablaridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

O'quv jarayonida ta'lim oluvchilar va pedagoglar o'rtasida o'ziga hos munosabatlar o'rgatilib bu jarayon ikki tomonning birgalikdagi faoliyati natijasida boradi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni ikki tomonlama harakterga ega deyiladi. Pedagoglar va talabalarning faollik darajasi ta'lim jarayonining samarasini belgilaydi. Albatta bu jarayonda pedagog yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagog aniq maqsadni ko'zlab reja va

dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Talabalar esa ularni faol o'zlashtirib olishlari kerak. Ta'lim jarayonida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi. O'qish talabalarning o'zlashtirish, bilish qobiliyatlari, fikrlash operaciyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv tomoshabinlik jarayoni emas, balki talabaga noma'lum bo'lgan haqiqatlarni ochib beradigan faol, ijodiy faoliyat jarayonidir.

Ta'limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan tehnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. Yosh avlodda Shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo'lib hizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, ahborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi talabalarga berishili kerak bo'lgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarni echimini topish ustida bosh qotirmoqda.

Xulosalar. Zaruriy bilimlar hajmini belgilash va shu bilan bir qatorda o'qish muddatini aniqlash eng muhim masalalardan biri. Ta'lim jarayonida biror fan sohasidagi insoniyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni o'rganish kerak deb o'ylash mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi. O'quv jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar-fanlarning asoslari o'rganiladi. Ammo Shunga qaramay hozirda o'rganish zarur bo'lgan yangi-yangi fanlarning tarmoqlari (ekologiya, oila psixologiyasi, iqtisod asoslari, ma'naviyat asoslari) vujudga kelmoqdaki ular ta'lim hajmini benihoya kengayishiga sabab bo'lmoqda. Biz bu muammolarni ta'lim tamoyillarini (principlarini) buzmaganda, yosh avlodning sog'ligiga ziyon etkazmaganda holda echimini topishga harakat qilmoqdamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.S.Abdullayev, Azimov S.S, Avezov Sh.N. "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi" –"Durdona"-2020 yil. 75-76 bet.
2. Shomuhamedov R.J. Innovation texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T: Nizomiy nomidagi T D F J , 2004 yil. 12-13 bet.
3. Sobirov T.R, Avliyakulova N.M. "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" darslik-"Kamolot"-2023 yil. 43-45 bet.
4. Avliyakulova N.M. "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" darslik-"Kamolot"-2022 yil. 66-67 bet.
5. Olimov Q.T, Uzoqova L.P, Alimov A.A, Jo'rayev H, Jalolova D.F, Alimov A.T, Mirzayeva F.T. "Kasb ta'limi metodikasi" darslik-Toshkent-"Fan va texnologiya"-2016 yil. 78-80 bet.
6. Abdullayev M.T, Hayitov B.X. "Kasbiy ta'lim metodikasi"-Toshkent-"Navro'z"-2017 yil. 113-115 bet.
7. Sayidahmedov S.N, Abdvohidov S. "Kasb ta'limi o'qituvchisining pedagogik faoliyati modeli" Toshkent--"Fan va texnologiya"-2017 yil. 95-96 bet
8. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. "Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi kasb tanlashga yo'llash". Farg'ona- "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati"-2014 yil. 32-35 bet



## IQTIDORLI TALABALARNI TANLAB OLISH, ULARNI RAG'BANLANTIRISH VA KASBGA YO'NALTIRISH

Jo'rayeva Nargiza Oltinboyevna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasida dotsenti  
<https://orcid.org/0000-0002-3139-2217>

Azimova Dilnoza Orifovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi

*Annotatsiya: Bugungi davrda insonning qurshab turgan axborotlar doimiy yangilanib, tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan jamiyatda iqtidorli talabalarni izlash, ularni o'z ustida doimiy o'qib izlanishda bo'lishga undash juda muhim bo'lib hisoblanadi. Iqtidorli talaba-yoshlarni to'g'ri yo'naltirish ularni kelajakda aniq maqsad sari ildam qadam tashlashlarida muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada iqtidorli talablarni izlashda e'tibor qaratish lozim bo'lgan asosiy jihatlar va ularni o'z ustida ishlashda ustoz-shogird munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: talaba, ustoz-shogird, maqsad, yo'nalish, qobiliyat, iqtidor, salohiyat*

## ОТБОР ТАЛАНТЛИВЫХ СТУДЕНТОВ, ПООЩРЕНИЕ ИХ И НАПРАВЛЕНИЕ В ПРОФЕССИЮ

Жўраева Наргиза Олтинбоевна,  
доцент Бухарского государственного педагогического института

Азимова Дилноза Орифовна,  
Преподаватель кафедры Точных наук Бухарский государственный педагогический институт

*Аннотация: В сегодняшнее время в обществе, где информация, окружающая человека, постоянно обновляется и развивается быстрыми темпами, очень важно искать одаренных учеников, мотивировать их к постоянному обучению и исследованиям. Правильное руководство талантливым студентом-молодым человеком играет важную роль в том, чтобы побуждать его к достижению конкретной цели в будущем. В этой статье перечислены основные аспекты, на которые следует обратить внимание при поиске талантов, и рекомендации по правильному построению отношений наставника и ученика при работе над собой.*

*Ключевые слова: студент, наставник-ученик, цель, направление, способности, талант, потенциал.*

## SELECTING TALENTED STUDENTS, ENCOURAGING THEM AND SENDING THEM TO THE PROFESSION

Jurayeva Nargiza Oltinboyevna,  
Associate professor of Bukhara State Pedagogical Institute

Azimova Dilnoza Orifovna,  
Teacher of the department of Exact Sciences Bukhara State Pedagogical Institute

*Abstract: In today's society, where the information surrounding a person is constantly updated and developing at a rapid pace, it is very important to look for gifted students, motivate them to constant learning and research. Proper guidance of a talented young student plays an important role in encouraging him to achieve a specific goal in the future. This article lists the main aspects that you should pay attention to when searching for talents, and recommendations on how to properly build a mentor-student relationship when working on yourself.*

*Keywords: student, mentor-student, goal, direction, abilities, talent, potential.*

Bizga ma'lumki pedagogik faoliyatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bu – iqtidorli talaba-yoshlarni tanlash, izlash hamda ularning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish, iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish masalasidir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil

3-maydagi PQ-4306-son qarori misol bo'la oladi [1].

Iqtidorli yoshlar - O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi, mamlakatni kelajakda jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlovchi muhim omil va millat ziynati hisoblanadi. Iqtidorli talaba-yoshlar o'zlarining maqsadga intilish, qat'iylik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarini hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagining yuqori ekanligi bilan ajralib turadilar. Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va maqsadli tayyorlashning asosiy maqsadi - respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyotini rivojlantirish bo'lib, bu borada yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalarida, fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy faoliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratishdir.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

“Iqtidor” – qat'iylik va shijoat bilan talabaning o'zi tanlagan soha bo'yicha yetuk kadr bo'lishga intilish va doimiy izlanishda bo'lishdir. Bu maqsadlarga erishishda o'qituvchi uni yo'naltirish uni shaxsiy hamda jismoniy imkoniyatlarni hisobga olgan holda talabani nazorat qilish orqali o'sishini ta'minlovchi shaxs bo'lib xizmat qiladi. Iqtidor, insonning belgilangan sohada yoki faoliyatda eng yaxshi natijalarni ko'rishga yoki yaratishga qodir bo'lishi uchun kerakli tajribaga ega bo'lishi aniqlab beruvchi xususiyatdir. Iqtidorning bir qismi ta'lim va o'zlashtirish yoki o'zini rivojlantirish orqali oshirilishi mumkin, boshqa qismi esa shaxsiy xususiyatlarga tegishli bo'lib, insonning tabiatiga, intuitiv xarakteriga yoki uni qo'llab-quvvatlovchi hamda to'g'ri yo'lni ko'rsata oluvchi ota-ona va ustozga bog'liq bo'ladi.

Iqtidorli talaba-yoshlarni tarbiyalash hamda rivojlantirish masalasi bilan so'nggi yillarda pedagog olimlar izchil shug'ullanib kelishmoqda. Xususan, pedagoglarni iqtidorli talaba-yoshlarni tarbiyalash va rivojlantirish hamda tayyorlash masalalari respublikamiz olimlaridan N.Azizxodjaeva, M.Abdullajonova, N.Alimov, R.Djurayev, N.Erkaboyeva, F.Yuzlikayev, Sh.Mardonov, O.Musurmonova, S.Nishonova, N.Ortiqov, G.Ibragimovalarning islarida yoritilgan bo'lib, bunda oliy ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish muammolari tadqiq etilgan. Shuningdek, iqtidorli talaba-yoshlarni ijtimoiylashtirish masalasi F.Isayev, B.Xodjayev, N.Shivanov, N.Egamberdiyeva hamda M.Quronovlar tomonidan o'rganilgan. Iqtidor – bu inson psixikasining butun umri davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo'lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligini ko'rsata olishi bilan belgilanadi. “Iqtidor” arabcha “qodir bo'lmoq”, “qila olmoq” kabi shaxsning ijodiy xususiyati hamda aqliy faoliyatini anglatadigan tushuncha [2] bo'lib, iqtidorli yoshlar maqsadga intilish, qat'iyatlilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarini hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagining yuqori ekanligi bilan ajralib turadilar.

Buxoro davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasida iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash bo'yicha nizomi ishlab chiqildi.

Mazkur Nizom Buxoro davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasida iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash hamda talabalarining a'lo o'qishlari, talabalar fan olimpiadalari, turli tanlovlardagi yutuqlari hamda ilmiy sohada alohida natijalarga erishganlarini tanlov asosida rag'batlantirib borish maqsadida ishlab chiqilgan.

#### ASOSIY QISM

Unda iqtidorli talabalarni izlash, tanlash va kelajakda ularning zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, bozor iqtisodiyoti talabalariga javob bera oladigan, zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari tizimlaridan mukammal foydalana oladigan, yetuk ma'naviy xususiyatlarga ega bo'lgan, milliy istiqloq g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan, Respublikamizning ichki va tashqi siyosatini tushunadigan va targ'ib qiladigan, ajdodlarimizning ilm sohasidagi yutuqlarining davomchilari bo'la oladigan, vatanparvar va barkamol inson bo'lib shakllanishi uchun kafedra jamoasi bajarishi zarur bo'lgan asosiy vazifalar, ularni bajarishning shakl va usullari belgilangan.

Iqtidorli talabalar - O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omil va millat ziynati hisoblanadi.

Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va maqsadli tayyorlashning asosiy maqsadi - respublikamizning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual elitani tayyorlash va bu borada yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalar va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratishdir.

Iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlashning vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtidorli talabalarining intellektual salohiyati, chuqur bilim olish va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida

e'tibor qaratish;

- malakali professor-o'qituvchilarni iqtidorli talabalar bilan individual ishlashga jalb etish;
- ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli talabalarni keng jalb etish;
- iqtidorli talabalarni yuqori malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlash ishlariga jalb qilish;
- iqtidorli talabalar bo'yicha kafedra banki va monitoringini shakllantirish;
- iqtidorli talabalar uchun maxsus o'quv dasturlari, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish;
- buyurtmachilar talabalarini qondiruvchi malakali, har tamonlama kamol topgan kadrlarni tayyorlash.

O'quv va ilmiy rejalarini to'la bajarayotgan, matematika, chet tili, axborot texnologiyalari hamda boshqa fanlarni chuqur o'rganayotgan, universitet, fakultet va kafedra jamoat ishlarida faol qatnashayotgan iqtidorli talabalarni universitet rahbariyati, universitet kengashi, ilmiy bo'lim, fakultet, kafedra quyidagilarga tavsiya etishlari mumkin:

- respublika «Yoshlar ittifoqi» tashkiloti tanlovlarida qatnashish;
- o'qishni chet mamlakatlarning universitet va institutlarida davom ettirish;
- respublika Prezidenti, Navoiy, Ulug'bek va Zulfiya nomidagi davlat stipendiyalari tanlovlarida qatnashish;
- iqtidorli bakalavriat talabalarining magistraturada o'qishini davom ettirishi;
- institut rahbariyati tomonidan ichki imkoniyatlardan kelib chiqib moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

#### MUHOKAMA

Iqtidorli talaba-yoshlarni izlash, aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash hamda o'quvchilarning a'lo o'qishlari, o'quvchilar fan olimpiadalari, turli tanlovlardagi yutuqlarini tanlov asosida rag'batlantirib borish maqsadida "Aniq fanlar" kafedrasining professor-o'qituvchilari tomonidan "Matematika va informatika" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari o'rtasida "Umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitish istiqbollari: muammo va yechimlar" mavzusida o'tkazilayotgan ijodiy ishlar tanlovida tashkil etildi. Budan ko'zlangan asosiy maqsad, talabalarda o'z ustida ishlashga bo'lgan qiziqishni oshirish, yetuk kadr bo'lishda nimalarga e'tibor qaratish lozim ekanligini anglab yetish, doimiy o'zlari tanlagan yo'nalishdagi yangiliklarni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirishdan iborat. Tanlov natijasiga ko'ra, izlanuvchi, o'zining tanlagan yo'nalishi bo'yicha qiziqishi hamda layoqati yuqori bo'lgan talabalar saralanib olindi hamda g'oliblar I, II, III darajali diplomlar bilan taqdirlandi.

Natijada shu ma'lum bo'ldiki, talabalar o'rtasida bu kabi tanlovlarni tashkil etish ularda ilmiy izlanishga bo'lgan qiziqishni, fan doirasida ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash kabi fazilatlarini shakllanishida muhim omil bo'lib hisoblanishiga amin bo'lindi. Bu esa iqtidorli talabalarni izlash va saralashda eng samarali va foydali yo'ldir.

#### XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda uzluksiz ta'lim tizimining quyi bosqichlaridan boshlab talaba-yoshlarning imkoniyatlari va qiziqishlarini aniqlash hamda ta'lim mazmunini shu asosda osondan murakkabga qarab tashkil etish maqsadga yo'naltirilgan faoliyatning rivojlanturuvchi jihati ekanligini e'tiborga olish lozim. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, barkamol insonni shakllantirish kelajak taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, ta'lim doim rivojlanib, yangilanib boradigan jarayon sanaladi. Rivojlanayotgan muhit o'quv jarayonining markaziy qismi sifatida turli xil ta'lim e'tiqodlarini, ularning elementlarini, o'quv materialini hamda ta'lim jarayonining subyektlarini birlashtiradi. Eng qiyini va asosiysi – o'qituvchi-iqtidorli talabaning subyektivligini uyg'un holda shakllantirish, chunki talaba avtomatik ravishda ta'lim faoliyati subyekti sifatida shakllana olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 3 maydagi PQ-4306-son qarori Qonun hujжатlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 й., 07/19/4306/3078-сон; 14.12.2019 й., 06/19/5894/4161-сон)
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. -264-б.
*Аннотация: в статье раскрыты содержание и сущность развития творческих способностей будущих учителей технологии, в результате бурного развития науки и техники сегодня резко увеличивается объем научных знаний, понимания и воображения. В таких условиях возрастают требования к будущим учителям технологии, обладающим творческим потенциалом и их профессиональная компетентность находится на высоком уровне.*

*Ключевые слова: наука, техника, креатив, технология, профессионал, компетентность, инновация, знание, умение, компетентность, идея, воображение, стратегия, специалист, образовательная система, методология.*

## **CONTENT, ESSENCE OF CREATIVITY DEVELOPMENT OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS**

*Bahronova Shahlo  
Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the «Technological education» department*

---

*Davlatova Nasiba Ubaidillayevna  
Bukhara State Pedagogical Institute Student of «Technological education» department*

---

*Abstract: in the article, the content and essence of developing the creativity of future teachers of technology, as a result of the rapid development of science and technology, the volume of scientific knowledge, understanding and imagination is increasing sharply today. In such conditions, the requirements for future technology teachers with creative potential are increasing and their professional competence is at a high level.*

*Key words: science, technique, creative, technology, professional, competent, innovative, knowledge, skill, competence, idea, imagination, strategy, specialist, educational system, methodology.*

*Kirish. Fan va texnikaning jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi natijasida bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bunday sharoitda, kreativ salohiyatli bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarga bo‘lgan talablar ortib borib, ularning kasbiy kompetentligini yuksak darajada bo‘lishini talab etadi.*

*Zamonaviy ta’lim qaysi sohada bo‘lmasin insonga o‘zi va uni o‘rab turuvchi olam haqida bilim beruvchi,*

yashashni o'rgatuvchi, ushbu bilimlar asosida jamiyat taraqqiyoti uchun egallagan kasbini mukammal bilishga undovchi va rivojlantiruvchi kabi yagona maqsadlarga ega. Bundan kelib chiqqan holda bilim olish - bu maqsad emas, balki hayotda maqsadga aylangan strategiyani amalga oshirishga qaratilgan vositadir.

Zamonaviy jamiyatda oliy ta'lim muhim rol o'ynaydi. Istalgan davlatni tezlikda rivojlanishi, asosiy va inkor etib bo'lmaydigan intellektual imkoniyatlar ta'lim tizimini isloh qilish orqali amalga oshiriladi.

Kreativlik nafaqat yakka tartibdagi korxonalarining, balki mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini rivojlantirish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Sanoatning, xususan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi insonlarning kreativligini rivojlanishiga bog'liq. R.Florida, C.П.Липацев ta'kidlaganidek, ushbu sifatni istalgan soha mutaxassislari uchun rivojlantirish muhim hisoblanadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, innovatsion iqtisodiyotning muvaffaqiyati bevosita kreativ shaxslarga bog'liq bo'lib, jamiyatni kreativ mutaxassislarni kengaytirishga ehtiyoji yuqori.

Bugungi kunda kreativ mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyat ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Qo'yilgan vazifaga faqatgina kreativ o'qitish metodikasini maqsadli olib borish bilan erishish mumkin, bunda ta'lim oluvchiga yangi amaliy bilimlarni tushunishiga, ulardan yangilik yaratishi va amaliyotga samarali tadbiq etishiga imkon berilishi lozim.

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirish, o'qitish metodikasini o'quv jarayonida qo'llash va zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri sanalmoqda.

Respublikamiz va xorijiy mamlakat olimlari tomonidan kreativ o'qitishning falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan ko'p qirrali hususiyatlari tavsifi bo'yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Yu.M.Asadovning fikricha, kreativlik salohiyatini eng qimmatli xususiyatlaridan biri uning innovatsiyani yaratishdagi asosiy rolidir. Innovatsiya - shaxs intellekti mahsuli bo'lib, kreativlikni qo'llash natijasida namoyon bo'ladi.

G.N.Ibragimovaning tadqiqot ishida kreativlik - shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui bo'lib, u o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi deb ta'kidlaydi.

A.A.Aripjanova esa kreativlikni o'rganish bo'yicha pedagogik faoliyatning o'ziga xosliklari va yondashuvlarni inobatga olib, pedagog kadrlarining kreativligini: faoliyatli, samarali, shaxsiy, muhitga doir, muammoli aspektlarda ko'rib chiqish lozimligini aniqlagan.

Turli tadqiqotlarda, jumladan, E.S.Shelestova tadqiqot ishlarida kreativlik tushunchasini yuzdan ortiq ta'rifi keltirilgan. Ko'pchilik mualliflarning fikricha kreativlik pedagogik jarayonda oliy ta'lim muassasalarining faoliyati bilan uzviy bog'liq, ya'ni ta'lim jarayoni va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning asosiy shartlari sifatida qaraladi. Bunda Oliy ta'lim muassasalar samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy faktorlardan biri bu moddiy texnik salohiyat tizimini yangilashdir.

Sh.X. Pozilovanning tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida tinglovchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, dizayn-fikrlash texnologiyasiga asoslangan empatiya, fokus, innovatsion g'oya, prototip, testlash kabi bosqichlarni kiritish orqali kreativ o'qitish metodikasi takomillashtirilgan.

Pedagog kadrlar kreativligini rivojlantirish zaruriyati E.E.Antonova, tomonidan yoritilgan. A.V. Kostryukov va D.V.Miroshnikova pedagogik faoliyatda kreativlikni paydo bo'lish ko'lamini yetarlicha keng va buni pedagogning talabalarga bo'lgan munosabatida, pedagogik xulq-atvorda, fanni o'qitish metodikasida, talabalarga beriladigan materialni tanlashda, sinfdan tashqari o'qish va tarbiyaviy ishlarda ko'rish mumkinligi to'g'risida fikr yuritganlar.

M.M.Akeshova, L.Yu.Korolevalar tomonidan kreativlikni psixologik-pedagogik asoslari aniqlangan bo'lib, kreativlik ijodiy intellektual qobiliyat sifatida qaralgan, ya'ni olib borilayotgan tajribalarga yangilik kirita olish qobiliyati, muammoni aniqlashda va yechimini topishda original g'oyalar yaratish qobiliyati, shuningdek o'quv-tarbiyaviy jarayonga qaratilgan farazlarni shakllantirish qobiliyati kiradi deya ta'kidlaganlar.

Aksenova M., Gurina M., Dronova N kabi olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, kreativ shaxs - hech qachon befarq, tinch holatda turmaydigan insondir. U anchagina tartibsiz, ko'p narsaga shubha bilan qaraydi, qiziqishlar doirasi keng, mustaqil fikrlaydi, atrof-dagilarni o'z dunyoqarashiga moslashtirishga intiladi.

Falsafiy ensiklopediya lug'atida kreativlik (lot. *creo*- ijod etmoq, yaratmoq) berilgan jarayon va muammolarni noodatiy ko'rishda echimini topishga yo'naltirilgan ijodiy o'zgarishlarga bo'lgan qobiliyat sifatida tavsiflanadi.

M.M.Akeshova, L.Yu.Koroleva va boshqa olimlar tomonidan kreativlikni psixologik-pedagogik asoslari

aniqlangan. Ularning ishlarida kreativlik ijodiy intellektual qobiliyat sifatida qaralib, olib borilayotgan tajribalarga yangilik kiritish qobiliyati, yangi muammoni qo'yishda va yechimini topishda original g'oyalarni yaratish qobiliyati, shuningdek jarayon elementlariga qaratilgan farazlarni shakllantirish, fikrlarning stereotip usullardan voz kechish qobiliyatlarini kiritganlar.

Pedagog kadrlar kreativligini rivojlantirish zaruriyati E.E.Antonova, Yu.A.Svetkova, M.Selkrig va K.Kiami tomonidan yoritilgan. A.V. Kostryukov va D.V.Miroshnikova pedagogik faoliyatda kreativlikni paydo bo'lish ko'lamini yetarlicha keng va buni pedagogning talabalarga bo'lgan munosabatida, pedagogik xulq-atvorda, fanni o'qitish metodikasida, talabalarga beriladigan materialni tanlashda, sinfdan tashqari o'qish va tarbiyaviy ishlarda ko'rish mumkinligi to'g'risida fikr yuritganlar.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativlik darajasi kasbiy savodxonlik va olgan bilim, ko'nikma hamda malakalari asosida vujudga keladi va mashg'ulotlarini olib borishda, talabalarni o'zlashtirishi, amaliy ko'nikmasi, shuningdek bilimga chanqoqligi va talabalar kreativligini rivojlanishi hisobga olinadi.

T.A.Barisheva va Yu.A.Jigalovalar pedagogikada kreativlikni tizimli psixologik ta'lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual potensialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasining mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va h.k.larni ham kiritadi.

G.N.Ibragimovning tadqiqot ishida kreativlik shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui bo'lib, u o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, natijalari oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning sanab oladi deb ta'kidlaydi.

Sh.X. Pozilovning "kreativ o'qitish" tushunchasini, pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabat, o'zaro ta'lim oluvchi yoki ma'lum bir vosita orqali ta'lim oluvchi orasidagi jarayon bo'lib, u shaxs kreativligini rivojlantirishga xizmat qiladi deb ta'riflaydi.


Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati muammoga mustaqil yondashuv, tanqidiy fikrlash; har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash; yechim topish qobiliyati; bilim olish, malaka va ta'lim berish usullarini yangicha usullarini kashf etish; egallangan bilimlarni yangi bilimlar bilan muvofiqlashtirish kabi ko'nikmalarda namoyon bo'lishi mumkin.

Biz kreativlik deganda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tanqidiy va ijodiy fikrlashi natijasida yangi amaliy g'oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyati, "kreativ o'qitish" esa pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ijodiy munosabat, o'zaro ta'lim oluvchi yoki ma'lum bir vosita orqali ta'lim oluvchi orasidagi kreativ jarayon bo'lib, u shaxs kreativligini rivojlantirishga xizmat qiladi deb ta'rifladik.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir talabada uning kreativ fikrlashga, amaliy ishlarga qodirligi haqidagi ishonchini qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish lozim. Ta'limni axborotlashtirish sharoitidan kelib chiqib talabalarni intellektual ijodkorligini rivojlantirish muhim sanaladi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishda texnologiya ta'limi praktikumi fanidan foydalanish ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Texnologiya ta'limi praktikumi fani bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilariga tikuvchilikka oid kasbiy amaliy ko'nikmalarni va malakalarni shakllantiradi. Texnologiya ta'limi praktikumi fani qo'l mehnatini o'rgatishda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishini, mustaqil faollikni o'stirib bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantiradi. Kasbiy amallarni o'rgatish esa umumkasbiy fanlar va o'quv amaliyoti o'zaro bog'liqligida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, tadqiqot muammolari bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi asosiy g'oyalarni ajratib olishga imkon berdi:



Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda, kreativ o'qitishni tashkil etish innovatsion jamiyatda talabalarning faol hayotga qiziqishi va xohishini uyg'otadi, fikrlarni tahlil qilishga undaydi, his-tuyg'ulari va kasbiy amaliy bilimlarini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Арипджанова А.Р. (2017). Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш. п.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. ( 24 б).

Axmadovna S.D. (2021). Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning kreativligini rivojlantirish: Sayfullayeva Dilafruz Axmadovna, Buxoro davlat universiteti Texnologik ta'lim kafedrasida dotsenti Baxronova Shaxlo Islomovna Buxoro davlat universiteti Texnologik ta'lim kafedrasida 2-kurs magistri //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – №. 7. (С. 213-224.616-619).

Bahronova Sh.I. (2024). Oliy ta'limda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini va kreativligini shakllantirishda dasturlashtirilgan vositalarning o'rni. // "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy metodik jurnal. №1 (B.184-188).

Baxronova S., Davlatova N. (2023). Texnologiya fanidan mashg'ulotlarni tashkil qilishning zamonaviy kompetensiyalari //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – Т. 1. – №. 7. (С. 64-68).

Baxronova S., Davlatova N. (2023). Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – Т. 2. – №. 7. (С. 144-148).

Позилова Ш.Х.(2018). Креативная компетентность преподавателей информатики высших учебных заведений // Информатика и образование.-М.: - №1. ( С.61-63).

Жўраев А. Р., Сайфуллаева Д. А., Бахронова Ш. (– 2020). Замонавий таълим технологилар асосида ташкил қилинадиган шахсга йўналтирилган таълим жараёни //Science and Education.. – Т. 1. – №. 8. (С. 169-176).

Sayfullayeva D.A., Kh K. S. Bahronova Sh.I (2020). //increasing the professional creativity of students in teaching. specialties. проблемы современной науки и образования научно-методический журнал. – Т. 12. – №. 157. – (С. 33).

Sayfullayeva D.A. Sh.I.Bahronova.,( 2022). «Образование наука и инновационные идеи в мире» Xalqaro ilmiy jurnal. .Т. 1. – №.8.

Dilmurodovna R.D.(2023). Xalq hunarmandchiligi namunalarini takomillashtirish va rivojlantirish (zardo 'zlik san'ati misolida) //ijodkor o'qituvchi. Т. 3. – №. 27. – (С. 9-12).

Yunusovna Y. G. (2023). Insonlar hayotida o'zbek milliy etno-liboslarining o'rni va tarixi //образование наука и инновационные идеи в мире. – Т. 33. – №. 3. (С.122-125).

Islamovna B. S., Ubaidilloevna D. N., Norjona P. (2023). Modern competences of organizing technology courses //samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar. Т. 1. – №. 3. (С. 146-151).

Kazakov F. (2021). Methods to improve hackles in the production of quality yarn //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing. Т. 2094. – №. 4. (С. 042091)

Tohirovich R.E.( 2023). The Importance of Using Graphics Programs in The Design of Sewing Items //Web of Teachers: Interscience Research. Т. 1. – №. 3. (С. 5-8).

Rayimova D.D. (2023). Texnologiya ta'limi praktikumi fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari //Educational Research in Universal Sciences.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODKORLIK KO'NIKMALARINI VA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI OSHIRISH

*Boboyeva Muyassar Norboyevna*

*Buxoro davlat universiteti, Matematik analiz kafedrasida katta o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarining ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini oshirish uchun dars o'tishda qo'llaniladigan usul-uslublar ko'rsatib o'tilgan. Darsni to'g'ri tashkil qilish, usul va uslublarni to'g'ri tanlab, dars samaradorligini oshirishga qaratilgan.*

*Kalit so'zlar: Kreativlik, usul-uslub, ta'lim, o'quvchi, qobiliyat, diqqat, muammoli savol, fikr, texnik fikrlash, texnik ijodkorlik, ijodkor, dizayn.*

## IMPROVING IMAGINATION SKILLS AND CREATIVITY SKILLS OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

*Boboyeva Muyassar Norboyevna*

*Bukhara State University, Senior teacher of the Department of Mathematical Analysis*

*Abstract: This article covers the issues of the formation of creativity skills of Primary School students. The techniques used to enhance students creativity skills are outlined in the classroom. The correct Organization of the lesson is aimed at improving the effectiveness of the lesson by correctly choosing methods and techniques.*

*Keywords: Creativity, method-style, education, reader, ability, attention, problem question, thought, technical thinking, technical creativity, creator, design.*

## ПОВЫШЕНИЕ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ И КРЕАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Бобоева Муяссар Норбоевна*

*Бухарский государственный университет, Старший преподаватель кафедры математического анализа*

*Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы формирования творческих навыков младших школьников. Показаны методы-приемы, применяемые при проведении урока для повышения творческих способностей учащихся. Правильная организация урока направлена на повышение эффективности урока путем правильного выбора методов и приемов.*

*Ключевые слова: Креативность, метод-метод, воспитание, ученик, способности, внимание, проблемный вопрос, мысль, техническое мышление, техническое творчество, креатив, дизайн.*

Respublikamizda ta'lim mazmunini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar maktablarda foydalanilayotgan darslik hamda adabiyotlarni har tomonlama ko'rib, tahlil qilishni talab qiladi. Shunga asosan xalq xo'jaligi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning asosiy omillaridan biri bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishga yangicha yondashib, ularni amaliyotga tezkor joriy qilish zarur.

Keyingi yillarda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan asosiy fanlarning deyarli hammasi bo'yicha darsliklar va dasturlar qayta ko'rib chiqilib, yangidan nashr qilinmoqda. Bu darsliklarda fan asoslarini eng so'nggi yutuq va o'zgarishlar bilan bayon qilishdan tashqari, milliylik, mahalliy sharoit va xalqimiz psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topmoqda.

Respublikamizda chop qilinayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida o'quvchilarning mavzularni ongli ravishda o'zlashtirishi, hamda o'qish jarayonida ularning mustaqillik va faollik ko'rsatishlariga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O'qish jarayonida o'quvchi o'zini shaxs sifatida namoyon qiladi. O'qituvchining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchi bilimlarni qanday o'zlashtirayotganligini, materialga va fanni o'rganishga, umuman o'qishga bo'lgan qiziqishini to'g'ri aniqlashdan iborat. O'quvchilarning o'qishga jiddiy munosabatda bo'lishi ularni ma'lum fanning turmushdagi ahamiyatini to'g'ri anglab, bajariladigan ishning zarurligini tushunishdan, unga nisbatan qiziqish paydo bo'lishidan boshlanadi. O'quvchilarning o'qish jarayonidagi faolligi ko'plab ta'sirlar, jumladan bajarilayotgan ish tavsifi, fikrlashda va amaliy faoliyatda uning qanchalik mustaqilligiga bevosita bog'liq.

Didaktikada o'quvchilarning individual qobiliyatlari hamda tafakkurini rivojlantirish har bir o'quvchining

ijodiy faolligi bilan bog'liq. Ayniqsa ustalik bilan tuzilgan topshiriqlar ijodiy mustaqillikning namoyon bo'lishiga yuqori darajada ko'maklashadi. Bunda o'quvchilar topshiriqni tayyor namunalarni bo'yicha bajarmasdan, balki bu jarayonga qandaydir yangilik qo'shib, qo'yilgan masalani yechishda zamonaviy metodikadan foydalanib, o'z mulohazalarini bildirib, o'rganilayotgan hodisadagi o'zlari uchun yangi qirralarni ochadilar. Bunday sharoitda o'quvchi bilish faoliyatining yangi metodlarini egallaydi. Ijodiy bilish o'rganilayotgan hodisaning yangi qirralarini ochishni, bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishni, o'quv materialini o'rganishning yanada mukammal metodlaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Shu bilan bir qatorda ijodkorlik ko'nikmasi taqlid orqali shakllanishini ham alohida qayd qilib o'tish lozim. O'quvchilarning takrorlash, taqlid qilish kabi faoliyatlari ijodkorlik ko'nikmalarining rivojlanishiga ko'maklashadi. O'quvchining ijodkorligi uning taqlid qilish uchun egallagan bilim va ko'nikmalariga tayanadi va uning masalalar yechish, topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi mehnatga ijodiy yondoshish bo'yicha o'quvchilarni o'qish jarayonida har tomonlama rivojlantirish vazifasini qo'ymoqda. Shu munosabat bilan individual mustaqil ishlar va ularning turli ko'rinishlariga bo'lgan qiziqish nazariyotchi pedagoglar o'rtasida ham amaliyotchi-o'qituvchilar o'rtasida ham ortib bormoqda. Hozirgi kundagi maktablarga rivojlangan tafakkur va nisbatan katta tajribaga ega bo'lgan o'smirlar kirib kelmoqdalar. Internet, kino, radio, teleko'rsatuv, ko'plab adabiyot va hokazolar bolalarning rivojlanishiga o'z ijodiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu bolalarning hayotiy tajribalari ortishiga, qiziqishlarining rivojlanishiga ko'maklashadi. XXI asrda yashayotgan bolalar bilan eski uslubda ishlab yaxshi natijalarga erishish qiyin, ularni qiziqtirish, jalb qilish va faolligini ma'lum yo'nalishga sola bilish zarur. Shu sababli o'quvchilarning o'qishga qiziqishini orttirish, mustaqilligini rag'batlantirish va o'qish jarayonidagi ijodkorlik faolligini rivojlantirishga qaratilgan individual mustaqil ishlarining ahamiyati kelajakda yanada orta boradi. Jamiyatimizning hozirgi rivojlanish bosqichida mehnatga ijodiy yondoshish bo'yicha talablar ta'lim jarayonida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini qo'ymoqda.

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarga nafaqat bilim berish balki, ularning kreativlik qobiliyatlarini ham oshirish kerak bo'ladi. Chunki hozirgi zamonda zamon bilan hamnafas yurish juda muhim sanaladi. Ta'lim jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor dolzarb vazifalardan biri. Yangi va ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilgan darslar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan bo'lishi kerak. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchi shaxsining rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi, tarbiyalanishiga va o'quvchilarning kreativlik, yaratuvchanlik qobiliyatlari oshishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Darsni to'g'ri tashkil qilish o'quvchilarning taqdim etilgan bilimlarni yaxshi egallashlariga, o'zlari mustaqil fikrlab xulosa qilishlariga, do'stlaridan o'rganishlariga, yangi fikrlar yaratishlariga turtki bo'ladi.

Darsning qanday o'tishi darsning kirish qismida o'quvchilarni darsga jalb qilishimizga bog'liq. Chunki o'quvchi darsga to'liq tayyor bo'lishi uchun diqqatini jamlashi muhim. O'quvchi diqqatini jalb qilish uchun darsning kirish qismida o'quvchilarga mavzuga mos jumboqli, muammoli savol berish kerak bo'ladi. Savolimiz shunday bo'lishi kerakki, o'quvchi bu savol javobini topishi uchun darsning oxirigacha mavzuni o'rganishga majbur bo'lsin. Dastlab o'quvchilar bu savol yuzasidan ozroq muhokama qilishlariga sharoit yaratib bering. So'ngra muhokamani yakunlab, yangi mavzuni o'tish kerak. Shunda dars oxirigacha o'quvchi diqqatini tuta olamiz. Biz dars davomida o'quvchilarni 100 foiz aktiv holda ushlab turishimiz kerak. Buning uchun esa dars davomida vaqti - vaqti bilan muammoli savol berib turish kifoya qiladi. Darsda o'quvchilar qiziqishlarini oshirishda o'qituvchining kreativligi juda muhim. Zerikarli dars muhitining saballaridan biri - o'quvchilar diqqatining pastligi, darsga befarqligi va dangasaligi.

Har doim bir xillikdan qochish kerak: O'tilgan mavzuni so'rash, yangi mavzuni odatdagidek tashkil qilish usulida o'tilgan dars samarasi bo'lmaydi. Sayohat metodi orqali darsni tashkil qilish. Dars boshida o'quvchilarga "Bugun biz sizlar bilan darsimizda sayohat qilamiz" deymiz. So'ng o'tiladigan mavzuni bir nechta qismlarga bo'lib olamiz. Bunda o'tilayotgan mavzuning asosiy qoida, fikrlarini alohida qog'oz kartochkalarga yozib oling. O'quvchilar ana shu berilgan fikrlarni maktab atrofida joylashgan korxonaga, savdo va boshqa ob'yektlarga biriktirib olishlari kerak bo'ladi. Shunda o'quvchilardan do'stining 1- ma'lumotni qaysi ob'yektga joylashtirganini so'rash kifoya. O'quvchidan "Ushbu ob'yektga qaysi ma'lumotlar biriktirildi?" deb so'rash mumkin. Bu usulda o'quvchilar darsda berilgan barcha ma'lumotlarni eslab qolishlariga, hamda, o'tilgan mavzudagi ma'lumotlarni darsning o'zidayoq eslab qolishga erishiladi. Yangi mavzuni eslab qolishda butun sinf yoki kichik guruhni qamrab olib, berilgan mavzu yuzasidan

o'z fikrlarini bayon qilishlari so'raladi. O'quvchilarga ko'proq o'zlari mantiqiy o'ylashga va mustaqil ravishda fikrlashga undaydigan o'ylantiruvchi savollar berish kerak. Bunday so'rovlar o'quvchilarda yangi kreativ fikrlar tug'ilishiga ko'makchi bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jaev A. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. T. A. I. Vorobev, S.
2. Sh.S.Sharipov "Kasb ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning uzluksizligi". Toshkent: "Fan" nashriyoti. 2005 y.
3. Boboyeva M., Qutliyeva Z. (2019). Formation of elementary mathematical concepts in preschool children. J. Global Research in Math. Archives, 6(11),10-12.
4. Boboyeva M.N. Increasing creative activity of students by application of methods of analysis and synthesis in mathematics lessons. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. 3:05 (2022), p.67-75.
5. Boboyeva M.N. Maktab matematika darslarida misol-masalalar yechish orqali turli kasblarga oid ma'lumotlarni singdirish. Science and Education 2:8 (2021), 496-504 b.
6. Boboyeva M.N. Differensial hisobning iqtisodda qo'llanilishini takomillashtirish istiqbollari. Science and Education 2:8 (2021),476-485 b.
7. Boboyeva M.N. "Matritsalar haqida tushuncha va ular ustida amallar" mavzusini ayrim interfaol metodlardan foydalanib o'qitish. Pedagogik mahorat Maxsus son (2021), 38-42 b.
8. Бобоева М.Н. "Чизиқли тенгламалар системаси" мавзусини ўқитишда муаммоли таълим технологияси ва "зинама-зина" методини қўллаш. Pedagogik akmeologiya. Maxsus son (2022) 67-74 b.

## USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Boymurodova Khalida Makhmudovna

Teacher of the Department of Theoretical Sciences of the French Language at the State University of World Languages of Uzbekistan

*Annotatsiya. This article examines the personal and professional qualities of future specialists set by modern society, their development in the process of teaching foreign languages, as well as the requirements for the use of digital technologies and Internet resources. In particular, it emphasizes the importance of a systematic selection of textbooks to achieve specific goals set by the professor.*

*Keywords: modern education, computerization, digital technology, selection of textbooks.*

## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Boymurodova Xolida Maxmudovna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

*Annotatsiya. Maqolada zamonaviy jamiyat tomonidan qo'yiladigan bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga, ularning xorijiy tillarni o'qitish jarayonida rivojlanishi, shuningdek, raqamli texnologiyalar va Internet-resurslaridan foydalanish talablari muhokama qilingan. Xususan, bu professor-o'qituvchi tomonidan qo'yilgan aniq maqsadlarga erishish uchun o'quv qo'llanmalarini tizimli ravishda tanlash muhimligi yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, kompyuterlashtirish, raqamli texnologiyalar, o'quv qo'llanmalarini tanlash.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Боймуродова Халида Махмудовна

Преподаватель кафедры теоретических наук французского языка Государственного университета мировых языков Узбекистана

*Аннотация. В статье рассматриваются личностные и профессиональные качества будущих специалистов, их развитие в процессе обучения иностранным языкам, а также использования цифровых технологий и интернет-ресурсов, заданных современным обществом. В частности, подчеркивается важность систематического подбора средств обучения для достижения конкретных целей, поставленных преподавателем.*

*Ключевые слова: современное образование, компьютеризация, цифровые технологии, подбор учебных материалов.*

Introduction. In the era of rapid development of information and communication technologies, society demands that future specialists acquire the necessary skills and qualifications to independently acquire knowledge, to effectively solve various problems, to apply them in practice to collect and analyze facts, generalize and make reasonable conclusions. In order to achieve this, it is necessary to communicate, to work together in different situations, to find a way out of conflict situations. Finding ways to solve problems that arise using modern information and communication technologies, critical and creative thinking, mastering independent work processes to increase one's cultural level is required. In the educational process, the development of the above skills and knowledge of professors and students occurs through active educational technologies.

Currently, the main indicator in the selection of teaching tools is the achievement of the final levels of knowledge of foreign languages developed by the councils of European countries in this field and representing an effective pan-European information exchange system.

Learning activities for language acquisition should become exciting, meaningful activities and real linguistic creativity. Only in this case, students will have a desire to develop themselves in accordance with new educational standards.

Therefore, in the conditions of today's rapidly developing digital economy, it is important to choose modern methods of teaching in the educational system, to introduce innovative teaching methods, and to systematically select teaching aids to achieve specific goals set by professors and teachers during the lesson.

Analysis of literature on the topic



Currently, global computerization covers all areas of human activity, including science and education. The development of the Internet and the appearance of many computer programs that simplify the learning process have significantly changed the study of foreign languages, making it faster and easier to work with real resources.

N.B. Golubeva's research provides evidence that the formation of critical thinking skills is an integral part of professionally oriented foreign language education. Critical thinking is defined as social thinking, and therefore the communicative aspect of this phenomenon is emphasized. Also, the characteristic features of communicative foreign language competence are highlighted and the conditions of its formation are indicated. It was concluded that this competence is foreign language and interactive, and essentially interdisciplinary.

T.A. Ivanova, I.V. Skugareva, A.E. In Shabanova's research, the practical experience of teaching foreign languages in higher education institutions was studied in the context of the reform of the education system caused by the processes of globalization. It contains examples of improvement of the educational process by professors and teachers of the department of foreign languages.

In the article published by G. I. Okan, the need to introduce active methods of teaching in the higher education institution is justified, concepts such as «pedagogical innovations» and «active teaching methods» are revealed. The main focus is on the need to use innovative technologies «Development of critical thinking through reading and writing» in professional training of students.

G.A. Trapeznikova and F.Ya. By Khabibullina, 3 stages of critical thinking technology are distinguished, that is, the stage of difficulty, the stage of understanding the content, and the stages of thinking with examples of the methods and techniques used in each stage. Also, features of the language and style of journalistic materials are revealed. They justified the need to introduce methods and methods of critical thinking technology such as «clusters», «tree of predictions», «five lines», «insert», «circles on water», «long and short questions» in the educational process.

From the above analysis, we can see that it is the application of digital technologies in teaching foreign languages, the use of computer programs, the organization of interactive methods using digital technologies to involve students in the lesson process, how important it is today, and it is necessary to develop the necessary proposals and recommendations in this regard. Because today it is impossible without the use of digital technologies and computer programs for students to realize their knowledge in the course of the lesson.

#### Research methodology

It is important to discuss the personal and professional qualities of future specialists, their development in the process of teaching foreign languages, as well as the use of digital technologies and Internet resources. Theoretical and comparative analysis, comparative analysis and generalization methods of research methodology were used in these processes.

#### Analysis and results

Computer-based educational programs have a number of advantages over traditional teaching methods, primarily as a means of direct audiovisual interaction. Using them in the classroom in combination with traditional teaching methods allows teaching various types of speech activity, understanding the essence of linguistic phenomena, forming linguistic abilities, creating communicative situations, automating language and speech skills, and ensuring and intensifying the implementation of an individual approach.

Student's independent work also helps to increase their activity, motivation and quality of knowledge. Computer communication technologies allow to implement methods that activate students' creative activity in a new approach. They can participate in virtual discussions on various educational sites and thematic forums, and implement joint creative projects together with students from different educational institutions. Thus, the use of modern information and communication technologies in the educational process can be considered one of the active forms of individualization of education.

Interactivity of new technologies plays an important role in learning the integral features such as multimedia and content visualization. Thus, computer visualization of educational content, especially through games, in an interactive form, develops students' cognitive thinking styles, creativity and mental activity, and also has a positive effect on their psychological and emotional state.

According to the well-known scientist N.K. Ryabtseva, «the use of computer technologies introduces heuristic innovation into the educational process and creates motivation for effective self-knowledge and improvement, as well as makes the lesson attractive and truly modern, individualization of training is carried out, control and conclusion are timely and is carried out objectively».

According to Tony Prince, academic director of the Norwich Institute of Language Studies, when teachers

use digital technologies for educational purposes, they often focus on the following questions: «What programs or methods will achieve the best results?» need to use computer software?

The following questions are: «How should these technologies be used?», «What methods of using different applications will give the fastest results?», «How should they be used during the lesson?», «How should they be used?» How can they be updated?» and so on.

However, the first question is rarely asked: Why should we use digital resources? It is important to note that if we want the teaching process to be most effective, we need to change the way we look at these questions and start planning the use of technology by defining the goal we want to achieve, that is, «Why?».

«What to use?» When considering the question, we inevitably come across a large number of existing digital resources, each of which has many answers that choose it as the most effective or revolutionary. There are many online and on-device digital resources that allow you to create new ones or explore existing ones.

These resources can be provided in the form of help in various courses (MOOCs, I-tunes Courses), tools (GoogleDocs, Camtasia, Explain Everything), encyclopedias and other academic resources (Google Search, Wikipedia, autonomous dictionaries, Microsoft Office). It is necessary to carry out research at different stages, namely, data collection, synthesis, further control of the research process and work with research results.

The main challenge in choosing digital technologies is, in the first place, «What should be used in the learning process?» and the review of all these programs is that we do not know the complexities that arise in the direct use of the selected resources, because we do not have the awareness of how to apply them and use them properly. A teacher may not have enough time or desire to learn in advance all the possibilities and rules for using selected resources.

To get the most out of apps and software, we must first ask the questions: “Why? What is the main purpose of using computer technologies in the educational process?»

The reasons for this can be as follows:

- improvement of studied concepts;
- increasing instructional time by encouraging students to use curriculum and resources outside the classroom;
- increase the level of work efficiency of the professor-teacher;
- development of independent thinking of students;
- improving the skills of working with computer technologies;
- development of students' qualities such as persistence and purposefulness in achieving results;
- preparing students for future life;
- increase students' motivation;
- reducing the amount of physical resources used, etc.

For example, if we want to improve students' understanding of the material or topic being studied, we should plan to review resources that contribute to the understanding of the topic. To do this, you need to look at this problem from different angles.

Today, various Internet resources provide teachers and students with wide access to the opinions of experts on many issues. A professor-teacher cannot always work as such an expert, as it is impossible to have complete knowledge in any field, and also because he is too immersed in the problems and needs of his students. . This is a separate issue. Therefore, in order to study a certain topic, it is necessary to get acquainted with the opinion of an expert who has a more complete and modern view of the research topic.

Internet resources such as youtube.com and ted.com are compatible with the ed.ted.com platform to get familiar with the opinion of experts, which allows you to create your own lesson based on the recommended video. The teacher can divide the video into thematic parts and work through the discussion of what they have seen in class.

Conclusions and suggestions

Based on the above analysis, it should be noted that the use of Internet resources in the teaching of foreign languages allows to create conditions for the development of all necessary and appropriate competences in today's students.

Acquaintance with modern ideas and trends widely used today by professors and teachers and methods of their further discussion also have a great motivational power in teaching foreign languages.

At the same time, the availability of computers and digital devices connected to the Internet for almost every student greatly simplifies the task of the professor and teacher to involve students in the process of learning a foreign language through the Internet.

It is worth noting that the main questions for a professor-teacher when choosing digital technologies are: what to use, how to use and, most importantly, why to use this or that resource. For this, first of all, it is necessary to determine the main goals and tasks of the lesson, and therefore, to use computer innovations within this lesson. We then need to ask ourselves what resources we need to use to achieve these goals and objectives most effectively, and finally, how the chosen learning tool will work. A detailed understanding of the above issues will significantly increase the involvement of students in the educational process and the development of skills and abilities necessary for the successful implementation of future professional activities.

#### REFERENCES

1. Беляева И.С. Из опыта составления учебного пособия по английскому языку для студентов технического вуза / И.С.Беляева, А.Е.Шабанова // Вестник Тверского государственного технического университета. Серия: Науки об обществе и гуманитарные науки. – 2016. – № 3. – С. 18–23.
2. Голубева Н. Б. Развитие критического мышления как важный элемент формирования профессионально-ориентированной иноязычной компетенции // Вестник университета. – 2015. – № 3. – С. 257–261.
3. Иванова Т.А. Обучение иностранным языкам в тверском государственном техническом университете в условиях интеграции России в единое образовательное пространство / Т.А. Иванова, И.В. Скугарева, А.Е. Шабанова // Вестник Тверского государственного технического университета. Серия: Науки об обществе и гуманитарные науки. – 2016. – № 2. – С. 88–93.
4. Окань Г. И. Активные методы обучения в вузе: содержание и особенности внедрения // Научный диалог. 2012. № 1. С. 265–270.
5. Трапезникова Г. А., Хабибуллина Ф. Я. Использование технологии критического мышления при обучении студентов языкового факультета общественно- политической лексике // Вестник Марийского государственного университета. – 2017. – Т. 11. – № 2 (26). –С. 46–52.
6. Рябцева Н.К. Новые коммуникативные тенденции в современной культуре и инновации в области преподавания иностранного языка // Лингвистика и методика преподавания иностранных языков: периодический сборник статей. Выпуск 8. Электронное научное издание. – М.: Институт языкознания РАН. – 2016. – 557 с.
7. Boldyreva, N.V. Influence of information and communication technologies on effectiveness of educational process // European Science and Technology: Materials of the Vth international research and practice conference. Vol. II, Munich, October 3rd – 4th, 2013, publishing office Vela Verlag, Waldkraiburg – Munich – Germany, 2013, p. 75–80.
8. Brent, H. Infographic: The Gamification of Education. 2012 // [http:// www.technapex.com/2012/08/ infographic-the-gamification-of-education](http://www.technapex.com/2012/08/infographic-the-gamification-of-education).
9. Akai O.M., Kalashnikova A.A., Kalashnikov I.A., Pshenichnaya A.Yu. Pragmatic level of language personality in social networks. Current issues of linguistics and didactics: The interdisciplinary approach in humanities (CILDIАН 2017) Proceedings of the 7th International Scientific and Practical Conference. Advances in Social Science, Education and Humanities Research. – 2017. – P. 9–14.

## БИОЛОГИЯ YO‘NALISHI TALABALARIGA “OLIV MATEMATIKA” BO‘LIMIDAN MA‘RUZA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH

*Davlatova Dilobar Sadulloyevna*

*BuxDU tayanch doktoranti, BuxDPI “Aniq fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi*

*<https://orcid.org/0009-0007-0435-8703>*

*Annotatsiya. Matematika aniq fan. Bu fanni matematika mutaxassisligi bo‘lmagan yo‘nalish talabalariga o‘rgatishda, noan‘anaviy usullardan foydalangan holda ma‘ruza, amaliyot mashg‘ulotlarini tashkil etish, bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Xususan, darslarni sifatli, mazmunli tashkil etishda pedagogdan yuksak bilim, izlanish, tinimsiz mehnat hamda kreativlikni tashkil etadi.*

*Mazkur maqolada biologiya sohasida matematikaning tutgan o‘rni ilmiy izlanishlar, yaratilayotgan yangiliklar va amalda qo‘llanilayotgan ilmiy tadqiqotlar, tabiatda, inson hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni yanada rivojlantirish maqsadida biologiya va matematika fanlarini birgalikda takomillashtirish kelajakda amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlarda matematikaning biologiyada tutgan o‘rnini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan. Shularni inobatga olgan holda, ushbu maqolada oliy ta‘lim muassasalarining biologiya yo‘nalishi talabalariga oliy matematika fanini mutaxassislikdan kelib chiqib o‘qitish bo‘yicha metodik tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, qo‘llanilgan metodlar talabalarni ushbu fanga bo‘lgan qiziqishlarini, diqqat va e‘tiborini oshiradi.*

*Kalit so‘zlar: Biologiya yo‘nalishi talabalariga, Fibonachchi raqamlari, sonli ketma-ketlik, funktsiyaning limiti.*

## ОРГАНИЗАЦИЯ ЛЕКЦИИ КАФЕДРА «ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА» ДЛЯ СТУДЕНТОВ-БИОЛОГАМ

*Давлатова Дилобар Садуллоевна*

*Студент бакалавриата БухГУ, преподаватель кафедры «Точные науки» БухДПИ*

*Аннотация. Математика – точная наука. При преподавании этого предмета студентам-нематематикам организация лекций и практических занятий с использованием нетрадиционных методов считается одной из актуальных проблем современности. В частности, качественная, содержательная организация уроков требует высоких знаний, исследовательской работы, неустанный труд и творчества педагога.*

*В этой статье роль математики в области биологии заключается в исследованиях о создании инноваций или использовании науки на практике. Совместное совершенствование биологии и математики с целью дальнейшего развития изменений, происходящих в природе и жизни человека в будущем. Он призван способствовать дальнейшему развитию места математики в биологии в проводимых научных исследованиях. Поэтому в данной статье представлены методические рекомендации по преподаванию высшей математики студентам высших учебных заведений в области биологии с учетом их специализации. Также используемые методы повышают интерес и творческие способности учащихся к данному предмету.*

*Ключевые слова: студенты-биологи, числа Фибоначчи, числовая последовательность, предел функции.*

## ORGANIZATION OF LECTURE DEPARTMENT OF “HIGHER MATHEMATICS” FOR BIOLOGY STUDENTS

*Davlatova Dilobar Sadulloevna*

*Bachelor’s student at BukhSU, teacher at the Department of Exact Sciences at BukhDPI*

*Annotation. Mathematics is an exact science. When teaching this subject to non-mathematics students, the organization of lectures and practical classes using non-traditional methods is considered one of the pressing problems of our time. In particular, high-quality, meaningful organization of lessons requires high knowledge, research work, tireless work and creativity of the teacher.*

*In this article, the role of mathematics in the field of biology is to research, create innovations or use science in practice. Joint improvement of biology and mathematics in order to further develop the changes occurring in nature and human life in the future. It is intended to contribute to the further development of the*

place of mathematics in biology in ongoing scientific research. That's why this article presents methodological recommendations for teaching higher mathematics to students of higher educational institutions in the field of biology, taking into account their specialization. Also, the methods used increase the interest and creativity of students in this subject.

*Key words: biology students, Fibonacci numbers, number sequence, limit of a function.*

Kirish. "Hozirda matematikaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Matematikada yangi g'oyalar va usullar tug'iladi. Bularning barchasi uni qo'llash doirasini kengaytiradi. Hozirgi vaqtda matematika muhim rol o'ynamaydigan inson faoliyati sohasini nomlashning iloji yo'q. U barcha tabiiy fanlar, texnologiya va ijtimoiy fanlarda ajralmas vositaga aylandi. Hatto huquqshunoslar va tarixchilar ham matematik usullarni qo'llashmoqda" deb aytib o'tgan Aleksandrov A.D. Hattoki, Gnedenkoning so'zlari ham buni tasdiqlaydi: "Matematika bizning zamonaviy hayotimizga o'ziga xos tafakkur uslubi bilan kirib kelmoqda, bu endilikda muhandis uchun ham, biologiya uchun ham majburiy bo'lib qolmoqda"[1].

Ushbu maqoladan maqsad- matematikani o'qitishga texnologik yondashuvni amalga oshirish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va bo'lajak biologiya yo'nalishi talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyati ehtiyojlariga muvofiq matematika fanining mazmunini ko'rsatish.

Biomatematika fanining yuqori darajada rivojlanganligiga qaramasdan, biologiya yo'nalishi talabalariga oliy matematika fanini o'rgatish hozirgi vaqtda metodik ta'minot bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. Matematika bo'yicha o'quv jarayonining tuzilishi biologiya yo'nalishlari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarni to'liq qamrab olmaydi[2]. O'zining mutaxassisligi bo'yicha masalalarni yechishda asosiy matematik metodlarni qo'llash juda muhim. Ammo bunda doim ham o'qituvchilar tomonidan talabalar ta'lim yo'nalishidan kelib chiqib masalalar tanlanmaydi. Agar masalalar ta'lim yo'nalishidan kelib chiqib tanlansa, bunda o'sha fanning talabalar tomonidan kata qiziqish bilan o'zlashtirishiga sabab bo'ladi. Bunda biror matematik tushunchaning ta'rifi biologiya fanidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qilinadi[3,4,5]. Xususan, ushbu maqolada biologiya ta'lim yo'nalishi talabalariga "Sonli ketma-ketlik va uning limiti" mavzusini o'tish bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan. Keltirilgan tavsiyalar darsning samaradorligini oshirib, ma'ruza jarayonida barcha talabalarni faollashtirishi haqida so'z yuritamiz.

kitoblar va intervyulardan foydalangan holda ma'lum bir mavzuni tadqiq qilish topshirilishi mumkin. Ushbu faoliyat talabalarga ishonchli ma'lumotni qanday topish va ishonchli manbalar va soxta yangiliklar o'rtasidagi farqni tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari, amaliy muammolar ijodkorlik va media ishlab chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Talabalar podkastlar, videolar yoki ijtimoiy media tarmoqlaridagi kabi o'zlarining mutaxassisliklari doirasida media kontentlarni yaratishlari mumkin.[5] Ommaviy axborot vositalarini ishlab chiqarishning barcha jarayonida faol ishtirok etib, talabalar nafaqat texnik ko'nikmalarni rivojlantiradilar, balki xabarlarini samarali muloqot qilish qobiliyatini ham oshiradilar. Bu ularga ommaviy axborot vositalarining passiv iste'molchisi emas, balki faol ijodkor va ishtirokchi bo'lish imkoniyatini beradi. Video topshiriqlarni, testlarni bajarishda ishtirok etish jamoada ishlash, hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ko'pincha media-loyihalar talabalardan guruhlarda ishlashni, fikr almashishni, topshiriqlarni topshirishni va ularning natijalarini taqdim etishni talab qiladi. Bu hamkorlik orqali o'quvchilar o'z fikr va mulohazalarini samarali ifoda etish, turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish va umumiy maqsad sari harakat qilishni o'rganadilar. Ushbu ko'nikmalar nafaqat ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq sohalarida, balki turli xil professional va shaxsiy kontekstlarda ham muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Maqolada yoritilgan video qo'llanma ko'rinishidagi topshiriqlar hamda "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" telegram guruhidagi test topshiriqlarini amalda bajarish ko'nikmasini egallagan o'rganuvchilar kelajakda kasbiy sohalarida qo'llab, vaqt unumdorligiga erishadilar.

Xulosa. Amaliy topshiriqlar bo'lajak pedagoglarning media kompetentligini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Turli ko'rinishdagi topshiriqlar talabalarga olgan bilimlarini amalda qo'llash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va media muhitining faol ishtirokchisiga aylanish imkoniyatini beradi. Amaliy tajriba orttirish orqali talabalar mediasavodxonlik haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladilar va ommaviy axborot vositalarining murakkab olamida faol bo'lishga yaxshiroq tayyorlanishadi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida media kompetentsiyasini rivojlantirishga ko'maklashish va ularni ommaviy axborot vositalariga asoslangan jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlash uchun ta'lim dasturlariga amaliy mashg'ulotlarni kiritishlari juda muhim deb o'ylayman. Qolaversa, bo'lajak pedagoglarda media kompetentlik malaka, ko'nikmasining mavjudligi, kasbiy pedagogik faoliyatlarini tashkil etishga, kreativ yondashishga yordam beruvchi vosita sanaladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

P.T. Abduqodirova. Maktab informatika kursini mobil texnologiyalar asosida o'qitish. Science and innovation. 2022. №2. 165-167-betlar

Carina Granberg. Social software for reflective dialogue: Questions about reflection and dialogue in student teachers' blogs. Technology, Pedagogy and Education. 2010. 19 (3), 345-360

Ahmed Yousif Abdelraheem. The Impact of Using Mobile Social Network Applications on Students' Social-Life. International Journal of Instruction, v11 n2 p1-14 Apr 2018

Fayziyeva D.KH. Ustanovleniye razgovornogo trakta v IP-telefonii // Molodoy uchenyy. 2017. №4. 113-114 betlar

Fayziyeva D.Kh. Using software for teaching foreign language using software for teaching foreign languages. Academy 2020. № 9 (60). 13-17 betlar

Fayziyeva D.Kh. About the theory of multiple intelligence. Vestnik nauki i obrazovaniya 2020. № 19 (97), Part 2. 85-88- betlar

Jurayeva N.O. Specific aspects and principles of the method of organizing independent education of students. Actual problems of modern science, education and training". №8, Xorazm, 2022. – P. 23-27.

D.KH Fayziyeva. SH.T.Yakhyayeva. Vliyaniye tsifrovogo obrazovaniya na uspekhi uchaschichikhsya // Universum: tekhnicheskoye nauki 2022.// № 5 (98) — 48-51 betlar

D.KH Fayziyeva. B.N.Takhirov. Z.M. Adizova. Obucheniyeye programmirovaniyu s pomoshch'yu geymifikatsii//Vestnik nauki i obrazovaniya

## KASB TALIM “DIZAYN” YO‘NALISHIDA IXTISOS FANLARNI O‘QITISHDA 3D TEKNOLOGIYASI VOSITALARINING SAMARADORLIGINI TAXLILI

G‘ofurova Aziza Xidirnazar qizi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti assistenti

*Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb talim “dizayn” yo‘nalishida ixtisoslik fanlarini 3D texnologiyasi vositasida o‘qitishning samaradorligi aniqlash maqsadida olib boriladigan tajriba sinov ishlarining bosqichlari va jarayonlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek maqolada muommani aniqlash maqsadida o‘tkazilgan surovnomalarning taxlili yoritib berilgan.*

*Kalit so‘zlar: sinov tajriba, 3D MAX, natija, surovnoma, dastur, kompyuter, o‘qitish, ta‘lim, texnik vositalar, dizay loyihalash, modellashtirish.*

## АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ СРЕДСТВ 3D ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛЬНЫМ НАУКАМ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ «ДИЗАЙН»

Гофурова Азиза Хидирназар кизи  
ассистент Джизакского государственного педагогического университета

*Аннотация: В данной статье представлена информация об этапах и процессах экспериментальной апробации, проводимой с целью определения эффективности преподавания профильных предметов по направлению «дизайн» с помощью 3D-технологий. Также в статье описан анализ опросов, проведенных с целью выявления проблемы.*

*Ключевые слова: эксперимент, 3D MAX, результат, анкета, программа, компьютер, обучение, образование, технические средства, проектирование, моделирование.*

## ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF 3D TECHNOLOGY TOOLS IN TEACHING SPECIAL SCIENCES IN VOCATIONAL EDUCATION “DESIGN”

Gofurova Aziza Khidirnazar kizi  
assistant of the Jizzakh State Pedagogical University

*Abstract: This article provides information about the stages and processes of experimental testing carried out to determine the effectiveness of teaching specialized subjects in the direction of “design” using 3D technologies. The article also describes an analysis of surveys conducted to identify the problem.*

*Key words: experiment, 3D MAX, result, questionnaire, program, computer, training, education, technical means, design, modeling.*

Jahon miqyosidagi tez o‘sib borayotgan texnologik taraqqiyot ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish sohalaridagi ro‘y berayotgan o‘zgarishlari bilan o‘zini namayon etmoqda. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish sohalarini ta‘lim bilan mutunosibligini taminlashni talab etadi. Shuni ta‘kidlash joizki, raqamli iqtisodiyotni qurish va raqamli ta‘lim O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. DTS 5111004 - Professional ta‘lim: dizayn (libos va gazlamalar) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi malaka talablarida kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarda bitiruvchilar axborot texnologiyalarni kasbiy faoliyatda qo‘lly bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi lozimligi belgilab qo‘yilgan. Lekin bugunki kunda “Dizayn” yo‘nalishining ixtisoslik (majburiy) fanlar blokida raqamli texnologiyalar va maxsus dasturlarda ishlashga doir bo‘lgan fanlar salmog‘i juda kam. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mavjud fanlarning xususiyatlari talabalarining jaxon miqyosida yaratilayotgan zamonaviy maxsus dasturlarda ishlash bo‘yicha bilim va malakalarini kasbiy faoliyatda qo‘llashni o‘rgatishga qaratilmagan. Shuningdek, oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim jarayonida ta‘lim sifatini oshirish, o‘qitishni takomillashtirish maqsadida interfaol metodlar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarda maxsus dasturlarga asoslangan innavatsion texnologiyalarni qo‘llash lozimligi aniqlandi.

Ijodiy loyihani amalga oshirishni rejalashtirish konstruktorlik-texnologik, estetik, stilistik, iqtisodiy va shu kabi ko‘rsatkichlar va uziga xos jixatlardan kelib chikib badiiy-ijodiy loyihalarni ishlab chikish, yangi buyumlar, predmetlar xamda ularning yangi vazifalari, ko‘rinishlarini ishlab chiqishda raqamli texnologiyalardan

foydalanish, libos va gazlamalar dizayni sohasida funksional, texnik-iktisodiy jixatdan maksadga muvofiq xamda badiiy-estetik tomondan ko'rkam shakllar loyihasini ishlab chikish, loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi kerakligi ko'rsatilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, bo'lajak o'qituvchi-dizaynerlarga kiyimni loyihalash bo'yicha yuqori talablar qo'yiladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish, o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullarini qo'llash, o'qitishning texnik vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlari hamda afzalliklaridan foydalanish talabalarga raqamli texnologiyalarning maxsus dasturlari orqali kiyimlarni konstruksiyalash va modellashtirish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni talab qiladi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, dizayn faoliyati san'atdan tortib muhandislikgacha bo'lgan turli bilim sohaslarini o'ziga birlashtiradi. So'nggi o'n yil ichida raqamli texnologiyalarning inson hayotiga faol kiritilishi bilan nafaqat dizayner ishining uslublari ham o'zgardi. Kasbiy muhit dizayner ta'limiga yangi talablarni qo'yadi va bitiruvchining imidjini belgilaydi, uning kompetensiyalaridan kelib chiqib ta'lim uchun buyurtmasini shakllantiradi.

Dars jarayonini takomillashtirish va dars sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi innovatsion va raqamli ta'lim texnologiyalarini qo'llanilishi ta'lim mazmunini sifat jihatidan to'ldiradi va faollashtiradi. Shuningdek bunda turli xil bilim sohalari, ya'ni dizayn va san'atdan tortib muhandislik, axborot kommunikatsion sohaslarini birlashtirilishini talab etadi.

Xozirgi kunda dars jarayonlarini takomillashtirish maqsadida interfaol metodlar bilan birga raqamli texnologiyalarni qo'llash o'qitishning texnik vositalari va kompyuter texnologiyalariga bo'lgan extiyojni yuzaga keltiradi. Shundan kelib chiqib bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda shuningdek, oliy ta'lim tizimida ham faol qo'llanilmoqda. Ixtisoslik fanlarni o'qitishda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash talabalarda bilim va ko'nikmani o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani hosil qiladi, ularning o'quv-bilish faolligini oshiradi, talabalarining mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

O'qituvchi bo'lajak mutaxassislarda berilgan konstruktiv va dizaynerlik topshiriqlarini erkin bajarishi mumkin bo'lgan vaziyatni pedagog mahorat bilan boshqarishi, diqqat bilan kuzatib tahlil qilishi, vaziyatga qarab imkon bo'lganida muloqatga kirishishi lozim.

Bugungi kunda dizaynerning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanmasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Kelajak mutaxassis-dizaynerning kasbiy faoliyati raqamli texnologiyalarda modellashtirish va ko'p o'lchovli makonni vizualizatsiya qilishning zamonaviy usullari bo'yicha universal bilimlarni talab qiladi, bu esa dizayn sohasida mutaxassislarni tayyorlashga yangi talablarni qo'yishga yordam beradi.

Tadqiqotimiz doirasida malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish zarurati mavjudligi aniqlandi[1].

Biz, O'zbekistonda kasbiy ta'lim yo'nalishida ilmiy tadqiqot olib borgan bir qancha olimlarimizning ishlarini tahlil qildik. Ta'limda axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar A.A.Abduqodirov, A.X.Abdullaev, M.Aripov, U.Begimkulov, Sh.S.Ahrarov, B.Begalov, F.Zakirova, N.A.Muslimov, M.Lutfullaev, S.Rahmonqulova, N.I.Taylaqov, S.S.G'ulomov, R.H.Hamdov, U.Yuldashevlar tomonidan amalga oshirilgan. (Ibr. Ul). Kasb- hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi bo'yicha R.H. Jo'raev, A.R. Xodjabaev, X.Rashidov, U. Inoyatov, Q.Olimov, N. Karimovlar fundamental tadqiqotlar olib borishgan.

Barcha olib borilgan tadqiqot ishlarida Jahon miqyosida o'sib borayotgan texnologik taraqqiyotning ijtimoiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish sohasidagi ro'y berayotgan o'zgarishlarda raqobatlasha oladigan, pedagogik sifatlarni o'zida shakllantirgan, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni to'g'ri biladigan yangi avlodni shakllantirishga e'tibor qaratilgan .

Yosh avloddan jamiyat va zamonaviy mehnat bozori o'z oldiga qo'yilgan kasbiy vazifalarni hal etishda ijodiy yondashuvni kutmoqda. Bunday yondashuv jamiyat taraqqiyoti dinamikasi, bizga tez tushayotgan axborot oqimi, ilgari noma'lum bo'lgan sohalarda faoliyatning yangi turlarining paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liq [2].

Taxmin qilishimiz mumkinki, kiyimlarni loyihalashning zamonaviy sharoitda badiiy va ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi 3D MAX dasturlarining mahsuliga aylanmoqda. 3D MAX texnologiyasidan foydalangan holda mahsulotni ishlab chiqishning ushbu usuli no'an'anaviy usullar bilan kiyimning murakkab shakllarini yaratish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga imkon beradi. Kiyim modelini loyihalash bo'yicha taklif etilayotgan yondashuv loyihalashtirilgan mahsulotning turli xil variantlarini tasavvur qilish imkonini beradi. Yakuniy qaror qabul qilinishidan oldin dizayner taklif etilayotgan kiyim modelining shakli, silueti, yeng kesimi, teksturasi, rang sxemasini vizual tarzda aniqlashi mumkin. Butun jarayonning vazifalarini hal qilish dasturining algoritmgiga ishonib topshiriladi va inson aralashuvizisiz amalga oshiriladi. Natijaning o'ziga xosligi, ijodiy faoliyatning yakuniy mahsuli asosiy baholash mezonini hisoblanadi. Tajribadan shuni taxmin qilishimiz

mumkinki, bunday yondashuv talabalarning kerakli ma'lumotlarni olishga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Bundan tashqari, ijodiy faoliyatda nafaqat natija, balki jarayonning o'zi ham ma'lum qiymatga ega bo'lib, tasavvurni rivojlantirishga imkon beradi. 3D MAX dizayn dasturlarida ishlash talabada ijodiy faollikni, ya'ni ma'lum ma'lumotlarni birlashtirish qobiliyatini uyg'otadi. Shuningdek, talabalarning ijodkorligini kashf qiladi, ish samaradorligini oshiradi, dizayn sifatini yaxshilaydi, mustaqil ishlash, fikrlash va qaror qabul qilishga o'rgatadi. Ichki erkin ijodiy, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga va tashabbusni o'z qo'liga olishga qodir bo'lgan shaxs kasbiy o'sish va o'z istiqbolini ta'minlay oladi.[3]

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda olingan natijalar samaradorligini aniqlash maqsadida Kasb ta'limi "Dizayn" talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholashda oliy ta'lim muassasalaridan ikkita parallel tajriba-sinov va nazorat guruhlarida erishilgan natijalar bir-biri bilan taqqoslandi. Nazorat guruhlarida o'qitish jarayoni amaldagi an'anaviy o'qitish asosida amalga oshirilgan bo'lsa, tajriba-sinov guruhlarida biz taklif etgan 3D MAX texnologiyasining vositalaridan foydalangan holda urgatish va o'qitishning individual ishlash metodi asosida o'tkazildi. Tajriba davomida nazorat va tajriba-sinov guruhlarining tajriba boshida va oxirida olingan natijalari muntazam tahlil qilib borildi va ular bir-biriga qiyoslanib, xulosa qilindi. Tajriba-sinov guruhida 3D MAX texnologiyasidan foydalanishning samaradorligi nazariy asoslanib, amaliy jihatdan isbotlab berildi.

Biz taklif etgan "Dizayn ob'ektini kompyuterda modellar" ixtisoslik fani bo'yicha o'qitish jarayonini elektron ta'lim resurslari asosida tashkil etish natijasida o'qitishda ta'lim samaradorligining oshishini kuzatdik. Bunda biz 2021-2024 yillar mobaynida Oliy ta'lim muassalarining 243 nafar talabalardan iborat nazorat va tajriba-sinov guruhlarida tadqiqot-kuzatuv ishlarini olib bordik.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi ilmiy tadqiqod ishida ilgari surilgan farazning to'g'ri ekanligini isbotlashdan iborat. Bu jarayonni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:


1. Tayyorgarlik bosqichi – 2021-2022 yillar davomida o'tkazilib, bu davrda quyidagi ishlar amalga oshirildi: tadqiqotning asosiy yo'nalishini aniqlab olindi; muammoning nazariy va amaliy holatini o'rganildi; oliy ta'lim muassasalarini tanlash, ularda tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun moddiy-texnik ta'minoti, ilmiy-uslubiy negiz va pedagogik shart-sharoitlar mavjudligini o'rganildi; tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan materiallarni tayyorlandi; dastlabki tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.
2. Ikkinchi bosqich – 2022-2023 yillarda quyidagilar amalga oshirildi: rejaga binoan tajriba-sinov ishlarini davom ettirildi; oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fan o'qituvchilari va talabalar bilan so'rovnomalar o'tkazildi; oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi ixtisoslik fanlar o'qituvchilarini tajriba-sinov ishlarini o'tkazishga tayyorlandi; zaruriyat bo'lgan hollarda tajriba-sinov materiallari mazmuni va ularni amaliyotga joriy etish metodikasiga o'zgartirishlar kiritildi; tajriba-sinov ishlaridan olingan natijalarni miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi; ilmiy dalillar yig'ib, ularni umumlashtirildi; tajriba-sinov ishlari natijalari haqida hisobotlar berib borish va ularni atroflicha muhokama etildi.

Tadqiqotning asosiy yo'nalishini aniqlash va muammoning nazariy va amaliy holatini o'rganish uchun so'hatlar o'tkazildi va surovnomalar olindi. Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi hamda dizayn (libos va gazlamalar) ixtisosligi bo'yicha mutaxassis tayyorlovchi OTM professor o'qituvchilarining fikrlarini bilish maqsadida 15 ta savoldan iborat bo'lgan surovnoma o'tkazildi. Surovnomada jami 54 kishi, iborat Oliy ta'lim muassalarining professor o'qituvchilari ishtirok etdi.

Liboslarni dizayn loyihalash va kiyimlarni konstruksiyalash fanlarini o'qitishda 3D max texnologiyasidan foydalanasizmi? -degan savolga Ha, to'liq foydalanaman 2 kishi (3.7%), Ha, qisman foydalanaman 17 (31.5%) kishi, yo'q miyoriy xujjatlarda berilmagan 16 (29.6%) kishi, yo'q, chunki 3D max texnologiyasining qaysi dasturidan foydalanishni bilmayman 19 kishi (35.2%) javob bergan.

4. Liboslarni dizayn loyihalash va kiyimlarni konstruksiyalash fanlarini o'qitishda 3D max texnologiyasidan foydalanasizmi?

54 o'tbeeta



- 1. Ha, to'liq foydalanaman
- 2. Ha, qisman foydalanaman
- 3. Yo'q, miyoriy xujjatlarda berilmagan
- 4. Yo'q, chunki 3D max texnologiyasining qaysi dasturidan foydalanishni bilmayman




Dars jaryonida qo'llashga to'sqinlik qilayotgan mezonlarni o'rganish maqsadida Siz 3D max texnologiyasida ishlash ko'nikmasiga egamisiz?-deb qo'yilgan savolimizga ha, to'liq egaman 3kishi(5.5%), ha, qisman egaman 26 kishi (48.1%), yo'q, umuman bilmayman deb 25 (46.3)kishi javob bergan. Bundan ko'rinib turibdiki professor o'kituvchilarning 53% umuman bilim va ko'nikmaga ega emas.

2. Siz 3D max texnologiyasida ishlash ko'nikmasiga egamisiz?

[Копировать](#)

54 ответа




Bu muomani bartaraf etish uchun nima ishlar qilish kerakligini o'rganish maqsadida qo'yilgan Sizing "Dizayn" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlarini o'qitishingizda qanday muammolar mavjud?- degan savolga o'qitish sharoitlarida 5 kishi (9.3%), o'quv me'yoriy hujjatlarda 14 kishi (25.9%), Axborot didaktik ta'minotda 14 kishi (25.9%), Talabanning o'qishga qiziqishi va intilishida degan fikrlarni 19 (35.2%) kishi bildirishgan.

15. Sizing "Dizayn" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlarini o'qitishda qanday muammolar mavjud?

[Копировать](#)

54 ответа



Ishlab chiqarish va OTM o'rtasidagi tafovutni aniqlash maqsadida Siz ishlab chiqarish amaliyotida bo'lgan tikuvchilik korxonalarini mahsulotni dizayn loyihasi va konstruksiyalashda 3D max texnologiyasidan foydalanadimi? –deb qo'yilgan savolga, ha foydalanadi 29 kishi (53.7%), yo'q foydalanmaydi 12kishi (22,2%), Tanish emasman 13 kishi (24.1%) fikr bildirgan. Bundan ko'rinib turibdiki ishlab chiqarish korxonasi bilan OTM o'rtasida katta tafavut mavjud.

O'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, Kasb ta'limi "Dizayn" yo'nalishida ixtisoslik fanlarni o'qitishda 3D max texnologiyalaridan foydalanish darajasi past.

Aksariyat o'qituvchilar 3D max texnologiyasi bilan ishlash ko'nikmasiga ega emas. Bu esa olib borilgan tadqiqotning dolzarb ekanligini yana bir bor isbotladi.

3. Tadqiqotning uchinchi bosqichi – 2023-2024 yillarda:

tajriba-sinov ishlari davom ettirildi;

ishlab chiqilgan "Dizayn ob'ektini kompyuterda modellashtirish" ixtisoslik fani 3D max modellashtirish dasturlaridan foydalanib o'qitish bo'yicha o'quv mashg'uloti tanlangan oliy ta'lim muassasalarida o'qitildi;

ilmiy xulosalar chiqarish, tadqiqot natijalarini ilmiy asoslash, ularni faraz hamda vazifalarga mushtarakligi, ya'ni mosligi aniqlandi;

tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan umukasbiy fanlar o'qituvchilarining fikr-mulohazalari o'rganildi, ta'lim jarayoni sifati va samaradorligi oshganligiga ishonch hosil qilish maqsadida suhbatlar hamda so'rovnomalar o'tkazildi;

Tadqiqotimiz davomida to'plangan barcha materiallarga statistik ishlov berib, uning ishonchli ekanligini isbotlash va metodik ishlarimizni amaliyotga ommaviy targ'ib etish tadbirlari ko'rildi. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va natijalarining ob'ektivligini ta'minlash uchun har bir o'quv yilida bosqichma-bosqich ikkita parallel guruh tajriba-sinov va nazorat guruhi etib belgilandi. Nazorat guruhlarida ta'lim jarayoni amaldagi o'qitish metodikasiga binoan amalga oshirilgan bo'lsa, tajriba-sinov guruhlarida biz taklif etgan "Dizayn ob'ektini kompyuterda modellashtirish" ixtisoslik fani bo'yicha o'qitish jarayonini modellashtirish dasturlaridan foydalanib o'qitish asosida amalga oshirildi.

Adabiyotlar.

Ахмедов Ж.Р. Аxborotlashтирилган таълим муҳитида бўлажак касб таълими ўқитувчиларини инновацион фаолиятга тайёргарлигини такомиллаштириш//Пед.фан. док. (PhD) дисс.-Тошкент. 2020.59 б.

Маликова Е.А. Педагогические условия обучения компьютерной графике студентов-дизайнеров в высшем учебном заведении// Автореферат. кандидата педагогических наук [Электронный ресурс]. Москва.-2009. Стр5

## KOMPLEKS SONLAR VA ULAR USTIDA AMALLAR

Hasanov Behzod Normurot o'g'li

Buxoro davlat pedagogika instituti, "Matematika va informatika" yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
<https://orcid.org/0009-0004-9588-7130>

*Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada algebraik shakldagi kompleks sonlar va ular ustida amallar ko'rib chiqilgan. Maqolada, kompleks sonlar va ularning qo'shimcha amallarini, shu jumladan qo'shish, ko'paytirish, kvadrat ildizlarini hisoblashni, shuningdek, ularning o'zaro qo'shimcha xususiyatlarini tushuntirilgan. Maqolada kompleks sonlarning algebraik shaklini ta'riflash, ularning haqiqiy va mavhum qismlarini ajratib chiqarish, shuningdek, ularning o'ziga xos xossalarni ko'rsatadi. Barcha muammolar va hisoblash usullari asosida, ilmiy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan formulalar va ko'rsatkichlar maqolada taqdim etilgan. Maqolada qo'shimcha ravishda, algebra fanining kompleks sonlar bo'yicha tushunchalarini o'rganish, ularning amaliyotda qanday qo'llanilishi va algoritmik hal qilinishi ham ko'rsatilgan. Ushbu tadqiqotning natijalari algebra fanidan bo'lgan qiziqishni yana oshirib, mavzuni o'rganishni o'z ichiga olgan insonlar uchun foydali bo'ladi.*

*Tayanch iboralar: kompleks son; mavhum birlik; kompleks sonning haqiqiy va mavhum qismi; kompleks-qo'shma son; kompleks tekislik; haqiqiy va mavhum o'q; kompleks sonning absolyut qiymati va argumenti; kompleks sonning trigonometrik shakli; yig'indining absolyut qiymati haqidagi teorema; Muavr formulasi.*

## КОМПЛЕКСНЫЕ ЧИСЛА И ДЕЙСТВИЯ НАД НИМИ.

Хасанов Бекзод Нормурод угли,

Бухарский государственный педагогический институт, Студент 3 курса специальности  
 «Математика и информатика»

*Аннотация: В данной научной статье рассматриваются комплексные числа в алгебраической форме и операции над ними. В статье объясняются комплексные числа и их дополнительные операции, включая сложение, умножение, квадратные корни, а также их дополнительные свойства. В статье описана алгебраическая форма комплексных чисел, разделены их действительная и аннотационная части, а также показаны их уникальные свойства. На основании всех задач и методов расчета в статье представлены формулы и показатели, разработанные научными исследователями. Кроме того, в статье также показано изучение алгебраических понятий комплексных чисел, их практическое применение и алгоритмическое решение. Результаты этого исследования возродят интерес к алгебре и будут полезны тем, кто занимается изучением этого предмета.*

*Ключевые слова: Комплексное число; Аннотационное единство; действительная и аннотационная часть комплексного числа; комплексное число; сложная плоскость; реальная и аннотационная оси; абсолютное значение и аргумент комплексного числа; тригонометрическая форма комплексного числа; теорема об абсолютной величине суммы; Формула Муавра.*

## COMPLEX NUMBERS AND OPERATIONS ON THEM

Hasanov Behzod Normurot o'g'li Bukhara State Pedagogical Institute  
 3rd level student of «Mathematics and Informatics».

*Abstract: Complex numbers in algebraic form and operations on them are considered in this scientific article. The article explains complex numbers and their complementary operations, including addition, multiplication, square roots, and their complementary properties. The article describes the algebraic form of complex numbers, separates their real and abstract parts, and also shows their unique properties. Based on all problems and calculation methods, formulas and indicators developed by scientific researchers are presented in the article. In addition, the article also shows the study of algebraic concepts of complex numbers, their practical application and algorithmic solution. The results of this study will rekindle interest in algebra and be useful to those involved in the study of the subject.*

*Key words: Complex number; abstract unity; real and abstract part of a complex number; complex*

number; complex plane; real and abstract axis; absolute value and argument of a complex number; trigonometric form of a complex number; theorem about the absolute value of the sum; Muavr formula.

Kirish. Tajribalar shuni ko'rsatadiki boshlangan ishni sabr toqat bilan mustaqil ravishda tinmay izlanish oraqali ohiriga yetganlaridagina hayotda ko'zlagan maqsadlariga erishadilar. O'quvchi talabalarga ananviy hislatli tarbiyalashda mustaqil ishlarni tashkil etib o'ziga xos muhim o'rin tutadi. O'quvchi yoshlarni hozirgi kundan axborot oqimini nihoyatda kattaligi, fantexnika taraqqiyoti tufayli o'quvchi qanchalik mohir bo'lmasin, dars jarayonida qanchalik fan bo'yicha qanchalik bilimga ega bo'lmasin o'quvchilar bilimni yetkaza olmaydi. Uning to'ldirishni yagona yo'li o'quvchi talabalarining o'z ustilarida mustaqil ishlashlaridir. Shu nuqtai nazardan bizga berilgan o'qitish jarayonida talabalar mustaqil ishlarini tutgan o'rni, mustaqil talimga alohida diqqat qaratilishi mavzusi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

[3] maqolada informatika darslarida Python dasturlash tilida ma'lumot to'plamlari va turlari va texnologiyalaridan foydalanish to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

[4] maqolada o'quv fanlarini o'rganishda Python dasturlash tilini o'qitishda funksiyalardan foydalanish metodikasi va fanning tarixiga yondashuv ma'lum darajada o'quv jarayonini ilmiy bilimga yaqinlashtirishi hamda o'qituvchining informatika tushunchalari bilan tanishar ekan, dars jarayonida ularning tarixi va rivojlanishi (asosan, buyuk ajdodlarimiz xizmatlari) haqida so'z yuritishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishidi.

[5] maqolada matematika fanini o'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanilish masalasi tahlil qilingan. Darslarning qay darajada tashkillanishi bu o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga ham bog'liqligi qayd qilingan. O'quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlashi, ularni hayotga tadbiq eta olishga tayyorlanishi haqida so'z yuritilgan.

[6] maqolada bugungi fan va texnika rivojlangan davrda talabalar bilimini mustahkamlashda mustaqil ta'limning o'rni alohida ahamiyat kasb etishi qayd qilingan. Shu nuqtai nazardan mustaqil ta'limni bajarishda talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, mustaqil bilim olish, mustaqil ishlash va mustaqil o'z ustida ishlashga o'rgatish bugungi kunda juda muhimligi ta'kidlangan. Hamda talabalar mustaqil ta'limni tashkil etishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, talabalarga berilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalar haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

[7] maqolada ishga doir mantli masalalar va ular qanday turlarga bo'linishi, ularni yechish bosqichlari, bu kabi masalalarda uchraydigan asosiy qonuniyatlar haqida qisqacha tushunchalar keltirilgan. Ishga doir matnli arifmetik masalalarni yechishda qanday tasdiqlarga e'tibor berishimiz kerakligi haqida mulohazalarni umumlashtirib, mavzu bo'yicha masalalar yechimlari namuna sifatida keltirilgan. Keltirilgan tasdiqlar va mulohazalar bilan yechilgan masalalar o'quvchilar hamda fanni mustaqil o'rganuvchilarga matnli masalalarni qiyinchiliklarsiz o'zlashtirishga yordam berishi ta'kidlangan.

[8] maqolada talabalarni ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun bir qator nazariy va mantiqiy asoslar taqdim etilgan, ularsiz ko'rsatkichli tenglamalar va tengsizliklarni to'g'ri yechish imkonsizligi ta'kidlangan. Ko'rsatkichli tenglamalarning tipik variantlari va tengsizliklar, shuningdek, bunday muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

[9] maqolada ta'lim sohasini rivojlantirishda ilg'or tajribalardan foydalanib tengsizliklarni yechishda asosiy bilimlarga ega bo'lish va yechimlarni umumlashtirishda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligi to'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Algoritmik usul yordamida kasr-ratsional, irratsional, logarifmik va trigonometrik funksiyalarga doir tengsizliklarga oid misollarning yechimi keltirilgan.

[10-20] maqola o'quv jarayoni sifatini oshirish vositasi sifatida interfaol texnologiyalar samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bugungi kunda o'quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish keng joriy etilayotgani, bu esa o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirishni talab qilishi qayd qilingan. Interfaol usullar katta vaqt va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga qaratilganligi, o'quvchiga nazariy bilimlarni o'rgatish, muayyan faoliyat turlari bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallash, axloqiy fazilatlarini shakllantirish, o'quvchi bilimni nazorat qilish va baholash katta mahorat va ephillikni talab qilishi haqida so'z yuritilgan.

**Asosiy qism.** Bizga  $R$  haqiqiy sonlar to'plami berilgan bo'lsin.  $C = R \times R$  to'plamda qo'shish va ko'paytirish amallarini quyidagicha aniqlaymiz.

$$(a, b) + (c, d) = (a + c, b + d),$$

$$(a, b) \cdot (c, d) = (ac - bd, bc + ad).$$

Ravshaniki,  $C$  da aniqlangan qo'shish va ko'paytirish amallari uchun quyidagi shartlar bajariladi:

a) qo'shishning kommutativligi:  $(a, b) + (c, d) = (c, d) + (a, b),$

b) qo'shishning assotsiativligi:

$$[(a, b) + (c, d)] + (e, f) = (a, b) + [(c, d) + (e, f)],$$

c) ko'paytirishning kommutativligi  $(a, b) \cdot (c, d) = (c, d) \cdot (a, b),$

d) ko'paytirishning assotsiativligi:

$$[(a, b) \cdot (c, d)] \cdot (e, f) = (a, b) \cdot [(c, d) \cdot (e, f)].$$

Ushbu qonunning o'rinli ekanligi quyidagi tengliklardan kelib chiqadi:

$$\begin{aligned} [(a, b) \cdot (c, d)] \cdot (e, f) &= (ac - bd, ad + bc) \cdot (e, f) = \\ &= ace - bde - adf - bcf + acf - bdf + ade + bcf, \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} (a, b) \cdot [(c, d) \cdot (e, f)] &= (a, b) \cdot (ce - df, cf + de) = \\ &= ace - bde - adf - bcf + acf - bdf + ade + bcf. \end{aligned}$$

e) distributivlik qonuni:

$$[(a, b) + (c, d)] \cdot (e, f) = (a, b) \cdot (e, f) + (c, d) \cdot (e, f);$$

Qo'shish va ko'paytirish amallarini bog'lovchi ushbu distributivlik qonuni ham o'rinli bo'lishini tekshirish qiyin emas:

$$\begin{aligned} [(a, b) + (c, d)] \cdot (e, f) &= (a + c, b + d) \cdot (e, f) = \\ &= (ae + ce - bf - df, af + cf + be + de), \\ (a, b) \cdot (e, f) + (c, d) \cdot (e, f) &= (ae - bf, af + be) + (ce - df, cf + de) = \\ &= (ae + ce - bf - df, af + cf + be + de). \end{aligned}$$

Ta'kidlash joizki,  $(0, 0)$  element  $C$  to'plamning trivial (nol) elementi,  $(1, 0)$  element esa birlik elementi bo'ladi, ya'ni:

$$(a, b) + (0, 0) = (0, 0) + (a, b) = (a, b),$$

$$(a, b) \cdot (1, 0) = (1, 0) \cdot (a, b) = (a, b).$$

Ma'lumki, ixtiyoriy  $(a, b) \in C$  element qarama-qarshi  $(-a, -b)$  elementga ega.

Endi biz  $C$  to'plamdagi ixtiyoriy noldan farqli  $(a, b)$  elementning teskarilamuvchi ekanligini ya'ni  $(a, b) \cdot (x, y) = (1, 0)$  tenglama yechimga ega ekanligini ko'rsatamiz. Ushbu tenglamadan quyidagiga ega bo'lamiz

$$(ax - by, ay + by) = (1, 0).$$

Bu tenglikdan quyidagi ikki noma'lumli tenglamalar sistemasi hosil bo'ladi

$$\begin{cases} ax - by = 1, \\ bx + ay = 0. \end{cases}$$

Ma'lumki, bu sistema  $(a, b) \neq (0, 0)$  bo'lganda yechimga ega bo'lib,  $x = \frac{a}{a^2 + b^2}$ ,

$y = \frac{-b}{a^2 + b^2}$  ekanligi kelib chiqadi.

Demak,  $(a, b)$  element uchun teskari element

$$(a, b)^{-1} = \left( \frac{a}{a^2 + b^2}, -\frac{b}{a^2 + b^2} \right)$$

ko'rinishga ega bo'ladi.

1-ta'rif Qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari aniqlangan  $C$  to'plamga *kompleks sonlar to'plami*, uning elementlari esa kompleks sonlar deb ataladi.

Kompleks sonlar to'plamining  $(a, 0)$  ko'rinishidagi elementlari to'plamini  $R_1$  orqali belgilaymiz.  $C$  da kiritilgan qo'shish va ko'paytirish amallarini  $R_1$  da qaraymiz:

$$(a, 0) + (c, 0) = (a + c, 0),$$

$$(a, 0) \cdot (c, 0) = (ac, 0).$$

Ushbu tengliklardan ko'rinadiki,  $R_1$  to'plamdagi qo'shish va ko'paytirish amallari, haqiqiy sonlar to'plamidagi amallar kabi aniqlanadi.

$R_1$  va  $R$  to'plamlar orasida  $f((a, 0)) = a$  kabi  $f: R_1 \rightarrow R$  moslik o'rnatilsa, yuqoridagi tengliklardan ushbu moslik ko'paytma va yig'indi amallarini saqlashi kelib chiqadi. Demak,  $(a, 0) = a$  deb olish mumkin.

Agar  $(0, 1)$  elementni  $i$  orqali belgilasak,

$$i^2 = (0, 1) \cdot (0, 1) = (-1, 0) = -1$$

bo'ladi. Ushbu  $i \in C$  elementga *mavhum birlik* deyiladi. Ixtiyoriy  $(a, b) \in C$  uchun

$$(a, b) = (a, 0) + (0, b) = (a, 0) + (b, 0) \cdot (0, 1) = a + bi$$

tenglikni yozishimiz mumkin. Shunday qilib,  $C$  kompleks sonlar to'plamining ixtiyoriy elementini  $z = a + bi$  shaklda yozish mumkin. Bu shaklga kompleks sonning *algebraik shakli* deyiladi.

Kompleks sonning algebraik shaklidagi  $a$  soniga kompleks sonning haqiqiy qismi deyiladi va  $Re(z)$  orqali belgilanadi. Undagi  $b$  soni esa  $z$  kompleks sonning mavhum qismi deyiladi va  $Im(z)$  orqali belgilanadi. Mavhum qismi nolga teng bo'lgan kompleks sonlar haqiqiy sonlar bo'lsa, haqiqiy qismi nol bo'lgan kompleks sonlar mavhum kompleks sonlar deyiladi.

Ushbu  $\bar{z} = a - bi$  kompleks soni  $z = a + bi$  kompleks soniga qo'shma kompleks son deyiladi. Qo'shma kompleks sonlar uchun

$$z + \bar{z} = (a + bi) + (a - bi) = 2a,$$

$$z \cdot \bar{z} = (a + bi) \cdot (a - bi) = a^2 + b^2$$

tengliklar o'rinli, ya'ni kompleks sonning o'z qo'shmasiga yig'indisi va ko'paytmasi haqiqiy son bo'ladi.

**1-xossa. Kompleks sonlarning qo'shmasi quyidagi xossalarga ega:**

$$a) \overline{z_1 + z_2} = \overline{z_1} + \overline{z_2};$$

$$b) \overline{z_1 - z_2} = \overline{z_1} - \overline{z_2};$$

$$c) \overline{z_1 \cdot z_2} = \overline{z_1} \cdot \overline{z_2};$$

$$d) \overline{\begin{pmatrix} z_1 \\ z_2 \end{pmatrix}} = \begin{pmatrix} \overline{z_1} \\ \overline{z_2} \end{pmatrix}.$$

Kompleks sonning teskarisini topishda uning qo'shmasidan foydalanish juda qulay hisoblanadi:

$$(a+bi)^{-1} = \frac{1}{a+bi} = \frac{1}{a+bi} \cdot \frac{a-bi}{a-bi} = \frac{a-bi}{a^2+b^2} = \frac{a}{a^2+b^2} - \frac{b}{a^2+b^2}i.$$

**1-tasdiq.** Bizga  $z = a+bi$  kompleks son berilgan bo'lib,  $u+vi$  uning kvadrat ildizi bo'lsin, u holda

$$u = \pm \sqrt{\frac{1}{2} \left( a + \sqrt{a^2 + b^2} \right)},$$

$$v = \pm \sqrt{\frac{1}{2} \left( -a + \sqrt{a^2 + b^2} \right)}.$$

**Isbot.** Aytaylik,  $\sqrt{a+bi} = u+vi$  bo'lsin. U holda bu tenglikni ikkala tomonini kvadratga ko'tarsak,

$$(u+vi)^2 = a+bi$$

tenglikni hosil qilamiz. Bundan

$$\begin{cases} u^2 - v^2 = a, \\ 2uv = b. \end{cases} \quad (1)$$

tenglamalar sistemasi kelib chiqadi. Bu sistemadagi tenglamalarning har birining ikkala tomonini kvadratga ko'tarib, so'ngra ularni qo'shsak, quyidagi tenglikka ega bo'lamiz:

$$(u^2 - v^2)^2 + 4u^2v^2 = (u^2 + v^2)^2 = a^2 + b^2.$$

So'nggi tenglikdan  $u^2 + v^2 = \sqrt{a^2 + b^2}$  (ildiz musbat ishorali, chunki tenglikning chap tomoni musbat son). Bu tenglikdan va tenglamalar sistemasi birinchi tenglamasidan quyidagilarni hosil qilamiz:

$$u^2 = \frac{1}{2} \left( a + \sqrt{a^2 + b^2} \right),$$

$$v^2 = \frac{1}{2} \left( -a + \sqrt{a^2 + b^2} \right).$$

Kvadrat ildizdan chiqarib,

$$u = \pm \sqrt{\frac{1}{2} \left( a + \sqrt{a^2 + b^2} \right)},$$

$$v = \pm \sqrt{\frac{1}{2} \left( -a + \sqrt{a^2 + b^2} \right)}$$

$u$  va  $v$  larni topamiz. (4.1) tenglamalar sistemasining ikkinchi tengligiga ko'ra  $uv$  ko'paytmaning ishorasi  $b$  ning ishorasi bilan bir xil bo'ladi, ya'ni agar  $b > 0$  bo'lsa,  $u$  va  $v$  lar bir vaqtning o'zida musbat yoki manfiy ishorali, agar  $b < 0$  bo'lsa,  $u$  va  $v$  lar turli ishorali bo'ladi.

Shunday qilib, ixtiyoriy kompleks sonning ikkita kvadrat ildizi mavjud va ular bir-biridan ishorasi bilan farq qiluvchi sonlar bo'ladi. Xususan, manfiy haqiqiy sonlardan ham kvadrat ildiz chiqarish mumkin. Haqiqatan ham, agar  $a < 0$  va  $b = 0$  bo'lsa, u holda  $\sqrt{a^2 + b^2} = -a$  (bu ildiz musbat) va  $u^2 = \frac{1}{2}(a - a) = 0$ , ya'ni  $u = 0$  bo'ladi. Demak,

$$\sqrt{u} = \pm \sqrt{-a} \cdot i \text{ bo'ladi.}$$

1-misol.  $z = -35 - 12i$  kompleks sonning kvadrat ildizlarini toping. Bu yerda  $a = -35$ ,  $b = -12$  ekanligi uchun

$$\sqrt{a^2 + b^2} = \sqrt{1225 + 144} = \sqrt{1369} = 37.$$

Shuning uchun

$$u^2 = \frac{1}{2}(35 + 37) = 36,$$

$$v^2 = \frac{1}{2}(-35 + 37) = 1.$$

Demak,  $u = \pm 6$ ,  $v = \pm 1$ , hamda  $b < 0$  bo'lganligi sababli,  $u$  va  $v$  larning ishoralari turli xil bo'ladi, shuning uchun

$$\sqrt{-35 - 12i} = \pm(6 - i).$$

2-misol.  $(2 + 4i)z^2 + 2z + 6 - 6i = 0$  kvadrat tenglamani kompleks sonlar maydonida yeching.

Kvadrat tenglamaning diskriminanti  $D = 2\sqrt{-35 - 12i} = 2(6 - i)$  bo'lib,

$$z_1 = \frac{-2 - 2(6 - i)}{2(2 + 4i)} = \frac{-7 + i}{2 + 4i} \cdot \frac{2 - 4i}{2 - 4i} = \frac{-10 + 30i}{4 + 16} = \frac{-10 + 30i}{20} = -\frac{1}{2} + \frac{3}{2}i.$$

$$z_2 = \frac{-2 + 2(6 - i)}{2(2 + 4i)} = \frac{5 - i}{2 + 4i} \cdot \frac{2 - 4i}{2 - 4i} = \frac{6 - 22i}{4 + 16} = \frac{6 - 22i}{20} = \frac{3}{10} - \frac{11}{10}i.$$

Yuqoridagi ma'lumotlarni qanchalik tushunib o'rganganingizni bilib olish uchun takrorlash, foydalanib bilimingizni tekshirib olish maqsadida aqliy hujum metodidan foydalaning [1,4].

Aqliy hujum metodida – o'quvchi talabalarga tezkor savollar berib ularni mavzudan nimalarni yaxshi o'zlashtirib

olganlikrini bilib olish mumkin

Takrorlash uchun savollar:

1. Haqiqiy sonlar maydonining kengaytmasini quring.
2. Kompleks son qanday hosil qilingan?
3. Kompleks sonlar ustida arifmetik amallarni aniqlang.
4. Kompleks sonlar to'plami maydon tashkil etishini isbotlang.
5. Kompleks sonning qo'shmasi xossalarini isbotlang.
6. Kompleks son moduliga ta'rif Bering.

Hozirgi kunda har bir sohada chet tilini bilish dunyo talabiga aylanib boryapti, shu sababdan fanlar orasida integratsiyani qo'llagan holda mavzuga oid atamalarini chet tili, ingliz tilida qanday bo'lishini ko'rib chiqing va ularning izohiga alohida to'xtalib bilimingizni mustahkamlab oling.

Integratsiya – qaysi sohada bo'lmasin bir nechta yo'nalishni yoki tarmoqni o'zaro bog'liqligini anglatadi.


| Terms                     | Atamalar                       | Izoh   |
|---------------------------|--------------------------------|--|
| <u>Complex number</u>     | Kompleks son                   | $a+bi$ ko'rinishdagi ifoda (bu yerda $a$ va $b$ –haqiqiy sonlar, $i$ -mavhum birlik) kompleks son deyiladi. $a$ soni kompleks sonning haqiqiy qismi, $bi$ esa uning mavhum qismi deyiladi. |
| Two equal complex numbers | Ikki teng kompleks sonlar      | Ikki $a+bi$ va $s+di$ kompleks sonlar faqat va faqatgina $a=c$ va $b=d$ bo'lgandagina bir-biriga teng deyiladi   |
| Joint complex numbers     | O'zaro qo'shma kompleks sonlar | $a+ib$ va $a-ib$ ko'rinishidagi kompleks sonlar o'zaro qo'shma kompleks sonlar deyiladi  |
| The formule of Muavr      | Muavr formulasi                | $z^n = (r(\cos\varphi + i \sin\varphi))^n = r^n (\cos n\varphi + i \sin n\varphi)$   |

Krossvord metodi orqali o'z bilimingizga qanchalik qat'iyatli ekaningizni tekshirib olasiz. Krasvord metodida mavzuga oid "KOMPLEKS" so'zi asos qilib olingan.

Krasvord savollari:

1. kompleks sonning qanday ko'rinishi?
2. \_\_\_ ..... formulasi
3.  $C$  harfi bilan belgilanadigan sonlar to'plami bu \_\_\_ ..... sonlar to'plami
4. kompleks sonning qanday ko'rinishi?
5.  $\phi$  kompleks sonning qanday qismi ?
6. kompleks sonlar ustida qanday ish bajarib bo'lmaydi?





Xulosa: bu maqola algebraik shakldagi kompleks sonlar va ular ustida amallar bo'yicha ilmiy tadqiqotni o'z ichiga olgan. Ushbu tadqiqotda, kompleks sonlar va ularning qo'shimcha amallari, shu jumladan qo'shish, ko'paytirish, kvadrat ildizlarini hisoblash va o'zaro qo'shimcha xossalari ko'rib chiqilgan. Maqola, kompleks sonlarning haqiqiy va mavhum qismlarini ajratib chiqarish, shuningdek, ularning o'ziga xos xossalarni ko'rsatadi.

Maqola, ilmiy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan formulalar va ko'rsatkichlarni taqdim etadi, shuningdek, «Fundamental of Abstract Algebra» (Malik D.S., Mordeson J.N., Sen M.K., 1997) va «Algebra and Number Theory» (Martyn R. Dixon, Leonid A. Kurdachenko, Igor Ya. Subbotin, 2010) kabi maqbul adabiyotlardan foydalanilgan.

Xulosa, algebra fanining kompleks sonlar bo'yicha tushunchalarini o'rganish, ularning amaliyotda qanday qo'llanilishi va algoritmik hal qilinishi bo'yicha o'z fikrini bildiradi. Ushbu tadqiqotning natijalari algebra fanidan bo'lgan qiziqishni yana oshirib, mavzuni o'rganishni o'z ichiga olgan insonlar uchun foydali bo'ladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Malik D.S., Mordeson J.N., Sen M.K. Fundamental of abstract algebra. WCB McGraw-Hill, 1997.

Martyn R. Dixon, Leonid A. Kurdachenko, Igor Ya. Subbotin, "Algebra and number theory" 2010.

3. Nozimbek Zaripov, Behzod Hasanov Python dasturlash tilida ma'lumot to'plamlari va turlari Interpretation and researches 2023/5/27 Tom 1 . №1 c.

4. Nozimbek Zaripov, Behzod Hasanov Python dasturlash tilini o'qitishda funksiyalardan foydalanish metodikasi Talqin va tadqiqotlar 2023/2/27 Tom 1. №18 c.

5. Hasanov Behzod Normurot o'g'li Matritsa ustida amallar bajarish metodlari Educational research in universal sciences, 2024/3/3 c.38–45.

6. Behzod Hasanov. Kompyuter tarmoqlari haqida umumiy tushunchalar. Ilm-fan va ta'lim 2024/4/14. 5 (20) c.221-226.

7. Hasanov Behzod Normurot o'g'li Zaripov Nozimbek Nayimovich. Pythonda masalalarni dasturlash

va ularni o'qitish metodikasi. Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari". 2023/5/30.c. 462-464.

8. Hasanov Behzod normurot o'g'li zaripov nozimbek nayimovich. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dasturlash tillarini o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'limda xalqaro tajribalar: yangi avlod darsliklari, milliy dastur va raqamli texnologiyalar integratsiyasi. 2023/5/19. C. 791-793

9. Zaripov Nozimbek Nayimovich, Hasanov Behzod Normurot O'G'Li. Python dasturlash tilini o'qitishda funksiyalardan foydalanish metodikasi. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2023 . Tom 1 №1 c. 15-19.

10. Hasanov B.N Zaripov N. N.. Python dasturlash tilida foydalanuvchi grafik interfeysi imkoniyatlari. Математик моделлаштириш ва ахборот технологияларининг долзарб масалалари» халқаро илмий-амалий анжуман. 2023/5/2. Том 3 №3 с. 455-457.

11. Hasanov B.N Zaripov N. N. Python dasturlash tilida ma'lumot to'plamlari va turlari. Lm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida ilmiy konferensiya ". 2023/5/20.c. 275-277.

12. Nozimbek Zaripov, Behzod Hasanov. Scratch dasturlash muhitida tarmoqlanuvchi bloklar bilan ishlash. Евразийский журнал академических исследований. 2023/6/6. Том 3. №6 с.98-101.

13. Hasanov Behzod Normurot o'g'li Zaripov Nozimbek Nayimovich. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dasturlash tillarini o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'limda xalqaro tajribalar: yangi avlod darsliklari, milliy dastur va raqamli texnologiyalar integratsiyasi. 2023/5/19. C. 791-793.

14. A. Sh. Rashidov Matematika darslarida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi. Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet

15. A.Sh. Rashidov Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishi talabalari uchun matematik fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish. Science and Education №9. C 283-291

16. O.O.Халлоқова. А.Рашидов Пороговое собственное значение модели Фридрикса. Молодой ученый, 2015 №15. С. 1-3

17. A. Sh. Rashidov Interaktivnyye metody pri izuchenii temy «Opredeleennyy integral i yego prilozheniya». Nauchnyye issledovaniya. № 34:3. C 21-24

18. A. Sh. Rashidov Yoshlar intellektual kamolotida ijodiy tafakkur va kreativlikning o'rni. Pedagogik mahorat 2021 yil №7. 114-116 bet.

19 .A.Sh. Rashidov. Matematika fanlaridan talaba yoshlar ijodiy tafakkurini rivojlantirish. Fan va jamiyat №3. C 45-46

20. A.Sh. Rashidov zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilqor tajribalar. Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet 8-14

## ALGORITMLAR ISHLAB CHIQUISH METODLARI VA ULARNING TAHLILI

Hasanova Dilafroʻz Boʻronovna  
Buxoro davlat pedagogika instituti, "Aniq fanlar" kafedrasida o'qituvchisi

*Annotatsiya.* Hozirda axborot-texnologiyalar dasturlarini loyihalashda algoritmlarni sodda, tushunarli, xatosiz, aniq qadamlarda tezkor natija beradigan algoritm tuzish muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada berilgan masalani algoritmini tuzish uchun loyihalash texnikasi asosida qadamlar ketma-ketligida ko'rib chiqish va turli metodlar bilan ishlab chiqish, tahlil qilish va algoritmlarning kompyuter qurilmalari samaradorligiga ta'siri ochib berilgan.

*Kalit so'zlar:* algoritm, chiziqli, tartiblash, izlash, samaradorlik, Big O, blok-sxema.

## МЕТОДЫ РАЗРАБОТКИ АЛГОРИТМОВ И ИХ АНАЛИЗ

Хасанова Дилафруз Бурановна  
Бухарский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры точных наук

*Аннотация:* В настоящее время при разработке программ информационных технологий важным фактором является создание алгоритмов, простых, понятных, безошибочных и дающих быстрые результаты на конкретных шагах. В данной статье представлен пошаговый обзор на основе методики проектирования создания алгоритма для заданной задачи и разработки различными методами, анализ и влияние алгоритмов на эффективность компьютерных устройств.

*Ключевые слова:* алгоритм, линейный, поиск, поиск, эффективность, Big O, блок-схема.

## ALGORITHM DEVELOPMENT METHODS AND THEIR ANALYSIS

Hasanova Dilafuz Buronovna  
Bukhara State Pedagogical Institute, Teacher of the «Exact Sciences» department

*Abstrakt.* Currently, in the design of information technology programs, it is an important factor to create algorithms that are simple, understandable, error-free, and give quick results in specific steps. In this article, a step-by-step review based on the design technique for creating an algorithm for the given problem and development with different methods, analysis, and the impact of algorithms on the efficiency of computer devices are revealed.

*Key words:* algorithm, linear, searting, search, efficiency, Big O, flowchart.

*Kirish.* Bugunda hammaga ayonki, axborot texnologiyalarning zamonaviyligi, samaradorligi va qulayligi har bir sohadan tortib ijtimoiy hayotgacha bo'lgan asosiy ustivorlikni belgilaydi. Garchi, buni anglasakda lekin bu qurilmalarning va dasturlarning asosida yotgan algoritmlar, ularning ishlash tartibida nimalar hisobga olinganligi to'g'risida har doim ham bilavermaymiz. Buyuk Britaniyalik olim Devid Xarel o'zining "Algoritmika:hisoblash ruhi" kitobida "Algoritmika bu kompyuter fanining bir bo'limi emas. Bu informatika fanining o'zagi..." deb ta'riflaydi. Algoritmishni o'rganish nafaqat kompyuter fanlarini bilishga turtki beradi, shuningdek muammolarni hal qilish strategiyasini ishlab chiqishni ham o'rgatadi. Berilgan masalaning dasturini tuzganda bu kompyuter parametrlariga qay darajada ta'sir qilishi va bu jarayonlarni qay tartibda foydali jihatlarini oshirish ishlab chiqilayotgan algoritmgaga bog'liq. Villanova universiteti professori Anany Levitin "Algoritmlarning tahlili va turlari" ilmiy nashrida algoritmlar ikkita muqobil variantga ko'ra tavsiylaydi; birinchisi asosan berilgan masalaning turiga qarab tavsiflaydi va ularni lineary(chiziqli), searting(tartiblash), searching(izlash) turlariga bo'lib o'rganish bo'lsa, ikkinchi alternativa esa bu algoritmlarni loyihalash texnikasi asosida tashkil qiladi.

Bizning darslik va adabiyotlar birinchi variantga ko'ra algoritmlarni o'rganish va o'rgatish keng tarqalgan bo'lib, buning ham o'z navbatida ijobiy tomoni turli algoritmlarni samaradorligini taqqoslash darhol namoyon bo'ladi va kamchilik sifatida loyihalash texnikasi sifatida muammo turlariga urg'u berilishini aytib o'tishimiz mumkin. Algoritmlarni loyihalash bugungi kompyuter fanlarini tezkorlik bilan rivojlanayotgan bir paytda eng yaxshi loyihalash usuli bo'lib, tuzuvchini aniq bir qolipga solib qo'ymasdan uning tanqidiy fikrlashini va yaratuvchanligini shakllantiradigan metod hisoblanadi. Biz quyida ko'rib chiqadigan algoritmlarni loyihalash texnikasiga asoslangan qadamlar bo'lib, qo'yilgan masalani to'g'ri va samarali yechib berish usullarini ochib beradi.

Qo'yilgan masalaning turiga qarab algoritmlar ishlab chiqiladiki, bitta muammoning yechimi bir necha

usulda yechish mumkinki, qat'iy bir usulni belgilab olish xatodir. Lekin algoritmlarni ishlab chiqishda quyidagi bosqichlarga amal qilish berilgan masalani samarali hal qilishga olib keladi.

Amaliy jihatdan algoritmlarni loyihalashdan oldin berilgan loyihani to'liq tushunish muhimdir. Berilgan masalani to'liq tushunib olinganligiga ishonch hosil qilinib, keyin qaror qabul qilish kerak.

Muammoni to'liq tushunib yetgandan keyin, algoritm uchun mo'ljallangan hisoblash qurilmasini imkoniyatlarini ko'rib chiqish kerak. Biz kompyuter xotirasi yoki protsessor haqida o'ylashimiz kerakmi? Agar siz o'rganish bosqichida algoritm tuzayotgan bo'lsangiz bu haqda qayg'urmasangiz ham bo'ladi. Lekin, aniq bir masalalarni hal qilishga mo'ljallangan, katta ma'lumotlar bazasi bilan ishlaydigan algoritmlar haqida gapirsak, albatta buni inobatga olishimiz kerak. Masalan, biz ro'yxat elementlari bilan ishlaydigan algoritm yoqsak, berilgan ro'yxatning 20-indeksida turgan elementgacha chiziqli qidiruv (linary reserch) bilan tuzilgan algoritmda yigirma marta xotira va protsessor o'rtasida borib kelish jarayonini amalga oshiradi. Bu esa o'z navbatida aytish mumkinki, katta hajmli ro'yxat elementlarida indeks katta raqamli bo'lsa ancha ko'p resurs ya'ni protsessor va xotira xizmatini egallaydi.

Bugungi kunda biz sekin ishlashi bilan noliydigan kompyuterlarimiz protsessori chastotasi  $F=1.10\text{GHz}$  ya'ni bu kompyuter 1 daqiqada  $1.10 \cdot 10^9$  (milliard) amal bajaradi degani. Bu ham aslida yuqori ko'rsatkich bo'lsada bugunda bu tezlikdagi kompyuterlar ishlash samaradorligi past hisoblanadi. Chunki grafik imkoniyatlari yuqori va internet bilan bog'liq dasturlarda ishlashimiz tufayli bu parametrlar sifatli kompyuter xizmatini ko'rsatib bera olmasligi mumkin. Algoritmlar ishlash tezligini o'lchab beruvchi mezon bu Big O (Big Order complexity-katta buyurtma murakkabligi) hisoblanadi. Bu algoritmdagi eng minimal tezlikni o'lchaydi. O'lchov birligi opreatsiyalar soni hisoblanadi. Chiziqli qidiruv algoritm uchun  $O(n)$ , Binar qidiruv (Binary search)algoritmlarda  $O(\log_2 N)$  bilan o'lchanadi.

Keyingi asosiy qadam muammoni aniq hal qilish yoki taxminiy hal qilish o'rtasida bir qarorga kelishdir. Aniq yechimga ega algoritmlardan tashqari yana algoritmgaga yaqinlashi algoritmi deb ataluvchi loyihalar ham borki, masalan, kvadrat ildizlarni chiqarish, aniq integrallarni baholash kabilar shular jumlasidandir. Bu darajadagi masalalar ichki murakkabligi tufayli masalani yechimini sekinlashtirishi mumkin.

Ba'zi algoritmlar sodda ma'lumotlar bilan ishlasa, ba'zilar murakkab ma'lumotlar tuzilmasiga bog'liq va o'z navbatida zukkolikni va aqlni talab qiladi. Ma'lumotlar tuzilmasini tegishli tahlil qilib, algoritmlarni loyihalansa, sifati yaxshilanadi.

Eng asosiy qadamlardan biri bu-algoritmlarni loyihalash hisoblanadi. Algoritmlarni loyihalash bu (strategiya yoki paradigma ham deyiladi)turli sohalarida qo'llanilishi qo'llanilishi mumkin bo'lgan algoritmik muammolarni hal qilish umumiy yondashuvi hisoblanadi. Nima uchun bu texnikaga urg'u berishimiz kerak. Bu soha hali yangi masalalarni yechishda ko'rsatmalar beradi. Talaba bir qolipga tushib qolmasdan yangilik qilishga, uni amaliy sinab ko'rishga imkon beradi.

Algoritmlarni yaratgandan so'ng uni qaysi bir tarzda belgilab olishimiz kerakki, u bosqichma-bosqich bo'lsin hamda tushunarli. Odatda, ikkita usul juda keng tarqalgan: birinchidan, tabiiy tildan foydalanish. Bu juda ommalashgan bo'lsada ba'zi hollarda ya'ni boshqa tildagi foydalanuvchilar uchun bu tushunarsiz bo'lishi mumkin. Ikkinchi keng tarqalgan usul, pseudocode-ya'ni tabiiy til va zamonaviy dasturlash tilining uyg'unligidagi algoritmlar ifodalash usuli. Bu usul aniq bir qonun-qoidalarga bo'ysunmaydi va dasturchilar uchun tushunarli.

Hisoblash texnikasining rivojlanish bosqichlarida flowchart-blok-sxemalarda ifodalangan algoritmlar keng tarqalgan edi. Bular algoritmik qadamlarni geometrik shakllarda ifodalagan edi. Bu ifodalash usuli faqat oddiy algoritmlar uchun qulay bo'lib, murakkab algoritmlarni ochib berish qiyinchilik tug'dirardi. Bugungi kunda bu turdagi algoritmlarni deyarli uchratmaymiz.

Algoritmni ishlab chiqqandan keyin biz uni to'g'riligini isbotlashimiz kerak. Ya'ni cheklangan vaqtda, chekli qadamlar bilan to'g'ri natija berishini isbotlashimiz kerak. Ba'zi algoritmlarni isbotlash juda oson, ba'zilar juda murakkab bo'lishi mumkin. To'g'riligini isbotlashning eng keng tarqalgan usuli matematik induksiyadan foydalanish usulidir. Chunki algoritmlar iteratsiyasi bu kabi isbotlar uchun zarur ketma-ketlikni ta'minlaydi. Algoritm noto'g'ri ekanligini ko'rsangiz uning ma'lumotlar tuzilmasi yoki dizayn texnikasi bo'yicha qadamlarni qayta ko'rib chiqishingiz kerak.

Algoritmi to'g'riligini tekshirib ko'rgandan keyin eng asosiysi uning samaradorligi hisoblanadi. Vaqt samaradorligi algoritm qanchalik tez ishlashini ko'rsatsa, joy samaradorlik qancha qo'shimcha xotira olganligini ko'rsatadi. Algoritmlarning yana bir muhim jihati ularning oddiyligidadir. Chunki soddaroq algoritmlarni dasturlash oson bo'lib bu o'z navbatida dasturlash jarayonidagi xatolarni oldini oladi. Agar algoritm samaradorligi, soddaligi yoki umumiyliigi sizni qoniqtirmasa yuqorida aytib o'tilgan qadamlarni qayta ko'rib chiqishga to'g'ri

keladi.

Xulosa. Algoritmni loyihalashda yuqorida berib o'tilgan qadamlar ularning to'g'ri tuzilishini, sodda va tushunarligini hamda kompyuter resurslaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, uni dasturlash jarayonidagi xatolarni kamaytirib, tushunarli dastur tuzishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anany Levitin. Introduction to the design & analysis of algorithms. 2005
2. Anvar Narzullayev. <https://www.youtube.com/watch/algortimdarlari>
3. R.Robert Gajevski. Algorithms and programming flowcharts and flowgorithm.us.edu.pi
4. Kurt Mehlhom. Algorithms and programs. Resources.mpi-inf.mpg.de
5. Jurayeva N.O. Fundamentals of Organizing Students' Independent Work Using Mobile Applications. Child Studies in Asia-Pacific Context (CSAC). 2022, 12 (1); 255-266
6. Жўраева Н.О. Организация самостоятельного обучения по предмете «информационно-коммуникационные технологии». International Conference on New Scientific Methodologies (online-conferences). -327-331
7. Jo'rayeva N.O. Mobile Softwareanwendungen zur Organisation unabhängiger Bildung// Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol. 2, Issue 1.5 (2022), – P. -661-664.
8. Jurayeva N.O. Specific aspects and principles of the method of organizing independent education of students. Actual problems of modern science, education and training". №8, Xorazm, 2022. – P. 23-27
9. Н.О.Жўраева. Таълим жараёнида мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш бўйича айрим кўрсатмалар. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. №3, 2021 йил. -170-176 б
10. Sameer Punjal.Fibonacci Algorithms. Eskeype.github.io.2018

## SHARQ ALLOMALARI MEROSI ASOSIDA TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK STRATEGIYALARI

*Ishanova Muhayyoxon Muxtorovna  
Andijon davlat chet tilar instituti*

*Annotatsiya. Maqolada Oliy ta'lim jarayonida Sharq allomalari merosi asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik – psixologik imkoniyatlari, strategiyalari, ularni oilaviy hayotga moslashuvi uchun zaruriy ko'nikmalarni tarkib toptirishga yordam beruvchi bilim, ko'nikma va malaka bilan qurollantirish zarurati, globollashuv sharoitida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ta'lim jarayonini qadriyatli yondashuvlarga asoslangan holda tashkil etishning pedagogik va psixologik jihatlari, oila munosabatlarida mas'uliyat va moslashuvchanlik ko'nikmalariga ruhiy ijtimoiy jihatdan mustahkam ega bo'lishga erishuvini ta'minlanishiga oid nazariy ma'lumotlar bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar. allomalar merosi, integratsiya, kontseptsiya, pedagogika, psixologiya, resurs, ko'nikma, oila, qadriyat, aksiologiya, zamonaviy ta'lim, shaxsiy sifatlar.*

## ПЕДАГОГИКО - ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ УЧЕНЫХ

*Ишанова Мухайёхон Мухтаровна  
Андижанский государственный институт иностранных языков*

*Аннотация. В статье рассматриваются педагогико – психологические возможности, стратегии подготовки студентов к семейной жизни на основе наследия восточных ученых в высшем образовании, необходимость вооружения их знаниями, умениями и навыками, способствующими формированию у них навыков, необходимых для адаптации к семейной жизни, педагогические и психологические аспекты организации образовательного процесса на основе ценностных подходов в подготовке молодежи к семейной жизни в условиях глобализации к навыкам ответственности и гибкости касающиеся обеспечения достижения социально устойчивого положения.*

*Ключевые слова. наследие ученых, интеграция, концепция, педагогика, психология, ресурс, навыки, семья, ценность, аксиология, современное образование, личностные качества.*

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STRATEGIES FOR PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE BASED ON THE LEGACY OF ORIENTAL SCIENTISTS

*Ishanova Mukhayekhon Mukhtarovna  
Andijan State Institute of Foreign Languages*

*Abstract. The article examines pedagogical and psychological possibilities, strategies for preparing students for family life based on the legacy of Oriental scientists in higher education, the need to equip them with knowledge, skills and abilities that contribute to the formation of skills necessary for adaptation to family life, pedagogical and psychological aspects of the organization of the educational process based on value-based approaches in preparing young people for family life in the context of globalization to the skills of responsibility and flexibility related to ensuring the achievement of a socially sustainable position.*

*Keywords. the heritage of scientists, integration, concept, pedagogy, psychology, resource, skills, family, value, axiology, modern education, personal qualities.*

Qadimdan ma'lumki, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, poydevori bo'lib hisoblanib, uning mustahkamligi, ilmiy va ma'naviy salohiyati yuqoriligi bu har bir davlat uchun katta boyligidir. Shuning uchun ham yurtimizda oilaga e'tibor, oila mustahkamligi, tinchligi, salomatligini ta'minlash, yosh avlod ta'lim-tarbiyasida milliylik va qadriyatlarga asoslanishga oid olib borilayotgan islohotlar davlatimiz siyosati darajasidagi ustuvor ahamiyatga ega masala desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Sharq allomalari merosi ta'lim sohasida talabalarni oilaviy hayotning murakkabliklarini ishonchli va malakali bosib o'tishga tayyorlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Sharq allomalari merosi shunchaki ta'lim

mazmunini boyitishga xizmat qilibgina qolmay, balki talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu jarayon ta'limni integratsiyalash asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularga munosabatlarga kirisha olish, mas'uliyat va boshqaruvchanlik kabi hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.


Oliy ta'limda Sharq allomalari asarlarida yoshlarning oilada barkamol bo'lishi uchun ularda qadriyatlar, hayotiy ko'nikmalar va hissiy aqlni shakllantirish muhimligi ta'kidlangan. Bu ta'limning oilaviy hayotning murakkabliklarini yengishga qodir bo'lgan har tomonlama barkamol shaxslarni shakllantirishdagi roli ta'kidlangan.

Jumladan, ajdodlarimiz merosida oilaning mustahkamligi va muvaffaqiyati shu oilada tarbiyalangan farzandlarning hayoti davomida erishgan natijalari, ota-onalariga bo'lgan muomalasi, atrofdagilarga munosabati, jamiyatdagi o'rni va ahamiyati bilan belgilanadi.

Shaxs xarakterida ta'lim va tarbiya orqali, tashqi ta'sirlar, oiladagi muhit, pedagogik hamda psixologik vaziyatlar orqali tarkib topadigan fazilat va illatlar mundarijasi juda keng bo'lib, ular shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganiladi (1-rasmga qarang).

### 1-rasm. Sharq allomalari asarlarida shaxs xarakteridagi fazilat va illatlarni

#### o'rganish mazmuni



Birinchi guruhga shaxsning kamol topishida zaruriy ijobiy fazilatlarini shallantirishga qaratilgan yo'l-yo'riqlar, o'g'itlar, nasihatlar, hayot tajribasi, xatti-harakatlar haqidagi tushuncha va g'oyalar majmuasi kiradi.

Bular qatoriga, eng avvalo, odob, ta'lim-tarbiya, iste'dod, ilm olish, olim bo'lish, ustoz va shogird munosabatlari, kasb-hunar olish, yaxshi fazilatlar, husni xulq, oila, ota-ona, farzand, aka-uka, qarindosh-urug' va qo'ni-qo'shnilar, suhbatlashish madaniyati, do'st, do'stlik, qavmu-qarindosh, aql, aqlning fazilatlarini, donolik, xalq, Vatan, yoshlik, yigitlik, mardlik, botirlik, shijoat, xushyorlik va ularning foydalari, or-nomus, hayo, iffat va kamtarlik, va'da, va'daga vafo, yaxshilik, izzat, obro', ulug'lik, qadr-qimmat, baxt, sabr, chidam, sahoovat, oliyjanoblik, adolat, haqiqat, go'zallik, uzr va kechirimlilik, xalol mehnat, tinchlik, omonlik, xotirjamlik, vijdon, samimiyat, bag'rikenglik, ishonch, o'z-o'zini anglash, e'tiqod, nomus, muhabbat haqidagi va boshqa bir qator insoniy fazilatlar kiradi.

Shu bilan birga yosh avlodga salbiy illatlarni ifodalovchi bir qator hatti-harakatlar haqidagi hikmatlarni yoritib, tushuntirib berish ham maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Bular jumlasiga beodoblik, qobiliyatsizlik, dushmanlik qilish, nodonlik va axmoqlikning zararlari, ayriliq, yolg'izlik, g'aflat, qarz, xorlik, qo'rqqoqlik, nomardlikning zararlari, badfe'yalik, qo'pollik, minnat, egrilik, sergaplik, baxtsizlik, manmanlik, takabburlik, xudbinlik, maqtanchoqlik, g'araz, riyo, ta'magirlik, baxillik, badnafslilik, ochko'zlik, hasad va xasislik, nopoklik, ichkilik, g'iybat, tuhmat, bo'xton, ayb, ig'vo, o'g'irlik, omonatga xiyonat, chaqimchilik, jabr-zulm, adovat, shoshqaloqlik, gumon, g'azab, jahl, araz, pushaymonlik, yolg'on, yolg'on qasam ichish, aldov, yalqovlik, gunoh xudbinlik, rashk, ayyorlik, bekorchilik, ichkilikbozlik kabt bir qator salbiy illatlar kiradi.

Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash nafaqat ta'lim jarayinidagi nazariy bilimlar, balki oiladagi sog'lom munosabatlarning o'rnatilganligi va oiladagi unga yuklatilgan vazifalarini bajarish, boshqarish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ushbu jihatni ta'limga integratsiya qilish talabalarning oilaviy hayot dinamikasini boshqarish uchun zarur ko'nikma bo'lib hisoblanadi.

Talabalarni oilaviy hayotga samarali tayyorlash uchun pedagogik yondashuvlar an'anaviy o'quv fanlaridan tashqariga chiqishi kerak. Amaliy hayotiy ko'nikmalarni o'z ichiga olish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish talabalarni muvaffaqiyatga erishish uchun zarur vositalar bilan jihozlashning asosiy tarkibiy qismidir. O'quv

dasturi doirasida byudjet tuzish, pazandachilik va vaqtni boshqarish kabi amaliy hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish o'quvchilarda mustaqil yashash va oilaviy mas'uliyat uchun muhim qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu ko'nikmalar ularning oiladagi kelajakdagi rollari uchun mustahkam poydevor qo'yadi. Tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rag'batlantirish yoshlarga oila dinamikasi doirasida ongli tanlov qilish imkoniyatini beradi. O'zlarining analitik qobiliyatlari va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirib, talabalar munosabatlar va mas'uliyatlarning murakkabligini ishonchli tarzda boshqarishlariga imkoniyat yaratiladi.[1]

Talabalarni oilaviy hayotga pedagogik-psixologik tayyorlash ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan ta'limning muhim jihati hisoblanadi. Ushbu tayyorgarlik yoshlarda oilaviy dinamika va munosabatlarning murakkabliklarida harakat qilish uchun zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish uchun juda muhimdir. Oilaviy hayotga pedagogik-psixologik tayyorgarlikning asosiy jihatlaridan biri bu shaxslararo muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Samarali muloqot oilalarda sog'lom munosabatlarni saqlashda muhim ahamiyatga ega va talabalar o'zlarini namoyon etishlari va boshqalarni samarali tinglashlari uchun zarur vositalar bilan jihozlanishi kerak. Bu o'z ehtiyojlari, his-tuyg'ulari va fikrlarini hurmat va hamdardlik bilan bildira olish, shuningdek, boshqalarni faol va empatik tinglash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Oilaviy hayotga pedagogik-psixologik tayyorgarlikning yana bir muhim jihati – muammolarni oldindan ko'ra olish, paydo bo'lgan nizolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Har qanday munosabatlarda ziddiyat muqarrar va talabalar konstruktiv va sog'lom tarzda nizolarni qanday boshqarishni o'rganishlari kerak. Bu mojarolarning asosiy sabablarini aniqlash, ularning tashvishlari haqida ochiq muloqot qilish va o'zaro manfaatli yechimlarni topish yo'lida ishlashni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'quvchilar kelishmovchiliklarni hal qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'lgan holda o'z oilalaridagi uyg'unlikni ta'minlash uchun o'zlarini tayyorlaydilar.

Muloqot va nizolarni hal qilish ko'nikmalaridan tashqari, talabalar oilaviy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun hissiy aqlni ham rivojlantirishlari kerak. Hissiy intellekt o'z his-tuyg'ularini tan olish va boshqarish qobiliyatini, shuningdek, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga hamdard bo'lishni o'z ichiga oladi. Hissiy intellektni rivojlantirish orqali o'quvchilar oilaviy munosabatlardagi murakkabliklarni yengib o'tish va o'z oila a'zolarining ehtiyojlari va his-tuyg'ulariga sezgir va rahm-shafqat bilan javob berish ko'nikmasiga ega bo'lishadi.

Bundan tashqari, oilaviy hayotga pedagogik-psixologik tayyorgarlik, shuningdek, ota-onalarning tarbiyasi, oiladagi rol va mas'uliyat, gender tengligi kabi mavzularni ham o'z ichiga olishi kerak. Talabalar oilalarda teng huquqli hamkorlikning ahamiyatini, oilada sog'lom va barkamol muhitni saqlashda har bir oila a'zosining o'rni muhimligini tushunishi kerak. Ushbu mavzular asosida ta'lim jarayonini tashkil etish natijasida talabalar oilaviy hayotdagi qiyinchiliklar va mas'uliyatni o'z zimmlariga olishga tayyor bo'ladilar. Bundan tashqari, talabalar o'zlarida oilaviy hayotda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Bunga ongli va puxta o'ylangan qarorlar qabul qilish, vazifa va mas'uliyatni ustuvorligini aniqlash va murakkab muammolarga yechim topish yo'lida ishlash kiradi. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali talabalar oilaviy hayot talabalarini yengish va o'z oilalari manfaatlariga mos qarorlar qabul qilishni o'rganib olishadi[2]

Oliy ta'lim jarayonida talabalarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bir qatorda, oilaviy hayotdagi axloqiy murakkabliklarni yo'lga qo'yish uchun kuchli qadriyatlar va axloqiy tuyg'ularni ham tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu boshqalarga nisbatan hamdardlik, hamdardlik, halollik va hurmat tuyg'ularini rivojlantirish, shuningdek, oilalarda sog'lom munosabatlarni saqlashda ishonch, sodiqlik va halollik muhimligini tushunishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayonida aksiologik yondashuvlarga asoslangan qadriyatlarni rivojlantirish orqali talabalar axloqiy qarorlar qabul qilish va o'zlarining axloqiy tamoyillariga mos keladigan tarzda o'zini tutish kompetentligini egallashga muvaffaq bo'ladilar.

Talabalarni oilaviy hayotga pedagogik-psixologik jihatdan tayyorlash, shuningdek, ruhiy salomatlik va farovonlik, stressni boshqarish va o'z-o'zini parvarish qilish kabi mavzulardagi ta'limni o'z ichiga olishi kerak. Talabalar o'zlarining ruhiy va hissiy salomatligini saqlash, shuningdek, oila a'zolarining farovonligini qo'llab-quvvatlash muhimligini tushunishlari kerak. Ushbu mavzular bo'yicha ta'lim berish orqali talabalar stressni boshqarish, qiyinchiliklarni yengish va o'z oilalarida sog'lom muhit va sog'lom hayot muvozanatini saqlay olish ko'nikmasiga ega bo'lishadi.

Oliy ta'lim jarayonida talabalarni oilaviy hayotga pedagogik-psixologik jihatdan tayyorlash bugungi kun ta'limining muhim vazifasi bo'lib, yoshlarning kelajakda turmush qurishlari, bu jarayonda uning o'ziga xos ma'suliyatini, oila muqaddas va milliy shaxsiy qadriyat ekanligi haqida bilimlarga ega bo'lishlarini ta'minlash




mazmunini o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonidagi amaliy tajribalar, milliy madaniy meros, Sharq allomalari qarashlari va pedagogic ta'limotlaridan foydalanish asosida talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar orqali ular jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari bilan birga shaxsiy hayot jabhasida rivojlanish uchun zarur bo'lgan hayotiy kompetensiyalarni egallashga muvaffaq bo'lishadi. Jumladan,

- oilani qadriyat ekanligini anglash ko'nikmasi;
- shaxslararo muloqot ko'nikmasi;
- nizolarni hal qilish ko'nikmasi;
- hissiy intellektga egalik ko'nikmasi;
- qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmasi;
- qadriyatlar va axloqni rivojlantirish ko'nikmasi;
- oila a'zosi sifatida o'z oilasi ravnaqiga hissa qo'shish ma'suliyatiga egalik ko'nikmasi;
- oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash va ularning yutuqlariga hissa qo'shish va faxrlanish ko'nikmalari shular jumlasidandir.

Oliy ta'limda o'qitiladigan "Oila pedagogikasi", "Oila psixologiyasi", "Ijtimoiy pedagogika", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanlari mazmunida ijtimoiy jamiyatda oilaning o'rni, shaxs kamolotini ta'minlovchi omillar, ota-onalik, gender tenglik, ruhiy salomatlik va farovonlikka erishishni ta'minlashga oid nazariya va amaliyotning integratsiyalashuviga asoslanib ta'limga e'tibor qaratish natijasida talabalar oilaviy hayotga puxta tayyorlanish bilan birga ular oilaviy hayotda paydo bo'ladigan qiyin vaziyatlarda o'zini tutish, muammoni yechishda to'g'ri qaror qabul qilish uchun harakat qilish va oilada sog'lom va uyg'un munosabatlarni saqlab qolish kabi ko'nikmalarni egallashadi.

Aynan, Sharq allomalari merosi asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda pedagogik-psixologik yondashuvlarga ustuvor ahamiyat berishning muhimligi shundaki, bu ularning kelajak hayoti va sog'lom oila qurishda muvaffaqiyatga erishuvlariga psixologik jihatdan tayyorlaydi.[3]

Ta'lim jarayonida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik strategiyalari ularning hissiy intellektini va o'zaro munosabatlar ko'nikmalarini oshirishda muhim rol o'ynaydi, bu esa, oilaviy muhitning yanada mustahkamlanishi uchun juda muhimdir (2-rasmga qarang).



2-rasm. Ta'lim jarayonida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik strategiyalari

Ushbu psixologik strategiyalar talabalarni oilaviy hayotda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarda bardoshli, sabrli chidamli bo'lishga o'rgatadi.

Ruhiy intellekt va chidamlilikni rivojlantirish talabalarni stressni boshqarish, mojarolarni boshqarish va oilaviy munosabatlarda samarali muloqot qilish qobiliyati bilan ta'minlaydi. Ushbu psixologik ko'nikmalar sog'lom o'zaro munosabatlarni rivojlantirish va o'zgaruvchan oila dinamikasiga moslashish uchun zarurdir. Ijobiy munosabatlar va samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish talabalarga oila a'zolari bilan mustahkam aloqalar o'rnatishga va nizolarni konstruktiv tarzda hal qilishga yordam beradi. Hamdardlik, faol tinglash va nizolarni hal qilish strategiyalarini rivojlantirish orqali talabalar o'z oilalarida uyg'un munosabatlarni rivojlantirishlari mumkin (1-jadvalga qarang).

## 1-jadval

## Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik strategiyalari

| Strategiyalar                                      | Faoliyat mazmuni  |
|--|---|
| Kommunikativlik va o'zaro munosabatlarga kirishish | Talabalarga ota-onalarining ular bilan o'zaro munosabatlari va o'z fikrlarini ifoda qilishga qulay muhit yaratish, ularning o'z fikrlarini ifodalashiga va savollarini berishi uchun imkon berish   |
| Maqsadga mos faoliyat mazmunini belgilash          | Talabalarga maqsadlar qo'yimoq, ularni vazifalarga yo'naltirish va ularning o'zlarini rivojlantirishlari uchun mazmunli faoliyat jarayonini tashkil etish ularning motivatsiyasini oshirishga yordam berish   |
| Rejalashtirilgan faoliyatni muvofiqlashtirish      | Talabalarni ularning shaxsiy xususiyatlariga va qobiliyatlariga ko'ra guruhlariga bo'lish, guruh ishlarini bajarish va jamoaviy faoliyatda ishtirok etishlarini ta'minlash orqali ko'nikmalarni o'zlashtirish hamda ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam berish. |
| Qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini rivojlantirish   | Talabalarga muammolar yuzaga kelganda yordam berish, ularni qo'llab-quvvatlash, o'zlarini borligicha qabul qilgan holda o'zlarini rivojlantirish uchun ularga ko'maklashish.  |

Bu strategiyalar talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda foydalaniladigan asosiy usullar hisoblanib, shu bilan birga, har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olib individual yondashuvga ham e'tibor qaratish muhimdir.

Oilaviy qadriyatlar va hayotiy ko'nikmalarni o'quv dasturiga kiritish talabalarning nafaqat akademik bilimlarni egallashini, balki oilaviy hayot uchun muhim qadriyatlar va amaliy ko'nikmalarning mustahkam poydevorini shakllantirishni ham ta'minlaydi. O'quv dasturiga hurmat, hamdardlik va mas'uliyat kabi qadriyatlarni kiritish o'quvchilarda axloqiy xulq-atvorning muhimligini, boshqalarning nuqtai nazarini tushunish va ularning harakatlariga egalik qilishni singdiradi. Ushbu qadriyatlar oilalar va jamoalar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni rivojlantirishda asosiy hisoblanadi. Talabalarni moliyaviy savodxonlik va vaqtni boshqarish ko'nikmalari bilan jihozlash ularni moliyaviy mas'uliyat va oilaviy hayotning vaqt cheklovlariga tayyorlaydi. Talabalarga byudjetni rejalashtirish, tejash va vazifalarni ustuvorlashtirish muhimligini o'rgatish ularga ongli qarorlar qabul qilish va oila sharoitida o'z resurslarini samarali boshqarish imkonini beradi.[4]

Ota-onalar va vasiylarni olish ularning farzandlarining ta'limiga jalb etilishi akademik muvaffaqiyat va har tomonlama rivojlanishni ta'minlashning kalitidir. Ochiq muloqot, taraqqiyot haqida muntazam yangilanishlar va ularni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilish talabalarning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishi mumkin. Oila va ta'lim muassasasi o'rtasida mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish talabalarning ta'lim tajribasini oshirishni ta'minlaydi.

Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida ma'suliyatni his etgan holda bajarish, faoliyat va muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish, ota-onalar bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil etish kabi yondashuvlar talabalarning sifatli bilim egallashlari, o'zlarida kasbiy kompetentlik va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga erishishlarida ijobiy imkoniyat yaratadi. Oilalar bilan ishlashda madaniy va ijtimoiy tafovutlar ta'limda oilaviy hayotga samarali tayyorgarlik ko'rish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Turli kelib chiqishi, e'tiqodlari va qadriyatlarini tushunish talabalarga o'z oilalarini yaxshiroq qo'llab-quvvatlash uchun o'z yondashuvlarini moslashtirishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida til to'siqlari, resurslarning yetishmasligi yoki vaqt cheklovlari kabi oilaviy munosabatlardagi to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish mazmunli hamkorlikni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Bu to'siqlarni yengib o'tish uchun qo'llab-quvvatlash va resurslar bilan ta'minlash oilaning talabalar ta'limida ishtirokini kuchaytirishga olib kelishi mumkin. Oilaviy hayotga tayyorgarlik dasturlarining muvaffaqiyatli modellarini o'rganish samarali strategiyalar va yondashuvlar haqida qimmatli fikrlarni taklif qilishi mumkin. Eng yaxshi tajribalarni o'rganish talabalar va oilalarning turli ehtiyojlarini qondiradigan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga yordam beradi.[5]

Samarali oilaviy hayot ta'limining talabalar natijalariga ta'sirini o'rganish oila va maktab hamkorligiga sarmoya kiritish muhimligini ko'rsatishi mumkin. O'quv samaradorligini oshirish, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va umumiy farovonlik kabi ijobiy natijalar oilaviy hayot bo'yicha keng qamrovli ta'limning muhimligini ta'kidlaydi. Talabalarga oilaviy hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun talabalar, oilalar va jamoalar o'rtasida hamkorlikda harakat qilish kerak. Kuchli hamkorlikni rivojlantirish, muammolarni hal qilish va ilg'or tajribalarni tatbiq etish orqali talabalar oilaviy hayotning murakkabliklarida ishonch va qat'iyat bilan harakat qilish uchun yaxshiroq tayyorlanishi mumkin [7].

Xulosa qilib aytganda, Sharq allomalari merosi va uning talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi pedagogik-psixologik jihatlarini ilmiy asoslangan holda o'rganish jarayonida shaxsning har tomonlama rivojlanishini nazarda tutuvchi ta'limga sarmoya kiritish eng zaruriy talab ekanligi ayon bo'ladi. Muhim hayotiy ko'nikmalar, qadriyatlar va hissiy intellektni rivojlantiruvchi qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish orqali talabalarga mustahkamlik va hamdardlik bilan oila dinamikasining nozik tomonlarini o'rganishga yordam berish bilan birga ta'lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligidagi sa'y-harakatlar orqali mustahkam oilaviy hayotga tayyor, har qanday sharoitda ham to'laqonli va uyg'un hayot kechirish ko'nikmasiga ega kelajak avlodni tarbiyalashga erishiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-Toshkent: O'qituvchi, 1996-192b/
2. Adolat,1998.10.1998-yil –Oila yili –T.: O'zbekiston, 1998.
3. Abdurauf Fitrat Oila yoki uni boshqarish tartiblari –T.: Ma'naviyat, 2000 y.
4. To'raeva "Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi" T., "O'qituvchi".
5. Xasanboeva O. va boshqalar. "Oila pedagogikasi". –T.: Aloqachi, 2007
6. Dilova N.G. Zamonaviy ta'limda shaxslararo munosabatning ahamiyati //Science and education. Scientific journal in volume #3 issue#. 2022. – B. 215-218.
7. Dilova N.G. Ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishda pedagogik-psixologik aloqaning ahamiyati // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2022. – 8-son. – B. 120-128.
8. Dilova N.G. Shaxslararo munosabatlar to'g'risida sharq mutafakkirlarining ilmiy-pedagogik ta'limoti // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro, 2023. 3-son. B. 106-112. ISSN 2181-1709.

## 9 – SINF ALGEBRA DARSIDA O‘QUVCHILARNING DARSIDA QIZIQISHINI ORTTIRISHDA SUN’IY INTELEKTDAN FOYDALANISH

Jabborova Gulasal Sultonovna

*Buxoro dalat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrası o‘qituvchisi*

*Annotatsiya. Matematika qadimdan fanlarning otasi hisoblanadi. Shuning uchun bizning mamlakatimizda ham matematika katta e’tibor qaratilmoqda va ko‘pgina ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimiz va xorij olimlari matematikani o‘qitishning oson va qulaylashtirish maqsadida turli xil metodlar va vositalar yaratishmoqda. Bu hozirgi kunda ham dolzarb muammo sifatida olimlar tomonidan o‘rganilib yangi metodlar va dasturlar yaratilmoqda. Bugungi kuni internet va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish anchagina qiyin va murakkab hisoblanadi. Shu bois o‘quvchilarning darsga har tomonlama qiziqishini oshirish, ayniqsa maktab darslarida har bir fan o‘qituvchisi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalanishi zarur. Bu ham o‘qituvchi ham o‘quvchi uchun muhim sanaladi. Sabab sifatida shuni aytish mumkinki bu o‘qituvchi uchun o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yangicha metodlarni o‘rgansa, o‘quvchilar uchun kelajakda raqobatbardosh kadr va o‘z sohasida yangicha qarashlarni tez va qulay o‘zlashtirishi uchun xizmat qiladi. So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi barcha sohalarda yangi yondashuvlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Xususan, ta’lim va o‘qitish texnologiyalari sohasida sun‘iy intellekt elementlaridan foydalanish tajribasi to‘planmoqda.*

*Kalit so‘zlar. Matematika, axborot texnologiya, sun‘iy intellect, internet, algebra, o‘rta maktab.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА УРОКЕ АЛГЕБРЫ В 9 КЛАССЕ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К УРОКУ

Джабборова Гуласал Султановна

*Бухаро-Далатский педагогический институт, преподаватель кафедры «Точные науки»*

*Аннотационный. Сегодня трудно и сложно представить себя без Интернета и информационных технологий. Поэтому необходимо повышать интерес учащихся ко всем аспектам урока, особенно на школьных уроках, каждый учитель-предметник должен использовать достижения информационных технологий по своей специальности. В последние годы развитие технологий искусственного интеллекта привело к появлению новых подходов во всех сферах. В частности, накапливается опыт использования элементов искусственного интеллекта в сфере образования и педагогических технологий. Математика всегда считалась краеугольным камнем образования, и в нашей стране, а также за рубежом были достигнуты различные успехи, чтобы сделать математику более доступной и удобной. Как наши отечественные, так и зарубежные учёные создают различные методы и средства, облегчающие преподавание математики, стремясь упростить и улучшить процесс обучения. В современном мире представить образование без Интернета и информационных технологий довольно сложно. Поэтому крайне важно вызвать интерес учащихся ко всем аспектам образования, особенно к школьным урокам. Каждый учитель-предметник использует информационные технологии в соответствии со своей компетенцией, что важно как для учителя, так и для ученика. Преподаватель может изучить новые методы, специально относящиеся к его области, что позволяет им быстро и легко внедрять новые подходы в будущем, позволяя учащимся адаптироваться к новым перспективам в своих областях. В последние годы развитие технологий искусственного интеллекта привело к появлению новых направлений и инноваций во всех областях. В частности, набирается опыт использования элементов искусственного интеллекта в образовательных технологиях и преподавании.*

*Ключевые слова. Математика, информационные технологии, искусственный интеллект, интернет, алгебра, средняя школа.*

## THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE 9TH GRADE ALGEBRA CLASS TO INCREASE STUDENTS’ INTEREST IN THE LESSON

Jabborova Gulasal Sultanovna

*Bukhara Dalat Pedagogical Institute, teacher of the «Exact Sciences» department*

*Abstract. Today, it is difficult and complicated to imagine without the Internet and information technologies.*

Therefore, it is necessary to increase the interest of students in all aspects of the lesson, especially in school lessons, every subject teacher should use the achievements of information technology in his specialty. In recent years, the development of artificial intelligence technologies has led to the emergence of new approaches in all fields. In particular, the experience of using elements of artificial intelligence in the field of education and teaching technologies is being accumulated. Mathematics has always been considered the cornerstone of education and various advancements have been made in our country as well as internationally to make mathematics more accessible and convenient. Both our country and foreign scholars are creating various methods and tools to facilitate the teaching of mathematics, aiming to simplify and enhance the learning process. In today's world, imagining education without the internet and information technologies is quite challenging and complex. Therefore, arousing students' interest in all aspects of education, especially in school lessons, is essential. Each subject teacher uses information technologies according to their expertise, which is important for both the teacher and the student. It is possible for the teacher to learn new methods specifically related to their field, which allows them to quickly and easily incorporate new approaches in the future, enabling students to adapt to new perspectives in their respective fields. In recent years, the development of artificial intelligence technology has brought about new directions and innovations in all fields. Specifically, the use of artificial intelligence elements in educational technology and teaching is gaining experience.

*Keywords.* Mathematics, information technology, artificial intelligence, internet, algebra, high school.

Kirish. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida har bir sinfda haftalik o'qishi zarur bo'lgan yoshga doir yuklamasi mavjud. 1-sinf o'quvchilari uchun haftalik dars soati 22 soat, 2 – sinflar uchun 24 soat, 3- va 4 – sinflar uchun ham 24 soat bo'lsa, yuqori sinf o'quvchilari uchun bu ko'rsatgich nisbatan yuqori, ya'ni 5 – sinflar uchun haftalik dars soatlari 28 – soat, 6 – sinflar uchun 29 soat, 7 – sinflar uchun 34 soat, 8 – sinflar uchun 33 soat, 9 – sinflar uchun 34 soat, 10 va 11 – sinflar uchun 31 soatdan qilib belgilangan davlat ta'lim standartlariga asosan[8].

Yuqorida aytilganidek 9 – sinfda qolgan sinflarga nisbatan o'quv yuklamasi boshqa sinflarga nisbatan ko'proq. Bu esa o'quvchilarda darslarni kuzatish va har bir fandan berilgan vazifalarni bajarishi uchun ko'p kuch va vaqt talab etiladi. Ammo ulgurmadan o'quvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqishning susayishiga, natijada mavzular ketma ketligidagi zanjirning uzuklashiga sababchi bo' ladi.

Adabiyotlar tahlili.

[2] maqolada O'zbekiston Respublikasi va Turkiya davlatlarining 6 – sinf “Tabiiy fan” darliklarining qiyosiy tahlili berib o'tilgan. Bu maqolda ikki hamdo'st davlatlarning o'qitish tizimi va undagi o'xshash va farqli jihatlarning tahlillari va masala va testlar tizimidagi va mavzular borasida tahlil olib borilgan.

[3] maqolada namoyishli tajribalarning o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini namoyishli tajribalar orqali qanday o'zgartirish haqida so'z boradi. Dunyoda fan rivojlangan sari yangidan – yangi zamonga mos fanlarda rivojlanib bormoqda. Shu turkumga kiruvchi fanlardan biri “Science” ya'ni “Tabiiy” fan hisoblanadi. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab 6 – sinf “Tabiiy fan” darsligida namoyishli tajribalarning o'rni va o'quv jarayoniga ta'siri haqida namoyishli tajribalarning o'quvchilar hayotidagi ahamiyati ularning dunyoqarashini o'stirishi haqida so'z boradi.

[4,5] maqolalarda rivojlangan mamlakatlar darsliklari va bizning darsliklar, mavzular ketma – ketligidagi farqlar, rivojlangan mamlakatlar va bizning mamlakatimizda ta'limga bo'lgan munosabat, yangi darsliklarni yaratishda nimalarga e'tibor qaratish kerakligi va bunga to'siq bo'layotgan omillar va ularning bartaraf etish yo'llari berib o'tilgan.

Bundan tashqari bu maqolalarda yangi darsliklarning sifati va o'quvchilar ruhiyatiga ta'siri haqida va ularning qiziqishlari, turli xildagi metodlar haqida so'z boradi.

[6] maqolada universitet talabalariga o'tiladigan “Funksiyalar tahlil” fanining “Vektor fazo” mavzusining talabalarga tushuntirish metodi, ularning bosqichlari va shu mavzuga doir atama va ibora, teorema va ta'riflar ularning isboti bilan berib o'tilgan. Shu mavzuga doir misollar orqali mavzu ochib berilgan. Fan yutuqlari va axborot texnologiyalardan foydalanish metodlari berib o'tilgan.

[7] maqolada Shroydinger operatori ularning talaba yoshlar o'rganish, ya'ni oson o'rganish metodlari va bularning o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodlari, teoremlari ularning tadbiqu, talabalarning qay sohada qo'llashi haqida ma'lumot berib o'tilgan.

[8] maqolada internet tizimlari va sun'iy intellect texnologiyalarining roli haqida gap boradi. Hozirgi kunimizni internet va axborot texnologiyalarsiz tasavur etishimiz anchagina murakkab hisoblanadi. Shuning uchun har jabhada xususan maktab ta'limida ham o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishlarini yanada

orttirish maqsadida har bir fan o'qituvchisi o'z mutaxassislik fanida axborot texnologiyalarning yutuqlaridan foydalanishi lozim. Bu maqolada fizika darslari misolida o'quvchilarning darslarga faolligini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarning metodik ahamiyatini berib o'tilgan. Ya'ni fanlarni o'rgatishda sun'iy intellektdan foydalanish va bu borada qanday tajriba ortirish haqida gap boradi. Bundan tashqari bu maqolada o'quvchilarning mustaqil o'rganishlari uchun sun'iy intellektdan foydalanish yo'llari va metodlari berib o'tilgan [9].

Asosiy qism. Sun'iy intellekt (SI; ingl. artificial intelligence, AI) deb, sun'iy intellektual tizimlarning insonga xos bo'lgan ijodiy funksiyalarni bajarish xususiyatiga aytiladi (buni sun'iy ong bilan adashtirmaslik kerak). Sodda qilib aytganda, sun'iy intellekt dasturlar va tizimlarga xuddi odamlar kabi «o'ylash» va «xulosa chiqarish» imkonini beradigan kompyuter texnologiyasidir. Sun'iy intellekt muayyan ma'lumotlar asosida «o'rganish» va «qaror qabul qilish» uchun algoritmlar, matematik modellar va ma'lumotlar to'plamlaridan foydalanadi.

Sun'iy intellekt tizimlaridan ta'lim jarayonlarida foydalanish o'qitish sifatini oshirish hamda ta'limni personallashtirishda keng imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. O'qitish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha bir qancha misollarni keltirish mumkin:

Adaptiv o'qitish. SI ga asoslangan adaptiv o'qitish tizimlari o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning bilim va qobiliyatlarini o'rgangan holda ular uchun individual o'quv materiallari va topshiriqlarini taklif qilishi mumkin. Bu har bir o'quvchiga o'ziga mos bo'lgan sur'atlarda o'qish va sun'iy intellekt tizimidan yordam olish imkoniyatini beradi.

Topshiriqlarni avtomatik tekshirish. SI dan topshiriqlar, jumladan testlar, masalalar, esse(insho)larni avtomatik tekshirishda foydalanish mumkin. Bu o'qituvchining vaqtini tejash va o'quvchi bilan tezroq qayta muloqot o'rnatishga yordam beradi. Shuningdek, SI o'quvchiga keyingi topshiriqlarni tayyorlashda u yo'l qo'yayotgan xatoliklar va o'quvchining zaif tomonlarini tahlil qilish hamda inobatga olish imkoniyatini beradi.

Virtual chat-botlar. SI asosidagi virtual assistentlardan o'quvchilar bilan muloqot qilish hamda ularga zarur ma'lumotlarni berish, real vaqt rejimida qo'llab-quvvatlashda foydalanish mumkin. Virtual assistentlar savollarga javob berishi, qoidalarni tushuntirib berishi, o'quvchilarga topshiriqlarni eslatib turishi hamda o'quv jarayoni bo'yicha tavsiyalar berishi mumkin.

Ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash. SI ning katta hajmdagi ma'lumotlarni osongina qayta ishlay olishi o'qituvchiga va maktab ma'muriyatiga tahlillar asosida har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi dinamikasi, sinflardagi o'quv va tarbiya bo'yicha umumiy holat to'g'risida ma'lumotlarni olish, hamda o'quvchilarning keyinchalik erishishlari mumkin bo'lgan o'quv yutuqlarini prognozlashtirishda qo'l kelishi mumkin. Bu o'quv jarayonini tashkil qilish bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilish hamda o'quvchilarning ehtiyojlariga ko'ra o'zgartirishga yordam beradi.

Sun'iy intellect texnologiyalaridan bugungi kunimizda maktab matematika kursini o'qitishda ham foydalanishimiz mumkin. Buni o'quvchi misolida ko'rib chiqaylik. Ya'ni hozirgi kunda o'quvchilar nazdida matematika qiyin fan sanaladi, ammo aslida matematika qiziq va junboqlarga boy fan hisoblanadi. Matematikaning qiyin hisoblanishining asosiy muammolaridan biri o'quvchilarning o'tilgan mavzularni yaxshi o'zlashtira olmaganligi yoki darsda bee'tibor bo'lganligi sabab bo'ladi. Natijada ular uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladi va ularning fikricha matematika qiyin fan degan g'oya ularning ongida muhrlanib qoladi. Buni oldini olish maqsadida biz hozirgi kunda sun'iy intellect texnologiyalaridan foydalanishni o'quvchilarga o'rgatishimiz shart va zarur. Buni qanday qilib amalga oshirish mumkin?

O'rta maktablarda boshlang'ich sinflarda bu muammoga kamroq duch kelamiz. Shu maqsadda yuqori sinflar misolida buni ko'rib chiqaylik. Buning sababi o'quvchilar voyaga yetgan sari ulardagi psixologig o'zgarishlar hamda yon atrofidagi muhit ham bunga ta'sir qiladi. Masalan 9 – sinf algebra darsligini olaylik (Sh.A. Alimov v. b.). 9 – sinf algebra (Sh.A. Alimov v. b.) darsligining birinchi bobiga ya'ni “Kvadrat funksiya. Kvadrat tengsizlik” qaraydigan bo'lsak, bu bobda 12 ta yangi mavzu, bitta bob bo'yicha mashqlar, bitta bob bo'yicha testlar to'plami, amaliy va tadbiqiy fanlararo bog'liq masalalar va tarixiy ma'lumotlar berilgan[1].

O'qituvchi o'quvchilarga “Kvadrat funksiya. Kvadrat tengsizlik” bobidan 5 –mavzu “kvadrat funksiyaning garfigini yasash” o'tib, unga doir ta'rif va teoremlarni keltirib

$y=ax^2+bx+c$  funksiyaning garfigini chizishni va uning qanday ketma – ketlikda amalga oshirishni tushuntirib berdi. Ammo o'quvchining e'tiborsizligi yoki xotirasidan ko'tarilishi natijasida uyga vazifani bajarishda qiynaladi. Shu vaziyatda o'quvchi o'zini qiziqtirgan savolga javobni SI ga murojaat qilgan holda javob topishi mumkin[2-5].

O'quvchi kvadrat funksiyaning grafigi qanday topilishini SI dan so'rab tezda javob topishi mumkin. Buni quyidagi ko'rinishda amalga oshirish mumkin. Masalan sun'iy intellektdan “Kvadrat funksiyaning grafigi

qanday ketma – ketlikda amalga oshiriladi?” deb so‘raganimizda u bizga quyidagi ketma – ketlikdan iborat ya‘ni funksiya grafigini chizish qanday ketma – ketlikda amalga oshirilishini keltirib berdi:

Kvadrat funksiyaning grafigini chizish uchun quyidagi qadamlar tug‘iladi:

1. Koordinat sistemida  $x$  va  $y$  o‘qlarini o‘rnatamiz.
2. Kvadrat funksiyaning formulasi  $y = ax^2 + bx + c$  ni ko‘rib,  $a, b$ , va  $c$  ni aniqlaymiz.
3. Grafikning koordinatalarini aniqlash uchun bir nechta  $x$  qiymatlari belgilab olamiz. Masalan, bir nechta  $x$  qiymatlari uchun  $y$  qiymatlarni topish uchun foydalanishimiz mumkin.
4. Har bir  $x$  qiymati uchun  $y$  qiymatlarini hisoblaymiz, yani  $y = ax^2 + bx + c$  formulasi yordamida  $y$  ni topamiz.
5. Topilgan  $x$  va  $y$  qiymatlari tomonidan aks etuvchi nuqtalarni ko‘rsatuvchi grafikni chizamiz.
6. Grafikning shakli parabola bo‘ladi. Agar  $a$  qiymati 0 dan farqli bo‘lsa, parabola yonida ochiq yoki pastga yo‘nalish bilan bo‘lishi mumkin.  $a$  qiymati musbat bo‘lsa, parabola ochiq yonli, manfiy bo‘lsa, pastga yo‘nalib ketadi.
7. Grafikning vertexini aniqlash uchun, parabolaning formulasi uchun yechimni topamiz, ya‘ni  $x_0 = -b/(2a)$  formulasi yordamida  $x$  qiymatini topamiz. Shu  $x$  qiymati bilan  $y$  ni hisoblaymiz, vertexning koordinatalarini topamiz.

8. Boshqa  $x$  va  $y$  qiymatlari bilan ham parabola tomonidan o‘tuvchi nuqtalar aniqlanadi.

Shu tarzda kvadrat funksiyaning grafigini chizish mumkin. Grafikni chizish jarayonida kompyuter dasturlaridan yoki matematik grafik chizish vositalaridan foydalanish ham mumkin.

Yuqoridagi orqali o‘quvchi kvadrat funksiyaning grafigi qanday ketma – ketlikda chizilishi haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi. bu orqali o‘quvchi uyga berilgan vazifani mustaqil ravishda o‘zi qiynalmay bajarishi mumkin.

**O‘qituvchi o‘quvchilarga “Kvadrat funksiya. Kvadrat tengsizlik” bobidan 5–mavzu “kvadrat funksiyaning grafigini yasash” o‘tib, unga dair ta‘rif va tushunchalarni keltirib**

**$y = ax^2 + bx + c$  funksiyaning grafigini chizishni va uning qanday ketma – ketlikda amalga oshirishni tushuntirib berdi. Ammo o‘quvchining e‘tiborsizligi yoki xotirasidan ko‘tarilishi natijasida uyga vazifani bajarishda qiynaladi. Shu vaziyatda o‘quvchi o‘zini qiziqirgan savolga javobni SI ga murojaat qilgan holda javob topishi mumkin[2-5].**

O‘quvchi kvadrat funksiyaning grafigi qanday topilishini SI dan so‘rab tezda javob topishi mumkin. Buni quyidagi ko‘rinishda amalga oshirish mumkin. Masalan san‘iy intellektidan “Kvadrat funksiyaning grafigi qanday ketma – ketlikda amalga oshiriladi?” deb so‘raganimizda u bizga quyidagi ketma – ketlikdan iborat ya‘ni funksiya grafigini chizish qanday ketma – ketlikda amalga oshirilishini keltirib berdi:

Kvadrat funksiyaning grafigini chizish uchun quyidagi qadamlar tug‘iladi:

1. Koordinat sistemida  $x$  va  $y$  o‘qlarini o‘rnatamiz.
2. Kvadrat funksiyaning formulasi  $y = ax^2 + bx + c$  ni ko‘rib,  $a, b$ , va  $c$  ni aniqlaymiz.
3. Grafikning koordinatalarini aniqlash uchun bir nechta  $x$  qiymatlari belgilab olamiz. Masalan, bir nechta  $x$  qiymatlari uchun  $y$  qiymatlarni topish uchun foydalanishimiz mumkin.
4. Har bir  $x$  qiymati uchun  $y$  qiymatlarini hisoblaymiz, yani  $y = ax^2 + bx + c$  formulasi yordamida  $y$  ni topamiz.
5. Topilgan  $x$  va  $y$  qiymatlari tomonidan aks etuvchi nuqtalarni ko‘rsatuvchi grafikni chizamiz.
6. Grafikning shakli parabola bo‘ladi. Agar  $a$  qiymati 0 dan farqli bo‘lsa, parabola yonida ochiq yoki pastga yo‘nalish bilan bo‘lishi mumkin.  $a$  qiymati musbat bo‘lsa, parabola ochiq yonli, manfiy bo‘lsa, pastga yo‘nalib ketadi.

7. Grafikning vertexini aniqlash uchun, parabolaning formulasi uchun yechimni topamiz, ya‘ni  $x_0 = -b/(2a)$  formulasi yordamida  $x$  qiymatini topamiz. Shu  $x$  qiymati bilan  $y$  ni hisoblaymiz, vertexning koordinatalarini topamiz.

8. Boshqa  $x$  va  $y$  qiymatlari bilan ham parabola tomonidan o‘tuvchi nuqtalar aniqlanadi.

Shu tarzda kvadrat funksiyaning grafigini chizish mumkin. Grafikni chizish jarayonida kompyuter dasturlaridan yoki matematik grafik chizish vositalaridan foydalanish ham mumkin.

Yuqoridagi orqali o‘quvchi kvadrat funksiyaning grafigi qanday ketma – ketlikda chizilishi haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi. bu orqali o‘quvchi uyga berilgan vazifani mustaqil ravishda o‘zi qiynalmay bajarishi mumkin.

O‘qituvchi o‘quvchilarga “Kvadrat funksiya grafigini yasash” mavzusini o‘tib, mavzuga dair tushunchalarni tushuntirgandan keyin uyga vazifa sifatida 35 – mashqni bergan bo‘lsin. Bu mashqda to‘rtta misol berilgan. “Parabola uchining koordinatalarini toping” ko‘rinishida 35 – mashqning sharti keltirilgan. O‘quvchi shu to‘rtta

misolni ishlab berishi kerak. Buning uchun o'quvchi sam'iy intellektdan foydalanib bittasini ishlab chiqarib, xochi shunga o'xshash usulda o'zi ishlay oladi. Masalan 35 – mashqning birinchi misoli  $y = x^2 - 4x - 5$  bo'lib, uni o'quvchi sam'iy intellektga berib, sam'iy intellekt misolni yechib berish yo'li va yechimini bilan birgalikda beradi.

Agar siz parabolaning vertexini (uchning tepa nuqtasini) topishni istaysiz, u holda parabolaning uchini topish uchun quyidagi formulalardan foydalanamiz:

$$\text{Vertexning } x\text{-koordinatasi: } x_0 = -b / (2a)$$

$$\text{Vertexning } y\text{-koordinatasi: } y_0 = a(x_0)^2 + b(x_0) + c$$

Berilgan masalada parabolaning formulasi  $y = x^2 - 4x - 5$  bo'lgani uchun,  $a = 1$ ,  $b = -4$  va  $c = -5$ . U holda vertexning koordinatalarini topish uchun:

$$x_0 = -(-4) / (2 * 1) = 4/2 = 2$$

$$y_0 = 1(2)^2 - 4(2) - 5 = 4 - 8 - 5 = -9$$

Shu sababli, parabolaning vertexning (uchning tepa nuqtasi) koordinatalari

$$(x_0, y_0) = (2, -9)$$

bo'ladi.

Umid qilamanki, bu javob sizning uchun foydali. Agar yana savollar yoki yordam kerak bo'lsa, menga yuzishingiz mumkin! Bundan tashqari sam'iy intellekt bu funksiyaning koordinatalar o'qlari bilan kesishish nuqtalarini so'raganda ham ularni ham topib beradi.

Berilgan funksiya  $y = x^2 - 4x - 5$  parabola shaklida bo'ladi. Ushbu parabolaning uchini topish uchun, koordinatalarini topishimiz kerak.

Parabola bir parabola ifodalaydi va u shaklida  $y = ax^2 + bx + c$  formulasi yordamida ifodalangan bo'lishi mumkin, bu yerda  $a$ ,  $b$  va  $c$  funksiyadagi koeffitsiyentlar.

Ushbu parabola  $a = 1$ ,  $b = -4$  va  $c = -5$ . Uchining koordinatalarini topish uchun quyidagi formulalardan foydalanamiz:

$$X\text{-koordinata (} y = 0 \text{ bo'lganda): } x = (-b \pm \sqrt{b^2 - 4ac}) / 2a$$

$$Y\text{-koordinata (} x \text{ ni } y = 0 \text{ ga tenglashtirganda): } y = a(0)^2 + b(0) + c$$

$X$ -koordinatalarini topish uchun:

$$x = (-(-4) \pm \sqrt{(-4)^2 - 4(1)(-5)}) / (2(1))$$

$$x = (4 \pm \sqrt{16 + 20}) / 2$$

$$x = (4 \pm \sqrt{36}) / 2$$

$$x = (4 \pm 6) / 2$$

Bundan natijada ikki  $x$ -koordinata hosil bo'ladi:

$$x_1 = (4 + 6) / 2 = 5$$

$$x_2 = (4 - 6) / 2 = -1$$

$Y$ -koordinatani topish uchun:

$$y = 1(0)^2 - 4(0) - 5$$

$$y = -5$$

Shu sababli, berilgan parabolaning uchining koordinatalari:

$$A(5, -5) \text{ va } B(-1, -5)$$

Umid qilamanki, bu sizning masalangizning yechimi bo'ldi. Agar boshqa savollar yoki yordam kerak bo'lsa, menga yuzishingiz mumkin!

O'quvchi yuqorida misolning yechimiga qarab, 35 – mashqdagi qolgan uchta misolni o'zi bema'lol ishlab chiqarib bo'lishi mumkin bo'ladi. Bu esa o'quvchidan ortiqcha vaqt talab etmaydi. Natijada o'quvchi qolgan uy vazifalarini bajarishga hamda o'zini qiziqitgan boshqa ishlariga ham ulg'ayadi [6-8].

Bundan tashqari kvadrat tengsizlikning yechish yo'llarini sam'iy intellekt texnologiyalari orqali ham o'zi mustaqil o'rganishi mumkin. Buni o'rganishdan oldin sam'iy intellektdan kvadrat tenglama qanday yechilishi haqida so'raganimizda bizga quyidagi qadamlarni berib o'tdi.

Kvadrat tenglamalar,  $ax^2 + bx + c = 0$  shaklidagi tenglamalardir. Kvadrat tenglamani yechish uchun quyidagi formulalardan foydalaniladi:

Kvadrat tenglamalarning yechimi uchun Diskriminant ( $D$ ) ni hisoblang. Diskriminant,  $b^2 - 4ac$  formula orqali topiladi.

Diskriminantning qiymatiga qarab kvadrat tenglamalarning yechimlarini toping:



**a) Agar Diskriminant  $D > 0$  bo'lsa, u holda kvadrat tenglamalarning ikkita farqli haqiqiy yechimi mavjud bo'ladi. Yechimlar  $x = (-b + \sqrt{D}) / (2a)$  va  $x = (-b - \sqrt{D}) / (2a)$  bo'ladi.**

**b) Agar Diskriminant  $D = 0$  bo'lsa, u holda kvadrat tenglamalarning bir haqiqiy yechimi mavjud bo'ladi. Yechim  $x = -b / (2a)$  bo'ladi.**

**c) Agar Diskriminant  $D < 0$  bo'lsa, u holda kvadrat tenglamalarning haqiqiy yechimi mavjud emas bo'ladi. Bu holatda tenglam yechimsiz bo'ladi.**

Shu tarzda kvadrat tenglamalarning yechimlari topiladi. Kvadrat tenglamalar o'rtasidagi diskriminantning qiymati, yechimlarning turi va sonini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shundan so'ng sun'iy intellektidan kvadrat tengsizlik haqida so'rashimiz va uning yechimi haqida ma'lumot olishimiz mumkin. Biz sun'iy intellektidan tengsizlikning yechish ketma – ketligini so'raganimizda u bizga quyidagi ketma – ketlikni keltirib berdi:

Kvadrat tengsizlikning yechimi uchun quyidagi qadamlar tug'iladi:

Kvadrat tengsizligi berilgan shaklida yozing. Masalan,  $ax^2 + bx + c > 0$  yoki  $ax^2 + bx + c < 0$ .

Kvadrat tengsizlikning soddalashtirishni osonlashtirish uchun kvadrat tengsizlikning diskriminantini hisoblang. Diskriminant,  $b^2 - 4ac$  formula orqali topiladi.

Diskriminantni qiymatiga qarab kvadrat tengsizlikning yechimlarini aniqlang:

**a) Agar diskriminant  $D > 0$  bo'lsa, u holda kvadrat tengsizlikning ikkita farqli haqiqiy yechimi mavjud bo'ladi. Yechimlar  $x = (-b + \sqrt{D}) / (2a)$  va  $x = (-b - \sqrt{D}) / (2a)$  bo'ladi. Bu yechimlar orqali kvadrat tengsizlikning qaysi chegarasida to'g'ri kelishi aniqlanadi.**

**b) Agar diskriminant  $D = 0$  bo'lsa, u holda kvadrat tengsizlikning bir haqiqiy yechimi mavjud bo'ladi. Yechim  $x = -b / (2a)$  bo'ladi. Bu yechim orqali kvadrat tengsizlikning qaysi chegarasida tenglikning bo'lishi aniqlanadi.**

**c) Agar diskriminant  $D < 0$  bo'lsa, u holda kvadrat tengsizlikning haqiqiy yechimi mavjud emas bo'ladi. Bu holatda kvadrat tengsizlikning yechimsiz bo'lishi aniqlanadi.**

Xulosa. Xulosa qilib aytganda sun'iy intellekt texnologiyalaridan har sohada qo'llanilmoqda. Shu jumladan umumiy o'rta ta'lim sohasida ham yuqoridagi texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Bu esa ularning kelajakda yetuk inson bo'lib o'sishiga va jamiyatda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Algebra. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 9- sinf darslik/ Sh. A. Alimov, Sh. N. Usmonov, O. R. Xolmuhammedov, M. A. Mirzaahmedov T.: "O'qituvchi" MNIU. 2019. – 240 b
2. Рустамович, МЮ (2023). Сравнительный анализ учебников естествознания Узбекистана и Турции для 6-х классов. Международный журнал формального образования, 2 (3), 114–120.
3. Mustafoyev O'.R. 6-sinf «Tabiiy fan» darsligida namoyishli tajribalarning o'rni va roli//Innovations in technology and science education 2:17 (2023),p. 253-261.
4. Daminov M.I., Mustafoyev O'.R. Fizikadan maktab o'quvchilari uchun zamonaviy darsliklar yaratishda xorij tajribasidan foydalanish//ta'lim sifatini oshirish: muammo, yechim va istiqbol1:1(2020), p. 683-685.
5. Даминов М.И., Каххоров С.К. и Мустафаев У.Р. (2020). ИЗУЧЕНИЕ ОСНОВ НАНОТЕХНОЛОГИЙ В ШКОЛЬНОЙ ПРОГРАММЕ ФИЗИКА. Научные доклады Бухарского государственного университета, 3 (4), 320-324.
6. Jabborova, G. S. (2022). Vektor fazolarda operatorlar va ularning asosiy xossalari haqida. Science and Education, 3(11), 17-32.
7. Jabborova G.S. Hayitova X.G'. (2023)"Uchburchakli panjarada aniqlangan diskret Shryodinger operatorining xossalari" Tadqiqotlar jahon ilmiy – metodik jurnali, 6(14), 118-126.
8. Mustafoyev O'. R. (2024). Maktab fizika darslarida o'quvchilar faolligini oshirishda Sun'iy intellektning o'rni. Pedagogik akmeologiya, 2(10), 218-221.
9. Jo'rayeva N.O. Mustaqil ta'limni tashkil etishda mobil ilovalaridan foydalanish. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023 год №1. -273-27 b

## **FIZIKA DARSLARIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI MOBIL DASTURLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

*Jamolova Shahlo Qobilovna-*

*Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi,*

*Ravshanova Shaxlo Erkinovna*

*Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi*

*Annotatsiya: Ushbu maqola fizika fanini o'qitishda talabalarning hisoblash tafakkurini mobil texnologiyalar asosida rivojlantirishning ahamiyati haqida yoritilgan. Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida Fizika ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar, o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish, o'qitish mazmuni, maqsadi, vazifasi va barcha komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashda mobil dasturiy vositalardan foydalanish. Bo'lajak fizika fani o'qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy kompetensiyalarini dasturiy vositalar yordamida rivojlantirish pedagogik muammo ekanligi, kasbiy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili haqida fikr-mulohazalar bildirildi.*

*Kalit so'zlar: kompetensiya, mobil ta'lim, mobil, mobil o'qitish, dogmatik metod, virtual laboratoriya, mobil texnologiyalar.*

## **МЕТОДОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ ФИЗИКИ ЧЕРЕЗ МОБИЛЬНЫЕ ПРОГРАММЫ**

*Джамолова Шахло Кабиловна-*

*Бухарский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры точных наук,*

*Равшанова Шахло Эркиновна-*

*Студент 2 курса Бухарского государственного педагогического института*

*Аннотация: В данной статье описывается важность развития вычислительного мышления учащихся на основе мобильных технологий в обучении физике. В данной статье описаны требования к профессиональным компетенциям студентов физического факультета высших учебных заведений, совершенствование методической системы обучения, обеспечение взаимосвязи между содержанием, целью, задачей и всеми компонентами обучения с использованием мобильных программных средств. В подготовке будущих учителей физики развитие их профессиональной компетентности с помощью программных средств является педагогической проблемой, высказано мнение об анализе проводимой работы по формированию профессиональной компетентности.*

*Ключевые слова: компетентность, мобильное образование, мобильное, мобильное обучение, догматический метод, виртуальная лаборатория, мобильные технологии.*

## **METHODOLOGY OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCES OF STUDENTS IN PHYSICS LESSONS THROUGH MOBILE PROGRAMS**

*Jamolova Shahlo Kabilovna-*

*Bukhara State Pedagogical Institute, teacher of the Department of Exact Sciences,*

*Ravshanova Shakhlo Erkinovna*

*Bukhara State Pedagogical Institute 2nd level student*

*Abstract: This article describes the importance of developing students' computational thinking based on mobile technologies in teaching physics. This article describes the requirements for the professional competencies of students of the Physics Department in higher education institutions, improving the methodological system of teaching, ensuring the interrelationship between the content, purpose, task and all components of teaching using mobile software tools. In the training of future teachers of physics, the development of their professional competence with the help of software tools is a pedagogical problem, opinions were expressed about the analysis of the work carried out on the formation of professional competence.*

*Key words: competence, mobile education, mobile, mobile teaching, dogmatic method, virtual laboratory,*

*mobile technologies.*

Kirish. Jahonda oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonini to'laligicha yoki muayyan fan doirasida, ta'lim dasturi mazmuniga muvofiq o'qituvchilar faoliyatini rejalashtirish va kasbiy faoliyat elementlarini ta'lim oluvchilar tomonidan ketma-ket o'zlashtirishga yo'naltirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Jahonda barqaror taraqqiyotni oliy ta'lim sifatini ta'minlashdagi muammolarni bartaraf etishda ilmiy jihatdan turli yondashuvlar, tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday yondashuvlarga oliy ta'lim mazmunini yangilashga urinishlar, (dastur, darsliklar, o'quv qo'llanmalar), yangi o'quv va ilmiy manbalarni (chet el darsliklari) joriy etish mumkin. Xususan, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lay oladigan pedagoglar tayyorlashga bo'lgan ehtiyojlari bilan izohlanadi. Jamiyatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli vazifalarini hisobga olish, talabalarga aniq fanlarni, jumladan, umumiy fizikani fanlararo integratsion o'qitish orqali kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar asosida kadrlar tayyorlash zaruratini taqozo qiladi. Mamlakatimizda ham ushbu talablarni to'laqonli bajaradigan kadrlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagi "Fizika va uni o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib, 2021-yilda fizika va chet tillarini o'rganishni ustuvor yo'nalish etib belgilashni" taklif etganliklari misolida ham bu fanni o'qitishning naqadar dolzarbligini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa Prezidentimizning 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham bu borada vazifalar belgilab berilgan:[1].

Mamlakatimiz rahbarining Janubiy Koreya, Angliya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya va boshqa mamlakatlarning nufuzli mutaxassislarini ta'lim jarayoniga jalb qilish, yurtimizda xorijiy mamlakatlar universitetlarining filiallarini ochish, yoshlarimizning xorijda malaka oshirishi yoki o'qishi uchun imkoniyat yaratishga alohida e'tibor qaratishining boisi ham shunda. O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, talabalarining kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar bilan muntazam ravishda tanishtirib borish hamda ushbu talablarni qanoatlantiradigan kadrlar sifatini oshirish nihoyatda ahamiyatli vazifadir. Yuqorida aytilgan fikrlarni inobatga olgan holda yurtimizda ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu izlanishlarning barchasida ko'zlangan maqsad ta'lim oluvchilarda fizika faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarni turli usul va vositalar yordamida takomillashtirish, qolaversa fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbga oid kompetensiyalarini rivojlantirish. Bunday turdagi ilmiy izlanishlarning bir qismini ko'rib chiqamiz.

Asosiy qism. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali sifatli ta'limni tashkil etish va uni rivojlantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimida texnologiyadan o'quv jaryonida vosita sifatida foydalanishda o'quvchiga etkazadigan bilim izchilligiga, o'quvchining bilim darajasiga, mashg'ulotlar davomida olgan kompetensiyasiga alohida e'tibor berishni, milliy qadriyatlarni saqlagan holda interaktiv yondashuv asosida mashg'ulotni tashkil talab etadi. Ta'lim tizimida oliy ta'lim muassasalarida o'quv materialini taqdim etishning zamonaviy va istiqbolli shakllaridan biri mobil ilovalardan bugungi kunda keng foydalanib kelinmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarining hisoblash tafakkurini mobil texnologiyalar asosida rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari ishlab chiqish o'quvchilarga yetarli bilim va ko'nikmalarni berishda muhim omil ekanligi, shuningdek talabani kasbiy faoliyatga tayyorlashda mobil texnologiyalaridan foydalanish orqali ularda hisoblash tafakkurini rivojlantirish muammosi dolzarbligini belgilaydi. Mobil ta'lim deganda biz mobil texnologiyalardan foydalangan holda o'quv vazifalari majmuasini hal qilishni tushunamiz. Shu bilan birga mobil ta'limni masofadan o'qitish bilan bir qatorda elektron ta'limning kichik turi ham deyish mumkin. Mobil ta'lim o'quvchilar tomonidan maxsus tashkil etilgan o'quv materiallarini o'zlashtirishni ta'minlaydi, ularga kirish mobil texnologiyalar va qurilmalar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv quyidagi ta'riflarda o'z aksini topadi. Mobil ta'lim - talabaning joylashuvi o'zgarishi bilan cheklanmagan holda mobil qurilmalardan foydalangan holda tashkil etiladigan elektron ta'lim hisoblanib o'zining tezkorligi, mobililigi va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Mobil o'qitish – bu mobil texnologiyalarni qo'llagan holda, yakka, guruhli va jamoali ta'lim olishning dars va darsdan tashqari o'quv faoliyatlarini o'z ichiga birlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan ta'lim olishning maxsus shakli hisoblanadi. Talabalardagi bugungi kunda hisoblashda matematik amallarni bajarish izchilligi etishmasligi, fikrlash mantiqiy fikrlash va tizimli fikrlash kompetensiyalarini etishmasligiga olib kelmoqda. U algoritmik fikrlash va parallel fikrlashni o'z ichiga oladi, ular o'z navbatida kompozitsion fikrlash, namunaviy harakat, protsessual fikrlash va rekursiv fikrlash kabi boshqa fikrlash jarayonlarini o'z ichiga

oladi[2-3].

Hisoblash tafakkuri masalalarni shakllantirish va tahlil qilish va ularni hal qilish, keng talqin qilishda qo'llaniladi. ularning kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta'sirini aks etiruvchi quyidagi tamoyillarni ajratib olish kerak. Mobil texnologiyalarga asoslangan ta'lim metodlari ta'lim jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchining birgalikdagi faoliyati sifatida ta'lim mazmunining asosini tashkil etgan bilim, faoliyat metodlari jamlanmasi hamda tajribani, shu bilan birga shaxsning ijtimoiylashuvi va individualligini takomillashtirishni o'z oldiga asosiy maqsadi qilib oladi. Ta'lim berishning maqsadi hamda vazifalari, shu bilan birga o'quvchilarning bilimlarni egallashi o'quv jarayonining mavjud imkoniyatlaridan foydalangan ravishda ilmiy izlanuvchilar —o'qitish metodi tushunchasini aniqlashtirishning har xil variantlarini taklif qildilar. Ta'riflarni umumlashtirish ta'lim metodining quyidagi tarkibini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- metodni qo'llashning maqsadi;
- foydalanish shartlari; - o'qituvchi faoliyati;
- o'quvchilar faolligi;
- natijani nazorat qilish usuli va unga erishish mezonini.

Umumiy qilib aytganda, talabalarining hisoblash tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usullarini amalga oshirishda mobil qurilmalarning aloqa imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Bu didaktik vazifalarni tegishli o'qitish usullari yordamida hal etish mumkin. Bu esa batafsilroq bayon qilinadi. Dogmatik metod aniq fanlarni o'qitishda ushbu metoddan keng foydalaniladi. Qoidalar va formulalar auditoriyaga berilganda, o'qituvchi o'quvchilarga nima qilish kerakligini, metoddan qanday foydalanish lozimligini, qanday harakat qilish va qanday xulosa chiqarish kerakligini aytadi. O'qitishning dogmatik metodi – o'qituvchining materialni og'zaki, ko'rgazma vositalardan foydalanmay, dalil isbotsiz va faqat o'quvchilarni ma'lum bir o'quv materialni takrorlashga va yod olishgagina jalb etish bilan bayon qilishdan iborat. Afzalliklari: - bu metod vaqtni, energiyani va ko'plab asossiz yoki foydasiz fikrlashning oldini oladi; - bu o'quvchilarni yordamchi vositalarsiz (kalkulyator, elektron hisoblash vositalari) hisoblash tafakkurini oshirishga xizmat qiladi; - xotirani mustahkamlaydi; - muammolarni hal qilishda mahorat, samaradorlik va tezlikni oshiradi mobililikni hosil qiladi. Kamchiliklari: organilayotgan- mavzu o'quvchilar uchun zerikarli va qiziqarsiz bo'lib qolishi mumkin, chunki mexanik usul qiziqishni oshirmasligi mumkin; - mexanik yodlangan ma'lumotlarning ko'pchiligi tez orada unutilishi ehtimoli mavjud; - o'quvchilar boshqalarning g'oyalarini takrorlaydilar va qabul qiladilar va bu bilan boshqalarning g'oyalariga qaram bo'lib qolishi mumkin. Uni qanday yaxshilash yoki takomillashtirish mumkin. O'qituvchi tomonidan taqdim etilgan mavzu o'quvchilarda moslashtirilgan bo'lishi va talabalar tomonidan qat'iy qabul qilinib, taqlid qilinishi kerak. Qo'llana bo'ladigan fanlar: aniq fanlar (informatika, matematika, kimyo, fizika va boshqalar) Qo'llanilishi: Talabalar tomonidan foydalanishi mumkin bo'lgan barcha didaktik vositalar (darslik, o'quv qo'llanma, metodik ko'rsatma, daftar, mobil telefon, elektron hisoblash vositalari ...) yig'ib olinadi. O'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan formulalar, hisoblashga oid misollar, mantiqiy fikrlashga oid topshiriqlar tarqatiladi va 10-15 minut tayyorgarlik ko'rishi uchun vaqt beriladi. So'ngra har bir o'quvchi o'ziga berilgan topshiriqni sinf doskasiga chiqib himoya qiladi. Mobil so'rov hamda ovoz berish metodlari Mobil so'rov xizmati test ko'rinishida shakllantiruvchi baholashni amalga oshirish imkoniyatini beradi hamda bitta o'quvchiga ko'ra, auditoriyadagi barcha o'quvchilarning ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Tezkor mulohazalar, fikrlar har bir talabaning topshiriqni aniq vaqtda o'zlashtirishdagi taraqqiyoti yoki aksincha talaba duch kelgan qiyinchiliklarni kuzatish imkoniyati mavjud. Mobil qidiruv metodi Bugungi kunda internet tarmog'isiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. Ko'pchilik talabalar mavzuni o'rganishda ta'limni bajarish jarayonida asosan internet xizmatlaridan foydalanadilar. Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning fizikadan nazariy bilimlarini shakllantirish, fizik hodisa, jarayon, qonun va qonuniyatlarning mohiyatini chuqur fikr yuritish orqali anglab yetish, o'quvchilar faolligini oshirish va fizik qiziqishlarini amalga oshirish hamda hisoblash ishlarini bajarishda masalalar yechishning o'rni alohida ahamiyatga ega. Binobarin, "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish", "Ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish" kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Hozirgi kunda bu muammolarning dolzarbligi yanada oshib, ta'lim sohasida ota-onalar hamda o'quvchilar tomonidan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan zamonaviy talablar ta'limni innovatsion usullarda yangi mazmun bilan to'ldirish zarurligini taqozo etadi. Fizikadan virtual laboratoriya ishini bajarishning texnologik tarkibiy tuzilmasi asosida mashg'otlarni tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan. Mavzularning asosiy tushunchalarini shakllantirish metodini elektron o'quv dasturiy ta'minotlardan foydalanib, qisqa vaqtda samarali

amalgam oshirish, olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash bo'yicha namoyish tajribalari va virtual laboratoriya ishlarini o'tkazishda ulardan foydalanishning izchil metodlari ishlab chiqilgan. Bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashda fan bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarini elektron dasturiy ta'minot (EDT) bilan to'yingan muhitda, axborot ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishga ustuvorlik berish fizikadan berilayotgan topshiriqlarni qayta aloqali vizual muhitda baholay olish, maxsus kasbiy kompetensiya mazmuni o'rganish hamda animatsion turdagi dasturiy ta'minot materiallari mazmunini ishlab chiqish o'rganish asosida amalga oshirildi. Bu ayni paytda o'quv mashg'ulotlarining produktivlik darajalariga samarali ta'sir o'tkazadi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining qo'l telefon, planshet, aypet va boshqa elektron jihozlardan foydalanish orqali ularni faoliyatini nazorat qilish imkoniyatlari ochiladi ularda kreativ fikrlari va hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga doir elektron o'quv-metodik ta'minot ishlab chiqiladi shuningdek, asosiy kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda EDT bo'yicha maxsus kompetensiyalari ro'yxati aniqlaydi. Didaktik tamoyillar asosida ishlab chiqilgan mashg'ulot ishlanmalari mavzular bo'yicha mashg'ulotning mavzusi bo'yicha metodik ko'rsatmalar, tushuntirish algoritmi, mavzuni mustahkamlash bo'yicha nazariy savollar, mashg'ulot yakuni da o'quvchilarning bilim saviyasi baholanadi [4]. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda mobil ilovalardan foydalanish orqali ulardagi mobil aloqani rivojlantirish bilan bir vaqtda ta'limdagi didaktik tamoyillarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Yuqorida aytilgan fikrlarni inobatga olgan holda yurtimizda ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu izlanishlarning barchasida ko'zlangan maqsad ta'lim oluvchilarda fizika faniga oid bilim, ko'nikma va malakalarni turli usul va vositalar yordamida takomillashtirish, qolaversa fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbga oid kompetensiyalarini rivojlantirish. Bunday turdagi ilmiy izlanishlarning bir qismini ko'rib chiqamiz.

Yusupov Erkinjon Xurramovich "Fizika o'qitish metodikasini smart-texnologiyalar yordamida takomillashtirish (7-sinf fizika fani misolida)" mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, dunyoda tabiiy fanlar, jumladan, fizika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning vizual tasavvurini rivojlantirish, fanlarni integratsiyalab o'qitish mexanizmlarini yaratish, metodik va didaktik asoslarini takomillashtirib amaliyotga tatbiq etish, SMART-texnologiyalar va interfaol usullar asosida loyihalash, jarayonga tadbiq qilish va takomillashtirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish, bilimlarni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali kompetentlik hamda madaniyatni rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borib, o'quvchilarda SMART-texnologik bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganib chiqqan. Innovatsion ta'limning fizika faniga doir bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rnini SMART-texnologiyalarning tashkiliy komponentlari mazmunini ochib bergan, fizika fanini o'qitish jarayonlarini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillarni SMART-texnologiyalarning xususiyatiga ko'ra tasniflash asosida aniqlashtirishgan, SMART-texnologiyalarning fizika mashg'ulotlaridagi modellashtirish funksiyasini fizik hodisalarni vizual tasvirlash imkoniyatlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirib, fizika fanini SMART-texnologiyalar asosida o'qitishni samarali amalga oshirishda dasturiy ta'minotlarni qo'llash metodikasini ishlab chiqqan.

Mirzoyev Dilshod Po'lotovich "Talabalarni kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, energetika ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartiga asoslangan malaka talablari va o'quv dasturlari mazmuni hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga qo'yilgan innovatsion talablarni qamrab olgan loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslangan ta'lim jarayonini shakllantirish tizimini takomillashtirdi. bo'lajak energetika ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga oid kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirishning didaktik imkoniyatini aniqlashtirib, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, dasturiy ta'lim vositalarini qo'llash bilan ularning umumiy tuzulmasi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rgandi, elektr energetika ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirish orqali pedagogik modelini ishlab chiqish asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqdi.

Xanimqulov Baxrom Raxmonqulovich "Integratsiyalashgan darslarda mobil o'qitish texnologiyalaridan foydalanish metodikasi" mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, dunyo miqiyosida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda o'quvchilarning fanga tegishli yangi axborotlarni ro'yxatga olish, to'plash, saqlash, uzatish, aks ettirish, translyasiya qilish, axborotni elektron shaklda yaratish, tahrirlash, saqlash, nusxalash va uzatishning umumiy usullarini bilish, taqdimot texnologiyalari yordamida ma'lumotlarni taqdim etish, internetda ma'lumot izlash ko'nikmalarini egallash kabi axborot kommunikatsiya kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotgani, umumta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini mobil texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirib, uslubiy-didaktik ta'minotini ishlab chiqqan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Informatika va

axborot texnologiyalari” fanini mobil texnologiyalar asosida o’qitish metodikasini takomillashtirishning klasterli modeliga asoslangan didaktik modelini ishlab chiqqan, umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini mobil texnologiyalardan foydalanganlik darajalarini aniqlab, baholash mezonlarini ishlab chiqqan.

Irkabayev Jumanali Usmanovich “Texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o’qitishni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish” mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, jahon miqyosida fizika fanini o’qitish samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan ko’plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligini inobatga olgan holda, mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, uning huquqiy bazasini mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar fizika fanini o’qitishga ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini oshirayotganligini aytib o’tgan. Oliy ta’lim muassasalarida fizikani axborot texnologiyalaridan foydalanib o’qitishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini aniqlab, ta’lim texnologiyalari muhitda fizik jarayon va hodisalarni talabalar qobiliyatlariga mos o’qitishning produktivlik darajalarini takomillashtirgan, fizikani o’qitishning empirik bilim shakllari asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga doir o’quv-metodik ta’minotini ishlab chiqqan, fizikadan darslarni tashkil etish texnologiyasi asosida modernizatsion ko’rsatkichlar va bilim natijalarini avtomatik baholash samaradorligini takomillashtirgan.

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich “Oliy o’quv yurtlarida yadro fizikasi bo’limini o’qitish metodikasini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish” mavzuida ilmiy izlanishlar olib borib, oliy ta’limda yadro fizikasini o’qitishning hozirgi holatining tahlili asosida yadro fizikasiga doir mavzular mazmunini takomillashtirish orqali o’qitish samaradorligini oshirish shart-sharoitlarini aniqlab, fizika o’qitish metodikasida qo’llanilgan zamonaviy innovatsion kompyuter texnologiyalarini yadro fizikasi bo’limini o’qitishdagi imkoniyatlari, qo’shimcha zamonaviy texnologiyalar va umumpedagogik tamoyillar hamkorligida ta’lim jarayonida talabalarni intellektual rivojlantirish metodikasini harakat modeli yordamida takomillashtirib, talabalarning ilmiy dunyoqarashlari, kasbiy kompetensiyalari, ijodiy kognitiv rivojlanishlariga yo’naltirilgan, yadrovij jarayonlarni dinamik va statik manzaralarini namoyish etadigan, pedagogik va axborot texnologiyalarining integratsiyasini ta’minlovchi innovatsion didaktik vositalar, elektron darsliklar, taqdimotlar, o’quv qo’llanma va uslubiy ko’rsatmalar yordamida o’quv metodik ta’minotini yaratish hamda o’quv mashg’ulotlari mazmunini boyitish bilan o’quv metodikasini takomillashtirib, yadro energetikasining fizik asoslari va energiya manbalarining ijtimoiy iqtisodiy hayotdagi ahamiyatini yadro fizikasini innovatsion o’qitish orqali talabalarda atom energetikasi haqida adekvat munosabatni shakllantirgan.

Buzrukov To’lqin Omonovich “Umum o’rta ta’lim maktab o’quvchilarida fizikadan masalalar yechish asosida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish” mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib, o’quvchilarda fizikadan turli tipdagi masalalar yechish orqali fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy va laboratoriya mashg’ulotlari integratsiyasiga asoslangan eksperimental masalalarni produktivlik darajalarda qo’llash asosida ochib berib, o’quvchilarda fizikadan turli tipdagi masalalarni tanlash va yechish orqali fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish modelini ishlab chiqish va turli metodlarni o’qituvchilarni algoritmik munosabatda kiritish asosida takomillashtirib, umumiy o’rta ta’lim maktablari o’quvchilarida masalalar oson yechish va hayotda moddiy dunyoning umumiy qonuniyatlaridan foydalanish ko’nikmalarini hamda induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish qobiliyatlarini individual yo’naltirilgan o’quv muhitida qo’llash asosida takomillashtirish, o’quvchilarda amaliy va ilmiy xabardorlik kompetensiyalarining shakllanganligini mustaqil ish va nazorat darslarda shaxsiy monitoringli munosabatda qo’llash asosida takomillashtirish bo’yicha o’z ilmiy fikrlarini bayon qilgan. Biz yuqorida bir qancha olimlarning fizika sohasida olib borgan ilmiy izlanishlarini ko’rdik. Bunda ular fizika fanini o’qitishda talabalarning ilmiy dunyoqarashi, fanni qanday qilib qanday usullar orqali o’qitishga, ta’lim oluvchilarni kasbiy faoliyatiga oid kompetentligini rivojlantirish metodikasi yo’nalishtirishda ilmiy izlanishlar olib borganlarini ko’rdik. Ammo bo’lajak fizika fani o’qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini dasturiy vositalari asosida rivojlantirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmagani inobatga olib, biz aynan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida dasturiy vositalarga yuzlandik[5-10].

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’limda tahsil olayotgan talabalarga fizika kursini o’qitish jarayonida maqolada keltirilgan ma’lumotlardan foydalanish orqali darsning o’tilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni bayon qilish, mavzu bo’yicha olingan bilimlarni mustahkamlash qismlarini samarali tashkil etish mumkin. Umuman darsni yanada samarali, natijador va qiziqarli qilib tashkil qilishda ta’limning turli interfaol usullaridan tashqari mobil dasturiy vositalardan ham foydalanish foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PQ-5032-сон 19.03.2021. Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida LEX.UZ
2. Alimov M.A. "Ta'lim-tarbiya tizimini mobil texnologiyalar asosida modernizatsiyalash istiqbollari, Eurasian journal of Social sciences, philosophy and culture 2022-yil 17-aprel, 31-35 bet
3. Ахмедов А.А., Джораев М. Модернизация компетентности будущего учителя физики. Физика в школе. –Москва, №7. –2015. –С. 20-23.
4. Ахмедов А.А., Хайдаров Б. К. Инновационная технология при выполнении современных лабораторных работ по физике XXII International Scientific and Praktikal Conference «International Scientific Review of the Problems and Prospekts of Modern Science and Education». –USA, Boston. 2016. №4(14) –Pp. 181-184.
5. Alimov M.A. —Raqamli boshqarish tizimlari fanini o'qitish jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnali. Toshkent-2022-yil 3-son 202-207 bet.
6. Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning xususiyatlari Maxkambayev A.X. Usmonov Sh.F.
7. Innovatsion ta'lim texnologiyasida loyihalash metodining imkoniyatlari. Orishev J.(2021) 123- bet
8. Mustafoyev O'. R. (2024). Maktab fizika darslarida o'quvchilar faolligini oshirishda Sun'iy intellektning o'rni. Pedagogik akmeologiya, 2(10), 218-221.
9. Rustamovich, M. U. (2023). Comparative Analysis of 6th Grade Natural Science Textbooks of Uzbekistan and Turkey. International Journal of Formal Education, 2(3), 114-120.
10. Daminov, M. I., Kakhkhorov, S. K., & Mustafayev, U. R. (2020). STUDYING THE BASIS OF NANOTECHNOLOGY IN THE SCHOOL PROGRAM PHYSICS. Scientific reports of Bukhara State University, 3(4), 320-324.

## **INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI O'RNI VA AHAMIYATI**

*Jo'rayev Akmal Razzoqovich*

*Buxoro davlat pedagogika instituti, p.f.f.d. (PhD), professor*

*Sohibov Dilshod Beknazarovich*

*Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti (PhD)*

*Annotasiya: Axborot texnologiyalarining takomillashtirilishi jamiyatni axborotlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Ma'lumki, axborot texnologiyalari informatika qonun-qoidalari asosida takomillashtiriladi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada axborot texnologiyasi, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, jamiyatni axborotlashtirish yo'nalishlari va axborot texnologiyalarining xususiyatlari o'rganiladi.*

*Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, axborotlashtirish, kompyuter, jamiyat, demokratlashtirish.*

## **МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ИНФОРМАТИКИ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ**

*Жураев Акмал Раззокович*

*Бухарский государственный педагогический институт, д.ф.н.н. (PhD), профессор*

*Сохибов Дилшод Бекназарович*

*Докторант (PhD) Бухарского государственного педагогического института*

*Аннотация: Совершенствование информационных технологий является важным фактором информационного общества. Известно, что информационные технологии совершенствуются на основе законов информатики. Исходя из этого, в данной статье рассматриваются информационные технологии, факторы, влияющие на их развитие, направления информатизации общества и особенности информационных технологий.*

*Ключевые слова: Информационные технологии, информатизация, компьютер, общество, демократизация.*

## **THE PLACE AND IMPORTANCE OF INFORMATION SCIENCE AND INFORMATION TECHNOLOGY IN THE INFORMATION SOCIETY**

*Juraev Akmal Razzokovich*

*Bukhara State Pedagogical Institute Doctor of Philosophy, (PhD), professor*

*Sohibov Dilshod Beknazarovich*

*Doctoral student (PhD) Bukhara State Pedagogical Institute*

*Abstract: Improving information technology is an important factor in the information society. It is known that information technologies are being improved based on the laws of computer science. Based on this, this article discusses information technologies, factors influencing their development, directions of informatization of society and features of information technologies.*

*Key words: Information technology, informatization, computer, society, democratization.*

Hozirgi kunda har bir tashkilot, o'quv muassasasi, firma va ishlab chiqarishning barcha sohalarida rahbar va xodimlar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida boshqaruv jarayonlarini ma'lum darajada avtomatlashtirishga oid muammolarni yechish bilan shug'ullanadi. Bunda ular maxsus firmalarning mutaxassislari bilan uchrashadi, ularning faoliyati bilan yaqindan tanishadi, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarni ko'radi va pirovardida o'zida avtomatlashtirish uchun kerak bo'ladigan texnik jihozlarni xarid qiladi. Albatta, tashkilotlarga o'rnatilgan avtomatlashtirish jihozlari yildan-yilga yangilanib, texnik jihatdan takomillashib boriladi.

Bu nafaqat korxonalarda balkim ta'lim sohasida ham o'qitishni avtomatlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. O'qitishni avtomatlashtirish yoki axborot texnologiyalaridan foydalanish dasturiga quyidagilarni kiritish mumkin:

ta'lim tizimining barcha pog'onalarida axborotlashtirishning yetakchi bo'g'inligini ta'minlash;  
barcha sohalar bo'yicha bilim berishda axborotlashtirishni rivojlantirishni loyihalash va yaratish;  
axborotlashtirish sohalarida me'yoriy bazalarni yaratish;

texnik ta'minotni – kompyuterlar, axborot texnologiyasining boshqa qurilmalari, ularga xizmat ko'rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish.



Axborot texnologiyasi – bu ob'ekt, jarayon yoki hodisalar holati haqidagi ma'lumotlarni bir ko'rinishdan ikkinchi, sifat jihatdan mutloq yangi ko'rinishga keltiruvchi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, uzatishning vosita va usullari majmuasidan foydalanish jarayonidir [3]. Yuqorida keltirilgan ma'lumotimiz bu keng ma'nodagi ta'rifdir. Albatta evolyusiya jarayonida insonlar bir-birlari bilan aloqaga kirishda turli bosqichlarda muayyan aloqa vositalaridan foydalanganlar. Ammo bugungi kunda biz kompyuter, mobil aloqa vositalari, internet va telekommunikasiya vositalaridan foydalanar ekanmiz ushbu texnologiyalarining markaziy qismi hisoblash mashinasi bo'lganligi sababli axborot texnologiyalarini torroq ma'noda, kompyuter axborot texnologiyalari ma'nosida ishlatganimiz ma'qulroq. Shundan kelib chiqqan holda, zamonaviy axborot texnologiyalari – bu kompyuter yordamida axborotni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va uzatish amallarini ta'minlovchi zamonaviy axborot almashinuv vositalari va tizimlari hamda kompyuter texnikasi bazasida ishlovchi dasturiy-apparatli vosita va qurilmalardir. Ta'lim tizimida yangi axborot texnologiyalari va vositalaridan foydalanishning perspektiv yo'nalishlarini ko'rib o'taylik:

1. Avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari (ATT) - faol o'quv faoliyatini ta'minlovchi dasturiy-texnik va o'quv-uslubiy vositalar majmualari. ATT nafaqat aniq bilimlarni berish, balki talabalarning javoblarini, yordam olish imkoniyatini va o'quv materialining qiziqarliligini tekshirish uchun ham javobgardir. ATT murakkab inson-mashina tizimidan iborat bo'lib, u didaktika, psixologiya, modellashtirish, mashina grafikasi va boshqa bir qator fanlarni bir butunlikda birlashtiradi. Ta'lim oluvchi va ta'lim muassasasi o'rtasidagi asosiy aloqa vositasi bu muloqotdir. O'qitish tizimi va o'quvchi o'rtasidagi aloqani o'quvchining o'zi yoki tizim tomonidan boshqarilishi mumkin. Birinchi holda o'quvchi o'zining individual imkoniyatlariga ko'ra materialni o'zlashtirish usulini tanlaydi va ATT bilan ishlash rejimini o'rnatadi. Ikkinchi holda, materialni berish usuli tizim tomonidan tanlanadi va o'quv materialining ramkalari va savollari ssenariy asosida o'quvchiga taqdim etiladi. O'quvchi yoki uning savollariga berilgan javoblarning to'g'rilik darajasiga qarab, tizim ssenariyning u yoki bu versiyasini yuklaydi.

2. Ta'lim ekspert tizimlari (TET) - ta'lim funktsiyalarini bajaradi va tor fan sohasiga oid bilimlarni saqlaydi. TET lar o'z ta'lim sohasiga oid muammolarni hal qilish strategiyasi va taktikasini tushuntirish, bilim, malaka va ko'nikmalar darajasini boshqarish, o'qitish natijalariga ko'ra xatolarni tashxislash qobiliyatiga ega.

3. Talabani asoslari va bilimlari fan sohasiga qaratilgan. Talabalar ma'lumotlar bazasi ma'lum bir ta'lim muammosi haqida ma'lumotlarni shakllantirish va ushbu ma'lumotlar tarkibidagi ma'lumotlarni tanlash, tasniflash, tahlil qilish va qayta ishlash imkonini beradi. Talabalar ma'lumotlar bazasi fan sohasining asosiy tushunchalari, muammolarni hal qilish taktikasi va strategiyalari, mashqlar, misollar va muammolar, shuningdek, mumkin bo'lgan xatolar ro'yxati va ularni tuzatish, ta'limni tashkil etishning uslubiy usullari va shakllarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasini o'z ichiga oladi.

Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog'liq faoliyat sohalari tashkil qiladi. Axborot texnologiyalari sohasida bevosita ishlamaydigan odamlar ham kundalik ishlarida uning imkoniyatlaridan foydalanadi. Axborot texnologiyalari turmushning barcha sohasiga borgan sari ko'proq singib borib, uning harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda.

Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagi texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtni tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mehmonxona hisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi. Yaratuvchi axborot texnologiyalari axborotlarni ishlab chiqadigan, undan foydalanadigan va insonni tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladigan tizimlardan iborat.

Axborot texnologiyalarini rivojlantirish va ulardan foydalanish darajasi yuqori, axborot resurslarini ishlab chiqarishni ta'minlaydigan va axborotdan foydalanish imkoniyatini ta'minlovchi rivojlangan infratuzilmaga ega jamiyat axborot jamiyati deb ataladi. "Axborot jamiyati" nomi birinchi marta 20-asrning 60-yillari o'rtalarida Yaponiyada paydo bo'lgan. Bu Yaponiya hukumati tomonidan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqish uchun tashkil etilgan ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy tadqiqotlar bo'yicha maxsus guruhning hisobotida asosiy bo'ldi. Ushbu atamani taklif qilgan mutaxassislar, bu yuqori sifatli ma'lumotlar ko'p aylanayotgan va uni saqlash, tarqatish va ishlatish uchun barcha zarur vositalar mavjud bo'lgan jamiyatni tavsiflashini tushuntirdi. Axborot manfaatdor shaxslar va tashkilotlarning talablariga muvofiq oson va tez tarqatiladi va ularga tanish shaklda beriladi. Axborot xizmatlaridan foydalanish narxi shunchalik pastki, ular hamma uchun mavjud.

Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan-texnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayonini quyidagi bir nechta yo'nalishda qarash mumkin:

Mehnat, texnologik va ishlab chiqarish jarayoni vositalarini kompleks avtomatlashtirish.

Ilmiy tadqiqotlar, loyihalash va ishlab chiqarish jarayonlarini axborotlashtirish.

Tashkiliy-iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohasini avtomatlashtirish.

Ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayonini axborotlashtirish.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlangani bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dastur"ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Ta'limning bugungi vazifasi yoshlarni kun sayin oshib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilon foydalanishga o'rgatishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim tizimi oldiga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni o'quv-tarbiya jarayoniga qo'llash masalalarini rejalashtirib, uzluksiz ta'lim bosqichlarida o'quv jarayonini axborot texnologiyalari bilan ta'minlashni yuksaltirish kabi dolzarb muammolarni hal qilish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini zamonaviy turdagi o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha samarali tizimni yanada rivojlantirish hozirgi kun talabi bo'lib qolmoqda.

Jamiyatni axborotlashtirishda asosiy e'tibor inson faoliyatining barcha turlarida ishonchli, har tomonlama va o'z vaqtida olingan bilimlardan to'liq foydalanishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasiga qaratiladi. Internetga asoslangan axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya tarmoqlari va intellektual kompyuter tizimlari kelajak avlod uchun bilim, turli axborot va materiallarni erkin tarqatish imkoniyatlarini ochib beradi. U yangi ijtimoiy muhitga moslashish zaruriyatiga duch keladi, bunda axborot va ilmiy bilimlar jamiyat salohiyati va uning rivojlanish istiqbollari belgilovchi asosiy omillarga aylanadi. Yagona global axborot tizimlaridan foydalanish ta'limga axborot texnologiyalarini joriy etishni ta'minlaydi: yagona ta'lim maydoni shakllanadi, insonning muloqot qilish va umumiy nomoddiy resurslardan foydalanishga, katta hajmdagi ma'lumotlarni tushunish va qayta ishlashga bo'lgan ehtiyoji ortadi.

Zamonaviy jamiyat hayotida ta'limning o'rni asosan axborot jamiyati tushunchalarida, axborot sivilizatsiyasini shakllantirish va ta'limni axborotlashtirishda o'z aksini topgan bilim va ma'lumotlarning rolining oshishi bilan belgilanadi. Kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish natijasida kelib chiqayotgan jamiyatda yuz berayotgan innovatsion o'zgarishlar sharoitida zamonaviy ta'limni rivojlantirishning eng dolzarb vazifalaridan biri bu axborotlashtirish va axborot jamiyatida ta'limni rivojlantirishning global tendentsiyalarini amalga oshirishdir. Kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli odamlar dunyoning istalgan nuqtasida turli xil ma'lumotlarga ega bo'lishadi, ma'lumot almashishadi, real vaqtda muloqot qilishadi. Axborot oqimlarida erkin yo'nalish uchun har qanday profilning zamonaviy mutaxassisi kompyuter, telekommunikatsiya va boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni qabul qilishi, qayta ishlashi va ishlatishi kerak. Ammo buning uchun siz mavjud bo'lgan juda ko'p miqdordagi ma'lumot orqali navigatsiya qoidalarini bilishingiz va ma'lum bir madaniy madaniyatga ega bo'lishingiz kerak.

Ta'limni axborotlashtirishning ma'nosi o'qituvchi va talabalarning madaniy, ma'rifiy va ilmiy ma'lumotlardan erkin foydalanishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Shuni ham tushunish kerakki, ta'lim sohasini axborotlashtirish ijtimoiy faoliyatning boshqa sohalarini axborotlashtirishdan oldinda bo'lishi kerak, chunki aynan shu erda yangi ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun ijtimoiy, psixologik, umumiy madaniy va kasbiy shartlar mavjud. jamiyat turi tashkil etilgan. Axborotlashtirish va kompyuterlashtirish ta'limda yangi o'rganish, qo'llash va qo'llash ob'yektlariga aylanib bormoqda, bu esa aniq ta'lim tizimini yaratish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalarini yangi tarmoq jamiyatini boshqarish tizimini tartibga solish, saqlash, saqlash va takomillashtirishga qaratilgan axborot jamiyatining elementi va funksiyasi sifatida qarash mumkin. Agar asrlar davomida axborot va bilimlar qonun-qoidalar, an'ana va urf-odatlar, madaniy andozalar va qoliplar asosida uzatilgan bo'lsa, bugungi kunda asosiy o'rin texnikaga berilgan. Axborot texnologiyalari global, mintaqaviy va mahalliy darajada axborot oqimini tartibga soladi. Ular texnotuzilmani shakllantirishda, ta'limning rolini oshirishda muhim rol o'ynaydi va ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, maishiy, ko'ngilochar va hordiq chiqarishga faol joriy etilmoqda.

Professional, uslubiy va umumiy madaniy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning kompleks to'plamiga asoslangan holda turli xil ma'lumotlarni olish va uzatish usullari, ta'limdagi zamonaviy axborot texnologiyalariga egalik qilishni nazarda tutadigan axborot-pedagogik kompetentsiya yanada kengroq kontseptsioning majburiy tarkibiy qismiga aylanishi kerak - zamonaviy universitet o'qituvchisi. O'qitiladigan fanning mazmunidan qat'iy nazar. Bizning fikrimizcha, bu yuqori darajadagi diplom mutaxassisidan har qanday ishlab chiqarish yoki

jamoat sohasidagi tinglovchiga – o'qituvchi, muhandis, menejer, shifokor va hk. Ma'lumot uzatish zanjiridagi birinchi bo'g'in. Axborot pedagogikasi nazariy va uslubiy asosni yaratadi. Demak, aksariyat axborot madaniyati tadqiqotchilari o'zlarining e'tiborlarini iste'molchilarda tegishli axborot madaniyatini tarbiyalashga qaratdilar (M. G. Voxryshev, V. A. Fokeev, L. K. Lobodenko va boshqalar) Demak, L. K. Lobodenkoning fikriga ko'ra axborot madaniyati, bir qator qo'shimcha komponentlarni o'z ichiga olishi kerak: • Axborotni iste'mol qilish madaniyati (ongli ravishda tanlangan axborot turmush tarzi, axborot etakchisi); • Axborotni tanlash madaniyati (jamiyatning axborot muhitining tizimli ko'rinishi; axborot muhitini tahlil qilish qobiliyati); • Qidiruv madaniyati (kutubxonalar va ONTI tomonidan taqdim etiladigan axborot xizmatlari doirasini bilish, SBA va boshqa qidiruv manbalaridan foydalanish qobiliyati; optimal qidiruv algoritmlariga ega bo'lish); • Axborotni qayta ishlash madaniyati (analitik va sintetik faoliyat); • Axborotni assimilyatsiya qilish va undan foydalanish madaniyati (nashr faoliyati, ilmiy tadbirlarda qatnashish, fan va texnika yutuqlaridan amaliyotda foydalanish); • Bibliografik ma'lumotni yaratish madaniyati; 24 • Kompyuter va ofis jihozlaridan foydalanish madaniyati; • Axborot uzatish madaniyati (axborot-kommunikatsiya faoliyati); • Axborotni tarqatish madaniyati (IP-ni bilish, axborotdan foydalanuvchilarni bibliografik ta'minlash usullari va usullarini bilish). «Pedagogik kibernetika» tushunchasi ta'lim jarayonini, pedagogik tizimlarni maqbul boshqarish fani sifatida, kibernetik yondashuv va kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan o'qitish texnologiyasi fani sifatida (G. G. Vorobiev va boshqalar) axborot madaniyatini rivojlantirishni eng muhim vazifalar deb biladi. Axborot madaniyati tushunchasi odamlar hayotining axborot tomonlari bilan bog'liq madaniyatning bir tomonini tavsiflaydi. Axborot madaniyati inson o'z faoliyatining maqsadiga erishish uchun qo'ygan muammolarini hal qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanadi deb taxmin qiladi. Dunyoning zamonaviy rasmini tushunish sifatida (V. A. Izvozchikov); Axborot va odamlar bilan ishlash qobiliyati va qobiliyati sifatida (V. N. Soloviev); Dunyoning tizimli axborot rasmini tushunish sifatida (T. Yu. Kitaevskaya) va boshqalar.

Axborotni o'zgartiruvchi faoliyat odatda ma'naviy madaniyat tarixi sifatida qaraladi va texnologik va ijtimoiy tarixga bo'ysunadi. Biroq, axborotni ishlab chiqarish usuli inson faoliyati asosida yotadi va asosan madaniyat turlarini belgilaydi. Shuning uchun zamonaviy axborot ta'limi va o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, informatika va axborot texnologiyalari fani bugunki kunda har-bir soha vakili uchun juda muhim bo'lib, kishi o'z mutaxassizligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi bilan bir qatorda, chet tillarini o'rganishda va o'z sohasi bo'yicha chetellik ham kasblari bilan fikr almashinishlarida juda katta ahamiyat kasp etadi.

#### Adabiyotlar

Zaripov N. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda webfreelance faoliyati //центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

Зарипов Н. Н. Использование иностранного опыта в обучении информатике и информационным технологиям в школе //Проблемы современного образования. – 2020. – №. 6. – С. 213-218.

Н.О.Жўраева. Таълим жараёнида мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш бўйича айрим кўрсатмалар. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. №3, 2021 йил. -170-176 б

В.И.Мамауров, Н.О.Жўраева. Комбинаторик munosabatlar va ularning geometrik isbotlari haqida. Pedagogik mahorat, maxsus son. 2021 yil. -20-23 б

Р.Х. Алимов, Г.Т. Юлчиёева, О.Қ. Риксимбойев, Ш.А. Аlishov “Axborot texnologiyasi va tizimlari”, Vorls-Nashriyot 141 Toshkent-2011.

S.S. G'ulomov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. Darslik. Toshkent, “Sharq”, 2000. [http://el.tfi.uz/images/Axborot\\_tizimlari\\_va\\_tehnologiyalari\\_2000\\_29df7.pdf](http://el.tfi.uz/images/Axborot_tizimlari_va_tehnologiyalari_2000_29df7.pdf)

M.Mamarajabov, S.Tursunov, Kompyuter grafikasi va veb-dizayn. Darslik. T.: “Cho'lpon”, 2013y. 350 b.

S.Tursunov, I.Nazarov, Ta'limda axborot texnologiyalari. Darslik.

Toshkent.: «Adabiyot uchqunlari», 2019. 1-tom.262b.

S.Tursunov, I.Nazarov, Ta'limda axborot texnologiyalari. Darslik.

Toshkent.: «Adabiyot uchqunlari», 2019. 2-tom.300 b.

**“SHAR BO‘LAKLARI VA ULARNING HAJMI” MAVZUSIGA DOIR OLIMPIADA  
MASALALARINI YECHISH USULLARI**

*Jo‘rayeva Nargiza Oltinboyevna*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrası dotsenti*  
<https://orcid.org/0000-0002-3139-2217>

*To‘yboyeva Zarina Avez Qizi*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada ta‘lim tizimida turli ta‘lim texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada o‘quvchilarga geometriyaning stereometriya bo‘limidagi shar tushunchasi va shar bo‘laklari tushunchalarini turli zamonaviy metodlar orqali tushuntirilib, o‘quvchilar bilimni yanada oshirish, mavzu bo‘yicha qiziqarli olimpiada masalalari keltirilgan. Darsni samarali o‘tkazish maqsadida interfaol metodlardan foydalanilgan.*

*Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, interfaollik, shar, shar bo‘laklari, hajm, svetofor, mosini top, tezkor savol javob, mening raqamimni top, qiziqarli olimpiada masalalari, test.*

**МЕТОДЫ РЕШЕНИЯ ОЛИМПЕЙСКИХ ЗАДАЧ ПО ТЕМЕ «ЧАСТИ СФЕРЫ И ИХ  
ОБЪЕМ»**

*Жўраева Наргиза Олтинбоевна*  
*доцент Бухарского государственного педагогического института*

*Тўйбоева Зарина Авест қизи*  
*Студентка 3 курса Бухарского государственного педагогического института*

*Аннотация. В данной статье представлена информация о повышении эффективности учебной деятельности с использованием различных образовательных технологий в системе образования. Также в статье представлены учащимся понятие сферы в разделе стереометрии геометрии и понятия разделов сферы посредством различных современных методов. Объясняется, дополнительно повышая знания учащихся, представлены интересные олимпиадные задачи по теме. Для эффективного проведения урока используются интерактивные методы.*

*Ключевые слова: Педагогическая технология, интерактивные методы, интерактивность, мяч, части мяча, объем, светофор, найди совпадение, быстрый вопрос и ответ, найди мой номер, интересные олимпиадные задачи, тест.*

**METHODS OF SOLVING OLYMPIC PROBLEMS ON THE TOPIC «PARTS OF THE SPHERE  
AND THEIR VOLUME»**

*Jurayeva Nargiza Oltinboyevna*  
*Associate professor of Bukhara State Pedagogical Institute*

*Tuyboyeva Zarina Avez qizi*  
*3rd level student of Bukhara State Pedagogical Institute*

*Abstract. This article provides information on improving the effectiveness of educational activities using various educational technologies in the education system. The article also presents to students the concept of a sphere in the stereometry section of geometry and the concepts of sections of a sphere through various modern methods. It is explained, further increasing the knowledge of students, interesting Olympiad tasks on the topic are presented. Interactive methods are used to effectively conduct the lesson.*

*Keywords: Pedagogical technology, interactive methods, interactivity, ball, parts of the ball, volume, traffic light, find a match, quick question and answer, find my number, interesting Olympiad tasks, test.*

*Matematikani yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘ladi va istalgan sohada ishlab ketadi”  
Shavkat Mirziyoyev.*


Kirish: Bugungi kunda ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni mukammal egallagan mutaxassis va uni amalda qo'llay olish natijasida ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, uni tahlil qilish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda ko'pchilik o'qituvchilarimizda dolzarb muammo "O'quvchilar darsga quloq solmaydi, uyga vazifa bajarishmaydi, bolalar juda sho'x",- deb barcha ayb o'quvchiga yuklanadi. Hech o'ylab ko'rganmisiz, balki, o'qituvchi shunga sharoit yaratib berayotgandir, uning eskicha metodlari o'quvchilarda zerikish va darsga bo'lgan qiziqishni yo'qotgan bo'lishi mumkin. O'quvchilarga mehr berib, darsda turli o'yinlar, interfaol metodlarni qo'llasak, maqsadga erishgan bo'lamiz.


Bugungi kunda bir qancha rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy texnikalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi "Interfaol metodlar" nomi bilan yuritilmoqda, shu kabi interaktiv o'yinlar ham dars davomida tashkil qilinadi. Interaktiv o'yinlar – nazariy, amaliy, rolli, jismoniy, ishchanlik va bir qancha turlarga bo'linadi. Bunda o'quvchilar o'lchash, hisoblash, tahlil qilish, sinash, solishtirish, xulosa chiqarish, nutq o'stirish, mustaqil qaror qabul qilish kabi bilimlarni o'rganadi. Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarning o'quv jarayonida qo'llanilishi tushuniladi. Interfaollik - bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida, dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'quvchi va o'qituvchining o'zaro muloqoti asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi: O'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o'zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi, o'quv sifati va samaradorligini oshiradi. Interfaollik asosida o'tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq - oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hozirgi davrda o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, innovatsion usul hamda metodlardan foydalanib ta'limning samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining Matematika kursidan ma'lum bo'lgan "Shar bo'laklari va ularning hajmi" mavzusini o'qitishda turli xil zamonaviy metodlar va interaktiv o'yinlar keltiriladi, uslubiy ko'rsatmalar beriladi.

Asosiy qism.

Bizga 11-sinf matematika kursidan ma'lumki, "Stereometriya" bo'limida "Shar va uning bo'laklari hajmi" mavzusi bilan tanishib o'tamiz. Bu mavzuni o'zlashtirish uchun o'quvchilar Stereometriya bo'limi haqida, fazoviy shakllar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. Biz quyi sinflarda ba'zi fazoviy geometrik shakllar bilan tanishgandik. Ularni ba'zilarini fazoviy jismlar deb ham atagan edik. Oldingi darsda esa, "Shar va uning kesimlari" mavzusini bilib oldik. Agar o'quvchilar shu ma'lumotlarga ega bo'lishsagina yangi mavzuni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga uchrashmaydi. Yangi mavzu bayonini boshlashdan oldin o'quvchilarni katta guruhlariga bo'lib olamiz. O'quvchilarni aylana stollar atrofida yig'ishga harakat qilamiz. Bu usul o'quvchilarni bir-biri bilan ishlashiga, munozara o'tkazishiga yordam beradi. Endi har bir guruhga bittadan sardor tayinlaymiz. Guruh sardorlarini o'quvchilarni o'zlari saylashadi. Har bir guruhga o'zlari uchun nom tanlaymiz.



Yangi mavzuni boshlashdan oldin o'tilgan mavzuni takrorlash uchun guruhlariga tarqatma testlar tarqatamiz va ularni yashil, sariq va qizil kartochkalar bilan baholaymiz. Bunda "Svetafor" metodidan (1-rasm) ham foydalangan bo'lamiz.



1-rasm

Mavzuni tushuntirayotganda slayd va ko‘rgazmali materiallardan foydalanamiz. Bu darsni qiziqarli o‘tishiga va o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

O‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha fazoviy figuralar rasmini (2-rasm) ko‘rsatib ularning o‘tilgan mavzular bo‘yicha bilimlarini tekshiramiz.



2- rasm

Endi o‘tilgan mavzuni takrorlab olish uchun “Mosini top” metodidan foydalanamiz.


| No | Savollar         |   | Javoblar  | Moslik |
|----|------------------|---|---|--------|
| 1  | shar             | A | Shar sirtining ikki nuqtasini tutashtiruvchi va sharning markazidan o‘tuvchi kesma                            |        |
| 2  | sfera            | B | $(x - a)^2 + (y - b)^2 + (z - c)^2 = R^2$   |        |
| 3  | diametr          | C | Diametr tekisligining shar bilan kesimi   |        |
| 4  | shar tenglamasi  | D | Shar sirtidagi nuqtadan o‘tib,shu nuqtaga o‘tkazilgan radiusga perpendikular bo‘lgan tekislik                 |        |
| 5  | katta doira      | E | Sharining chegarasi   |        |
| 6  | urinma tekisligi | F | $(x - a)^2 + (y - b)^2 + (z - c)^2 \leq R^2$  |        |
| 7  | sfera tenglamasi | J | Fazoning berilgan nuqtadan,berilgan masofadan katta bo‘lmagan uzoqlikda yotgan hamma nuqtalaridan iborat jism |        |

Bu metodimiz har bir guruhga beriladi va ular birgalikda moslikni topishadi.Bu metodimiz o‘quvchilarga to‘g‘ri javobni eslashda yoki mantiqiy fikrlab topishda birov imkoniyat yaratadi. Qolaversa,bu o‘yinda o‘quvchilar o‘zining qo‘shnisi kimligiga qiziqadilar va qoidalarni diqqat bilan kuzatib topishadi.Bu o‘yin esa o‘quvchilarga qoida va terminlarni yaxshi eslab qolishini rivojlantiradi.

Yangi dars bayoni.


Sharining hajmi: Fazoda berilgan F<sub>1</sub> va F<sub>2</sub>jismlarni bitta tekislikka parallel tekisliklar bilan kesganda

kesimda teng yuzaga ega bo'lgan shakllar hosil bo'lsa, bu jismlar hajmi teng bo'ladi (3- rasm).




3-rasm

Bu ajoyib xossa Kavalieri prinsipi deb yuritiladi. Uni asoslash uchun  $F_1$  va  $F_2$  jismlarni bitta tekislikka parallel tekisliklar bilan kesganda hosil bo'ladigan yupqa qatlamlardan tuzilgan deb olamiz. Bu qatlamlarni bir xil qalinlikdagi (balandlikdagi) to'g'ri silindrlar deb olsak, shartga ko'ra ularning asoslari yuzalari tengligidan bu silindrlarning hajmlari ham bir-biriga teng bo'lishi kelib chiqadi. Unda bu qatlamlardan tuzilgan  $F_1$  va  $F_2$  jismlarning hajmlari ham o'zaro teng bo'ladi (4-rasm).



4-rasm

Teorema: Radiusi  $R$  ga teng sharning hajmi  $V = \frac{4}{3} \pi R^3$  bo'ladi.



5-rasm

Isbot.  $\alpha$  tekislikda yotgan  $R$  radiusli yarimsharlar berilgan bo'lsin (5-rasm). Uning yonida asosi shu tekislikda yotgan, radiusi  $R$  ga teng doiradan iborat va balandligi  $R$  ga teng bo'lgan silindrni qaraymiz. Bu silindrga, asosi silindrning yuqori asosidan iborat, uchi esa silindr pastki asosi markazida bo'lgan konusni ichki chizamiz. Berilgan yarimshar hajmi silindrning konusdan tashqari qismi hajmiga teng ekanligini ko'rsatamiz.  $\alpha$  tekislikdan  $x$  ( $0 \leq x \leq R$ ) masofada o'tuvchi va unga parallel  $\beta$  tekislikni o'tkazamiz.


$\alpha$  tekislikda  $x$  ( $0 \leq x \leq R$ ) masofada o'tuvchi va unga parallel  $\beta$  tekislikni o'tkazamiz. Bu tekislikning yarimshar bilan kesimida radiusi  $\sqrt{R^2 - x^2}$  ga, yuzi esa  $\pi(R^2 - x^2)$  ga teng bo'lgan doirani hosil qildik. Bu tekislikning ikkinchi jism bilan kesimida tashqi radiusi  $R$  ga, ichki radiusi esa  $x$  ga teng bo'lgan halqa hosil bo'ladi. Bu halqaning yuzi ham

$\pi R^2 - \pi x^2 = \pi(R^2 - x^2)$  bo'ladi. Ushbu Kavalyeri prinsipiga ko'ra yarimshar va yasalgan jism hajmlari o'zaro teng bo'ladi. Bu hajmlar quyidagicha:

$$V^1 = V_{\text{shar}} - V_{\text{konus}} = \pi R^3 - \frac{1}{3} \pi R^2 x = \frac{2}{3} \pi R^3 - \frac{1}{3} \pi R^2 x.$$

Sharning hajmi yarimshar hajmidan ikki marta katta, demak,  $\pi V = \frac{2}{3} \pi R^3$  bo'ladi.

Shar kalpasi deb umumiy markazga ega bo'lgan ikkita shar sirtlari orasidagi jismga aytiladi (6-rasm). Bu sharlar radiuslari, mos ravishda,  $R$  va  $r$  bo'lsa ( $R < r$ ), shar kalpasining hajmi  $V = \frac{4}{3} \pi (R^3 - r^3)$



6-rasm

7-rasm

Shar segmenti deb, uning markazidan o'tmaydigan tekislik bilan uni kesganda hosil bo'lgan shar burchaklariga aytiladi (7-rasm). Bu tekislik bilan sharni kesganda hosil bo'lgan doira shar segmentining asosi deb ataladi. Shar segmenti asosiga perpendikular shar radiusining segment ichidagi bo'lagi shar segmentining balandligi deb ataladi.

**Teorema.** Shar segmentining hajmi  $V = \frac{1}{3} \pi h^2 (3R - h)$  bo'ladi, bu yerda  $R$ -shar radiusi,  $h$  esa shar segmentining balandligi.


**Ibot.** Yana 5-rasmga murojaat qilamiz.  $\beta$  tekislik yarimshardan  $H$  balandlikka ega bo'lgan segment ajratgan bo'lsa, deb faraz qilamiz. Ushbu tekislik silindrdan va unga ichki chizilgan konusdan balandligi  $h$  ga teng bo'lgan silindr va kesik konusni ajratadi. Ushbu Kavalyeri prinsipiga ko'ra, shar segmenti  $V$  hajmi silindr va kesik konuslar hajmlarining ayirmasiga teng bo'ladi.

Silindrning hajmi  $V_{\text{shar}} = \pi R^2 h$ .

$$\text{Kesik konusning hajmi esa } V_{\text{konus}} = \frac{1}{3} \pi R^2 h - \frac{1}{3} \pi (R - h)^2 h = \pi R^2 h - \pi R^2 h + \frac{1}{3} \pi h^3.$$

Demak, shar segmentining hajmi

$$V_{\text{shar}} - V_{\text{konus}} = \frac{1}{3} \pi h^2 (3R - h).$$



8-rasm

Shar sektori deb shar segmenti va uchi shar markazida, asosi esa shar segmenti asosidan iborat konusdan tashkil topgan shar bo'lagiga aytiladi (8-rasm).

Shar sektorining hajmi shar segmenti va mos konus hajmlarini qo'shib topish mumkin (8-rasm).


$$\text{Shar sektorining hajmi } V = \frac{3}{8} \pi R^2 h \text{ bo'ladi.}$$

Shar kumasi deb sharning ikki parallel kesuvchi tekisliklar orasidagi bo'lagiga aytiladi (9-rasm). Sharning bu tekisliklar bilan hosil qilgan kesimlari shar kumasi asoslari, bu tekisliklar orasidagi masofa esa shar kumasi balandligi deb ataladi. Shar kumasi hajmi shar hajmidan uchta segmentlar hajmlarini ayitib topish mumkin (9-rasm). Shar kumasi asoslarining radiuslari  $r_1$  va  $r_2$ , balandligi esa  $h$  bo'lsa,

$$\text{Shar kumasi hajmi } V = \frac{1}{6} \pi h (3r_1^2 - 3r_2^2 + h^2) \text{ bo'ladi.}$$

**Eslatma:** Shar va sfera kabi shar segmenti, shar sektori va shar kumasi ham ayiborish jismlaridir. Ular, mos ravishda, quyidagi yassi shakllarning umumiy o'q atrofida aylantirishdan hosil qilinadi (10-rasm)






10-rasm

Mavzu yoritilishi esdi nazozaga doir murakkab masalalarni yechirni bilan tuzibkoriz.

1-masala.

Yer ekvatorining uzunligi 40000 km ga teng. Yer yadrosining radiusi esa 3500 km. Yer yadrosining hajmi Yerning hajmidan necha marta kichik?



Yechish:

Yer radiusini topamiz, buni uchun aylana uzunligi formulasidan  $R$  ni topamiz.  $C = 2\pi R$

$$40000 \approx 2 \cdot 3,14 \cdot R$$

$$R = 40000 : (2 \cdot 3,14) = 6369 \text{ km}$$

Yer hajmi:

$$V_{\text{yer}} = \frac{4}{3} \pi R^3$$

Yer yadrosi hajmi:

$$V_{\text{yadro}} = \frac{4}{3} \pi r^3$$

$$\frac{V_{\text{yer}}}{V_{\text{yadro}}} = \frac{R^3}{r^3} \approx 5,8$$

Javob: 5,8 marta

2-masala. Tegishli o'lkachlarni hajmi va noma hajmini toping.

Yechish: Noma – shar segmenti shaklida. Tegishli o'lkachlarni hajmi,  $R=8,3$  sm,  $h=6$  sm ekanligini aniqlaymiz.

$$V_{\text{og}} = \frac{1}{6} \pi h^2 (3R - h)$$


$$V_{\text{og}} = \frac{1}{6} \cdot 3,14 \cdot (3 \cdot 8,3 - 6) = 712 \text{ sm}^3$$

3-masala.

Radiusi  $R$  ga teng shar tomni  $a$  ga teng muntazam uchburchakning haroma tomonlariga urinadi. Shar markazidan uchburchak tekisligigacha masofani toping.

Yechish:  $A, B, C$  – sharning uchburchak tomonlariga urinish nuqtalari bo'lin. Sharning  $O$  markazida uchburchak tekisligiga  $OO_1$  perpendikulyarini teshiruviz.  $OA, OB, OC$  kesmalar uchburchak tomonlariga perpendikulyar. Uch perpendikulyar xaridagi tomonlarga ko'ra  $O_1A, O_1B, O_1C$  kesmalar ham uchburchakning haroma tomonlariga perpendikulyar.

To'g'ri burchakli  $OO_1A, OO_1B, OO_1C$  uchburchaklarning tengligi uchun ularda  $OO_1$  katet umumiy, gipotenuzalari esa radiusga teng tomonlar teng.  $O_1A = O_1B = O_1C$ .



Demak,  $O_1$  – uchburchakka ichki chizilgan aylananing markazi. Bu aylananing radiusi, biz bilamizki,  $\frac{a\sqrt{3}}{6}$  ga teng. Pifagor teoremasiga ko'ra ikkinchi nuqtadan masofani topamiz. Bu masofa quyidagiga teng:


$$\sqrt{OA^2 - O_1A^2} = \sqrt{R^2 - \frac{a^2}{12}}$$

Endi yangi mavzuni mustahkamlash uchun "Tekshir saval-javab" metodidan foydalanamiz.

1-guruh.

1.Kavalyeri prinsipi nima?


2. Shar kalqasining hajmi formulasini ayting.



3. Berilgan jism hajmini toping.

2-gurukh


1. Shar segmentining sepsi nima?
2. Shar segmentining hajmi formulasi ayting.



3. Berilgan jism hajmini toping.

3-gurukh

1. Shar sektori nima?
2. Shar konusining hajmi formulasi ayting.



3. Berilgan jism hajmini toping.

O'quvchilar ushbu savollarga javob berishadi, o'qituvchi o'quvchilarni javoblarni tinglab, javoblarga qarab yuqorida keltirilgan kuzatibchilarni ko'rsatadi.

Bu metod bilan foydalanishning afzalliklari o'quvchilar fikrini ochiq namoyon qilishadi, o'tgan mavzuni qay darajada tushunganliklarini bilish oson bo'ladi.


Endi o'quvchilarni yanikib o'rnatish uchun "Mening raqamimni toping" o'yini tashkil qilamiz. Bunda 1 dan 100 gacha qaysi raqam hayulimda? Mening raqamimni toping, o'quvchilar siz o'yin o'ynayotgan raqamni taxmin qilishlari kerak. Bu barchaning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun yaxshi matematik o'yin. Ular "Toq summi?", "5 ga karakimi?", kabi savollarni berishlari mumkin, doskadagi o'quvchi esa hushyor hech qanday javob bermasdan faqat "HA" yoki "YO'Q" javoblarni berishi mumkin.

Darsni davom ettiramiz. Endi mustaqil yechish uchun qiziqarli olimpiada masalalaridan beramiz.

Olimpiada masalalari. 1. Arximed teoremini isbotlang. Sharning hajmi unga tesba chizilgan silindr hajmidan 1,5 marta kichik.

2. Radiusi 10mm bo'lgan mis shar balg'alarah, yulitiligi 3 mm bo'lgan silindr shaklidagi disk hosil qilinsa. Diskning radiusini toping.

3. Radiusi va balandligi bir xil bo'lgan silindr, shar va konus shaklidagi idishlar berilgan (11-rasm). Silindr idish suvga to'ldirilgan, undagi suv bilan avvaliga konus shaklidagi idish to'ldirilgan, so'ng ortib qolgan suv shar shaklidagi idishga quyilgan. Natijada silindr shaklidagi idishda qancha suv qoladi?




11-rasm

4. Globus ekvatorining uzunligi 1 m ga teng. Yetishmayotgan ma'lumotlarni qidirib topib, Yer hajmining globus hajmiga nisbatini toping.

5. Kovak shar devonining hajmi  $252\pi \text{ cm}^3$  ga, devonning qalinligi 3 cm ga teng. Tesba sharning radiusini toping.

6. Shar shaklidagi tarvozda shar sektori shaklidagi bo'lagi kesib olingan (12-rasm). Kesilgan bo'lagidan foydalanib, butun tarvoz hajmining bo'lagi hajmiga nisbatini toping.



**12-rasm**

7. Mars diametri Yer diametriging yarmini tashkil qiladi. Mars va Yerning shaklini shar deb olib, Mars sirti Yer sirtidan nerha qancha kichik ekanligini aniqlang.

8. R radiusli sharga teshi chizilgan ko'pyoqning hajmi  $V = \frac{1}{3}SR$  ga teng ekanligini isbotlang (bu yerda S ko'pyoq to'la sirtining yuzi)

9. Globus ekvatorining uzunligi 1 m ga teng. Yetishmayotgan ma'lumotlarni qidirib topib, g'harada O'zbekiston egallagan maydon yuzini toping.

10. Shar shaklidagi shokolad eritilib, radan kub shaklidagi shokolad yasaldi (13-rasm). Qaysi shaklning to'la sirti kichikroq bo'ladi?



**13-rasm**

Mavzuga oid quyidagi testlardan shax yakunida o'quvchilar bilimini qisqa muddatda baholashda foydalanish mumkin.

**MAVZUGA OID TESTLAR:**

1. Shar radiusi 6 ga teng. Radius uchidan  $30^\circ$  burchak tashkil qiluvchi tekislik o'tkazilgan. Shar bilan tekislik hosil qilgan kesimning yuzini toping.

- A)  $27\pi$ ; B)  $8\pi$ ; C)  $64\pi$ ; D)  $25\pi$ .

2. Radiusi 15 ga va 20 ga teng bo'lgan ikki shar markazlari o'zaro masofa 25 ga teng. Shar sirtlari kesishishidan hosil bo'lgan aybaniqning uzunligini toping.

- A)  $24\pi$ ; B)  $20\pi$ ; C)  $25\pi$ ; D)  $15\pi$ .

3. Sharni bo'yash uchun 100 gramm bo'yoq ishlatildi. Agar sharning diametri uch marta oshirilsa, uni bo'yash uchun nerha qancha gramm bo'yoq kerak bo'ladi?

- A) 900; B) 300; C) 600; D) 450.

4. Radiusi 5 ga teng bo'lgan shar markazidan 3 ga teng bo'lgan masofada tekislik bilan ikkita jismga ajratildi. Shu jismlardan kichigining hajmini toping.

- A)  $17\frac{1}{3}\pi$ ; B)  $15\frac{2}{3}\pi$ ; C)  $17\frac{2}{3}\pi$ ; D)  $16\frac{1}{3}\pi$ .

5. Radiusi 2 ga teng bo'lgan yarimshar balandligining o'rtasida yarimsharning asosiga parallel tekislik o'tkazilgan. Hosil bo'lgan shar qismining hajmini toping.

- A)  $10\pi/3$ ; B)  $11\pi/3$ ; C)  $4\pi$ ; D)  $3\pi$ .

Metodning tabiati Test metodi o'quvchini qisqa muddatda baholashga yaroq beradi. Har bir o'quvchiga tanqiladi va bajarib bo'lganda tekshiriladi. Bu o'quvchilarni mavzuni qanchalik tushunganligi yanqop ko'rsatib beradi.

Vazifalar berib darsni yakunlaymiz. Baholab, o'z ta'limini yanqop davom ettiramiz.

Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining tadri ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik har bir vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslab hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan mavzuni maqsadlar uchun moslab ajratib tegishlikda qo'llash mumkin. Ba koht kasinda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlab moslabni yechish usullariga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilariga Matematika kursining "Shar bo'laklari va ularning hajmi" mavzusini o'qitish jarayonida maqolada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish orqali darsning o'tilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni bayon qilish, mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash ularning matematikaga bo'lgan qiziqishlarini orttirish mumkin. Umuman darsni yanada samarali, natijador va qiziqarli qilib tashkil qilishda ta'limning turli interfaol usullaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, maqolada o'quvchilarni bilimini oshirish uchun olimpiada masalalari keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Q. Xaydarov. Algebra va analiz asoslari geometriya. O'rta ta'lim muassasalarining 11 sinfi va o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik, 1 nashr. T.: 2018 yil.
2. Погорелов А.В. "Геометрия 10–11", учебник. –М., Просвещение, 2009.
3. С.Ходжиев, Н.О.Жўраева. Применение алгоритмического метода при решении неравенств. Образование и наука в XXI веке». Выпуск №25 (том 4) (апрель, 2022). стр -1088-1099

## MAKTAB O'QUVCHILARIGA "KOMBINATORIKA ELEMENTLARI" MAVZUSINI O'RGATISH: METODIKA VA ILMIY TAHLIL

Jumayeva Charos Ilhomjon qizi.

Buxoro davlat universiteti.

*Annotatsiya. Hozirgi kunning talablaridan biri bo'lgan o'sib borayotgan yosh avlodni bilimli qilib tarbiyalash va ilmga chanqoq yoshlarni yanada yetuk mutaxassis qilib tarbiyalashdir. Ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalari va zamonaviy pedagogik usul va metodlardan dars davomida samarali foydalanib, o'tilayotgan mavzuni yaxshi o'zlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada matematika fanining muhim va o'quvchilar uchun qiziq mavzularidan biri hisoblanuvchi "Kombinatorika elementlari" mavzusini o'quvchilarga mazmunli tushuntirishda samarali yondashuvlar, interfaol metodlar, ularning afzalligi va kamchiligi haqida fikr yuritilgan. Ayniqsa, bugungi kunda zamon talablaridan biri bo'lgan kompyuter texnologiyalari va ularga bog'liq bo'lgan jihatlarni amaliyotga joriy qilishda xalqaro standartlardan foydalanish keng targ'ib qilinishi zarurati bor. Bu borada pedagogik usul va metodlarning ilmiy kategoriyalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayonlarida samarali qo'llash borasida ishlarni olib borish katta ahamiyat kasb etadi.*

*Kalit so'zlar: Kombinatorika elementlari, o'rinlashtirish, o'rin almashtirish, guruhlash, "Zinama-zina" metodi, "Baliq skeleti" metodi.*

## TEACHING SCHOOLCHILDREN THE TOPIC «ELEMENTS OF COMBINATORICS»: METHODOLOGY AND SCIENTIFIC ANALYSIS

Jumayeva Charos Ilhomjon qizi.

Bukhara state university

*Abstract. One of the demands of the present day is to educate the growing younger generation to be educated and educate young people who are thirsty for science to become more mature professionals. In the educational system, it is of particular importance to master the topic under study, effectively using computer technology and modern pedagogical methods and techniques throughout the lesson. This article reflects on effective approaches, interactive methods, their advantage and disadvantage in meaningfully explaining to students the topic of "Combinatorics elements", one of the important and interesting topics of mathematics for students. In particular, there is a need for the widespread promotion of the use of international standards in the practical implementation of computer technologies and related aspects, which are one of the requirements of the times today. In this regard, the importance of the development of scientific categories of pedagogical methods and their effective application in educational processes.*

*Keywords: Elements of combinatorics, placation, substitute, grouping, method "Step by step", method "Fish skeleton".*

## ПРЕПОДАВАНИЕ ШКОЛЬНИКАМ ТЕМЫ «ЭЛЕМЕНТЫ КОМБИНАТОРИКИ»: МЕТОДОЛОГИЯ И НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ

Джумаева Чарос Ильхомжон кизи.

Бухарский государственный университет.

*Аннотация. Одним из требований сегодняшнего дня является воспитание подрастающего молодого поколения образованным, а молодых людей, жаждущих науки, - более зрелыми специалистами. В системе образования особое значение имеет овладение изучаемой темой, эффективное использование компьютерных технологий и современных педагогических методов и приемов на протяжении всего урока. В данной статье рассматриваются эффективные подходы, интерактивные методы, их достоинства и недостатки в содержательном объяснении учащимся темы "элементы комбинаторики", которая считается одной из важных и интересных для учащихся тем математической науки. Особенно сегодня существует необходимость широкого продвижения использования международных стандартов при внедрении в практику компьютерных технологий и связанных с ними аспектов, что является одним из требований современности. В связи с этим большое значение приобретает работа по разработке научных категорий педагогических методов и приемов и их эффективному применению в образовательных процессах.*

*Ключевые слова: элементы комбинаторики, расстановка, перестановка, группировка, метод "Шаг за шагом", метод "Скелет рыбы".*

**KIRISH.** Bugungi kunda o'quvchilarga o'qitiladigan har bir fanga chuqur yondashiladi va har bir mavzuni mukammal, eng so'ngi ma'lumotlar bilan boyitilishiga katta e'tibor qaratilgan. O'quvchilarga o'tilgan mavzuni yaxshi tushunib, anglab yetishi, mavzuga doir ma'lumotlar uzoq vaqt esda qolishida dars davomida foydalaniladigan zamonaviy pedagogik usul va metodlarning o'rni beqiyosdir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'rif. Biror chekli to'plam elementlari ichida ma'lum bir xossaga ega bo'lgan elementlaridan iborat qism to'plamlarni

tanlab olish yoki to'plam elementlarini ma'lum bir tartibda joylashtirish bilan bog'liq masalalar kombinatorik masalalar deyiladi.

Kombinatorikada qo'shish va ko'paytirish qoidasi deb ataluvchi ikkita asosiy qoida mavjud.

**Qo'shish qoidasi.** Agar biror  $\alpha$  tanlovni  $m(\alpha)$  usulda,  $\beta$  tanlovni  $m(\beta)$  usulda amalga oshirish mumkin bo'lsa va bu yerda  $\alpha$  tanlovni ixtiyoriy tanlash usuli  $\beta$  tanlovni ixtiyoriy tanlash usulidan farq qilsa, u holda " $\alpha$  yoki  $\beta$ " tanlovni amalga oshirish usullari soni  $m(\alpha \text{ yoki } \beta) = m(\alpha) + m(\beta)$  formuladan topiladi.

**Misol.** Kutubxonada 10 xil algebra va 8 xil fizika darsliklari bor. 1 ta darsikni nechta xil usulda olish mumkin?

**Yechish:**

$$m(\alpha) = 10, m(\beta) = 8, m(\alpha \text{ yoki } \beta) = m(\alpha) + m(\beta) = 10 + 8 = 18$$

**Ko'paytirish qoidasi.** Agar biror  $\alpha$  tanlovni  $m(\alpha)$  usulda,  $\beta$  tanlovni  $m(\beta)$  usulda amalga oshirish mumkin bo'lsa, u holda " $\alpha$  va  $\beta$ " tanlovni (yoki  $(\alpha, \beta)$  juftlikni) amalga oshirish usullari soni  $m(\alpha \text{ va } \beta) = m(\alpha) \cdot m(\beta)$  formuladan topiladi.

**Misol.** Oshxonada 4 xil non va 3 xil sosiska bor. Nechta xil moddag tayyorlash mumkin?

**Yechish:**

$$m(\alpha) = 4, m(\beta) = 3, m(\alpha \text{ yoki } \beta) = m(\alpha) \cdot m(\beta) = 3 \cdot 4 = 12$$

Kombinatorik masalalarni yechishda ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biri o'rin almastirish tushunchasidir.

**Ta'rif.** Chekli va  $n$  ta elementdan iborat to'plamning harcha elementlarini faqat joylashish tartibini o'zgartirib qisim to'plam hosil qilish  $n$  elementli o'rin almastirish deb ataladi.

Berilgan  $n$  ta elementdan tashkil topadigan  $n$  o'rin almastirishlar soni  $P_n$  bilan belgilanadi va u  $P_n = n!$  formula bilan hisoblanadi.

Masalan,  $n = 3$  elementli  $\{a, b, c\}$  to'plamdan hosil bo'ladigan  $n$  o'rin almastirishlar  $\{a, b, c\}$ ,  $\{b, a, c\}$ ,  $\{c, b, a\}$ ,  $\{a, c, b\}$ ,  $\{b, c, a\}$ ,  $\{c, a, b\}$  bo'lib, ularning soni  $P_3 = 3! = 1 \cdot 2 \cdot 3 = 6$  bo'ladi.

Kombinatorik tushunchalardan yana biri guruhlash tushunchasidir.

**Ta'rif.** Chekli va  $n$  ta elementli to'plamning  $k$  ( $k < n$ ) ta elementli va kamida bitta element bilan furlanadigan qisim to'plam hosil qilish  $n$  elementdan  $k$  ta elementga kombinatoriyaga guruhlash qoidasi deyiladi.

Masalan,  $\{a, b, c\}$  ko'rinishdagi  $n = 3$  elementli to'plamdan ikkita elementli kombinatoriyalar  $\{a, b\}$ ,  $\{a, c\}$ ,  $\{b, c\}$  bo'lib, ularning soni 3 ta'dir. Bu yerda  $\{b, a\} = \{a, b\}$ ,  $\{a, c\} = \{c, a\}$ ,  $\{b, c\} = \{c, b\}$  deb olinadi.

$n$  ta elementdan  $k$  tadan ulinguz kombinatoriyalar soni  $C_n^k$  kabi belgilanadi va usning qiymati

$$C_n^k = \frac{n!}{k!(n-k)!}$$

formula yordamida hisoblanadi.

Kombinatorik masalalarni yechishda o'rinlashtirish deb ataluvchi tushunchadan ham foydalaniladi.

**Ta'rif.** Chekli va  $n$  ta elementdan iborat to'plamdan bir-biridan yoki elementlari yoki elementlarining joylashish tartibi bilan farq qiladigan va  $k$  ta elementdan iborat qisim to'plamlarni hosil qilish  $n$  elementdan  $k$  tadan o'rinlashtirish deb ataladi.

Berilgan  $n$  ta elementdan  $k$  tadan o'rinlashtirishlar soni  $A_n^k$  kabi belgilanadi va usning qiymati

$$A_n^k = \frac{n!}{(n-k)!}$$

formula bilan hisoblanadi.

Masalan,  $\{a, b, c\}$  to'plamdan  $n = 3$  elementdan  $k = 2$  tadan o'rinlashtirishlar  $\{a, b\}$ ,  $\{b, a\}$ ,  $\{a, c\}$ ,  $\{c, a\}$ ,  $\{b, c\}$ ,  $\{c, b\}$  bo'lib, ularning soni  $A_3^2 = 3 \cdot 2 \cdot 1 = 6$  yoki  $A_3^2 = \frac{n!}{(n-k)!} = \frac{3!}{(3-2)!} = \frac{6}{1} = 6$ .

XULOSA. Ma'lumki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan yoshlarga katta e'tibor berilib, matematika fani va uni amaliyotda qo'llashni rivojlantirish borasida bir qator qarorlar imzolangan. Qarorlar ijrosini ta'minlashning negizida albatta fanni o'quvchilarga ilg'or pedagogik metodlar va texnologiyalardan foydalanib o'rgatish yotadi. Maqolada tavsiya qilingan "Baliq skeleti" va "Zinama-zina" metodlari o'quvchilar tomonidan ijobiy baholanib kelinmoqda. Shu kabi ilg'or pedagogik texnologiyalar bir qator ilmiy izlanishlarda ham tavsiya qilingan va ulardan foydalanish yo'llari misollar yordamida tushuntirib berilgan. Shuningdek, hozirgi vaqtda nazariyaning amaliy tadbirlarini kengaytirish dolzarbligini inobatga olib, kelgusida matematikani boshqa fanlar bilan integratsiyasi haqida ma'lumotlar berish ham muhim ahamiyat kasb etishi keng yoritilgan.

#### Adabiyotlar

1. To'rayev H., Azizov I., "Matematik mantiq va diskret matematika". Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik: II jildlik.-Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2011. – 208 bet. 231-232
2. Jumayeva S. Основы и способы развития речемышлительной деятельности школьников при обучении математике // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2024. – Т. 45. – №. 45.
3. Jumayeva S. Local inner derivations on four-dimensional lie algebras // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2024. – Т. 45. – №. 45.
4. Jumayeva S. "Jegalkin ko'phadi" mavzusini o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
5. M. Abdullayeva, «Чала квадрат тенглама» mavzusini o'qitishda «Бумеранг» технологияси // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8:8 (2021), с. 1651-1660.
6. qizi Jumayeva C. I. et al. Mulohazalar hisobida isbotlanuvchi formulalar: nazariya, amaliyot va tahlil // Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 4. – С. 455-461.
7. Boboyeva M.N. "Matritsalar haqida tushuncha va ular ustida amallar" mavzusini ayrim interfaol metodlardan foydalanib o'qitish. Pedagogik mahorat Maxsus son (2021), 38-42 b.
8. Boboyeva M.N. Increasing creative activity of students by application of methods of analysis and synthesis in mathematics lessons. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. 3:05 (2022), p.67-75.
9. Jurayeva N.O. Organization of self-study of students in the higher education system using digital technologies. Western European Journal of Linguistics and Education, 2024. pp -105-107
10. Jo'rayeva N. O., Husenova M.B. Implikatsiya, konversiya, inversiya va kontrapozitsiya. Образование и наука в XXI веке». Выпуск №26 (том 6) (май, 2022). -760-770 стр
11. Jo'rayeva N. O., Eshonqulova S.Sh. Kombinatorikaning asosiy qoidasi mavzusini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Образование и наука в XXI веке». Выпуск №26 (том 6) (май, 2022). -545-557 стр
12. Бобоева М.Н. "Чизиқли тенгламалар системаси" mavzusini o'qitishda muammoли таълим технологияси ва "зинама-зина" методини қўллаш. Pedagogik akmeologiya. Maxsus son (2022) 67-74 b.
13. Абдуллаева М.А. Применение метода «Рыбий скелет» при решении задач арифметических прогрессии // Центр научных

## DUNYONING RIVOJLANGAN MAMLAKATLARI G'UYAVIY TARG'IBOT MENEJMENTINING KOMPARATIV TAHLILI

Kamalov Azamat Jamalovich

(PhD) Nizomiy Toshkent davlat pedagogika universiteti, Ta'lim menejmenti kafedrasida dotsent v.b

*Annotatsiya.. Maqolada dunyoning rivojlangan mamlakatlari g'oyaviy targ'ibot menejmentining komparativ tahlili haqida so'z boradi. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida xorijning rivojlangan davlatlarining tajribasidan foydalanilgan.*

*Kalit so'zlar; menejment, oila, mahalla, milliy istiqlol g'oyasi, axloqiy me'yorlar, xorij tajribasi*

## COMPARATIVE ANALYSIS OF IDEA PROMOTION MANAGEMENT OF DEVELOPED COUNTRIES OF THE WORLD

Kamalov Azamat Jamalovich

(PhD) Associate Professor, Department of Educational Management, Tashkent State Pedagogical University

*Abstract. The article talks about the comparative analysis of ideological propaganda management of the developed countries of the world. In order to reveal the content of the article, the experience of developed foreign countries was used.*

*Keywords; management, family, neighborhood, idea of national independence, moral standards, foreign experience*

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УПРАВЛЕНИЯ ПРОДВИЖЕНИЕМ ИДЕЙ РАЗВИТЫХ СТРАН МИРА

Камалов Азамат Джамалович

(PhD) Доцент кафедры управления образованием Ташкентского государственного педагогического университета

*Аннотация. В статье говорится о сравнительном анализе управления идеологической пропагандой развитых стран мира. Для раскрытия содержания статьи использован опыт развитых зарубежных стран.*

*Ключевые слова; менеджмент, семья, соседство, идея национальной независимости, моральные нормы, зарубежный опыт*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim"[1] ligi shart qilib qo'yildi.

Ma'lumki, milliy istiqlol g'oyasi o'tgan yillar davomida xalqimizni "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot" maqsadi atrofida birlashtirishga xizmat qildi. O'tgan yillar davomida xalqimiz o'zining boy o'tmishi madaniyati, ma'naviy qadriyatlarini angladi. Bunda milliy g'oya xalqimizning tarixiy tafakkurini boyitishning g'oyaviy manbai bo'lib xizmat qildi.

Milliy mafkuramizning asosiy g'oyalari bo'lgan Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, Xalq farovonligi, Komil inson, Ijtimoiy hamkorlik, Millatlararo totuvlik va Dinlararo bag'rikenglik tushunchalari xalqimiz tafakkuriga singdi. Shuningdek, sobiq ittifoqni tiklashga qaratilgan g'oyalarga qarshi kurashdi.

Bugungi kunda xalqimizda sobiq o'tmishning kirdikorlari haqida aniq pozitsiya shakllandi. Yoshlarimizda davlat ramzlariga milliy, diniy qadriyatlarimizga, an'analarimizga hurmat hissi shakllandi. Milliy g'oya diniy ekstremizm va terrorizm, missionerlik va radikalizm, boqimandalik, loqaydlik va boshqa buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurash vositasi sifatida namoyon bo'ldi. Yurtimizda yashayotgan turli millat va elatlarni yagona vatan O'zbekiston shiori ostida birlashib totuv yashashga xizmat qildi.

Dunyoda global miqyosda turli tajovuzkor, buzg'unchi g'oyalar zamonaviy axborot texnologiyalari orqali butun dunyoga tarqalmoqda, jahonda axborot xuruji, ma'naviyat va madaniyat niqobi ostida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar kuchaymoqda. Shu bois aholining keng qatlamlarida xususan, yoshlarda milliy g'oyaga

sodiqlik, vatanparvarlik tuyg'ularini, yuksak axloqiy va estetik me'yorlari va qarashlarini shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga e'tibor oshib bormoqda. Aynan, istiqloq yillarida yurtimizda xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasiga raxna soluvchi jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terrorizm ta'siriga tushish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik kabi salbiy illatlarni namoyon bo'layotganligi ayniqsa, tashvishlidir. Bunga misol tariqasida ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilingan voqealardan birini keltirish mumkin. O'zbekiston madhiyasi yangrayotgan vaqtda o'quvchilar hurmatsizlik qilib, madhiyani mazax qilishgan (shuning o'zi uchun ham o'quvchilarni javobgarlikka tortsa bo'ladi), tarix o'qituvchisi esa ularga tanbeh berib, tartibga chaqirgan. «Shundan keyin 14 nafar o'quvchi bir bo'lib, o'qituvchini do'pposlay boshlagan», — deyiladi[3], «Kun.uz» xabarida.

Bunday vaziyatda mazkur holatlarni oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining izchil amalga oshirish, ma'naviy – ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan belgilab berilgan “Ma'naviy yo'nalishlarimiz iqtisodiy yo'nalishlardan o'n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qilayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi”, metodologik prinsipi ma'naviyat, milliy g'oyaning O'zbekistondagi strategik va amaliy vazifalarini, rolini, o'rnini, ahamiyatini asoslab berdi[2].

Tadqiqotimiz mavzusi nuqtai nazaridan jahonning rivojlangan davlatlarida milliy g'oya va uning targ'iboti menejmenti masalalari katta ahamiyat kasb etadi. Milliy g'oya targ'iboti menejmenti bo'yicha mavjud tajribalarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, g'oya va mafkuralar asosan,

- 1) moddiy farovonlik;
- 2) insonlarga cheksiz erkinliklarni taqdim etish;
- 3) diniy qadriyatlarni jamiyatda ustivorligini ta'minlash;
- 4) milliy mansublik va davlat tushunchasini aynanlashtirish asosiga qurilgan.

Moddiy farovonlikka asoslangan milliy g'oya va mafkuraga AQShni misol keltirish mumkin. AQShda xalqni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuch sifatida “Amerika orzusi” g'oyasi asosiy o'rinni egallagan. Uning asosini millat, elat, din omillari emas, moddiy farovonlik va kapital tashkil etadi. AQSh o'z fuqarolarini dunyoning eng kuchli va farovon davlati ekanligiga ishonтиради. Fuqarolar esa AQShga tahdid ularning farovonligiga tahdid sifatida qabul qiladi.

1892 yildan boshlab AQShning barcha bog'cha va maktablarida bayroqqa sodiqlik qasamyod marosimi o'tkazib kelinadi. Qasamyod matni quyidagicha, “Men respublika va AQSh bayrog'iga sodiqlikka qasamyod qilaman. U hammamiz uchun adolat, erkinlik Xudo huzuridagi yagona millat ekanligimiz ramzidir”. Ushbu marosim ayrim shtatlarda bir haftada bir marta, ayrimlarida bir oyda bir marta o'tkaziladi va bunda barcha o'qituvchi va o'quvchilar ishtirok etishi majburiy. Ushbu qasamyod matni yoshlarga va keng jamoatchilikka turli kino, seriallar, multfilmlarda doimiy singdirib boriladi. Shuningdek ushbu marosim rasmiy davlat tadbirlari doirasida ham o'tkaziladi.

Geografik masofa, biz 74 yil yashagan sobiq tizimning mafkurasi amerika va o'zbek xalqlarining bir-birlari haqidagi tasavvurlarida o'zining salbiy izini qoldirganini yaxshi bilamiz. Bu haqda akademik A. Meliboev shunday yozgan edi: “Sho'rolar davrida chop etilgan kitoblarni o'qisang, G'arbg'a safar qilish u yoqda tursin, bu to'g'rida o'ylashga ham hohishing qolmasdi. Nega desangiz, ularda yozilishicha, dunyoning jamiki illati – shu joyda, jamiyat irib-chirib borayotgan, boylar kambag'allarni ezib-yanchayotgan, fermerlar ortiqcha mahsulotlarini arzon-garovga sotishdan ko'ra, ustiga kerosin sepib axlatga tashlayotgan bo'lardi. Ko'chaga chiqsang – qarsoqurs otishma to's-to'polon. Bir yoqda yuz qavatli, salobatidan bulut cho'chaydigan hashamatli binolar, ikkinchi yoqda mayda-chuyda, puf deyilsa, to'zg'ib ketadigan xaroba uylari. Mehr-muruvvat, saxovat degan gapdan asar ham yo'q. Bu gaplarga ishonganmiz. U paytlarda ishonmaslikning o'zi gumrohlik edi...[4]”. Bunday qarash - sinfий yondashuvning ob'ektiv namoyishi edi.

Xayriya va ta'limga homiylik qilish jamiyat tomonidan yuksak qadrlanadi. Bu falsafa gumanitarizm deb nom olgan. Ko'pchilik amerikaliklar odam o'z umri va boyligining bir qismini insonparvarlik maqsadlariga sarflashi kerak. Ana shunda uni xudo yarlaqaydi, odamlar undan rozi bo'ladi, deb hisoblashadi. Bundan amerikaliklarda ma'naviy va moddiy qadriyatlar bir-birini to'ldirib turadi, degan xulosaga kelish mumkin. Buning misollari sifatida Jahon xayriya indeksi bo'yicha AQSh 2017 yilda 139da mamlakat ichida Myanma, Indoneziya, Keniya, Yangi Zelandiyadan keyin 5-o'rinni egallaganini[5]. Ijtimoiy rivojlanish darajasi bo'yicha 2017 yilda 128 mamlakat orasida 18-o'rinni egallaganini[6]. 2018 yilda 158ta mamlakat orasida o'tkazilgan Dunyo mamlakatlarining baxtiyorlik darajasi bo'yicha reytingi(World Happiness Report)da 18-o'rinni egallaganini[7] va 2016 yili 50 mamlakat orasida o'tkazilgan “Milliy ta'lim tizimi samaradorligi indeksi” tadqiqotida AQSh birinchi o'rinni



egallaganini[8] keltirish mumkin.

Vatanga muhabbat - amerika orzusining asosiy qadriyati hisoblanadi. Vatanparvarlikdan asosiy maqsad – amerika jamiyatining asosini belgilovchi qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash. Bu madhiyalarda, tadbirlarda Amerikani xudo yarlaqagan mamlakat ekanligini tarannum qilish va uning milliy qadriyatlarini bardavom qilishda namoyon bo'ladi. Shu sababli «Xudo Amerikani asraydi, «Amerika go'zaldir» kabi qo'shiqlarni barcha amerikaliklar yoddan bilishadi va tantanali tadbirlarda, ayniqsa, sport musobaqalarida birga kuylashadi. Har bir futbol matchidan oldin o'n minglab tomoshabinlar tik turib ruhoniyning ibodatini tinglagach, ketidan milliy madhiyani aytishadi. Bu ham vatanparvarlik g'oyasining milliy o'zlikni anglashni rivojiga qanday yordam berayotganini ko'rsatadi.

AQShda Prezident - Vatan ramzi aholi, yoshlar o'z prezidentlari bilan faxrlanishadi. AQSh ta'lim tizimida bolalarga bolalar bog'chasi va maktab davridan boshlab "Har bir bola kelajakda AQSh prezidenti bo'lishi mumkin" degan g'oya singdirib boriladi. Bu bolalarda yoshlikdan mamlakat taqdiriga daxldorlik, mahalliy va milliy miqyosda sodir bo'layotgan narsalarga javobgarlik, jamoat tashabbuslarida ishtirok etish istagini shakllantirishga yordam beradi.

Pentagonda kino va televidenie maxsus bo'limi yaratilayotgan vatanparvarlik mavzusidagi kino va telelavhalar ssenariylarini jiddiy ko'rib chiqiladi, ularning ruxsatidan keyingina efigra uzatilishi mumkin.

Hollywood tomonidan ishlab chiqarilgan deyarli barcha media mahsulotlar (kino, multfilm, videorolik va h.) da AQSh siyosati targ'ib qilinadi, ularning barchasida AQSh bayrog'i va unga tenglashtirilgan ramzlar ketma-ketligi namoyish etiladi. AQSh dunyoda demokratiya, adolat, erkinlik va dunyoviy tartib himoyachisi sifatida gavdalaniriladi.

G'arbiy Yevropadagi aksar davlatlar o'z mafkuraviy texnologiyalarini "insonlarga cheksiz erkinliklarni taqdim etish" g'oyasi ustida shakllantirgan. Fuqarolarga davlatni qo'llab-quvvatlash bu - ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashning asosiy kafolati sifatida singdiriladi. Xususan, Fransiyada milliy g'oyani shakllantirishda umume'tirof etilgan qonun qoidalar konsepsiyasi tanlab olingan. Xalqni mamlakat maqsadlari uchun safarbar qilishda dunyo e'tirof etgan va xalqaro huquqda qo'llaniladigan normalar milliy maqsadlarga uyg'unlashtirilgan va natijada barcha uchun birdek ta'sir kuchiga aylangan.

Ammo "Barcha narsa inson va uning manfaatlarini uchun" g'oyasining mutaassiblashuvi ayrim kishilar ongida "Davlat insonlarning cheksiz erkinliklarini maksimal darajada qondirilishini ta'minlashi kerak" degan yanglish tasavvurni shakllantirmoqda. Bu esa kishilar tomonidan mohiyatan antigumanistik istaklarni ham oqlanishiga va qo'llab-quvvatlanishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, bir jinsli nikoh, gedonizm, sado-mazoxizm kabi salbiy illatlar tabiiy ehtiyoj, insonning tabiiy huquqi sifatida baholanmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy, tarbiya doirasidan tashqarida qolgan yoshlar dunyoda «Lost generation», ya'ni "boy berilgan avlod", deb nom oldi. Buni Angliya misolida pedagogik tahlil qilamiz.

2011 yilning yozida London va Angliyaning turli shaharlarida 20 kun ichida hibsga olingan yoshlar soni mingdan oshib ketdi. Sky News telekompaniyasi magazinlar oldida to'planib, oynalarini sindirayotgan o'smirlar yozilgan hujjatli kadrlarni ko'rsatdi. Kadrlardan birida 7-8 sinf o'quvchilaridan biri magazin vitrinasi qanday sindirayotgani ko'rsatildi. O'smir dastlab katta kaltak bilan oynani urdi. Sinmadi. Keyin yugurib kelib, "qo'shoyoqlab" oynani tepdi. Yana sinmadi. Keyin uzoqdan yugurib kelib, o'zini oynaga urdi. Bu jinoyi manzarani jurnalistlar bemalol kuzatib, "tarix uchun" qayd qilib turdilar. Aslida ular shuni kutishgandek edi go'yo. Dunyoning eng siyosiy madaniyatli millatlaridan biriga ne bo'ldi?

BBS Korporatsiyasi Angliyada 2011 yilning avgust oyida ro'y bergan o'smirlarning ommaviy tartibbuzarligining o'n sababini e'lon qildi. Sabablar:

- 1) jahondagi moliyaviy inqiroz ta'siri;
- 2) jamiyatning bir qismi o'ta boyib, qolgani o'ta qashshoqlashib ketgani;
- 3) aksariyat o'smirlarning oila tarbiyasini olmay o'sgani;
- 4) ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'ning qisqartirilishi;
- 5) politsiyaning sustkashligi;
- 6) irqchilik;
- 7) rep-madaniyat(repperlar tomonidan zo'ravonlik, nigilizm va ota-onaga naftratning madh etilishi);
- 8) qondirilmagan iste'molchilik. Ko'pchilik sotib ololmaydigan qimmatbaho tovarlarning haddan ziyod ko'p reklama qilinishi;
- 9) «Arab bahori» va olomon kayfiyati bilan qorishib ketgan opportunizm;
- 10) ijtimoiy internet-tarmoqlar, fleshmobning salbiy ta'sirlari[9].

Londonda boshlangan o'smirlarning magazinlarni talab, mashinalarga, uylarga, do'konlarga o't qo'yishi

keyinchalik Birmingham, Liverpool, Nottingham i Bristol shaharlariga o'tdi. Mamlakat iqtisodiyoti va obro'siga katta ziyon yetkazdi. 2012 yil Angliyada bo'lib o'tadigan Olimpiadani xavf ostiga qo'ydi. Guvohlarning aytishicha, odamlarning do'kon, mashinalariga o't qo'yayotib bezori o'smirlar odamlarga: «Kelinglar. Qo'shilinglar, zo'o'o'r!», — deb qichqirishgan. Tergovda esa “Hamma shunday qildi. Men ham”, degan “sabab”ni aytishgan.

Biz BBSKorporatsiyasi tahlillaridagi xulosalarni to'liq deb hisoblamaymiz. Bunda bosh – pedagogik sabab yetishmaydi. Bizningcha asosiy sabab – yoshlar tarbiyasi, ma'naviyatiga e'tiborning, yoshlarda inson kapitalini oshiruvchi institutlar faoliyatining samarasizligida. Ana shu ma'naviy-ma'rifiy bo'shliq “ommaviy madaniyat”ning to'xtovsiz xurujlari “boy berilgan avlod” safini kengaytirmoqda.

Diniy va milliy asoslarni uyg'unlashtirgan holda aholini birlashtirgan mafkuralar bugungi kunda Isroil, Eron, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Myanma, qisman Yaponiya va Xitoy mafkuraviy siyosatida o'z aksini topgan bo'lib, davlat din yoki millat homiysi, davlat boshlig'i diniy yoki milliy rahnamo sifatida namoyon bo'ladi. Fuqarolar diniy yoki milliy rahnamo atrofida jipslashadi.

Yaponiyada “tarix – sintoizm – konfutsiylik – samuraylik irodasi” qadriyatlar tizimi negizida yapon milliy g'oyasi shakllangan. Yaponiya milliy g'oyani singdirish usullari sifatida qadriyatlar tizimidan foydalandi. Milliy g'oya mamlakat iqtisodiyotining tayanchi sifatida asosiy o'rinni egallaydi. Milliy g'oya – milliy iqtisod – milliy taraqqiyot.

Yagona hudud – yagona millat konsepsiyasi ta'lim va boshqa tizimlarda keng qo'llaniladi. Yaponiyada tarixiy qaxramonlar, afsonalarning millatga keng ko'lamda tanitilishi yaponlarning ichki ruhiyatini Yaponiya uchun safarbar qilish mexanizmiga aylangan. Hukumat istalgan paytda bu mexanizmi harakatga keltira oladi. Yaponiyada “Millat, Vatan, Taqdir” tushunchalari uyg'unlashtirildi. Yapon maktablarida “Yapon hulq atvori” darsligi alohida fan sifatida o'rganiladi.

Yapon boshlang'ich maktab o'qituvchilari va bog'cha tarbiyachilari ma'naviy tarbiya bo'yicha maxsus kursda qatnashib sertifikat olishi majburiy hisoblanadi. Boshlang'ich maktabdan boshlab o'quvchilarga yapon millati ruhini singdirish ularning eng asosiy vazifasi etib belgilangan.

Mafkuraviy tarbiya ta'lim tizimida “mehnatsevarlik, oila, maktab, millat va guruh ahloqi” negizida tashkil etilgan. “Har bir talaba kelajak avlodlarning madaniy rivojlanishi uchun qattiq o'qishga majbur”ligi uqtiriladi. Jamiyat e'tiboridan qolish “Yapon shaxsiyati” uchun eng og'ir jazo hisoblanadi.

Xitoyda milliy g'oya va milliy ongni shakllantirishda Konfutsiy ta'limotiga murojaat qilingan. Xitoy Konfutsiy merosidan diniy ta'limot emas, balki ahloqiy asos sifatida foydalandi. Bu mamlakatda ta'limotga nisbatan mutaassib kayfiyatning shakllanishini oldini oldi va o'z navbatida zamonaviy Xitoy qarashlariga oson moslashtirildi. Konfutsiylik axloqi besh asosiy ustunga qurilgan. Bular: 1/Yaxshilik □ 2/To'g'rilik □ 3/ Poklik □ 4/ Donolik □ va 5/ Ishonchlik □ ni tashkil qiladi. Ushbu axloqiy tamoyillar Xitoy ma'naviy-mafkuraviy siyosatida ustivor mavqega ega.

Xitoyda ma'naviy tarbiya tizimi “Ona Vatanga xizmat qilish va sodiq bo'lish” g'oyasi asosida tashkil etilgan. Yoshlikdan bolalarga shaxsiy ehtiyojlar va jamoaviy ehtiyojlar o'rtasidagi balansni saqlash o'rgatib boriladi. Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun harakat qilish jamoaviy ehtiyojlarga daxl qilmasligiga alohida urg'u berilgan. Xitoyda qattiqo'llik va qat'iy tartib intizom ustuvor hisoblanadi.

Xitoyning afsonaviy podshohlaridan bo'lgan Yaoning “Mehr-oqibat, yaxshi xulq-atvor, bilim, adolat va sharaf xitoy millatining uzoq yashashining kafolatidir” degan fikri bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Millat va milliy davlat tushunchasini aynanlashtirish omilidan Germaniya, Turkiya, Koreya respublikasi kabi bir qator davlatlar milliy mafkurasini shakllantirishda keng foydalanishgan.

Germaniyada milliy g'oya nemis millati va davlati birligi negizida shakllangan bo'lib, garchi ikkinchi jahon urushidan keyin rasman nemis millatchiligi rad etilsada, zamonaviy Germaniya mafkurasi “nemis millatining o'ziga xosligi”ning postmodern va postindustrial talqini asosida qayta ishlanib, Germaniya milliy birligining asosiy kuchini tashkil etmoqda.

Germaniyada ma'naviy tarbiya inson tug'ilgandan boshlanadigan uzviy jarayon bo'lib, inson tug'ilganidan to'liq faoliyatini yakunlaguncha davom etadi. Ushbu tarbiyada asosiy urg'u “nemis milliy xarakteri”ni shakllantirishga qaratilgan. Qat'iy tartib va qonun-qoidalarga itoat etishga katta e'tibor qaratilgan. Bog'chada bolalarga xos xususiyatlardan kelib chiqadigan bo'lsa, mehnat jamoalarida ish samaradorligi va vatanparvarlik tamoyillari orqali amalga oshiriladi.

Nemis oilalari hozirgi vaqtgacha ijtimoiy hayotda asosiy o'rinni egallaydi. Germaniyada oila instituti bilan ishlaydigan alohida vazirlik tashkil etilgan. Oila qurish istagining pasayib borishi va oila qurish yoshining ko'tarilishi bu asosan jamiyatdagi iqtisodiy omillar bilan bog'liq.

Nemis oilasiga mansub xonadonlarda bolalar xonasi bo'lishi majburiy etib belgilangan. Nemis oilalarida bolalarning kun tartibi qat'iy belgilangan bo'lib, bola 8 yoshgacha TV ko'rishi mumkin emas, degan qat'iy qoidaga amal qiladi. Uning o'rniga bolalar rasm chizish va musiqa mashg'ulotlari bilan band bo'ladi. Kechki uyqu payti qat'iy 20:00 qilib belgilangan. Ota-onalar haftada kamida bir marotaba farzandlari bilan xiyobonga va jamoat dam olish joylariga borishi shart deb qabul qilingan. Germaniyada farzandga uning ota-onasidan boshqa shaxs tanbeh berishi mumkin emas.

Germaniyada barcha OAV milliy g'oyaning targ'ibotchisi hisoblanadi.

Janubiy Koreya Respublikasida ham milliy g'oyaning asosi koreys millatining o'ziga xosligi hisoblanadi. Milliy o'ziga xoslik asosan urf-odatlar, axloqiy ideallar orqali singdirib boriladi. Yoshlarni tarbiyalashda oila instituti asosiy hisoblanadi. Shuning uchun koreys oilalarida umumiy budjetining 56% farzand uchun sarflanadi. Farzandning dastlabki tarbiyasi bilan faqat onalar mashg'ul bo'lishi belgilab qo'yilgan. Tarbiyaning dastlabki bosqichida onalar o'z farzandlariga koreys milliy an'nalarini (salomlashish, kattalarga hurmat...) o'rgatishadi.

Aksariyat Sharq mamlakatlaridagi kabi Janubiy Koreyada ham targ'ibot texnologiyasining eng samarali usuli sifatida jamiyatdagi norasmiy liderlar va tarixiy qahramonlarga katta urg'u beriladi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat maqsadlarini xalq maqsadlariga uyg'unlashtirish, yagona hudud – yagona xalq tushunchasi shakllantirilganligi, vatan va davlat, xalq va millat tushunchalari g'oyaviy nuqtai nazardan birlashtirilganligi mamlakat aholisining umumiy maqsadlar yo'lida birlashuvida muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 27 декабрь.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 29 декабрь куни миллий кино санъати ва киноиндустрияни ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ишлар таҳлили ва бу борада mavjud muammolarни ҳал этиш масалаларига бағишланган йиғилишда сўзлаган нутқидан. *Kun Uz.* 13:43 / 30.12.2017

<https://daryo.uz/k/2018/11/17/toshkentda-madhiyani-mazax-qilgan-va-oqituvchini-dopposlagan-14-oquvchiga-nisbatan-maxsus-komissiya-chora-kordi/>

А. Мелибоев. Журналистика сабоқлари. Ўқув қўлланма. –Тошкент. Azmir Nashr Print, 2017. - 144 б. 77-б.

<http://www.cafonline.org/>. 2018 йил 20 май.

<http://www.socialprogressindex.com/2018> йил 20 май.

<http://www.worldhappiness.report/2018> йил 20 май.

<http://thelearningcurve.pearson.com/2018> йил 20 май.

ВВС Корпорацияси. Англияда 2011 йилнинг август ойида рўй берган ўсмирларнинг оммавий тартибузарлигининг ўн сабабини эълон қилди(21.08.2011 22:02).

## MAKTABGCHA YOSHDAGI BOLALARGA ZAMONAVIY MULTFILMLARNING TASIRI

*Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi-Navoiy innovatsiyalar universiteti*

*“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası PhD*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga zamonaviy multfilmlarni bolalar hayotiga tasiri tahlil qilingan va nazariy jihatdan asoslab berilgan.*

*Kalit so'z: bola, multfilmlar, animatsiya, maktabgacha yosh, bolaning intellektual va hissiy rivojlanishi.*

## THE EFFECT OF MODERN CARTOONS ON PRESCHOOL CHILDREN

*Kubayeva Mavluda Bakhtiyor kizi - Navoi University of Innovations*

*Department of «Social and Humanities» Ph.D*

*Abstract. In this article, the influence of modern cartoons on children's lives for preschool children is analyzed and theoretically justified.*

*Key words: child, cartoons, animation, preschool age, intellectual and emotional development of a child.*

## ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МУЛЬТФИЛЬМОВ НА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ

*Кубаева Мавлюда Бахтиёр кизи,*

*Навоийский университет инноваций, кафедра «Социально-гуманитарных наук» к.э.н.*

*Аннотация. В данной статье анализируется и теоретически обосновывается влияние современных мультфильмов на жизнь детей дошкольного возраста.*

*Ключевые слова: ребенок, мультфильмы, анимация, дошкольный возраст, интеллектуально-эмоциональное развитие ребенка.*

Kirish. Bugungi raqamli davrda yosh bolalar orasida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish ularning kundalik ishlarining ajralmas qismiga aylandi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin-kulgingining mashhur shakli bo'lgan zamonaviy multfilmlarga televizor, streaming xizmatlari va mobil ilovalar kabi turli platformalar orqali osongina kirish mumkin. Jonli ranglar, jozibali qahramonlar va jozibali hikoyalar multfilmlarni yosh tomoshabinlar uchun juda jozibali qiladi. Biroq, bu keng tarqalgan ta'sir zamonaviy multfilmlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ta'siri haqida muhim savollar tug'diradi. Multfilmlar so'nggi bir necha o'n yilliklarda animatsiya texnologiyasi va hikoya qilish texnikasidagi yutuqlar bilan sezilarli darajada rivojlandi. Zamonaviy animatsion kontent ko'pincha nafaqat ko'ngil ochish, balki qadriyatlarini tarbiyalash va singdirish uchun ham yaratilgan. O'quv multfilmlari bolalarga til, matematika, tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlar bo'yicha fundamental tushunchalarni o'rgatish, boshqalari esa ijtimoiy ko'nikmalar, hissiy intellekt va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bunday ijobiy niyatlarga qaramay, multfilm tomosha qilishning yosh bolalarga mumkin bo'lgan salbiy ta'siri, masalan, e'tiborning qisqarishi, tajovuzkorlikning kuchayishi va tijorat ta'sirining ta'siri haqida xavotirlar bildirildi. Ushbu maqolaning maqsadi zamonaviy multfilmlarning maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'sirini har tomonlama o'rganishdir. Mavjud adabiyotlar va empirik tadqiqotlarni ko'rib chiqish orqali biz multfilmlarni tomosha qilish bilan bog'liq foydali va salbiy natijalarni ta'kidlashni maqsad qilganmiz. Ushbu ta'sirlarni tushunish ota-onalar, o'qituvchilar va siyosatchilar uchun bolalarning ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilish mazmuni va davomiyligi to'g'risida ongli qaror qabul qilishlari uchun juda muhimdir. Ushbu tadqiqot rivojlanishning kognitiv, ijtimoiy va hissiy jihatlarini qamrab oladi va zamonaviy multfilmlar maktabgacha yoshdagi bolalarning shakllanish yillarini qanday shakllantirgani haqida tushuncha beradi. Bugungi kunda, yuqori texnologiyalar asrida, yangi avlod vakillari o'ta jadallik bilan o'sib, rivojlanib bormoqda. Jamiyatda keng iste'mol vositasiga aylangan gadgetlar bolalar tomonidan ma'lumot olish uchun faol foydalaniladi, ammo qabul qilinayotgan axborot sifati nazoratsiz qolmoqda. Ko'p hollarda bola o'zi uchun foydali va kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda taqsimlay olmaydi, shuning uchun animatsiya, kinematografiya va tasviriy san'atning munosib asarlari ko'pincha chetda qolib zamonaviy san'atning ayrim salbiy ta'siriga ega namunalari yosh tomoshabinlar qo'lga tushib qolishi hech gap emas. Ba'zi animatsion filmlarda jismoniy, aqliy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan ma'lumotlar mavjudligi to'g'risida ko'p aytilib kelinmoqda. Zero, yosh tomoshabin katta dengiz kabi insoniyatni o'z oqimida oqizayotgan ommaviy-axborot, virtual tizimdan o'zi uchun qiziqarli, kerakli va eng muhimi, foydali ma'lumotlarni tanlay olish uchun zarur bilimga, hayotiy tajribaga ega emas. Bolalarga ko'makchi sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiyachi, ota-onalarning yordami juda zarurdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatining yomonlashuvi bugungi kunda jamiyatimizdagi eng

keskin ijtimoiy muammolardan biridir. Bolalarda tajovuzkor ko'rishlar tobora ko'proq kuzatilayotgani, bundan bolalar, pedagoglar, ota-onalar va jamiyat ham azob chekayotgani ayniqsa tashvishlidir. Kundalik hayotdagi stresslar, an'anaviy oila tuzilmasining parchalanishi, tarbiyadagi xatolar, televizordagi zo'ravonlikning ko'pligi - bu va boshqa sabablar bolalarda tashvish va tajovuzkorlikning kuchayishiga va ularning hissiy holatining yomonlashishiga olib keladi. Bazi oilalarda ko'pincha bolaning televizorda nima tomosha qilishiga, qanday kompyuter va telefon o'yinlarini o'ynashiga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Ko'pincha bu paytlarda bola o'zini o'zi shu muhitga moslashtiradi, bolaning o'zini o'zi anglashi isloh qilinadi, shuning uchun bolalar eng ta'sirchan va tajribasiz tomoshabinlar sifatida eng katta ta'sirga duchor bo'lishadi. Shuningdek, har bir oiladagi tarbiya xususiyatlarini tahlil qilishdan ko'ra, multfilmlarning salbiy ta'sirining oldini olish bo'yicha har qanday chora-tadbirlarni muhokama qilish haqiqatga yaqinroq bo'ladi, bu esa tadqiqotimizning dolzarbligini asoslaydi. Hozirgi kunda animatsiyani bola ruhiyatiga ta'sirining axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, shaxsni shakllantirish, mafkuraviy qarashlarni rivoltantirish, o'qitishda multfilmlardan foydalanish kabi jihatlari o'rganilmoqda.

Multfilmlar bolaning intellektual va hissiy rivojlanishida faol rol o'ynaydi. Bolalar multfilmlarni ko'rish bilan birga, yaxshilik va go'zallikni qadrlashni, yovuzlik va zo'ravonlikni qoralashni, fantastikani haqiqatdan ajrata olishni va odamlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni boshqarishni o'rgatadi. Biroq, multfilmlar bolaning oilasi va tengdoshlari bilan haqiqiy muloqotini almashtirmasligi kerak, bundan tashqari, uzoq vaqt tomosha qilish uning sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin.

A. Banduraning 20-asrning 60-yillarida hamkasblari bilan birgalikda olib borgan tadqiqotlari shuni isbotladiki, bolalar ko'rgan televizion zo'ravonlik sahnalari ularning tajovuzkorligini oshirib, xarakterning eng yaxshi fazilatlarini shakllantirmaydi. Bundan tashqari, 7 yoshli bolalar tomonidan tajovuzkor teledasturlarni muntazam ravishda ko'rish ularning 30 yoshgacha bo'lgan og'ir jinoiy huquqbuzarliklarning ijrochisi ekanligi bildiradi[.

Muxina V.S. ta'kidlaydi: maktabgacha yoshdagi ba'zi bolalar (ayniqsa, o'g'il bolalar) xatti-harakatlarning salbiy standartini ichga yo'naltiradi. O'zlarining haqiqiy harakatlarida ular ijtimoiy kutishlarga muvofiq harakat qilishadi, lekin ayni paytda ular ko'pincha odamlar (yoki qahramonlar) bilan hissiy jihatdan o'xshashdirlar. Xatti-harakatlarning salbiy shakllari bilan ajralib turadi[12]

Afsuski, bugungi kunda ko'rsatilayotgan ko'plab multfilmlar, ayniqsa, xorijiyda ishlab chiqarilgan ko'pgina zamonaviy multfilmlar psixologik va pedagogik jihatlariga javob bermaydi bu esa bola uchun xavfli oqibatlarini olib kelishi mumkin. Yovuzlik ruxidagi multfilmlarda kimnidir xafa qilish qiziq, yomonlik hamma narsaga qodir bo'lib, yaxshilik ustidan g'alaba qozonadi, boshqalarga yordam berish va rahm-shafqatni his qilish qobiliyati yo'qoladi. Afsuski ko'pgina zamonaviy multfilmlar maqsadli ravishda shafqatsizlikni shakllantiradi va bolaning ruhiyatini buzadi.

Zamonaviy multfilmlarda bir qator kamchiliklarni ajratish mumkin, bu esa bola ruhiyatining noto'g'ri shakllanishi va rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Ekranida tajovuzkorlik va zo'ravonlik bo'lishi. Qon, qotillik, o'lim sifatlarining namoyishi. Bosh qahramon odatda tajovuzkor va u boshqalarga zarar etkazishi mumkin. Bola o'z hayotida multfilm shafqatsizliklariga taqlid qilishi mumkin.

To'liq jazosizlik. Yomon ish jazolanmaydi. Bola salbiy oqibatlarga olib keladigan ishlarga ruxsat berishning stereotipini shakllantirishi mumkin.

Yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlarning buzilishi. Yaxshilik va yomonlik o'rtasida aniq chegaralar yo'q. Qora oq rangda ko'rinadi va oq rangli ko'rinadi, ba'zida hech qanday yuzi yo'q va hamma narsa begunoh individualizmga o'xshaydi. Hatto ijobiy belgi yaxshi maqsadlar uchun yomon ishlarni amalga oshirishi mumkin.

Hazil va bemanilikning kengayishi. Birinchidan, ijobiy qahramonlar yovuzlikdan qo'rqishadi. Ikkinchidan, hazillar ustidan hazil. Bunday holda, kamchiliklar jozibali bo'lib qoladi. Uchinchidan, bu hazil ortiqcha.

Kognitiv rivojlanish. Zamonaviy multfilmlar maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tarkibi va iste'mol qilish usuliga qarab, ta'sir ham foydali, ham zararli bo'lishi mumkin. Ushbu bo'lim zamonaviy animatsion kontentning yosh bolalarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'sirini o'rganadi.

Zamonaviy multfilmlarda ko'pincha boy va xilma-xil lug'at, murakkab jumla tuzilmalari va turli xil tillardan foydalanish mavjud. Bunday mazmunga duch kelgan maktabgacha yoshdagi bolalar tilni o'zlashtirish va muloqot qilish ko'nikmalarini oshirishi mumkin. "Sesame Street" kabi ta'lim multfilmlari lug'at va tilni tushunishni yaxshilash, bolalarni qiziqarli va qiziqarli kontekstda yangi so'z va iboralar bilan tanishtirish uchun maxsus mo'ljallangan.

Ko'pgina multfilmlar faol fikrlash va ishtirok etishni rag'batlantiradigan muammoni hal qilish stsenariylari atrofida tuzilgan. "Dora the Explorer" va "Blue's Clues" kabi shoular tomoshabinlarni boshqotirmalarni yechish va qiyinchiliklarni yengish, tanqidiy fikrlash va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga jalb qiladi. Ushbu interaktiv

elementlar maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quv multfilmlari maktabgacha yoshdagi bolalarni asosiy akademik tushunchalar bilan oson va qiziqarli tarzda tanishtiradi. Masalan, raqamlar, shakllar, ranglar va asosiy ilmiy tamoyillarga qaratilgan shoular bolalarni rasmiy ta'limga tayyorlaydigan asosiy bilimlarni beradi. Ta'lim mavzularini o'zida mujassam etgan animatsion kontent o'rganishni qiziqarli va samarali qilish, bolalarning turli mavzularni tushunishini kuchaytirishi mumkin.

Zamonaviy multfilmlarga xos bo'lgan tez sur'at va doimiy vizual stimulyatsiya bolalarning diqqatini jamlashga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tez o'tishlar, yorqin ranglar va tez-tez harakatlar ketma-ketligi diqqatning qisqarishiga olib kelishi mumkin, bu esa bolalarning diqqatini sekinroq harakatlarga yoki doimiy konsentratsiyani talab qiladigan vazifalarga qaratishni qiyinlashtiradi. Bu, ayniqsa, bolalar diqqatni jamlash zarur bo'lgan sinfga o'tishlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Multfilmlarda hissiy stimulyatsiyaning yuqori darajasiga haddan tashqari ta'sir qilish kognitiv ortiqcha yukga olib kelishi mumkin. Haddan tashqari stimulyatsiya maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ma'lumotni samarali qayta ishlashni qiyinlashtirishi mumkin va ularning diqqatni jamlash va kamroq ogohlantiruvchi muhitda o'rganish qobiliyatini buzishi mumkin. Bu ularning umumiy kognitiv rivojlanishi va akademik faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin.

Multfilm iste'molini muvozanatlash. Multfilmlarning ijobiy kognitiv ta'sirini maksimal darajada oshirish va salbiy ta'sirlarni minimallashtirish uchun ota-onalar va o'qituvchilar bolalarning ko'rish vaqtining mazmuni va davomiyligini boshqarishlari kerak. Yuqori sifatli, ta'lim beruvchi multfilmlarni tanlash va ekran vaqtini cheklash maktabgacha yoshdagi bolalarning media iste'molidan kognitiv foyda olishini ta'minlashga yordam beradi. Tarkibni muhokama qilish va savollar berish kabi faol ishtirokni rag'batlantirish multfilmlarning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshirishi mumkin. Hozir zamonaviy multfilmlarda hamma narsani kuldiradi va hamma narsani masxara qiladi. Jiddiylik va mas'uliyatning yo'qligi hayotga nisbatan bir xil munosabatni anglatadi. Albatta, boshqa ekstremal va hazilni butunlay tozalash shart emas. Bolaning normal rivojlanishi uchun, bizning fikrimizcha, multfilmlar quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

atrofdagi tabiatga nisbatan yaxshi, g'amxo'rlik: hayvonlar, o'simliklar, boshqa odamlar.

itoat kattalarga hurmat. Biz so'zsiz itoat qilish haqida gapirmayapmiz, chunki kattalar ham yanglishganda va bolalar ularni tuzatishi mumkin.

alkogol va sigaret va boshqa bog'liqliksiz turmush tarzi. Sog'lom va sog'lom turmush tarzining jozibadorligi. Bu shuningdek, alkogol va sigaretlar to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan holatlarga ham tegishli, ammo u metaforativ yoki hazillar, maslahatlar bilan ko'rsatilgan.

kitoblar, bilimlar, o'zini rivojlantirish va ularning insoniy xususiyatlarini yaxshilashga qiziqish. Ushbu bilimlar vaziyatni yaxshilash va hayot muammolarini hal qilishga olib keladiganligini ko'rsatish kerak.

uyat va vijdon. Vijdon tug'ma diniy tuyg'u. Uyatsiz va vijdonsiz sahnalarni man qilish.

yaxshi va yomonlik, yaxshi va yomon xatti-harakatlarni aniqlash. Bolalar o'zlarining ruhiyatiga kiradigan narsalarga juda sezgir. Multfilmlarda yomonlik jazolanishi kerak. Ijobiy tugatish. G'alaba uchun eng yaxshi usul - bu yomonlarga chin dildan tavba qilishga yordam berish - harakatlarni va fikrlarni qayta ko'rib chiqish va xatti-harakatlarni o'zgartirish.

qahramonlik. Zamonaviy multfilmlarda, qoida tariqasida, boshqalarni bo'ysundiradigan va butun jamoani tepaga olib boradigan bitta "qahramon" (etakchi) mavjud.

Shuni aytishimiz mumkinki, multfilm tomosha qilish jarayonlarida qahramonlarning xususiyatlari bolalarga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ularni tomosha qilish vaqtini nazorat qilib, bolani tashqariga chiqish va o'ynashga undash orqali siz farzandlaringizni sog'lom va baxtliroq qilishingiz mumkin. Ushbu maslahatlarga amal qilish, albatta, multfilmlarning bolaning rivojlanishi va xulq-atvoriga salbiy ta'siridan qochishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Гундарева И. О последствиях восприятия телевизионной информации // Восп. шк. - 2005. - №9. - С.45-54.

Куниченко, О.В. Мультипликационный фильм как средство нрав-ственного воспитания детей старшего дошкольного возраста / О.В. Куниченко // Известия ВГСПУ. Серия «Педагогические науки». - № 7(82). - 2013.

Левшина, И.С. Воспитание школьников средствами художе-ственного кино: автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.01 / И.С. Левшина. - М, 1975.

Муниципальное общеобразовательное учреждение средняя общеобразовательная школа № 26 г.Рыбинска Научно-исследовательская работа на тему «Создание мультфильма». Рыбинск, 2017г.

Абраменкова В. Д., Богатырева А. С. Дети и телевизионный экран. // Восп. шк.- 2006.

## TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA PEDAGOGIK MULOQOT VOSITASIDA KASBIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Kurbanova Gulnoz Negmatovna*

*Buxoro davlat tibbiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti, pedagogika, psixologiya kafedrasini mudiri, p.f.d., professor.*

*orcid id - <https://orcid.org/0000-0002-3399-537X>*

*Annotatsiya: mazkur maqolada tibbiy oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik muloqot vositasida kasbiy tafakkurni rivojlantirish muammosining dolzarbligi, uning kelajakdagi kasbiy yetukligi tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: pedagogika, pedagogik muloqot, kasbiy tafakkur, shaxsning kasbiy kamoloti, kasbiy yetuklik, kasbiy shakllanish, kasbiy faoliyat, inson ehtiyojlari, uzluksiz ta'lim*

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБЩЕНИЕ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ

*Курбанова Гулноз Негматовна*

*доктор медицинских наук, профессор, Бухарского государственного медицинского института, заведующая кафедрой узбекского языка и литературы, педагогики, психологии.*

*Аннотация: в данной статье анализируется актуальность проблемы развития профессионального мышления у студентов медицинских вузов посредством педагогического общения, а также его будущей профессиональной зрелости.*

*Ключевые слова: педагогика, педагогическое общение, профессиональное мышление, профессиональная зрелость личности, профессиональная зрелость, профессиональное становление, профессиональная деятельность, потребности человека, непрерывное образование*

## THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL THINKING THROUGH PEDAGOGICAL COMMUNICATION IN MEDICAL UNIVERSITY STUDENTS

*Kurbanova Gulnoz Negmatovna*

*doctor of medical sciences, professor, Bukhara State Medical Institute, head of the department of Uzbek language and literature, pedagogy, psychology.*

*Abstract: this article analyzes the relevance of the problem of developing professional thinking among medical students through pedagogical communication, as well as their future professional maturity.*

*Key words: pedagogy, pedagogical communication, professional thinking, professional maturity of the individual, professional maturity, professional development, professional activity, human needs, lifelong education*

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlar davrida alohida e'tibor bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga qaratilib, o'z navbatida ular talaba yoshlar shaxsini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga mas'ul hisoblanadilar. Oliy ta'lim muassasalari zamonaviy talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirish muammosining dolzarbligi shundaki, bo'lajak o'qituvchining tafakkuri murakkab ichki psixologik faoliyat sifatida uning kelajakdagi kasbiy yetukligini belgilaydigan mezon bo'lib xizmat qilishi lozim.

Shaxsning kasbiy kamoloti masalasi uning hayotida muhim o'rin tutadigan faoliyat yo'nalishidir. Bu faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlash va belgilash keng ko'lamdagi shaxsiy muammolarni hal etishga olib keladi.

Shunga ko'ra, quyidagi mulohazaga e'tibor qaratish ancha muhimdir. Kasb tanlash – kasb talablaridan kelib chiqib, bir qancha variantlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va xislatlari ustuvorligiga ko'ra munosibrog'ini tanlashni bildiradi. Kasb tanlash kasbiy yo'nalganlikka nisbatan bir muncha murakkabroq jarayon. Chunki shaxsda kasbga xos xususiyatlar – muayyan kasbni egallashga tayyorgarlik (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasining kengligini) darajasining mavjudligini aniqlash talab etiladi.

Kasbiy shakllanish va kasbiy faoliyat muammolarini tadqiq etish dolzarb va keng qamrovli psixologik - pedagogik muammo sifatida baholash uchun barcha asoslar mavjud.

Mazkur muammo ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida shaxs oldiga yanada kattaroq talablar qo'yadi. XXI asrning boshidagi kasb-korlikka doir axborotlar ko'laminin ortganligi, inson ehtiyojlarining o'sib borayotganligi, yangi sohalarning paydo bo'layotganligi, kasb yo'nalishlarining o'zgarib borishi va shaxsning

hayotga munosabatining o'zgarayotganligi sifatлари bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichida jamiyatimiz oldida turgan hozirgi kundagi asosiy vazifalardan biri – uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim sifatini modernizatsiyalash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida quyidagini ta'kidlaydi: «Yana bir muammoni hal etish ham o'ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur».

Bu esa o'z navbatida uzluksiz ta'lim tizimida yangi islohotlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida faqat nazariy bilimlarni biladigan emas, balki buyuk insoniy fazilatlariga ega bo'lgan, xalq bilan muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta biladigan mohir mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor berishimiz zarurdir.

Bugungi o'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi sifatida, o'z burchiga sodiq, shaxsiy manfaatidan ko'ra xalq manfaatini ustun qo'yib, zimmasidagi vazifani bajaradigan kompetentli shaxs bo'lishi lozim. Bu borada o'qituvchilar o'z ustida tinmay ishlashlari, jismoniy, ruhiy va kasbiy jixatdan tayyorgarliklari yuqori darajada bo'lishiga erishishlari talab etiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatları – o'z kasbiga sodiqligi, e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi uni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o'qituvchi, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Predmet va uning nazariyasini chuqur bilish, uni qiziqarli qilib talabalarga yetkaza olish bolalarning shu predmetga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, o'qituvchining obro'sini oshiradi. Talabalar o'qituvchining o'z bilimlarini bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning fidoyiligini ham qadrlashadi. O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi (ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimizning o'z tarixi, madaniyati, urf-odatini o'rganish, bilishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgan davrda) ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi milliy qadriyatlarimizni bilibgina qolmay, keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, ta'lim muassasasida uning otashin targ'ibotchisi ham bo'lishi kerak.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon andozalariga mos bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash zarur. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga yetishsin.

Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bavo-sita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega.

Tafakkur ko'pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika, fiziologiya, kibernetika, biologiya)ning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko'rsatish darajasiga ko'ra bir necha turlarga (ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali-obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va h.k.) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo'ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o'zini o'zi tanqid, baholash, tekshirish, o'zini o'zi tekshirish, nazorat qilish, o'zini o'zi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatleri vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok qilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo'lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o'rganadi. Hozirgi zamon fanining juda ko'p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy



jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda .

Tafakkur – miya faoliyati bo'lib, u tufayli inson, so'zlar va obrazlar yordamida o'z organizmining turli-tuman holatlarini hamda borliqda real mavjud va mavhum jismlar va hodisalarni ko'z oldiga keltirishi va ifodalashi mumkin. Tafakkurning umumiy tasnifidan ko'rinib turibdiki, odam miya faoliyatining ushbu bosh funksiyasida so'zlar va obrazlar, ya'ni organizmning turli-tuman faoliyati bilan to'g'ridan-to'g'ri va so'z orqali ta'sirlanishning hamkorligi orqali shakllangan vaqtli aloqalar muhim rol o'ynaydi. Bunda, vaqtli aloqalar tafakkurning fiziologik apparati, uning tahlilli-sintetik mexanizmi hisoblanadi. Qo'zg'atuvchilarni tahlil va sintez qilish hamda organizmni ularga nisbatan javob faoliyati natijasida vaqtli aloqalar xotirada yig'ilibgina qolmasdan, balki undan qaytarib olinadi va ularning o'zidan hamda doimiy hosil bo'ladigan aloqalardan yangi aloqalarni vujudga keltirish uchun material bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlar o'z-o'zini boshqarish va doimiy faollik xususiyatlariga ega bo'lib, oqibatda xotirada saqlanadigan vaqtli aloqalarni qaytarib olish, ulardan yangi va tizimli aloqalarni, ularni doimiy shakllanuvchi assotsiatsiyalar bilan majmuasini hosil qilish amalga oshiriladi. Zamonaviy fiziologiyada ushbu mexanizmlar reflektorli hisoblanadi, lekin bu, reflektorlik doirasida o'z-o'zini boshqarish asosida yotgan sirkulyatorli jarayonlar mavjudligini ham inkor etmaydi.

Odamda vaqtli aloqalar hosil bo'lishining qonuniyatlari hayvonlarniki bilan umumiylikka ega bo'lsa ham, ular sifat jihatdan o'zaro farqlanishi to'g'risida aytgan edik. Shu tufayli, odam va hayvonlarning tafakkuri ham bir-biridan farq qiladi. I.P.Pavlov hayvonlarda, xususan itlarda «tushunish», «faraz qilish», «tafakkur» qobiliyatlari mavjudligini tan olgan. Uning fikricha, itning «tafakkuri», uning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatayotgan qo'zg'atgichlarni tahlil va sintez qilishning natijasi hisoblanadi. Insonga esa, yuksak tafakkur mansub bo'lib, unda ikkinchi signal tizimi mavjudligi tufayli, bu tafakkur voqelikdan chetga chiqishga asoslangan. O'rganish (tajriba), fikr, tafakkur, ma'no – vaqtli aloqalar hosil bo'lish jarayoni bo'lib, ulardan foydalanish esa – tushunishdir.

Xuddi shu asnoda talabalarda olam va odam to'g'risida bir qolipdagi tasavvur hosil qilindi. Bunday biryozlamalik boshqacha fikrlashga shart-sharoit yaratmadi. Natijada avvalgi ta'lim tizimida tahsil olgan kishi darsliklarda, o'quv qo'llanmalarida bayon qilingan ma'lumotlardan bo'lak xabarlardan bebahra qoldilar. O'zgacha fikr yuritgan talaba yoki talaba, o'qituvchi yoki domla turli siyosiy bo'yoqlar yordamida qoralanib tashlandi. Ularga siyosiy yorliqlar osildi.

Yuqoridan berilgan darsliklarda, qo'llanmalarda bitilgan ko'rgazmalar, tavsiyalar asosida fikr yuritgan minglab yoshlar «yomon» yoki «yaxshi», ijobiy yoki salbiy deb fikrlashga odatlanib qolishdi. Bunday fikrlash tarziga asoslanib faoliyat ko'rsatgan kishi, shubhasiz, kalondimog'lik qildi, boshqalarning fikriga quloq osmadi, eshitishni ham xohlamadi.

Insonning fikrlash tarzi bir qator omillarga, chunonchi tug'ma intellektual qobiliyatlarga, bolalikda olgan ta'lim va tarbiyasiga, mehnat va ijtimoiy faoliyatining xarakteriga, milliy va umuminsoniy madaniyat me'yorlarini o'zlashtirish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ushbu omillarning o'zaro aloqadorligini ta'minlash mexanizmida bir qator muammolar bo'lishiga qaramasdan mustaqil fikrlovchi shaxs hamisha erkinlik va o'zini o'zi boshqarishga ehtiyoj sezadi. Inson qancha mayda-chuyda nazoratlardan, cheklashlardan xoli bo'lsa, mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish uchun shuncha real imkoniyat vujudga keladi. Xuddi shuning uchun ham mustaqil fikrlash madaniyati, o'z navbatida, mustaqil ishlash va mustaqil yashash jarayonida rivojlanib, mustahkamlanib boradi.

Shu o'rinda tadqiqotimiz ob'ekti sifatida kasbiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni tanlab olingan ekan, kasbiy tafakkur to'g'risidagi zamonaviy talqinlar bilan tanishib chiqishimiz lozim bo'ladi. Yu.Kornilov kasbiy tafakkurni kasbiy faoliyat jarayonida kasbiy vazifalarni yechishdagi inson tafakurining namoyon bo'lishi deb hisoblasa, D.Kavtaradze amaliy kasbiy vazifalarni hal etishda iqtidor ko'nikmalarni hosil qiladigan kompetent tafakkur deb belgilaydi. O.Tixomirov kasbiy tafakkurni kasbiy ijodiy topshiriqlarni yechishga qaratilgan turli tuman evristik usullarni o'zida mujassamlashtiradi, Yu.Kulyutkin esa ijodiy xarakterga ega tafakkurning yuksak darajadagi kasbiy rivojlanishi jarayoni deb ta'rif beradilar. M.Kashapov fikricha kasbiy tafakkur bu kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni topish, o'rganish, barataraf etishning yuqori darajadagi bilish jarayonidir. Ko'rinib turibdiki adabiyotlar tahlili natijasi "kasbiy tafakkur" tushunchasining turli xil talqin etilishi uning tuzilishi va tarkibiy qismlari bo'yicha bir xil aniq fikr mavjud emasligini ko'rsatmoqda .

Tibbiy oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik muloqot vositasida kasbiy tafakkurni rivojlantirish, ularni ta'lim texnologiyalari bilan qurollantirishga oid nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bu jarayon pedagogika fanida nazariy-emperik jihatdan o'z yechimini topmagan. Shunga ko'ra pedagogik muloqot vositasida talabalar kasbiy tafakkurni rivojlantirish va shu asosda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning shart-sharoitlari, bu jarayonning mazmuni, shakllari, usullari, metodlarini aniqlash kabi masalalar o'z yechimini kutmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son

“Авесто”.Тарихий-адабий ёдгорлик. А. Маҳкам таржимаси –Т.: Шарқ нашриёти- матбаа концерни. 2001

Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: Пед.фан.док... дисс. –. Бухоро, 2002. – 276 б.

Агзамова Е.Ю. Факторы определяющие проявления индивидуально психологических особенностей личности сотрудников орган внутренних дел. Автореф. дис.... канд. психол. наук. - Ташкент, 2001.-23 с.

Арзикулов Д.Н. Касбий камолотнинг психологик узига хос хусусиятлари Автореферат психология фанлари номзоди. -Тошкент 2002.-22 б

Абдуллаев К. Ф., Бобомуродова Н. Д. Didaktik talim vositalari talim jarayoni samaradorligini taminlash omili sifatida: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.55.50.016> //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 81-86.

Буравкова, А. Г. Ситуационные задачи как способ формирования клинического мышления врача / А. Г. Буравкова, О. Б. Демянова // Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии. – 2014. – № 38. – С. 41–45.

Курбанова Г.Н. Талабалар касбий тафаккурини ривожлантиришда замонавий ма’руза машғулотларининг аҳамияти // Биология и интегративная медицина. 2021. №2 (49).

Петров, В. И. Клиническое мышление в современной системе высшего медицинского образования в России / В. И. Петров, М. Ю. Фролов// Мед. образование и профессиональное развитие. – 2010. – № 1. – С. 59–62

Талабалар касбий тафаккурини ривожлантиришда замонавий ма’руза машғулотларининг аҳамияти. Гулноз Негматовна Курбанова. Биология и интегративная медицина. 2021

Kurbanova G.N. Kasbiy pedagogika. Darslik-2021 375b

Kurbanova G.N. Development of professional thinking among the students of higher medical education institutions. Monograph-2023

Kurbanova G.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat/ Darslik -2022

Психологические механизмы формирования социального воображения у подростков. АА Ахмедов, ММ Зиқирева. Новый ден в медицине.151-154, 1(29)2020

## ЎРТА МАКТАБДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИДА МАВЗУ АСОСИДА РАСМ ЧИЗИШ ЖАРАЁНИДА ЭСТЕТИК ТАРБИЯНИНГ ЎРНИ

Кадирова Нозима Арифовна  
Бухоро давлат университети

*Аннотация:* Ушбу мақолада ўрта мактабларда тасвирий санъат дарсларида мавзу асосида расм чизиш жараёнида эстетик тарбия бериш орқали борлиқни яхши тушуниш, кишининг ички дунёсини чуқурроқ англаш каби инсоний муносабатлар ҳақида фикр юритилган.

*Калит сўзлар:* фантазия, малака, сюжет, уфқ чизиги, кўриш нуқтаси, иллюстратив расм

## РОЛЬ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ТЕМАТИЧЕСКОГО РИСУНКА НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

Кадирова Нозима Арифовна  
Бухарский государственный университет

*Аннотация:* В данной статье размышляются такие человеческие отношения, как лучшее понимание существования и более глубокое понимание внутреннего мира человека путем обеспечения эстетического воспитания в процессе рисования на основе темы на уроках изобразительного искусства в средней школе.

*Ключевые слова:* фантазия, мастерство, сюжет, линия горизонта, точка зрения, иллюстративная картина.

## THE ROLE OF AESTHETIC EDUCATION IN THE PROCESS OF THEMATIC DRAWING IN FINE ARTS LESSONS IN SECONDARY SCHOOL

Kadirova Nozima Arifovna  
Bukhara State University

*Abstract:* This article reflects on human relationships such as better understanding of existence and deeper understanding of human inner world by providing aesthetic education in the process of theme-based painting in high school fine arts classes.

*Keywords:* fantasy, craft, plot, horizon line, point of view, illustrative picture

Кириш. Эстетик тарбия ўқувчиларнинг борлиқни яхши тушунишларига, кишининг ички дунёсини чуқурроқ англашларига ёрдам беради, уларни гўзаллик дунёси билан таништиради. Эстетик тарбияланган болалар санъат асарларидаги, табиатдаги инсоний муносабатлар ва меҳнатдаги гўзалликни ҳис қила олади. Гўзаллик кишининг ақлига, қалбига таъсир этиб, унинг маънавий дунёсини бойитади. Хуллас, эстетик тарбия жараёнида ўқувчиларнинг қарашлари, ҳис-туйғулари, диди ва идеали шаклланади.

Юксак бадий савияда яратилган санъат асарлари билан танишиш бадий дидни ўстирибгина қолмай, у болаларнинг бадий фикр доирасини, ижодий фантазиясини кенгайтиради.

Методларни ўрганиш даражаси. Ўқувчи қандай қобилиятга эга бўлмасин, уни кўзгатиш, тарбиялаш ва ривожлантириш керак булади. Кейинчалик эса бу ижодий меҳнатга ҳам самарали таъсир кўрсатиши мумкин. Шу маънода тасвирий санъат дарсларида мавзу асосида расм чизиш муҳим амалий аҳамиятга эгадир.

Мактабда мавзу асосида расм чизиш жараёнида эстетик тарбиянинг вазифалари қуйидагилардан иборат;

Ўқувчиларнинг эстетик идрок этиш қобилиятларни ўстириш, уларни табиат, санъат ва ҳаётдаги гўзалликларни идрок этишга ўргатиш.

Ўқувчиларнинг эстетик дидини тарбиялаш, уларни гўзалликни баҳолай олиш, ҳақиқий гўзалликни хунук воқеа ва нарсалардан фарқлай билишга одатлантириш.

Ўқувчида ўз истеъдодини намоён қила олишга бўлган иштиёқни, ижодийликни тарбиялаш, ўстириш. Болаларнинг бадий фикр доирасини кенгайтириш.

Мактабда ўқитиладиган ҳар бир фаннинг ўзига яраша мақсади ва вазифалари бўлиб, уларнинг ўқувчининг ҳар томонлама шаклланишида роли катта. Мазкур фанларнинг ўқитилмаслиги ёки методик жиҳатдан паст савияда ўтилиши бола маънавий ҳаётига салбий таъсир этмай қолмайди.

Мактабдаги тасвирий санъат дарслари ёш авлоднинг ҳар томонлама ва тўла шаклланишини учун зарур булган муҳим омил ҳисобланади. Тасвирий санъат дарсларидаги жараёнлар, хусусан, мавзу асосида расм чизиш машғулотларнинг вазифаси қуйидагилардан иборатдир: ўқувчиларда фанларнинг вазифаси, шакли, ранги ва бошқа сифатларини эътиборга олган ҳолда фаннинг ва табиат ҳодисалари ҳақидаги гўзаллик тушунчаларни шакллантиришдир.

Мавзу асосида расм чизиш билан боғлиқ бўлган кузатишнинг дастлабки, малакаларини ривожлантириш; расм учун ниҳоятда қизиқарли сюжет танлай олишга ўргатишдан иборат.

Расмни умумий схемадан бошлаб, ундаги асоси нарсани фарқлаган, алоҳида бўлақларга бўлиниш орасидаги боғлиқликни ҳисобга олган ҳолда компоновка қилиш ва уни қоғоз бетида тўғри жойлаштиришга ўргатиш. Бу нарса фақат унинг ўлчовлари учун таалуқли бўлибгина қолмай, балки шакллар ва ранг бирикмаларнинг мувозанатини қоғоз бетида тўғри сақлашга ҳам тегишлидир.

Мавзу асосида расм чизишда нарсаларни фазовий ҳолатда тасвирлай олиш малакаларини шакллантириш, уларнинг кўздан ўзюкланган сари қисқаргандек туюлишини тушунтириш, «уфқ чизиги», «кўриш нуктаси» ва бошқа тушунчалар билан таништириш ва улар орқали кузатиш перспектива ҳодисаларнинг мазмунини очиб бериш зарур.

Мавзу асосида расм чизишда фанлар тузилишининг ўзига хос хусусиятларини ва предмет бўлақларини, шунингдек предметлар ўртасидаги нисбатларни ҳисобга олган ҳолда тасвирлаш малакаларни шакллантириш учун расмда одам шаклининг тузилиши имкони борича тўғри тасвирлашга ўргатиш зарур.

Услубшунос олимлардан Е.В.Шорохов «Мавзу асосида расм чизиш машғулотларнинг тарбиявий вазифаларига қуйидагиларни киритади:

-Бадий дидни тарбиялаш;

-Тасвирий санъатни, ҳаётни кузатишга қизиқиш ва уларга нисбатан муҳаббат уйғотиш; қобилиятни ўстириш;

-Тасаввурларни ижодий қайта ишлаш малакаларини ўстириш;

Шунингдек, бошланғич синфлар тасвирий санъат дастурларида мавзули расм чизишнинг бир қатор формалари белгиланган бўлиб, улар бевосита эстетик тарбия билан боғлиқдир.

Мавзу асосида расм ишлаш жараёнида расмни қоғоз бетида тўғри жойлаштириш, сурат композициясини аниқлаш, суратдаги образларни ифодалаш каби барча ишлар ҳақида ҳам худди шу гапни айтиш мумкин.

Умумтаълим мактабларида эстетик тарбияни такомиллаштириш борасида бир қатор тадбирлар амалга оширилди. Натижада мактабларимизда фанларнинг ўқитилиши бир мунча яхшиланди ва шу фанларга оид синфдан ташқари ишларда бир қатор ижобий натижаларга эришилди.

Хусусан, тасвирий санъат дарсларида биринчидан, тасдиқланган йиллик иш режа ва директор ёки ўқув ишлари бўлимининг мудир томонидан тасдиқланган дарс режа ва конспекти асосида дарс олиб боришга эришилган бўлса, иккинчидан, дарсларнинг кўргазмалилик асосида ўтказилишига алоҳида эътибор берилди бошланди, баъзи бир ўқитувчиларимизни мавзу асосида расм чизиш дарсларида («Баҳор», «Куз» мавзуларига оид) болаларни табиат манзараларини кузатиш учун экскурсияга олиб чиқадиган бўлдилар. Мавзу асосида расм чизиш жараёнида ўқитувчиларимизнинг яна бир нарсага ўз эътиборларини қучайтиришди. У ҳам бўлса, дарсда болалар томонидан чизилган расмларнинг таҳлилни уюштиришдир. Дарсда чизилган расмларни тез-тез таҳлил қилиб туриш, биринчидан, болаларнинг бадий дидини ўстиради, иккинчидан, уларнинг активлигини оширади, учинчидан, расмлардаги камчиликларни бартараф этишга ёрдам беради.

Тадқиқот натижалари. Ўқитувчиларнинг бадий дидини ўстириш ва тасвирий санъатга бўлган қизиқишларини ошириш мақсадида ташкил этилаётган расмлар кўриги ҳам бошланғич синф ўқитувчиларнинг шу соҳада қўлга киритган ютуқларидан ҳисобланади.

Дарс жараёнида болалар расмларини таҳлил қилишнинг ўқувчиларни эстетик руҳда тарбиялашда аҳамияти каттадир. Таҳлил вақтида болаларга кўрсатилаётган расмлар юзасидан саволлар берилди. Масалан: «Мана бу расм чиройлими?», «бу расм сизга ёқадими?», «Нега ёқайди ёки ёқмайди?», «Бу расмнинг қандай ютуқ ва камчиликлари бор?» ва бошқалар. Бериладиган саволлар, биринчидан, ўтилган материалларни мустақамлашга, мавжуд хатоларнинг бартараф этилишига ёрдам беради, иккинчидан, болалардан бадий асарлар ҳақида мустақил фикр юритишларига имкон яратади. Шундай имкониятлар борлигига қарамай, таълим ва тарбиянинг бундай методларидан ҳамма ўқитувчилар ҳам етарлича фойдаланмаётлар.

Кўпчилик ўқитувчиларимиз эстетик тарбияни беришни бир ёқлама олиб борадилар. Уларнинг

баъзилари чизилдиган расмга кўпроқ эътибор бериб, ўқувчиларнинг иш жойи ўқув қуролларига етарли эътибор бермайдилар. Бошқа ўқитувчи эса ўз эътиборини асосан синф ва болаларнинг тозалигига қаратади. Ҳолбуки, тасвирий санъат дарсларида кичик мактаб ёшидаги болаларнинг ёш ва психофизиологик хусусиятларини ҳисобга олмай, умуман тасвирий санъат дарсининг барча элементларига риоя қилмай туриб, тўлақонли амалга ошириб бўлмайди.

Кўпчилик мактабларда кузатиладиган дарслар шуларни кўрсатадики, ўқитувчилар кўпчилик ўқувчиларга мавзу асосида чизган расмлари учун «4» ва «5» баҳо қўйганлар. Ҳақиқатда эса бу расмлар қоникарсиз ишланган расмлардир.

Masalan, avval bir kichik guruh tanlagan kuy tarixi bilan tanishtiradi va qolgan kichik guruhlarning navbati bilan ushbu masalaga o'z munosabatlarini bildiradilar. Barcha kichik guruhlarning o'zlari tanlagan javoblarini aytib bo'lishgach, berilgan topshiriq yuzasidan o'rtaga tashlagan kichik guruhning o'zi to'g'ri echim haqida fikr bildiradi, o'qituvchi ham shu masalaga nisbatan o'z fikrini bildiradi va bildirilgan barcha kichik guruh fikrlarini umumlashtiradi. So'ngra, ikkinchi guruh tinglanadi, shu kabi davradagi guruhlarning tomonidan o'rtaga tashlangan barcha jirovchilik tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar muhokamasi o'tkaziladi. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi talabalar va guruhlarning ishiga baho beradi va talabalar qiziqishlarini uyg'otishda nimalarga ko'proq e'tiborni qaratish kerakligi to'g'risida tavsiyalar beradi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Izoh: ushbu texnologiyami o'quv jarayonida tashkil etiladigan dars (amaliy) mashg'ulotlarida ham qo'llash mumkin. Masalan, o'quv predmeti bo'yicha o'zlashtirilgan mavzular yoki bo'limlardan talaba o'zlashtirish darajalarini aniqlashda ushbu texnologiyaning qo'llanishi talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yanada chuqurroq mustaxkamlashlariga, ularni amaliyotda qo'llashlarida echimini to'g'ri topishlariga yordam beradi.[5]

Xulosa qilib aytganda qoraqalpoq xalqining musiqa san'ati yordamida talaba yoshlarni halol mehnat, chin do'stlik, mustahkam muhabbat va qahramonlikka ruhlantirip, g'oyaviy-estetik madaniyatini takomillashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Biz kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga ko'ramiz. -Toshkent, «O'zbekiston», 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida» gi Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Akbarov I. Musiqa lug'ati G'afur Hulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti T.
4. Qodirov R. «Musiqa pedagogikasi»-T.» Musiqa» 2009 y.
5. Ishmuha medov R. Abduqodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008.- 180 b.
6. Maqsetov Q. Qaraqalpoq xalqining a'ozlik doretpeleri. -Nekis:Bilim, 1996. -B. 340.
7. Mustafayev Sh. N. Oliy ta'lim modernizatsiyasining artpedagogik asoslarini rivojlantirish Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya Toshkent 2023
8. <https://uz.wiktionary.org/wiki/tendensiya>
9. <https://imfaktor.com/index.php/jocaa/article/view/95/143>

## SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI, TAVSIFI VA FIZIKANI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Mustafoyev O'tkirjon Rustamovich

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

<https://orcid.org/0009-0003-8114-606X>

*Annotatsiya. Bugungi globallashuv jarayoni jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda an'anaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalar sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilib, ko'pgina sohalarida yangicha yondashuvlarni qo'llash imkonini bermoqda. Zamonaviy ta'lim muhitida maktab fizika darslarida o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirish uchun yangicha yondashuv va metodlarni izlab topish zarurati mavjud. Jahonda sun'iy intellekt kishilar hayotini yengillashtirish va iqtisodiy hayotni rivojlantirishga xizmat qiladigan texnologiya sifatida qabul qilingan. Shu nuqtai nazardan so'nggi yillarda sun'iy intellektdan ijtimoiy tuzilmaning turli sohalarida, jumladan ta'limda ham keng foydalanilmoqda. YuNESKO hisobotlarida sun'iy intellekt o'qitishning turli jabhalarini avtomatlashtirish hamda yakka yondashuv hisobiga ta'limni yaxshilashi keltirilgan. Shu maqsadda bizning mamlakatimizda ham sun'iy intellektdan darslarda foydalanish nafaqat darsning sifatli bo'lishiga balki, o'quvchilarning ham fanlarga bo'lgan qiziqishlarini ortirishga sababchi bo'ladi. Bu esa maktablarda ta'lim sifatining oshishiga o'quvchilarning fanlarga qiziqishini chalg'ituvchi boshqa omillar xalaqit berishiga yo'l qo'ymaydi. Hozirgi kunda o'quvchilarning qiziqishidan fanlarni o'rganishda foydalanishda ham sun'iy intellektning turli xil chltlaridan foydalanish mumkin. Maqolada yuqorida berilgan fikrlarning ro'yobga chiqarish yo'llari va darslarning tashkil etish vositalari va metodlari berib boriladi.*

*Kalit so'zlar: fizika kursi, sun'iy intellekt, axborot texnologiya, internet, umumiy o'rta ta'lim.*

## СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА, ОПИСАНИЕ И ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКЕ

Мустафоев Уткиржон Рустамович

Базовый докторант Бухарского государственного педагогического института

<https://orcid.org/0009-0003-8114-606X>

*Аннотационный. В условиях современного стремительно развивающегося процесса глобализации традиционные информационно-коммуникационные технологии качественно поднимаются на новый уровень, позволяя использовать новые подходы во многих сферах. В современной образовательной среде возникает необходимость поиска новых подходов и методов активизации учебной деятельности учащихся на школьных уроках физики. В условиях современной образовательной среды существует необходимость в поиске новых подходов и методов для активизации учебной деятельности учащихся на уроках физики. В мире искусственный интеллект широко принят в качестве технологии, способствующей улучшению качества жизни людей и развитию экономической деятельности. В последние годы искусственный интеллект также активно используется в различных областях социальной структуры, в том числе и в образовании. В отчетах ЮНЕСКО отмечается, что автоматизация различных аспектов образования с использованием искусственного интеллекта способствует улучшению качества обучения и переходу к индивидуальному подходу к обучению. В этой связи использование искусственного интеллекта не только способствует качественному обучению, но и способствует повышению интереса учащихся к различным предметам. Это не только не препятствует развитию качества образования в школах, но и способствует увеличению интереса учащихся к предметам, пробуждая их интерес. В настоящее время использование различных инструментов и методов искусственного интеллекта возможно при изучении предметов, используя интересы студентов. В статье представлены пути выявления вышеуказанных идей, организации уроков и методы использования.*

*Ключевые слова: курс физики, искусственный интеллект, информационные технологии, Интернет, общее среднее образование.*

## THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE, DESCRIPTION AND POSSIBILITIES OF APPLICATION IN THE PROCESS OF TEACHING PHYSICS

Mustafoyev O'tkirjon Rustamovich

Basic doctoral student of Bukhara State Pedagogical Institute

<https://orcid.org/0009-0003-8114-606X>

*Abstract. In today's rapidly developing globalization process, traditional information and communication technologies are qualitatively rising to a new level, allowing the use of new approaches in many areas. In the modern educational environment, there is a need to find new approaches and methods to activate students' learning activities in school physics classes. In the current era of globalization, traditional information and communication technologies have been advancing rapidly, providing opportunities for innovative approaches in various fields. In the modern educational environment, there is a need to discover new approaches and methods to enhance students' learning activities in physics classes. Artificial intelligence has been widely accepted as a technology that contributes to improving people's lives and economic development. In recent years, artificial intelligence has been increasingly utilized in various aspects of social structures, including education. UNESCO reports highlight the automation of various aspects of education using artificial intelligence, which improves the quality of teaching and facilitates personalized learning. In this regard, the use of artificial intelligence not only enhances the quality of education in schools but also increases students' interest in different subjects. This approach does not only contribute to the improvement of educational quality but also stimulates students' curiosity about subjects, without resorting to other factors that may affect the quality of education in schools. Currently, it is possible to utilize various tools and methods of artificial intelligence to harness students' curiosity in the learning of subjects. The article provides approaches to implementing the aforementioned ideas, as well as tools and methods for organizing lessons.*

*Key words: physics course, artificial intelligence, information technology, Internet, general secondary education.*

Kirish. Hozirgi davrda maktab fizika darslarida o'quvchilarining ilmiy-texnik dunyoqarashini shakllantirish, fizikani o'qitish jarayonida o'quvchilarning fizikaga doir ilmiy-nazariy ma'lumot va amaliy ko'nikma hamda malakalar bilan qurollantirish jarayonida, ularda o'z kasbiga bo'lgan qiziqish, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalarni ham takomillashtirishni amalga oshirish muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi qarorining qabul qilinishi va ushbu qaror ijrosini ta'minlash doirasida bir qator ishlarning amalga oshirilishi, aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar tobora kengayib borishi natijasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lgan, xususan internet, axborot kommunikatsion tizimlarni biladigan mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning kundan-kunga ortib borayotganligi ushbu tadqiqotimizni dolzarbligini yana bir marta oshiradi [1].

An'anaviy fizika o'qitish tizimida dars mashg'ulotlarida o'quvchilar diqqatini yetarlicha jalb qilmaslik va egallangan bilimlarni amaliy qo'llash uchun imkoniyatlarning cheklanganlik holatlari ko'p uchraydi. Shuningdek, o'quv materiallarining murakkab va abstrakt bo'lishi o'quvchilarning toliqishi hamda ularda qiziqishning susayishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, dars mashg'ulotlarida vaqtning chegaralanganligi tufayli o'qituvchi har bir o'quvchi o'quvchi bilan individual ishlashga imkon topa olmaydi.

So'nggi yillarda jadallik bilan rivojlanayotgan sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini o'quv jarayoniga olib kirish istiqbolli yo'nalish bo'lib, o'qitish sifatiga birmuncha ta'sir qilishi va o'quvchilarda motivatsiyaning oshishiga olib kelishi mumkin. Fizika o'quvchilardan chuqur tushunish va mashg'ulotlarda faol ishtirok qilishni talab qiladigan o'quv fani bo'lganligi sababli uni o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ilmiy va metodik jihatdan alohida qiziqish uyg'otadi [2-5].

Adabiyotlar tahlili. [2] maqolada O'zbekiston Respublikasi va Turkiya davlatlarining 6 – sinf "Tabiiy fan" darliklarining qiyosiy tahlili berib o'tilgan. Bu maqolda ikki mustaqil davlatlarning o'qitish tizimi va undagi farqli jihatlarining tahlillari, o'xshash jihatlar va masala va testlar tizimidagi va mavzular borasida tahlil olib borilgan.



[3] maqolada namoyishli tajribalarning o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini laboratoriyalar ya'ni namoyishli tajribalar orqali qanday o'zgartirish haqida so'z boradi. Dunyoda fanlar rivojlangan sari yangidan – yangi zamonga mos fanlar ham rivojlanib bormoqda. Shu turkumga kiruvchi fanlardan biri “Science” ya'ni “Tabiiy fan” hisoblanadi. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab 6 – sinf “Tabiiy fan” darsligida namoyishli tajribalarning o'rni va o'quv jarayoniga, o'quvchilarning oson o'rganishiga ta'siri haqida namoyishli tajribalarning o'quvchilar hayotidagi ahamiyati ularning dunyoqarashini o'stirishi haqida so'z boradi.

[4,5] maqolalarda rivojlangan mamlakatlar darsliklari va bizning mamlakatimiz darsliklar, mavzular ketma – ketligidagi o'xshashlik va farqlar, rivojlangan mamlakatlar va bizning mamlakatimizda ta'limga, ayniqsa maktab ta'limiga bo'lgan munosabat, yangi darsliklarni yaratishda o'quvchilarning qiziqishi va nimalarga e'tibor qaratish kerakligi va bunga to'siq bo'layotgan omillar, ularning bartaraf etish yo'llari berib o'tilgan.

Bundan tashqari bu maqolalarda yangi darsliklarning sifati va o'quvchilar ruhiyatiga ta'siri haqida va ularning qiziqishlari, turli xildagi metodlar haqida so'z boradi. Har doim bo'lgani singari tabiiy fanlar, jumladan, maktab fizika darsliklarining mazmunini takomillashtirish masalasi fan va texnika jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ham dolzarb muammo bo'lib turibdi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim mazmunini hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatini boshqarishni takomillashtirish borasida islohotlar olib borilayotgan ayni sharoitda jamoatchilik diqqati ta'lim dasturlarini amalga oshirishning muhim vositasi bo'lgan maktab darsliklarga ham qaratiladi. Ta'limning natijadorligi va o'quvchilarning muvaffaqiyatli ta'lim olishlari ko'p jihatdan o'qitishning yetakchi vositasi sifatida qaraladigan maktab darsliklari sifatiga borib taqaladi. O'quvchilar maktab partasida qanday darsliklar bilan tanishadigan, qanday bilim olib mustaqil hayotga qadam qo'yadigan bo'lsalar, demakki, jamiyatda olib borilayotgan islohotlar, qaysidir ma'noda, mamlakat taqdiri ham shunga bog'liq bo'ladi. Darsliklarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri uning mazmuni, avvalambor, o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlariga to'la mos bo'lishi lozim [4].

[6] maqolada universitet talabalariga o'tiladigan “Funksiyalar tahlil” fanining “Vektor fazo” mavzusining talabalarga tushuntirish metodi, ularning bosqichlari va shu mavzuga doir atama va ibora, teorema va ta'riflar ularning isboti bilan berib o'tilgan. Shu mavzuga doir misollar orqali mavzu ochib berilgan. Fan yutuqlari va axborot texnologiyalardan foydalanish metodlari berib o'tilgan.

[7] maqolada Shroydinger operatori ularning talaba yoshlar o'rganish, ya'ni oson o'rganish metodlari va bularning o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodlari, teoremlari ularning tadbiqu, talabalarining qay sohada qo'llashi haqida ma'lumot berib o'tilgan.

[8] maqolada internet tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarining roli haqida gap boradi. Hozirgi kunimizni internet va axborot texnologiyalarsiz tasavur etishimiz anchagina murakkab hisoblanadi. Shuning uchun har jabhada xususan maktab ta'limida ham o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirish maqsadida har bir fan o'qituvchisi o'z mutaxassislik fanida axborot texnologiyalarning yutuqlaridan foydalanishi lozim. Bu maqolada fizika darslari misolida o'quvchilarning darslarga faolligini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining metodik ahamiyatini berib o'tilgan. Ya'ni fanlarni o'rgatishda sun'iy intellektdan foydalanish va bu borada qanday tajriba ortirish haqida gap boradi. Bundan tashqari bu maqolada o'quvchilarning mustaqil o'rganishlari uchun sun'iy intellektdan foydalanish yo'llari va metodlari berib o'tilgan.

[9] bu maqolada matematika fanini o'rganishda o'quvchilar qiziqishidan kelib chiqqan holda ularga o'rgatish metodlari berib o'tilgan, bir necha metodlarning tahlili berib o'tilgan.

[10-15] maqolalarda maqola o'quv jarayoni sifatini oshirish vositasi sifatida interfaol texnologiyalar samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bugungi kunda o'quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish keng joriy etilayotgani, demokratlashtirish va erkinlashtirishni talab qilishi qayd qilingan. Interfaol usullar katta qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga qaratilganligi, o'quvchiga nazariy bilimlarni o'rgatish, muayyan faoliyat turlari bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallash, axloqiy fazilatlarini shakllantirish, o'quvchi bilimni nazorat qilish va baholash katta mahorat va epcillikni talab qilishi haqida so'z yuritilgan.

Asosiy qism. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar asosan 2000 yillardan boshlab olib borilayotgan bo'lib, ularning aksariyat qismida muammo falsafiy, pedagogik, psixologik jihatdan tadqiq qilingan.

Muammoning falsafiy asoslari T.M.Maxamatov, V.A.Lektorskiy, V.V.Vdovin, S.Xaykin, S.Rassel, P.Norvig, J.Barrat va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan.

Huang, Y. M. va Liang, T. H., Chen mobil o'qitish tizimlarida to'ldirilgan reallikni qo'llash orqali tabiiy fanlar, jumladan fizika bo'yicha o'quvchilar motivatsiyasini oshirishni tadqiq etganlar, C., Wang, X. va Kong, X. Lar esa fizika masalalarini yechish va baholashda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanganlar. Kim, Y. J. va

Park, J. H. Lar sun'iy intellektga asoslangan tizimni ishlab chiqib, bu tizim o'quvchilarning ilmiy ijodiyoti va fanga qiziqishiga qanday ta'sir o'tkazishini tadqiq qilganlar.

Tadqiqot muammosining pedagogika nazariyasi va amaliyotida yoritilishi, tadqiq qilinishini o'rganish shundan dalolat bermoqdaki, ta'limda, jumladan fizikani o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalardan foydalanish metodik nuqtai nazardan bir qancha muammolarni samarali hal qilish imkonini bergan.

Mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan fizika ta'limida zamonaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bir qancha ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Biroq maktabda fizikani o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish muammosi alohida tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan.

Fizika darslarida SI texnologiyalarini qo'llash o'qitish samaradorligini burmuncha oshirishi hamda o'quvchilarning o'quv faoliyati faolligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalari interfaol o'quv ilovalari, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalarni yaratishda qo'llanilishi mumkin bo'lib, bular o'quvchilarga fizika tajribalar o'tkazish, fizika qonunlarini tadqiq qilish hamda amalda qo'llab ko'rish imkonini beradi. Bunday dasturlar har bir o'quvchining individual ehtiyojiga moslashtirilishi mumkin bo'lib, ularning o'ziga mos sur'atlarda o'qib-o'rganishlari hamda tushunish murakkab bo'lgan mavzularga ko'proq e'tibor qaratishlariga imkon beradi.

Fizika darslarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish quyidagi potensial afzalliklarga ega:

- o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish: sun'iy intellekt asosidagi inferfaol va jozibador dastur hamda ilovalar o'quvchilarga fizik hodisa va jarayonlarni mustaqil o'rganish, tajribalar o'tkazish orqali tadqiq qilish asosida qiziqtirishga yordam berishi mumkin;

- o'qitishni individuallashtirish: sun'iy intellektdan foydalanish har bir o'quvchining bilim darajasi va o'quv ehtiyojlariga ko'ra personallashtirilgan ta'lim dasturlarini yaratish imkonini beradi;

- tanqidiy mushohada qilishni rivojlantirish: fizika darslarida sun'iy intellektni qo'llash jarayonida o'quvchilar ilovalardan foydalanishda mustaqil qarorlar qabul qilish hamda muammolarni hal qilishga majbur bo'lishlari tufayli ularda tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi;

- amaliy kompetensiyalarining ortishi: sun'iy intellekt asosidagi virtual laboratoriyalar va simulyatorlardan foydalanish o'quv laboratoriyalaridan foydalanish imkoniyati yetarli bo'lmagan hollarda o'quvchilarda tajriba orttirish hamda olingan nazariy bilimlarni qo'llashga imkon beradi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib o'quv jarayonini tashkil qilishni tadqiq qilish o'z yechimini kutayotgan dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Sun'iy intellekt tizimlaridan ta'lim jarayonlarida foydalanish o'qitish sifatini oshirish hamda ta'limni personallashtirishda keng imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. O'qitish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha bir qancha misollarni keltirish mumkin:

- adaptiv o'qitish. SI ga asoslangan adaptiv o'qitish tizimlari o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning bilim va qobiliyatlarini o'rgangan holda ular uchun individual o'quv materiallari va topshiriqlarini taklif qilishi mumkin. Bu har bir o'quvchiga o'ziga mos bo'lgan sur'atlarda o'qish va sun'iy intellekt tizimidan yordam olish imkoniyatini beradi;

- topshiriqlarni avtomatik tekshirish. SI dan topshiriqlar, jumladan testlar, masalalar, esse(insho)larni avtomatik tekshirishda foydalanish mumkin. Bu o'qituvchining vaqtini tejash va o'quvchi bilan tezroq qayta muloqot o'rnatishga yordam beradi. Shuningdek, SI o'quvchiga keyingi topshiriqlarni tayyorlashda u yo'l qo'yayotgan xatoliklar va o'quvchining zaif tomonlarini tahlil qilish hamda inobatga olish imkoniyatini beradi;

- virtual chat-botlar. SI asosidagi virtual assistentlardan o'quvchilar bilan muloqot qilish hamda ularga zarur ma'lumotlarni berish, real vaqt rejimida qo'llab-quvvatlashda foydalanish mumkin. Virtual assistentlar savollarga javob berishi, qoidalarni tushuntirib berishi, o'quvchilarga topshiriqlarni eslatib turishi hamda o'quv jarayoni bo'yicha tavsiyalar berishi mumkin;

- ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash. SI ning katta hajmdagi ma'lumotlarni osongina qayta ishlay olishi o'qituvchiga va maktab ma'muriyatiga tahlillar asosida har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi dinamikasi, sinflardagi o'quv va tarbiya bo'yicha umumiy holat to'g'risida ma'lumotlarni olish, hamda o'quvchilarning keyinchalik erishishlari mumkin bo'lgan o'quv yutuqlarini prognozlashtirishda qo'l kelishi mumkin. Bu o'quv jarayonini tashkil qilish bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilish hamda o'quvchilarning ehtiyojlariga ko'ra o'zgartirishga yordam beradi.

- virtual hamda to'ldirilgan reallik. Sun'iy intellekt asosidagi virtual reallik va to'ldirilgan reallikdan foydalanish ta'lim imkoniyatlarini birmuncha kengaytirish hamda o'quvchilar uchun samarali muhitni yaratishga

yordam beradi.

Bundan tashqari sun'iy intellektdan mavzuni tashkil etish bo'yicha ham yoki o'quvchilarga mavzu yuzasidan mustahkamlash uchun qo'shimcha savollar so'rash va yana shu mavzuga doir masalalarni ham so'rash mumkin. Masalan mavzuni tashkil etish bo'yicha, ya'ni darsni qanday tashkil etishni ko'rib chiqaylik. Bunda SI bizga quyidagi tavsiyalarini berdi:

1. Maqsad va mavzu belgilash: Darsni o'qituvchi o'quvchilarga maqsad va mavzuni tushunishini ta'minlashi kerak. Maqsadlar darsning umumiy maqsadini ifodalash va o'quvchilarga qaysi mavzulardan foydalanishni ko'rsatish orqali aniqlanishi mumkin.

2. Rejalashtirish: Darsni to'liq rejalashtirish juda muhimdir. Darsning boshlanishi, o'rtasi va oxirgi qismi uchun belgilangan vaqtlarni belgilash, faoliyat turlarini tartibga solish, o'quvchilarni qatnashishni va hamkorlik qilishlarini tashkil etishga intilish kerak.

3. O'quv materiallari: Dars davomida ishlatiladigan o'quv materiallarini tayyorlash va tashkil etish juda muhimdir. Bu o'quvchilarni qiziqtirish, o'rganishni oshirish va materialni qulaylik bilan o'rganishlarini ta'minlash uchun kerak.

4. Interaktivlik va amaliyotlar: Darslarning interaktiv va amaliyot asosida bo'lishi o'quvchilarning qatnashishini oshiradi. O'quvchilarning fikrlash, masalalar yechish, guruh ishlarida ishtirok etish vaqtlarini tashkil etish juda muhimdir.

5. O'quvchilarning baholash va ma'lumotlarni baholash: Darsning oxirida o'quvchilarni baholash, ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish va o'quvchilarga yordam berish uchun vaqt ajratish ham juda muhimdir. Bu, o'quvchilarning o'zlarining nima o'rganishlarini tushunish, qanday yordam kerakligini bilish va yuqori natijalarga erishishlariga yordam beradi [6-8].

Xulosa. Maqola yakunida shuni xulosa qilish mumkinki hozirgi globalshuv jarayonida yuqori texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish har jabhada dolzarb muammo hisoblanadi. Xususan maktab ta'limi sohasida ham o'z yechimini kutayotgan muammolardan biridir. Bu muammolarni hal qilishda sun'iy intellekt texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga muhim turtki va ko'makchi bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi yoshlarning kelajakda o'zi qiziqqan sohada ham bu ko'nikmalarni qo'llashi, o'z kasbida yetakchi mutaxassislardan bo'lib yetishishiga imkon yaratadi [9-12].

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Fizika. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 10- sinf darslik/ K. A. Tursunmetov, Sh. N. Usmonov, J. A. Raxmatov, D. B. Xomidov T.: : Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b

2. Рустамович, МЮ (2023). Сравнительный анализ учебников естествознания Узбекистана и Турции для 6-х классов. Международный журнал формального образования, 2 (3), 114–120.

3. Mustafoyev O'.R. 6-sinf «Tabiiy fan» darsligida namoyishli tajribalarning o'rni va roli//Innovations in technology and science education 2:17 (2023),p. 253-261.

4. Daminov M.I., Mustafoyev O'.R. Fizikadan maktab o'quvchilari uchun zamonaviy darsliklar yaratishda xorij tajribasidan foydalanish//ta'lim sifatini oshirish: muammo, yechim va istiqbol1:1(2020), p. 683-685.

6. Jabborova, G. S. (2022). Vektor fazolarda operatorlar va ularning asosiy xossalari haqida. Science and Education, 3(11), 17-32.

7. Jabborova G.S. Hayitova X.G'. (2023) "Uchburchakli panjarada aniqlangan diskret Shryodinger operatorining xossalari" Tadqiqotlar jahon ilmiy – metodik jurnali, 6(14), 118-126.

8. Mustafoyev O'.R. (2024). Maktab fizika darslarida o'quvchilar faolligini oshirishda Sun'iy intellektning o'rni. Pedagogik akmeologiya, 2(10), 218-221.

9. A. Sh. Rashidov Matematika darslarida ta'limning shaxsga yo 'naltirilgan texnologiyasi. Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet

10. A.Sh. Rashidov Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishi talabalari uchun matematik fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish. Science and Education №9. С 283-291

11. О.О.Халлоқова. А.Рашидов Пороговое собственное значение модели Фридрихса. Молодой ученый, 2015 №15. С. 1-3

12. Н.О.Жўраева. Таълим жараёнида мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш бўйича айрим кўрсатмалар. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. №3, 2021 йил. -170-176 б

13. Жўраева Н.О. Организация самостоятельного обучения по предмете «информационно-коммуникационные технологии. International Conference on New Scientific Methodologies (online-conferences). -327-331

## ZAMONAVIY TA'LIMDA INNOVATSION AXBOROT KOMMUNIKATSION VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODLARI

*Nabiyev Feruz Abdumannonovich*  
*Samarqand davlat Veterinariya meditsinasi,*  
*chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti*  
*akademik litseyi katta o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi*

*Annotasiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston ilm fani taraqqiy ettirishda ta'lim tizimida innovatsion axborot kommunikatsion vositalaridan foydalangan holda ta'lim berishning samaradorligi va ahamiyati atroficha tahlil qilingan. Davlatchilik taraqqiyoti va xorijiy davlatlarning taraqqiyot strategiyalarida ta'lim tizimiga, ayniqsa, innovatsion informatsion texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etganligini ko'pgina tadqiqotlar ko'rsatib turibdi. Shu boisdan, Yangi O'zbekiston sharoitidada qabul qilinayotgan taraqqiyot strategiyalarida ham taraqqiy topgan davlatlar ta'lim tizimi va ularda amaliyotga tadbiq etilayotgan axborot kommunikatsion tizimlardan foydalanishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu maqolada ham shu boisdan innovatsion axborot kommunikatsion vositalarning amaliyotga tadbiq etilishining dars jarayonlari samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi.*

*Kalit so'zlar: ta'lim, IT, AKT, Axborot makoni, Texnologik ta'lim, Innovatsiya, salohiyat, ta'lim jarayoni, axborot texnologiyalari.*

## МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ СРЕДСТВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Набиев Феруз Абдуманнонович*  
*Старший преподаватель Самаркандского государственного университета ветеринарной*  
*медицины, академического лицея животноводства и биотехнологии, независимый исследователь*

*Аннотация: В данной статье тщательно анализируется эффективность и значение обучения с использованием инновационных информационно-коммуникационных средств в системе образования в развитии науки Нового Узбекистана. Многие исследования показывают, что использование инновационных информационных технологий стало очень важным для системы образования в развитии государственности и стратегий развития зарубежных стран. Поэтому в стратегиях развития, принятых в условиях Нового Узбекистана, особое значение придается использованию системы образования развитых стран и реализованных в них информационно-коммуникационных систем. В данной статье также анализируется роль инновационных информационно-коммуникационных инструментов в повышении эффективности учебных процессов.*

*Ключевые слова: образование, ИТ, ИКТ, Информационное пространство, Технологическое образование, Инновации, потенциал, образовательный процесс, информационные технологии*

## METHODS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF USING INNOVATIVE INFORMATION AND COMMUNICATION TOOLS IN MODERN EDUCATION

*Nabiyev Feruz Abdumannonovich*  
*Senior teacher of Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and*  
*Biotechnology Academic Lyceum, independent researcher*

*Abstract: In this article, the effectiveness and importance of teaching using innovative information and communication tools in the educational system in the development of science in New Uzbekistan is thoroughly analyzed. Many studies show that the use of innovative information technologies has become very important to the educational system in the development of statehood and development strategies of foreign countries. Therefore, in the development strategies adopted in the conditions of New Uzbekistan, special importance is attached to the use of the educational system of developed countries and the information and communication systems implemented in them. This article also analyzes the role of innovative information and communication tools in increasing the effectiveness of teaching processes.*

*Key words: education, IT, ICT, Information space, Technological education, Innovation, potential, educational process, information technologies*

Kirish. Rivojlangan davlatlar ta'lim sistemasidan ma'lumki, ta'lim taraqqiyoti davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va harbiy qudratini, bir so'z bilan aytganda, barcha jabhalardagi salohiyatini belgilab beradi. Shu boisdan ham ta'lim jarayonini barcha sohalarga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy hodisa sifatida baholab, uning tarkibiy qismi sifatida ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uni innovatsion metodlar bilan boyitish dolzarb masala sifatida ko'rilmogda. Ta'lim jarayoni kundan-kunga taraqqiy ettirish, uni information texnologiyalar va innovatsion metodlar bilan boyitish, bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayonini axborot kommunikatsion tizimlar bilan boyitish kunning dolzarb masalasiga aylanib bormogda. Mazkur sohada axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatiga xulosa shundaki, ayni paytda "ta'lim" ustuvor milliy loyihasini amalga oshirish doirasida axborot texnologiyalari ta'lim jarayoniga faol joriy etish davlat siyosati darajasida ko'rilmogda. Innovatsion texnik o'quv vositalarining konsentratsiyasi ta'lim jarayonini innovatsiyalashtirishda ko'maklashadi, ta'lim oluvchilarning intellectual salohiyatini aktivlashtiradi, ularning ijodiylik qobiliyatini rivojlantirishga yordamlashtiradi, ta'lim va o'quv jarayonining samadorligini oshirishga hamda innovatsion ta'lim olish jarayonini soddalashtirishga, ta'lim oluvchi va ta'lim oluvchilarning umumiy maqsadini muvofiqlashtirishga imkon beradi. Xorij va rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida o'quv jarayonini kompyuterlashtirilganligi va shu asosda yuqori ilmiy salohiyatga erishilganligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu jarayon ham mamlakatimizda alohida e'tibor talab qiladi. Chunki bu jarayon, ya'ni dars jarayonini axborot kommunikatsion tizimlar bilan ta'minlash o'quv jarayonini sifatini oshiruvchi omil sifatida belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim oluvchilar safini kengaytirish bugungi kunda ta'lim jarayonida sifatli dars berish metodlaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarning qiziqishi va ehtiyojini hisobga olish, tajribali o'qituvchilarni dars jarayoniga jalb qilish vas hu bilan bir qatorda dars jarayonini innovatsion hamda axborot kommunikatsion tizimlar bilan ta'minlashni talab qiladi. Qolaversa ta'lim oluvchilarning huquq va erkinliklarini ifodalovchi qonun hujjatlarini qabul qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda O'zbekiston respublikasida ham "Yoshlar to'grisida", "Ta'lim to'grisida", "O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati to'grisida"gi qonunlar mazkur soha talablarini bajarishda muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston respublikasi "Ta'lim to'grisida"gi Qonuning 46-moddasida keltirilganidek: Pedagog xodimlarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi majburiyati yuklatilgan [1]. Kompyuterni o'qitish sohasida allaqachon boy tajriba mavjud bo'lishiga qaramay, ko'plab o'qituvchilar kompyuterda o'qitish vositalaridan foydalanish imkoniyatidan ehtiyot bo'lishadi. Shuningdek, ta'limni kompyuterlashtirish jarayoni bir qator muammolarga duch kelayotganini ta'kidlash lozim. Axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etish jarayoni ancha murakkab va chuqur tushunishni talab qiladi. Bir tomondan, ular o'quv jarayonining samadorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, ikkinchidan, kompyuter yordamida o'quvchilar tomonidan materialni o'zlashtirish tezligi muammosi, ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin [2]. Mazkur holatlarning barchasi ta'lim sohasidagi islohotlarni uzviy davom ettirishni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga doir o'quv-ilmiy manbalar, DTS dagi konseptual fikrlarni tahlil qilish, qarashlarni o'rganish, analiz va sintez, pedagogik kuzatuv, retrospektiv tahlil, suhbat, modellashtirish, so'rovnomalar o'tkazish, monitoring, intervyu, test, pedagogik tajriba-sinov, analitik obzor, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalaniladi.

Muhokama va natijalar. Uchinchi renessans davrida mamlakatimizda o'quv jarayonini sifatini oshirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilib kelayotganligi hukumat islohotlarida o'z ifodasini topmogda. Jumladan, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6106-sonli farmonida O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib davlatimizning istiqboli uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish kabi vazifalar belgilanib olindi. Mazkur holat esa mamlakatimiz ta'lim tizimini zamonaviy standartlarga moslashtirish va uzviy islohotlarni kuchayib borayotganligini ko'rsatadi.

Barcha yangi zamonaviy texnologiyalar esa axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan uzviy bog'liqdir. Dunyoni yagona axborot makoniga aylantirgan so'nggi o'n yilliklardagi axborot inqilobi insoniyat tarixidagi eng chuqur to'ntarishlardan biridiri bo'lib odamlar hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatdi. Biz yashayotgan

davrni ko‘pincha axborot texnologiyalari inqilobi, axborot asri deb atashadi. Axborot jamiyati uchun asosiy resurs bu axborot hisoblanadi. Aynan turli jarayonlar va hodisalar haqida ma‘lumotga ega bo‘lish asosida har qanday faoliyatni samarali amalga oshirish mumkin. Yangi axborot texnologiyalaridan (IT) foydalanayotgan inson ularga egalik qilmagan insonga nisbatan katta afzalliklarga egadir va bu ayni haqiqat. Shu bois yoshlarga nafaqat texnologik ta‘lim, balki axborotli-texnologik ta‘lim berish masalasi dolzarb bo‘lib qoldi. Texnologik ta‘lim barcha bosqichlarda intellektual jihatdan mazmunga boy bo‘lishi, yoshlarni doimiy ravishda rivojlanayotgan texnologiyalar bilan tez o‘zgaruvchan axborot olami sharoitlariga tayyorlashi kerak. Jamiyatning global axborotlashuvi sharoitida ishchilarning mehnat faoliyati samaradorligi, uning mazmunini o‘zgartirishga tayyorligi, mehnat bozorida raqobatbardoshligi ko‘proq darajada ularning axborot texnologiyalarini bilish darajasiga oldingidan ko‘proq bog‘liq bo‘ladi.

1996-yilda bo‘lib o‘tgan Ilm-fan va texnologik ta‘lim bo‘yicha ikkinchi xalqaro konferensiyada texnologik ta‘limining turli yo‘llari orasida umumiy ta‘limning majburiy va zarur tarkibiy qismi sifatida axborot texnologiyalarini o‘rganish kabi masala hal qiluvchi omil sifatida ahamiyatga ega ekanligi ta‘kidlandi. Buyuk Britaniya, Gollandiya, Fransiya, Shvetsiya, Bolgariya, AQSH, Isroil va Germaniyada texnologiyani o‘qitishning tahlili ushbu mamlakatlarda maktab o‘quvchilariga texnologik ta‘lim berishga bo‘lgan yondashuvlarida ko‘p umumiylik va farqlarni ko‘rsatadi.

Buyuk Britaniyada maktab o‘quvchilari uchun texnologik tayyorgarligi beshta asosiy yo‘nalishni birlashtiradi: Hunarmandchilik. San‘at va dizayn. Biznes. Uy iqtisodiyoti. (domashnaya ekonomika) Axborot texnologiyalari. Birinchi to‘rtta yo‘nalish «Dizayn va texnologiya» bo‘limida birlashtirilgan. Axborot texnologiyalari bo‘limi esa kompyuterlardan foydalanish bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalarning keng ko‘lamini ko‘rib chiqadi [3].

1995 yilda Buyuk Britaniyada 6-16 yoshdagi bolalar uchun davlat maktablari uchun texnologik ta‘lim standarti ishlab chiqilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarning politexnik, ijodiy, boshqaruv va ekologik rivojlanishiga katta e‘tibor berilgan. Buyuk Britaniya standartiga ko‘ra, axborot texnologiyalari elementlarini o‘rganish 11 yoshdan boshlanadi. Niderlandiyada Texnologiya fanini 12 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan maktab o‘quvchilari uch yil davomida o‘rganadilar. Niderlandiyada Texnologiya fani axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan amaliyotga yo‘naltirilgan fan hisoblanadi. Niderlandiyadagi «Texnologiya» fani oltita bo‘limni o‘z ichiga oladi: Texnologiya va jamiyat, texnologik jarayon va iqtisodiy ijtimoiy sharoitlar o‘rtasidagi munosabatlar, ishlab chiqarish jarayoni, kasbiy faoliyatdagi texnologiya, atrof-muhit; Texnologik mahsulotlarni yaratish (mashinalar va texnik tizimlarning ishlash tamoyillari, harakat va uzatish, energiyani aylantirish, avtomatlashtirish, turli texnikalardan foydalanish); Ishlab chiqarish texnologiyasi (ishga tayyorlash, loyihalash, chizish, chizmalarni sharhlash, konstruktiv materiallar va matolarni qayta ishlash); Sanoat texnologiyalari; «Texnologiya» fanining barcha bo‘limlariga kiritilgan axborot texnologiyalari; Atrof-muhit muhofaza qilish. Niderlandiyada o‘quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish, kasb-hunarga yo‘naltirish uchun korxonalariga ekskursiyalar tashkil etish zarurligi isbotlangan [4].

Ma‘lumki, Respublikamizning barcha ta‘lim muassasalari o‘quv jarayonida o‘qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo‘llash, ta‘lim tizimida axborot texnologiyalardan unumli foydalanish, ular yordamida ta‘lim tizimini talab darajasiga yetkazish ustida bir qancha ishlar olib borilmoqda [5].

O‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi imkoniyatlarini keltirish mumkin:

- O‘qituvchiga o‘quv materiallarini ta‘lim oluvchilarga yetkazib berishda birmuncha yengillashtirilishi;
- Dars jarayonida berilayotgan o‘quv materiallarning takroriy holda namoyish qilish imkoniyatining mavjudligi;
- Ta‘lim oluvchilar o‘zlashtirish darajasining yuqori bo‘lishiga erishish;
- Multimediali elektron darsliklar tarkibida ko‘rgazmali virtual stendlar tashkil qilish imkoniyati;
- Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish imkoniyati;
- Tavsiya qilingan o‘quv materiallaridan ommaviy tarzda foydalanish, ya‘ni tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir nechta auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- O‘quv materiallari ma‘lumotlar bazasini tezkor ravishda o‘zgartirib, yangi axborot zaxiralarini kiritish imkoniyatining mavjudligi;
- Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari mobaynida ma‘ruza materiallariga o‘tish imkoniyatining yaratilishi;
- Masofadan o‘qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish imkoniyati;

ta'lim oluvchilarning individual bilimlarini baholash, nazorat qilish va boshqalar.

Bunday imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quv materiallarini o'quv jarayoniga tadbiq etish, bir vaqtning o'zida ta'lim oluvchilarga o'quv materiallarini ko'rish, o'qish, eshitish, mulohaza qilish va qayta-qayta takrorlab o'z bilimlarini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llanilishi, ayniqsa multimediali vositalardan foydalanish o'quv jarayonining didaktiv ko'rinishda tasvirlash uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi [6].

Xulosa. Mazkur tahliliy-tadqiqot ishiga xulosa sifatida aytish mumkinki, davlatni taraqqiy ettirishning asosiy vositalaridan biri ta'lim sohasidir. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish esa samaradorlikni yanada oshiradi. Shu boisdan xorijiy tajribalarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Biroq uni kuchirib olmasdan mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Saidov D., Ismailova A. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ayrim dolzarb masalalari. *Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences volume 1 | issue 10 issn 2181-1784 scientific journal impact factor sjif 2021: 5.4. November 2021.778-bet.*

Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги ПФ-6106-сонли фармони. Т. 2020.

Muxitdinova J., Turg'unpulatova M. Texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribalarni tahlil qilish. *global technovation 5 th international multidisciplinary scientific conference hosted from paris, france <https://conferencepublication.com> march 30th. 2022.*

Ставрова О.Б. Комплексное применение информационных технологий на интегрированных уроках технологии в основной школе. Автореферат. диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. М. 2003.

Меҳмонов Р., Ж.Н.Эшпўлатов. Мактабгача таълим муассасалари тарбияланувчиларининг жисмоний ривожда янги ахборот технологияларидан фойдаланиш муаммолари ва ечимлари // *Фан ва жамият* №3, 15 Б.

A.Mahmudov. Professional ta'lim muassalarida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati. "Ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari". Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. (2023-yil 30-may, Toshkent, O'zbekiston).

Umarova Z.A. Pedagogical Opportunities of Media Resources in a Digital Media Educational Environment // *Journal La Edusci*. 2020. 1 (5), P. 1-5.

## QUYOSH FAOLLASHUVINING HOZIRGI 25-TSIKLI VA YER BIOSFERASIGA TA'SIRI

*Narzullayev Muxiddin Nasullayevich, Narzullayev Ulug'bek Amrillo o'g'li*

*Buxdpi Aniq fanlar kafedrasida o'qituvchilari*

*Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida Quyosh faollashuv tsikllarini uzoq yillar davomida tadqiq qilish natijalari sifatida keying 25-faollashuv tsiklining dastlabki 2019-2024 yillar mobaynida uning rivojlanish dinamikasining taxlili va Yer biosferasiga uning ta'sirida yuz beradigan geofizik jarayonlar o'zaro aloqadorlikda taxlil qilish natijalari bayon qilingan. Keyingi o'n yilliklarda insoniyat tomonidan Yer atrofidagi kosmik fazo ko'pgina davlatlarning olimlari tomonidan jadal tadqiq qilinishi natijasida Yer atmosferasi atrofidagi kosmik fazoda yuz beradigan ko'pgina fizikaviy hodisalar Yer biosferasiga jumladan insoniyatga qaday ijobiy va salbiy ta'sir qilishi mexanizmi aniqlandi. Jumladan Quyosh faollashuvi davrida undan plazmaning qanday uloqtirilishi hamda bu plazma sayyoralararo fazoda qanday tarqalishi va Yer magnit maydoni bilan ta'sirlashishining yaxlut manzarasini olishga erishildi. Ushbu tadqiqot natijalarini o'lkamiz biosferasiga ta'siri tadqiq qilinib ilmiy xulosalar qilingan.*

*Kalit so'zlar: Quyosh faolligi, faollik tsikli, magnit bo'ronlari, Yer biosferasi, Yer magnetosferasi, bioritm, Quyosh dog'lari, Quyosh shamoli, Quyosh tojlari, vol'fa soni.*

## 25-Й ЦИКЛ СОЛНЕЧНОЙ АКТИВНОСТИ ИХ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА БИОСФЕРУ НОСТЯЩЕЕ ВРЕМЯ

*Нарзуллаев Мухиддин Насуллаевич, Нарзуллаев Улугбек Амрилло ўгли*

*БухДПИ Аниқ фанлар кафедраси ўқитувчилари*

*Аннотация: В данной исследовательской работе изложены результаты многолетних исследований солнечных циклов активности с последующим анализом динамики ее развития в начальный период 25-го цикла активности 2019-2024 гг. во взаимосвязи геофизических процессов, происходящих в биосферу Земли. В последующие десятилетия интенсивные исследования человечеством космического пространства вокруг Земли учеными многих стран выявили механизм, с помощью которого многие физические явления, происходящие в космическом пространстве вокруг атмосферы Земли, оказывают как положительное, так и отрицательное влияние на биосферу Земли, включая человечество. В частности, удалось получить целостную картину того, как плазма выбрасывается из нее во время солнечной активности, как эта плазма распределяется в межпланетном пространстве и взаимодействует с магнитным полем Земли. Были сделаны научные выводы о влиянии результатов данного исследования на биосферу нашей страны.*

*Ключевые слова: солнечная активность, цикл активности, магнитные бури, биосфера Земли. Magnetosfera Zemli, bioritm, solnechnie pyatna, solnechniy veter, korona Solntsa, pyatna ra Solntsa. chisla Volfpa.*

## THE 25TH CYCLE OF SOLAR ACTIVITY THEIR EFFECT ON THE BIOSPHERE IS NOT

*Narzullayev Muxiddin Nasullayevych, Narzullayev Ulug'bek Amrillo o'g'li*

*Teachers of Bukhdpi Department of Exact Sciences*

*Abstract: in this research work, as the results of long-term research of solar activation cycles, the results of the analysis of the first 25-activation cycle for the period 2019-2024 of the taxile of the dynamics of its development and the analysis of geophysical processes occurring in its impact on the Earth's biosphere are described. In the following decades, intensive human exploration of space around the Earth by scientists from most states revealed the mechanism by which most physical phenomena occurring in space around the Earth's atmosphere affect the Earth's biosphere-including humanity-positively and negatively. In particular, during the period of solar activation, it was achieved to extract from it the yaxlut landscape of how the plasma is thrown and how this plasma spreads in interplanetary space and interacts with the Earth's magnetic field. The results of this study were studied and made scientific conclusions about the impact on the biosphere of our country.*

*Keywords: solar activity, activlig cycle, magnetic storms, Earth biosphere. Earth magnetosphere, biorhythm, sunspots, solar wind, sun crowns, Vol'fa number.*

*Kirish. Insoniyatning qadimdan uni o'rab olgan atrof olamni sir-sinoatlarini anglash borasidagi intilishlari*




XXI –asr birinchi choragida misli ko'rilmagan darajada muvaffaqiyatlarga erishdi. Keyingi yillarda kosmosni ham yerdan, ham samodan o'rganishlar bir qancha nazariy hamda amaliy muammolarni hal qilinishiga turtki bo'ldi. Albatta bu boradagi izlanishlar asosan kosmosni tinchlik maqsadlarida, insoniyatni manfaati uchun qaratilganligi to'g'risida g'ururlanib gapirishimiz mumkin. Yer sun'iy yo'ldoshlari yordamida kosmosni izchil tadqiq qilish natijalari Quyosh, Yer va boshqa sayyoralarni insoniyat tomonidan yaxshiroq o'rganish borasida ishonchli ilmiy ma'lumotlar hisoblanadi. Yer, sayyoralar ayniqsa Quyosh bilan ularning aloqadorligini insoniyat doim his qilib turgan. Qadimdan insonlarni Yerdagi hayot Quyosh bilan mustahkam bog'liqligini bilganlar. Quyosh va samoda yuz beradigan turli insonlarga tushunarsiz hodisalar ular oldida qo'rquv hissini uyg'otib turgan. Agar Yer himoyalangan bo'lmasa Quyosh haqiqatdan Yerdagi hayotni yo'q qilib yuborish imkoniyatiga egalik tushunchasi insoniyatni aldamagan. Keyingi yillarda izchil tadqiq qilinayotgan Quyosh faolligi azaldan insoniyatga davriy xarakterga egaligi ayon bo'lgan. Bu birinchi navbatda ulkan xrtomosferaviy chaqnashlar bizning o'lchamlarimizga ko'ra ko'lamlil yuz berishi bilan xarakterlanadi. Har bir mana shunday chaqnashdan so'ng kosmik fazoga ulkan plazma oqimi otilib chiqadi. Bu oqim radial yo'nalishda tarqalib ularning bir qismi Yerga yetib keladi. Bunday Quyosh radiatsiyasi oqimi juda qisqa vaqtda Yer atmosferasi havo massasini ion va elektronlarga parchalab yuboradi va Yer biosferasida qaytmas jarayonlarni yuzaga keltirib sayyoramizda hayot mumkin bo'lmay qolardi. Bu holat albatta yuz bermaydi chunki sayyoramiz o'zining magnit qobig'i-magnitosferasi bilan quyosh radiatsiyasidan himoyalangan.

Yer magnitosferasining tashqi qatlami kuchli plazma oqimi yoki quyosh shamoli ta'sirida deformatsiyalanadi, va qat'iy aniq yo'nalishlarda yoriq, nuqsonli joylar orqali magnitosfera ichki qismiga kirib borib, uning g'alayonlanishi- magnit bo'ronlarini yuzaga keltiradi. Magnitosferaga kirib kelgan Quyosh plazmasi tarkibidagi zaryadlangan zarralar magnit maydonining kuch chiziqlari bilan ushlab qolinadi, ammo keyingi keladigan plazma oqimining bir qismi atmosferani silkitib, o'simlik dunyosi, jonli olam asosan insoniyatga ta'sir qiladi. Inson organizmi magnit maydon o'zgarishiga juda sezgir ekan, va natijada nerv tizimi qo'zg'aluvchanligi o'zgartirib unga (magnit maydon o'zgarishiga) aniq munosabat bildiradi, ya'ni bosh miya nervlarida qo'zg'alish va tormozlanishning nisbatiga, yurak siqilishi chastotasiga, qon bosimiga, qonning morfologik tarkibi va boshqa bir qancha jarayonlarga.


Inson tanasida bo'ladigan o'zgarishlar uning moslashuvchanlik qobiliyati bilan doim ham kompensatsiyalanavermaydi va ba'zi tizimlarning ish faoliyatini u yoki bu darajada chetlashishlariga sabab bo'ladi. Ayniqsa insonlarning nerv tizimi va yurak- qon tizimi kasallangan bemorlar bunga juda sezgir bo'ladi. Yurak- qon tizimi kasalliklari asoratlari, masalan tombopoz kasalligi bir muncha jidiy natijalar hatto inson o'limigacha ham kelishi mumkin. Har yili jahonda yurak qon tomir tizimi kasalligidan o'rta hisobda 17,9 mln kishi o'lar ekan. O'zbekistonda 2023 yili 61% o'lim holati aynan qon aylanish tizimi kasalliklari bilan bog'ligi rasman qayd qilinganligi ham buning tasdig'idir. Bunday bog'liqli bir biridan ancha olislikda joylashgan mamlakatlarda ham tasdiqlangan. Bu magnit bo'ronlari bilan infksion kasalliklarning epiemiyasi, eplamsiya, epilepsy, glaukoma va hokazo kasalliklarda kuchli bog'liqliklarda ham o'z isbotini topgan. Magnit bo'ronlari vaqtida kuch diqqatni talab qiladigan ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar, yo'l transport hodisalarining yuz berishida ham bog'liqlik mavjudligida ham isbotlangan. Shu sabab bu muammoni mexanizmini o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi va tezkor yechimni talab etadi.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya. Ushbu muammoning yechimi ko'pgina olimlarimizning ilmiy izlanishlarida o'z ibotini topgan. Bu Quyosh-Yer aloqalari muammosini birinchilardan bo'lib J. Pikardi (J. Piccardi, 1962) suvda Quyosh chaqnashlari va geomagnit bo'ronlar vaqtida oksixlorid vismutning o'tirishini kuzatish tajribalarida tasdiqlangan. Bu tajribalarning nazariy tasdiq'i L'D. Kislovskiy (1971, 1982) ishlarida umumlashtirildi. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklari, nerv kasalliklariga Quyosh faolligi, magnit bo'ronlarining ta'sirini XX- asr boshlarida rus olimi Aleksandr Chijevskiy atrovlasha o'rgangan. Shunindok B.A. Ribkin 1900 yilda 14 mingga yaqin kuzatishlari asosida og'ir yurak kasalliklari Quyosh kuchvli xavf solishi tasdiqlangan. Rossiya fanlar akademiyasi kosmik tadqiqotlar institute olimlari akademiklar R.S. Sagdeey va M.N. Zelenskiylar taxlillariga asosan Moskva shaxrida 11000 ga yaqin infarkt va 7000 ga yaqin insul't kasalliklari magnit bo'ronlari yillarida ortishi aniqladilar.

Kosmik faktorlarning Yer atmosferasi, shuningdek undagi hayot va inson salomatligiga ta'sir arajasi uning magnit mayoniga bog'liq. Yer magnit mayoni atmosfera barcha havosini qisqa vaqtda electron va ionlarga parhalash qobiliyatiga ega va Yer biosferasi hamda litosferasida qaytmarilmas boshqa jarayonlarni yuzaga keltiradigan intensiv radiatsiya bilan o'ralgan. Bu radiatsiyadan Yerdagi hayotni uning magnit maydoni (1-chizma) himoya qiladi. Yuqori energiyali korpuskulyar radiatsiyadan himoya mavjud emas. Agar bu himoya benuqson bo'lganda edi buni atroflicha tavsiflab bermasak ham bo'lardi.



Ammo Yer magnit maydonida shunday kuchsiz(nuqsonli)joylar mavjud ekanki u yerdan Quyosh radiatsiyasining bir qismi atmosferaga o'ta olar ekan. Yerning magnit qobig'idagi bu nuqsonlar Yer magnit maydoni konfiguratsiyasiga va tabiatiga bog'liq holda alohida sohalar uchun xarakterli. Bu sohalar maxsus kosmik iqlimi bilan xarakterlanadi, bu sohalaridagi kosmik ob-haho Yer sharining boshqa qismlaridan tubdan farq qiladi. Yer magnit maydoni Quyosh korpuskulyar radiatsiyasidan, umuman olganda musbat yoki manfiy zaryadlangan ixtiyoriy zarrachalar oqimidan yaxshi himoya vazifasini bajarishi uchun uning kuch chiziqlari radiatsiya yo'nalishiga ko'ndalang joylashgan bo'lishi kerak. Yerning kichik kengliklarida bu shart bajarilgani uchun u yerlar Quyosh radiatsiyasidan yaxshi himoyalangan, ammo qutbiy kengliklarag yaqinlashish bilan bu himoya chorasi zaiflashib boradi. Yer sharining kuch chiziqlari sirtga tik joylashgan yerlarda(qutblarda) kuch chiziqlari radiatsiyaga to'sqinlik ko'rsatolmaydi va zarrachalar qarshiliksiz kuch heiziqlari bo'ylab harakatlanib Yer atmosferasining ichki qismlariga o'tib boshlaydi. Quyosh sirtidan radial yo'nalishda uzluksiz barcha tomonlarga oqimi quyosh shamoli deb yuritiladigan engil elementlar yadrolaridan iborat plazma tarqaladi. Bu Quyosh shamoli Yer atmosferasiga ta'siri natijasida uni deformatsiyalaydi. Natijada Quyosh tomonida quyosh shamoli ta'sirida 10 Yer radiusiga teng masofalargacha siqiladi.



2-chizma. Quyosh shamolining Yer magnitosferasiga ta'siri

Kunduz kungi tomonida kuch chiziqlarini siqqan Quyosh shmoli Yer magnitosferasining kechki tomonida radiatsiya yo'nalishida uni rezinkadek cho'zadi. Natichada 10 lab Yer radiusigacha masofalargacha cho'ziladigan magnitosfera dumini, o'ziga xos shleyf hosil qildi. Magnitosfera dumini Yer bilan birgalikda aylanolmaydi, har doim kechqurungi tomonga yonalgan bo'ladi. Natijada qutbga yaqin maydon kuch chiziqlarini kunduzgi tomonda shunday aylantiradiki ular qutblar orqali kechqurungi tomon magnitosfera dumiga qarab ketadi(2-chizma).

Muhokama

Yerda kuzatiladigan ko'plab fizik va biologik hodisalarning kechishi, xususan, iqlimning o'zgarishi, xilma-

xil kasalliklarning davriy ravishda takrorlanishi, ionosferadagi hodisalar, Yer magnit maydoni «bo'ronlari» va kosmonavtlar uchun radiatsiya xavfining tug'ilishi - bularning hammasiga Quyoshda ro'y beradigan turli faol jarayonlar sababchi ekanligi fanga anchadan beri ma'lum. Garchi bu muammo to'la hal qilinmagan bo'lsa-da, Quyosh faolligining bu yerda kuzatiladigan mazkur hodisalar bilan aloqadorligini o'rganish borasida ko'p yutuqlar qo'lga kiritilgan.

Bir-biridan 150 million kilometr uzoqlikda joylashgan bu ikki osmon qismi (aniqrog'i Quyosh va uning yo'ldoshi) orasidagi bog'lanishni qanday tushuntirish mumkin, bu katta masofada vositachi rolini nima o'ynaydi, degan savol tug'iladi.

Yerda Quyosh hayot manbai ekanligi va bunda uning nurlari yorituvchi va issiqliq baxsh etuvchi asosiy vosita ekanligi qadimdan ma'lum. Biroq keyingi yillarda Quyosh elektromagnit to'lqinlarining ko'zga ko'rinmaydigan qisqa to'lqinli diapazonlarida ham yetarlicha intensiv nurlanish borligi aniqlandi. Bu nurlar ultrabinafsha, rentgen va qisman gamma nurlari bo'lib, Quyoshdagi faol hodisalar, bu nurlar intensivligining ortishida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Quyosh chaqnashlari va eruptiv protuberanetslardagi portlash tufayli bu nurlar oqimiga katta energiyali elementlar zarrachalar oqimi ham qo'shiladi. Quyosh shamoli deyiluvchi bu oqimning intensivligi Quyosh faolligining fazasiga mos ravishda o'zgarib boradi. Quyoshdan kelayotgan korpuskulyar zarrachalar, radiatsion nurlar intensivligining bu xilda o'zgarib turishi Quyoshning faollik darajasiga bog'liq bo'lib, dog'lar sonining o'zgarib turishi bilan bir xilda kechadi.

Shubhasiz, «Quyosh shamoli» Yerga yetib kelgach, turli geofizik hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Geofizik hodisalar esa o'z navbatida, sayyoramizning biologik sferasiga ta'sir etadi. Xususan, Quyosh radiatsiyasi tufayli ionosferaning ionlanish darajasi ortadi. Bu esa o'z navbatida, atmosferaning bu qatlamlarida elektr o'tkazuvchanlik, elektromagnit nurlarni qaytara olish qobiliyatini o'zgartiradi. Ba'zan Quyoshdan kelayotgan kuchli korpuskulyar oqim ionosferada qisqa uzunlikdagi elektromagnit to'lqinlar yutilishi darajasini shu qadar orttiradiki, natijada atomlarning yuqori darajada ionlanishishi tufayli uzoq masofaga qisqa radio to'lqinlari uzatilishida bir necha minutli uzilish kuzatiladi. 1959-yili 9-may kuni Quyoshda kuchli xronosfera chaqnashi kuzatildi. 10 va 12-mayda ham Quyoshda bir necha chaqnashlar kuzatildi. 11-mayda AQSH da radio, telegraf, telefon aloqalari ancha muddatga ishdan chiqdi. 12-mayda mazkur chaqnashlardan otilgan korpuskulyar oqim Yerga yetgach, osmonda qutb yog'dusi kuzatildi.

Quyosh faolligiva epidemik kasalliklar orasidagi bog'lanishni o'rganishda rus olimi professor A.L. Chijevskiyning hissasi katta. U keng tarqaladigan o'lat, vabo, qaytarma tif, bo'g'ma kabi epidemik kasalliklarni o'rganib, ularning boshlanishi, rivojlanishi va tugashi Quyosh faolligiga mos kelishini aniqladi. Olimlardan R.P. Bogacheva va V.M. Boykolar esa oxirgi bir necha o'n yillik davr mobaynida Riga va O'zbekistonda poleomiyelit kasalliklari dinamikasini o'rganib, bu kasalliklarning avji Quyosh faolligi fazasiga juda mos kelishini topishdi.

Olimlar Quyosh chaqnashining yurak-tomir kasalliklariga ta'sirini o'rganib, miokard infarkti kasalligi bilan Quyosh chaqnashi orasida kuchli bog'lanish mavjudligini aniqlashdi. Quyosh faolligi bilan inson asab sistemasi o'rtasidagi bog'lanishni o'rganish ham ijobiy natija berdi. Quyosh chaqnashi kishi asab sistemasi normal faoliyatining vaqtincha buzilishiga sabab bo'lar ekan. Bu sohada Shira Masamuro tomonidan Yaponiyaning o'nta eng yirik shaharlarida o'tkazilgan tajriba kishi diqqatini o'ziga jalb etadi. Olim o'z tajribasini Quyosh faolligi va avtomobil avariylari, ko'cha tasodifiy hodisalari orasida bog'lanish borligini aniqlashdek antiqa masalaga bag'ishladi. Ma'lum bo'lishicha, Quyosh shamoli Yerga yetib kelgan kunlari avtomobillar bilan yuz beradigan halokatli hodisalar oddiy kunlarga nisbatan 3-4 baravar ortiq chiqadi. Biz Quyosh faolligining Yer iqlimi sharoiti, o'simliklar biologiyasi va bashqa jarayonlarga ta'siri muammolariga to'xtalmadik. Biroq ilk tekshirishlar Quyosh faolligi bu jarayonlarda ham o'z aksini topishini ko'rsatmoqda.

Quyosh faolligi Yerda o'zini quyidagi ikki xil nurlanishlar bilan bildiradi: elektromagnit ( to'lqin uzunligi 0,01 Å ga teng gamma nurlardan tortib to km. to'lqin uzunlikli radioto'lqinlargacha ) va korpuskulyar (energiyasi yuzdan to million ev.ga teng va 1 sm<sup>3</sup> hajmda bir necha o'n zarrali zichlikka ega zaryadlangan zarralar oqimi ). Zaralar yer tomon harakatida yo'llarida bir necha to'siqlarga duch keladilar, ulardan eng kattalari planetalararo fazoda va yer yaqinidagi magnit maydonidir. Bu maydon ularga turlicha ta'sir qiladi elektromagnit nurlanishlar yer atmosferasining yuqori qatlamlarigacha hech qanday qarshiliksiz yetib keladilar va shu yerda ular yutiladilar yoki o'zgartiriladilar. Yer sirtiga esa faqatgina quyosh radiatsiyasining yaqin ul'trabinafsha va spektrning ko'rinadigan qismigina yetib keladi. Bunday nurlanishlar intensivligi quyosh faolligiga bog'liq bo'lmay, spektrning juda tor qismi ( 1 mm dan to 30 m. gacha ) da juda kuchsizdir.

Bunday tur nurlanishlarning asosiy ta'sir ob'ekti bu Yerning neytral atmosferasi va radioto'lqinlar uchun o'ziga xos oyna bo'lgan ionosferadir.

Korpuskulyar nurlanishlarga kelganda ular planetalararo magnit maydoni va geomagnit maydonda shunday

darajada ta'sirga uchraydilarki, ular yer atmosferasiga tanib bo'lmas darajada yetib keladilar. Mana shundan so'nggina ular ionosfera zarralari va yerning neytral atmosferasi bilan ta'sirlashadilar. Yer atmosferasining yuqori qismlari juda osongina quyosh faolligiga beriladi, va natijada undagi yuz beradigan o'zgarishlarni quyosh faolligi indekslari orqali bevosita aniqlasa bo'ladi.

Yer atmosferasining pastki qismi bo'lgan va yerda ob-havo va iqlim o'zgarishlarining asosiy sababchisi bo'lgan troposferaga quyosh faolligining ta'siri butunlay boshqacha. Yaqin vaqtlargacha eng obro'li meteorologlar ham quyosh faolligining yerdagi ob-havoga hech qanday ta'siri yo'q deb kelganlar. Bu o'z navbatida quyosh diski bo'ylab faol sohalarning harakati yerning ixtiyoriy joyida, xohlagan vaqtda sodir bo'ladigan iqlim o'zgarishlari bilan bog'liqligi haqidagi nuqtai nazarga o'ziga xos reaksiya qildi. Bunday tushunchaga asosiy qarshi turgan argument bu Yer atmosferasining katta inertsiyaga egaligi va tashqi ta'sirlardan butunlay ajratilganligi, xususan quyosh faolligi singari kuchsiz elektromagnit ta'sirlar bunga sezilarli o'zgarish sodir qilolmasligi bo'ldi. Bundan tashqari doimiy aloqalarning noturg'unligi, ba'zan esa butunlay yo'qligi ham aniqlandi. Shunga qaramay Quyosh – troposfera muammolarini izchil analiz qilish, quyosh faolligi planetamiz atmosferasining pastki qismlariga ta'sir qilishi aniqlandi.

Quyosh faolligini yer biosferasiga ta'sirini o'rganish bundanda qiyin kechdi. Chunki haligacha Quyosh faolligining jonli organizmlar, shuningdek inson organizmi, hayvonot va o'simlik dunyosiga ta'siri to'g'risida yagona dunyoqarash mavjud emas. Shunga qaramasdan keyingi vaqtlarda olib borilayotgan kosmik tadqiqotlar va sinchkov kuzatish natijalari Quyosh faolligining biosferaga ta'siri mavjudligini ko'rsatmoqda. Bunday ta'sirlar bevosita yoki ob-havo va iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq holda sodir bo'ladi.

Nihoyat yer qarida bo'ladigan tektonik o'zgarishlar, yerning ichki tuzilishidagi o'zgarishlar ham quyosh faolligi bilan bog'liqligini ko'rsatdi.

Mana shu biz yuqorida sanab o'tgan ta'sirlarga asoslanib alohida-alohida holda quyosh faolligining planetamizning turli qismlariga ko'rsatadigan ta'sirlarini ko'rib chiqamiz.

Dastlab yer atmosferasining yuqori qismiga quyosh elektromagnit nurlanishlarining ta'sirini ko'raylik. Yuqorida aytilganidek bunday ta'sir avvalambor yer ionosferasiga ko'rsatiladi. 50 – 60 km balandlikdan to bir necha ming km. balandlikkacha ionlar va elektronlar sonining yetariligi elektromagnit nurlanishlarning tarqalishiga to'sqinlik qilish uchun yetarlidir. Atmosfera neytral zarralarini quyosh nurlanishlari ionlashtiradi va natijada undagi elektronlarning zichligi quyoshning gorizontdan balandligiga va 11 – yillik quyosh faolligiga, shuningdek sutka vaqti va yil mavsumiga bog'liq holda o'zgarib turadi. Odatda atmosferani to'rtta qatlamga bo'ladilar: D, E, F1 va F2. D qatlam 50-90 km balandlikda joylashgan bo'lib, uncha katta bo'lmagan elektronlar zichligiga va radioto'lqinlarni yetarlicha yutishi bilan xarakterlanadi. Bu qatlamning ionlanishi asosan quyosh nurlanishi bilan sodir bo'ladi. E soha 85 – 140 km balandlik bilan xarakterlanib, yuqori elektron zichlikka ega (5 10<sup>3</sup>-10<sup>4</sup> sm<sup>-3</sup> kechqurun va 1 10<sup>5</sup> – 4 10<sup>5</sup> sm<sup>-3</sup> kunduzi). Bu qatlamning ionlanishi asosan 8 – 10 intervaldagi rentgen nurlanishlari ta'sirida sodir bo'ladi.

E soha 85 – 140 km balandlik bilan xarakterlanib, yuqori elektron zichlikka ega (5 10<sup>3</sup>-10<sup>4</sup> sm<sup>-3</sup> kechqurun va 1 10<sup>5</sup> – 4 10<sup>5</sup> sm<sup>-3</sup> kunduzi). Bu qatlamning ionlanishi asosan 8 – 10 intervaldagi rentgen nurlanishlari ta'sirida sodir bo'ladi.

F1 va F2 qatlamlar mos ravishda 140 -230 km va 200 – 600 km balandliklarda joylashgan. F1 qatlamda yozda elektronlar zichligi 2 10<sup>5</sup> sm<sup>-3</sup>, qishda esa 4 10<sup>5</sup> sm<sup>-3</sup> ga teng va F2 sohada 2 10<sup>5</sup> sm<sup>-3</sup> va 2 10<sup>6</sup> sm<sup>-3</sup>. Bu sohalarni to'lqin uzunliklari 300 dan 910 oralig'ida bo'lgan ul'traqisqa nurlar ionlashtiradi.

E, F1 va ayniqsa F2 sohalarda elektronlar zichligi Vol'fa soni bilan xarakterlanuvchi quyosh faolligi darajasiga yoki 10,7 sm to'lqin uzunligidagi quyosh radionurlanish oqimiga kuchli bog'liq. Quyosh radionurlanishi 11 yillik quyosh faolligi tsiklining minimumdan maksimumga o'tishida 1,5 – 2 marta, 2,5 – 4 marta radioaloqa sharoiti ayniqsa qisqa va juda uzun to'lqinlarda o'zgaradi. Bu esa o'z o'rnida turg'un radioaloqa bilan ishlovchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega. 11 yillik quyosh faolligining maksimumi davrida radioaloqa sohasida nisbatan qisqa to'lqinlarning, faollikning minimumi davrida esa nisbatan uzun to'lqinlarning yutuvchi qatlamda ko'proq yutilishiga olib keladi. 11 yillik davrning maksimumi vaqtida E qatlamning pastki chegaralaridan qaytib tarqaladigan eng uzun to'lqinlarda radioaloqa yaxshilanadi. Chunki bu qatlamda elektronlar zichligining ortishi qatlamning qaytarish xususiyatini orttiradi.

Quyosh faolligining 11 yillik davri davomida radioaloqaning o'zgarishi bilan birga Quyosh elektromagnit nurlanishlarining atmosferaning yuqori qatlamlariga ta'siri natijasida qisqa to'lqinli radioaloqaning to'satdan uzilishi ham kuzatiladi. Bu hodisani hozir ionosferavi g'alayonlanish deyiladi. Bu jarayonning boshlag'ich davri bir necha minutdan bir necha soatgacha davom etadi. Ionosferaning to'satdan g'alayonlanishi ionosfera D

sohasini ionlanishini orttiradi, bunga asosiy sababchi quyosh chaqnashlaridan kelayotgan to'liq uzunligi 10 mm dan kichik bo'lgan rentgen nurlaridir. Bu holda ionlashishning ortishi uzun va o'ta uzun to'liqlar tarqalishiga ham ta'sir ko'rsatiladi va yer atmosferasida momoqaldiroqlarni yuzaga keltiradigan uzun radioto'liqlarning qaytishini kuchaytiradi.

Quyosh korpuskulyar nurlanishlarining atmosferaning yuqori qatlamlariga ta'siri yetarlicha murakkabroq. Quyosh zaralarining oqimi uchta tashkil etuvchiga ega: birinchidan bu quyosh shamoli zaryadlangan zarralarining oqimi. Ular nisbatan kichik energiyalar (500 – 2000 ev protonlar uchun, 0,3 – 1 ev elektronlar uchun) va yetarlicha katta tezliklarga (300 – 600 km/s) ega. Ikkinchidan quyoshning faol sohalardan, jumladan chaqnashlardan kelayotgan zaryadlangan zarralar oqimi. Kuchli chaqnashlardan kelayotgan protonlar energiyasi 20 kev gacha, elektronlarniki esa 10 ev gacha yetadi, tezliklari esa 3000 km/s. Chaqnash elektronlari energiyasi esa 10 – 1000 Mev va tezliklari 10 000 km/s dan to'ying'lik tezligigacha yetadi. Bunday oqimda zarralarning zichligi 1 sm<sup>3</sup> hajmda bir necha yuztani tashkil qiladi. Va nihoyat uchinchidan toj bo'shliqlari bilan bog'langan rekurrent unipolyar magnit sohalardan bo'ladigan zaryadlangan zarralar oqimi. Ularning energiyasi protonlar uchun 5000 ev va elektronlar uchun bir necha eV ga teng, tezliklari esa 1000 km/s va taxminan 1 sm<sup>3</sup> hajmda bir necha o'n zarra zichlikka ega.

Ta'kidlash joizki chaqnash protonlarigina yer atmosferasi ichkarisiga kirishga qodir. Quyosh korpuskulyar nurlanishining boshqa tashkil etuvchilari Yer magnit maydonida ushlanib qolmaslik uchun yetarli energiyaga ega emaslar, shu sababli yetarli energiyagacha tezlatilganlaridan so'nggina yer atmosferasining yuqori qatlamlariga kirib qoladilar.

Magnitosferaning quyoshga qaragan chegarasi o'rtacha 10–12 Yer radiusiga teng bo'ladi. Quyosh shamoli geomagnit maydonini o'tishda turg'un ta'sir to'liqini sodir qiladi. Ya'ni plazma va magnit maydonini turli xarakteristikalarini ajratuvchi fazo chegaralari hosil bo'ladi. Uning oldidan biror masofada magnitopauza hosil bo'lib, 100–200 km qalinlikda magnitosfera xizmatini bajaradi.

Yuqori elektr o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan, tovush tezligidan katta tezliklarda harakatlanayotgan quyosh zarralari oqimi geomagnit maydon bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Bunda ularda induksiya elektr toklari yuzaga kelib, ularning magnit maydoni geomagnit maydonni buzadi. Quyosh shamoli oqimi ichida geomagnit maydonni yo'qotib, oqim fronti oldida geomagnit maydonni kuchaytiradi. Natijada Yer o'z magnit maydoni bilan ichida joylashgan bo'shliq paydo bo'ladi. Bu bo'shliqqa magnitosfera deyiladi.

Quyosh shamolining geomagnit maydon bilan magnitogidrodinamik o'zaro ta'siri kuch chiziqlarining bir qismini kunduzgi tomondan kechqurungi tomonga "puflay" di, natijada magnitosfera dumi, yoki 1000 Yer radiusigacha chuzilgan geomagnit dumini hosil bo'lishiga olib keladi (2.2.1-chizma). Bu dumning kuch chiziqlari geomagnit ekvatorning ikkala tomonida qarama-qarshi yo'nalishga ega bo'ladi.

Ekvator yaqinida ular bir biriga juda yaqin, geomagnit ekvator yaqinida magnit maydon kuchlanganligi nolga yaqin va yo'nalishi geomagnit ekvatorga perpendikulyar bo'lgan neytral qatlam hosil qilib, hatto qo'shilib ketadi. Kunduzgi tomonning shimoliy va janubiy qutblarida "kunduzgi qutb kaslari" deb

yuritiluvchi yopiq voronkasimon Yer qalpoqchalarini hosil qiladi. Magnitosferaning neytral dumi qatlamida sodir bo'ladigan jarayonlar avroral deb ataluvchi hodisalarning butun boshli guruhlarini aniqlaydi. Bunday hodisalar asosan shimoliy va janubiy geomagnit qutblar yaqinida avroral ovallarda sodir bo'ladi. Bu qutb magnit bo'ronlari, qutb yog'dulari va ionosferaviy g'alayonlanishlar.

Magnit bo'ronlari geomagnit g'alayonlanish bo'lib 1-2 soat davom etadi, mahalliy vaqt bilan yarim tunga yaqin hosil bo'lgan va maydonning tartibsiz o'zgarishini o'zida jamlagan geomagnit maydon gorizont tal tashkil etuvchisida namoyon bo'ladi. Qutb yog'dulari yuqori kengliklarda sodir bo'lib, o'ziga xos ko'rinish kasb etadi. Ba'zan faollikning 11 yillik davri maksimumi vaqtida o'rta kengliklarda ham bunday ko'rinish kuzatiladi. Qutb yog'dularining ko'rinishi turli xil bo'lib, ularni taxminan to'rta sinfga ajratish mumkin: sokin birjinsli yoy yoki yullar, nurlar, dog'lar yoki aniq shaklsiz sirtlar, samoning ko'pgina qismini qoplaydigan bir jinsli yarqirashlar. Magnitosferaviy g'alayonlanishlar ham yuqori kengliklarda joylashgan o'lkalarda ionosferaviy g'alayonlanishlarni sodir qiladi. Bu magnitosfera dumidagi zarralar oqimining kirib kelishi natijasida kechqurunlari radioaloqaning to'la yo'qolishida nomoyon bo'ladi (2.2.3-chizma).

Quyosh shamoli katta tezlikli zarralari oqimining kirib kelishi natijasida sodir bo'ladigan avroral hodisalar (magnitosferaviy g'alayonlanish) janubiy tashkil etuvchilarga ega bo'ladi. Natijada geomagnit maydon kuch chiziqlarining qayta qo'shilishi magnitosfera dumiga "ko'chiriladi" va u yerda ular yaqinlashib, noturg'un magnit maydon kuchlanganligini ortishiga olib keladi. Dumda qarama-qarshi yo'nalgan kuch chiziqlarining qayta qo'shilishi sodir bo'lib, ular Yer tomonga siljiydi. Ular o'zlariga geomagnit dumning plazmatik qobig'ini

to'ldiruvchi plazmani ergashtiradilar. Zaryadlangan zarralar yopiq va ochiq kuch chiziqlari yo'nalishida tezlashib, avroral o'raga keladilar. Dumning kuchsiz magnit maydonli sohasidan yopiq magnitosfera yaqinida kuchli sohaga ko'chishida zarralar teshlashadilar. Juda katta tezlanishga ega bo'lgan zarralar yopiq magnitosferaniuzib, magnit bo'ronlari bosh fazasi vaqtida geomagnit maydonni kuchsizlanishiga olib keladigan aylanma elektr tokini yuzaga keltiradi. Avroral bo'shliqda bu zarralar ionosferaning ionlanishini orttiradilar. Bu ionosferaning o'tkazuvchanligini keskin orttirib, Ionosfera pastki qatlamlarida radioto'lqinlarning yutilishiga olib keladi. Natijada magnit maydoni Yer sirtida kuchlanganligi qayd qilinuvchi ionosfera elektr toki hosil bo'ladi. Mana shunday ionosfera pastki qatlamlarida g'alayonlanishlar va magnit bo'ronlari sodir bo'ladi. Vanihoyat avroral zarralarning havo atom va molekulari bilan to'qnashishi natijasida ularni chaqnatadi, ya'ni qutb yog'dularini hosil qiladi.

Shu vaqtgacha biz qutb magnit bo'ronlari haqida so'zladik. Balki magnit bo'ronlari yer sharining barcha qismlarida sodir bo'ladi, faqatgina uning namoyon bo'lishi yer sharining turli qismlarida turlicha bo'ladi. Kichik va o'rta kengliklarda oddiyroq xarakter kasb etadi. Bu yerlarda geomagnit maydon gorizont tal tashkil etuvchisining pasayishi sodir bo'ladi. Bu magnit bo'ronlarining bosh fazasi bo'lib, so'ng sekin asta geomagnit maydonni meyor darajasigacha ortishi boshlanib, u bir necha sutkagacha davom etadi. Kuchli magnit bo'ronlari vaqtida esa geomagnit maydon gorizont tal tashkil etuvchisining bir necha bor yo'qolishi sodir bo'lib, har bir yo'qolishning boshlanishi oldingi yo'qolishning qayta tiklanishi bilan boshlanadi. Ba'zan geomagnit maydon gorizont tal tashkil etuvchisining yo'qolishi oldidan uni ortishi kuzatiladi. Bunday hodisa magnit g'alayonlanishining tasodifan boshlanishi deyiladi. Magnit g'alayonlanishlarining bunday ikki turga bo'linishi agarda chaqnashli faol sohalardan sodir bo'lgan kuchli magnit bo'ronlarini alohida va toj bo'shliqlaridan korpuskulyar nurlanishlar hosil qilgan rekurrent magnit bo'ronlarini alohida qaralsa bu hodisa yanada aniqroq ravshanlashadi. Chaqnash magnit bo'ronlaridan farqli, rekurent bo'ronlar bir necha kunli quyosh aylanishlarida 27–kunli quyosh kalendari davomiyligi bilan takrorlanadi. Agar Vol'fa soni 11 –yillik tsiklida birinchi son maksimal qiymatga erishsa, ikkinchi maksimal son uning tushish davrida minimum davridan 2-3 yil ilgani kuzatiladi.

Endi quyoshda proton chaqnash natijasida undan ajralayotgan nisbatan energiyasi ortiqroq bo'lgan protonlarning otilishi yuqori yer atmosferasiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'raylik. Bunday zarralar yuqori kengliklarda qisqa to'lqinli aloqa uchun xavfli bo'lgan ionosferaning qo'zg'alishiga olib keladi. Bu hodisaga qutb qalpoqchasida yutilish deyiladi. Odatda bunday g'alayonlanishlar quyoshda kuchli chaqnash sodir bo'lgandan so'ng 1-2 sutkadan so'ng sodir bo'ladi va uning tiklanishi 10 sutkagacha davom etadi. Bunday kuchli chaqnashlar protonlari qarshiliksiz ionosferaning D qatlamigacha o'tib, bu yerda zarralarning to'qnashish chastotalari yuqori bo'ladi, shu sohada radioto'lqinlar yutilishi ortadi. Natijada radioto'lqinlar intensivligi pasayadi va qatlamning qizishi ortadi. Qutb qalpoqchasida yutilish, shimoliy muz okeani va Antarktida ustida qisqa to'lqinlarda radioaloqaning to'la uzilishiga olib keladi. Quyosh faolligining er atmosferasining yuqori qatlamlariga ko'rsatadigan ta'sirlari to'la aniq namoyon bo'lsa, uning atmosferaning pastki qatlamlariga ko'rsatadigan ta'sirlari yetarlicha qiyinroq ko'rinadi. Bunga sabab quyosh faolligining troposferadagi jarayonlarga ta'siri juda kam kuzatiladigan jarayon bo'lib, bunday hodisalar katta energiyali quyosh protonlari yer atmosferasi ichkarisiga o'tgandagina sodir bo'ladi. Umuman olganda uning ta'siri atmosferaning yuqori qatlami orqali amalga oshiriladi, qaysiki troposfera unda sodir bo'ladigan turg'un hodisalarga o'rganib qolgan bulib, uni bu holatdan chiqarish uchun kattagina kuch kerak bo'ladi. Buning natijasida qo'lga kiritiladigan samara ham atmosferaning yuqori qatlamlarida kuzatiladigan hodisalarga nisbatan oddiyroq bo'ladi. Ayniqsa korpuskulyar quyosh nurlanishlari sodir qiladigan faollik ta'siridagi g'alayonlanishlar ham, yerning turli yerlarida turlicha natijalarni beradi va ularning xarakteri vaqt bo'yicha va yil mavsumiga ko'ra o'zgaradi. Quyosh faolligining atmosferaning pastki qatlamlariga ko'rsatadigan sezilarli ta'sirliridan biri bu troposferadagi umumiy tsirkulyatsiyaga ko'rsatiladigan ta'sirlardir. Bu ta'sirlar asosan turli tsikllar fazalariga bog'liq holda tsirkulyatsiya jadalligining o'zgarishida seziladi. Ayniqsa bunday o'zgarishlar 11 -yillik davrning maksimumi chog'ida kuchayadi. Bunday hodisalardan eng ko'p o'rganilgani quyosh faolligi natijasida tsiklonlarning chuqurlashuvi va antitsiklonlarning kuchayishidir. Quyosh faolligi darajasining o'zgarishi asosiy meteorologik elementlarning: harorat, bosim, momoqaldiroqlar soni, har xil yog'ingarchiliklar va ular bilan bog'liq gidrologik hodisalar: daryo va ko'llar sathining o'zgarishi, yer osti suvlari, sho'rlanganligi, okeanlarning muzlashi, daraxtlardagi halqalar soni, va hokazo shunga o'xshashlar o'zgarishiga olib keladi.

Yer sharining ba'zi yerlarida iqlim o'zgarishlarini o'rganish ko'rsatadiki faollikning 11 yillik

davri havo harorati, bosimi va turli xil yog'ingarchiliklarga sabab bo'lar ekan. Ammo yerning boshqa bir qismlarida 22 yillik davr sezilarligina ta'sir ko'rsatadi. Masalan: Qozog'istonda sodir bo'ladigan kurg'oqchilik faolligining 11 yillik davriga to'g'ri kelsa, Shimoliy Amerikada 22 yillik davrga to'g'ri keladi. Troposferik jarayonlardagi 22 yillik davrni 11 yillik davrning juft tushishlari kuzatiladigan kuchli rekurrent magnit g'alayonlanishlarga bog'liq holda qarash mumkin. Yoki toq tsikllar maksimumi yaqinida kuchli chaqnash qo'zg'alishlari bilan bog'liqlikda qarash mumkin. Shuning uchun 11 yillik davrda troposferada kuzatilmagan biror bir hodisa faollik bilan bog'liq emasligidan dalolat berolmaydi. Ba'zi bir rayonlarda faollikning 5 – 6 yillik davrida magnit g'alayonlanishlari kuzatiladi. Bu davr asosan geomagnit g'alayonlanishning yuqori darajasiga to'g'ri keladi. Planetamizda iqlim o'zgarishlari ayniqsa faollikning 80 – 90 yillik davrida juda sezilarli bo'lib qadi.

Ma'lumki tirik organizmlar jumladan inson organizmi ham tashqi o'zgarishlarga moslashish xususiyatiga ega. Bu fikrimiz albatta sog'lom organizm uchungina o'rnlidir. Nosog'lom organizmlarning tashqi o'zgarishlarga moslashish xususiyatlarini susayishini rad qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari tashqi sharoitlar quyosh faolligi ta'sirida tez tez o'zgarib turadi.

Quyosh faolligi biosferaga meteorologik sharoitlar orqali yoki to'g'ridan to'g'ri magnitosfera orqali ta'sir qiladi.

Bunday ta'sirlardan birinchisi 11 yillik quyosh faolligi vaqtida hashorot va hayvonlar sonining ortishida kuzatiladi. Ko'pchilik hollarda hayvonlar kasallik tashuvchi sanalganligi sababli quyosh faolligi epidemologik kasalliklarda seziladi. Epidemologik kasalliklarning rivojlanishi nafaqat quyosh faolligining troposferaga ta'siri orqali amalga oshadi balki to'g'ridan to'g'ri biosferaga ta'siri orqali ham seziladi.

Quyosh Yer ta'sirlirining ikkinchi guruhiga birinchi navbatda uning inson organizmiga ta'sirida ko'rinadi. Tasodifiy o'limlar sonida, yurak-qon tomir kasalliklarining zo'riqishi bilan quyosh faolligi va geomagnit g'alayonlanishlar ning o'zaro bog'liqligini allaqachon mediklarimiz aniqladilar. Ayniqsa bunday hodisalar quyosh faolligining keskin o'zgarishida yaqqol seziladi.

Bu holda meteorologik faktorlar asosiy rol o'ynamasa ham bir muncha ta'sirga ega. Shu munosabat bilan kolloid sistemalar geomagnit maydon ta'sirida noturg'un muvozanat holtida bo'ladi. Qon va butun tirik organizm fiziko – kimyoviy nuqtai nazardan kolloid sistema hisoblanib, quyosh faolligining yurak – qon tomir sistemasini faoliyatini izdan chiqaradigan ta'siri yana bir bor tasdiqlanadi.

Yurak-qon tomir kasalliklarining quyosh faolligi bilan bog'liqligini tasdiqlovchi tajribalar qonuniy xususiyatlari: leykotsitlar soni, quyuvlanish tezligi va h.k o'rganish ko'rsatdi. Bunday hodisalarning quyosh faolligi ta'siriga uchrashining yana bir yorqin misoli Yer sharining barcha yerlarida bir xilda kuzatilishidir. Nerv sistemasi holatiga quyosh faolligining ta'siri ayniqsa sezilarlidir. Ayniqsa yo'l transport hodisalarining soni, haydovchilar rektsiyasi tezligi bilan quyosh faolligining o'zaro bog'liqligida yaqqol ko'rinadi

Keyingi yillarda insonlarning ijodi faoliyatiga ham quyosh faolligining ta'siri mavjudligi aytilmoqda. Hozircha quyosh faolligining biosferaga ta'siri sabablari sifatida magnit maydoni tebranishlari, aniq chastotali radionurlanishlar va ul'ratovushlar ta'sirida jonli organizmlar, jumladan inson organizmida rezonans sodir bo'lishini qarash mumkin.

Natijalar.

Quyosh faolligining insonlarga ta'siri. Keyingi vaqtlarda quyosh faolligi, magnit bo'ronlari va ularning insonlarga ta'siri to'g'risida tez tez gapiriladigan bo'ldi. Quyosh faolligining ortishi bilan insonlar salomatligiga ko'rsatiladigan ta'sirning har bir inson uchun naqadar dolzarbligini aytmasa ham bo'ladi.

Yerda bo'layotgan barcha hodisalar uning asosiy energiya manbai bo'lgan quyosh bilan uzviy bog'liqligi to'g'risida oldin ham aytgan edik. Sokin quyosh butun rentgen nurlanishlari, ul'trabinafsha to'lqinlarda, ko'rinadigan nurlarda, infraqizil nurlarda, radiodiapozon nurlarida elektromagnit nurlanishlarning vaqt buyicha doimiylikda xarakterlanadi. Shuningdek planetalararo fazoda quyosh tojlari plazmasi hisoblanadigan quyosh shamolining – elektronlarning kuchsiz oqimi, protonlar, geliy atomi yadrolarining vaqt bo'yicha doimiyliigi ham sokin quyoshni ifodalaydi.

Planetalarning magnit maydoni (jumladan yerniki) quyosh shamolidan himoya hisoblanib, zaryadlangan

zarralar esa yer magnitosferasi ichkarisiga o'tish xususiyatiga ega. Bu asosan ikkita "voronkaga" ega bo'lgan katta kengliklarga xosdir: biri yerning janubiy yarim sharda bo'lsa, ikkinchisi Shimoliy yarim sharda. Bu zaryadlangan zarralarning atmosfera atom va molekullari bilan to'qnashishi natijasida gazning nurlanishini sodir qiladi, unga Qutb yog'dulari deyiladi.

Shu zarralar olib kelayotgan energiya yer shari bo'ylab turli jarayonlarga taqsimlanadi, natijada atmosfera va ionosferaning turli kenglik va uzunliklarida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bunday o'zgarishlar yuqori kengliklardagi o'zgarishlarga nisbatan bir oz kechroq turli kengliklarda turli vaqtlarda sodir bo'ladi.

Quyoshning to'lqin nurlanishlar 300 ming km/s tezlik bilan tarqalib yerga 8 minutda etib keladi. Atmosfera gazlarining atom va molekullari bunurlanishlarni yutib va quyoshning to'lqin nurlanishlarini tanlab sochib boshlaydi. 11 yillik davr bilan quyosh faolligining kuchayishi chog'ida turli chastotalarda quyoshning to'lqin nurlanishlari ham kuchayib, quyosh atmosferasidan planetalararo fazoga energiyasi quyosh shamoli zarralari energiyasidan anchagina katta bo'lgan elektronlar, protonlar, geliy atomi yadrolari oqimi otilib chiqadi. Bu zarralar oqimi planetalararo fazoda xuddi porshenga o'xshash tarqaladi. Biroz vaqtdan so'ng (12 – 24 soat) bu porshen yer orbitasiga kirib keladi. Bu bosim ta'sirida yerning kunduzgi tomonida yer magnitosferasini 2 baravarga va undan ham ortiq marta qisiladi va u yer magnit maydon kuchlanganligini ortishiga olib keladi. Mana shu yo'sinda dunyo magnit g'alayonlanishlari boshlanadi.

Magnit maydonini ortish davri magnit g'alayonlanish deb yuritilib, 4-6 soatgacha davom etadi. So'ngra magnit maydoni meyor darajasigacha pasayib, quyosh korpuskulyar oqim porsheni magnitosfera chegaralaridan chiqadi, magnitosfera ichida esa magnit maydon kuchlanganligini kamayishiga olib keladi.

Magnit maydon kuchlanganligining kamaygan davri dunyo magnit bo'ronlarining bosh fazasi bo'lib, 10–15 soatgacha davom etadi. Magnit g'alayonlanishning bosh fazasidan so'ng qayta tiklanish davri boshlanib, yer magnit maydoni o'zining oldingi qiymatiga erishadi. Turli rayonlarda magnit maydon g'alayonlanishlari turlicha kechadi.

Keyingi yillarda aniqlanishicha insonlarga quyosh korpuskulyar nurlanishlar oqimi ta'sirida yer magnitosferasi o'zgarishiga olib keladigan turli kosmik faktorlar ta'sir etadi. Ayniqsa:

1. Juda past chastotali akustik tebranishlar sanalgan, infratovushlar. Ular yuqori kengliklarda qutb yog'dulari sohasida hosil bo'lib, barcha kenglik va uzunliklarga tarqaluvchi ulkan hodisa hisoblanadi. Dunyo magnit bo'ronlari boshlanishidan 4 – 6 soat o'tgach o'rta kengliklarda tebranishlar amplitudasi bir tekis ortib boradi. Maksimumga erishgandan so'ng bir necha soat davomida u sekin kamayib boshlaydi. Infratovushlar faqatgina qutb yog'dulari vaqtida ishlab chiqarilmasdan, yer qimirlashlari, bo'ronlar, vulkan otilishlarida ham hosil bo'lib atmosferada bu tebranishlarning doimiy foni saqlanadi, magnit g'alayonlanishlari natijasida hosil bo'lgan tebranishlar qo'shiladi.

2. Yer magnit maydonining mikropulsatsiyasi va qisqa davrli tebranishlari. (bir necha gerts chastotadan bir necha kgts chastotagacha). 0.01 dan to 10 Gts chastotali mikropul'satsiyalar biologik sistemalarga ta'sir qiladi, xususan insonlarning nerv sistemasiga (2–3 Gts) ta'sir qilib, qo'zg'altiruvchi signalga nisbatan reaksiya vaqtini orttiradi, uning psixikasiga ta'sir qilib (1 Gts), qisilish, qo'rqish va vahimaga tushishni orttiradi. Kasallanish sonining ortishi va yurak qon-tomir sistemasi tomonidan og'irlashtirishni ham u bilan bog'laydilar.

3. Yuqori kengliklarda tezkor zarrachalar oqimining ta'siri natijasida ozon qatlamining o'zgarishi natijasida yer sirtiga etib keladigan ul'tra binafsha nurlanishlar intensivligining o'zgarishi.

Quyoshdan otilib chiqadigan oqim juda xilma-xildir. Bu oqim bosib o'tadigan planetalararo fazo ham turlicha sharoitga ega bo'lgani uchun qat'iy bir xil magnit bo'ronlari mavjud emas. Har birining o'ziga xos yuzi mavjud bo'lib, nafaqat kuchi va intensivligi bilan farqlanadi balki alohida jarayonlarning rivojlanishi bilan ham farqlanadi.

Quyosh faolligining kasallanishlarni kelib chiqishiga ta'sirini o'tgan asrning 20– yillardayoq A.L. Chijevskiy tomonidan aniqlangan edi. Uni geliobiologiya fanining asoschisi deyiladi. Shundan buyon o'tkazilgan ko'pgina tajribalar, to'planilgan ilmiy asoslar magnit bo'ronlarining inson salomatligiga ta'sirini tasdiqladi. Kasallar holatining yomonlashuvi birinchidan quyosh chaqnashidan so'ng darhol



sezilsa, ikkinchidan magnit g'alayonlanish boshlanishi bilan boshlanadi. Chunki quyosh chaqnashi sodir bo'lgandan taxminan 8 minut o'tgach uning yorug'ligi (shuningdek rentgen nurlanishlari) yer atmosferasiga yetib kelib, organizmlarning normal faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan jarayonlarni keltirib chiqaradi va taxminan bir sutkadan so'ng esa yer magnitosfera bo'ronlari boshlanadi.

Magnitosfera bo'ronlari ta'siriga uchraydigan kasalliklar ichida, yurak qon – tomir kasalliklari etiborli bo'lib, ularning quyosh va magnit faolligi bilan bog'liqligi aniqroq. Yurak qon-tomir kasalliklarining soni va og'irlik darajasi bilan turli tashqi faktorlarning (atmosfera bosimi, havo harorati, yog'ingarchiliklar, bulutlilik darajasi, ionizatsiya, radiatsion rejim va shunga o'xshashlarni qiyosiy taqqoslamasi o'tkazildi. Bunda yurak qon – tomir kasalliklarining xromosferaviy chaqnashlar va geomagnit g'alayonlanish bilan turg'un va aniq bog'liqligi aniqlandi.

Magnit g'alayonlanish chog'ida kasallar holatining yomonlashuvining sub'ektiv simptomlari ko'rinadi, arterial bosimning ortishi, manfiy dinamik EKG beruvchi qon aylanish sistemasining yomonlashuvi ham kuzatildi. Izlanishlar ko'rsatadiki quyoshda chaqnash sodir bo'lgan kuni infarkt miokard bilan kasallanish ortadi. U chaqnashdan keyingi kuni o'zining eng maksimumiga yetadi (oddiy kunlarga nisbatan kasallanish 2 baravarga ortadi). Shu kunning o'zida chaqnash oqibatida magnitosferaviy g'alayonlanishlar boshlanadi.

Yurak ritmini o'rganishlar kursatadiki yer magnit maydonidagi kuchsiz g'alayonlanishlar yurak ritmidagi o'zgarishlar sonini orttirmaydi. Kuchli geomagnit bo'ronlar vaqtida esa yurak ritmining buzilishi tez tez kuzatiladi.

Gipertonik kasalliklarni kuzatish shuni ko'rsatadiki ko'pgina kasallar geomagnit g'alayonlar boshlanishidan hatto bir sutka ilgari uni sezib boshlaganlar. Boshqa kasallar esa geomagnit bo'ronlar boshlanish chog'ida, yoki uning o'rtasida yoki oxirida o'zlarini his qilishlari yomonlashishini sezganlar. Bo'ronlarning boshlanishidan to uning davom etish vaqtigacha sistologik bosim 10 – 20 % ga ortganligi kuzatilgan, ba'zida oxirida yoki u tugagandan so'ng bir sutka davomida sistologik va distologik arterial bosimning ortishi kuzatilgan. Faqatgina bo'ronlar tugagandan keyin ikkinchi sutkada kasallarning arterial bosimlari turg'unlashib boshlagan.

Izlanishlar ko'rsatadiki magnit bo'ronlari boshlanish davrida ayniqsa kasallarga kuchli ta'sir etadi. Ko'pgina meditsinaviy ma'lumotlarni analiz qilish magnit g'alayonlanish vaqtida kasallarning sog'ligining yomonlashuvi mavsumiy xarakter kasb etadi: bahorgi teng kunlik vaqtida kasallar holati eng katta ta'sirga uchraydi. Unda qon - tomir halokatlari va og'irlashuvi ortadi (xususan infarkt va infarkt miokardu).

Shuningdek quyosh faolligi bilan insonlar organizmining onkologik kasalliklar bilan bog'langan boshqa qismlari faoliyati ham buziladi. Xususan bir quyosh faolligi tsikli davomida rak bilan kasallanish ortadi. Quyosh faolligining pasayishi vaqtida esa turli xil shishlar bilan kasallanish ortishi kuzatilgan. Rak bilan kasallanishning eng ortishi sokin quyosh davriga to'g'ri kelsa, faolligining eng maksimumida eng kam rak kasalliklari qayd qilingan. Bu kadifferentsiialli hujayra elementlariga, shuningdek rak hujayralariga quyosh faolligining tormozlovchi ta'siridir.

Magnit bo'ronlari vaqtida muddatidan ilgari tug'ilishlar boshlansa, bo'ronlar oxirida tezkor tug'ilishlar soni ortadi. Olimlarimiz quyosh faolligi vaqtida tug'ilgan chaqaloqlarda konstitutsion qobiliyatlarining ko'proq namoyon bo'lishi kuzatilgan.

Turli mamlakatlardan olingan ko'pgina aniq faktlar shu narsani ko'rsatadiki baxtsiz hodisalar va yo'l transport hodisalarida jarohat olishlar soni quyosh va magnit bo'ronlari vaqtida ortishi, markaziy nerv sistemasi faoliyatining buzilishi bilan tushintiriladi. Bunda tashqi yorug'lik va tovush signallarini qabul qilib unga javob qaytarish vaqti ortadi, tormozlanish, sekinlilik paydo bo'lib, fikrlash yomonlashadi, nojo'ya qarorlar qabul qilish ortadi.

Shuningdek psixologik kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni quyosh va magnit g'alayonlanishlariga reaksiyalari o'rganilindi. Shu narsa aniqlandiki yuqori quyosh faolligi vaqtida maniakal faza ortgan bo'lsa, uning past bo'lgan vaqtida depressiv faza ortgan. Psixologik davolash bilan yerning g'alayonlangan magnit maydoni orasida kuchli bog'liqlik borligi aniqlandi. Faollik chog'larida suitsida hodisalar soni ortishi kuzatildi.

Ta'kidlab o'tish kerakki sog'lom va kasal organizm kosmik va geofizik sharoitlarning o'zgarishini turlicha qabul qiladi. Kosmik va geofizik sharoitlarning o'zgarishi kasallarda kuchsizlanish, charchash, emotsional noturg'unliklar bilan xarakterlanib, organizmning turli fiziologik sistemalarining energetik ko'rsatgichlari, immunologik himoyasi yomonlashadi va psixik kuchlanish paydo bo'ladi. Psixologik va fizik sog'lom organizm esa tashqi o'zgargan sharoitga mos o'zining ichki jarayonlarini moslashtirishga harakat qiladi. Bunda immunisistema jadallashib, nerv jarayonlari va endokrin sistemalar qayta moslashadi: ishlash jarayoni saqlanadi yoki hattoki ortadi ham. Sog'lom organizmda o'zini his qilishi yaxshilanib, kayfiyati ko'tariladi.

Kosmik va geofizik g'alayonlanishlar davrida psixoemotsial o'zgarishlarni qaramoqchi bo'lsak, fikrlash va psixoemotsial holatni boshqarish aspektini ko'rsatish zarur. Ilmiy ishlarga psixoemotsial moslashish tabiiy faktorlarning ekstremal ta'sirlarini yengil o'tkazishga imkon yaratuvchi organizm ichki imkoniyatlari faolligi tezlatgichi hisoblanadi. Ko'pgina davr olimlarini kuzatish ko'rsatadiki ijodiy yuksalish chog'ida harqanday kasallik keltirib chiqaruvchi tashqi faktorlar ta'siriga organizm kam ta'sirchan bo'ladi.

Quyosh faolligining yosh bolalarga ta'siri. Ma'lumki har qanday tashqi kuchlanish yosh bolalarda katta psixologik, emotsional va fizikaviy kuchlanishlarga sababchi bo'ladi. Kosmik va geofizik ekstremal holatlarda avvalambor bola energetikasi jabr ko'radi, nerv, endokrin, yurak qon – tomir, nafas olish va boshqa sistemalar tomonidan funktsional buzilishlar tez kuzatiladi. Bola ishdahasi yo'qoladi, uyquning buzilishi va xavotirlanish boshlanadi. Ba'zan esa uning harorati ham ko'tarilib turadi. Ekstremal holat tugashi bilan barcha o'zgarishlar me'yor darajasiga kelib, bunda yangi kasallikdan xavotirlanib uni davolashga kirishish yaramaydi. Geomagnetik holat o'zgarishlari ta'siriga beriluvchan bola organizmini har qanday dorilar bilan davolashga kirishish yaramaydi, aksincha kutilmagan salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Bunda bolaga faqat yaqinlarining e'tiborlari zarur bo'ladi. Bu vaqida bolalar maktab ishlarini juda sekin bajaradilar, ularning diqqatlari buziladi, ba'zan agressivlashadilar va tez achchiqlari chiqadigan bo'lib qoladilar. Geomagnetik faollikning yangi o'quv yilining boshlanishi bilan rivojlanishi yana yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Bunda bolalarda maktab materiallarini faqatgina mexanik yodlash emas, balki ijodiy fikrlab o'rganish ixtiyori ortadi.

Geomagnetik maydon g'alayonlanishlari ta'sirini insonlar sezuvchanligi individual xarakter ham kasb etadi. Quyosh atirligi vaqtida tug'ilgan odamlar magnet bo'ronlariga nisbatan kam ta'sirchan bo'ladi. Borgan sari ko'pgina ma'lumotlar onada homilaning rivojlanish vaqtida tashqi faktorlarning ta'siri, ona organizmidagi o'zgarishlar, u yoki bu turdagi ekstremal o'zgarishlarga nisbatan turg'unligini va ba'zi bir kasalliklarga nisbatan chidamligini ta'minlaydi. Bu shuni kursatadiki kosmik, geofizik va boshqa faktorlar, ularning o'zaro munosabati va ularning bolali ona organizmiga ta'sir ritmi har birimiz organizmimizdagi ichki biologik soatni zaryadlaydi.

Keyingi 170 yil mobaynida quyosh faolligini analiz qilish 11 yillik tsiklning maksimumi 2001 yilda kuzatilgani ular ichida eng kuchlisi hisoblanadi. Shu sababli olimlarimiz kosmik ta'sirlarning biosferaga ta'siri 2000 – 2001 yillar, 2004 – 2006 yillarda ortishi natijasida yerning seysmologik holati kuchayishi to'g'risida taxmin qilishga asos bo'ldi.

Xulosalar.

Quyosh yerni faqat yoritibgina qolmasdan uni isitadigan, busiz nafaqat yerda inson hayotining mavjudligiga emas, balki mikroorganizmlarning mavjudligiga ham o'rin qolmaydi.

- Quyosh yerda sodir bo'layotgan barcha jarayonlarning asosiy dvigateli hisoblanib, nafaqat u yerga yorug'lik va issiqlik orqali ta'sir qiladi balki turli xil elektromagnet nurlanishlar va zarrachalar oqimi bilan yerdagi hayotga doimiy ta'sir ko'rsatiladi,

- Quyosh yerga elektromagnet to'lqinlar shkalasining bir necha km uzunlikli radioto'lqinlaridan tortib, gamma nurlargacha bo'lgan nurlar yuboradi,

- shuningdek yer atrofiga turli xil energiyali ham yuqori, ham past energiyali (quyosh kosmik nurlari), past va o'rta energiyali (quyosh shamoli oqimi) zayadlangan zarralar ham etib keladi,

- quyosh juda katta energiyali elementar zarralar oqimi – neytrinolarni ham nurlaydi. Ammo ularning

yerga ta'siri sezilarsiz bo'lib, bunday zarralar uchun yer shari shaffof sanaladi va yer orqali ular bemalol o'tadilar.

- planetalararo fazodan zaryadlangan zarralarning juda kamchilig qismi Yer atmosferasiga o'tadilar (qolganlari geomagnit maydon ta'sirida yoki qaytadilar yoki ushlanib qoladilar). Ularning energiyasi yer magnit maydonini qo'zg'atishga yoki qutb yog'dularini keltirib chiqarish uchun yetarlidir,

- bunday o'zgarishlarning barchasi planetamizning ham jonli, ham jonsiz mavjudotlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi,

- quyosh faolligining asosiy ko'rsatgichlaridan biri quyosh fotosferasidagi ko'rinadigan qora dog'lar bo'lib, ular soni va geliografik joylashuvi faollikning yuqori yoki pastlik darajasini belgilaydi.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. CHijevskiy A.A. V ritme Solntsa. - Moskva: Nauka, 1969.- 112 s.
3. Narzullaev M.N. Astronomik taqvim. Durdon nashriyoti-2016 136 b.
4. Narzullaev M.N ekologik talim va tarbiya samaradorligini orttirishda astronomiya darslarining o'rni. Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari. b.204 Buxoro 2013 yil.
4. Narzullaev M.N, Roziqov T.Q. "Quyosh-yer aloqalari" uslubiy qo'llanma XS po eZ i ISAL i PK matbaa bo'limi Samarqand 2014 yil 42 bet
5. Narzullaev M.N. Ispol'zovanie astronomicheskix znaniy v formirovanii ekologicheskoy kul'turi studentov // Mejdunarodniy akademicheskij vestnik Nauchnij jurnal. 45:1 (2020). S. 64.
6. Narzullaev M.N. Rol' astronomii v povishenii effektivnosti ekologicheskogo obrazovaniya. Materiali respublikanskoy nauchnoprakticheskoy konferentsii. s.204 Buxara 2013
7. <http://www.ziyonet.uz>.
8. <http://meteocenter.net/sitemap.htm>
9. [http:// www. elementy.ru/](http://www.elementy.ru/)
10. <http://www.meteoinfo.ru/climate>
11. [http:// www .astronet.ru/](http://www.astronet.ru/)

## BO'LAJAK O'QITUVCHILAR TYUTORLIK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHLARIDA MUHIM SHAKL VA VOSITALARI

Narzulloyev Yashin Uchqun o'g'li

Navoiy davlat pedagogika instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi, tayanch doktoranti (Phd)

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada tyutorlar faoliyatida qo'llaniladigan shakl va vositalar xorij tajribasi asosida tahlil qilindi. Tyutor talabalar bilan ishlashda qo'llashi mumkin bo'lgan texnologiya va usullar o'rganildi. Bular Case learning" (amaliy vaziyatlar tahliliga asoslangan o'qitish usuli); "Portfolio" (ta'lim natijalarini taqdim etish usuli); "Munozara" (ommaviy muhokamani tashkil etish usuli). Tyutor ish shakllari - konsultatsiyalar, individual va guruhli o'quv mashg'ulotlari (seminarlar), tarbiyaviy tadbirlar, treninglar talabalarning yoshi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda qo'llanilishi pedagogik-psixologik jihatdan ko'rib chiqildi.

*Kalit so'zlar:* tyutor, tyutorlik, tyutorlik texnikasi, tyutorlik faoliyati metodlar, tyutorlik faoliyat vositalari, tyutorlik ishi.

## ВАЖНАЯ ФОРМА И ИНСТРУМЕНТЫ ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ОСУЩЕСТВЛЕНИИ ТЬЮТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Яшин Нарзуллоев Учкуневич

Преподаватель кафедры «Педагогика и психологии» Навоийский государственный педагогический институт, докторант (Phd)

*Аннотация.* В данной статье на основе зарубежного опыта проанализированы методы и инструменты, используемые в деятельности репетиторов. Изучены технология и методы, которые может использовать тьютор в работе со студентами. Это «Case Learning» (метод обучения, основанный на анализе практических ситуаций); «Портфолио» (метод презентации результатов обучения); «Дискуссия» (метод организации публичного обсуждения). Педагогически и психологически рассмотрены формы работы тьютора – консультации, индивидуальные и групповые занятия (семинары), образовательные мероприятия, тренинги с учетом возраста и возможностей обучающихся.

*Ключевые слова:* тьютор, тьюторство, приемы тьюторства, методы тьюторства, средства тьюторства, тьюторская работа.

## IMPORTANT FORM AND TOOLS FOR FUTURE TEACHERS IN IMPLEMENTING TUTORING ACTIVITY

Yashin Narzulloyev Uchkunovich

Teacher of "Pedagogy and Psychology" Department, PhD student of Navoi state pedagogical institute

*Abstract.* In this article, the methods and tools used in the activities of tutors were analyzed on the basis of foreign experience. The technology and methods that the tutor can use in working with students have been studied. These are Case learning» (a teaching method based on the analysis of practical situations); «Portfolio» (a method of presenting educational results); «Discussion» (a method of organizing a public discussion). Tutor forms of work - consultations, individual and group training sessions (seminars), educational events, trainings, taking into account the age and capabilities of students, were considered pedagogically and psychologically.

*Key words:* tutor, tutoring, tutoring techniques, tutoring methods, tutoring tools, tutoring work.

*Kirish.* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi [1] farmoni hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining shu asosda 2021 yil 30 sentabrda qabul qilingan buyrug'i va nizomi [2] asosida Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik tizimi joriy qilindi. Tyutorlik tizimida oliy ta'lim dargohlaridan jamiyat uchun kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislar tayyorlash zamon talabiga mos, irodali, har tomonlama mulohazali, bunyodkorlik g'oyasiga sodiq yosh kadrlarni tarbiyalash tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakl va vositalari asosida talaba shaxsini rivojlantirish, ularni ta'lim muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb

etish hamda muammo va kamchiliklarini bartaraf etish, ularga atroflicha yechim toppish kabilarni amalga oshirish vazifalari belgilangan.

Asosiy qism.

Xorijiy oliy o'quv yurtlarida tyutorlik faoliyatini amalga oshirishda bir qator vazifalarga amal qilinadi. ular faoliyatining asosi quyidagilar hisoblanadi:

V.F .Gabdulxakov, tyutorning asosiy vazifalariga quyidagilar kiritadi: [3]

- bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlash vazifasi (tyutorning pedagogik yordami o'quv materialini tushunish va uni o'zlashtirishni ta'minlashi kerak, tyutor yangi ko'nikmalar va xatti-harakatlar usullarini rivojlantirishni rag'batlantirishi kerak);

- tashkiliy vazifa, bu talabning ta'lim muassasasi bilan o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, talabalarning tyutor va bir-biri bilan o'zaro munosabatlarini tashkil etish, o'zaro mashg'ulotlarni tashkil etish, mashg'ulotlar ketma-ketligi va vaqtini boshqarish;

- talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro muloqotni amalga oshirish bilan bog'liq kommunikativ vazifa; guruh dinamikasini boshqarish, guruh pozitsiyalari va rollarini taqsimlash kabi vazifalarni bajaradi;

- talabalarning individual motivlari va ehtiyojlarini aniqlashni talab qiluvchi motivatsion vazifa; ta'lim bilan bog'liq shaxsiy istiqbollarni tushunishga yordam berish;

- talabalarning individual qiyinchiliklarini aniqlashga qaratilgan monitoring va nazorat, ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam berish; talabalar faoliyatini bosqichma-bosqich nazorat qilish; ta'limni tugatgandan so'ng bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish va baholash.

Tyutorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalarini tahlil qilib, biz tyutorlarni qo'llab-quvvatlashning quyidagi shakllari amalda o'zini yaxshi ko'rsatgan degan xulosaga keldik.

- Individual tyutor maslahati (suhbati) - tyutori qo'llab-quvvatlashning individual tashkiliy shakli bo'lib, u o'qituvchi bilan har bir talabning shaxsiy rivojlanishi va ta'limi bilan bog'liq muhim masalalarni muhokama qilish, ta'lim talabini aniqlash va uni amalga oshirish uchun resurslarni izlashdir.

- Guruhli tyutor maslahati - bu o'xshash kognitiv qiziqishlarga ega talabalarning individual ta'lim traektoriyalari, marshrutlari va dasturlari bo'yicha tyutor yordami ko'rsatiladigan dars. Tyutor bir vaqtning o'zida bir nechta ish turlarini bajaradi: motivatsion, kommunikativ va aks ettiruvchi. Bo'lajak tyutor maslahati mavzusini guruhdagi barcha talabalar bilan birgalikda muhokama qilish tavsiya etiladi. Bu, bir tomondan, maslahatlashuvning o'zi davomida yaxshi niyat, o'zaro tushunish va hamkorlik muhitini yaratsa, ikkinchi tomondan, maslahatlashuv samaradorligini ta'minlaydi.

- Tutorial (tyutor seminari) - fikrlash, muloqot va reflektiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan faol guruh treningi. Bu interfaol va intensiv o'qitish usullaridan foydalangan holda ochiq o'quv sessiyasi. O'quv qo'llanma, shuningdek, o'quv jarayonini jonlantirish va diversifikatsiya qilish, kognitiv faoliyatni faollashtirish, ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishini qo'zg'atishga va nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni rag'batlantirishga qaratilgan.

Bunday ish talabalarning individual va guruhli aks ettirish texnologiyalarini egallashiga yordam beradi.

- Trening. So'nggi paytlarda treninglar o'qituvchilar va tyutorlar tomonidan talabalarni qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning samarali shakllaridan biri sifatida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Mashg'ulot jarayonida zarur ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish nafaqat ularni esda saqlashni, balki ularni darhol, o'quv ishlari davomida bevosita amaliyotda qo'llashni ham nazarda tutadi. Treninglarda, xuddi o'quv qo'llanmalarida bo'lgani kabi, lekin faqat ancha intensiv shaklda, faol o'rganishning turli usullari va vositalari keng qo'llaniladi: biznes, rolli va simulyatsiya o'yinlari, elektron va bosma determinantlar bilan ishlash, modellashtirish, aniq vaziyatlarni tahlil qilish va guruh muhokamalari.

Tyutor ishining o'ziga xos shakllari, usullari va texnologiyalarini har safar tanlash o'qituvchining qat'iy individual tanlovi bo'lib, o'qituvchining yoshi va shaxsiy xususiyatlariga, shuningdek, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy afzalliklariga bog'liq.

Tyutorning asosiy faoliyati:

- talabaga o'z qiyofasini, shaxsiy kontsepsiyasini yaratishda, shuningdek, o'ziga xosligini anglashda yordam berish;

- talabaga uning ta'lim va kasbiy qiziqishlarini tushunishga yordam berish, ularni amalga oshirish uchun resurs xaritasini tuzish va ishlab chiqish;

- ilmiy bilimlarning turli sohalarida sub'ektlarning individual harakatini ta'minlash;

- individual ta'lim uslubi xususiyatlari bilan ishlash;

- talabalarga ta'lim jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini namoyon qilish

imkoniyatini beradigan texnologiyalarni (bilimlar yig'indisini emas) o'zlashtirishda yordam berish.

Muhokamalar va natijalar.

Ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini amalga oshirish tajribasini tahlil qilib, shuni aytishimiz mumkinki, tyutorlik faoliyatining vositalari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- konsultatsiya texnologiyasi;
- savol berish texnologiyasi;
- faol tinglash texnologiyasi;
- portfel;
- kognitiv qiziqishlarni qo'llab-quvvatlash texnologiyasi;
- Dizayn va tadqiqotni qo'llab-quvvatlash texnologiyasi
- faoliyat;
- Case usuli (aniq vaziyatlarni tahlil qilish usuli);
- guruhda ishlash texnologiyasi;
- Ta'lim turizmi.

T. M. Kovaleva savol-javob metodini tyutorlik ishining asosiy quroli deb hisoblaydi. To'g'ri va o'z vaqtida berilgan ochiq va yopiq savollar, mavzuni o'ta tor yoki aksincha kengaytirish qobiliyati va faol tinglash usullaridan foydalanish professional tarzda tashkil etilgan tyutorlik mashg'ulotlarini tavsiflaydi. Savollarning quyidagi turlari farqlanadi: ochiq, yopiq, yarim yopiq, tushuntirish, nazorat, bilvosita, sinov va boshqalar. Savol berishning turli usullarini ommabop adabiyotlar yordamida o'zlashtirish va savollarga moslashtirish mumkin. [4].

Tyutor talabalar bilan ishlashda qo'llashi mumkin bo'lgan texnologiya va usullar quyidagi ta'lim texnologiyalaridir.

- "Case learning" (amaliy vaziyatlar tahliliga asoslangan o'qitish usuli);

- "Portfolio" (ta'lim natijalarini taqdim etish usuli);

- "Munozara" (ommaviy muhokamani tashkil etish usuli, unda siz o'z nuqtai nazariningizni eng yuqori dalillar bilan bahslashishingiz va teskarisini rad qilishingiz kerak) va boshqalar [8].

Masalan, o'rta yoshlilar tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarning raqobatbardosh va kommunikativ jihatlari ayniqsa muhimdir, bu esa tyutor ishida alohida aks ettirish mavzusiga aylanishi mumkin.

Tyutor ish shakllari - konsultatsiyalar, individual va guruhli o'quv mashg'ulotlari (seminarlar), tarbiyaviy tadbirlar, treninglar talabalarining yoshi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda qo'llanilishi kerak. Tyutori qo'llab-quvvatlash (har qanday tashkiliy shaklda amalga oshirilganda) har doim individual maqsadli bo'ladi, shuning uchun uni amalga oshirishda va ma'lum bir talaba bilan o'zaro aloqa qilish uchun mos keladigan shaklni tanlashda moslashuvchanlik va o'zgaruvchanlikka rioya qilish kerak. Ba'zi tyutorlik faoliyatida qo'llaniladigan metodlar namunasi.

1-jadval.  
Tyutorlik faoliyatida qo'llaniladigan metodlar

| Yo'nalishlar   | Usullar   |
|--|---|
| "Pedagogik-psixologik tadqiqot metodlari"                              | -vaziyat usuli;<br>- matn parchasini tahlil qilish;<br>- kuzatish va tajriba;<br>- kontentni tahlil qilish;<br>- so'rov;<br>- o'lchash;<br>- sinov;   |
| "Tyutorlik amaliyoti asoslari"   | - pedagogik maslahat;<br>- tyutorlik modellari va shakllari hamrohlik;<br>- "Portfolio" texnologiyasi;<br>- "Munozaralar";<br>- "Ta'lim sayohati";<br>- "Tanqidiy fikrlash";<br>- ta'lim resurslari xaritasi;<br>- "Case study";<br>- "Ijtimoiy-madaniy o'yin";   |
| "O'quv jarayonida talabalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash" | - Pedagogik-psixologik- metodlar diagnostika va maslahat;<br>- o'yin terapiyasi;<br>- Art terapiya;   |
| "Tyutorlik tamoyillari va sxemalari"                                   | - tyutori qo'llab-quvvatlash modellari;<br>- pedagogik texnologiyalar va ochiq ta'lim texnologiyalari;<br>- tanqidiy fikrlash texnologiyasi;<br>- "Munozaralar";<br>- "Portfolio";<br>- "Pedagogik ustaxona";<br>- ijtimoiy-o'yin texnologiyalari;<br>- tyutori qo'llab-quvvatlash shakllari;<br>- Case usuli;<br>- "O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish" texnologiyasi<br>- tyutorlik faoliyatida xaritalash va sahnalashtirish;<br>- Dizayn va tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash texnologiyasi |

Xulosa. Darhaqiqat oliy talim muassasalarida tyutor pedagogik faoliyatini tashkil etish bu uning axloqiy fazilatlariga ega bo'lish san'ati va ko'nikmasini amalga oshirish, ishbilarmon, bilim darajasi, ustozlik mahorati, ongi, jamiyatdagi obro'si, o'zini ijobiy tarzda namoyon qilishi, maqsadli ravishda ish olib borishi, dunayoqarashi, tanqidiy fikrlashi, jamoadagi muhitni sezishi, eng muhimi olib borayotgan ish faoliyatini aniq rejalashtirishi, turli-tuman vaziyatlarni taxlil qila olishi, talabalarning o'ziga jalb etishi va ishontira olishi, so'z bilan ish birligini ta'minlashi kabilar uning asosiy kompetentsiyalari hisoblanadi. Tyutor tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'z vazifasini puxta va halol bajarishi, talabalar faoliyatini takomillashtirish va ularning ma'suliyati va ma'naviyatini yuksaltirishda o'z samarasini ko'rsatadi. Tyutorning kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega bo'lishi, tarbiya jarayonini boshqarishda har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul qila olishi, belgilangan maqsadlarga erishishda aniq vazifalarni belgilab beradi. Tyutor nafaqat ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda, balki jamiyatning taraqqiy etishida katta kuch vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni//lex.uz
2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 30 sentabrda qabul qilingan Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik tizimi joriy etish to'g'risidagi buyrug'i va nizomi
3. Габдулхаков, В.Ф. Тьюторинг творческой деятельности. Компоненты педагогической технологии / В. Ф. Габдулхаков. - Москва, 2013. - С. 133–155.
4. Ковалева, Т.М. Тьюторское сопровождение как управленческая технология. Технологии открытого образования / Т.М. Ковалева. - М. : АПКИПРО, 2002. - 23 с.
5. Абрамовских, Н.В., Казаева, Е.А. Тьюторство: история и современность // Вестник Шадринского государственного педагогического института. 2013. - №3(19). — С. 10.
6. Колосова.Е.Б. Тьютор как новая педагогическая профессия. М. Чистые пруды.2008.
7. Челнокова, Е.А. Тьюторство в ретроспективе // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. - 2012. -№7. — Т. 71. — С. 117
8. Волченкова, К.Н. Тьюторское сопровождение как основа субъект-субъектных отношений тьютора и студента // Вестник Южно-Уральского государственного университета. - 2013. - №3. - Т. 5. - С. 73
9. Ковалева, Т.М. Возможности тьюторского сопровождения в современном
10. Ковалева, Т.М. Возможности тьюторского сопровождения в современном ВУЗе:[Электронный ресурс]. 2010. URL: [http://www.thetutor.ru/library/higher\\_education/39](http://www.thetutor.ru/library/higher_education/39) .
11. Профессия «тьютор» / Отв. ред. С.Ю. Попова. - М.-Тверь: «СФК-офис», 2008. - С. 38.
12. Андреева, Е.А. Сравнительный анализ моделей тьюторства (на примере Англии,Германии, Объединенных Арабских Эмиратов и России): автореф. дисс. ... канд. пед.наук / Е.А. Андреева. - М., 2012. - С. 13.
13. Молоков, Д.С. Зарубежный опыт тьюторского сопровождения развития одарённого ребёнка в условиях взаимодействия общего, дополнительного и профессионального образования // Ярославский педагогический вестник. - 2014. - №1. - Т. 2. — С. 62.
14. Бочкарева, С.М. Особенности тьюторства в современной зарубежной высшей школе //Высшее образование сегодня. - 2011. - № 3. - С. 9.

## TASHKILOT RAHBARIYATINI OPTIMALLASHTIRISH: BOSHQARUVNING KOMPLEKS YONDASHUVI

*Navro'zova Nargiza Raximberdi qizi,  
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Samarali yyetakchilik har qanday tashkilotning muvaffaqiyati va barqarorligi uchun juda muhimdir. Ushbu ilmiy maqola samaradorlikni oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va o'sishni rag'batlantirish uchun tashkilotlar rahbarlari tomonidan qo'llaniladigan turli boshqaruv usullarini o'rganadi. Zamonaviy tadqiqotlar va empirik dalillarga asoslanib, ushbu maqola yetakchilikni boshqarish usullarining, jumladan transformatsion yetakchilik, vaziyatli yetakchilik, xizmatkor yetakchilik va moslashuvchan yetakchilikni o'rganadi. Bundan tashqari, u hissiy intellekt, muloqot qobiliyatlari va yetakchilik jarayonida strategik qarorlar qabul qilishning rolini o'rganadi. Ushbu fikrlarni sintez qilish orqali ushbu maqola tashkilot rahbarlari tomonidan qo'llaniladigan boshqaruv usullari va ularning tashkilot samaradorligiga ta'siri haqida yaxlit tushuncha berishga qaratilgan.*

*Kalit so'zlar: yyetakchilik, boshqaruv usullari, transformatsion yyetakchilik, situatsion yyetakchilik, xizmatkor yyetakchilik, moslashuvchan yyetakchilik, hissiy intellekt, muloqot qobiliyatlari, strategik qarorlar qabul qilish*

## OPTIMIZING ORGANIZATION LEADERSHIP: COMPLEX APPROACH OF MANAGEMENT

*Navro'zova Nargiza Raximberdi qizi,  
senior teacher of the Pedagogy and Psychology Department of the Institute for retraining and professional development of directors and specialists of preschool educational organizations*

*Abstract: Effective leadership is crucial for the success and sustainability of any organization. This scientific article explores various management methods employed by leaders within organizations to enhance performance, foster innovation, and drive growth. Drawing upon contemporary research and empirical evidence, this paper delves into the intricacies of leadership management methods, including transformational leadership, situational leadership, servant leadership, and adaptive leadership. Additionally, it examines the role of emotional intelligence, communication skills, and strategic decision-making in the leadership process. By synthesizing these insights, this article aims to provide a holistic understanding of the management methods employed by leaders in organizations and their impact on organizational effectiveness.*

*Keywords: Leadership, Management Methods, Transformational Leadership, Situational Leadership, Servant Leadership, Adaptive Leadership, Emotional Intelligence, Communication Skills, Strategic Decision-Making*

## ОПТИМИЗАЦИЯ ЛИДЕРСТВА ОРГАНИЗАЦИИ: КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД УПРАВЛЕНИЯ

*Наврузова Наргиза Рахимберди кызы,  
старший преподаватель кафедры педагогики и психологии Института переподготовки и повышения квалификации руководителей и специалистов дошкольных образовательных организаций*

*Аннотация: Эффективное лидерство имеет решающее значение для успеха и устойчивости любой организации. В этой научной статье исследуются различные методы управления, используемые лидерами организаций для повышения производительности, стимулирования инноваций и стимулирования роста. Опираясь на современные исследования и эмпирические данные, эта статья углубляется в тонкости методов управления лидерством, включая трансформационное лидерство, ситуативное лидерство, лидерство-службу и адаптивное лидерство. Кроме того, в нем рассматривается роль эмоционального интеллекта, коммуникативных навыков и принятия стратегических решений в процессе лидерства. Обобщая эти идеи, данная статья призвана обеспечить целостное понимание методов управления, используемых лидерами в организациях, и их влияния на организационную эффективность.*

*Ключевые слова: лидерство, методы управления, трансформационное лидерство, ситуационное лидерство, лидерство слуг, адаптивное лидерство, эмоциональный интеллект, коммуникативные навыки, принятие стратегических решений.*



Kirish. Tashkilotlar ichidagi yyetakchilik nafaqat hokimiyat mavqei, balki butun korxonada traektoriyasini shakllantiradigan dinamik jarayondir. Bugungi tezkor va murakkab biznes muhitida yetakchilikni samarali boshqarish har qachongidan ham muhimroqdir. Rahbarlar noaniqlikdan o'tishlari, jamoalarni ilhomlantirishlari va doimiy o'zgarishlar va rivojlanayotgan qiyinchiliklar sharoitida ishlashni kuchaytirishlari kerak.

Ushbu ilmiy maqola tashkilotni muvaffaqiyat sari yo'naltirish uchun rahbarlar tomonidan qo'llaniladigan ko'plab boshqaruv usullarini o'rganadi. Yyetakchilik monolit tushuncha emas; u o'ziga xos kuchli tomonlari va ilovalariga ega bo'lgan uslublar va strategiyalar spektrini o'z ichiga oladi. Transformatsion yetakchilikning istiqbolli ilhomidan tortib vaziyatli yetakchilikning moslashuvchan muammolarini hal qilishgacha, rahbarlar tashkiliy dinamikaning ko'p qirrali talablarini hal qilish uchun bir qator vositalarga ega.

Bundan tashqari, samarali yetakchilik boshqaruv shunchaki yo'nalish belgilashdan tashqariga chiqadi; u hamkorlik, innovatsiyalar va doimiy takomillashtirish madaniyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Rahbarlar nafaqat texnik tajribaga, balki hissiy intellektga, muloqot ko'nikmalariga va zamonaviy ish joyining murakkabliklarini muvaffaqiyatli boshqarish uchun strategik qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

Zamonaviy tadqiqotlar va empirik dalillardan olingan tushunchalarni sintez qilish orqali ushbu maqola tashkilot rahbarlari tomonidan qo'llaniladigan boshqaruv usullarini har tomonlama tushunishga qaratilgan. Yetakchilik amaliyotlarini chuqur o'rganish orqali biz tashkilot samaradorligini oshirishga, xodimlarning faolligini oshirishga va bugungi raqobat sharoitida barqaror o'sishga erishishga intilayotgan rahbarlar uchun amaliy ko'rsatmalar berishga intilamiz.

Transformatsion yyetakchilik - bu umumiy qarash, individual e'tibor, intellektual rag'batlantirish va ilhomlantiruvchi motivatsiyani rivojlantirish orqali izdoshlarni ajoyib natijalarga erishish uchun ilhomlantirish va rag'batlantirishga qaratilgan boshqaruv usuli (Bass, 1985). Asosiysi, transformatsion yetakchilik - bu odamlar o'zlarining to'liq potentsiallarini ro'yobga chiqarishga va tashkilotning jamoaviy muvaffaqiyatiga hissa qo'shishga rag'batlantiriladigan ijobiy va vakolatli ish muhitini yaratishdir.

Transformatsion yyetakchilikning asosiy tamoyili tashkilot a'zolarining qadriyatlarini va intilishlari bilan rezonanslashadigan majburiy qarashlarni ifodalashdir. Transformatsion liderlar kelajak haqidagi aniq va shuhratparast tasavvurga ega bo'lib, ular o'z izdoshlariga samarali muloqot qilishadi. Rahbarlar jozibali qarashni ifodalash orqali o'zlarining jamoa a'zolarida ishtiyoq, sadoqat va maqsad tuyg'usini ilhomlantiradilar, umumiy yo'nalish va uyg'unlik hissini rivojlantiradilar.

Vizyonni ifodalashdan tashqari, transformatsion liderlar har bir jamoa a'zosining o'ziga xos kuchli tomonlari, ehtiyojlari va intilishlarini tan olish orqali individual ravishda ko'rib chiqiladi. Ular shaxsning imkoniyatlari va o'sish potentsialiga moslashtirilgan shaxsiy yordam, murabbiylik va rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi. O'z izdoshlariga chinakam g'amxo'rlik va g'amxo'rlik ko'rsatish orqali transformatsion liderlar odamlar o'zlarini qadrligi, kuchga ega bo'lgan va ustunlik qilishga undaydigan qo'llab-quvvatlovchi va tarbiyalovchi muhitni rivojlantiradilar.

Bundan tashqari, transformatsion liderlar status-kvoga qarshi chiqish va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish orqali intellektual qiziqish va innovatsiyalarni rag'batlantiradilar. Ular o'rganish va tajriba madaniyatini rivojlantiradi, bu erda odamlar taxminlarga shubha qilish, yangi g'oyalarni o'rganish va o'zgarishlarni qabul qilishga undaydi. Intellektual rag'batlantirishni rag'batlantirish orqali transformatsion liderlar o'z izdoshlarini tanqidiy fikrlashga, murakkab muammolarni hal qilishga va rivojlanayotgan muammolarga moslashishga ilhomlantiradi, tashkilot ichidagi innovatsiyalar va doimiy takomillashtirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, transformatsion liderlar o'zlarining izdoshlarini ilhomlantiruvchi motivatsiya orqali ilhomlantiradilar va rag'batlantiradilar, tashkilotning qarashlari va maqsadlariga ishonch, nekinlik va ishtiyoqni bildiradilar. Ular o'zlarining so'zlari va harakatlarida ehtiros, fidoyilik va halollikni namoyon etib, o'rnak bo'lishadi. O'rnak bo'lib xizmat qilish va o'zlari qabul qilgan qadriyatlar va xatti-harakatlarni namuna sifatida ko'rsatish orqali transformatsion liderlar o'z izdoshlari o'rtasida ishonch, sadoqat va sadoqatni ilhomlantiradilar, jamoaviy maqsad va o'ziga xoslik tuyg'usini rivojlantiradilar.

Umuman olganda, transformatsion yetakchilik odamlarni g'ayrioddiy natijalarga erishish uchun ilhomlantirish va rag'batlantirish uchun kuchli boshqaruv usulidir. Majburiy qarashni ifodalash, individual mulohazani ta'minlash, intellektual qiziqishni rag'batlantirish va ilhomlantiruvchi motivatsiyani taklif qilish orqali transformatsion liderlar o'z izdoshlariga o'zlarining to'liq potentsiallarini ro'yobga chiqarishga va tashkilotning muvaffaqiyati va barqarorligiga hissa qo'shishga imkon beradi.

Vaziyatga asoslangan yetakchilik - bu yetakchilik uslublarini turli vaziyatlarda individual izdoshlar yoki

jamoalarning o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirish muhimligini ta'kidlaydigan boshqaruv usuli (Hersey & Blanchard, 1969). Yagona yetakchilik uslubiga amal qiladigan ba'zi yetakchilik yondashuvlaridan farqli o'laroq, vaziyatli yetakchilik eng samarali yetakchilik yondashuvi izdoshlarning tayyorligi va etukligi, vazifaning murakkabligi va vaziyatning dolzarbligi kabi omillarga qarab farq qilishi mumkinligini tan oladi.

Vaziyatli yetakchilikning asosiy kontseptsiyasi rahbarlar o'zlarining yetakchilik uslubini o'z izdoshlarining rivojlanish darajasiga moslashtirishi kerak degan g'oyaga asoslanadi, bu ularning malakasi va topshirilgan vazifaga sodiqligi bilan belgilanadi. Vaziyatli rahbarlar o'z izdoshlarining tayyorgarligini, ularning mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga va vazifani mustaqil bajarishga tayyorligini baholash orqali baholaydilar.

Ushbu baholashga asoslanib, vaziyatli liderlar to'rtta yetakchilik uslubidan birini qabul qiladilar:

Izdoshlar vazifani bajarish uchun zarur ko'nikma yoki tajribaga ega bo'lmagan holatlarda, vaziyat bo'yicha rahbarlar aniq ko'rsatmalar, yo'l-yo'riq va nazoratni ta'minlovchi direktiv yondashuvni qo'llashadi. Ushbu uslub yuqori vazifa yo'nalishi va past munosabatlar harakati bilan ajralib turadi.

Agar izdoshlar biroz malakaga ega bo'lsa, lekin o'ziga ishonch yoki motivatsiya bo'lmasa, vaziyatli rahbarlar o'zlarining malakalari va ishonchlarini rivojlantirishga yordam berish uchun qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va fikr-mulohazalarni ta'minlab, murabbiylik yondashuvini qo'llashadi. Ushbu uslub yuqori vazifa yo'nalishini va yuqori munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Izdoshlar zarur ko'nikmalarga ega bo'lgan, lekin ishonch yoki tajriba etishmasligi mumkin bo'lgan holatlarda, vaziyat bo'yicha etakchilar yordam beradigan yondashuvni qo'llaydilar, avtonomiya, rag'batlantirish va resurslarni ta'minlaydilar, shu bilan birga kerak bo'lganda yo'l-yo'riq va qo'llab-quvvatlash uchun mavjud bo'ladi. Ushbu uslub past vazifa yo'nalishini va yuqori munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Agar izdoshlar yuqori malaka va majburiyatni namoyish qilsalar, situatsion rahbarlar kundalik qarorlar qabul qilish va vazifalar yo'nalishidan orqaga chekinib, avtonomiya va vakolatlarni ta'minlovchi vakolat berish usulini qo'llashadi. Ushbu uslub past vazifa yo'nalishini va past munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Vaziyatli yetakchilikning samaradorligi uning moslashuvchanligi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishidadir. Vaziyatli liderlar o'z izdoshlarining ehtiyojlarini baholay oladilar va shunga mos ravishda o'zlarining yetakchilik uslubini o'zgartiradilar, muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshiradilar va individual o'sish va rivojlanishga yordam beradilar.

Umuman olganda, vaziyatli yetakchilik turli vaziyatlarda izdoshlarning turli ehtiyojlari va imkoniyatlarini tan oladigan dinamik va sezgir boshqaruv usulini ifodalaydi. Vaziyatli liderlar o'zlarining yetakchilik uslubini izdoshlarining tayyorgarligiga moslashtirib, odamlarga o'zlarining to'liq potentsiallariga erishish va tashkilotning maqsad va vazifalariga samarali hissa qo'shish imkoniyatini beradi.

Adabiyot manbalarini haqida umumiy ma'lumot; Adabiyot sharhi:

Tashkilotlar ichidagi yetakchilik o'nlab yillar davomida keng qamrovli tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar mavzusi bo'lib kelgan, tadqiqotchilar turli boshqaruv usullarini va ularning tashkilot samaradorligiga, xodimlarning faolligiga va umumiy samaradorlikka ta'sirini o'rganishgan. Ushbu adabiyotlarni ko'rib chiqishda biz transformatsion yetakchilik, vaziyatli yetakchilik va ularning tashkilot boshqaruviga ta'siri bilan bog'liq asosiy tadqiqotlar va nazariy asoslarni ko'rib chiqamiz.

Eng ko'p o'rganilgan yetakchilik nazariyalaridan biri, transformatsion yetakchilik, izdoshlarni g'ayrioddiy natijalarga erishish uchun ilhomlantirish va rag'batlantirish potentsialiga katta e'tibor qaratdi (Bass, 1985). Transformatsion liderlar o'zlarining jozibali qarashlarini ifodalash, individual ko'rib chiqish, intellektual qiziqishni rag'batlantirish va ilhomlantiruvchi motivatsiyani taklif qilish qobiliyati bilan ajralib turadi (Bass, 1985). Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, transformatsion yetakchilik xodimlarning qoniqishi, tashkiliy majburiyat va ish samaradorligi bilan ijobiy bog'liqdir (Bass va Avolio, 1994).

Bundan tashqari, transformatsion yetakchilik tashkiliy innovatsiyalar va o'zgarishlarni boshqarish bilan bog'liq bo'lib, transformatsion liderlar ijodkorlik, tavakkal qilish va doimiy takomillashtirish madaniyatini rivojlantiradi (Jung va boshq., 2003). O'z izdoshlarini kuchaytirish va ularni tanqidiy va innovatsion fikrlashga undash orqali transformatsion liderlar tashkilot ichidagi innovatsiyalar va moslashuvchanlikni qo'zg'atishi mumkin, bu uning dinamik va raqobatbardosh muhitda rivojlanishiga imkon beradi.

Hersey va Blanchard (1969) tomonidan ishlab chiqilgan situatsion yetakchilik nazariyasi samarali rahbarlar o'z izdoshlarining tayyorgarligi va etukligiga qarab o'zlarining yetakchilik uslubini moslashtiradi deb ta'kidlaydi. Vaziyatli liderlar o'z izdoshlarining malakasi va sadoqatini baholaydilar va to'rtta yetakchilik uslubidan birini qo'llagan holda o'zlarining yetakchilik yondashuvlarini moslashtiradilar: rahbarlik, murabbiylik, qo'llab-quvvatlash yoki vakolat berish (Hersey va Blanchard, 1969).

Vaziyatli yetakchilik bo'yicha tadqiqotlar uning izdoshlarni rivojlantirish, ishlash va qoniqishni oshirishdagi samaradorligini ko'rsatdi (Blanchard va boshq., 1985). O'zlarining yetakchilik uslubini o'z izdoshlarining o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirgan holda, situatsion rahbarlar xodimlarning faolligini, avtonomiyasini va samaradorligini maksimal darajada oshirishi mumkin, bu esa tashkiliy natijalarning yaxshilanishiga olib keladi.

Transformatsion va vaziyatli yetakchilik nazariyalari ko'pincha alohida tushunchalar sifatida ko'rib chiqilsada, tadqiqotchilar ushbu yondashuvlarning bir-birini to'ldiruvchi xususiyatini tobora ko'proq tan olishmoqda (Avolio va boshq., 2009). Transformatsion liderlar o'zlarining istiqbolli fikrlashlari va ilhomlantiruvchi motivatsiyasi tufayli vaziyatli yetakchilik uchun qulay kontekstni yaratishlari mumkin, bu erda izdoshlarning rivojlanish ehtiyojlari moslashtirilgan yetakchilik aralashuvi orqali qondiriladi (Avolio va boshq., 2009).

Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, samarali yetakchilik transformatsion va vaziyatli elementlarning kombinatsiyasini o'z ichiga olishi mumkin, bunda rahbarlar tashkiliy kontekstning o'zgaruvchan talablariga javob berish uchun o'z yondashuvlarini moslashuvchan tarzda moslashtiradi (Avolio va boshq., 2009; Northouse, 2016). Transformatsion qarash va ilhomni vaziyatni baholash va moslashish bilan birlashtirib, rahbarlar tashkilotlarni o'z maqsadlariga yo'naltirishda samaradorligini optimallashtirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, transformatsion va situatsion yetakchilik kabi yetakchilikni boshqarish usullari tashkilot madaniyatini shakllantirishda, xodimlarning faolligini oshirishda va ish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Transformatsion yetakchilik izdoshlarni g'ayrioddiy natijalarga erishish uchun ilhomlantirsa va rag'batlantirsa-da, vaziyatli yetakchilik turli vaziyatlarda individual izdoshlarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun yetakchilik uslublarini moslashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu nazariyalardan olingan tushunchalarni sintez qilish va ularning tamoyillarini amaliyotga integratsiyalash orqali rahbarlar tashkiliy samaradorlikni oshirishi va bugungi dinamik biznes muhitida barqaror o'sishga yordam berishi mumkin.

## O'RTA UMUMTA'LIMDA LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLARNI O'QITISH AHVOLI

Norov Jamshid Nurulloevich,  
 tayanch doktorant. Buxoro davlat pedagogika instituti

*Annotatsiya.* Maqolada adabiyot dasturlari va ta'limining maqsad hamda vazifalari o'rganilgan, o'rta umumta'lim maktablarida xorij adiblari asarlarining o'qitilishi ahvoli tahlil etilgan, ulardagi lingvokulturologik birliklar aniqlangan, ularni o'qitish jarayonida yuzaga keladigan murakkabliklar ochib berilgan, lingvokulturologik birliklarning adabiyot darsliklarida aks etishi va izohiga doir tanqidiy qarashlar ifodalangan, xorij adiblari asarlari tilida qo'llangan ayrim lingvomadaniy birliklar, chunonchi, o'xshatish, metafora, allyuziv nomlar, realiyalar kabilarning o'ziga xos lingvistik va madaniy xususiyatlari tadqiq etilgan, ularning o'z va ko'chma ma'nolari o'zbek xalqining o'ziga xos badiiy-estetik tafakkur tarzi, qadriyat va urf-odatlar bilan qiyosan o'rganilgan, madaniy-ma'naviy jihatdan shakllanish omillari aniqlangan hamda ularni adabiy ta'limga tatbiq etishning ilmiy-metodik tizimi belgilab berilgan, ularni o'qitish metodikasiga oid ayrim tavsiyalar berilgan.

Shuningdek, maqolada lingvokulturologiyaning milliy tafakkur, ong, madaniyat, ma'naviyat, mentalitet, xarakter, til bilan munosabatdorligi kabi masalalar ham tahlilga tortilgan. Lingvokulturologik birliklarni o'qitishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligi aytib o'tilgan: mazkur birliklarni muayyan xalqning xususiyatlari bilan o'zaro aloqador tarzda o'rgatish kerak; turli tillarga tegishli xalqlar dunyoni turlicha tushinishi va his etishi alohida e'tiborga olinishi lozim; har bir tilga xos bo'lgan xususiyat o'sha xalqning mentalitetiga ta'sir qilishini anglash shart; pedagogika fani bo'yicha ilmiy izlanishlar tilshunoslik, tarix va falsafa fanlari bilan o'zaro aloqadorlikda olib borilishi lozim.

Kalit so'zlar: maktab, adabiyot, madaniyat, lingvokulturologiya, lingvomadaniyat, allyuziya, realiya, antroponim, pedagogika, metodika.

## СИТУАЦИЯ С ОБУЧЕНИЕМ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ В СРЕДНЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Норов Джамишид Нуруллоевич,  
 Докторант Бухарского государственного педагогического института

*Аннотация:* В статье рассматриваются цели и задачи литературных программ и образования, анализируется ситуация преподавания произведений иностранных писателей в общеобразовательных школах, выявляются лингвокультурные единицы в них, выявляются сложности, возникающие в процессе их обучения, раскрывается значение лингвокультурных единиц в литературе, критические взгляды на их отражение и интерпретацию выражены в учебниках, специфические лингвокультурные особенности некоторых лингвокультурных единиц, используемых в языке произведений зарубежных писателей, такие как сравнения, метафоры, аллюзивные названия исследуются реалии и т. д., изучаются их собственные и переносные значения в сравнении с уникальным художественно-эстетическим образом мышления, ценностями и традициями узбекского народа, определяются факторы культурно-духовного становления, а также определен научный метод их применения в методической системе литературного образования, даны некоторые рекомендации по методике их преподавания.

В статье также анализируются такие вопросы, как связь лингвокультурологии с национальным мышлением, сознанием, культурой, духовностью, менталитетом, характером и языком. Отмечено, что при преподавании лингвокультурных единиц уместно обратить внимание на следующее: эти единицы должны преподаваться во взаимосвязи с особенностями конкретной нации; особое внимание следует обратить на то, что народы, принадлежащие к разным языкам, по-разному понимают и чувствуют мир; необходимо понимать, что особенность каждого языка влияет на менталитет этого народа; научные исследования в области педагогики должны проводиться в связи с науками языкознания, истории и философии.

Ключевые слова: школа, литература, культура, лингвокультура, лингвокультура, аллюзия, реальность, антропоним, педагогика, методика.

## SITUATION OF TEACHING LINGUOCULTURAL UNITS IN SECONDARY EDUCATION

Norov Jamshid Nurulloevich,  
 PhD student of Bukhara State Pedagogical Institute

*Abstract.:* The article examines the goals and tasks of literature programs and education, analyzes the situation of teaching works of foreign writers in secondary schools, identifies the linguistic and cultural units in them, reveals the complications that arise in the process of teaching them, reveals the significance of the

*linguistic and cultural units in literature. critical views on their reflection and interpretation are expressed in textbooks, specific linguistic and cultural features of some linguistic and cultural units used in the language of foreign writers' works, such as similes, metaphors, allusive names, realities, etc., are researched, their own and figurative meanings are studied in comparison with the unique artistic-aesthetic way of thinking, values and traditions of the Uzbek people, the factors of cultural-spiritual formation are determined, and the scientific method of applying them to literary education methodical system is defined, some recommendations are given regarding the method of teaching them.*

*The article also analyzes issues such as the relationship of lingua-cultural studies with national thinking, consciousness, culture, spirituality, mentality, character, and language. It has been mentioned that it is appropriate to pay attention to the following in the teaching of linguistic and cultural units: these units should be taught in a way that is interconnected with the characteristics of a particular nation; special attention should be paid to the fact that peoples belonging to different languages understand and feel the world differently; it is necessary to understand that the characteristic of each language affects the mentality of that nation; scientific research in the field of pedagogy should be carried out in connection with the sciences of linguistics, history and philosophy.*

*Key words: school, literature, culture, linguistic culture, linguistic culture, allusion, reality, anthroponomy, pedagogy, methodology.*

Kirish. Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishida antropotsentrik paradigmaning XX asr oxirlarida shakllanishi katta voqeliklardan biri bo'ldi. Bu paradigmda asosiy diqqat nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til sohibiga qaratiladi. Shu paradigma bo'yicha bajariladigan tadqiqot ishlarida tilga xos xususiyatlar shaxs omili bilan bog'liqlikda tadqiq etiladi. Shaxs omilining tadqiqi esa pedagogika fanining tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bir nuqtada kesishishiga olib keldi.

Tilning har qanday birligini shaxs omili asosida o'rganish kerakligi bugungi kunda ayon bo'ldi. Tilga xos birliklarni shaxs omili bilan uzviylikda o'rganish har qanday tabiiy tilning boshqa tizimlar – jamiyat, inson, ruhiyat, madaniyat, ma'naviyat, tafakkur bilan aloqador jihatlarini yoritib berishga xizmat qiladi. Har bir shaxsning tafakkur tarzi, bilimi, voqelikka bo'lgan baholash munosabati, milliy xarakteri, eng avvalo, uning tilida to'liq aks etadi.

Til va tafakkur, til va madaniyat, til va nutq o'rtasidagi aloqa masalasi hamma davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan masalalardan hisoblanadi. Insonning borliq haqidagi tasavvurlari va tushunchalari o'z-o'zidan emas, hayoti faoliyati davomida paydo bo'ladi hamda takomillashib boradi. Shaxs faoliyati davomida atrofidagi olam haqida ma'lumotlar to'playdi va bu ma'lumotlarni tilda akslantiradi, madaniyat esa ushbu voqelikning ajralmas qismlaridan biridir. Amerikalik tilshunos E.Sepir "madaniyat" tushunchasi, odatda, san'at, fan va din tushunchalari bilan chegaralanishini bayon qiladi. Zero, Uning fikricha, madaniyat tushunchasi ostida muayyan millatning e'tiqodi turadi, jamiyatning faoliyat tarzi va fikrlashini madaniyat belgilasa, aynan qanday fikrlashini til belgilaydi [12, 469].

Metodlar. Maqola mavzusidagi muammoni tahlil etishda nazariy-mantiqiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik tajriba o'tkazish, lingvokulturologik, komponent tahlil, mustaqil hamda ijodiy ishlarni tashkil etish singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. Xorij adiblari asarlari matnida lingvokulturologik birliklar alohida tizim sifatida shakllangan. Yozuvchilar kishi ismlarining bir qismini o'z ma'nosida, bir qismini esa ko'chma ma'noda ifoda etgan. Masalan, Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasida lingvokulturologik birliklardan Aleksandridi, Koka, Xrista Alek, Petya, Paganini, Stradivari, Mida, Nina kabilari o'z ma'nosida ifodalagan. Ko'chma ma'noda qo'llangan ismlar jumlasiga Drakula (qonxo'r, vahshiy ko'chma ma'nosida), Otello (rashkchi ko'chma ma'nosida) kabilarni misol tarzida aytib o'tish mumkin. Tarixiy shaxs – Vlad Sepesh Drakulaning nomi badiiy adabiyotda begunoh, ojiz, kambag'al odamlarning qonini ichadigan vampir ko'chma ma'noda, aniqroq qilib aytganda, pretsedent nom sifatida qo'llanilgan.

Pretsedent nomlar ta'riflanayotgan va tavsiflanayotgan obraz xususiyatlarini aniq hamda ta'sirli ifodalashga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Ular lingvomadaniy birlik sifatida nafaqat emotsionallikni yuzaga keltiradi, balki obrazga to'g'ri va aniq bahoni ham beradi. Ko'chma ma'noda qo'llangan ismlarda obrazning tabiati, xususiyati va fazilatlarini – insoniyligi, mardligi, jasurligi, aqlliligi, saxiyligi, qo'rqqoligi, zulmkorligi, rashkchiligi, xasisligi kabilari aniq ifodalanadi.

Pretsedent nomlar odatda obrazlar haqida umumiy fikrni aniq, ta'sirchan va ixcham tarzda ifodalash uchun ishlatiladi. Ular ijtimoiy-siyosiy davr, ong, tafakkur hamda muhitga ko'ra o'zgarib turadi. Ularni yuzaga keltirish uchun uchta komponent: a) pretsedentlarning xususiyati; b) ijodkorning maqsadi; v) o'quvchining pretsedentni topish imkoniyati zarur bo'ladi. O'quvchining pretsedent nomlarni idrok etishi uning lingvistik tafakkuri va ongi, madaniyatni bilish va anglash darajasi hamda kitobxonlik tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. O'qituvchi mazkur masalaga doir fikrlarni o'quvchilarga tushuntirishda shu xususiyatlarni e'tiborga olishi kerak.

Mashhur adib Homerning “Iliada” dostonidagi pretsedent nomlarni o‘qitishda bu asarning asosiy mazmuni va g‘oyasini o‘quvchilar puxta tushunishlari uchun turli metodlardan foydalanish lozim. Pretseden nomlarning ko‘chma (majoziy) ma‘nolarini o‘quvchilarga o‘qitishda quyidagi namuna shaklidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

Homerning “Iliada” asaridagi pretsedent nomlarning ko‘chma ma‘nolari.

| <b>№</b> | <b>PRETSEDENT NOM</b> | <b>KO‘CHMA MA‘NOSI</b>  |
|----------|-----------------------|---|
|          | <b>Nestor</b>         | <b>donolik va ziyraklik timsoli</b>   |
| <b>1</b> | <b>Zeus</b>           | <b>oliy xudo, xudolar va odamlar hukmdari;</b><br><b>xudolarning irodasini va yaxshi niyatlarini to‘yobga chiqaruvchi</b><br><b>ko‘plab qahramonlarning otasi, dahshatli jazolovchi kunch</b> |
|          | <b>Prometey</b>       | <b>mashhur xalk qahramoni; jasurlik timsoli</b>   |
| <b>2</b> | <b>Axilles</b>        | <b>botir, jasur, qahraman; jo‘shqinlik, peshqaratmlik</b>   |
| <b>3</b> | <b>Agamemnon</b>      | <b>shaxslarga xos ulag‘vochlik tamsi</b>  |
| <b>4</b> | <b>Xera</b>           | <b>nikoh, er-xotin o‘rtasidagi muhabbat va ko‘zi yurayotgan</b><br><b>humiladorlarning pusti-panahi</b>   |
| <b>5</b> | <b>Herakl</b>         | <b>mashhur xalk qahramoni, butun dunyodagi dengizlar hukmdari</b>   |

O‘quvchilarda xorij adiblari asarlari tilidagi lingvokulturologik birliklar bo‘yicha mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘qituvchi-pedagog o‘quvchilarning yosh, ruhiy, pedagogik va fiziologik rivojlanish xususiyatlarini chuqur bilishi, lingvokulturologik birliklarning maksad va mazmunini aniq idrok etishi shart.

Munozara. Antropotsentrik paradigma tarmoqlaridan biri – lingvokulturologiyaning eng muhim vazifalari tarkibiga milliy tafakkur, ong, madaniyat, ma‘naviyat, mentalitet, xarakter, umuman, milliy madaniyatning til bilan munosabatdorligi kabi masalalarni yoritish kiradi. Xalqning milliy o‘ziga xosligi (mentaliteti)ni uning madaniyati belgilaydi. Milliy mentalitet uchun turg‘unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlar, ayniqsa, milliy tilning barqaror birliklari muhim o‘rin tutadi. Zero, milliy tilning barqaror birliklarida uning asrlar davomida shakllangan, asoslangan, umummilliy xarakterdagi madaniy kodi – obrazlari saqlanadi.

Masalan, o‘zbek tilidagi baliqdek suzmoq, baliqdek og‘zini ochmoq o‘xshatishida etalon suv ichida erkin harakat qiladigan jonzotdir. Xuddi shu jonzot ingliz tilidagi as dumb as fish (baliqday to‘nka, kallavaram va ahmoq) o‘xshatishida boshqa o‘lchov uchun etalon vazifasini o‘taganini kuzatish mumkin. O‘zbek xalqi tilida kichkina, ixcham, dumaloqqa moyil shakldagi narsa, joylar haqida xabar beruvchi do‘ppiday (do‘ppiday osh, do‘ppiday hovli) o‘xshatishlari boshqa xalq tillarida uchramaydi. Bu kabi o‘xshatishlarda haqiqiy milliy ruh singdirilgan.

Xalqlar madaniyatiga doir bu kabi misollar juda ko‘plab uchraydi. Harakat va imo-ishoralar turli halqlarda har xil talqin qilinadi. Masalan, o‘zbek millatiga mansub o‘quvchi dars paytida mashg‘ulotdagi mavzuga o‘z munosabatini bildirmoqchi bo‘lsa, bir qo‘lini yuqoriga ko‘taradi. Nemislar esa bunday holatda ikki barmog‘ini ko‘taradi. Xitoy va yapon xalqlari o‘z boshiga tushgan kulfat boshqalarni ranjitmasligi uchun ular oldida jilmayishga harakat qiladi. O‘zbeklar barmog‘i bilan “bir, ikki, uch” deb sanaganida qo‘l barmoqlarini birma-bir buka boshlaydi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari xalqlarida esa, aksincha, barmoqlar birma bir yoziladi.

Lingvokulturologiyaga doir muammolar. Keyingi davrlarda xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar va xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlarning jadal suratlarida taraqqiy etishi yangi soha — antropotsentrizmning alohida yo‘nalishi – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Mazkur yo‘nalish til va madaniyatning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha hisoblanadi. Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri va bog‘liqligini o‘rganishga e‘tiborini qaratadi. Pedagogikada lingvokulturologiya bilan aloqador tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyoj quyidagilar bilan izohlanadi: eng avvalo, umumjahon masalalarining tez sur‘atlarda globallashuvi. Bu yo‘nalishda turli xalqlarning urf-odatlarini va muomala usullari xususiylik va umumiylik (universallik) kategoriyalari bo‘yicha tadqiq etilmoqda.

Ikkinchidan, ijtimoiy tafakkur va ongning taraqqiyoti. Hozirgi kunning pedagogi qator sohalarga oid

bilimlarning o'zaro kesishgan nuqtalarini juda yaxshi bilishi shart. Masalan, pedagog psixologiya, sotsiologiya, etnografiya, madaniyatshunoslik, tilshunoslik kabi fanlarning aloqadorligi masalalari bilan qiziqishi kerak. Hozirga qadar pedagogika haqidagi fanda, asosan, metodikaning o'zigagina katta e'tibor berilib kelindi. Metodikani falsafiy aspektda anglash hozirgi kunning eng muhim talabi hisoblanadi.

Uchinchidan, mazkur fan pedagogikaga doir bilimlarning amaliy tomoni bilan bog'liqligi. Bunda pedagogikaning jamoa tajribasiga asoslangan tomonlari o'rganiladi. Bular ta'lim va tarbiya masalalarini to'liq anglashga imkon beradi, madaniy leksik birliklarning semantik boyliklari, ularning ma'no nozikligi qirralarini aniqlashga zamin hozirlaydi, madaniy birliklarni o'rganishning maqsad va vazifalari mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Lingvokulturologik birliklarni o'qitish. Muayyan badiiy asarning tahlili, odatda, uch qismni o'z ichiga oladi. Bular: badiiy asar bilan tanishishning dastlabki bosqichida uning yaxlit mazmunini idrok etish, uning alohida elementlari bo'yicha jiddiy tahlil qilish, nihoyat, bu qismlarni yaxlit holatda birlashtirish. Adabiyotshunoslikdagi bu tamoyil maktab tahlili uchun to'la tatbiq etilishi joiz [13, 54]. Lingvokulturologik birliklarni o'qitishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

mazkur birliklarni muayyan xalqning xususiyatlari bilan o'zaro aloqador tarzda o'rgatish kerak;  
turli tillarga tegishli xalqlar dunyoni turlicha tushunishi va his etishi alohida e'tiborga olinishi lozim;  
har bir tilga xos bo'lgan xususiyat o'sha xalqning mentalitetiga ta'sir qilishini anglash shart;  
pedagogika fani bo'yicha ilmiy izlanishlar tilshunoslik, tarix va falsafa fanlari bilan o'zaro aloqadorlikda olib borilishi lozim.

Lingvokulturologik birliklar V.V.Vorobev, V.A.Maslova, V.V.Krasnix, S.V.Ivanova, N.D.Arutyunova, N.F.Alefirenko, T.F.Volkova, Ye.O.Oparina kabi xorij olimlarining ishlarida muayyan darajada tadqiq etilgan [4; 10; 9; 7; 1; 2; 3]. O'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalar A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", nomli maqolalarida hamda D.Xudoyberganovning "Matnning antropotsentrik tadqiqi" nomli monografiyasida o'rganilgan.

Olimaning mazkur monografiyasida antropotsentrik paradigma, uning asosiy yo'nalishlari o'rganilgan. Uning fikricha, til egalariga ma'lum, ularning lisoniy xotirasida muntazam mavjud bo'lgan, nutqiy faoliyatida tez-tez va qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumlar hamda matnlar lingvokulturologik birlik sifatida qayd etilishi kerak [14, 83].

Aytilganidek, keyingi davrlarda lingvokulturologiya bo'yicha tadqiqotlar doirasi kengayib bormoqda, tilning madaniyatga, aksincha, madaniyatning tilga o'zaro munosabatiga doir ko'plab yangi ilmiy fikrlar ifodalanmoqda. Madaniyat insonni inson sifatida shakllanishining asosiy omili, manbasi va usuli hisoblanishi, tilvamadaniyat o'zaro chambarchas o'zaro bog'langanligi, til madaniyat negizida paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning ifodalovchisi ekanligi, harqandaymadaniyatqat'iyemasligi, u'zini o'rab turgan muhit bilan hamohang va bog'liq ravishda doimo harakat va o'zgarishda bo'lishi aytib kelinmoqda [10, 10].

V.Gumboldt ilmiy asarlarida «shaxs-til-madaniyat» munosabatlarini tavsiflab, til xalq ruhiyatiga madaniyatning bebaho xazinasini ekanligini, xalq madaniyati shaxsning ichki va tashqi dunyosi munosabatlarini qamrab olishi, shuning uchun ham har bir til o'zi tegishli bo'lgan xalq irodasi hamda dunyo qarashini to'liq ifodalashini aytib o'tadi [5, 37].

E.Sepir esa lingvomadaniyat xususida quyidagilarni yozadi: "Til madaniyatning umumiy tarzidataraqqiyetis hining zaruriy shart hisoblanib, til madaniyatdantashqari, alohida mavjud bo'la olmaydi. Til milliy madaniyatning shakllanishi va rivoj topishiga bevositata'sirko'rsatish imkoniyatiga ega bilan ajralib turadi. Madaniyatni esa o'sha jamiyat kishilarining fikrlash usullari, tafakkur tarzi, xatti-harakatlari yig'indisi sifatida qabul etishsh mumkin" [12, 123].

Lingvokulturologiyada antroponimlar masalasi asosiy masalalar jumlasiga kiradi. Ayonki, antroponimlar ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutadi, ularda kishilarning qiziqishi, ehtiyoji, tafakkuri, madaniy-ma'naviy va etnik qarashlari o'z ifodasini topadi, ismlar muayyan xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy, ma'rifiy-ma'naviy hayoti bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Antroponimlar o'rta umumtalim maktablarining adabiyot darsliklari matnida ko'plab uchrashi bilan alohida ajralib turadi. Ularni madaniy belgilariga ko'ra nisbiy tarzda ikki guruhga ajratib o'qitish mumkin: o'zbek xalqiga xos ismlar (Elbek, To'lqin, Chechak va boshq.) va chet el xalqlariga xos nomlar (Rojer, Otello, Petr va h.k.).

Pretsedent nomlarni o'qitish. Muayyan til sohiblariga ma'lum va ularning lisoniy xotirasida muntazam mavjud bo'lgan, nutqiy faoliyatida tez-tez va qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari hamda barqaror so'z birikmalari pretsedent birliklar sifatida qayd etiladi [14, 83]. Ular eng muhim til hodisalaridan biri bo'lib, so'zlashuv, publitsistik, ayniqsa, badiiy adabiyot namunalari faol qo'llaniladi. Ularning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari, metodikasiga xos jihatlar monografik yo'sinda ko'p o'rganilgan emas.

Xorij adiblari asarlari matnida antroponimlar alohida tizim sifatida shakllanganligini kuzatish mumkin. Xorij adiblari kishi ismlarining bir qismini o'z ma'nosida, bir qismini esa ko'chma ma'noda ifoda etgan. Nodar

Dumbadzening “Hellados” hikoyasida antroponimlardan Aleksandridi, Koka, Xrista Alek, Petya, Paganini, Stradivari, Mida, Nina kabilari o‘z ma’nosida, ya’ni kishi ismlarini ifodalagan. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan ismlar jumlasiga Drakula (qonxo‘r, vahshiy ko‘chma ma’nosida), Otello (rashkchi ko‘chma ma’nosida) kabilarni misol tarzida aytib o‘tish mumkin. Pretsedent birliklarda biror predmet yoki voqea-hodisa haqida aniq, yaqqol va yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa biror kishining belgisi hamda xususiyati kabilari ko‘chiriladi, umumiy holatda o‘xshatiladi. Vlad Sepesh Drakula nomli knyaz butun dunyoga begunoh odamlarning qonini ichadigan vampir sifatida tanilganligi uchun u badiiy adabiyotga ko‘chirilgan. Vlad Sepesh Drakula XIV asrda Transilvaniyada Valaxiya (Ruminiya) knyazligini tashkil etgan. Rumin tilida Drakula so‘zi ajdaho degan ma’noni anglatadi. U juda ko‘plab odamlarni ayovsiz o‘tda yoqib o‘ldirgan. Tarixiy shaxs – Vlad Sepesh Drakulaning nomi badiiy adabiyotda begunoh, ojiz, kambag‘al odamlarning qonini ichadigan vampir ko‘chma ma’noda, aniqroq qilib aytganda, pretsedent nom sifatida qo‘llanilgan.

Bunday nomlar badiiy obrazning ichki olami va tashqi qiyofasini, uning eng muhim fazilatlarini va xarakterini hamda tabiatialohida ajratib ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Pretsedent nomlar ta’riflanayotgan va tavsiflanayotgan obraz xususiyatlarini aniq hamda ta’sirli ifodalashga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Ular lingvomadaniy birlik sifatida nafaqat emotsionallikni yuzaga keltiradi, balki obrazga to‘g‘ri va aniq bahoni ham beradi. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan ismlarda obrazning tabiati, xususiyati va fazilatlarini – insoniyligi, mardligi, jasurligi, aqlliligi, saxiyligi, qo‘rqoqligi, zulmkorligi, rashkchiligi, xasisligi kabilari aniq ifodalanadi.

Badiiy asarlarda pretsedent nomlar odatda obrazlar haqida umumiy fikrni aniq, ta’sirchan va ixcham tarzda ifodalash uchun ishlatiladi. Ular ijtimoiy-siyosiy davr, ong, tafakkur hamda muhitga ko‘ra o‘zgarib turadi. Ularni yuzaga keltirish uchun uchta komponent: a) pretsedentlarning xususiyati; b) ijodkorning maqsadi; v) o‘quvchining pretsedentni topish imkoniyati zarur bo‘ladi. O‘quvchining pretsedent nomlarni idrok etishi uning lingvistik tafakkuri va ongi, madaniyatni bilish va anglash darajasi hamda kitobxonlik tajribasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchi mazkur masalaga doir fikrlarni o‘quvchilarga tushuntirishda shu xususiyatlarni e’tiborga olishi kerak.

O‘xshatishlarni o‘qitish. Xorij adiblari asarlarida lingvokulturologik birliklardan o‘xshatishlar ham ko‘plab uchraydi. Ularni barcha shoir va yozuvchilarning asarlarida u yoki bu darajada uchratish mumkin. O‘xshatish orqali ijodkorlar muayyan bir narsaning muhim xususiyatini ajratib tasvirlashga, kitobxonning diqqatini unga qaratishga harakat qilishadi.

Ayonki, lingvokulturologiya tarkibidagi metafora, ramz, mifologema, etalon, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, nutqiy etiket kabilari orasida o‘xshatishlar eng asosiy lingvomadaniy birlik hisoblanadi. O‘zining qadimiy tarixiga ega, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy jihatdan taraqqiy etgan har bir xalqning tilida o‘xshatishlar alohida tizim sifatida shakllangan bo‘ladi. O‘xshatishlarning katta bir qismi miflarga borib taqaladi. Ular muayyan xalqning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusmlari, ruhiy olami, urf-odatlarini, diniy e’tiqodi va madaniyati bilan bevosita bog‘liq tarzda paydo bo‘ladi hamda taraqqiy etib boradi. Har bir xalqda o‘xshatishlarlar tizimining shakllanishiga mifologik dunyoqarash, diniy e’tiqod, ijtimoiy hayot, estetik qarash, geografik o‘rin, madaniy-ma’rifiy daraja, xalq og‘zaki ijodi, ilmiy-badiiy asarlar kabilari asos bo‘ladi.

O‘zbek tilida inson haqidagi turg‘un o‘xshatishlar quyidagi ma’noviy guruhlar bo‘yicha tasnif etish mumkin: 1) inson tana a’zolari bilan bog‘liq o‘xshatishlar (alifdek yoki sarvdek tik qomat, anorday yoki quyoshdekqizil yuz kabi); 2) insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq o‘xshatishlar (devday yoki tog‘day bahaybat, oyday yoki guldek go‘zal kabi); 3) insonning jismoniy xususiyati bilan bog‘liq o‘xshatishlar (ajdarhoday kuchli, gulday yoki billurday nafis kabi); 4) insonning ovozi bilan bog‘liq o‘xshatishlar (sherday yoki arslonday bo‘kirmoq, bo‘riday yoki sherday uvillamoq kabi); 5) inson nutqi bilan bog‘liq o‘xshatishlar (bulbulday sayramoq, itday qopmoq kabi); 6) insonning harakteri bilan bog‘liq o‘xshatishlar (itday yoki mushukday sadoqatli, musichaday yoki qushdek beozor kabi); 7) insonning holati bilan bog‘liq o‘xshatishlar (toshday yoki haykaldek qotmoq, ilonday to‘lg‘anmoq kabi); 8) insonning hatti-harakati bilan bog‘liq o‘xshatishlar (yov yoki it quvganday yugurmoq, o‘qdek otilib chiqmoq kabi) [14, 83].

O‘xshatishlarning maqsadi shundaki, u o‘quvchiga badiiy asarda ifodalangan fikrni idrok etishga, uning mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirib borishga yaqindan yordam beradi. O‘xshatishlar o‘quvchida obrazli tasavvurlarni vujudga keltiradi, tasvirlanayotgan obraz, voqea-hodisalar yoki ifodalanayotgan his-tuyg‘ularga nisbatan katta qiziqish uyg‘otadi. Xorij adiblari asarlaridagi o‘xshatishlarni tushunilishi darajasiga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga deyarli barcha xalqlar tilida qo‘llaniladigan o‘xshatishlarni kiritish mumkin. Ayonki, o‘xshatishlarning ayrimlari aksariyat tillarda ko‘p qo‘llanilganligi natijasida vaqt o‘tishi bilan barqaror o‘xshatishli birlikka aylanadi. Bunga misol sifatida sherday kuchli, quyon kabi qo‘rqoq, tulkidek ayyor, bo‘ri kabi och kabilarni aytib o‘tish mumkin. Bunday o‘xshatishlar deyarli barcha xalqlar nutqida ham, badiiy asarlar tilida ham faol qo‘llaniladi. Yuqorida keltirilgan o‘xshatishlar o‘zbek, ingliz, rus kabi xalqlari tillarida aynan mazkur mazmunda ifodalanadi.

Xorij adiblari asarlaridagi ikkinchi guruh o‘xshatishlarni milliy o‘xshatishlar tarzida tasniflash mumkin. Bunday o‘xshatishlar faqat muayyan xalqqa xos bo‘ladi va o‘sha xalqqa tushunarli bo‘ladi. Masalan: “Shapaloqday-



shapaloqday yuzlari sarg'aya boshlagan, mahzun va mungli qarashlari bilan sharq ayollariga o'xshab ketadigan va kelinchakdek titrab turgan bu g'o'zalar nelar demoqda?!" (N.Eshonqul. "Momoqo'shiq" qissasi). Ushbu badiiy matnda "sarg'aya boshlagan g'o'zalar" "titrab turgan kelinchak"ka o'xshatilganki, bunday o'xshatishlar xususan o'zbek madaniyatida kuzatiladi.

Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asaridan olinga quyidagi jummalarga e'tibor qarataylik: "– Qani endi yashirib qo'ygan joyimizdagi o'qlardan hozir ikkitaginasini bo'lsa, – deb qo'ydi ulardan biri. Azbaroyi madorsizligidan ovozi zaif chiqdi. O'zi behafsala gapirar edi; toshlarga urilib, ko'piklanib oqayotgan sutdek oppoq suvga endi oyoq bosgan sherigi esa, unga hech narsa deb javob bermadi". Mazkur badiiy matnda oppoq suv sutga qiyoslangan. Anglashiladiki, ingliz xalqlari madaniyatida shunday o'xshatish me'yor sifatida qabul qilingan. O'zbek xalqi madaniyatida sut bilan aloqador ona suti kabi halol yoki pok, xom sut emgan banda, sut bilan kirgan jon bilan chiqadi kabi o'xshatishlar qo'llanadi.

Shunga o'xshash yana quyidagi badiiy matnga e'tibor qarataylik: "Kechqurun u qamishlar orasidan ohakdek oppoq loyqalanib oqayotgan ariqcha yoqalab borardi. Bir qamishning ostidan mahkam ushlab, xuddi piyozga o'xshagan bir narsani sug'urib oldi. G'amishning tomiri yumshoq bo'lib, chaynaganda ishtahani ochib, qars-qars qilardi". Mazkur badiiy matn yuqorida nomi qayd etilgan asardan olingan bo'lib, unda oppoq suv ohakka o'xshatilgan. Bunday o'xshatish amerikaliklar madaniyatida kuzatilib, o'zbek xalqi madaniyatida esa oppoq suvni ohakka o'xshatilishi kuzatilmaydi. Adabiyot darsliklarida xorij adiblari asarlaridagi lingvomadaniy birliklarning mazmuni bo'yicha tavsiflar deyarli uchramaydi. Ularni o'qitish metodikasi bo'yicha ham shu fikrni aytish mumkin.

Uzluksiz adabiy ta'limga doir "Davlat ta'lim standarti, adabiy ta'lim konsepsiyasi, boshlang'ich sinflarning "O'qish", V-IX sinflar "Adabiyot" o'quv dasturi kabi rasmiy hujjatlarda sog'lom e'tiqodli, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, aqlan yetuk komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirish masalasi ustuvor yo'nalish qilib belgilangan. O'quvchida hayotiy voqea-hodisalarni bilish, odamlarning ruhiyatini anglashga ehtiyoj tug'ilishi bilan adabiyotni anglashga qiziqish paydo bo'ladi. O'qituvchi badiiy asarni o'qitish orqali o'quvchilarda paydo bo'lgan ana shu qiziqishni rivoj toptiradi, ularni ulkan san'at olamiga olib kiradi, yoshi, bilim darajasini e'tiborga oliyu, badiiy didini o'stiradi [8, 87].

Adabiyot o'qitish metodikasi. Ayonki, metodika vaqtni tejash malakasi, o'quvchi kuchlarini oqilona sarflash, o'quv materialidagi asosiy xususiyatni topish malakasi, jamoa mehnatini tashkil qilish san'ati, o'quvchilardagi xilma-xil individualliklarga tayanadigan ta'sir tizimi hisoblanadi. Adabiyot o'qitish metodikasi pedagogika fanining uzviy qismi bo'lib, badiiy adabiyotni tadqiq etadi, adabiyot o'qitish usullarini ilmiy asosda ishlab chiqish va tatbiq etish, sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlarning usullarini ishlab chiqishga e'tibor qaratadi. Uning asosini badiiy asarni ta'lim va tarbiyaning muhim vositasi sifatida o'rganish, o'quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalash jarayoni tashkil etadi. Shu jarayonda o'qituvchi ijodkor yaratgan badiiy obrazlarning ahamiyatini o'quvchilar ongiga singdiradi, badiiy obrazning mohiyatini ochadi, o'quvchilarning ma'naviy va ruhiy dunyosini boyitadi [8, 10].

Adabiyot o'qitish metodikasi fani darsliklar tarkibidagi badiiy asarni tahlil qilish va uni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishidagi o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatish, badiiy asarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlariga e'tibor berish, ta'lim bosqichlarida faqat badiiy asarning o'zini emas, balki ularga o'zaro bog'liq ravishda adabiy-nazariy tushunchalarni ham o'rganish yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish, adabiyot darslarini tashkil etish, lingvomadaniy birliklar bo'yicha tushuncha berish, sinfdan tashqari va mustaqil ishlarni tashkil etish, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish yo'llarini ko'rsatish, o'z ustilarida muntazam ishlash, mustaqil ijodiy ishlarni tashkil etish yo'llarini ko'rsatishi bilan ham ahamiyatlidir.

Ijtimoiy ong taraqqiyoti adabiyotni o'qitish sohasida yangilanishlarni va yangicha yondashuvlarni taqozo etib turibdi. Hozirgi kunda yangi axborot texnologiyalari va zamonaviy pedadogogik texnologiyalardan foydalanish talabini qo'yimoqda. Ta'lim metodlarini samarali qo'llash, darsning har bir tarkibiy qismlariga e'tibor qaratish, adabiy ta'limning mazmunini to'lig'icha o'quvchilarga yetkazish, o'kuv dasturlari va darsliklar mazmunini Mustaqillik mafkurasiga moslashtirish eng muhim masala hisoblanadi.

Mazkur masalalar yechimi uchun samarali ish usullarini izlab topish, adabiy tahlilni yuksak darajada amalga oshirish, badiiy matn mazmuni va mohiyatiga yetishning turli yo'llarini mahorat bilan qo'llash, muayyan ijodkor badiiy asari mazmunida mujassamlashgan poetik olamga xos bo'lgan badiiyatni idrok etish hamda mushohada qilish muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Adabiyot kursini o'qitishning bosh yo'nalishi o'quvchilar ongiga badiiy asarning buyuk ta'sir kuchini amaliy jihatdan ta'minlash, yoshlar qalbida go'zallikka bo'lgan ijobiy va ijodiy munosabatlarni shakllantirish, ularga badiiy asarga bo'lgan muhabbatni o'stirish, ularning badiiy-estetik didni takomillashtirishdan iborat bo'lmog'i kerak. Adabiyot kursini o'qitadigan o'qituvchi bilishi kerakki, adabiyot o'quvchi ruhiyatining takomillashtirishida, uning shaxs sifatida shakllanishi va rivojida o'rni beqiyosdir.

Xulosa. Xorij adiblari asarlaridagi lingvokulturologik birliklarini o'qitish ahvoli masalasi doirasida quyidagi xulosalarni ifodalash mumkin:

dunyo hamjamiyati bir-biriga har qachongidan ham ko'proq intilayotgan hozirgi davrda faqat milliy adabiyotgagina e'tibor qaratish ozlik qiladi. Ijtimoiy ong va tafakkur taraqqiyotiga munosib qo'shgan chet el adiblarining asarlarini adabiyot dasturlari va darsliklariga kiritish ko'lamini kengaytirish kerak;

jahon pedagogikasida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini ta'limning asosiy tayanch nuqtasi deya e'tirof etilmoqda. Bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ta'limiy munosabatlarning yangicha bosqichini anglatadi. Pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining tom ma'nodagi hamkorligi yuzaga kelishi muhim hisoblanadi. Bu, ayniqsa, adabiy ta'limda ayricha ahamiyat kasb etib turibdi. Badiiy adabiyotni o'qish va o'rganish hamma payt ijodiy jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilarning boshqa millatlarning madaniyati bilan tanishishi jonli tarzda amalga oshishi lozim;

xorij adiblari asarlarini o'rganishda sharh va izohlarning o'rni kattaroq bo'lishi kerak. Asarni o'rganish avvalida ifodali o'qish maqsadga muvofiqdir. Badiiy adabiyot so'z san'ati sifatida o'quvchining ma'naviy olami shakllanishiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatishini inobatga olib, asarning estetik tahliliga katta e'tibor qaratish kerak;

o'quvchilarga badiiy asar mazmuniga muvofiq ularning amaliy faoliyatlarida kerak bo'ladigan nazariy hamda amaliy ma'lumotlarning eng muhimlarini yetkazish, asar mohiyatiga aloqador ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirish o'rnlidir;

xorij adiblari asarlari bo'yicha adabiy ta'limni takomillashtirib, hozirgi zamon talablariga uyg'unlashtirib borish eng muhim vazifalar sirasiga kiradi. Adabiyotning o'quvchilarga ko'rsatadigan ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy, estetik ta'sirini yanada kuchaytirish, ulardagi mustaqil va ijodiy fikrlashga oid ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, so'z san'ati vositasida go'zallikni his etishga oid did va tuyg'ularni takomillashtirish, badiiy matnga nisbatan ijodiy yondashuv tamoyillarini taraqqiy ettirish muhimdir.

Xorij adiblari asarlarini o'qitishga doir o'quv qo'llanmalarni yaratish, ularda qo'llangan lingvomadaniy birliklar bo'yicha izohli lug'atlarni tuzish zamon talablaridan orqada qolmoqda. Bugungi kunda samarali va yangi pedagogik texnologiyani joriy etish, jahondagi ilg'or o'qitish usullarini o'zbek xalqi ta'limiga joriy etishga jiddiy zarurat sezilmoqda. Masalaning bu tomoniga alohida e'tibor qaratishni ijtimoiy davr taqozo etib turibdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alefirenko N.F. (2010) Lingvokulturologiya: Sennostno-smislovoye prostranstvo yazika. -M.: Nauka. -288 s.
2. Arutyunova, N.D. (1999) Yazik i mir cheloveka. -M.: Nauka. -896 s.
3. Volkova, T.F. (2004) Sravneniya v rechi dialektnoy yazikovoy lichnosti: Dis. kand. ... filol. nauk. -Tomsk. -237 s.
4. Vorobev V.V. (1997) Lingvokulturologiya: teoriya i metodi. -Moskva.
5. Gumboldt V. fon. (1985) Yazik i filosofiya kulturi. Per. s nem./Sost. i obsh.red.A.V.Gulish,G.V.Ramishvili.- M.: Progress.
6. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. (1992) Adabiyot o'qitish metodikasi. -Toshkent: O'qituvchi. -332 b.
7. Ivanova S.V. (2003) Lingvokulturologicheskiy aspekt issledovaniya yazikovix yedinis: Diss. ... d-ra filol. nauk. -Ufa.
8. Kambarova S. (2019) Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi: Ped. fan. b. falsafa dok. (PhD) diss. -Samarqand. -196 b.
9. Krasnix V.V. (2002) Etnopsixolingvistika i lingvokulturologiya. -Moskva.
10. Maslova V.A. (2000) Lingvokulturologiya. -M.: Akademiya.
11. Saidov Yo. (2020) Lingvokulturologik tadqiqotlar metodologiyasi / Namangan davlat universiteti axborotnomasi. -Namangan. -№ 5. -B. 297-304.
12. Sepir E. (1993) Izbrannie trudi po yazikoznaniyu i kulturologii. -Moskva. -502 s.
13. To'xliyev B. (2010) Adabiyot o'qitish metodikasi. -Toshkent: Yangi asr avlodi. -157 b.
14. Xudoyberganova D. (2013) Matnning antropotsentrik tadqiqi. -T.: Fan. -83 b.

## **BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISIDA KASBIY ODOB MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

*Norqulov Shovkat Turg'unbayevich,  
Guliston Davlat Pedagogika institute Pedagogika fakulteti dekani, dotsent*

*Annotatsiya. Maqolqda Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisida kasbiy odob malakalarini shakllantirishning maqsad va vazifalari yuzasidan keng fikrlar va mulohazalar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar. Shaxs, pedagogika, kasbiy tayyorgarlik.*

## **ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЭТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ**

*Норкулов Шавкат Тургунмаевич,  
Гулистанский государственный педагогический институт Декан педагогического факультета,  
доцент*

*Аннотация. В пословице много мыслей и мнений о целях и задачах формирования навыков профессионального этикета у будущего учителя физкультуры.*

*Ключевые слова. Личность, педагогика, профессиональная подготовка.*

## **OBJECTIVES AND TASKS OF FORMING PROFESSIONAL ETHICS SKILLS IN THE FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHER**

*Norkulov Shavkat Turgunmayevich,  
Gulistan State Pedagogical Institute Dean of the Faculty of Pedagogy, associate professor*

*Abstract. In the article, there are many thoughts and opinions about the goals and tasks of the formation of professional etiquette skills in the future physical education teacher.*

*Key words. Personality, pedagogy, professional training.*

Pedagogika kollejarida o'quvchilarni pedagogik faoliyatga, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim vazifadir. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining bu boradagi muvafaqqiyatining eng asosiy ko'rsatkichi, bu –dars sifatidir. Chunki xuddi ana shu dars jarayonida o'qituvchining kasb madaniyatini shaxsini, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatini, mahoratini, o'z kasbiga bo'lgan e'tibor-qiziqishini, jismoniy tarbiya va sport sohasida bilimlarni egallab borishni kuzatish hamda ularga baho berish mumkin bo'ladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi mehnatining ustuvorligi uch «nuqtaga tayanadi»:

birinchisi — o'qituvchining malakasi, madaniy va ma'naviy darajasi;

ikkinchisi — ta'lim oluvchilarning jismoniy barkamolligi uchun o'qituvchilarning ma'naviy javobgarligi;

uchinchisi — moddiy va ijtimoiy ta'minot, kelgusi avlodni garmonik rivojlanishga tayyorlashda o'qituvchi mehnatining ahamiyati malakali kadrlar tayyorlash orqali iqtisodiyotni ko'tarishdagi o'rni.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'qituvchi shaxsiga muayyan talablar qo'yiladi, bular zamonaviy o'qituvchi modelini umumiy tarzda tashkil etadi. Quyidagilar asosiy talablar hisoblanadi:

o'qitishni uddasidan chiqish;

tarbiyalashning uddasidan chiqish;

shaxsiy sifatlar;

ta'lim oluvchilar bilimini ob'yektiv baholash va nazorat

qilishning uddasidan chiqish;

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining yuqoridagi talablarni uddalay olishiga o'z navbatida ko'pgina muhim omillar ta'sir etadi:

o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash va uning muhiti ;

o'qituvchining jismoniy- ruhiy va pedagogik tayyorgarligi;

kasbiy ma'lumot manbai sifatida barcha sport turlarini bilishi;

fanni chuqur bilishi, kasbiy vakolatlilik va iqtidor;

yangi pedagogik texnologiyalardan xabardorlik;

o'z ishini takomillashtirishga muntazam intilish;

uzluksiz ta'lim tizimi me'yoriy hujjatlarini yaxshi bilish;  
kompyuter texnologiyasini egallagan bo'lish;  
informatsiya bazasi va resurslar

Tarbiyalashning uddasidan chiqish o'qituvchining madaniyati va ma'naviyati, uning shaxsiy hulq-atvori va obro'siga, vatanparvarlik va burchini xis etishiga yuqori darajasiga tayanadi. Ta'lim oluvchilarda yaxlit olam qiyofasini, yuqori madaniyat, ma'naviyat va jahon miqyosida fikrlashni shakllantirish uchun o'qituvchi keng gumanitar va insonparvarona tayyorgarlikka, shuningdek o'quv tarbiya ishini tashkil qilish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Shaxsiy sifatlar bo'lib, o'qituvchidagi talabchanlik va adolatlilik, xalollik va xayrixoxlik, mulozamatlilik va mutoyibani his etish hisoblanadi. Bu sifatlar ta'lim oluvchilar uchun o'qituvchining referentligi (qadriligi)ni belgilaydi.

Ob'yektiv baholashning uddasidan chiqish ta'lim oluvchilarning bilimi ruhiy-pedagogik ma'noda o'qita bilishlik va tarbiyalay olishlik bilan chambarchas bog'liqdir. Ob'yektiv baholash vositalariga nimaiki taalluqli bo'lsa, o'qituvchi ularni bilishi shart va a'lo darajada foydalanishi lozim. Bu reyting nazorat, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish va qo'llashni uddalay olish va b.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati kasbiy tayyorgarlikni erkin ravishda tanlagan, yuksak kasbiy bilimga ega bo'lgan, o'z burchini chuqur his etgan holda ijtimoiy ahamiyatli vazifalarni uddalashga qodir, iste'dodi va maqsadlarini, o'sib kelayotgan avlod uchun mas'ullikni ijodiy idrok qiluvchi, jamiyat oldida o'z ijtimoiy - pedagogik ro'lini anglovchi har tomonlama rivojlangan shaxsni tayyorlab yetishtirishni nazarda tutadi. Buning uchun bo'lg'usi mutaxassislar - pedagog-o'qituvchilarda bu kasbni tanlashning nekbin ijtimoiy - shaxsiy motivlarini shakllantirishga alohida urg'u beriladi. Motiv - odamni extiyojlarni qondirish bilai bog'liq faoliyatga undash, faollikni qo'zg'ash va uning faqat yo'naltirilganligigina emas, balki xulq-atvorini xam belgilab berish bo'lib, qator tashki va ichki shart-sharoitlardan kelib chiqadi. Qisqasi, motiv - kishi extiyojlarini ro'yobga chiqaruvchi xatti-harakat va muomala xilini tanlashning anglangan sababidir. Shaxsiy ma'no tashuvchi ob'ektiv kadriyatlar, manfaatlar va ideallar motivning qo'zg'atuvchilari bo'lishi mumkin. Shaxs o'z oldiga vazifa va faoliyatning yangi motivlarini haddan ziyod ko'p qo'ygan xollarda o'zgaruvchanlik va o'sish unga xos xususiyat bo'ladi. Motiv shaxsning muayyan yo'naltirilganligini belgilab beruvchi sabablardan biridir. Bunda shaxsni yuksak darajada faol holatta keltirishga qodir bo'lgan omillar zarur. Bo'lg'usi o'qituvchilarda pedagogik kasbini tanlashning ijtimoiy-shaxsiy motivlarini qanday qilib shakllantirish mumkin? Avvalo, quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur: o'tmishdagi, masalan,

- o'rta asr Sharqidagi va bugungi kundagi taniqli pedagoglar asarlaridan tegishli o'rnlarni hikoya qilib berish;
- o'quvchilarning maktab davrida pedagogik kasbini tanlashlariga sabab bo'lgan motivlar ifodalangan xotira va hikoyalariga murojaat qilish;
- mamlakatimizda o'qituvchi kasbining roli hamda ahamiyatini, obro'-e'tibori va maqomini oshirishga yo'naltirilgan davlat kafolatlarini (hukumatning tegishli xujjatlari va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ga tayangan holda) so'zlab berish;
- o'qituvchining respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimidagi bugungi ijtimoiy mavqeyini tushuntirib berish;
- o'qituvchi kasbi hamisha va, ayniqsa, bugungi kunda nufuzli ekanligini (respublika pedagogik nashrlaridagi maqolalardan foydalangan holda) hikoya qilib berish;
- pedagogik faoliyatning kasbiy-shaxsiy istiqbollari (oily ta'limda o'qish, kasbiy malaka oshirish, ilmiy o'sish, xizmatda yuqorilash) ochib berish;
- o'quvchilarga o'qituvchilik kasbi o'z-o'zini anglash va o'zini ro'yobga chiqarish asosiga qurilgan o'ziga xos ijodiy faoliyat ekanligini yetkazish;
- bo'lg'usi o'qituvchilar bilan kasbiy tayyorgarlik mazmuni va umum ta'lim, kasbiy- pedagogik hamda maxsus bilimlarni egallash haqida suhbatlar o'tkazish. (Bunda maqsadga qaratilgan tarbiya, shaxsni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, pedagogik qiyofani shakllantirish va takomillashtirishning imkoniyatlari hamda istiqbollari xususida ham fikr yurtiladi;
- oliy o'quv yurti va pedagogik amaliyot sharoitlarida kasbiy-shaxsiy yutuqlarni dolzarblashtirish va ijtimoiylashtirish haqidagi hikoya-axborotlarni eshitish;
- bo'lg'usi o'qituvchilarni shaxsiy, kasbiy o'z-o'zini takomillashtirishga (boshqariladigan yoki mustaqil), buning uchun kasbiy-shaxsiy qiziqish bo'lishi zarurligiga ishonitirish.

Bo'lg'usi o'qituvchilarda pedagogik kasbini tanlashning ijtimoiy - shaxsiy motivlarini shakllantirishda o'quvchilar e'tiborini shaxsiy hissiy-extiyojiy jihatga va ijtimoiy darajasiga qaratish muhimdir. Bunda mazkur

motivlarning pedagogik tayyorgarlik jarayonida asta-sekin anglanishi va faoliyat vaqtida, ayniqsa pedagogik amaliyot davrida o'quvchilar ongiga singishini, asosiy mezon – ijtimoiy – pedagoik faollikning holata o'z-o'zini baholashga muhtojligini nazarda tutish zarur. Bo'lg'usi o'qituvchilar bilan olib boriladigan, ularni pedagogik faoliyatga yo'naltiradigan, ijtimoiy-shaxsiy motivlarni anglashga asoslangan motivlash ishlarini tizimli rejali shaklda tasavvur etish mumkin.

O'quvchilar - bo'lg'usi o'qituvchilarda mutaxassislikni tanlashning ijtimoiy - shaxsiy motivlarini shakllantirish jarayonining shakli va tarkibiy - mazmuniy asoslari quyidagilarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi:

- zamonaviy ta'limning metodologik vazifalari;
- milliy dasturda pedagogik xodimlar shaxsiga qo'yilgan talablar;
- o'qitish sub'yekti shaxsi, jumladan, yosh psixologiyasi;
- motivlash nazariyasi, motivning o'suvchanligi;
- O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muvafaqqiyatlar bilan tanishtirish;
- pedagogik xodimlar tayyorlashning bugungi holati;
- bo'lg'usi o'qituvchilar bilan olib boriladigan motivlash ishi psixologiyasi;
- o'quvchilarning kelajakni oldindan ko'ra bilgan holda o'z istiqbolini belgilashi;
- mazkur jarayonning pedagogik texnologiyasi;
- ijtimoiy faollik omili;
- qadriyatlarga asoslangan yondashuv va o'z-o'zini ob'yektiv baholash;

Quyidagilar jismoniy tarbiya o'quvchilarining pedagogik kasbini tanlashda ijtimoiy-shaxsiy motivlarning asosiy mezonlari hisoblanadi:

- bo'lg'usi o'qituvchilarning motivlash omiliga hissiy yondashuvi;
- manfaat va extiyoj;
- anglanganlik;
- kelajakni oldindan ko'ra bilgan holda o'z pedagogik tayyorgarligi natijalarini tashxislash;
- mazkur motivni faoliyatda, jumladan pedagogik faoliyatda ijtimoiylashtirish;
- bo'lg'usi o'qituvchining ijtimoiy-shaxsiy motivlarni bevosita faoliyatda - o'quv, auditoriyadan tashqari, jamoatchilik ishida, o'quv pedagogik amaliyotida ro'yobga chiqarishiga o'z bahosini berishi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bo'lg'usi o'qituvchilarda kasb tanlashning ijtimoiy-shaxsiy motivlarini shakllantirishda o'quv-tarbiya jarayoni va har qanday faoliyatning asosi hamda zarur sharti sifatida manfaat ustivorlik qiladi. Aynan manfaat va motiv bo'lg'usi o'qituvchilar shaxsini o'quv-tarbiya jarayoniga rag'batlantiradi hamda yo'naltiradi, o'quvchilarning tafakkur qilish va intellektual-ijodiy faoliyatini, ularning kasbiy kelajakni yaratish va ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganligini uyushtiradi hamda faollashtiradi. Biroq bulardan avval « hali kutilayotgan natijaga (ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda) ko'rsatma hamda aniq mo'ljal bo'lishi zarur. Bo'lg'usi o'qituvchilarda ushbu tarkibiy-mazmuniy tizimda ijtimoiy-shaxsiy motivlarni shakllantirishda faqat tanlangan kasb, uning ijtimoiy-shaxsiy mohiyati yetarli darajada chuqur va anglangan bo'libgina qolmay, ijtimoiy qadriyatlarga mo'ljal ham mazmunli bo'ladi. O'quvchilar yuksak ijtimoiy faollik holatiga ko'tariladilar. Qolaversa, shaxsning ijtimoiy tarbiyasi yuz beradi. Shu tariqa ta'lim tizimiga qat'iy kasbiy yo'naltirilgan, o'qituvchi nomiga munosib va uni kasbiy iftixor sifatida qabul qiladigan ijtimoiy faol mutaxassis shakllantiriladi. Bo'lg'usi o'qituvchilar kasb tanlashining ijtimoiy-shaxsiy motivlari pedagog xodimlarni tayyorlash tizimida juda muhim omil bo'lib, ertangi mutaxassisning shaxs sifatida faolligini boshqarib boradi.

Bo'lg'usi o'qituvchilarni tanlangan kasbga faollashtirish tizimini quyidagicha ifodalash mumkin:



Bo'lg'usi o'qituvchilarning ijtimoiy-shaxsiy motivlash faoliyatlarini quyidagicha jadvalda aks ettirish mumkin:

| <b>Bo'lg'usi o'qituvchilarning ijtimoiy-shaxsiy motivlash faoliyati</b> |                                      |                            |
|---|--------------------------------------|----------------------------|
| O'quv   | Auditoriyadan tashqarida jamoat ishi | Pedagogik amaliyot davrida |
| <b>Yakunlarni chiqarish</b>   |                                      |                            |

Bo'lg'usi o'qituvchilarning o'z faoliyatini "Men" konseptsiyasi mazmuniga muvofiq holda baholash O'qituvchi tomonidan bo'lg'usi o'qituvchilarni o'quv, auditoriyadan tashqarida va pedagogic faoliyatini bosh mezon-ijtimoiy faollikka ko'ra tahlil etish hamda baholanishi

**XULOSALAR.** Jamiyat rivojlanishining hozirgi zamon bosqichida barkamol shaxsni tarbiyalash, uning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatligini ustahkamlash, ish qobiliyatlarini oshirish, jamoada qulay ruhiy muhitni yaratishning ko'p qirrali jarayonida jismoniy tarbiya bva sportning ahamiyati ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Jismonan baquvvat, mard, botir insonlarni tarbiyalahga hissa qo'shadigan o'qituvchi-trenerlar faoliyati jismoniy tarbiya tizimida muhim o'qinni egallaydi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchi-murabbiyning kasb-pedagogik faoliyati ko'p qirralidir. U bir qator majburiyatlarning bajarilishini o'z ichiga oladi. Ular orasida quyidagilarni ajratish lozim:

o'quv-tarbiyaviy ishlar;

o'quvchilarning jismoniy tarbiya va sportga oid faoliyatlarini boshqarish;

sportga layoqatli va iqtidorli bolalarni saralash va ular bilan muntazam shug'ullanish;

dars, trenirovka hamda musobaqalarni moddiy-texnik ta'minlash;

kasbiy odob malakalarini egallash va shaxsiy kasbiy mahoratni oshirish.

Shuning uchu pedagogika kollejlarda jismoniy tarbiya bo'yicha kasb egallayotgan o'qituvchiga faqat o'z predmeti yuzasidan bilimlarga ega bo'lish kifoya qilmaydi., u pedagogka va psixologiyaga doir bilimlarni o'zlashtirish va ularni muntazam to'ldirib borish kerak.

Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi o'ta xilma-xil kasbiy va shaxsiy sifatlarini namoyon qiladi. Bu sifatlar bir-biri bilan bog'langan va o'qituvchining amaliy faoliyatida bir burun sifatid ayuzafa chiqadi. Shaxsiy sifatlar, maxsus bilimlar va kasbiy taribaning murakkab hamda ko'p qirrali birikmasini pedagogik qobiliyatlar deb atash qabul qilingan.

Pedagogik qobiliyatlarining shakllanishiga o'qituvchilar tayyorlaydigan o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni katta ta'sir ko'rsatadi. Ammo har bir bo'lajak o'qituvchi o'zida pedagogik qobiliyatni rivojlantirish uchun zo'r ishtiyoqni namoyon qilishi erak. Chunki pedagogik qobiliyat pedagogik faoliyatning shartigina emas, balki natijasi hamdir.

Pedagoglik mahorati o'qituvchida kasbiy odobning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining umumiy ma'naviy tarbiyalanganlik pedagogik kasbiy odobning asosidir. Pedagogning kasbiy odobi- bu o'quvchilarga nisbatan pedagogik etikaning o'ziga xos amalga oshirilishidir. Kasbiy odob malakalari esa- bu o'qituvchining yuksak insoniylik, insonga mehribonlik, o'zini tuta bilish, sabr-bardosh, har qanday vaziyatlarda ham xayrixoxlik munosabatini o'rnatish olish kabilarni qamrab oluvchi ma'naviy xulq-atvordir. Pedagoglik odobuiga ega bo'lgan o'qituvchilar, ota-onalar, hamkasblari bilan bo'ladigan o'z munosabatlarini ustalik bilan boshqaradi.

Pedagoglik odogiga avvalo insonga chuqur hurmat namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning tarkib topayotgan shaxsi bilan ish ko'radi va uning o'quvchilar bilan bo'ladigan barcha munosabati:insonga mumkin qadar ko'p talabchanlik va unga hisbatan mumkin qadar ko'p hurmat prinsipi asosida qurilishi kerak.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining bir qator kasbiy malakalri pedagoglik odobi blan bog'langan. Bu pedagogik vaziyatni baholash, o'quvchilarning xususiyatini hisobga olish, pedagogik ta'sir ko'rsatish keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan samarani oldindan ko'ra bilish malakasidir. Pedagoglik odobi yuksak pedagogik mahorati mavjudligining belgisidir. Kasbiy odob malakalarini egallash bo'lajak o'qituvchidan o'z ustida puxta o'ylab ishlay olishni talab qiladi. Kollejda o'qib yurgan vaqtidan boshlab bo'lajak o'qituvchilar o'z hatti-harakatini doimo nazorat qilishi, qarashi, ishorasi bilan boshqalar harakatiga o'z munosabatini bildira bilishi kerak., ya'ni

pedagogik odobi o'qituvchida o'z tuyg'ularini ifoda qilishning sof tashqi malakalari mavjud bo'lishini ham nazarda tutadi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi, o'quvchilar sport faoliyatiga rahbarlik qila olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish bo'lishi lozim. Sport faoliyati sog'liqni mustahkamlash va bolalar organizmini chiniqtirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning jismoniy rivojlanishlariga yordam beradi, ularning ishchanlik qobiliyatini oshiradi. Bu faoliyat turining o'ziga xos xususiyati, unda o'quvchilarning barchasi faol ishtirok etishidir. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarga ten ta'sir etish orqali ularning dars va drsdan tashqari sport faoliyati, sport bayramlari, harbiy sport o'yinlar, ommaviy musobaqalar, ochiq havodagi o'yinlarni tashkil etish malakalarini egallagan bo'lishi shart.

#### AMALIY TAVSIYALAR.

Pedagogika kollejlari bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari tayyorlash tizimi muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchining kasbiy odob malakalarini shakllantirish imkoniyati kattadir. Jismoniy tarbiya va sportga oid bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkam egallash bilan birga bo'lajak o'qituvchilar sifatida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish metodlari va vositalarini ham o'zlashtirib borishlari talab etiladi.

Pedagogika kollejlari o'tkaziladigan mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida kollej o'quvchilarining kasbiy mahoratini takomillashtirishga oid o'quv maqsadlarini belgilash va uni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Pedagogika darslarida esa jismoniy tarbiya darslarida o'qituvchisida faoliyati va madaniyati, pedagogning kasbiy odob malakalarini shakllantirib borishga ahamiyat berish kerak.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyati shig'ullanuvchilarga bilim berish hamda bilimlarning egallanish jarayoni, harakat va malakalari va ko'nikmalarining shakllanishini boshqarib turishga qaratilganligi uchun o'qitishning har bir amaliy o'qituvchining o'qitish jarayonidagi yetakchilik qilish ahamiyati tamoyilini amalga oshirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarda boshqarish texnikasini egallashga ahamiyat berish zarur bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubi. Toshkent. O'z. J.T.I nashri 2006 yil.- 303 bet

Alisher o'g'li, A.M. (2024). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSINI O'RGANILGANLIGI. Miasto Przyszłości, 44, 543-549.

Alisherovich, A. F. A. A. F. (2023). JISMONIY YUKLAMA TO'G'IRISIDA UMUMIY TUSHUNCHA VA JISMONIY MASHQLAR YUKLAMASINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Scientific journal of the Fergana State University, (5), 112-112.

Usmonxo'jayev T, Yusupov B va boshqalar. Jismoniy tarbiya (kasb hunar ta'limi kollejlari uchun darslik) Toshkent. O'qituvchi. 2008 yil. -208 bet

Usmonxo'jayev T, Arzumanov S. Qodirov b. Jismoniy tarbiya (7-8 sinflar uchun darslik) Toshkent. O'qituvchi. 2001 yil.- 152bet

Xolliyev I. Xusanov J. Kasb-hunar ta'limi: texnologiya ma'naviyat. Mahorat. Toshkent. O'qituvchi. 2003 yil. -256 bet

Ochilova N Istiqloldagi ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik asoslari. Toshkent. Fan. 2009 yil. -239 bet

Очилова Н Ўқитувчи одоби. Ўқув қўлланма. Тошкент. Ўқитувчи. 1997 йил. 136 бет

Karimova F.A. Sport kurashi nazariyasi. Va uslubiyoti Toshkent. O'z DJTI. nashriyoti. 2001 yil.-285bet.

Xushmuradova I. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .Avtoreferat. TDPU. 2008.

Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent. Tib kitob 2009 182 bet

Ahmatov S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport –sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. T.2005 yil

Qurbonov.R. Jismoniy tarbiya va sport. Turizm. O'zbekiston milliy ensklopediyasi. 2006 12-tom. 360-368 betlar.

Allaberganov.A. A.Akobens.G.E. Kasb etikasi va psixologiyasi. Toshkent Cho'lpon.2007.120 bet.

## MAXSUS MUSIQIY BELGILAR (NOTALAR) VOSITASIDA KO'RISHDA NUQSONI BOR O'QUVCHILARNI MUSIQIY BILIMINI OSHIRISH

Nurullayev Farrux Gaybulloyevich

Buxoro davlat pedagogika instituti, Musiqa va tasviriy san'at kafedrası, p.f.f.d.(PhD) dots. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi va ekranga kirish uchun kompyuter dasturlarining paydo bo'lishi ko'rish imkoniyati cheklangan odamlarni o'qitishning yangi shakllarini yaratish va rivojlantirishga va ta'lim tizimida an'anaviy fanlarni o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Musiqa-kompyuter texnologiyalarining (MKT) paydo bo'lishi va rivojlanishi o'quv jarayonida yangi shakllar, shuningdek, yangi fanlarning yaratilishiga, zamonaviy musiqa ta'limi tizimida yangi fanlar va yangi ta'lim yo'nalishlarining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. shu jumladan raqam - shu jumladan. Maqolada musiqa fanlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan musiqa ta'lim muassasalarida «Musiqa informatika» va «Kompyuter aranjirovkasi» fanlarini o'qitishning asosiy mazmuni jihatlarini tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: musiqa va kompyuter texnologiyalari, musiqa informatikasi, kompyuter aranjirovkasi, inklyuziv musiqa ta'limi, ko'rish qobiliyati zaiflar

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi, ayniqsa, ekranni o'qish uchun mo'ljallangan kompyuter dasturlarining paydo bo'lishi ko'rish qobiliyati zaif odamlarga musiqa o'qitishning yangi shakllarini yaratish va rivojlantirishga, ikkala an'anaviy fanlarni o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqishga va yangi fanlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Zamonaviy multimedia kompyuterining funksiyalarini o'zlashtirish ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga tovush va musiqa olamining cheksiz makonini kashf qilish uchun ulkan imkoniyatlar ochadi. Ayniqsa, ko'zi ojiz o'quvchilar musiqa kompyuterida ekranga kirish dasturlari (nutq sintezatorlari) yordamida – kompyuter sichqonchasi ishtirokisiz, monitor o'chirilgan holda va eng muhimi, tashqi yordamisiz ishlashi mumkinligi alohida ahamiyatga ega. Bu chuqur ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga hozirgi paytda talab qilinadigan yangi kasblarni o'zlashtirish imkonini beradi, shuningdek, ularning shaxsiy va ijodiy o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini kengaytirishga katta hissa qo'shadi.

**METODLAR VAYONDASHLASHLAR.** Ko'zi ojiz odam uchun eng muhim kamomad - axborot etishmasligi raqamli texnologiyalar, xususan, kompyuterlar, smartfonlar va boshqalar yordamida eng mashhur platformalar - Windows, Mac uchun ishlab chiqilgan nutq dasturlari tufayli to'ldiriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy operatsion tizimlarda ko'zi ojiz va ko'r odamlar uchun o'ziga xos bir qator o'rnatilgan ilovalar mavjud (ekran lupalari, ekranni o'qish moslamalari), ammo interfeysi grafik ob'ektlarga asoslangan murakkab dasturlar bilan ishlash qiyin ( tugmalar, ovoz muharrirlarida amplituda va spektr analizatorlari, joylashuv belgilari va boshqalar) bu mablag'lar ruxsat bermaydi.

Bugungi kunda ekranni o'qish uchun eng kuchli ikkita dastur mavjud - JAWS for Windows va NVDA.

Windows uchun JAWS Ekranni o'qish dasturi (Job Access With Speech) Windows tizimidagi shaxsiy kompyuterlarda ishlaydigan dunyodagi eng mashhur ekran o'qish dasturidir.

Tizim va ofis ilovalariga va boshqa kerakli dasturlarga, shu jumladan Internet-brauzerlarga kirishni ta'minlaydi. Nutq sintezatori tufayli ekrandagi ma'lumotlar kompyuterining audio kartasi orqali ovoz chiqarib o'qiladi, JAWS shuningdek, nuqta-releflari Brayl displeyida ma'lumotni ko'rsatadi, bu esa klaviatura buyruqlarining katta to'plamini o'z ichiga oladi. odatda faqat sichqoncha bilan bajariladigan amallarni takrorlash uchun. Ushbu buyruqlar tezlik va samaradorlikni oshirish uchun mo'ljallangan boshqa foydali funktsiyalarni ham bajaradi. Paketga kiritilgan yordamchi dasturlar deyarli har qanday dastur bilan eng qulay ish uchun nozik sozlash imkoniyatini beradi.

NVDA (inglizcha: NonVisual Desktop Access) MS Windows uchun bepul, ochiq kodli dastur bo'lib, u ko'zi ojizlar va og'ir ko'rish qobiliyati buzilgan odamlarga kompyuterda vizual nazoratsiz ishlash imkonini beradi, nutq yoki Brayl displey yordamida barcha kerakli ma'lumotlarni aks ettiradi. NVDA yetuk ekranni o'qish uchun mo'ljallangan mahsulot bo'lib, u har doim qulaylik texnologiyasining eng yangi bosqichida. NVDA ochiq kodli loyiha bo'lganligi sababli, etarli bilimga ega bo'lgan har bir foydalanuvchi dasturni ishlab chiqishga hissa qo'shishi yoki uni o'zi uchun qulayroq qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

NVDA dasturi ko'magida maxsus chiqarilgan 7.5.1 versiyasidan boshlab, Sibelius qo'shma loyihasi (Sibelius Software (Avid Technology) kompaniyasining MS Windows, Mac OS va RISC OS operatsion tizimlari



uchun cross-platforma ball muharriri dasturi) taqdim etadi. murakkab musiqiy matnlar bilan ishlash uchun nutq hamrohligi bilan ekranga kirish. Bu, birinchi navbatda, vizual nota va grafik materiallarni kiritish, tahrirlash va o'qish - nazariy fanlar talabalari va o'qituvchilari uchun birinchi navbatda etishmayotgan narsa.

Ko'zi ojiz odamlarni o'qitishda MKTdan foydalanish bugungi kunda istiqbolli innovatsion loyihalardan haqiqatga aylandi. Ko'zi ojiz shaxslarni inklyuziv musiqa ta'limiga jalb etish imkoniyatlari kengaymoqda. Ilgari bilim va ko'nikmalarni faqat og'zaki (birinchi navbatda nazariy fanlar: musiqa nazariyasi, garmoniya, polifoniya, solfejio) tekshirish mumkin bo'lgan hollarda kompyuter grafikasi dasturlari bilan ishlash imkoniyati paydo bo'ldi.

MCT yordamida ko'r bastakorlar musiqa matnini mustaqil ravishda terish va uni keyingi nashrga tayyorlash uchun to'liq huquqli vositaga ega bo'lishdi. Bu mualliflarning ijodiy g'oyalarini amalga oshirishni ancha tezlashtirdi, chunki musiqa matnlari avval L. Brayl tizimi bo'yicha relyef-nuqta usulida yozilishi, shundan keyingina materialni diktalash yoki Brayl yozuvida maxsus o'qitilgan nusxa ko'chiruvchiga berilishi kerak edi. Bunday mutaxassislar esa nafaqat mamlakatimizda, balki dunyoda ham juda kam.

Ko'zi ojiz odamlarni professional musiqiy faoliyatning yangi, ilgari erishib bo'lmaydigan sohalarida o'qitish uchun haqiqiy imkoniyat paydo bo'ldi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va MKT turli ijtimoiy guruhlar uchun yuksak badiiy musiqiy madaniyatni joriy etishda ta'lim jarayonida ajralmas vositaga, shuningdek, inklyuziv pedagogik jarayonni amalga oshirishning o'ziga xos texnologiyasiga aylanmoqda, chunki MKTdan foydalanish yangi ijodiy istiqbollarni ochib beradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish chuqur ko'rish qobiliyati buzilgan talabalarning kundalik hayotida mustahkam o'rin oldi. Deyarli barcha talabalar o'quv maqsadlarida raqamli pleerlar, ovoz yozish moslamalari, shaxsiy kompyuterlar, noutbuklar, planshet kompyuterlar va smartfonlardan foydalanadilar. Ish stoli va mobil qurilmalarni Internetga keng polosali ulanishga ulash odatiy holga aylandi va buni xohlovchilarning 100% ehtiyojlarini qondiradi. Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rayotganda, ko'pchilik talabalar raqamli shaklda yozilgan audio materiallardan, matnli elektron hujjatlardan (eslatmalar, kitoblar, Internetdagi maqolalar) maxsus dasturiy ta'minot ovoz sintezatorlari va ekranga kirish dasturlari yordamida muntazam ravishda foydalanadilar.

Ushbu toifadagi odamlar hanuzgacha tekis bosilgan musiqiy matn bilan to'liq ishlash va uni bo'rtma-nuqta versiyasida ko'paytirish imkoniyatidan deyarli mahrum. Ko'zi ojizlar uchun musiqiy brayl bilan ishlash uchun maxsus dasturiy ta'minot bugungi kunda dunyoda mavjud emas va ekranga kirish dasturlarini musiqa muharrirlariga moslashtirishga urinishlar (xususan, Avid Sibelius) vizual materialni to'liq o'qish uchun kerakli natijani bermadi. Bundan tashqari, musiqa grafikasi bilan ishlash uchun mavjud dasturlarning hech biri ma'lumotni taktill Brayl displeyiga va ko'tarilgan nuqta shriftida chop etish uchun printerga chiqarishga qodir emas.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan musiqa fanlarini o'qitishda yuqorida aytib o'tilgan fanlarning maqsadi, mohiyati nimadan iborat? Zamonaviy dasturiy ta'minot bilan ishlaydigan musiqachi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan vizual analizator patologiyasi bo'lgan odamlar uchun yaratilgan turli xil yordamchi dasturiy vositalardan qanday foydalanish kerak? Bunday ixtisoslashtirilgan rehabilitatsiya dasturlariga raqamli texnologiyalar bilan ishlaydigan musiqachilar faoliyatida keng talab qilinadigan, xorijiy hamkasblar tomonidan bajariladigan va tarjima bilan bog'liq qo'shimcha funktsiyalarni talab qiladigan dasturlar kiradi. Ko'zi ojiz tarjimonlar tomonidan keng qo'llaniladigan Web-asoslangan Computer-Aided Translation (CAT) [97] va EasyTrans [98] kabi maxsus dasturlardan foydalanish mumkinmi?

Bu va boshqa ko'plab savollar bugungi kundagi faoliyati chuqur ko'rishda nuqsoni bo'lgan talabalarni o'qitish bilan bog'liq bo'lgan o'qituvchi-tadqiqotchilarni qiziqtiradi.

Biz ushbu maqolada o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida "Musiqiy informatika" va "Kompyuter aranjirovkasi" fanlarini chuqur ko'rishda nuqsoni bo'lgan musiqa talabalariga o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Raqamli musiqa asboblardan foydalangan holda ijodiy faoliyat dastlab ixtiyoriy fan bo'lgan bo'lsa, keyinchalik "Kompyuter aranjirovkasi" ixtisoslashtirilgan o'quv kursining asosini tashkil etdi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, «Musiqiy informatika» va «Kompyuter aranjirikasi» fanlarining kiritilishi «Asboblari va aranjirovka», «Konsertmeyster sinfi», «Solfejio», «Garmoniya» va boshqa ko'plab fanlarni to'liq o'zlashtirishga yordam beradi. Ko'zi ojizlar musiqa maktab-internatida ko'rishda nuqsoni bo'lgan talabalarga musiqaga kasbiy ta'lim berishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu fanlar ko'rish qobiliyati zaif talabalar uchun katta qiziqish uyg'otadi, chunki o'quv jarayoni kompyuter texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq va bugungi kunda nisbatan yangi ta'lim shakli talabalarni ayniqsa o'ziga jalb qiladi.

"Musiqiy informatika" boshqa fanlar bilan birgalikda ko'rish analizatori patologiyasi bo'lgan yoshlarni kasbiy

malakasini oshirishga, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishga va kelajakda kasbiy faoliyatga integratsiyalashuviga yordam beradi.

“Musiqiy informatika” kursining maqsadi zamonaviy raqamli texnologiyalar va MCT yordamida ko‘zi o‘ziga musiqachining moslashish imkoniyatlarini kengaytirish, uning ijodiy salohiyatidan to‘liqroq foydalanishga ko‘maklashish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Mavzuning vazifalari: raqamli audio texnologiyalari bilan tanishish va o‘zlashtirish, raqamli va sintezlangan tovush, turli formatdagi musiqiy materiallar bilan ishlash tajribasiga ega bo‘lish.

Ushbu kurs quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkoniyatini beradi:

- audio va MIDI ma‘lumotlari bilan ovoz muharrirlari va sequencer dasturlarida ishlash;
- musiqa terish, orkestr, xor, ansambl asarlari uchun partituralar va qismlarni tayyorlash va hokazo;
- jonli ovozni yozib olish va uni aylantirish.

Amaliyotda talabalar professional musiqa dasturiy ta‘minotining asosiy turlari bilan tanishadilar:

- audio tahrirlash dasturlari (Adobe Audition, Sound Forge, Wavelab);
- sekvenser dasturlari (Cubase, Reaper, Sonar, Studio One);
- musiqa kompyuter grafik dasturlari (Final, Sibelius);
- agar vaqt bo‘lsa, siz ushbu ro‘yxatga dizayn dasturlarini ham kiritishingiz mumkin: MIDI (Band-in-a-Box) va audio (Dance eJay, Magix Music Maker va boshqalar).

Har bir guruhdagi dasturlardan biri bilan tanishish kifoya, chunki ularning ishlash algoritmi va funktsionalligi deyarli bir xil, farq interfeysni qurish mantiqida.

Audio muharrir dasturlari audio ma‘lumotlar bilan moslashuvchan ishlashga qaratilgan. Bu tovushni qanday bo‘lsa - tovush to‘liqini shaklida ifodalovchi eng universal texnologiya. Bu dasturlar raqamli magnitafon, audio tahrirlash stansiyasi va tovushni qayta ishlash qurilmalari to‘plamining funktsiyalarini birlashtiradi, ular musiqa materialini yozib oladi, o‘ynaydi va tahrir qiladi; Ko‘rish qobiliyati buzilgan odamlar uchun maxsus nutq dasturlari yordamida ushbu turdagi dasturlarda deyarli barcha funktsiyalar va tahrirlash turlari mavjud. Ularning yordami bilan siz radioeshittirishlar va audio kitoblar uchun audio materiallarni professional tarzda tayyorlashingiz, eski yozuvlarni raqamlashtirish va tiklashingiz, ovoz tezligi va balandligini professional darajada o‘zgartirishingiz mumkin va hokazo.

Sequencer dasturlari musiqiy kompozitsiyalarni noldan yozib olish uchun mo‘ljallangan. Ular har doim ko‘p trekli bo‘lib, virtual studiyaning ko‘plab funktsiyalarini birlashtirgan turli xil asboblarning mustaqil qismlaridan asar yaratishga imkon beradi. Ovoz dasturiy ta‘minot virtual sintezatorlaridan ham, tashqi ovoz modullaridan ham yaratilishi mumkin. Bu dasturlar audio materiallar bilan ham ishlaydi. Partiyada «jonli» asboblarni (ovozlar, torlar, shamollar va boshqalar) yozib olish va ulardan foydalanish audio loyihaning umumiy ovozini boyitishga yordam beradi.

Ko‘zi o‘ziga musiqachilar uchun eng muvaffaqiyatli moslashtirilgan virtual sekvenserlardan biri Cakewalk-dan Sonar dasturidir. JAWS ko‘magida dasturning deyarli barcha funktsiyalari ko‘zi o‘ziga odam tomonidan foydalanishi mumkin.

“Kompyuterni aranjirovka qilish” kursi “Musiqiy informatika” fanini o‘rganish natijasida talabalar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalarga asoslanadi va uning tabiiy davomi yoki qo‘shimchasi hisoblanadi (agar darslar o‘quv rejasida xronologik jihatdan mos kelsa).

Bugungi kunda juda ko‘p texnik ma‘lumotlar nafaqat bosma shaklda, balki Internetda o‘quv videolari va audio podkastlar ko‘rinishida ham mavjud. Shu sababli, texnik materiallarning bir qismi mustaqil o‘rganish uchun qoldirilishi mumkin, bu o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni darsda amaliy amalga oshirish uchun ko‘proq vaqt beradi.

Avvalo, birinchi dars boshlanadigan suhbat davomida umumiy bilim darajasini aniqlash kerak: umuman shaxsiy kompyuterdan va xususan MCTdan foydalanish sohasida. Keyingi - musiqiy ma‘lumotlarning amaliy sinovi: eshitish (melodik, garmonik, tembr, modal va ekstra-modal); asbobni o‘zlashtirish (birinchi navbatda, pianino va klaviaturali elektron musiqa asbobi - EMI); pianino klaviaturasida orientatsiya (akkord progressiyasini, turli tugmachalarda melodik iborani ijro etishni so‘rang va hokazo). Shu bilan bir qatorda, tinglash qobiliyatlarini aniqlash uchun tahlil qilish uchun oddiy qo‘shiq yoki instrumental kompozitsiyani kiritishingiz mumkin. Musiqa nazariyasi sohasidagi bilimlarni tekshirish kelajakda talabaning kasbiy tayyorgarligiga qarab optimal muloqot tilini tanlashga yordam beradi. Qabul qilingan ma‘lumotlar amaliy mashg‘ulotlarni boshlash uchun boshlang‘ich nuqta bo‘ladi.

Talabaning texnik bilimi va musiqiy qobiliyatini ochib beruvchi ijodiy ishlarning bir nechta turlari mavjud:

- tayyor asl kompozitsiya uchun aranjirovka (mintagi) yaratish;
- notada berilgan asarni asbobsozlik;
- mavjud kompozitsiyani remiksi (cover, remeyk);
- o'zingizning kompozitsiyangiz yoki boshqa muallif tomonidan yozilgan (o'ynagan, kuylagan), lekin avval aranjirovka qilinmagan musiqa uchun aranjirovka yaratish.

Bu faqat bitta asbob yordamida hamrohlikni yozish, klassik asarlarni qayta ishlash, kompyuter grafikasi dasturida orkestr yoki xor partiturasini yaratish va hokazo. Vokal yoki instrumental kompozitsiya bo'ladimi, muhim emas, material talabaning o'zi tomonidan taklif qilinishi yoki uning musiqiyligini hisobga olgan holda tanlangan bo'lishi muhimdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, MCT talabalarini o'qitishda faqat differentsial yondashuv eng samarali usuldur. Texnik komponentdan tashqari yagona nazorat talablari bo'lishi mumkin emas. Har bir insonning musiqiy saviyasi, ijodiy salohiyati ham har xil. Tayyor musiqiy mahsulot ko'rinishida yakuniy natijaga erishadigan faoliyat turini tanlash juda muhim (bir necha darslardan so'ng yoki kompyuterni tartibga solish texnikasini o'zlashtirishga mustaqil urinishlardan so'ng, etarli darajada tayyorlangan talaba musiqachilar qanday qilib yo'qolganiga ko'plab misollar mavjud. ushbu yo'nalishda rivojlanishni davom ettirish istagi). Bu hatto bir yoki bir nechta asbobdan foydalangan holda kichik bir asar yoki kompyuter grafikasi dasturida yaratilgan oddiy xor aranjirovkasi bo'lsin. Asosiysi, talaba o'z ijodiy g'oyalarini amalga oshirish boshidan ko'rinadigan darajada qiyin emasligini tushunib yetadi.

MCTni o'zlashtirish ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan birgalikda nafaqat professional o'sishni rag'batlantiradi, balki qo'shimcha, bugungi kunda talab qilinadigan musiqachi-aranjerlik mutaxassisligini egallashni ham nazarda tutadi.

Turli yoshdagi va turli darajadagi tayyorgarlik darajasidagi ko'zi ojiz musiqachilar uchun nota yozuvlari va kompyuter grafikallari bilan bog'liq dasturiy-apparat tizimlarini ishlab chiqish tifo mahsulotlari sohasidagi eng istiqbolli va eng muhim yo'nalish hisoblanadi. ko'rish qobiliyati zaif odamlarning o'quv jarayoni. Ushbu vositalardan foydalanish natijasida ko'zi ojiz shaxslarni inklyuziv musiqa ta'limiga jalb qilish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi. Ilgari bilim va ko'nikmalarni faqat og'zaki (birinchi navbatda nazariy fanlar: musiqa nazariyasi, garmoniya, polifoniya, solfejio) tekshirish mumkin bo'lgan hollarda kompyuter musiqa grafikasi dasturlari bilan ishlash mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga, ko'zi ojiz kompozitorlar musiqa matnini mustaqil ravishda terish va uni keyingi nashrga tayyorlash uchun to'liq huquqli vositaga ega bo'ladilar. Bu mualliflarning ijodiy g'oyalarini hayotga tatbiq etishni ancha tezlashtiradi, chunki bugungi kunda musiqa matnlari avvalo Brayl tizimi bo'yicha relyef-nuqta usulida yozilishi kerak, shundan keyingina material diktant qilinishi yoki maxsus muallifga berilishi kerak. Brayl yozuvlarini o'qitgan nusxa ko'chirish. Bunday mutaxassislar esa nafaqat mamlakatimizda, balki dunyoda ham juda kam.

Bunday dasturiy ta'minotni ishlab chiqish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Bir tomondan, bu dasturlash sohasidagi mutaxassislar, ikkinchi tomondan, ushbu loyihani amalga oshirishdan manfaatdor bo'lgan, tizimning o'ziga xos xususiyatlarini va notali Brayl mantig'ini biladigan va loyiha uchun texnik vazifalarni qo'yishga qodir bo'lgan odamlardir. loyihani amaliy amalga oshirish.

Ko'zi ojizlar uchun musiqiy brayl bilan ishlash uchun maxsus dasturiy ta'minot bugungi kunda dunyoda mavjud emas va ekranga kirish dasturlarini musiqa muharrirlariga moslashtirishga urinishlar (xususan, Avid Sibelius) vizual materialni to'liq o'qish uchun kerakli natijani bermadi. Bundan tashqari, musiqa grafikasi bilan ishlash uchun mavjud dasturlarning hech biri ma'lumotni taktill Brayl displeyiga va ko'tarilgan nuqta shriftida chop etish uchun printerga chiqarishga qodir emas.

Ayni paytda ko'zi ojizlar uchun ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish konsepsiyasi faol muhokama qilinmoqda. Ushbu dastur nafaqat professional musiqachilarni tayyorlash, balki ko'zi ojiz bolalarning musiqa va brayl musiqasining chiziqli tizimini o'zlashtirishlari uchun ham zarurdir.

**XULOSALAR.** Zamonaviy musiqa kompyuterining funksiyalarini o'zlashtirish ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga tovush va musiqa olamining cheksiz makonini kashf qilish uchun ulkan imkoniyatlar ochadi. Ko'zi ojiz talabalar kompyuter sichqonchasi ishtirokisiz, monitor o'chirilgan holda va eng muhimi, tashqi yordamisiz ekranga kirish dasturlari (nutq sintezatorlari) yordamida musiqa kompyuteri bilan ishlashlari alohida ahamiyatga ega. Bu chuqur ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga hozirda talab katta bo'lgan yangi kasblarni egallash imkonini beradi, shuningdek, ularning shaxsiy va ijodiy o'zini-o'zi anglash imkoniyatlarini kengaytirishga sezilarli hissa qo'shadi.

## TALABALARNI MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Ochilova Zamira Shukrullo qizi  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti  
<https://orcid.org/0009-0003-9937-8483>

*Annotasiya: Bugungi kunga kelib ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri bu oritqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdan iboratdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda malum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish shuningdek, o'quvchilarning faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash uchun o'qituvchilardan yuksak pedagogik mahorat hamda talim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Nimaga aynan qisqa vaqt? Chunki o'quvchi diqqatini juda uzoq vaqt davomida darsga qarata olmaydi, tezda zerikib, tezda chalg'ib qoladi. Shu sababli o'qituvchi dastlab o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qila olishi, qisqa muddat ichida mavzuning mazmun mohiyatini o'quvchiga tushuntirib bera olishi kerak. Ushbu maqolada matematika darslarida talabalarni mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish yo'llari bayon etilgan. Biologik modellar hamda Epidemiyaning matematik modeli tuzulib, misollar yordamida bajarib ko'rsatilgan.*

*Kalit so'zlar: matematika, mantiqiy fikrlash, matnli masala, Biologik modellar, Epidemiyaning matematik modeli.*

## ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Очилова Замира Шукрулло кизи.  
Докторант Бухарского государственного университета

*Аннотация: Сегодня одним из требований к организации образования является достижение высоких результатов в короткие сроки, не затрачивая слишком много умственных и физических усилий. В целях доставки обучающимся определенных теоретических знаний в сжатые сроки, формирования навыков и компетенций в определенной деятельности, а также контроля деятельности обучающихся, оценки уровня приобретенных ими знаний, умений и компетенций, преподаватели должны быть высокопедагогическими, требует нового подхода к навыкам и подготовке. Почему именно короткое время? Поскольку ученик не может очень долго сосредоточиться на уроке, ему скучно и он легко отвлекается. Поэтому преподаватель должен уметь за короткий период времени привлечь внимание ученика и объяснить ему содержание темы. Были созданы и продемонстрированы на примерах биологические модели и математическая модель эпидемии.*

*Ключевые слова: математика, логические рассуждения, текстовая задача, биологические модели, математическая модель эпидемии.*

## FORMING LOGICAL THINKING SKILLS OF STUDENTS

Ochilova Zamira Shukrullo qizi  
Doctoral student of Bukhara State University

*Abstract: Today, one of the requirements for the organization of education is to achieve high results in a short time without spending too much mental and physical effort. In order to deliver certain theoretical knowledge to students in a short period of time, to create skills and competences in certain activities, as well as to control the activities of students, to evaluate the level of knowledge, skills and competences acquired by them, teachers are required to be highly pedagogical. requires a new approach to skills and training. Why exactly a short time? Because the student cannot focus on the lesson for a very long time, he gets bored and easily distracted. Therefore, the teacher should be able to attract the student's attention and explain the content of the topic to the student in a short period of time. Biological models and a*

mathematical model of the epidemic were created and demonstrated with the help of examples.

*Key words: mathematics, logical reasoning, text problem, Biological models, Mathematical model of epidemic.*

Kirish. Masalalarni yechish matematikani o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalarni yechmasdan matematika fanini o'zlashtirishni mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Matematika darslarida masalalar yechish nazariyani amaliyotga tadbiiq etishning eng yaxshi va ravon yo'lidir. Faqatgina quruq matematik nazariya, uning tadbiiqlarisiz uzoqqa bora olmaydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash kerakki matematika fanining har bir mantiqiy qoidasining albatta amaliyotdagi o'rni mavjud. Bu mavjudlikni tadbiiqlari faqatgina matematik masalalar yordamida yuzaga chiqadi. Sodda va murakkab masalalar, bilimlarni o'zlashtirishga, olingan bilimlarni mustahkamlash va mukamallashtirishga xizmat qiladi. Matematik masalalar talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib, odatda o'z ichiga "yashirin informatsiya" ni oladi. Bu muamoni hal etish masala yechuvchidan taklif, tahlil va sintez, mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va boshqalarni talab etadi. Masalalarni yechishda matematika faniga bo'lgan qiziqish oshadi. Mustaqilik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilish kabi xislatlar rivojlanadi.

Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida masalaning roli va uning o'rniga har xil baho berib kelingan. Hozirgi davrda masala yoki misollar yechish orqali matematik ta'lim jarayonini olib borishning metodik usul va vositalari ishlab chiqilgan va bu usullar haqida ko'pgina ilmiy metodik va didaktik adabiyotlarda bayon qilingan. Matematik tushunchani masala yoki misollar yordamida kiritish va uning tub mohiyatini o'quvchilarga tushuntirish murakkab bo'lgan pedagogik jarayondir. Shuning uchun ham bir o'qituvchi dars jarayonida ishlatiladigan masalani tanlash yoki uni tuzishda e'tibor berish kerak. Tuzilgan masalalarni dars jarayonida qo'llanish ana shu o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini hisobga olgan holda bo'lishi kerak. Har bir dars jarayonida ishlatiladigan masala yoki misol darsning maqsadiga mos kelishi kerak. Agar darsda o'qituvchi o'quvchilarga biror yangi matematik tushunchani o'rgatmoqchi bo'lsa, tuziladigan masala yoki misol ana shu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi xarakterda bo'lishi kerak.

Adabiyotlar tahlili.

[3] maqolada matematika darslarida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalanish to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

[4] maqolada o'quv fanlarini o'rganishda tarixiy yondashuv ma'lum darajada o'quv jarayonini ilmiy bilimga yaqinlashtirishi hamda o'qituvchining matematika tushunchalari bilan tanishar ekan, dars jarayonida ularning tarixi va rivojlanishi (asosan, buyuk ajdodlarimiz xizmatlari) haqida so'z yuritishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishi, ona Vatanga muhabbatini tarbiyalashi haqida fikr yuritilgan.

[5] maqolada matematika fanini o'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanilish masalasi tahlil qilingan. Darslarning qay darajada tashkillanishi bu o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga ham bog'liqligi qayd qilingan. O'quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlashi, ularni hayotga tadbiiq eta olishga tayyorlanashi haqida so'z yuritilgan.

[6] maqolada bugungi fan va texnika rivojlangan davrda talabalar bilimini mustahkamlashda mustaqil ta'limning o'rni alohida ahamiyat kasb etishi qayd qilingan. Shu nuqtai nazardan mustaqil ta'limni bajarishda talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, mustaqil bilim olish, mustaqil ishlanish va mustaqil o'z ustida ishlashga o'rgatish bugungi kunda juda muhimligi ta'kidlangan. Hamda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, talabalarga berilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalar haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

[7] maqolada ishga doir mantli masalalar va ular qanday turlarga bo'linishi, ularni yechish bosqichlari, bu kabi masalalarda uchraydigan asosiy qonuniyatlar haqida qisqacha tushunchalar keltirilgan. Ishga doir matnli arifmetik masalalarni yechishda qanday tasdiqlarga e'tibor berishimiz kerakligi haqida mulohazalarni umumlashtirib, mavzu bo'yicha masalalar yechimlari namuna sifatida keltirilgan. Keltirilgan tasdiqlar va mulohazalar bilan yechilgan masalalar o'quvchilar hamda fanni mustaqil

o'rganuvchilarga matnli masalalarni qiyinchiliklarsiz o'zlashtirishga yordam berishi ta'kidlangan.

[8] maqolada talabalarni parabolic tipdagi integrodifferensial tenglamalar masalalar keltirilgan. Bu tenglamalarning tipik variantlari va tengsizliklar, shuningdek, bunday muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

[9] maqolada ta'lim sohasini rivojlantirishda ilg'or tajribalardan foydalanib tengsizliklarni yechishda asosiy bilimlarga ega bo'lish va yechimlarni umumlashtirishda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligi to'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Algoritmik usul yordamida kasr-ratsional, irratsional, logarifmik va trigonometrik funksiyalarga doir tengsizliklarga oid misollarning yechimi keltirilgan.

[10-13] maqola o'quv jarayoni sifatini oshirish vositasi sifatida interfaol texnologiyalar samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bugungi kunda o'quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish keng joriy etilayotgani, bu esa o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirishni talab qilishi qayd qilingan. Interfaol usullar katta vaqt va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga qaratilganligi, o'quvchiga nazariy bilimlarni o'rgatish, muayyan faoliyat turlari bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallash, axloqiy fazilatlarini shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish va baholash katta mahorat va ephillikni talab qilishi haqida so'z yuritilgan.

Asosiy qism.

Har bir dars jarayonida talabalarning fanni o'zlashtirish holatini bilish uchun savol-javoblarni amalga oshirish kerak. Unda "Matematik modellashtirish" fani misolida ko'rishimiz mumkin. Shu fandan "Biologik modellar. Epidemiyaning matematik modeli" mavzusini mustahkamlashda asosan talabalarning nimalarga e'tibor qaratishlarini professor-o'qituvchi tomonidan katta ahamiyatga ega.

Murakkab masalalar ham, bilimlarni o'zlashtirish, olgan bilimlarni mustahkamlash va mukammallashtirishga xizmat qiladi. Sodda va murakkab masalalar talabalarning fikrlash qobiliyatlari rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Masalalar yechish orqali talabalarda ushbu malakalar tarkib topilishi kerak.

1. Masalani tinglashni o'rganish va uni mustaqil o'qiy olish. Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi.
2. Masalani dastlabki analiz qilish (ma'lumni noma'lumdan ajarata olish malakasi). Ma'lumni noma'lumdan, muhimni nomuhimdan ajratish, masalada berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog'lanishni ochish - bu eng muhim malakalardan biri. Bunday malakaga ega bo'lmay turib, masalalarni mustaqil yechishga o'rganib bo'lmaydi.
3. Masalani qisqa yozish malakasi. Masala matni ustida og'zaki ishlagandan keyin uning mazmunini matematik atamalar tiliga o'tkazish va qisqa yozuv shaklidagi matematik strukturasi belgilash kerak (rasmlar, chizmalar, sxemalar, jadvallar).
4. Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so'ngra yechish rejasini tuzish malakasi.
5. Yechimni bajarish, uni o'qituvchi talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish malakasi.
6. Masala yechimini tekshira olish malakasi. Masala yechimining tekshirish quyidagi usullarda qo'llaniladi: a) olingan javob bilan masala sharti o'rtasida moslik o'rnatish; b) teskari masala tuzish va yechish; c) masalani boshqa usullar bilan yechish; d) javobning chegaralarini aniqlash (javobni chamalash); e) grafik tekshirish.

1-Misol. Epidemiyaning matematik modeli.

Epidemiyaning rivojlanishining matematik modelini tuzish uchun, qo'yilgan masala shartlarini matematik tilga «tarjima qilamiz». t vaqtidagi kasal odamlar sonini  $x(t)$  orqali belgilaymiz;  $x(t)$ , - t vaqtidagi sog'lom odamlar sonini  $y(t)$  kabi belgilaymiz. Masala shartlaridan kelib chiqadiki,

$$x(t) + y(t) = N + 1 \tag{1}$$

$$x(0) = 1, \tag{2}$$

va bir muncha vaqt o'tgach, guruhdagi barcha odamlar kasal bo'lib qolishadi. Biz  $[0, t]$  vaqt oralig'ini  $n$  qisimga ajratamiz, ya'ni quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$\Delta t = \frac{T}{n}$$

$\Delta t$  vaqtda bemorlarning qancha  $\Delta x$  ga o'sishini aniqlaylik

Shubhasizki,

1.  $\Delta x \sim \Delta t$ , ya'ni  $\Delta x$  qiymati  $\Delta t$  ga proporsional,

2.  $\Delta x \sim x(t) \cdot y(t)$ , ya'ni  $\Delta x$  sog'lom ( $y(t)$ ) va kasallangan ( $x(t)$ ) odamlarning uchrashuvlari soniga mutanosibdir.

Yuqorida aytilganlarni matematik tarzda quyidagicha yozilishi mumkin

$$\Delta x(t) = \alpha x(t) y(t) \Delta t \tag{3}$$

Bu yerda  $\alpha$  mutanosiblik (proporsionallik) koeffitsiyenti, har bir epidemiya turi uchun u har xil va empirik tarzda aniqlanadi.

(1) formuladan  $y(t)$  sog'lom odamlar sonini ifoda etamiz

$$y(t) = N + 1 - x(t),$$

Olingan ifodani (3) formulaga qo'yish orqali quyidagini olamiz

$$\Delta x(t) = \alpha \cdot x(t) \cdot [N + 1 - x(t)] \cdot \Delta t$$

oxirgi tenglamaning ikkala tomonida  $\Delta x$  ga bo'lib olamiz

$$\frac{\Delta x(t)}{\Delta t} = \alpha \cdot x(t) \cdot [N + 1 - x(t)]$$

Oxirgi tenglama uchun  $\Delta t \rightarrow 0$  da quyidagini olish mumkin

$$\lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta x}{\Delta t} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} (\alpha \cdot x(t) \cdot [N + 1 - x(t)]) = \alpha \cdot x(t) \cdot [N + 1 - x(t)]$$

Oxirgi munohabatdan olamiz

$$\frac{dx}{dt} = \alpha \cdot x(t) \cdot [N + 1 - x(t)] \tag{4}$$

Tenglama (4) - bu epidemiyaning rivojlanishining eng oddiy matematik modeli, u epidemiyaning dastlabki ma'lumotlarini, ya'ni eksperimental guruhdagi -  $N$  odamlar sonini, mutanosiblik koeffitsiyenti -  $\alpha$  ni chiqish ma'lumotlari bilan, ya'ni  $t$  vaqtidagi bemorlarning soni  $x(t)$  va hozirgi vaqtda epidemiyaning rivojlanish tezligi  $dx/dt$  ni o'zaro bog'laydi. Ushbu model tuzilish tamoyillariga ko'ra deterministik, modellashtirish maqsadlariga ko'ra deskriptivdir, chunki u faqat epidemiyaning rivojlanishini tavsiflaydi.

Epidemiyaning matematik modelini nazariy o'rganamiz.

Matematika nuqtai nazaridan, (4) qurilgan model — bu 1-darajali differensial tenglama, ushbu tenglamani yechish orqali modelni o'rganamiz. Buning uchun quyidagicha yangi o'zgaruvchini kiritamiz:

$$u(t) = \frac{1}{x(t)} \tag{5}$$

Ushbu tenglamani differensiallab quyidagini olamiz

$$\frac{du}{dt} = -\frac{1}{x^2(t)} \cdot \frac{dx}{dt} = -u^2(t) \frac{dx}{dt}$$

Oxirgi tenglamadan  $\frac{dx}{dt}$  ni topamiz

$$\frac{dx}{dt} = -\frac{1}{u^2(t)} \frac{du}{dt}$$

Olingan ifodalarni (4) formulaga qo'yib, quyidagini olamiz:

$$-\frac{1}{u^2(t)} \frac{du}{dt} = \frac{\alpha}{u(t)} \left( N + 1 - \frac{1}{u(t)} \right)$$

Ushbu tenglamada ayrim qisqartirish va shakl almashtirishlarni amalga oshirib quyidagini olamiz:

$$\frac{du}{dt} = -\alpha(N + 1) \cdot u(t) + \alpha$$

Ushbu bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamaning umumiy yechimi:

$$u(t) = C e^{-\alpha(N+1)t} + \frac{1}{1+N}$$

Bu yerda C - doimiy son. Oxirgi hadni (5) ga qo'yib, x(t)ni topamiz:

$$x(t) = \frac{N+1}{C \cdot (N+1) \cdot e^{-\alpha(N+1)t} + 1} \quad (6)$$

(6) - formula - bu (4)-modelning umumiy yechimi, xususiy yechimni topish uchun biz x(0) = 1 boshlang'ich shart yordamida C doimiyni aniqlab olamiz:

$$x(0) = \frac{N+1}{C \cdot (N+1) + 1} = 1 \rightarrow N+1 = C \cdot (N+1) + 1 \rightarrow C = \frac{N}{N+1}$$

U holda

$$x(t) = \frac{N+1}{N \cdot e^{-\alpha(N+1)t} + 1} \quad (7)$$

(7) formulasi bilan aniqlangan x (t) funksiyasi (4) -matematik modelning aniq yechimidir. Bundan kelib chiqadiki, x(t) virusga chalingan odamlar sonining t vaqt qiymatiga bog'liq eksponentsial funksiyadir. Biz (7) model yordamida o'rganishni davom ettiramiz.

1. (7) formuladan kelib chiqadiki, t qiymatining oshishi bilan kasrning maxraji pasayadi, ya'ni x(t) bilan kasallanganlar soni ortadi. Endi bu o'sish qancha davom etishini ko'rib chiqaylik. (7) formulani differensiallab, biz epidemiy tarqalish tezligi uchun quyidagi ifodani olamiz:

$$x'(t) = v(t) = \frac{\alpha(N+1)^2 N \cdot e^{-\alpha(N+1)t}}{(N \cdot e^{-\alpha(N+1)t} + 1)^2} \quad (8)$$

2. v(t) epidemiyasining tezligi qanday o'zgarishini bilish uchun (8) formulani differensiallaymiz:

$$v'(t) = \frac{\alpha^2(N+1)^2 N [N \cdot e^{-2\alpha(N+1)t} - e^{-\alpha(N+1)t}]}{(N \cdot e^{-\alpha(N+1)t} + 1)^3} \quad (9)$$

(9) formuladan tezlik hosilasi nolga teng, ya'ni v'(t) = 0 bo'lishi uchun quyidagi tenglik bajarilishi kerak:

$$N \cdot e^{-2\alpha(N+1)t} - e^{-\alpha(N+1)t} = 0,$$

bu yerdan



$$N = e^{\alpha(N+1)t}$$

3. Oxirgi ifodani logarifmlaymiz:

$$\ln(N) = \alpha(N+1)t, \text{ bu yerda } t = \frac{\ln(N)}{\alpha(N+1)} \quad (10)$$

Shunday qilib, (10) formulada aniqlangan  $t$  qiymatida  $v'(t) = 0$  bo'ladi.

$t \in \left[0, \frac{\ln N}{\alpha(N+1)}\right]$  bo'lsin, u holda (8) formuladan kelib chiqadiki, ushbu oraliqda  $v'(t) > 0$ , ya'ni funksiya  $v(t)$  bu oraliqda o'sadi.

Agar  $t \in \left[\frac{\ln N}{\alpha(N+1)}, \infty\right)$  bo'lsa, u holda (8) formuladan  $v'(t) < 0$  ekanligi kelib chiqadi, ya'ni

bu oraliqda  $v(t)$  funksiyasi kamayadi. Yuqoridagi formulalardan xulosa qilishimiz mumkinki, epidemiya darajasi  $v(t)$  birinchi navbatda ortadi,  $t$  ning  $t = \frac{\ln(N)}{\alpha(N+1)}$  formulasi bilan aniqlangan qiymatida maksimal qiymatga erishadi, keyin pasayishni boshlaydi. Epidemiyaning matematik modelini nazariy o'rganish natijasida olingan bu xulosa insoniyatning hayotiy tajribasi bilan tasdiqlanadi. Barcha epidemiyalar dastlab jadal rivojlanmoqda, keyin esa kamaymoqda.

(9) formulada belgilangan  $t$  ning ifodasini (7) formulaga qo'yib quyidagiga ega bo'lamiz:

$$x(t) = \frac{N+1}{2}$$

Bundan kelib chiqadiki, epidemiya darajasi maksimal darajaga yetgan  $t$  vaqtida kuzatilayotgan guruhdagi odamlarning taxminan yarmi virusga chalinib qoladi. Vaqt

$$T = \frac{2 \ln(N)}{\alpha(N+1)} \quad (11)$$

ga yetgan vaqtda esa guruhdagi barcha odamlar virusga chalinib qolishadi. (11) formulasi bilan aniqlangan  $t$  vaqt oralig'i "yuqumli epidemiya davri" deb nomlanadi. Uning oxirida guruhdagi barcha odamlar virusga chalinib, epidemiya tarqalishini to'xtatadi.

Ma'lumki talabaning mantiqiy tafakkurini o'stiradigan izlanish faoliyati bir qancha bosqichlardan iborat. Masalan, har qanday masalani yechish uning sharti va savoli bilan tanishtirishdan boshlanadi. Talaba o'zidagi bilim va tajribaga tayanib masala shartidagi ma'lumotlarga tayanib masala shartidagi ma'lumotlarning o'zaro munosabatlarni topishga harakat qiladi, ya'ni mantiqiy mushohada yuritiladi. Unda masalani yuritish haqida mulohaza vujudga keladi. Shu bilan talabalar yangi bilim oladilar. Bu bilimlardan shunga o'xshagan masalani yechishda foydalanadilar. Ko'pgina masala va mashqlarda talabalarni mustaqil izlanishga da'vat etadigan «savol tuzing», «teskari masala tuzing», «taqqoslang», «xulosa yasang» kabi ko'rsatmalari berilgan. Biroq tajribadan ma'lumki bunday ko'rsatmalar umumiy xarakterlarda bo'lgani sababli talabalar mustaqilligini va dars samaradorligini oshirishi uchun yetarli emas. Shuning uchun matematik masalalar yechishda talabalar fikrlashini yo'naltirib ularga yo'l-yo'riq ko'rsatib masalada misollarni yechish usullaridan foydalanish muvofiq bo'ladi [3-13].

Xulosa qilib aytganda, matematika o'qitishning muhim vazifasi talabalarda faol fikrlash, turmushda uchraydigan turli masalalarni yechishda qiyinchiliklarni yengish, bu masallar yechimining ratsional yo'llarini topish ehtiyojini vujudga keltirishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Educating teachers of science, mathematics, and technology : new practices for the new millennium / Committee on Science and Mathematics. Copyright 2001 by the National Academy of Sciences. Constitution

Avenue, N.W. Washington

2. Djurayev R.X va boshqalar. Pedagogik atamalar lug‘ati. –T.: “Fan nashriyoti”, 2008 yil. – 94-bet
- 3.A. Sh. Rashidov Matematika darslarida ta’limning shaxsga yo ‘naltirilgan texnologiyasi. Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet
- 4.A.Sh. Rashidov Ijtimoiy-gumanitar ta’lim yo’nalishi talabalari uchun matematik fanlar bo’yicha amaliy mashg’ulotlarni o’tkazish. Science and Education №9. С 283-291
- 5.О.О.Халлоқова. А.Рашидов Пороговое собственное значение модели Фридрихса. Молодой ученый, 2015 №15. С. 1-3
- 6.A. Sh. Rashidov Interaktivnyye metody pri izuchenii temy «Opredelennyu integral i yego prilozheniya». Nauchnyye issledovaniya. № 34:3. С 21-24
- 7.A. Sh. Rashidov Yoshlar intellektual kamolotida ijodiy tafakkur va kreativlikning o’rni. Pedagogik mahorat 2021 yil №7. 114-116 bet.
8. Durdiev D.K, Nuriddinov J.Z., On investigation of the inverse problem for a parabolic integrodifferential equation with a variable coefficient of thermal Conductivity // Vestnik Udmurtskogo Universiteta. 2020, vol. 30, issue 4, pp. 572-584
9. Durdiev D.K, Nuriddinov J.Z., Determination of a Multidimensional Kernel in Some Parabolic Integro-differential Equation // Journal of Siberian Federal University. Mathematics physics 2021, 14(1), 117-127.
10. Nuriddinov J.Z., The problem of determining the kernel of the integro-differential heat equation with a variable coefficient // Uzbek Mathematical Journal 1 (2020) p. 103-110.
11. Durdiev D.K, Nuriddinov J.Z., Kernel determining problem in the integro-differential heat equation with a variable thermal conductivity // Bulletin of the Institute of Mathematics. 3(2020) p.15-26.
12. Нуриддинов Ж.З., Эквивалентная система интегральных уравнений для одной обратной задачи для интегро-дифференциального уравнения теплопроводности, Научный Вестник Бухарского государственного университета, №4 (2019), ст. 64-68.
13. Durdiev D.K, Nuriddinov J.Z., Nuriddinov, Inverse problem for integro-differential heat equation with a variable coefficient of thermal conductivity, Scientific reports of Bukhara State University, 2020, 5(81) p. 3-12.

## INGLIZ TILINI O'QITISHDAGI ASOSIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA TIL KO'NIKMALARINING INTEGRATSIYASI

Omonova Maftuna Shermatovna

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi

*Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishdagi asosiy pedagogik yondashuvlar va til ko'nikmalarining integratsiyasi, chet tilini o'qitishga individual yondashuv haqida so'z boradi. Maqolada o'qitish sharoitlarida samarali muloqot qilish ko'nikmalarining muhimligi ta'kidlangan. Maqolada til o'rganishning ko'p qirrali tabiati, talabalarning chet tillarini egallash va o'zlashtirishida duch keladigan o'ziga xos qiyinchiliklari, ingliz tilini o'rganishda qo'llaniladigan usullar tasvirlanadi. Muallif til ko'nikmalarini fanlar bo'yicha integratsiyalash, autentik materiallar va kontekstlardan foydalanish, til o'qitishda texnologiyalardan samarali foydalanish kabi asosiy pedagogik yondashuvlarni tahlil qiladi.*

*Kalit so'zlar: pedagogik yondashuvlar, ingliz tili chet tili sifatida (EFL), kompetensiya, gapirish, tinglash, o'qish va yozish.*

## INTEGRATION OF BASIC PEDAGOGICAL APPROACHES AND LANGUAGE SKILLS IN ENGLISH TEACHING

Omonova Maftuna Shermatovna-Chirchik State Pedagogical University,

Teacher of the Faculty of Primary Education

*Abstract. This article talks about the main pedagogical approaches to teaching English and the integration of language skills, an individual approach to teaching a foreign language. The article emphasizes the importance of effective communication skills in educational settings. The article describes the multifaceted nature of language learning, the specific difficulties students face in acquiring and mastering foreign languages, and the methods used in learning English. The author analyzes the main pedagogical approaches, such as the integration of language skills by subjects, the use of authentic materials and contexts, and the effective use of technologies in language teaching.*

*Keywords: pedagogical approaches, English as a foreign language (EFL), competence, speaking, listening, reading and writing.*

## ИНТЕГРАЦИЯ БАЗОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ И ЯЗЫКОВЫХ НАВЫКОВ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Омонова Мафтуна Шерматовна-Чирчикский государственный педагогический университет,

Преподаватель факультета начального образования

*Аннотация. В данной статье говорится об основных педагогических подходах к обучению английскому языку и интеграции языковых навыков, индивидуальном подходе к обучению иностранному языку. В статье подчеркивается важность эффективных коммуникативных навыков в образовательных учреждениях. В статье описывается многогранность изучения языка, специфические трудности, с которыми сталкиваются студенты при освоении и освоении иностранных языков, а также методы, используемые при изучении английского языка. Автор анализирует основные педагогические подходы, такие как интеграция языковых навыков по предметам, использование аутентичных материалов и контекстов, эффективное использование технологий в обучении языку.*

*Ключевые слова: педагогические подходы, английский как иностранный (EFL), компетентность, говорение, аудирование, чтение и письмо.*

**KIRISH.** Asosiy pedagogik yondashuvlar va ingliz tilini chet tili sifatida (EFL) o'qitishda til ko'nikmalarini integratsiyalashga qaratilgan tadqiqot mavzusi quyidagi bir necha sabablarga ko'ra til ta'limi sohasida muhim ahamiyatga ega:

Til bilimni oshirish: Samarali pedagogik yondashuvlarni qo'llash va amalga oshirish ingliz tilini o'rganuvchilarning tilni bilish darajasini oshirish uchun juda muhimdir. Ushbu sohadagi tadqiqotlar nutq, tinglash, o'qish va yozish kabi til ko'nikmalarini o'rgatishning eng samarali usullarini aniqlashga yordam beradi va natijada til o'rganuvchilarni ko'proq egallashga olib keladi.

Ta'lim strategiyalarini optimallashtirish: Turli pedagogik yondashuvlarni o'rganish o'qituvchilarga ingliz tilini o'rganuvchilarning turli ehtiyojlari va o'rganish uslublariga moslash uchun ta'lim strategiyalarini optimallashtirish imkonini beradi. Turli metodologiyalarni o'rganish orqali o'qituvchilar talabalar uchun qiziqarli va samarali ta'lim tajribasini yaratish uchun o'z yondashuvlarini moslashtirishi mumkin.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish: Til o'rganish lug'at va grammatika qoidalarini yodlashdan tashqariga chiqadi; u real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qilish uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Til ko'nikmalarini integratsiyalash bo'yicha tadqiqotlar o'qituvchilarga mazmunli muloqotni targ'ib qiluvchi faoliyat va vazifalarni ishlab chiqishda yordam beradi va talabalarga o'z til bilimlarini real kontekstda qo'llash imkonini beradi.

Til o'qitishdagi muammolarni hal qilish: Ingliz tilini o'qitish ko'pincha maqsadli til o'rganish muhitiga ta'sir qiliuvchi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Pedagogik yondashuvlar bo'yicha tadqiqotlar o'qituvchilar o'z sinflarida amalga oshirishi mumkin bo'lgan dalillarga asoslangan strategiyalar va ilg'or tajribalarni taqdim etish orqali ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tushunchalarni taqdim etadi.

Talabalarni global muloqotga tayyorlash: O'zaro bog'langan bugungi dunyoda ingliz tilini bilish xalqaro muloqot, ilmiy izlanishlar va martaba imkoniyatlari uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Samarali pedagogik yondashuvlar bo'yicha tadqiqotlar o'qituvchilarni talabalarni global muloqot kontekstlarida kommunikativ jarayonga tayyorlash uchun zarur bo'lgan vositalar va bilimlar bilan ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'lim ko'nikmalarini targ'ib qilish: Xorijiy tilni o'qitishda til ko'nikmalarini integratsiyalash orqali o'qituvchilar nafaqat tilni o'zlashtirishni osonlashtiradi, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va uzluksiz ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar talabalarning mustaqilligi va o'z-o'zini boshqarishiga yordam beradigan innovatsion yondashuvlarni o'rganadi, ularga sinfdan tashqarida ham tilni bilish darajasini oshirishda davom etadi.

Axborotlashtirish siyosati va o'quv dasturlarini ishlab chiqish: Pedagogik yondashuvlar va til ko'nikmalarini integratsiyalashuvi bo'yicha tadqiqot natijalari ta'lim siyosati va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda tog'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi. O'quv dasturlarini ishlab chiquvchilar samarali o'qitish amaliyotini joriy etish, institutsional va milliy darajada ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish uchun tadqiqot natijalaridan foydalanishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asosiy pedagogik yondashuvlar va ingliz tilini o'qitishda til ko'nikmalarini integratsiyalash bo'yicha tadqiqotlar til ta'limini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Doimiy ravishda ta'lim amaliyotlarini tadqiq qilish va takomillashtirish orqali o'qituvchilar talabalarning xorijiy tilda muloqotga kirishish ko'nikmalarini, ularni global kontekstda mazmunli muloqotda ishtirok etishiga tayyorlovchi yuqori sifatli til ta'limi bilan ta'minlashi mumkin.

**ADABIYOTLAR SHARHI.** Chet tilini o'rgatishda pedagogik yondashuvlar talabalarning ko'nikmalari, til o'rganish darajasi, o'rganish maqsadlari va madaniy kontekst kabi omillar bilan farqlanadi. Quyida keng tarqalgan strategiyalar bilan bir qatorda asosiy pedagogik yondashuvlar keltirilgan:

CLT-Communicative Language Teaching (Kommunikativ tilni o'rgatish): Haqiqiy hayotdagi muloqot va o'zaro ta'sirga e'tibor qaratiladi. Strategiyalar: rolli o'yinlar, juftlik va guruh ishlari, til o'yinlari, real vaziyatlarni simulyatsiya qilish [2]. O'zbek tadqiqotchilari ko'pincha uning nutq va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib brogan [7].

TBLT-Task-Based Language Teaching (Vazifaga asoslangan til o'rgatish): mazmunli vazifalarni bajarish orqali til o'rganish. Strategiyalar: muammoli vaziyatlarda talabalardan xorijiy tildagi vazifalarni loyihalash, tadqiqot va taqdimotni o'z ichiga olgan loyihalar kiradi [1]. TBLT til o'rganishning asosiy birligi sifatida vazifalarni bajarishga qaratilgan. O'zbek olimlari uning tilni bilish va talabalarning faolligini oshirishda qo'llanilishini o'rganmoqda [8]; [13].

CBI-Content-Based Instruction (Kontentga asoslangan ta'lim): Til o'rganish jarayonida mavzuni o'rganish bilan integratsiyalash. Strategiyalar: Ingliz adabiyoti, tarixi yoki madaniyati kabi fanlar orqali ingliz tilini o'rgatish; maqolalar, videolar yoki qo'shiqlar kabi ingliz tilidagi autentik materiallardan foydalanish nazarda tutiladi [3]. CBI til o'rganishni mavzu mazmuni bilan birlashtiradi, bu esa talabalarga boshqa fanlarni o'rganayotganda til ko'nikmalarini egallash imkoniyatini beradi. CBIning o'quv dasturiga integratsiyalashuvi va til o'zlashtirishga ta'siri o'rganiladi [9].

TPR-Total Physical Response (Umumiy jismoniy javob): Til o'rgatishni jismoniy harakatlar bilan uyg'unlashtirish. Strategiyalar: Talabalarga jismoniy harakatlarni bajarish uchun ingliz tilida vazifalar berish, imo-ishoralar va harakatlar yordamida lug'at va grammatik ko'nikmasini mustahkamlash [4].

CA-The Communicative Approach (Kommunikativ yondashuv): Rasmiy grammatikaga asoslangan topshiriqlardan ko'ra muloqotning muhimligini ta'kidlaydi. Strategiyalar: munozaralar, bahslar va taqdimotlar orqali ingliz tilida mazmunli muloqot qilish imkoniyatlarini ta'minlash nazarda tutiladi [5].

Technology-Enhanced Language Learning (Texnologiya bilan kengaytirilgan tilni o'rganish): til o'rganish uchun raqamli vositalar va resurslarni integratsiyalash. Strategiyalar: Xorijiy tilini o'rganish uchun onlayn til o'rganish platformalari, til o'rganish ilovalari, multimedia resurslari va virtual reallik simulyatsiyalaridan foydalanish ko'zda tutiladi [6]. Bu yondashuv va strategiyalar ingliz tilini o'rganuvchilar va o'qituvchilarning o'ziga xos ehtiyojlari va xohishlariga ko'ra moslashtirilishi va birlashtirilishi mumkin. TELL til o'rganishni qo'llab-quvvatlash uchun raqamli vositalar va resurslarni o'z ichiga oladi. O'zbek tadqiqotchilari lingafon sinflarida texnologiya integratsiyasi va uning talabalarning motivatsiyasi va ko'nikmalarining rivojlanishiga ta'sirini o'rganmoqda [12].

Audio-Lingual Metod (ALM): ALM nutq va tinglash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun intensiv og'zaki mashqlar va topshiriqlarni qo'llanilishini ta'kidlaydi. O'zbek olimlari uning tarixiy ahamiyati va til ta'limidagi bugungi kundagi dolzarbligi haqida tadqiqot olib borgan [10].

Grammatika-tarjima Metod (GTM): GTM grammatik qoidalar va tarjima qilish ko'nikmasini rivojlantiruvchi mashqlarni kengroq o'rgatishga qaratilgan. O'zbek olimlari GTM usulining talabalarda til tuzilishini to'g'ri o'rganishi va tilni tushunishini rivojlantirishdagi o'rnini ta'kidlaydi [11].

Shuningdek, o'zbek olimlarining tadqiqotlarida o'rganilgan ushbu pedagogik yondashuvlar chet tillarini o'rganishni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan turli strategiyalarni ta'kidlaydi. Keyingi tadqiqotlar va fanlararo hamkorlik O'zbekistonda til o'rganuvchilarning xorijiy tilda so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ushbu yondashuvlarni takomillashtirish va moslashtirishga hissa qo'shishi mumkin.

MUHOKAMA: Bundan tashqari, innovatsion yondashuvlardan, Zoom va Skype kabi video konferensiya aloqa vositalarining ko'payishi bilan endi virtual auditoriyalarda dars o'tish mumkin bo'ldi, bu yerda talabalar real vaqt rejimida o'z o'qituvchilari bilan muloqotga kirishishi mumkin. Virtual auditoriyalar talabalarga o'zlarining nutq va tinglash qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlovchi muhitda mashq qilish imkoniyatini beradi. Internetda talabalarning so'z boyligi va grammatika ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradigan ko'plab til o'rganish o'yinlari mavjudligi ham zamonaviy texnologiyalardan til o'rgatishda foydalanishning asosiy imkoniyatlaridan hisoblanadi. Kahoot va Quizlet Live kabi ilovalardagi o'yinlar tilni o'rganishni qiziqarli va interaktiv shaklda olib borilishiga xizmat qiladi [16]. Bu texnologiyalar zamonaviy o'qitishda ham muhim o'rin egalladi. Videolar, podkastlar va interfaol doskalar kabi multimedia vositalaridan foydalanish o'rganishni yanada qiziqarli va interaktiv qildi.

Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rgatish (EFL) samarali til o'rganishni osonlashtirish uchun pedagogik yondashuvlarning murakkab o'zaro ta'sirini va til ko'nikmalarini birlashtirishni o'z ichiga oladi. Ushbu adabiyotlarni ko'rib chiqish asosiy pedagogik yondashuvlar va ularning ingliz tilini o'qitishda til ko'nikmalari bilan integratsiyalashuvini o'rganadi, bu sohadagi bir qator ilmiy ilmiy tadqiqot ishlariga tayanadi.

CLT til o'rganishda mazmunli muloqot muhimligini ta'kidlaydi. U barcha til ko'nikmalarini: tinglash, gapirish, o'qish va yozishni haqiqiy kommunikativ kontekstda birlashtirishni nazarda tutadi [2]. CLT real hayotda tildan foydalanishga qaratilganligi va kommunikativ kompetensiya maqsadlariga mos kelishi tufayli butun dunyo bo'ylab EFL sinflarida keng qo'llanilgan.

TBLT ta'limning markaziy birligi sifatida vazifalardan foydalanishga urg'u beradi. Vazifalar kommunikativ maqsadga erishish uchun bir nechta til ko'nikmalarini integratsiyalashuviga yordam berib, talabalarni tildan haqiqiy foydalanishga jalb qilish uchun mo'ljallangan [1]. TBLT talabalarni mazmunli kontekstlarda tildan faol foydalanishga undaydi, bir vaqtning o'zida ravonlik va aniqlikni rivojlantirishga yordam beradi.

CBI til o'rganishni boshqa fanlarni o'rganish bilan birlashtiradi. CBI orqali til ko'nikmalari ma'lum sohalardagi bilimlarni o'zlashtirish bilan birgalikda rivojlanadi [3]. Ushbu yondashuv talabalarga asl materiallar bilan shug'ullanish jarayonida tilni bilish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

TBLA kommunikativ topshiriqlarni bajarish orqali talabalarning tilni bilish darajasini baholashga qaratilgan. U baholash amaliyotlarini TBLT tamoyillari bilan moslashtiradi, topshiriqlarni bajarishda til ko'nikmalarini integratsiyalashuviga urg'u beradi. TBLA talabalarning til qobiliyatlarini yaxlit ko'rishni taklif qiladi, ularning kommunikativ kompetensiyalarini real dunyo kontekstlarida qamrab oladi.

Til ko'nikmalarini integratsiyalash: Xorijiy tilni samarali o'qitish tinglash, gapirish, o'qish va yozish qobiliyatlarini uzluksiz integratsiyalashni o'z ichiga oladi. Integrativ yondashuv talabalarning barcha til usullari bo'yicha ko'nikmasini rivojlantirishni va turli kontekstlarda samarali muloqot qilishlarini ta'minlaydi [15].

Integratsion vazifalar o'zaro bog'liq bo'lgan til qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

TELL til o'rgatish va o'rganishni qo'llab-quvvatlash uchun raqamli vositalar va resurslarni o'z ichiga oladi. U interfaol multimedia materiallari, onlayn muloqot platformalari va kompyuter yordamida til o'rganish orqali til ko'nikmalarini integratsiya qilish imkoniyatlarini taklif etadi [14]. TELL talabalarning faolligini oshiradi va sinfdan tashqarida haqiqiy til kiritish imkoniyatini beradi.

TBLL tamoyillarini o'quv doirasini qamrab olish uchun kengaytiradi. U talaba yo'naltirilganlik, hamkorlik va vazifalarga asoslangan faoliyat doirasidagi muammolarni hal qilishga urg'u beradi, tajriba asosida o'rganish orqali til ko'nikmalarini integratsiyalashuviga yordam beradi. TBLL talabalarni ma'noni yaratishda va tildan foydalanish bo'yicha muzokaralarda faol ishtirok etishga undaydi.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz tilini o'qitishda til ko'nikmalarini integratsiyalashuviga mazmunli muloqot, vazifaga asoslangan o'rganish va autentik materiallardan foydalanishga ustuvor ahamiyat beradigan turli pedagogik yondashuvlar yordam beradi. Ushbu yondashuvlarni o'qitish amaliyotiga kiritish orqali o'qituvchilar kommunikativ kompetensiyani va ingliz tilini bilishni rivojlantirishga yordam beradigan dinamik o'quv muhitini yaratishi mumkin.

#### REFERENCES

1. Ellis, R. (2003). *Task-based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
3. Snow M.A., & Brinton D.M. (1997). *The Content-Based Classroom: Perspectives on Integrating Language and Content*. Longman Publishing Group.
4. Asher, J. J. (1966). *Learning Another Language Through Actions: The Complete Teacher's Guidebook*. Sky Oaks Productions.
5. Littlewood, W. (1981). *Communicative Language Teaching: An Introduction*. Cambridge University Press.
6. Warschauer, M. (2000). *Technology and Second Language Learning*. Oxford University Press.
7. Teshabaeva, N. (2019). «Implementing Communicative Language Teaching in Uzbek EFL Classrooms: Challenges and Solutions.»
8. Sultanova, D. (2020). «Task-Based Language Teaching in Uzbekistan: Implementation Challenges and Pedagogical Considerations.»
9. Abdullaeva, M. (2018). «Integrating Content-Based Instruction in Uzbek EFL Curriculum: Opportunities and Challenges.»
10. Ismailova, F. (2017). «Reviving the Audio-Lingual Method in Uzbek EFL Context: A Nostalgic Necessity?»
11. Azimova, S. (2016). «Revisiting the Grammar-Translation Method: Uzbek Teachers' Perspectives and Practices.»
12. Karimov, A. (2021). «The Role of Technology in Enhancing Foreign Language Instruction in Uzbekistan: Opportunities and Challenges.»
13. Mukhammadiev, B. (2019). «Task-Based Language Assessment in Uzbek EFL Context: Practices and Perspectives.»
14. Chapelle, C. A. (2001). *Computer applications in second language acquisition: Foundations for teaching, testing, and research*. Cambridge University Press.
15. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). *Teaching ESL/EFL listening and speaking*. Routledge.
16. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2609/3321>
17. Utebaev T., Sarsenbaeva Z. Sprachliche analyse von sprichworten. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol. 1 Issue 1.5 Pedagogical sciences.
18. Сарсенбаева З. Ж. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СРЕДСТВАМИ ИЗУЧЕНИЯ ПОСЛОВИЦ //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр зайнятості, 2021. – №. 5 (92). – С. 22-24
19. kizi Sarsenbaeva Z. J. LINGUISTIC DIFFERENCES CONTRIBUTE TO VARYING INTERPRETATIONS OF SYMBOLS IN NON-REALISTIC WORKS.
20. kizi Sarsenbaeva Z. J. THE NUANCED ANALYSIS OF IMAGES AND SYMBOLS IN ENGLISH AND UZBEK NON-REALISTIC WORKS. 2023.
21. Сарсенбаева З. и др. СЛОВЕСНЫЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В ИДИОМАХ НА АНГЛИЙСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ //СТУДЕНТ ГОДА 2018. – 2018. – С. 146-148.
22. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tilini-o-qitishda-individual-yondashuv>

## UMUMKASBIY VA IXTISOSLIK FANLAR INTEGRATSIYASINING MOBIL' ILOVASINI ISHLAB CHIQUISH

Orinbetov Nurilla Turdimuratovich,  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti

Ismailova Momogul Hamraboy qizi,  
Urganch davlat pedagogika instituti, Fizika-matematika va texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi.

*Annotatsiya:* Ushbu matnda umumkasbiy va ixtisoslik fanlar o'rtasidagi chuqur o'zaro aloqani ta'minlash maqsadida veb-ilovalarni o'quv jarayoniga eng samarali integratsiyalashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan usullar va algoritmlarni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Mobil ilovalarni yaratish uchun Flask-dan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilishdir. Flask Django va FastAPI kabi boshqa veb-frameworkalar bilan ishlab chiqish qulayligi, unumdorligi, kengaytirilishi va hamjamiyatni qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan taqqoslanadi. Bundan tashqari, mobil ilovani ma'lumotlar bazalari, keshlash tizimlari va bulutli platformalar kabi zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuviga alohida e'tibor qaratiladi.

*Kalit so'zlar:* veb-frameworka, veb-ilovalar, raqamli texnologiyalar, Flask Django va FastAPI veb-frameworkalar, Flask mikrofreymvorkom, saytlararo skriptlar, shifrlashdan va seansni boshqarish, HTML, CSS va JavaScript-dan foydalanish, modulli test, integratsiya testi, optimallashtirish usullari, adaptiv veb-sahifa.

## РАЗРАБОТКА МОБИЛЬНОГО ПРИЛОЖЕНИЯ «ИНТЕГРАЦИЯ ОБЩЕПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ И СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ДИСЦИПЛИН»

Орынбетов Нурылла Турдымуратович,  
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза, доцент кафедры технологического обучения

Исмаилова Момогул Хамрабой кизи,  
Ургенчский государственный педагогический институт – преподаватель кафедры физико-математического и технологического обучения

*Аннотация:* в этом тексте особое внимание уделяется анализу методов и алгоритмов, которые можно использовать для наиболее эффективной интеграции веб-приложений в учебный процесс с целью обеспечения глубокого взаимодействия между общепрофессиональными и специализированными дисциплинами. Это анализ преимуществ и недостатков использования Flask для создания мобильных приложений. Flask сравнивается с другими веб-фреймворками, такими как Django и fastapi, с точки зрения простоты разработки, производительности, масштабируемости и поддержки сообщества. Кроме того, особое внимание уделяется интеграции мобильного приложения с современными технологиями, такими как базы данных, системы кэширования и облачные платформы.

*Ключевые слова:* веб-фреймворк, веб-приложения, цифровые технологии, Flask Django и fastapi веб-фреймворки, Flask microframework, межсайтовые скрипты, шифрование и управление сеансами, использование HTML, CSS и JavaScript, модульное тестирование, интеграционное тестирование, методы оптимизации, адаптивная веб-страница.

## DEVELOPMENT OF THE MOBILE ' APPLICATION OF THE INTEGRATION OF UNIVERSAL AND SPECIALIZED SCIENCES

Hozirgi kunda virtual borliq kundan kunga takomillashib boryapti. Insonlar hayotida virtual borliq sanoatda, sport yo'nalishlarida, tibbiyotda, dizayn va shunga o'xshash ko'plab sohalarga ham qo'llaniladi. Virtual borliq asosan ta'lim sohasida ham juda qulay imkoniyatlar yaratadi, maktab o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun ham darslarda qiyin tushunchalarni tasavvur qilishga va bilimlarni o'zlashtirishlariga ko'maklashadi. Virtual tizimi sanoatda ishlab chiqarishda ham qo'llaniladi. Bundan tashqari VR tizimidan virtual ravishda tibbiyotda ham ko'plab operatsiyalarda foydalaniladi. Ilmiy ishlarda va laboratoriya mashg'ulotlarida olimlar VR tizimidan foydalanishadi. Shu bilan birga sport yo'nalishlarida sportchilarga ham o'z kamchiliklari ustida ishlash uchun imkon yaratadi.

Ta'lim sohasida virtual tushunchasi keng ma'noda qo'llanilmoqda. Masalan: virtual mashina, virtual xotira, virtual disk, virtual aloqa, virtual sayohat, virtual sinf shular jumlasidandir. Birgina ushbu sohada ham virtual tushunchasi turli shakl va ma'nolarda foydalanilib kelinmoqda va bir-biridan farqli ma'nolarni anglatadi. Masalan, multimedia tizimlarida virtual tushunchasi virtual borliq ma'nosini beradi.

Virtual (lotincha Virtualis – mumkin bo'lgan, ya'ni muayyan bir sharoitlarda sodir bo'ladigan yoki ro'y berishi mumkin bo'lgan) tushunchasi narsalar hamda hodisalarning vaqt va makonda mavjud bo'lmagan, lekin obyektiv narsalar yoki subyektiv obrazlarning amalga oshirish ehtimoli mavjud bo'lgan jarayonni anglatadi.

"Virtual borliq" atamasi 1970-yilning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jaron Lanier tomonidan o'ylab topilgan. U 1984-yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g'oyasini namoyon etadi. "Virtual borliq" atamasi muomalaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko'ra tabiiy yo'l bilan amalga oshirib bo'lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik shaklda sun'iy amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar. Virtual borliq — inson real borliqda harakat qilayotgan illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya hisoblanadi. Bunda obyektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o'rnini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun'iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi. Virtual borliq amalda yo'q narsa, uni qo'l bilan tutish, uning ta'mi va hidini his qilish mumkin emas. Shunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega bo'ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o'zgartira oladi. Virtual olam-inson borlig'ining o'ziga xos shakli va odamlar ma'naviy aloqasining alohida madaniy ifodasidir. Ammo virtual borliq real fizik borliqdek muhitni yarata olmaydi, chunki bu borliq ta'sirida vujudga keluvchi his-tuyg'ular ko'p jihatdan uning o'zi bilan emas, balki uni biz qanday idrok etishimiz bilan belgilanadi. Biz virtual dengizda yuzishimiz mumkin, ammo bunda paydo bo'luvchi his-tuyg'ularimiz bu dengizni biz qanday idrok etishimizga bog'liq bo'ladi. Virtual tarvuz haqiqiy tarvuzdan shirin emas va shunga o'xshash bir qancha misollar keltirish mumkin.

Bugungi kunda virtual borliq inson madaniy faoliyatining turli sohalarida qo'llanilmoqda. Virtual borliqdan eng avvalo u vujudga kelgan sohada, fanda, jumladan fizikada suyuqlik va gazlar dinamikasini modellashtirishda,

kimyoda kimyoviy reaksiyalar modelini tuzishda, geologiya va geografiya fanlarida ham foydalanilmoqda.

Muhandislik sohasida, ayniqsa, xavfli sharoitlarda: ochiq kosmosda, dengiz va okeanlarning chuqur joylarida, yadro muhandisligida robotlarni masofadan turib boshqarishda virtual borliq keng qo'llanilmoqda. Kompyuter dizayni va uning ajralmas xamrohi - kompyuter ishlab chiqarishi raketalar va samolyotlar, avtomobillar katta binolar konstruksiyalarini sinovdan o'tkazishda yagona jarayonga birlashtirildi. Virtual borliq texnologiyasidan harbiylar ham keng foydalanmoqdalar.

Masalan, virtual kutubxonalarda foydalanuvchi kompyuter yordamida kitob javonlarining vizual tasviri bo'ylab harakatlanishi, kerakli adabiyotlarni topishi va olib ko'zdan kechirishi, zarur holda esa ulardan nusxa ko'chirishi mumkin. Virtual muzey konsepsiyasi bir qadar boshqacha. Virtual muzey foydalanuvchilarga kolleksiyadagi istalgan eksponatni uning tabiiy, uch o'lchovli ko'rinishida ko'rish imkonini beradi. Ammo bu tasviriy yechish qobiliyati ancha yuqori bo'lgan displeylarni taqozo etadi. Shunday qilib, virtual borliq nazariy izlanishlardan ommaviy axborot vositalari va telekommunikasiyalar ajralmas qismi bo'lgan hozirgi zamon madaniyatining tarkibiy qismiga aylangan.

Virtual borliq – bu sun'iy hosil qilinadigan axborot muhiti bo'lib, u atrof-muhitni odatiy usulda tasavvurni turli texnik vositalar asosida hosil qilinadigan axborotlar bilan almashtirishga qaratiladi. Ta'limiy maqsadlarda virtual reallik vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan axborotlarni vizuallashtirish vositalarini yaratish boshqa texnik vositalar yordamida erishib bo'lmaydigan pedagogik samarani berishi mumkin. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog'liq. Immersivlik deganda odamning virtual borliqda o'zini faraz qilishini tushunish lozim. Interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdagi obyektlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib ularga ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi.

Virtual borliq atamasi 1980-yilning oxirlarida vujudga kelgan bo'lib, sun'iy borliq degan ma'noni anglatadi. Virtual borliq ekspozitsiyani va tasirga javobni taqlid qiladi. Virtual borliq obyektlari odatda, moddiy voqelikdagi o'xshash narsalarning harakatlariga o'xshaydi. Foydalanuvchi ushbu obyektlarga fizikaning haqiqiy qonunlariga muvofiq harakat qilishi mumkin, masalan tortishish kuchi yoki obyektlarning to'qnashishi shular jumlasidandir. "Virtuallik" atamasi lotincha "Virtualis" so'zidan olingan bo'lib, muayyan sharoitda ro'y berishi yoki vujudga kelishi mumkin degan manolarni anglatadi. "Virtual" atamasi juda ko'p sohalarda qo'llangan sohalarda uchraganligi uchun bu so'zni ta'lim tizimiga olib kirishga yetarli asoslar mavjud. Turli fanlarga oid tushunchalarni izohlash uchun ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Jumladan, fizika fanida faqat boshqa zarrachalarning o'zaro ta'sirlashish holatidagina mavjud bo'ladigan zarrachalar virtual zarrachalar deb aytiladi. Virtual zarrachalar tufayli real elementar zarrachalar o'zaro ta'sirlashuvi sodir bo'ladi va bunda virtual zarrachalarning o'zaro almashinuvi yuzaga keladi. Virtual tushunchasi meteorologiya sohasida ham qo'llaniladi. Ushbu sohada muayyan namlikka ega bo'lgan havo haroratining xuddi shu bosimga mos ko'rsatkichlaridagi quruq havo ko'rsatkichi virtual harorat deb yuritiladi.

"Virtual dunyo" tushunchasiga quyidagilar kiradi:

«Virtual dunyo bu quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan narsadir: U asosiy avtomatlashtirilgan qoidalar to'plamidan foydalangan holda ishlaydi - uning fizikasi; Har bir o'yinchi virtual olamdagi «individualni» - o'sha o'yinchining xarakterini ifodalaydi; Dunyo bilan o'zaro ta'sir haqiqatda sodir bo'ladi. vaqt - agar siz biror narsa qilsangiz, u buni qilganingizda sodir bo'ladi; Dunyo umumiy - boshqa odamlar siz bilan bir vaqtning o'zida bir dunyoda o'ynashi mumkin; Dunyo qat'iyatli - siz yo'q bo'lganingizda ham bor; Bu haqiqiy dunyo emas», Richard Bartl tomonidan 2015-yilda

«Ko'plab agentlar bir-biri bilan deyarli o'zaro aloqada bo'lishi, narsalar, hodisalar va atrof-muhitga ta'sir qilishi va ularga munosabat bildirishi mumkin bo'lgan simulyatsiya qilingan muhit; agentlar nolga teng yoki ko'p odam(lar) bo'lishi mumkin, ularning har biri virtual o'zlik deb ataladigan ko'plab ob'ektlar tomonidan ifodalanadi. avatar) yoki ko'plab dasturiy ta'minot agentlari; barcha harakat/reaktsiya/o'zaro ta'sir real vaqtda umumiy fazoviy-vaqtinchalik to'xtatilmaydigan virtual muhitda sodir bo'lishi kerak; muhit ko'plab ma'lumotlar bo'shliqlaridan iborat bo'lishi mumkin, ammo ma'lumotlar bo'shliqlari to'plami umumiy ma'lumotlar maydonini tashkil qilishi kerak, bitta persistent shard», 2018-yilda Nevelstin tomonidan.

Virtual dunyoning umumiy qabul qilingan ta'rifi yo'q, lekin ular dunyoning doimiy bo'lishini talab qiladi; boshqacha qilib aytganda, foydalanuvchi dunyoni tark etgandan keyin ham dunyo mavjud bo'lib qolishi va foydalanuvchilar tomonidan dunyoga kiritilgan o'zgarishlar saqlanishi kerak. Boshqa ishtirokchilar bilan o'zaro aloqa real vaqt rejimida amalga oshirilsa-da, onlayn virtual olamlarda vaqt izchilligi har doim ham saqlanib qolmaydi. Misol uchun, «EverQuest» vaqti o'yin vaqtini ko'rsatish uchun bir xil kalendar va vaqt birliklaridan foydalanishiga qaramay, real vaqtga qaraganda tezroq o'tadi. «Virtual dunyo» umumiy atama bo'lgani uchun

virtual muhit turli darajadagi o'yin va o'yinlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu atamaning ba'zi qo'llanishlari kiradi

Ommaviy ko'p o'yinchi onlayn o'yinlar (MMOGs) o'yinlarida ko'p sonli o'yinchilar virtual dunyoda o'zaro aloqada bo'lishadi. MMO kontseptsiyasi sport, real vaqt strategiyasi va boshqalar kabi boshqa o'yin turlariga tarqaldi. Qat'iylik mezoni virtual olamlarni videoo'yinlardan ajratib turuvchi yagona mezon bo'lib, RTS va FPS o'yinlarining ba'zi MMO versiyalari virtual olamlarga o'xshashligini anglatadi; Taqdir videoo'yin bo'lib, u shunday psevd virtual dunyo. Rivojlanayotgan tushunchalar orasida bunday o'yinlar erini haqiqiy sun'iy yo'ldosh fotosuratlariga asoslash kiradi, masalan, Google Xaritalar API orqali yoki oddiy virtual geokashing «[[Pasxa tuxumi (media)]pasxa tuxumlari]]» orqali mavjud. ]» WikiMapia yoki shunga o'xshash mash-ups, ruxsat etilgan hollarda; bu tushunchalar aralash haqiqat dan foydalanadigan virtual olamlardir.

Kollaborativ virtual muhit virtual muhitda hamkorlikda ishlash uchun mo'ljallangan (CVE).

Ko'p o'yinchili onlayn real hayot o'yinlari (MMORLGs), virtual ijtimoiy dunyolar deb ham ataladi, bu yerda foydalanuvchi o'z avatar ni o'z xohishig ko'ra tahrirlashi va o'zgartirishi mumkin, bu ularga yanada dinamik rol yoki bir nechta rollarni o'ynash imkonini beradi.

Virtual olamlar ta'lim va ta'lim uchun kuchli yangi vosita bo'lib, ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi, ammo ba'zi qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Qat'iylik davomiy va o'sib borayotgan ijtimoiy o'zaro ta'sirlarga imkon beradi, ularning o'zi ham hamkorlikdagi ta'lim uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Virtual olamlardan foydalanish o'qituvchilarga o'quvchilarning faol ishtirokini oshirish imkoniyatini beradi. Bu foydalanuvchilarga xarajat, rejalashtirish yoki joylashuv kabi cheklovlar va cheklovlar tufayli haqiqiy dunyoda qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan vazifalarni bajarishga imkon beradi. Virtual olamlar foydalanuvchilarning turli ehtiyojlariga moslashish va o'sish imkoniyatiga ega, masalan, sinf o'qituvchilari o'zlarining interfaol doska yordamida ochiq manba yordamida o'z sinflarida virtual olamlardan foydalanishlari mumkin. loyihasi Edusim. Ular foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini bildirish uchun yaxshi manba bo'lishi mumkin, odatiy qog'ozga asoslangan resurslar Virtual olamlar engib o'tishlari mumkin bo'lgan cheklovlarga ega. Qurilish uchun qulay imkoniyatlarga ega ko'p foydalanuvchili virtual dunyolar loyihaga asoslangan o'rganishda foydalidir. Masalan, Active Worlds Virjiniya Beach Siti davlat maktablarida, maktabdan tashqari NASA RealWorld-InWorld Engineering Design Challenge va EDUni-NYdagi maktabdan keyin va maktab dasturlarida sinf o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. Loyihalar qattiq iskala bilan o'ralgan aks ettirish joylaridan tortib, talabalarga yo'naltirilgan dizaynga asoslangan ochiq binogacha. Nyu-York muzeylari AMNH va NYSci o'zlarining dastur ishtirokchilari uchun STEM o'rganish tajribasini qo'llab-quvvatlash uchun vositadan foydalanganlar.

Virtual olamlardan virtual ta'lim muhitlar bilan ham foydalanish mumkin, Virtual olamlar o'ziga xos ehtiyoj va talablarga ega bo'lgan foydalanuvchilarga, agar ular jismonan mavjud bo'lsa, uydan bir xil o'quv materiallariga kirish va ulardan foydalanish imkonini beradi. Virtual olamlar foydalanuvchilarga tegishli ma'lumotlar va ehtiyojlardan xabardor bo'lishga yordam beradi, shu bilan birga ular ishtirok etganliklarini his qilishadi. Uydan yoki ish joyidan virtual dunyo orqali taqdimotda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lish foydalanuvchiga qulayroq va qulayroq bo'lishga yordam beradi. Garchi virtual olamlar o'quvchilar va o'qituvchilar bilan muloqot qilish va o'zaro munosabatda bo'lishning muqobil usuli sifatida foydalanilsa-da, izolyatsiya hissi paydo bo'lishi mumkin, masalan, ba'zi tana tili belgilarini va agar ular yuzma-yuz bo'lsa, erishadigan boshqa shaxsiy jihatlarni yo'qotish kabi.

Xulosa qilib aytganda, virtual ta'lim nafaqat masofaviy telekommunikatsiyaning o'ziga xos jihat bo'lib qolmasdan, balki ta'limning barcha, jumladan, kunduzgi shakllarida o'qituvchi, o'quvchi, o'rganilayotgan obyektlarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'lish xususiyatiga ega. Masofaviy texnologiyalar virtual ta'lim asosida kunduzgi ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishni ta'minlashga xizmat qiladi. Virtual ta'limning asosiy maqsadi, insonning real borliqda tutgan o'rning tub mohiyatini anglab yetishdagi – uning virtual va boshqa imkoniyatlari uyg'unligini ta'minlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zaripov, N. N. (2020). Using methods of foreign experiences in teaching informatics and information technologies in school. *Theoretical & Applied Science*, (3), 111-114.
2. Zaripov, N., & Hasanov, B. (2023). Python dasturlash tilini o'qitishda funksiyalardan foydalanish metodikasi. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(18).
3. Y.Y. Protasov "Grafik interfeysli dasturlash muhitida ishlash metodikasi" Texnika va raqamli texnologiyalarni amaliyotda qo'llanilishi va ularning innovatsion yechimlari" Xalqaro ilmiy-texnik konferensiya 4-5-may, 2023 yil, Farg'ona, B-29-33.

4. Zhuraev AR. The choice of the optimized content of labor education and the methodology of its training (5A112101 – Methodology of labor training). Tashkent - 2014 from 107.
5. Bakhranova U.I., Khaidarova F.Sh., On the Fredholm determinant associated with the family of generalized Friedrichs models // «Advances in Science and Education» monthly scientific - methodological journal № 7 (8) / 2016 - Russia, Moscow P 5 - 7.
6. Saidov Q.S, Bakhranova U.I. Didactic opportunities to use virtual learning tools in the preparation of future teachers for professional careers // “European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences”. Great Britain. Progressive Academic Publishing. (EJRRES) Vol. 8 No. (12), 2020. Part II, Pg, 92-96.
7. Jo‘rayeva N. O., Ubaydullayeva Z.A. Hosilani hisoblash qoidalari mavzusi bo‘yicha ayrim mulohazalar. образование и наука в XXI веке». Выпуск №26 (том 6) (май, 2022). -724-735 стр
8. Zhuraev A.R., Bakhranova U.I. The use of tasks and concepts related to geometric shapes for the integrated teaching of labor education with the subject of geometry. «Advances in Science and Education» monthly scientific - methodical journal № 7 (8) / 2016 - Russia, Moscow, p. 83 - 85.
9. Zhuraev A.R. Methods of applying virtual laboratories in teaching hydraulics and heat technology // “European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences”. -Great Britain. 2019. №7 (7). – P. 35-40.
10. Жураев А.Р., Бахранова У.И. Использование задач и понятий, относящихся к геометрическим фигурам, для интегрированного обучения трудовому образованию с предметом геометрия. “Достижения науки и образования” ежемесячный научно – методический журнал № 7 (8) / 2016 – г. Россия, Москва, с 83 – 85.



## **PYTHON DASTURLASH TILINING TURTLE MODULIDAN FOYDALANIB TURLI SHAKLLARNI CHIZISH**

*Qulliyev Javohirbek G'anijon o'g'li*

*Buxoro davlat pedagogika instituti, "Aniq fanlar" kafedrasida o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Python dasturlash tili ma'lum bir masalalarni yechish bilan chegaralanmagan. Bu til dasturchilarga yangi va yangi yo'nalishlarga kirish imkonini beradi. Python quyidagi sohalarda qo'llaniladi: Web va Internet dasturlash, kompyuter o'yinlarini yaratish, ma'lumotlar bazasi bilan ishlash (DB), computer vision, foydalanuvchilar uchun grafik interfeys (GUI), juda tez rivojlanayotgan buyumlar interneti (IoT) texnologiyasi va hokazo. Ushbu maqola python dasturlash tilining grafika bilan ishlash qismining kichik bir tarkibi bo'lgan turtle metodi haqida.*

*Kalit so'zlar: turtle, forward, right, penup, pendown, goto.*

## **РИСУЙТЕ РАЗЛИЧНЫЕ ФИГУРЫ, ИСПОЛЬЗУЯ МОДУЛЬ ЧЕРЕПАХИ(TURTLE) ЯЗЫКА ПРОГРАММИРОВАНИЯ PYTHON**

*Куллиев Жавохирбек Ганижон угли,*

*Бухарский государственный педагогический институт, Преподаватель кафедры «Точные науки»*

*Аннотация. Язык программирования Python не ограничивается решением конкретных задач. Этот язык позволяет программистам выходить на все новые и новые направления. Python используется в следующих областях: веб- и интернет-программирование, базы данных (БД), создание компьютерных игр, графический интерфейс пользователя (GUI), компьютерное зрение, быстро развивающаяся технология Интернета вещей (IoT) и т. д. Эта статья о методе черепахи (turtle), который является подмножеством графической части языка программирования Python.*

*Ключевые слова: черепаха, вперед, вправо, перо, перо, переход.*

## **DRAW DIFFERENT SHAPES USING TURTLE MODULE OF PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE**

*Kulliyev Javohirbek Ganijon ogli*

*Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the «Exact Sciences» department*

*Abstrakt. The Python programming language is not limited to solving specific problems. This language allows programmers to enter new and new directions. Python is used in the following areas: Web and Internet programming, database (DB), computer game creation, graphical user interface (GUI), computer vision, rapidly developing Internet of Things (IoT) technology, etc. . This article is about the turtle method, which is a subset of the graphics part of the python programming language.*

*Key words: turtle, forward, right, penup, pendown, goto.*

*Kirish. Aksariyat dasturlash tillarida foydalanuvchi bilan o'zaro aloqani o'rnatish uchun boshqaruv elementlari: oyna, matnlar maydoni va tugmachalar ishlatiladi. Bular umumiy nom bilan foydalanuvchining grafik interfeysi (GUI – graphical user interface) deb ataladi. Barcha elementlar joylashadigan oyna GUIning asosi hisoblanadi. "Turtle" - bu turli murakkablikdagi hamda geometrik shakllarni kod yozgan xolda chizib beruvchi Pythonning o'ziga xos modulidir. Bu modulni turtle.forward() va turtle.right() kabi funksiyalardan yoki boshqa funksiyalarni yozib, turli shakllarni chizish uchun ishlatishimiz mumkin. Quyida turtle modulining keng tarqalgan metodlari keltirilgan:*

1-jadval. Turtle metodidan foydalanish uchun metod va funksiyalar

| Metodlar    | Parametr  | Bajaruvchi vazifasi  |
|-------------|-----------|--|
| Turtle()    | -         | Yangi turtle ob'ektini yaratadi va qaytaradi   |
| forward()   | miqdori   | Turtleni(yani chizilayotgan shakl) belgilangan miqdorda oldinga siljitadi                        |
| backward()  | miqdori   | Turtleni(yani chizilayotgan shakl) belgilangan miqdorda orqaga siljitadi                         |
| right()     | burchak   | Turtleni(yani chizilayotgan shakl) soat yo'nalishi bo'yicha aylantiradi                          |
| left()      | burchak   | Turtleni(yani chizilayotgan shakl) soat sohasi farqli o'girib                                    |
| color()     | Rang nomi | Toshbaqa (Turtle) qalamining rangini o'zgartiradi  |
| fillcolor() | Rang nomi | Turtlening(yani chizilayotgan shakl) rangini o'zgartirish ko'pburchakni to'ldirishda ishlatiladi |
| position()  | -         | Joriy pozitsiyani qaytaradi  |
| goto()      | x, y      | Turtleni(yani chizilayotgan shakl) x, y holatiga o'tkazish                                       |

Turtle yordamida turli shakllarni chizish

Turtle metodlari va funksiyalaridan foydalanish uchun biz turtleni import qilishimiz kerak. Turtle standart bo'lib Python to'plami bilan birga keladi va uni tashqaridan o'rnatish shart emas.

Yuqorida aytib o'tilganidek, turtleni ishlatishdan oldin, biz uni import qilishimiz kerak. Biz uni quyidagicha import qilamiz:

```
from turtle import *
#yoki
import turtle
```

Turtle kutubxonasini import qilib, turtlening barcha funksiyalarini bizga taqdim etgandan so'ng, biz yangi loyiha va turtleni ishga tushirishimiz kerak. Shunday qilib, biz kodni quyidagicha yozamiz:

Turtle yordamida turli xil shakllarni quyidagi dasturlar yordamida chizamiz:

```
import turtle
mening_1_shaklim = turtle.Turtle() # biz umumiy shaklni hosil qilib oldik
mening_1_shaklim.color('red')
mening_1_shaklim.forward(50) # boshlang'ich nuqtadan 50 piksel oldinga siljitadi
mening_1_shaklim.up()
mening_1_shaklim.forward(50)
mening_1_shaklim.right(90)
mening_1_shaklim.down()
mening_1_shaklim.backward(80) # orqaga 80 piksel siljitadi
```



```
Turtle yordamida to'g'ri chiziqni chizish:  
from turtle import Turtle, Screen  
togri_chiziq=Turtle()  
togri_chiziq.pensize(30) # chiziq qalinligi  
togri_chiziq.forward(220)# chiziq uzunligi  
turtle.done # dasturni yakunlash
```


**turtle.done # dasturni yakunlash**



### 1.1-rasm. Dasturning natijasi

Shunday qilib, qalinligi 30 va uzunligi 220 piksel uzunlikdagi chiziq chizadigan dastur kodini yozdik. Turtle metodlari yordamida har xil shakllarni va ularni turli ranglar bilan ifodalab chizish mumkin. Python'dagi Turtle kutubxonasi yordamida kodlash uchun ko'plab funksiyalar mavjud. Shulardan, quyida ba'zi asosiy shakllarni chizishni o'rganamiz.


```
Turtle yordamida to'g'ri to'rtburchakni chizish uchun kod:  
from turtle import *  
shakl=Turtle() # to'g'ri to'rtburchakni chizish  
for i in range(4):
```



### 1.2-rasm. Dastur natijasi

Turtle yordamida naqsh chizish:

```
import turtle  
ranglar = ['yellow', 'purple', 'blue', 'red', 'green', 'white', 'black', 'orange',]  
shakl = turtle.Pen()  
turtle.bgcolor('white') # orqa fonni rangini belgilash  
for x in range(360): # siklni boshlash yani takroriy jarayonlarni bajarish  
    shakl.pencolor(ranglar[x%6])  
    shakl.width(x//100 + 1) # shakl chiziqlarining kengligi  
    shakl.forward(x)  
    shakl.left(59)  
turtle.done
```



### 1.3-rasm. Dastur natijasi


Ellips shaklini chizish:

```

from math import *
a= 364
b= 169
for i in range(361):
    x= i*(pi/180)
    y= a*sin(x)
    z= b*cos(x)-b
    kld= 25*(pi/180)
    y1=y*cos(kld)+z*sin(kld)
    z1= y*sin(kld) - z*cos(kld)
    goto(y1,z1)
  
```

1.4-rasm. Dastur natijasi

Parallelogram shaklini chizish :



```

1.4import turtle
paralgrm = turtle.Turtle()
paralgrm.speed(3) # shaklni chizish tezligi
for i in range(2):
    paralgrm.forward(180)
    paralgrm.left(60) # mos ravishdagi burchaklar
    paralgrm.forward(100)
    paralgrm.left(120) # mos ravishdagi burchaklar
  
```



1.5-rasm. Dastur natijasi

Xulosa. Umuman olganga python dasturlash tilining imkoniyatlari bundam kengroq hisoblanadi. Ushbu maqola orqali Turtle modulining imkoniyatlari haqida qisqacha tasavvurga ega bo'ldingiz va endi, o'zingiz bemaolol bu modul bilan ishlashingiz mumkin.

## O'QUV MASHG'ULOTLARIDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI

*Qurbonov G'ulomjon G'afurovich*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti, Aniq fanlar kafedrasida dotsenti*  
*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Nurilloeva Hilola Ismat qizi*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti 1- bosqich magistranti*

*Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalari Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi talabalarini "Geometriya" fanidan tayyorlangan raqamli texnologiyalar asosida o'qitishda elektron dasturdan samarali foydalanish haqida so'z yuritiladi. Ushbu zamonaviy dastur mukammal elektron didaktik vosita sifatida xizmat qilishi natijasida talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarining rivojlanish darajasi oshirilishi ilmiy asoslab berilgan.*

*Kalit so'zlar: GeoGebra, transtendent sirt, n-tartibli sirt, ikkinchi tartibli sirt, markazli sirt, markazsiz sirt, bosh kesim, ellipsoid, sfera.*

## РОЛЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Курбанов Гуломжон Гафурович*  
*Бухарский государственный педагогический институт, доцент кафедры точных наук доктор,*  
*(PhD)*

*Нуриллоева Хилола Исमत кызы*  
*Бухарский государственный педагогический институт, магистрант 1 курса*

*Аннотация. В статье говорится об эффективном использовании электронной программы в обучении математике и информатике студентов высших учебных заведений на основе цифровых технологий, подготовленных на основе науки "Геометрия". В результате применения данной современной программы, выступающей в качестве прекрасного электронного дидактического средства, повышение уровня развития квалификации и умений студентов является научно обоснованным.*

*Ключевые слова: GeoGebra, трансцендентная поверхность, поверхность n-порядка, поверхность второго порядка, центрированная поверхность, бесцентровая поверхность, главное сечение, эллипсоид, сфера.*

## THE ROLE OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL ACTIVITIES

*Kurbanov Gulomjon Gafurovich*  
*Bukhara State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Department of Exact Sciences Doctor of*  
*Philosophy in Pedagogical Sciences(PhD)*

*Nurilloeva Hilola Ismat kizi*  
*Bukhara State Pedagogical Institute of 1st stage graduate student*

*Abstract. The article talks about the effective use of an electronic program in teaching mathematics and informatics students of higher educational institutions based on digital technologies prepared from the science of "Geometry". As a result of this modern program serving as an excellent electronic didactic tool, students', increasing the level of development of qualifications and skills is scientifically justified.*

*Key words: GeoGebra, transcendental surface, n-order surface, second-order surface, centered surface, centerless surface, principal section, ellipsoid, sphere.*

**KIRISH.** Ta'limning innovatsion elektron-didaktik shakllarida - ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va qiziqishlari hisobga olinadi. Ta'lim-tarbiya mazmunini, ta'lim maqsadiga mos ravishda loyihalash hamda pedagogik, raqamli texnologik metodlar, shakllar va o'qitish usullarini tatbiq etishga yo'naltirilgan umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar asosida amalga oshiriluvchi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tizimidir .

Umuman olganda ta'lim mazmuni quyidagi talablarga javob berishi:

- talabalarning bilim darajasini rivojlantirish vositasi bo'la olishi;
- talabalar amaliy tajribasini rivojlantirish uchun asos bo'lishi;
- talabalarning tanqidiy, mustaqil, hamda ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishi;

-talabalarning olgan bilim darajasi ehtiyojlariga mos ravishda to'laqonli rivojlantirilishiga olib keladi.

Ta'lim mazmuni, maqsadi va vazifalarini o'zida qamrab olgan darajasiga qarab elektron ta'lim resurslarini o'quv jarayoniga tatbiq etish imkoniyati paydo bo'ladi. Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonimizda raqamli texnologiyalardan juda keng va samarali foydalanilmoqda. Shu jumladan, GeoGebra dasturi bunga yaqqol misol bo'ladi.

GeoGebra (geometriya va algebra portmantosi) – boshlang'ich maktabdan universitet darajasiga qadar matematika fanni o'rganish uchun mo'ljallangan interfaol geometriya, algebra, statistika va hisob-kitob ilovasi. GeoGebra ish stollari (Windows, macOS va Linux), planshetlar (Android, iPad va Windows) va veb uchun ilovalar bilan bir nechta platformalarda mavjud.

GeoGebra yaratuvchisi Markus Xoenvarter 2001-yilda Zalsburg universitetida magistrlik dissertatsiyasining bir qismi sifatida loyihani boshlagan. Muvaffaqiyatli Kickstarter kampaniyasidan so'ng GeoGebra o'z taklifini iPad, Android va Windows Store ilovalari versiyasini o'z ichiga olgan holda kengaytirgan. 2013-yilda GeoGebra o'zining CAS ko'rinishiga Bernard Parisse Xcas ni kiritgan. Loyiha endi bepul (ochiq manbali qismlarga ega) va ko'p tilli bo'lib, Xohenvarter Linz universitetida o'z rivojlanishini davom ettirmoqda.

GeoGebra foydalanuvchilar uchun mavjud bo'lgan dasturiy ta'minot va bulut xizmatlarini kengaytirish uchun Avstriyaning Linz shahridagi bosh ofisdan birgalikda ishlaydigan tijorat va notijorat tashkilotlarni o'z ichiga olgan. 2021-yil dekabr oyida GeoGebra edtech konglomerati Byju's tomonidan taxminan 100 million dollarga sotib olingan.

GeoGebra – bu boshlang'ich maktabdan universitet darajasiga qadar fan, texnologiya, muhandislik va matematikani o'rganish va o'qitish uchun mo'ljallangan interaktiv matematik dasturiy ta'minot to'plami. Tuzilmalar nuqtalar, vektorlar, segmentlar, chiziqlar, ko'pburchaklar, konus kesimlar, tengsizliklar, yashirin ko'phadlar va funksiyalar yordamida amalga oshirilishi mumkin, bularning barchasi keyinchalik dinamik ravishda tahrirlanishi mumkin. Elementlarni sichqoncha va sensorli boshqaruv elementlari yoki kiritish paneli orqali kiritish va o'zgartirish mumkin. GeoGebra raqamlar, vektorlar va nuqtalar uchun o'zgaruvchilarni saqlashi, funktsiyalarning hosilalari va integrallarini hisoblashi mumkin va Root yoki Extremum kabi buyruqlarning to'liq to'plamiga ega. O'qituvchilar va talabalar GeoGebradan geometrik taxminlarni shakllantirish va isbotlashda yordam sifatida foydalanishlari mumkin.

Interaktiv geometriya muhiti (2D va 3D).

O'rnatilgan elektron jadval.

O'rnatilgan kompyuter algebra tizimi (CAS).

O'rnatilgan statistika va hisoblash vositalari.

Skript kansalari.

GeoGebra Materialsda ko'plab interaktiv ta'lim va o'qitish resurslari.

GeoGebra Materials platformasi foydalanuvchilarga GeoGebra appletlarini yuklash va boshqalar bilan baham ko'rish imkonini beruvchi bulutli xizmatdir. GeoGebra Materials dastlab 2011-yil iyun oyida GeoGebraTube sifatida ishga tushirilgan va 2016-yilda nomi o'zgartirilgan. 2016-yil aprel holatiga ko'ra, xizmat 1 milliondan ortiq resurslarga ega, ulardan 400 000+ ommaviydir. "Materiallar" tarkibiga GeoGebraBook yordamida yaratilgan interaktiv ish varaqlari, simulyatsiyalar, o'yinlar va elektron kitoblar kiradi. GeoGebra materiallari, shuningdek, SVG, Animated GIF, Windows metafayl, PNG, PDF va EPS kabi bir nechta formatlarda eksport qilinishi mumkin. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri clipboardga ko'chiriladi. GeoGebra shuningdek, LaTeX fayllarida foydalanish uchun kod ishlab chiqishi mumkin.

GeoGebra manba kodi GNU General Public License (GPL) ostida litsenziyalangan va boshqa barcha dasturiy ta'minot bo'lmagan komponentlar Creative Commons BY-NC-SA ostida. Tijorat maqsadlarida foydalanish maxsus litsenziya va hamkorlik shartnomasi asosida amalga oshirilgan. Xalqaro GeoGebra Instituti (IGI) GeoGebra guruhining notijorat bo'limidir. Institut universitetlar va notijorat tashkilotlardagi foydalanuvchilar guruhlari global tarmog'i bo'ylab GeoGebra tizimini tadqiqot, ishlab chiqish, tarjima qilish va joylashtirish bo'yicha say-harakatlarini muvofiqlashtiradi, GeoGebra ekspertlari va trenerlariga sertifikat beradi.

#### ASOSIY QISM

Bo'lajak mutaxassislarni raqamli texnologiyani rivojlantirishdagi bilimlar nazariy mashg'ulotlarda, ko'nikmalar amaliy mashg'ulotlarda, malakalarni esa mustaqil ta'lim jarayoni va amaliy faoliyat jarayonida egallanadi. Shu sababli raqamli texnologiyani rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim olish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlar ta'lim jarayonining muhim dars shakllaridan hisoblanib, talabalar o'quv topshiriqlari jamlanmasini o'qituvchi boshchiligida bajaradilar. Talabalar o'quv mashg'ulotining ilmiy va texnik asoslarini amaliy jarayonda o'zlashtirishi orqali amaliy mashg'ulot o'tkazilishini maqsadiga erishiladi. Amaliy ishlarni bajarishda bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar hamda raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida zamonaviy metodlar orqali amaliy ishlarni bajaradilar va natija oladilar. O'qituvchi nazariy tushunchalarni berishda avvalambor kirish yo'riqnomasida faqatgina topshiriq maqsadini aytib o'tadi, keyinchalik bosqichma-

bosqich uni bajarishga qo'yilgan talablarini tushuntirib o'tadi. Talabalar topshiriqlarni bajarishdagi ketma-ketlik va uni amalga oshirish metodlarini amaliy ko'rsatmalar asosida mustaqil o'rganishlari mumkin. Bu orqali ishning to'g'ri bajarilayotganlini, talabalarning qanchalik tushunganliklari natijasida kuzatishimiz mumkin.

Sirtlar, ularning Dekart koordinatalariga nisbatan ifoda qilingan tenglamalarga qarab, tekislikdagi chiziqlar kabi, algebraik va transcendent sirtlarga bo'linadi. Shuning uchun algebraik sirt deb, shunday sirtga aytiladiki, agarda uni

$$f(x, y, z) = 0$$

ko'rinishidagi tenglama bilan ifodalash mumkin bo'lsa va  $f(x, y, z)$  esa  $x, y, z$  ga nisbatan polinom (ku'p kuchi) bo'lsa, algebraik bo'lmagan hamma sirtlarni *transcendent sirtlar* deyiladi.

Algebraik sirtlar, o'z navbatida, to'liq tartibli sirtlarga bo'linadi. Agarda  $f(x, y, z)$  polinomning darajasi  $n$  bo'lsa, unday sirtlarni  $n$  - *darajali sirt* deyiladi.

Dekart o'zgaruvchi  $x, y, z$  koordinatalariga nisbatan ikkinchi darajali algebraik tenglama bilan ifoda qilingan sirt *ikkinchi darajali sirt* deyiladi. Shuning uchun ikkinchi tartibli sirt ifoda qiladigan ikkinchi darajali algebraik tenglamaning umumiy ko'rinishi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$A_1x^2 + A_2y^2 + A_3z^2 + B_1xy + B_2xz + B_3yz + C_1x + C_2y + C_3z + F = 0,$$

buada  $A_1, A_2, A_3, B_1, B_2, B_3, C_1, C_2, C_3, F$  koeffitsiyentlar har qanday o'zgaruvchilar ma'lum darajali bo'lishi, xususan holda ularning ba'zilarini nolga teng bo'lishi mumkin. Bu tenglamaning umumiylikiga xalal bermay uni quyidagi ko'rinishda yuzish mumkin:

$$A_1x^2 + A_2y^2 + A_3z^2 + 2B_1yx + 2B_2xz + 2B_3zy + 2C_1x + 2C_2y + 2C_3z + F = 0. \tag{1}$$

Tenglamani ushbu ko'rinishda yozsak, uning bilan bog'langan amallarni bajarish bizga qulay bo'ladi.

Koordinatalar sistemasini aylanaktirish yordamida (1) tenglamani soddalashtirib, uni

$$A_1x^2 + A_2y^2 + A_3z^2 + F = 0 \tag{2}$$

yoki

$$A_1x^2 + A_2y^2 + 2C_3z = 0 \tag{3}$$

shakliga keltirish mumkin.

(2) tenglama bilan ifoda qilingan sirt ikkinchi tartibli *markazli sirt* deyiladi va (3) tenglama bilan ifoda qilingan sirt ikkinchi tartibli *markazsiz* (yoki *markazi cheksizlikdagi*) *sirt* deyiladi.

Paraz qilyalik, ikkinchi tartibli markazli sirtning eng soddas tenglamasi berilgan bo'lsin:

$$A_1x^2 + A_2y^2 + A_3z^2 + F = 0 \tag{4}$$

va bundagi erod had bo'lgan  $F$  ning ishorasi qolgan koeffitsiyentlarning ishorasiga teskari bo'lsin. Tenglamaning  $F$  koeffitsiyentini o'ng tomonga o'tkazib, so'ngra uning ikkisi tomonini ( $-F$ ) ga ko'chiramiz:

$$\begin{aligned} A_1x^2 + A_2y^2 + A_3z^2 &= -F, \\ \frac{A_1x^2}{-F} + \frac{A_2y^2}{-F} + \frac{A_3z^2}{-F} &= 1, \end{aligned}$$

yoki

$$\frac{x^2}{\frac{-F}{A_1}} + \frac{y^2}{\frac{-F}{A_2}} + \frac{z^2}{\frac{-F}{A_3}} = 1. \tag{5}$$


(4) tenglamaning koeffitsiyentlari to'g'risida qilingan farazga muvofiq  $F$  ning ishorasi qolgan koeffitsiyentlarning ishorasiga teskari bo'lgani uchun, (5) tenglamaning chap tomonidagi har bir kasrning sur'atli mu'asbi bo'ladi. Shuning uchun ularni birinchiini  $a^2$ , ikkinchiini  $b^2$  va uchinchiini  $c^2$  deb fozuz qilamiz:

$$-\frac{F}{A_1} = a^2, \quad -\frac{F}{A_2} = b^2, \quad -\frac{F}{A_3} = c^2, \tag{6}$$

demak, (5) tenglamaning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} + \frac{z^2}{c^2} = 1. \tag{7}$$

Bu tenglama bilan ifoda qilingan sirt *ellipsoid* deyiladi.



1-chizma

Tenglamaning tuzilishiga qaraganda uning chap tomonidagi har bir kasrning qiymati birinchi katta bo'la olmaydi, ya'ni

$$\frac{x^2}{a^2} \leq 1, \quad \frac{y^2}{b^2} \leq 1, \quad \frac{z^2}{c^2} \leq 1,$$

yoki

$$x^2 \leq a^2, \quad y^2 \leq b^2, \quad z^2 \leq c^2,$$

demak,

$$|x| \leq a, \quad |y| \leq b, \quad |z| \leq c.$$

Bu e'lipsoidning shaklini tekshiramiz. Buning uchun eng avval uning koordinata o'qini bilan ochiqdagi nuqtalarini topamiz. Agar (7) tenglamada  $y = 0, z = 0$  faraz qilinsa,  $x = \pm a$  bo'ladi, ya'ni absissa o'qi e'lipsoidni koordinatalar boshiga nisbatan simmetrik bo'lgan  $A(a; 0; 0)$  va  $A_1(-a; 0; 0)$  nuqtalarda kesib o'tadi. Shunga o'xshash  $x = 0, z = 0$  faraz qilinsa,  $y = \pm b$  bo'ladi, ya'ni ordinata o'qi e'lipsoidni koordinatalar boshiga nisbatan simmetrik bo'lgan  $B(0; b; 0)$  va  $B_1(0; -b; 0)$  nuqtalarda kesib o'tadi;  $x = 0, y = 0$  faraz qilinsa,  $z = \pm c$  bo'ladi, ya'ni absissalar o'qi e'lipsoidni koordinatalar boshiga nisbatan simmetrik bo'lgan  $C(0; 0; c)$  va  $C_1(0; 0; -c)$  nuqtalarda kesib o'tadi.

Aniqlangan nuqtalardan  $A$  - e'lipsoidning  $yOz$  tekislikdan eng uzoqlashgan nuqtasi bo'ladi; shunga o'xshash qolgan nuqtalar ham tegishli koordinata tekisliklaridan eng uzoqlashgan nuqtalardan iborat. Shuning uchun ularni e'lipsoidning boshini deyiladi va har ikki nuqtalarning orasidagi  $2a, 2b, 2c$  masofalar e'lipsoidning o'qlari deyiladi. E'lipsoidning o'qlari to'g'risida quyidagi shart bo'lmagan holda  $a > b > c$  faraz qilindi. Tekshirishdan chiqqan natijalarga qaraganda e'lipsoid yopiq sirt bilan iborat, chunki u

$$x = \pm a, \quad y = \pm b, \quad z = \pm c$$

tekisliklardan yasalgan parallelepipedning ichida bo'ladi.

Bu e'lipsoidning koordinata tekisliklari bilan kesilishidan hosil bo'lgan shakllarni tekshiramiz. Masalan,  $xOy$  tekisligi bilan kesish uchun  $z = 0$  faraz qilishga to'g'ri keladi va bu holda (7) ning ko'rinishi oshin ko'rinishida bo'ladi:

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1. \tag{8}$$

Shunga o'xshash  $y = 0$  faraz qilinsa,

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{z^2}{c^2} = 1 \tag{9}$$

va  $x = 0$  faraz qilinsa,

$$\frac{y^2}{b^2} + \frac{z^2}{c^2} = 1. \tag{10}$$

(8), (9), (10) tenglamalardan har biri e'lipsoidni ifodalaydi. Demak, e'lipsoidning koordinata tekisliklari bilan kesimlari e'lipsoid bilan iborat. Bular e'lipsoidning kesim kesimlari deyiladi.

Bu e'lipsoidni koordinata tekisliklariga parallel bo'lgan tekisliklar bilan kesib ko'ramiz. Masalan,  $xOy$  tekislikka parallel bo'lgan tekislikning tenglamasini birgalikda yechishga to'g'ri keladi.

$x = k$  ni (7) ga qo'yib:

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} + \frac{k^2}{c^2} = 1,$$

yoki

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1 - \frac{k^2}{c^2}$$

yoki

$$\frac{x^2}{a^2(c^2 - k^2)} + \frac{y^2}{b^2(c^2 - k^2)} = 1,$$

yoki

$$\frac{a^2(c^2 - k^2)}{c^2} = a_1^2, \quad \frac{b^2(c^2 - k^2)}{c^2} = b_1^2 \tag{11}$$

faraz qilinsa, tenglamani ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{x^2}{a_1^2} + \frac{y^2}{b_1^2} = 1. \tag{12}$$

Bu tenglama e'lipsoidni ifodalaydi. Biroq, bu e'lipsoidning haqiqiy bo'lishi uchun  $|k| \leq c$  bo'lishi lozim, chunki (11) dagi tengliklarga qaraganda  $|k| > c$  bo'lgan holda  $a_1$  va  $b_1$  mavjud bo'ladi. Shunga o'xshash e'lipsoidni  $yOz$  va  $xOz$  tekisliklarga parallel bo'lgan tekislik bilan kesgan holda ham hamon shu kabi natija kelib chiqadi, ya'ni e'lipsoid hosil bo'ladi.

E'lipsoidning o'qlaridan ikkitasi o'zaro teng bo'lganda, unday e'lipsoid sferosimon e'lipsoid deyiladi. Masalan, e'lipsoidning (7) tenglamasida  $a = b > c$  faraz qilinsa, u tenglamaning ko'rinishi

$$\frac{x^2 + y^2}{a^2} + \frac{z^2}{c^2} = 1 \tag{13}$$

bo'ladi va bu e'lipsoid sferosimon e'lipsoid deyiladi, chunki



$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1$$

ellipsning kichik o'qi atrofida aylantirishdan hosil bo'ladi.

Agar (13) da  $x = 0$  deb faraz qilinsa,

$$x^2 + y^2 = a^2$$

bo'ladi, bu esa aylantirish ifoda qiladi. Demak, (13) tenglama ellipsning  $xOy$  tekisligi bilan kesimi aylantirish iborat. Shunga o'xshash,  $xOy$  tekisligiga parallel bo'lgan tekislik bilan (13) ni kesganida yana aylantirish hosil bo'ladi. Agar (7) tenglamada  $a > b = c$  faraz qilinsa, u tenglamaning ko'rinishi

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2 + z^2}{b^2} = 1 \tag{14}$$

bo'ladi va bu ellipsoidning cho'ziq ellipsoidi deyiladi, chunki u

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1$$


ellipsning katta o'qi atrofida aylantirishdan hosil bo'ladi. Agar (14) da  $x = 0$  faraz qilinsa,  $y^2 + z^2 = b^2$  bo'ladi, ya'ni cho'ziq ellipsoidning yo'l tekisligiga parallel bo'lgan tekislik bilan (14) ni kesganida, yana aylantirish hosil bo'ladi.

Ellipsoidning o'qlari o'zaro teng bo'lganda ya'ni  $a = b = c$  bo'lganda (7) tenglamaning ko'rinishi

$$x^2 + y^2 + z^2 = a^2 \tag{15}$$

bo'ladi.

Bu tenglama markazli koordinatalar belkida bo'lgan radiusi  $a$  ga teng bo'lgan sfera ifoda etadi.



**XULOSA.** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, talabalarni raqamli texnologiyalar asosida o'qitishda ayniqsa, fazoviy jismlar bilan ishlashda GeoGebra dasturi bizga samarali xizmat qiladi. Ya'ni bir so'z bilan aytganda, ushbu dastur asosida uch o'lchovli fazodagi grafiklarni tasavvurda shakllantirish juda oson. Bundan tashqari GeoGebra dasturi orqali nafaqat grafiklar balki, masofa, burchak, yuzalar va boshqa kattaliklarni ham qulay topa olish mumkin. Ushbu foydali dastur vaqtimizni tejashga hamda tafakkurimizni yanada teran qilishga bizga yaqindan yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Анапияев Ф. Аниқ фанларни ўқитишда интерфаол ўқитиш методлари // Маъруза матни. Т-2011. URL: <https://matematika.uz/2017/03/interfaol- metodlar/>

2. Martina Brajković. Tools and Methodologies for Developing Interactive Electronic Books. ERASMUS program June 2014. P. 4-34-38.

3. Qurbonov G'.G'. Umumkasbiy fanlarni raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish (Axborot tizimlarining matematik va dasuriy ta'minoti misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Diss. –T.: -155 b.

## TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINI TALABA-QIZLARDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYAT SIFATIDA TAKOMILLASHTIRISH

*Qurbanova Dilafruz Toshturdiyevna*  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Temur va temuriylar sulolasiga mansub xotin-qizlardan Saroymulk xonim, Gavharshod begim Xonzoda begim, Gulbadan begim, Nurjahan begim (Mehriniso), Mumtozmahal, (Arjumand bonu) Zebuniso begimlarning ma'naviy merosi vositasida -axloqiy qadriyatlarini takomillashtirishning nazariy asoslari yoritilgan.*

*Kalit iboralar: ma'naviyat, tarixiy xotira, temuriy malikalar, talaba-qizlar axloqiy sifat, axloqiy qadriyat, talaba qizlar.*

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ЦАРСТВ ХРАМА КАК ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ

*Курбанова Дилафруз Тоштурдиевна*  
ассистент Узбекско-Финляндского педагогического института

*Аннотация. В данной статье духовно-нравственные ценности студенток совершенствуются посредством духовного наследия женщин, принадлежащих к династии Тимуридов, Сароймслк Бегим, Гавхаршад Бегим Ханзода Бегим, Гулбадан Бегим, Нурджахан Бегим (Мехринисо), Мумтозмахал, Зebinисо Бегим с излагаются теоретические основы.*

*Ключевые слова: духовность, историческая память, тимуридские принцессы, студентки, моральные качества, нравственная решимость, студентки.*

## IMPROVING THE SPIRITUAL HERITAGE OF TEMPLE QUEENS AS SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN STUDENT GIRLS

*Kurbanova Dilafruz Toshturdiyevna*  
assistant of Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

*Abstract. In this article, the spiritual and moral values of female students are improved through the spiritual heritage of women belonging to the Timurid dynasty, Saroymslk Begim, Gavharshad Begim Hanzoda Begim, Gulbadan Begim, Nurjahan Begim (Mehriniso), Mumtozmahal, Zebiniso Begim, and the theoretical foundations are outlined.*

*Key words: spirituality, historical memory, Timurid princesses, female students, moral qualities, moral determination, female students.*

*Kirish. Ayolga ehtirom ko'rsatish, uni e'zozlash xalqimizga xos oliyanob xususiyatlaridan biri. Respublikamizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatda siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan oilaga, ayollarga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan belgilanadi.*

*Davlatimiz rahbari ayollarimizning jamiyatdagi o'rni va roliga yuqori baho berib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarimizni bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo'lishlari hamda sog'lom va ishbilarmon, uddaburon uy bekasi bo'lish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, birinchi navbatda sog'lom bola tug'ilishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog'ligini muhofaza qilish davlatimiz va jamiyatimizning doimiy e'tiboriga ega ustuvor vazifa ekanligiga doimiy ravishda alohida e'tibor qaratmoqda.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "...xabaringiz bor, biz o'z faoliyatimizning ilk kunlaridan boshlab munis va mo'tabar ayollarimizning og'irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish masalasini davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgidik. Barcha islohotlarimizning mazmuni, "Inson qadri uchun" tamoyilining mohiyati ham aynan shunga qaratilgan. Agar biz xalqimiz bizdan rozi bo'lishini xohlasak, avvalo, mo'tabar onalarimiz, opa-singillarimiz, qizlarimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz kerak", – degan edi [1].*

*Talaba-qizlarda yuqoridagi sifatlarni tarbiyalash uchun yurtimizda juda ko'plab boy adabiy ilmiy meroslar bor. "Al-adaba" deb ataladigan, buyuk allomalarimizning odob-axloq, insoniy fazilatlar, ta'lim-tarbiyaga*

bag'ishlangan boy ma'naviy merosi pedagogik jihatdan kam o'rganilgan qismlardan biridir. Shu jumladan, Temuriy malikalar ma'naviy merosi asosida talaba-qizlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish bugungi kunda dolzarb pedagogik muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Tariximizda XIV-XVI asrlar chuqur iz qoldirgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu davrda iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohada muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Markazlashgan davlatning tashkil topishi natijasida maorif, ilm-fan, madaniyat, qurilish va obodonchilik ishlari yuqori pog'onaga ko'tarildi. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga e'tibor qaratildi.

Amir Temur va temuriylar davridagi maorif va ta'lim-tarbiyaga oid rivojlanishida bevosita temuriy malikalarning o'rni beqiyos bo'lgan. Erkakka hurmat, sharm-hayo, uyat, andisha, iymon-e'tiqodlilik o'zbek ayoliga xos fazilat. Shu bois, azaldan tajribali, andishali, sadoqatli, iboli, hayoli, mehribon onalar tarbiyalayotgan farzandlar g'ururli, e'tiqodli, iymoni butun, mehnatsevar bo'lib voyaga yetishgan. Bu esa bugungi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qatorida temuriy malikalar ma'naviy merosi asosida talaba-qizlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Birgina Temur va temuriylar sulolasiga mansub xotin-qizlardan ayrimlariga to'xtalib o'taylik. Saroymulk xonim Amir Temurning rafiqasi, Qozonxonning qizi (1341-1408), Gavharshod begim Shohruh Mirzoning rafiqasi (1379-1457), Xonzoda begim Umarshayx Mirzoning to'ng'ich qizi, Boburning opasi (1477-1544), Gulbadan begim Zahriddin Muhammad Boburning uchinchi qizi (1523-1603), Nurjahon begim (Mehriniso) Jahongirshohning suyakli xotini (1577-1645), Mumtozmahal (Arjumand bonu) Shohjahonning xotini (1594-1631), Zebuniso begim Avrangzeb Olamgironing katta qizi (1639-1702) shular jumlasidandir.

Ushbu malikalar to'g'risida ko'pgina qo'lyozma toshbosma asarlarda tegishli ma'lumotlar uchraydi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Sohibqiron bobomiz hayoti va ijodiga nazar tashlar ekanmiz, u oila a'zolari, farzandlari va oddiy xalqni yuksak axloqiy qoidalarga amal qilishga undagan, mamlakat sultoni sifatida talab qilganligining guvohi bo'lamiz. Uning barcha tarbiyaviy g'oyalari oilasiga, farzandlariga, ahli ayoliga, amir-ulamolariga, saroy ayollariga bo'lgan munosabatlari orqali namoyon bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xotin-qizlarga bo'lgan hurmati, ularni ona, qiz, zaifa sifatida e'zozlash, har qanday xavf-xatardan himoya qilishi sog'lom farzandlarni dunyoga kelishi uchun zamin hisoblangan. Xotin-qizlar oila tayanchlari, hayotning davomiyligini ta'minlovchi ulug' kuch sifatida e'zozlangan. Shuning uchun temuriy malikalar fahm-farosatli, zukko, tadbirkor, ziyrak, oqila, ma'rifatli, insonparvar, dono bo'lib yetishgan. Ushbu fazilatlaridan kelib chiqqan holda bugungi kunda tobora dolzarbligi ortib borayotgan jamoat orasida o'zini tutish qoidalari, xushmuomalalik odobi, yoshga qarab muloqotda bo'lish, salomlashish, hol-ahvol so'rash qoidalari, kundalik turmush tartibi, kiyinish, kiyim tanlash me'yorlari, orastalik bilan bog'liq talablar, mehnat qilish va mehnatga munosabat odobi kabi xislatlarni talaba-qizlarimizda ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida takomillashtirib borishimiz zaruriyatga aylanmoqda.

Tarixchi olim Turg'un Fayziyevning temuriy malikalarga bag'ishlangan tadqiqot ishlari e'tiborga molik [2]. Olim Temur va temuriylar davri tarixini, jumladan, temuriy shahzodalar va malikalar haqidagi ma'lumotlarni to'plab, tahlil qilib, ko'plab tarixiy manbalarga tayanib 1995-yilda "Temuriylar shajarasi" kitobini nashr ettirdi [3]. Xarakterli jihati shundaki asarda temuriy malikalar, ularning kelib chiqishi, insoniy fazilatlarini, shajaralari to'g'risida batafsil ma'lumot beradi. Olimning temuriy malikalarga bag'ishlangan yana bir risolasi Sharqning bulbuli deb nom olgan Zebuniso begimga bag'ishlangan. Muallif XVII asrda boburiylar xonadonida tug'ilib voyaga yetgan Zebunisoning hayoti va faoliyati, madaniy merosiga oid ma'lumotlarni fors tilidagi manbalar orqali bayon qiladi.

Izzat Ahmedov tomonidan nashrga tayyorlangan "Dunyo malikalari" to'plamida muallif ko'pgina tarixiy hujjatlar, manbalardan foydalanib, dunyo mamlakatlarining aksariyatida mashhur va tarixiy shaxsga aylangan ayollarning insoniyat tarixiga qo'shgan salmoqli hissalarini, ko'rsatgan xalq qahramonlarining jasoratlarini, davlatni qanday boshqarganliklari, oilaparvarligi, insoniy fazilatlarini kengroq yoritishga harakat qilgan. Ushbu to'plamda temuriy malikalardan Saroymulk xonim, Gavharshod begim, Xonzoda begim, Gulbadan begim, Jahonoro begim, Zebuniso begimlar haqida ulardagi insoniy fazilatlar to'g'risida yozgan. Jumladan, "...Saroymulkxonim nozik did va farosat bilan o'zgalardan ajralib turadigan, husn-latofat bobida ham benazir ayollardan edi. Saltanat ishlarida o'z maslahatlari bilan qatnashib turar, ayniqsa, ilm-ma'rifatga alohida e'tibor ila qarab, tolibi ilmlarga homiylik qilar edi", - deb ta'kidlaydi muallif [4].

Boburning eng sevimli farzandlaridan biri Gulbadan begim bo'lgan. U saroyda katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan. Shu bois, Gulbadan begim akasi Xumoyun vafotidan keyin ham uzoq yillar yashab Boburiylar avlodi to'g'risida "Humoyunnoma" asarini yozadi. Ushbu asar oradan bir necha asr o'tsa ham avloddan avlodga o'tib

kelmoqda. Manbalarga qaraganda Gulbadan begim o'z davrining oqila, donishmand ayollaridan biri edi. U "Humoyunnoma" asarida saroy ahlining turmush tarzi, tarixiy asarlarda uchramaydigan Boburshoh xonadonining nozik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, to'y va a'za bilan bog'liq udumlar, uy-ro'zg'or asboblari, kiyim-kechak turlari va boshqa jihatlar haqida batafsil bayon qiladi.

"Humoyunnoma"da XVI asrda Bobur ayniqsa, Humoyun saroyidan xotin-qizlar ahvoli va ularning feodal jamiyatda tutgan o'rinlari haqida ko'p fikr-mulohazalar bildirilgan. Gulbadan begimning yozishicha "begimlar" ayrim hollarda davlatda katta o'rin tutganlar. Masalan, Gulbadan begimning o'zi Humoyun davrida davlat miqyosida diplomatik munosabatlarda ishtirok etgan. Ular shodlik kunlarida mardona kiyimlar kiyishganlar va chavandozlik, tirandozlik kabi o'yinlarda faol qatnashganlar [5].

"Humoyunnoma" asarida ta'kidlanishicha o'rta asr tarixchilari orasida bizga faqat ikkita xotin-qiz manbashunosning nomi ma'lum. G'arbdagi olima – tarixchi vizantiyalik malika Anna Komen (XI-XII asr) bo'lib, u o'z otasi va akasining tarixini yaratgan. O'rta Sharqda esa O'rta Osiyo, Hindiston va qisman Afg'oniston tarixining ma'lum bir davrini mohirona aks ettirgan Gulbadan begim o'z davrining murakkab feodal munosabatlarini nihoyat chuqur fahmlay olgan va u voqealarni ta'sirli jumalalarda bayon qila olgan ajoyib shaxsdir [5].

Ibn Arabshoxning "Ajoyib ul maqdur fi tarixi Taymur" (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) asarida A. Temur qo'shini haqida quyidagi ma'lumotni beradi: -"Temur askarlari ichida ayollar ham ko'p bo'lib, ular jang va to's-to'polonlari va shiddatli to'qnashuvlarda matonat ko'rsatardilar. Ular dushman erkaklariga qarshi turib, mardonavor urush qilardilar, qilich bilan zarba berishda va kamondan otishda mohir erkaklardan ko'ra ham ortiqroq ish qilardilar. Agar ulardan biri homilador bo'lib, yo'lda ketayotgan paytda uni dard tutsa u o'z jamoasidan ajralib, yo'ldan chetga chiqardi va ulovdan tushardi.

Ko'zi yorigach chaqalogini o'rab olib, uloviga minardi va jamoasiga qo'shildilar". [6].

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda temuriylar davri madaniyati va temuriy malikalar ma'naviy merosiga oid pedagogik, tarixiy, adabiy, etnografik manbalar tahlili usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Prezident Shavkat Mirziyoyev obro'-e'tiborli, katta hayotiy tajribaga ega "Oqila ayollar" harakatini tashkil qilishni taklif etdi. Davlat rahbari bu haqda 2022-yil 1-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "Bu harakat tom ma'noda mahallaning vijdoniga aylanishi kerak. Chunki ma'rifatli jamiyatni ma'rifatli onalarsiz qurib bo'lmaydi. Biz Uchinchi Renessans poydevorini qurish, jamiyatda yangi ma'naviy makon yaratish haqida gapirar ekanmiz, bu ishlarni oila, onalar ma'naviyati bilan uzviy amalga oshirishimiz zarur. Hech bir ona farzandining kelgusida baxtsiz bo'lishini istamaydi. Shu ma'noda, men muhtarama onalarimizga murojaat qilmoqchiman. Bugun biz vatanning shon-shuhratini yuksaltiradigan tarixiy davrga qadam qo'ydik. Shuning uchun, sizlar farzandingizning qalbiga ulug' maqsadlarni, ezgu g'oyalarni singdiring, buyuk orzularni joylashga intiling" deya alohida ta'kidlab o'tdilar.

Bizning fikrimizcha, hozirgacha uzoq asrlar davomida ayollarning jamiyatdagi o'rni yetarlicha o'rganilgani yo'q. Tarixchilar, sotsiolog, faylasuf, pedagog olimlar tarixiy qo'lyozma asarlar va boshqa manbalar orqali bu muammoni tadqiq qilishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Amir Temur davrida ayollarga bo'lgan munosabatni o'rganish yoshlar uchun ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, milliy g'ururni yuksaltirishda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur va temuriylar davri tarixi milliy tariximizning ajralmas qismidir. Mustaqillik tufayli xalqimizning tarixiy xotirasi qayta tiklandi. Milliy an'analar va ko'hna madaniyatimiz qaytadan yuz ochmoqda. Ulug' ajdodlarimizni yod eta boshladik. Ular qoldirgan ma'naviy merosni o'zlashtirayapmiz.

O'zining dunyoqarashida tasavvuf ta'limotini asos qilib olgan Amir Temur o'z "Tuzuklar"ida maorif va yoshlar tarbiyasi haqida ko'pgina g'oyalarni olg'a suradi. Ayniqsa, fuqarolarning axloqi, yoshlarning xulq-atvori haqidagi fikrlari o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bu fikrlarni chuqur va asosli o'rganib, hayotga tatbiq etish davrimiz ehtiyoji va talabiga aylangan.

Tabaqalar orasidagi tarbiyani zanjirga o'xshatish mumkin. Bir-biri bilan mustahkam bog'liq bo'lgan amirlar, beklar, maliklar o'z farzandlari tarbiyasini saroy tarbiyasiga taqlidan tashkil etganlar. Hunarmand va dehqonlar esa amiru-beklar, qozilar oilasidagi bola tarbiyasini namuna sifatida qabul qilganlar. Lekin, shubhasizki, har bir tabaqaning o'ziga xos xususiyatlari bo'lgan.

Qishloqlardagi masjid qoshida, albatta maktab bo'lgan. Har qishloqdagi masjidlar soni ba'zan to'rttagacha yetgan. Qishloq bolalarini ota-onalari kelajakda masjidga imom yoki savodi yo'q odamlarga ariza yozib beruvchi

mirza bo'lar, degan maqsadda o'qitganlar. Qishloq maktablarida bolalar xat-savod chiqarganlar, mantiq, hisob darslari o'tilgan. Hofiz, Bedil, Navoiy o'qitilgan.

Qizlar asosan bo'lajak xonadon bekasi, erning yordamchisi sifatida tarbiyalanganlar. Ularga erkaklarga baxt bag'ishlovchi zot deb qaralgan. Qo'llari nozik, kiyimlari go'zal, bolalari sog'lom bo'lishi kerak, deb hisoblangan. Malikalar biror musiqa asbobini chalishni bilish, she'r ilmi va nafis san'atning ba'zi turlarini egallashlari shart edi. Zebuniso begim, Gulbadan begim bunga misol bo'la oladi. Ba'zi aslzoda ayollar, xususan shohoyimlar saroy ishlariga aralashganlar. Bibixonim hatto qabul paytida Amir Temurning yonida o'tirgan. Xullas, qizlar tarbiyasi ham o'g'il bolalarning tarbiyasiga o'xshab tabaqalarning bir-biriga taqlidi asosida tashkil etilgan.

Milliy pedagogikamiz milliy ruhiyatimizni aks ettiradi. Har bir jamiyatda ma'naviy dunyo qaysi darajada bo'lsa, jamiyat ham xuddi shu darajada bo'ladi. Amir Temur va temuriylar davridagi ilmu-amal va ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berilishi moddiy va ma'naviy yuksalishga asos bo'ldi. Bu borada temuriy malikalarning xizmati tahsinga loyiq. Boshqacha aytganda temuriy malikalarning odob-axloqi, tadbirkorligi, xushmuomalaligi, ziyrakligi, topqirligi, bag'rikengligi, oqila, donishmandligi, latofatligi, dono maslahatchi, ilm-ma'rifat homiysi bo'lishi, bir so'zligi, qat'iyatligi, irodaliligi, iffatliligi kabi sifatlar temuriylar davrining ma'naviy yuksalishiga xizmat qilgan.

Shu jihatdan olganda temuriy malikalarning bu insoniy fazilatlaridan talaba-qizlar ma'naviyatini shakllantirishda foydalanish davr talabi bo'lib turibdi.

E'tiborli jihati shundaki, temuriy malikalar qurilish, obodonchilik ishlariga ham e'tibor berganligini ta'kidlash lozim. Jumladan, Saroyimulk xonim qurdirgan madrasa XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Samarqandda madrasalar orasida o'z mahobati bilan ajralib turgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, Saroyimulk xonim madrasasi XVI asr oxirida Buxoro Amiri Abdullaxon tomonidan buzdirib tashlangan. Sohibqiron Amir Temur 1399-1404-yillarda Saroyimulk xonimga atab "Bibixonim" masjidini qurdirgan. Hozirgi kunda ushbu masjid sayyohlar va ziyoratchilar uchun muqaddas joyga aylangan [7].

#### Xulosa va takliflar

Tarbiya shaxsni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon hisoblanib, tarbiyalanuvchilarning shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi. Talaba-qizlar ongida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining takomillashganlik darajasiga bog'liq bo'lgan ijtimoiy-manaviy voqelik ta'lim-tarbiyada dolzarb muammolardan biridir.

Shu bois, yurtimizda amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar kelajagimiz egalarini Vatanga, milliy g'oyalar, ma'naviy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash jarayoni va maqsadi bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi.

Talaba-qizlar ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatdan o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- temuriy malikalar Bibixonim, Gavharshod begim, Xonzoda begim, Gulbadan begim, Nurjahon begim, Mumtozmahal (Arjumand bonu), Zebuniso begim kabi malikalar tomonidan barpo etilgan me'moriy obidalar, yaratilgan nodir asarlar insoniyat ma'naviy xazinasining durdonasi va jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida mustaxkamlash;

- mamlakatning tarixiy merosini talaba-qizlar ongiga singdirishda turli tadbirlar, kechalar taskil etish;
- oliy ta'lim va professor-o'qituvchilar tomonidan ekskursiyalarini sifatli tashkil etish;
- temuriy malikalar ma'naviy merosi asosida talaba qizlar ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirishda ilmiy-ommabop ma'lumotlarni radio, teleko'rsatuv hamda internet tarmoqlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yoshlar tarbiyasining samaradorligi, ularda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish har bir oila, ta'lim muassasasida tarbiyaning qaysi prinsip asosida tashkil etilganiga bog'liq.

Temuriy malikalar ma'naviy merosi asosida talaba-qizlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish ham kafolatlangan samaradorlik bera oladi, deb hisoblaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

Mirziyoyev Sh. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvdagi nutqi. 2016-yil 30-dekabr.

Fayziyev T. Temuriy malikalar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – 40 b.

Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. – Toshkent: Info kapital books nashriyoti, 2020. – 368 b.

Ahmedov I. Dunyo malikalari. –Toshkent: Zarqalam nashriyoti, 2005. –140 b.

## ATOM MODELLARINI O'QITISHDA CHIZMA-RASM VA DASTURIY VOSITALARINING ROLI

Rajabov Boboxon Hasanovich  
BuxdPI Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi

Umedov Shokir Komilovich  
BuxdPI Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada atom modellarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari haqida fikr yuritilgan. Fizika ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan maqsad ta'lim oluvchini dars jarayonining markaziga olib chiqish, o'quvchilarni o'quv materiallarini shunchaki yodlab olishlaridan, ixtiyoriy takrorlashlaridan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Bundan tashqari murakkab mikro olamni tasavvur qilish maqsadida atom modellarini chizma, rasm, multimediya, va boshqa dasturiy vositalardan foydalanib o'qitish.

*Kalit so'zlar:* Atom, Tomson, Rezerford, Model, yangi pedagogik texnologiya, qoida, formula, metod, interfaol usullar, interaktiv, Dasturiy vosita, elementar zarra.

## РОЛЬ ЧЕРТЕЖЕЙ-РИСУНКОВ И ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ АТОМНЫХ МОДЕЛЕЙ

Раджабов Бобохон Хасанович,

Умедов Шокир Комилович  
Преподаватели кафедры Точные науки БухГПИ

*Аннотация:* В данной статье рассматриваются преимущества использования новых педагогических технологий при изучении модели атомов. Цель использования новых педагогических технологий в преподавании физики – поставить обучающегося в центр учебного процесса, отвести учащихся от простого запоминания и произвольного повторения учебного материала, развить его самостоятельную и творческую деятельность и превратить его в активного участника урока. В то же время, используя чертежи, рисунки, мультимедиа и другие программные продукты, создать представление о сложном микромире.

*Ключевые слова:* Атом, Томсон, Резерфорд, Модель, новая педагогическая технология, правило, формула, метод, интерактивные методы, интерактив, Программный инструмент, элементарная частица.

## THE ROLE OF DRAWING AND SOFTWARE IN TEACHING ATOMIC MODELS

Radjabov Bobokhon Khasanovich,

Umedov Shokir Komilovich  
Teachers of the Department of Exact Sciences of the Bukhara State Pedagogical Institute.

*Abstract:* This article examines the advantages of using new pedagogical technologies in teaching atomic models. In physics education, the center of the teaching process involves the use of new pedagogical technologies, aimed at distance learning, deepening students' understanding of the learning materials, optional repetitions, and promoting independent and creative development, making the lesson participant actively involved. At the same time, using drawings, drawings, multimedia and other software products, create an idea of a complex microworld.

*Key words:* Atom, Thomson, Rutherford, Model, new pedagogical technology, rule, formula, method, interactive methods, interactive, Software tool, elementary particle.

*Kirish.* Bugungi kunda fizika fanini o'qitishda bir qancha zamonaviy metodlar ishlab chiqilgan. Fizikaning elektro-magnetizm, optika, atom va yadro fizikasi bo'limlarini o'qitish bir muncha qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Masalan atom va yadro fizikasi bo'limini o'qitishda o'quvchi va talabada ta'savurni uyg'otmasak fanning mohiyatini to'liq tushuna olmaydi. Albatta har bir bo'lim uchun laboratoriya ishlari mavjud, ammo atom va yadro fizikasi bo'limlariga oid laboratoriya jihozlari hanuzgacha o'rta maktablarda hattoki ba'zi institutlarimizda ham yo'qligi aniq.

Shunday ekan bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ayrim yangi pedagogik texnologiya hamda usullardan foydalanishga to'g'ri keladi. Ushbu maqolada vodorod atomining Bor nazariyasi, Vodorod atomi


spektridagi qonuniyatlar, Tomson atom modeli, Rezerford tajribalari, Rezerford formulasi, Atomning yadro modeli, Bor postulatlarini kabi mavzularni o'qitishda atom modellarining rasmlari, chizmalari, animatsion ko'rinishlari va boshqa dasturiy vositalardan foydalanishni yoritib o'tamiz.

Nazariy qism. XX asrning boshlanishida musbat va manfiy zaryadlarning ochilishi, manfiy zaryadni olib o'tuvchi zarra-elektron kashft etildi, musbat zaryadni olib o'tuvchi zarra-musbat zaryad ekanligi o'sha davrdagi barcha olimlarni qiziqitirdi. Atom murakkab zaryadlangan sistema ekanligi aniq bo'lib qoldi, uning o'lchami ekanligi aniqlandi. Shu davrlarda olimlarning oldida kun tartibi qilib atomning tuzilishi masalasi qo'yildi, nazariy fikrlarga ko'ra atomning ikki xil tuzilishi mavjud bo'lib qoldi: 1) Tomson modeli; 2) Rezerfordning planetar modeli.


Tomson modeli. Atomning butun hajmi bo'yicha qandaydir hajmiy zichlik bo'yicha musbat zaryadlar taqsimlangan. Elektronlar (manfiy zaryalar) esa bu muhitdagi musbat zaryadlangan muhitdagi elementlar bilan Kulon qonuni bo'yicha o'shanday ta'sir kuchida bo'ladi. Butun hajm bo'yicha bir elektronning atomni tark etishi bilan atomni oldingi muvozonatga qaytarishga intiladi. Buning natijasida elektronning tebranishiga olib keladi.

Rezerford modeli. Quyosh sistemasiga o'xshash model bo'lib, markazda musbat zaryadlangan yadro (Quyoshga o'xshash), uning atrofida Kulon kuchi ta'sirida saqlanadigan holda elektronlar (planetalariga o'xshash) aylanma harakat qiladi.

Atomning tarkibiy tuzilishini o'sha davrda faqat eksperimentlar asosida aniqlashga muvafiq bo'lishgan. Bunday masalaning yechimini topish uchun o'sha davrdagi olimlar oldida quyidagicha muammo qo'yilgan edi: atomning butun hajmi bo'yicha elektr zaryadlarning taqsimlanishini asoslash kerak edi, demak, atomning tuzilishini eksperimentlar asosida tadqiq qilish zarur edi.




1-rasm. Tomsonning (Keks) atom modeli hamda Rezerfordning (planetar) Atom modeli.



2-rasm. Rezerford tajribasi

Radiaktiv elementlardan chiqadigan alfa ( $\alpha$ ) zarra geliy atomining yadrosiga teng bo'lgan  $2e$  (e- elektronning zaryad miqdoriga teng) musbat zaryadga va to'rtta proton massasiga teng bo'lgan zarracha ekanligi aniq bo'lgan edi. Shuning uchun tahlil qilishda alfa zarraning moddada sochilishini uning sochilishidagi differentsial kesim formulasidan foydalanish mumkin bo'ldi (chunki, alfa zarraning zaryadi va uning massasi sochiladigan atomlar massasidan bir necha bor kichik bo'lgan shart asosida tahlil qilingan). Masalani yechishda sochiladigan zarralar (alfa) va sochadigan zarralar (atomlar zaryadi) massalarining o'rniga ikki ta'sir etuvchi zarrachalar sistemasining keltirilgan massasi bilan almashtirish kerak bo'lib qoldi.



3-rasm. Ushbu rasm orqali butun bir atomni tushuntirish mumkin.

**Keltirilgan massa.** Ikki va undan ortiq zarrali harakatlantiruvchi massalik va aralashgan tizimidagi fizik parametrlarga (massa, inertsiya momenti, induktivlik va h.) va ularning harakatlantirish qonunlariga bog'liq bo'lgan massa taqsimlanishini shartli xarakteristikasi  $T = \frac{1}{2} \mu v^2$ , bu yerda  $T$  – Tizimning kinetik energiyasi,  $\mu$  – tizimning keltirilgan massasi,  $v$  – tizimning ba'zi bir nuqtasiga tegishli keltirilgan massasiga xarakterli tezlik.

Aniq bir massa va zaryalga ega bo'lgan alfa zarralar naqmi kumyoviy elementlardan iborat yupqa nishonga yo'naltirilsin, alfa zarralar nishon atomlari bilan to'qnashuv turlari burchaklarga sochiladi. Sochilgan alfa zarralarining sochilish burchaklari maxsus schetchik (qayt qilgich) bilan qayt qilinadi. Massani  $m_1$  va zaryadi  $eZ_1$  bo'lgan birinchi nuqtaviy zaryadning harakatini massasi  $m_2$  va zaryadi  $eZ_2$  bo'lgan boshqa ikkinchi nuqtaviy zaryadning (nishon) Kulon maydonida harakatini ko'rib o'tish kerak bo'lсин. Ikkinchi nuqtaviy zaryad massani birinchi nuqtaviy zaryadning massasidan katta deb qabul qilamiz, demak ikkinchi nuqtaviy zaryadni qo'zg'almas deb qarash mumkin bo'ladi.

Fizikaning mexanika kumidan ma'lum bo'lgan, markaziy kuch maydonida (nishon maydonida) harakatlantayotgan zaryadning energiyasi va impuls momenti uchun saqlanish qonunlari asosida quyidagi tenglamalarni

keltirish mumkin bo'ladi: -energiyaning saqlanish qonuni  $\frac{m_1(\dot{r}^2 + r^2\dot{\varphi}^2)}{2} + \frac{Z_1 Z_2 e^2}{4\pi\epsilon_0 r} = E = const, (1)$


-harakat miqdorining saqlanish qonuni  $-m_1 r^2 \dot{\varphi} = L = const = m_1 v b, (2)$

Bu yerda  $v$  – zaryadning cheksizlikka sochilganidagi tezligi,  $b$  – mo'ljallangan masofa (4-pacha),  $r$  – va  $\varphi$  – moddiy nuqtaning (alfa zara) aylanish radiusi va uning buralish burchagidan vaqt bo'yicha olingan hisoblar. Bog'liq bo'lmagan yangicha o'zgaruvchi  $\rho = \frac{1}{r}$  kiritib va quyidagi ifoda e'tiborga olinadi:  $\dot{r} = \frac{dr}{dt} = \frac{dr}{d\varphi} \frac{d\varphi}{dt} = \frac{d}{d\varphi} \left( \frac{1}{\rho} \right) \frac{d\varphi}{dt} = \frac{L}{m_1} \frac{d\rho}{d\varphi}$ , unda (1) tenglamadan foydalamb quyidagi differensial tenglamaga ega bo'lamiz:

$$\left( \frac{d\rho}{d\varphi} \right)^2 = -\frac{2m_1 E}{L^2} - 2 \frac{Z_1 Z_2 e^2 m_1}{4\pi\epsilon_0 L^2} \rho - \rho^2.$$

Bu ifodani  $\varphi$  bo'yicha differensiallab  $\rho$  ni topish uchun ikkinchi tartibli differensial tenglamaga ega bo'lamiz:

$$\frac{d^2\rho}{d\varphi^2} + \rho = -\frac{Z_1 Z_2 e^2 m_1}{4\pi\epsilon_0 L^2} = C. (3)$$



4-rasm. Zaryadlangan zarra (alfa) harakat traektoriyasini aniqlashga deir.

Tenglama (3) ning yechimi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\rho = C + A \cos\varphi + B \sin\varphi (4).$$

A va B doimiyliklari quyidagi shartlardan topiladi:  $\varphi \rightarrow \pi$  bo'lganda  $r \rightarrow \infty$ ,  $r \sin\varphi \rightarrow b$ , unda  $A = C$ ,

$B = \frac{1}{b}$  va ifodada (4) quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\frac{1}{r \sin\varphi} = C \cos\left(\frac{\varphi}{2}\right) + \frac{1}{b}. (5)$$

$r \rightarrow \infty$ ,  $\varphi \rightarrow \theta$  e'tiborga olsak, unda sochilish burchagini quyidagicha topish mumkin bo'ladi:

$$\cotg \frac{\theta}{2} = -\frac{1}{bC} = -\frac{4\pi\epsilon_0 m_1 v^2 b}{Z_1 Z_2 e^2}. (6)$$



Tajribada mo'ljallangan masofani o'ltirish juda murakkab bo'lganligi uchun alfa zarracha  $\theta$  dan  $d\theta$  sochilish burchak oralig'ida noelastik sochilganidagi ku'ndalang differentsial kesimini, ya'ni sochilgan alfa zarralar sonining ( $dN_\theta$ ) atamlarga tushayotgan alfa zarralar oqimidagi zarralar soniga ( $N$ ) nisbatini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi:

$$d\sigma = \frac{dN_\theta}{N} \cdot (7)$$

Formula (6) dan o'rinlilik, mo'ljallangan masofani  $b$  va  $b + db$  oralig'idagi har qaysi alfa zarrachasi  $\theta$  dan  $d\theta$  burchak oralig'ida sochiladi.  $b$  va  $b + db$  mo'ljallangan masofali zarralar soni radiusi  $b$  va  $db$  kengligi bo'lgan xalqali yuzga tushayotgan zarralar soniga teng bo'ladi deb qabul qilish mumkin:

$$dN_\theta = N \cdot 2\pi b db \cdot (8)$$

Differentsial kesim yuzi (7) ifodalari kelib chiqib quyidagiga ega bo'ladi:

$$d\sigma = 2\pi b db = \pi \left( \frac{Z_1 Z_2 e^2}{4\pi\epsilon_0 m_1 v^2} \right)^2 \frac{\text{ctg}\left(\frac{\theta}{2}\right)}{\sin^2\left(\frac{\theta}{2}\right)} d\theta.$$


Joyiki, mo'ljallangan masofaning ortib borishi bilan sochilish burchagi kamayadi, shuning uchun  $|\theta|$  ning moduli hisobga olinadi. Sochilganidagi ku'ndalang differentsial kesimining ushbu ifodasi qilib quyidagini yozish mumkin bo'ladi:

$$d\sigma = \frac{1}{4} \left( \frac{Z_1 Z_2 e^2}{4\pi\epsilon_0 m_1 v^2} \right)^2 \frac{d\Omega}{\sin^4\left(\frac{\theta}{2}\right)} \cdot (9)$$

Bu yerda  $d\Omega = 2\pi \sin\theta d\theta - \theta$  va  $\theta + d\theta$  burchakli konuslar o'rtasidagi fazoviy burchak (5-rasm). (9) Formula Resserford formulasi deb nomlanadi. Buning asosida Resserford alfa zarralarining kimyoviy elementlar atomlarida sochilishi tajribasining natijalarini tahlil qildi va atomning tuzilishini aniqladi. (8) formulani hisobga olgan holda (9) bir markazdan sochiladigan alfa zarralar sonini aniqlaydi. Agar sochiladigan markaz  $N$  ta bo'lsa, unda fazoviy burchak  $d\Omega$  bo'yicha sochiladigan alfa zarralar soni quyidagiga teng bo'ladi:

$$dN^{(0)} = nN \left( \frac{Ze^2}{4\pi\epsilon_0 m_1 v^2} \right)^2 \frac{d\Omega}{\sin^4\left(\frac{\theta}{2}\right)} \cdot (10)$$

Bu yerda  $Ze$  – sochiladigan yadro zaryadi. Sochilish burchagi  $\theta$  va  $d\theta$  oralig'ida fazoviy burchak  $d\Omega = \text{const}$  bo'lganda sochilgan alfa zarralar soni quyidagiga teng bo'ladi:



5-rasm. Resserford formulasiini isbotlash uchun.

$$dN^{(0)} \sin^4\left(\frac{\theta}{2}\right) = \text{const}. (11)$$

(10) formuladagi barcha kattaliklar,  $Z$  dan tashqari eksperiment asosida o'ltirish mumkin. Shuning uchun bu formula sochiluvchi atomlar uchun  $Z$  lar sonini aniqlashni mumkin.  $Z$  soni Mendeleevning elementlar davriy sistemasidagi elementlarning tartib raqamiga teng bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, elementlar davriy sistemasidagi elementlar atom massasining o'rtasi bilan emas, balki atom zaryadining o'rtasi bilan taqsimlanishi ifodalangan. Bundan Resserford tajribasining birinchi zarfasi kelib chiqadi.

Ikkinchi zarfasi xuddaydagi barcha bu zarfaning atomda taqsimlanishidir. Alfa zarfalar  $\theta = \frac{\pi}{2}$

burchak va undan kattaroq burchaklar sochiladi. Bunday burchaklar sababi atar zarfalar musbat zarfalar dani

бўйича марказда қаратилган бўлишига алфа зарралар  $\theta = \frac{\pi}{2}$  бурчак ва undan катта бурчакка бурниқда, ҳақининг чиқиқин ўлчами мўъкалланган масофадан кичик бўлади. Мўъкалланган масофанинг чиқиқин ўлчами  $b_{max}$  (3.3.6) формуладан топилди:

Иккинчи зари хулосалардан бири бу зарранинг атанда тақсимланелидир. Алфа зарралар  $\theta = \frac{\pi}{2}$  бурчак ва undan катта бурчакка сочилиди. Бундай бо'лишига сабаб агар ядродagi мушбат зарралар ҳажм бо'йича марказда қаратилган бо'лишига алфа зарралар бурчак ва undan катта бурчакка бурилиди, ҳажмининг чиқиқин о'лчами мо'ljallangan масофадан кичик бо'лади. Мо'ljallangan масофанинг чиқиқин о'лчами  $b_{max}$  (6) формуладан топилди:

$$b_{max} = \frac{Ze^2}{4\pi\epsilon_0 \left( \frac{m_0 v^2}{2} \right)} = \frac{Ze^2}{4\pi\epsilon_0 E_k}, \quad (12)$$

Бу yerda  $E_k$  - алфа зарранинг kinetic энергияси. Резерфорд тајрибасида алфа зарранинг kinetic энергияси  $E_k \approx 5 \text{ MeV}$  бо'лган. Бундай ҳолларда  $Z = 8$  бо'лганда (12) формуладан  $b_{max} \approx 0,25 \cdot 10^{-8} \text{ см}$  га тенг бо'лади. Атомнинг чиқиқин о'лчами  $10^{-8} \text{ см}$  бо'лганлигидан, алфа зарралари катта бурчакка оғ'динган мушбат зарралар атомнинг кичик maydonida то'planganligidan dalolat beradi. Demak атомнинг мушбат зарралари унинг бутун ҳажми бо'йича тақсимланган бо'lmaydi. Атомнинг мушбат зарралари бутун ҳажми бо'йича тақсимланган бо'lsa edi, unda, алфа зарралар катта бурчакка оғ'мас edi. Резерфорд тајрибаси натијасининг иккинчи хулосаси шундан iboratki, атомнинг мушбат зарралари унинг  $10^{-8} \text{ см}$  maydonida то'plangan.

Атомнинг бундай maydoni атомнинг ядроси deb nomlanadi. Yadro atrofida elektronlar harakat qiladi. Атомнинг о'лчами  $10^{-8} \text{ см}$  бо'лганлиги сабабли электроннинг ядродан uzog'ligi ham о'shaicha о'лчамда  $10^{-8} \text{ см}$ , электроннинг massasi атомнинг massasiga nisbatan juda kichik. Bu fikrdan kelib чиқадиги, атомнинг barcha massasi унинг ядросида majassamlashgan.


Shunday qilib Резерфорд тајрибаси атомнинг planetar modelini tasdiqladi: атомнинг марказида оғ'ir мушбат зарраниланган yadro mavjud, унинг atrofida Quyosh atrofida planetalarga о'xshash, yengil manfiy зарраниланган elektronlar aylanadi.

Атом modellariнинг tarixiy modellari ushbu atomni tasavvor qilamiz.


#### 1. Eng yuzarli atom modeli.




#### 2. D.Tomsonning 1895-yildagi "Mayizli butunlik" atom modeli.




#### 3. Резерфордning 1911-yildagi "Yadro" atom modeli.



#### 4. N.Borning 1913-yildagi "Planetar" atom modeli.




**5. I. De Broyilning 1923-yildagi "To'liqin" atom modeli.**




**6. E. Shredingerning 1926-yildagi "Kvant mexanik" atom modeli.**




**7. "Orbital" atom modeli.**



**8. K. Snelsoning 1963-yildagi "Halkasimon" atom modeli.**



**9. "To'liqinli" atom modeli.**



Асосий адабиётлар

1. Axmedova G., Mamatqulov O.B., Xolbaev I. Atom fizikasi. Óquv qóllanma. T.: Istiqlol. 2013. -416 b.
2. Д.В. Сивухин. Общий курс физики. Учебное пособие: Для вузов. В 5 т. Т. V. Атомная и ядерная физика. М.: ФИЗМАТЛИТ: Изд-во ФТИ. 2002. -784 с.
3. Колмаков Ю.Н., Пекар Ю.А., Лежнева Л.С., Семин В.А. Основы квантовой теории и атомной физики. Учебное пособие. Тула. 2003. -144 с.
4. Foot C, J. Atomic Phizics. Department of Phizics. University of Oxford. Oxford University Press 2005.
5. Э.В. Шпольский. Атомная физика, в 2 т. Т.1. В ведение в атомную физику. М.: Наука. 1984. -552 с.; Т.2. Основы квантовой механики и строение электронной оболочки атома. М.: Наука. 1984. -438 с.
6. Ю.Д. Корнюшкин Основы современной физики (Квантовая механика, физика атомов и молекул, физика твердого тела, ядерная физика) Учебное пособие. Санкт-Петербург. 2005. 326 с.
7. И.А. Анищенко, А.А. Задерновский, М.М. Зверев, Т.Ю. Любезнова, Б.В. Магницкий, Ю.К. Фетисов. Оптика и атомная физика. Учебное пособие. Москва 2002. 67 с.
8. С.Р. Полвонов, З. Канокон, А. Караходжаев, Ш.М. Рузимов Атом физикасидан масалалар тўплами. Ўқув қўлланма. Т.: ЎЗМУ. 2006. -75 б.

## MATEMATIKA DARSLARIDA ARALASH SONLARNI QO‘SHISH VA AYIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rashidov Anvarjon Sharipovich  
Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasida dotsenti  
<https://orcid.org/0000-0002-6424-3277>

Beknazarova Gulshoda Yusufovna  
Buxoro davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi  
<https://orcid.org/0009-0000-2585-9661>

*Annotatsiya: Mazkur ishda ta’lim tizimidagi “Uchta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri”, “Matematik domino”, “Raketa” metodlaridan foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. O‘quv mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarni bilimlarini baholashda o‘quvchilarda shakllantiradigan tayanch kompetensiyalar bo‘yicha baholash uslubini joriy qilish, shu jumladan axborotlashtirish sharoitida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashini rivojlantirish metodikalaridan hamda o‘quvchilarning kuzatuvchanligini rivojlantiradigan, axborotni tanlab olish ko‘nikmasini ishlab chiqadigan, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o‘rgatadigan, o‘qituvchiga o‘quvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradigan metodikalaridan keng qo‘lanilgan holda tashkil etilgan. Maqolada “Aralash sonlarni qo‘shish va ayirish” mavzusini “Matematik domino”, “Uchta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri” va “Raketa” metodlari yordamida o‘qitish usullari yoritilgan. Bu metodlar kasr mavzularni o‘rganishda qulay bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi rolida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashga imkoniyat beradi, o‘quvchilarni mashg‘ulot jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan.*

*Kalit so‘zlar: Kasr, to‘g‘ri kasr, noto‘g‘ri kasr, maxraj, surat, o‘nli kasr, aralash son, “Uchta to‘g‘ri va bitta noto‘g‘ri”, “Matematik domino”, “Raketa” metodlari.*

## ОСОБЕННОСТИ СЛОЖЕНИЯ И ВЫЧИТАНИЯ СМЕШАННЫХ ЧИСЕЛ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ

Анваржон Шарипович Рашидов  
доцент Бухарского государственного педагогического института

Бекназарова Гулшода Юсуфовна  
Студентка 3 курса Бухарского государственного педагогического института.

*Аннотация: В данной работе даны сведения о повышении эффективности образовательной деятельности с использованием методов «Три правильных и одно неправильное», «Математическое домино», «Ракета» в образовательной системе. В процессе учебной подготовки внедряется метод оценивания на основе основных компетенций, формируемых у обучающихся в ходе учебной деятельности, в том числе методы развития творческого мышления обучающихся в контексте информации, навыков выбора информации, что развивать наблюдательность учащихся. Организуется с широким использованием методов, которые развивают, учат детей находить ошибки и выражать свои мысли, позволяют учителю проверять знания учащихся. В статье описана методика обучения «Сложению и вычитанию смешанных чисел» с использованием методов «Математическое домино», «Три правильных и одно неправильное» и «Ракета». Эти методы удобны для изучения дробных тем, включают устную и письменную формы работы, а в течение одного занятия каждый участник выполняет разные задания, по очереди выступая в роли ученика или преподавателя, что дает учащимся возможность набрать необходимые баллы, поработать с различной литературой и текстами во время обучения, вне занятий, запоминать изученный материал, уметь говорить, свободно выражать свое мнение и во время урока, направленного на оценку всех учащихся.*

*Ключевые слова: Дробь, правильная дробь, неправильная дробь, знаменатель, числитель, десятичная дробь, смешанное число, «Три истинных и одно ложное», «Математическое домино», методы «Ракета».*

---

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF ADDITION AND SUBTRACTION OF MIXED NUMBERS IN MATHEMATICS LESSONS

Rashidov Anvarjon Sharipovich

Associate professor of Bukhara State Pedagogical Institute

---

Beknazarova Gulshoda Yusufovna

3rd level student of Bukhara State Pedagogical Institute

---

*Abstract: In this work, information is given about increasing the effectiveness of educational activities using «Three right and one wrong», «Mathematical domino», «Rocket» methods in the educational system. raised In the process of educational training, introducing the method of assessment based on the basic competencies formed by students in the course of educational activities, including the methods of developing students' creative thinking in the context of information, and the skills of information selection, which develop the observation of students. It is organized with the wide use of methods that develop, teach children to find mistakes and express their thoughts, and allow the teacher to check the knowledge of students. The article describes the methods of teaching «Addition and subtraction of mixed numbers» using the «Mathematical domino», «Three right and one wrong» and «Rocket» methods. These methods are convenient for learning fractional topics, include oral and written forms of work, and during one session, each participant performs different tasks, taking turns in the role of student or teacher. gives students the opportunity to collect the necessary points, to work with various literature and texts during training, outside of class, to remember the learned material, to be able to speak, to express their opinion freely and during a lesson aimed at evaluating all students.*

*Keywords: Fraction, proper fraction, improper fraction, denominator, numerator, decimal, mixed number, «Three true and one false,» «Mathematical domino», «Rocket» methods.*

### Kirish.

Bugungi kunga kelib ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'quvchilardan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Nimaga aynan qisqa vaqt? Chunki o'quvchi diqqatini juda uzoq vaqt davomida darsga qarata olmaydi, tez chalg'ib qoladi. Shu sababli o'qituvchi dastlab o'quvchi diqqatini o'ziga jab qilib olib, qisqa vaqtda mavzuni o'quvchiga tushuntira olishi kerak.

Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi, — dedi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Agar matematika go'zal bo'lmaganda edi. Ehtimol matematikaning o'zi ham mavjud bo'lmasdi. Aks holda qanday kuch,insoniyatning buyuk daholarini bu qiyin fanga torta olardi -deb aytib o'tgan Chaykovskiy.

Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda biz o'qituvchilar yanada mas'uliyatli bo'lishimiz kerak. Ta'limda pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi o'qitish tizimida o'quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqish, o'quvchilarni o'quv materiallarini shunchaki yod olishlaridan, avtomatik tarzda takrorlashlaridan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Shundagina o'quvchilar muhim hayotiy yutuq va muammolar, o'tiladigan mavzularning amaliyotga tatbiqi bo'yicha o'z fikriga ega bo'ladi, o'z nuqtai nazarini asoslab bera oladi. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar: pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi; o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi; o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi; o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi; o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur

shart sharoitlarni yaratishi; pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur. Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayoniga qo'llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – bilim jarayoni o'zaro muloqoti asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining Matematika kursidan ma'lum bo'lgan "Aralash sonlarni qo'shish va ayirish" mavzusini o'qitish bo'yicha ayrim mulohazalar keltiriladi va uslubiy ko'rsatmalar beriladi.

Adabiyotlar tahlili.

[3] maqolada matematika darslarida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalanish to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

[4] maqolada o'quv fanlarini o'rganishda tarixiy yondashuv ma'lum darajada o'quv jarayonini ilmiy bilimga yaqinlashtirishi hamda o'qituvchining matematika tushunchalari bilan tanishar ekan, dars jarayonida ularning tarixi va rivojlanishi (asosan, buyuk ajdodlarimiz xizmatlari) haqida so'z yuritishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishi, ona Vatanga muhabbatini tarbiyalashi haqida fikr yuritilgan.

[5] maqolada matematika fanini o'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanilish masalasi tahlil qilingan. Darslarning qay darajada tashkillanishi bu o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga ham bog'liqligi qayd qilingan. O'quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlashi, ularni hayotga tadbiq eta olishga tayyorlanishi haqida so'z yuritilgan.

[6] maqolada bugungi fan va texnika rivojlangan davrda talabalar bilimini mustahkamlashda mustaqil ta'limning o'rni alohida ahamiyat kasb etishi qayd qilingan. Shu nuqtai nazardan mustaqil ta'limni bajarishda talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, mustaqil bilim olish, mustaqil ishlash va mustaqil o'z ustida ishlashga o'rgatish bugungi kunda juda muhimligi ta'kidlangan. Hamda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, talabalarga berilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalar haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

[7] maqolada ishga doir mantli masalalar va ular qanday turlarga bo'linishi, ularni yechish bosqichlari, bu kabi masalalarda uchraydigan asosiy qonuniyatlar haqida qisqacha tushunchalar keltirilgan. Ishga doir matnli arifmetik masalalarni yechishda qanday tasdiqlarga e'tibor berishimiz kerakligi haqida mulohazalarni umumlashtirib, mavzu bo'yicha masalalar yechimlari namuna sifatida keltirilgan. Keltirilgan tasdiqlar va mulohazalar bilan yechilgan masalalar o'quvchilar hamda fanni mustaqil o'rganuvchilarga matnli masalalarni qiyinchiliklarsiz o'zlashtirishga yordam berishi ta'kidlangan.

[8] maqolada talabalarni ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun bir qator nazariy va mantiqiy asoslar taqdim etilgan, ularsiz ko'rsatkichli tenglamalar va tengsizliklarni to'g'ri yechish imkonsizligi ta'kidlangan. Ko'rsatkichli tenglamalarning tipik variantlari va tengsizliklar, shuningdek, bunday muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

[9] maqolada ta'lim sohasini rivojlantirishda ilg'or tajribalardan foydalanib tengsizliklarni yechishda asosiy bilimlarga ega bo'lish va yechimlarni umumlashtirishda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligi to'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Algoritmik usul yordamida kasratsional, irratsional, logarifmik va trigonometrik funksiyalarga doir tengsizliklarga oid misollarning yechimi keltirilgan.

[10-20] maqola o'quv jarayoni sifatini oshirish vositasi sifatida interfaol texnologiyalar samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bugungi kunda o'quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish keng joriy etilayotgani, bu esa o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirishni talab qilishi qayd qilingan. Darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarga mo'ljallangan ko'nikmaga asoslangan yondashuvni rivojlantirishga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu ularga ta'lim maskanlarida malakali, professional shaxsga aylanish imkonini beradi. Interfaol usullar katta vaqt va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga qaratilganligi,

o'quvchiga nazariy bilimlarni o'rgatish, muayyan faoliyat turlari bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallash, axloqiy fazilatlarini shakllantirish, o'quvchi bilimni nazorat qilish va baholash katta mahorat va epcillikni talab qilishi haqida so'z yuritilgan.

Asosiy qism.

Maktab matematika kursidan tanish bo'lgan "Aralash sonlarni qo'shish va ayirish" mavzusi "Har xil maxrajli kasrlarni qo'shish va ayirish" mavzusidan keyin keladigan mavzu bo'lib, o'quvchi kasrlarning asosiy xossasini, bir xil maxrajli kasrlarni qo'shish va ayirishni, har xil maxrajli kasrlarni qo'shish va ayirishni, kasrlarni qisqartirishni va eng asosiysi to'g'ri kasr va noto'g'ri kasrlarni farqlay olib aralash sonni noto'g'ri kasrga aylantirishlarni bilsagina yangi mavzuni tushinishda va uni o'zlashtirishda muammolarga uchramaydi. Shu uchun ham yangi mavzuni o'tishdan oldin o'tgan mavzular takrorlab olish kerak. O'tilgan mavzularni qisqa takrorlab olish uchun "Uchta to'g'ri bitta noto'g'ri" metodidan foydalanamiz. Bu metod uchun va dars davomida olib boriladigan qiziqarli metodlar uchun sinf o'quvchilarini 3 ta guruhga ajratiladi. Guruhlar dars mobaynida o'zlarini baholab borishadi. Sinf guruhlarini quyidagicha nomlab olinadi.

1-guruh "To'g'ri kasrlar",

2-guruh "Noto'g'ri kasrlar",

3-guruh "Aralash sonlar".

"Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri" metodi uchun har bir guruhdagi ishtirokchilar bir varaq qog'ozga o'rganilgan mavzu bo'yicha uchta to'g'ri kasr va bitta noto'g'ri kasr sonni yozadi. Birinchi guruh ishtirokchilari yozgan varaqlar 2-guruhga, 2-guruh yozgan varaqlar 3-guruhga, 3-guruh yozgan varaqlar 1-guruhga beriladi va almashtiriladi. Keyin esa qays kasr noto'g'ri ekanligini guruhdagi ishtirokchilarning o'zlari aniqlaydilar. Har bir topilgan natija uchun 1 balldan beriladi. (1-rasm)



**1-rasm. "Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri" metodi**

Bu metodni afzalligi shundaki, o'quvchilarning kuzatuvchanligini rivojlantiradi axborotni tanlab olish ko'nikmasini ishlab chiqadi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o'rgatadi, o'qituvchiga o'quvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi. Bu metoddan uy ishini tekshirish vaqtida va mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

"Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri" metodi qo'llanilganda o'quvchi to'g'ri va noto'g'ri kasrlarni ajratib olishni takrorlab olishadi va bu yangi mavzu uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. "Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri" metodini o'tkazib olgandan so'ng o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyorligiga ishonch hosil qilgach, yangi mavzu bayoniga o'tish mumkin.

Yangi mavzu bayoni :

Bir xil maxrajli aralash sonlarni qo'shish uchun:

Ularning butun qismlari alohida qo'shiladi va natija tenglik belgisining o'ng tamoniga yoziladi;

- ◆ Soʻngra kasr qismlari qoʻshiladi, agar notoʻgʻri kasr hosil boʻlsa, uning butun qismi ajratiladi va hosil boʻlgan butun qismga qoʻshiladi hamda ortidan qolgan kasr yuzib qoʻyiladi. Agar kasr qismida qisqaradigan kasr hosil boʻlsa u qisqartiriladi.


1-Misol. Kasrni qoʻshing:  $\frac{5}{4} + \frac{6}{4}$

Yechish uchun dastlab kasrlarni rasmini chizib olamiz.

Maxrajdagi 4 har bir butun aylana 4 ta teng qismga boʻlinganligini bildiradi.

(2-rasm)

Kasrlarni qoʻshish orqali biz butun va qismlarning umumiy qismini guruhlaysmiz.



2-rasm. 1-Misolning rasm koʻrinishi.

1-qadam. Notoʻgʻri kasrlar aralash son koʻrinishida yozib olinadi

$$\frac{5}{4} = 1\frac{1}{4} \quad \text{va} \quad \frac{6}{4} = 1\frac{2}{4}$$

2-qadam. Kasrni maxraji bir xil boʻlganligi uchun avval kasrni butun qismlari qoʻshiladi keyin esa kasr qismlari qoʻshiladi:  $(1\frac{1}{4} + 1\frac{2}{4}) = (1 + 1) + (\frac{1+2}{4}) = 2\frac{3}{4}$

Javob:  $2\frac{3}{4}$

Bir xil maxrajli aralash sonlarni ayirish uchun:

- ◆ Ularning butun qismlari ayiriladi va ayirma tenglik belgisining oʻng tomoniga yoziladi.
- ◆ Agar kasr qismlari ayirilganda qisqaradigan kasr hosil boʻlsa, u qisqartiriladi va hosil boʻlgan butun qismga qoʻshiladi.

2-Misol. Ayirmani toping:  $5\frac{7}{8} - 3\frac{3}{8} = (5 - 3) + (\frac{7}{8} - \frac{3}{8}) = 2 + \frac{4}{8} = 2\frac{4}{8}$

Har xil maxrajli aralash sonlarni qoʻshish uchun:

1-qadam. Avval kasr qismlari umumiy maxrajga keltiriladi.

2-qadam. Soʻngra qoʻshish bir xil maxrajli aralash sonlarni qoʻshish qoidasiga koʻra bajariladi. (3-rasm)

$$\frac{5}{6} + \frac{9}{10} = 1\frac{22}{30}$$

3-rasm. Har xil maxrajli aralash sonlarni qoʻshishga misol

Har xil maxrajli aralash sonlarni ayirish uchun:

1-qadam. Avval kasr qismlari umumiy maxrajga keltiriladi.

2-qadam. Soʻngra qoʻshish bir xil maxrajli aralash sonlarni ayirish qoidasiga koʻra bajariladi.

3-Misol. Ayirishni bajaring:  $2\frac{3}{4} - 1\frac{1}{7}$  (4-rasm)

1-qadam. Har bir kasr notoʻgʻri kasr koʻrinishiga keltiriladi.

$$\frac{3}{4} = \frac{(2 \times 4) + 3}{4} = \frac{11}{4}$$

$$1\frac{1}{7} = \frac{(1 \times 7) + 1}{7} = \frac{8}{7}$$



**4-rasm. 3-Misolning rasm ko'rinishi.**

2-qadam. Hosil bo'lgan kasrlar umumiy maxrajga keltiriladi.

$$\frac{11 \cdot 7}{4 \cdot 7} = \frac{77}{28} \quad \text{va} \quad \frac{8 \cdot 4}{7 \cdot 4} = \frac{32}{28}$$

3-qadam. Kasrning surati qismlari qo'shiladi va chiqqan natija aralash son ko'rinishiga keltiriladi.  $\frac{77}{28} +$

$$\frac{32}{28} = \frac{77+32}{28} = \frac{109}{28} = 3 \frac{25}{28}$$

Javob:  $3 \frac{25}{28}$

**ESLATMA.** Natural sonlarni qo'shish va ayirishga oid barcha qonunlar kasr sonlar uchun ham o'rinni bo'ladi. Shu uchun ham ko'p hollarda ularni qo'llash natijasida hisoblash jarayonlari soddalashadi va osonlashadi.

"Matematik domino" o'yini

1. O'yinda uch guruh (sinfxonadagi uch qator partalarda o'tirgan o'quvchilar qatnashadi).
2. O'yin domino o'yini qoidalari asosida olib boriladi Domino toshlari sifatida matematik misollar yozilgan kartochkalar (varaqqachalar) olinadi.
3. Matematik domino "toshlari" mavzuga qarab turlicha bo'ladi.

Masalan: "Kasrlar" mavzusiga bag'ishlangan domino "toshi" ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin(5-rasm)

|      |                 |
|------|-----------------|
| 12,3 | $8 \frac{1}{5}$ |
|------|-----------------|

5 sm                      5 sm  
5-rasm. "Matematik domino" o'yini

Toshning birinchi bo'lagida 12,3 o'ni kasr, ikkinchi bo'lagida  $8 \frac{1}{5}$  aralash son berilgan.

**4. O'yin quyidagi tartibda olib boriladi.**

5-rasmda keltirilgan 12 ta domina toshlari guruhlari teng taqsimlab beriladi.

- Qura tashlash yo'li bilan qaysi komanda boshlashi aniqlanadi.
- Boshlovchi komanda bitta "toshni" doskaning o'rtasiga skoch bilan yopishtirib quyadi. Aytaylik, bu yuqorida tasvirlangan tosh bo'lsin.
- Komandalar tezda toshning ikkinchi bo'lagidagi aralash sonni o'ni kasr ko'rinishiga olib kelishga kirishadilar.
- "8,2" yo'zuvi bo'lgan tosh ikkinchi bo'lib doskaga birinchi "tosh"ning o'ng tomoniga yopishtirilishi lozim. Qaysi komanda hisoblashni to'g'ri bajarsa va "8,2" yo'zuvi bilan boshlanadigan "toshi" bo'lsa, o'sha komanda tezlik bilan ikkinchi bo'lib toshini doskaga yopishtiradi. Bunday "tosh" quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin.(6-rasm)

|     |                 |
|-----|-----------------|
| 8,2 | $6 \frac{1}{2}$ |
|-----|-----------------|

6-rasm Matematik domino o'yini toshi

-Natijada doskada ikkita tosh yonma-yon turadi.(7-rasm)

|      |                 |     |                 |
|------|-----------------|-----|-----------------|
| 12,3 | $8 \frac{1}{5}$ | 8,2 | $6 \frac{1}{2}$ |
|------|-----------------|-----|-----------------|

7-rasm Matematik domino o'yini toshlari

Shuningdek, "tosh"ni birinchi "tosh"ni chap tomoniga ham yopishtirish mumkin buning uchun "tosh"lar ichidan o'ng tomonida 12,3 ga teng aralash son bo'lgan toshni aniqlash lozim bo'ladi. Bu "tosh" quyidagi bo'lishi minikin

Natijada doskada uchta "tosh" yonma yon quyiladi.(8-rasm)

|      |                  |      |                |     |                |
|------|------------------|------|----------------|-----|----------------|
| 24,4 | $12\frac{3}{10}$ | 12,3 | $8\frac{1}{5}$ | 8,2 | $6\frac{1}{2}$ |
|------|------------------|------|----------------|-----|----------------|

O'yin shu tarzda davom ettiriladi. Qaysi komanda birinchi bo'lib, hamma "tosh"larni doskaga yopishtirsa, o'sha birinchi, ikkinchi bo'lib hamma "tosh"larni doskaga yopishtirsa ikkinchi, uchinchi bo'lib "tosh"lardan xolos bo'lsa, uchinchi o'rinni egallaydi.

**"Raketa" metodi(9-rasm).** Bu metodni qo'llash uchun dastlab doskaga 3 ta raketa chizib olinadi yoki yasab yopishtiriladi.



9-rasm. "Raketa" metodi

Har bir raketa har bir guruh uchun hisoblanadi. Har bir raketa pastiga 10 tadan aralash sonlarni qo'shish va ayirish mavzusiga oid misollar yozilgan kartochkalar olinadi. Raketa o'zga sayyonaga uchish uchun yuklardan xoli bo'lishi kerak. O'quvchular 3 guruhga bo'lingan holda kartochkalardagi misollarni yechishni boshlashadi.(10-rasm)



10-rasm. "Raketa" metodining raketa va kartochkalariga namunalari

Qaysi guruh o'quvchulari o'zining guruhiga tegishli raketadagi kartochkalardagi misollarni to'g'ri ishlasa va to'g'ri javob bersa kartochkalar olib tashlanadi. Noto'g'ri ishlangan kartochka raketada qoladi va ucha olmaydi. Raketani birinchi uchirgan guruh yutgan guruh hisoblanadi va eng yuqori 10 ball bilan baholanadi. Qolgan guruhlar ham shu tarzda baholanadi. Raketani uchirilmagan guruh jami ball to'laydi. Bu o'yin yangi mavzuni amaliy qism sifatida qo'llash mumkin.

Raketalaridagi kartochkalarga quyidagi misollardan kiritish mumkin:

- 1)  $2\frac{2}{4} + 1\frac{1}{4}$
- 2)  $6\frac{2}{10} + 2\frac{1}{10}$
*Аннотация: В данной статье рассматривается развитие речи и мышления детей в дошкольных образовательных организациях через образовательную деятельность, образовательные процессы и их организацию посредством дидактических игр, таких как «Развитие речи» и «Знакомство с художественной литературой». цель дидактического обучения, дидактические законы, дидактические принципы, дидактические условия, результаты обучения детей, возрастные особенности детей, организация учебной деятельности, т.е. правильное построение структуры, правила дидактических игр и образовательные требования, предъявляемые в процессе воспитания и обучения, что целесообразно соблюдать дидактические требования, необходимость того, чтобы дидактические игры были интересны детям, цель дидактических игр, что позволяет определить их особенности, условия, педагог должен определить цель дидактических игр в заранее определить объем вновь полученных знаний, обеспечить связь знаний, которые планируется усвоить, и навыков, которые планируется формировать, с имеющимся опытом детей, в целях развития речи и мышления детей, необходимости Воспитатель должен слушать детей и давать указания в ходе игры, исходя из поставленных целей и задач, дидактические игры должны проводиться последовательно, систематически, планомерно с учетом возрастных особенностей детей, методов, цели дидактического обучения, намеченных целей. Обсуждаются.*

*Ключевые слова: Образование, обучение, принцип, метод, дидактическая игра, компонент, мышление, потенциал, возможность, развитие, интеллектуальный потенциал, совершенствование, творческие способности, кругозор, зрелость.*

*Abstract: In this article, the development of children's speech and thinking in pre-school educational organizations is discussed through educational activities, educational processes and their organization through didactic games, such as «Speech development» and «Fictional literature introduction». important aspects, the purpose of didactic teaching, didactic laws, didactic principles, didactic conditions, the results of children's learning, children's age characteristics, the organization of educational activities, i.e., the correct construction of the structure, didactic games rules and educational requirements set in the process of education and training, that it is appropriate to comply with didactic requirements, the need for didactic games to be interesting for children, the purpose of didactic games, which allows to determine their peculiarities conditions, the pedagogue*

*should determine the purpose of didactic games in advance, determine the scope of newly acquired knowledge, ensure that the knowledge that is planned to be learned and the skills that are planned to be formed are related to the existing experiences of children, in order to develop children's speech and thinking the need for the educator to listen to the children and give instructions during the game, based on the set goals and tasks, didactic games should be implemented in a consistent, systematic, planned manner in connection with the children's age characteristics methods, purpose of didactic teaching, intended goals are discussed.*

*Key words: Education, training, principle, method, didactic game, component, thinking, potential, opportunity, development, intellectual potential, improvement, creative ability, outlook, maturity.*

Respublikamizda globallashuv sharoitida yuz berayotgan ta'lim sohasidagi o'zgarishlar asosida maktabgacha ta'lim tizimida kasbiy va metodik faoliyat samaradorligini oshirish, tarbiyachilarning kreativlik potensialini rivojlantirish yuzasidan keng miqyosda izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur jarayon bugungi kunda kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishning ustivor yo'nalishlari: noformal va informal o'qitish mazmunini takomillashtirish, bolalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish, mashg'ulotlarning integratsiyalashuvini ta'minlashning turli modellari va texnologiyalarini yaratish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu o'rinda aytishimiz joizki, uzluksiz ta'limning muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi xorijiy mamlakatlarning amaliy tajribasini o'rganish kreativ yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish borasida muhim poydevor bo'ldi.

Bilamizki ta'limda sifat va samaradorlikni yaxshilash, ta'limiy faoliyatni yanada jonlantirish maqsadida metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim metodlari – o'quv jarayonining bir komponenti bo'lib, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatining barcha tomonlarini ochib berishga, muloqot jarayonlarining faollashtirib, bolaning imkoniyatlarini yanada takomillashtirib borishiga asos bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida barchamizga ma'lumki beshta faollik markazlarida ta'limiy faoliyatlar olib boriladi. Har qanday mashg'ulotni didaktik o'yinlar orqali tashkil etilib, pedagog tomonidan qo'llanilayotgan ta'limiy metodlar kichik guruhdan o'rta guruhga, katta guruhdan va maktabga tayyorlov guruhlariga o'tish asnosida oddiydan murakkabga qarab o'zgarib, murakkablashib, takomillashtirib boradi. Ta'limiy faoliyatlarda didaktik o'yinlarni, metodlarini, texnologiyalarni o'rinli qo'llay olish tarbiyachining kasbiy kompetentligi va mahorati, bilim darajasiga bog'liq holda tashkil etiladi hamda takomillashtirib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini o'stirish hamda tafakkurini rivojlantirish ishlari "Nutq o'stirish" va "Badiiy adabiyot bilan tanishtirish" kabi ta'limiy faoliyatlarda, shuningdek bolalarning kunlik faoliyatini to'g'ri tashkil eta olish birinchi poydevor vazifasini bajaradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali, bir qancha texnologiyalar hamda ta'limiy metodlar asosida birin-ketin, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Bolalarga narsa-hodisalar yoki jarayonlarni sin'iy vaziyat orqali emas balki, tabiiy holatda namoyish qilish ularning tafakkurini rivojlantirishda samarali tomoni ko'proq. Ammo tarbiyachi tabiiy holat namoishini har doim ham amalga oshira olmaydi. Shu sababli, tarbiyachilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi va narsa-hodisalar haqqida ma'lumotlarni sun'iy vaziyatlar orqali namoyish qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi ta'lim jarayonlarini tashkil etarkan u didaktik qobiliyatga ega bo'lmog'i lozim. Didaktik o'qitish maqsadi, didaktik qonuniyatlar, didaktik tamoyillar, didaktik shart sharoitlar, bolalarning o'zlashtirish natijalari, bolalarning yosh xususiyatlari, ta'limiy faoliyatning tashkil etilishi ya'ni tuzilmasini bilishi muhimdir. Didaktik o'yinlarning qoidalari hamda mazmuni ko'p jihatdan turli yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya jarayonida qo'yiladigan o'quv talablariga muvofiq holda qo'llaniladi.

Tarbiyachi-pedagog ta'limiy faoliyatlarda didaktik talablarga rioya qilgan hola jarayonlarni tashkil etishida quyidagi komponentlarga amal qilmog'i lozim.

Ta'limiy jarayonning tuzilishi va mazmuni

Ta'lim shakllari

Ta'lim usullari, vositalari

Baholash

Takrorlash

Kutilgan natija

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari bolalar bilan birgalikda faoliyat olib borishda, ta'lim jarayonini



tizimli tartibga solish imkoniyatiga ega bo'lishda ushbu asosiy komponentlarni faoliyatda o'rinli qo'llay olsalargina ta'lim sifati oshadi va kutilgan natijaga erishadi.

Batafsil aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari didaktik talablarga rioya qilishi maqsadga muvofiq ekanligi, didaktik o'yinlar bolalar uchun qiziqarli bo'lishi zarurligi, didaktik o'yinlar maqsadi, o'ziga xosliklarini aniqlay olishga imkon beradigan sharoitga ega bo'lishi, pedagog didaktik o'yinlar maqsadini oldindan belgilashi, yangi egallanadigan bilimlar doirasini aniqlashi, o'rganilishi rejalashtirilayotgan bilim va shakllantirilishi nazarda tutilayotgan ko'nikmalarning bolalardagi mavjud tajribalar bilan aloqadorligini ta'minlashi lozimligi, bolalar nutq va tafakkurini rivojlantirish uchun o'yin davomida tarbiyachi bolalarni tinglashi va ko'rsatmalar berilishi zarurligi, qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib didaktik o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog'liqlikda izchil, tizimli, rejali tarzda amalga oshirilishini ta'minlashi maqsadga muvofiqdir.

Bolalar nutqini o'stirish va badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish ta'limiy faoliyatlarda bolalar tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi tamoyillar mavjud:

- ta'limiy jarayonini tashkil etishda integratsiya ta'minlash;
- izchillik, sistemalilik, bosqichma-bosqichlik;
- demokratlashtirish, insonparvarlashtirish;
- bola shaxsiga qo'yiladigan ta'limiy tarbiyaviy talab;
- ta'lim mazmuni, metod va vositalarining bola shaxsiga mosligi;
- umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash;
- ta'limni dastur asosida tashkil etish;
- adolatlilik, demokratik yondoshuv;
- bola shaxsiga differensial munosabat;
- ta'lim-tarbiyada kommunikativlik;
- faoliyatni kuzatish, nazorat qilish, monitoring olib borish.

Bola shaxsini pedagogik va psixologik jihatdan o'rganish, ta'limiy faoliyatlarni samarali tashkil etishda ushbu tamoyillar asos sifatida xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlarda tayanish, didaktik muhit, sharoitlar yaratilishi bilan belgilanadi. Didaktik ta'limiy o'yinlarga asoslangan holda mashg'ulotlarni tashkil etishda qo'yidagilarga amal qilish lozim:

- didaktik ta'limiy o'yinlar dastur asosida tashkil etilishi
- didaktik ta'limiy o'yinlarning bola yosh xususiyatiga mosligi;
- kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish;
- atrof-muhitga munosabati;
- milliy qadriyatlar uyg'unligi aks etishi lozim.

Maktabgacha yosh davr - bu bolalikning eng muhim hamda uning shaxs sifatida kamol topishi, shakllanishi va rivojlanishining qisqa, biroq eng muhim davri sanaladi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin sanalib, o'yin faoliyati davomida ular ham ruhan ham jismonan taraqqiy etadilar. Bolalarga maroq, quvonch bag'ishlab kelgan o'yinlarda ular o'zlarini topishadi, mustaqil bo'lishadi, erkin faoliyat jarayonida hayotni taniy boshlaydilar, atrof-muhitga shaxsiy munosabat shakllana boradi.

Alohida e'tirof etish lozimki, didaktik o'yinlar tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, bolaning fikrlash xususiyatlarida, bola shaxsining rivojlanishida, qiziqishlarida, ehtiyojlarida, muloqotida, munosabatida, umuman olganda barcha faoliyatlarida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish hamda tafakkurini rivojlantirishda mashg'ulot jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali maroqli tashkil etishda tarbiyachilarning ijodkorligi, kreativligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ijodkor, kreativ, kasbiy bilimga, mahoratga ega pedagog bola faoliyatini maroqli, aniq, bolaning imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etadi. Bolani ta'limga emas, ta'limni bolaga moslashtira oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlar asosida ta'limiy faoliyatlarning olib borilishi hamkorlik, birdamlik, o'zaro birgalikdagi harakat yotadigan interfaol o'qitish metodlari istiqbolini aks ettiradi. Shuni alohida aytish lozimki, didaktik ta'limiy o'yinlar bilan bir qatorda harakatli jismoniy o'yinlar ham maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning keyingi bosqichga o'tishlari uchun juda ahamiyatli hisoblanadi. Taniqli olimlar, psixologlar va pedagoglar K. D. Ushinskiy, A. N. Leontiev, N. K. Krupskaya, L. S. Vygotskiy, A. M. Gorkiy, A. S. Makarenko, B. D. Elkoninlar bola psixologiyasini shakllantirishda o'yinning etakchi o'rni haqqidagi fikrlarni ilgari surgan. 18-asrda Jan-Jak Russo bolani bilish va tushunish uchun uning o'yinini kuzatish

kerakligini ta'kidladi. Bilamizki, kattalardan muloqot uchun tabiiy muhit bu til, bola uchun esa muloqot uchun tabiiy muhit bu o'yin faoliyatidir. Didaktik o'yinlar, harakatli o'yin faoliyatlari jarayonida bolalar faoliyatining yangicha turlari yaratiladi va farqlanadi.

Ma'lumki, bolalar o'yinlarining turlicha xillari, turlari mavjud. Ayrim o'yinlar tarbiyachining rahbarligi ostida bolalarning o'zlari tomonidan yaratilgan - bu ijodiy o'yinlar, ayrimlarining qoidalari oldindan yaratilgan va ma'lum qoidalarga ega - bu esa qoidalar bilan o'yinlardir. O'z navbatida, qoidalarga ega o'yinlarning o'zi ikkiga bo'linadi - mobil va didaktik o'yinlar. Har bir o'yin turining xarakteri, o'yin xususiyatlarini to'g'ri, aniq tushunish o'yin boshqarilishi uchun katta ahamiyatga ega.

Tahlillariga ko'ra o'yin bolalarda shodlik, quvonch baxsh etar ekan, bola o'yin orqali o'z ehtiyojlarini qondirar ekan. O'yin bolaning ijodiy qobiliyatini, imkoniyatlarini, o'ziga ichonch hissini oshiradi, bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirish, bir-biriga yordam berish umumiy qilib aytganda barcha qobiliyatlarini takomillashishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, har qanday o'yinda nutq bolaga hamroh bo'ladi. Turli xildagi o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalar yangi so'zlar va ularni o'z so'zlashuv faoliyatida qo'llashni o'rganadilar va mashq qiladilar, o'yinning rivojlanishi bilan so'z tasvirni yaratish, rol o'ynash, syujetni rivojlantirishning asosiy vositasiga aylanadi.

O'yin jarayoni doimo o'zgarib turishi va harakat jarayonlarining xilma-xilligi, bolaga mustaqilliq bera olishi, o'ziga ishonch, erkinlik, muloqot, o'rtoqlari bilan hamkorlikda bo'lish bilan bolalarni o'ziga rom qiladi. O'yin bolaga zavq beradi, yuqori kayfiyat, yoqimli xayajonlar bera oladi. Shu bilan bir qatorda harakatli o'yinlar bolalarga juda yoqadi va ular harakatli o'yinlarni sebeb o'ynashadilar. Shuning uchun ham ta'lim jarayonlarni o'yinlar orqali tashkil etilishiga katta ahamiyat beradilar. Harakatli o'yinlar bolalarning erkin faoliyat davrida, sayr faoliyat davrida, jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridan o'rin egallaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish hamda tafakkurini rivojlantirishda barcha guruh bolalari uchun aksariyat o'z fikrlarini erkin, izchil ifoda etishiga undovchi, so'zlarni to'g'ri va ifodali aytishga o'rgatuvchi o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Eng e'tiborlisi, o'yinlarni tashkil etishda birinchi navbatda muhitni tashkil qilish va o'yin vositalarini to'g'ri tanlash so'ngra o'yindagi sheriklarini tanlashda ko'proq ahamiyat qaratmoq hamda bolani o'yin vaqtida to'g'ri muloqot qilishga o'rgatish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli xildagi didaktik o'yinlar va stol usti o'yinlaridan tashqari jumboqlar, muammoli vaziyatlardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Bolalar jumboqli o'yinlarni ishtiyoq bilan hal qilishga harakat qilishadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'limiy faoliyatlarida bu kabi o'yinlardan, topishmoqlardan ko'proq foydalanish maqsadli ekanligi ta'kidlanadi. Alohida aytib o'tish joizki, topishmoqlar, muammoli o'yinlarda bolalarning tasavvuri, idroki, hayoloti rivojlanadi. Tasvirlay olish, ta'rif berish, mustaqil fikrlash qobiliyati, turli xil vaziyatlarga, so'zlarga tezkor munosabati shakllanadi. Shubhasiz barcha turdagi o'yinlar nutq rivojlanishida etakchi rol o'ynaydi. O'yinlar o'z bayonotlari bilan o'z xususiyatlari bilan bolalarda bahslashish qobiliyatini sekin-asta shakllantiradi.

Ma'lumki, didaktik o'yinlar ko'p qirrali, murakkab pedagogik hodisa bo'lib, axloqiy tarbiya vositasi sifatida ham ta'limiy faoliyatlarda keng qo'llaniladi. Amaliyotdan ma'lumki, didaktik o'yinlar tarbiyalanuvchilar oldiga bir qancha vazifalar qo'yadi. Bolalar atrofdagi narsa-hodisalarni xarakterlaydilar, solishtiradilar, taqqoslaydilar, guruhlariga ajratadilar, belgilariga ko'ra tasniflaydilar, o'yin natijasini anglashga o'rganadilar, to'g'ri xulosa chiqara olishga o'rganadilar, umumlashтира oladilar va hokazolar. Bundan tashqari didaktik ta'limiy o'yinlar bolalarning aqliy hamda kommunikativ faoliyatining kuchli stimulyatoridir. Bu esa bolalarning bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlaydi, va ularni amaliyotda qo'llay olish, imkonini beradi, ularni mustaqil hayotga, mehnat faoliyatiga o'rgatadi, bolalarda kommunikativ qobiliyatni rivojlantirib, nutq odobi, fikr erkinligi va ijodiy faolligni faollashtiradi.

Nutqning mukammalligi bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun eshiklarni ochib beradi. Nutq ravonligi, mukammalligi, bolaning intellektual rivojlanishi garovidir. Bolalar qanchalik so'zga boy bo'lsa, nutqi ravon, mukammal bo'lsa, bolada o'z fikrlarini ifoda etish shunchali oson kechadi, narsa-hodisalarni anglash, kattalar bilan tengdoshlari bilan munosabatlari bola muvaffaqiyatga erishadi.

Muloqot bolada nutq rivojlantirishning asosiy vositasi sanalib, uning amalga oshirilish yo'llari turlicha bo'ladi.

Ta'lim  
Maishiy  
Mehnat  
O'yin.

Harakatli o'yinlar, didaktik ta'limiy o'yinlar tarbiyachi va bolalar o'rtasida iliq psixologik muhit yaratishi bilan ahamiyatli. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda birdamlikdagi ijodiy didaktik faoliyat - muhim pedagogik omil bo'lib xizmat qiladi.

Bilamizki, aksariyat kichik yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy qismini o'yinlar tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qadim zamondan o'yin odam hayotining zarur qismi bo'lib hisoblangan, chunki u yoqimli jismoniy yuklamani, yetarli darajada beradi munosabatda bo'lish talablarini qoniqtiradi, tarbiyalaydi xamda tashqarida ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi, shu jumladan ham ko'ngil ochar dam olish holatini va kayfiyatini yaxshilaydi.

Didaktik o'yin faoliyatini sifat va samaradorligiga erishishda ta'lim sub'ektlari nutqi, tafakkuri, takomillashtirishning bosqichlariga, turli darajada rivojlanganligiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Ta'limiy faoliyat jarayonida berilgan ma'lumotlarni qabul qilish darajasi, innovatsion pedagogik texnologiyalardan, tarqatma materiallaridan, ko'rgazma vositalaridan o'rinli, maqsadli foydalanishda diqqatli bo'lish muhim sanaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, didaktik ta'limiy o'yinlar orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishning metodik imkoniyatlarini quyidagi darajalarda kechishi aniqlandi: aksiologik-motivatsion, kreativ, refleksiv, texnologik, va konseptual daraja. Mazkur jarayonlarda esa uzluksizlik, fasilitatorlik, refleksivlik, kommunikativ hamkorlik kabi andragogik tamoyillar tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish mazmunini belgilash hamda uning zamonaviy pedagogik texnologiya hamda metodik ta'minotini takomillashtirish, o'sish sur'atini yanada oshirish, sifat-samaradorligini ta'minlashning muhim sharti sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

Didaktik ta'limiy o'yinlar bolalar nutqini rivojlantiradi: so'z boyligini oshiradi va faollashtiradi, to'g'ri ovoqli talaffuzni shakllantiradi, izchil nutqni, o'z fikrlarini to'g'ri mustaqil ifoda eta olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Nutqida kamchiligi bor, nutq buzilishlaridan aziyat chekadigan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xar qanday o'yin faoliyatlari ham o'z ahamiyatini va rolini ularning shaxsiyati va intellektini har tomonlama rivojlantirishning zarur sharti sifatida saqlab qoladi. O'yinlar orqali bolalar tengdoshlar bilan birgalikdagi muloqotga kirishadilar, bir-birlarini anglash, tushunish, xurmat qilish tajribasiga ega bo'ladilar. O'z xoxishlarini harakatlari va nutqi orqali namoyish etib, o'rtoqlarining istaklari bilan muvofiqlashtirishni o'rganadi.

O'yin faoliyatida bolalar erkin, ixtiyoriy xatti-harakatlar tajribasiga ham ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda bola o'yin orqali o'zini nazorat qilishni, o'yin qoidalariga rioya qilishni, kattalar nazoratisiz tengdoshlari bilan birgalikda o'yinni davom ettira olishni o'rganadi. Bu kabi fazilatlarining barchasi bolaning keyingi hayotida tosiqlarni engib o'tishida, muammolarga osonlikcha echimlar topa olishida, kelajakda o'z o'rnini egallashida ko'makchi vazifasini o'taydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Turg'unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov "Ijtimoiy pedagogika asoslari" O'quv qo'llanma. Toshkent "Fan va texnologiya" 2008 y.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019 y.- 688 b
3. N.M.Qayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.: 2013 y. -183
4. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.
5. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.- T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. – 240 bet
6. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Fan va texnologiya". 2019 y. -296 bet.
7. Raxmonova S.M. "Preparing the graduate students of primary education for innovative professional activity". Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023 y. P 288-293.
8. Raxmonova S.M. "In improving the innovative professional activity of future pedagogues, problem-based learning the most effective method of teaching". Science and technologies. 2023 y. № 3 (1). P 107-112.
9. Raxmonova S.M. "Practical features of preparing primary education students for professional activity" Science and innovation in the education system, 2 (9), 2023 y. P 67-71.
10. Eshova D.Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatrining ahamiyati (Monografiya) Buxoro. 2022y.-101b.

## AMALIY SAN'AT TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARIGA OID QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Ruziyev Nuriddin Muxamadaliyevich

*Andijon Davlat Universiteti, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Maqolada amaliy san'at ta'lim yo'nalishi talabalarida ustoz-shogird munosabatlariga oid qadriyatlarini shakllantirish haqida so'z boradi. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida mahalliy olimlarning sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanildi.*

*Kalit so'zlar; amaliy san'at, ustoz-shogird, qadriyat, hunarmandchilik, an'analar*

## ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕННОСТЕЙ ОТНОШЕНИЙ ПЕДАГОГА И УЧЕНИКА В НАПРАВЛЕНИИ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ

Рузиев Нуриддин Мухамадалиевич,

*Андижанский государственный университет Преподаватель кафедры «Изобразительное искусство и инженерная графика»*

*Аннотация. В статье говорится о формировании ценностей взаимоотношений педагога и ученика у студентов прикладного художественного образования. Для раскрытия содержания статьи использованы научно-исследовательские работы отечественных учёных.*

*Ключевые слова; прикладное искусство, учитель-ученик, ценность, мастерство, традиции*

## FORMATION OF VALUES REGARDING TEACHER-STUDENT RELATIONSHIPS IN APPLIED ARTS EDUCATION FIELD STUDENTS

Ruziyev Nuriddin Mukhamadaliyevich

*Andijan State University, Teacher of the «Fine Art and Engineering Graphics» department*

*Abstract. The article talks about the formation of the values of the teacher-student relationship in students of applied art education. In order to reveal the content of the article, the scientific research works of local scientists were used.*

*Keywords; applied art, teacher-student, value, craftsmanship, traditions*

Respublikamiz mustaqillikka erishgach barcha sohalarda bo'lgani kabi, hunarmandchilik sohasida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hunarmandchilikni rivojlanishi hozirgi mehnat taqsimotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Hunarmandchilik bevosita savdo-sotiq bilan bog'liq jarayon bo'lib, aholi gavjum yashaydigan joylarda amalga oshiriladi. Mamlakatimizning iqtisodining rivojlanishi, o'sishi va rivojlanishining hozirgi davrida yosh avlodni mehnatsevar, halol, mehr-muruvvatli qilib tarbiyalash bugungi kunning muhim talablaridan hisoblanadi. Ayniqsa, bu o'rinda joylar qiyofasini belgilashda shu yerlarda shakllangan, taraqqiy etgan va an'anaga aylangan hunarmandchilik maktablarining barpo etilishi yoshlar tarbiyasida, ular kelajagini belgilashda, kasbiy faoliyatga yo'naltirishda, muhim kasb va kasb ahliga hurmat-ehtirom ko'rsatish kabi fazilatlarni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, yoshlarga kasb-hunar o'rgatishda amaliy san'atdagi qadriyat va an'analar alohida o'ringa ega. Hunarmand usta shogirdlariga hunarning sir-asrorlarini o'rgatib borar ekan, ularda ma'lum tarbiyaviy fazilatlarni, jumladan, halol mehnat bilan pul topish, muvaffaqiyatsizliklarga bardosh berish, hunardan boylik orttirishgagina emas, balki jamiyat rivojiga hissa qo'shish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, iqtisodiy bilim va tushunchalardan foydalanib tadbirkor va ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish hamda rost so'zlashga o'rgatib boradi.

Dunyoda qanday hunar bo'lmasin, uning ustasi va shogirdlari bo'ladi. Naqqoshlik, ganchkorlik, kulolchilik, misgarlik, pichoqchilik, bo'yachilik, gilamdo'zlik, yog'och o'ymakorlik, savatchilik kabi hunarlarning o'ziga yarasha ustalari bo'lib, misgarlik bilan shug'ullangan ustani misgar, naqqoshlik bilan shug'ullangan ustani naqqosh, kulolchilik bilan shug'ullangan ustani esa usta-kulol deb aytilgan. Shogirdlar esa usta deb murojaat qilishgan.

Qadimda hunar va tabiiy bilimlar maktablarda o'rgatilmagan yakka shogird tartibida berilgan. Masalan: ota yoki ona hunarini egallash – ota-ona, oiladagi kattalardan yakka shogird shaklida; usta qo'lida yakka shogird shaklida;

tsex shogirdligi, ya'ni uyushgan ustaxonalarda, tsexlarda yakka shogirdlik tartibida o'rgatilgan.

Xalq hunarmandchiligida, xususan kulolchilikda ustozlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini quyidagicha bo'lgan. Qadimdan ustozlar shaxsiy va kasbiy fazilatlarining mezoni bo'lib, unga qat'iy rioya qilib kelingan. Bu shaxsiy fazilatlar mezoni tarkibiga ustozning saxiy, odobli, mehr-shafqatli, marhamatli, ochiq yuzli, shirin muomilali, sabrli, talabchan, itoatli, qanoatli, to'g'ri so'z, poklik, muloyimlik kabi fazilatlarini bilan shogirdiga namuna bo'lishi lozimligi belgilangan.

Hunarmandning kasb madaniyatiga quyidagilar kirgan:

hunarni boylik orttirish maqsadida emas, balki jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish maqsadida o'rganish;

hunarni mehnatsiz daromadlardan asrash;

ustozlar an'anasiga ehtiromda bo'lish;

pirarning roziligini olish;

pirarning duosini olish;

mehnatga loqayd bo'lmaslik;

mehnatsevarlik, halol mehnat qilish;

intizomli bo'lish;

muvaffaqiyatsizlikdan tushkunlikka tushmaslik;

hunarda aqlli tadbirkor bo'lish;

rost so'zli bo'lish;

pokiza bo'lish;

bir ishni qiyomiga etkazmay ikkinchisiga o'tmaslik.

Hunarmand holi bo'lishi lozim bo'lgan xususiyatlar:

nopok yo'llar bilan boylik orttiruvchilar bilan aloqada bo'lmaslik;

boshqa hunarlarga nisbatan adovatda bo'lish va hasadgo'ylik, boshqalar muvaffaqiyatini ko'rolmaslik;

jur'atsizlik, dangasalik, yalqovlik, erinchoqlik, isrofgarchilik, takabburlik, yolg'onchilik.

Ustozning kasbiy fazilatlariga o'z hunariga qiziqishi, o'z hunarini yoshlarga sidqidildan o'rgatishi, o'z hunariga yangiliklar kiritishi, shu hunari bo'yicha o'zidan keyin yaxshi, sodiq shogirdlar qoldirishi va shu kabi boshqalar kiradi. Ustozning eng yaxshi kasbiy fazilatlaridan biri shogirdlar tayyorlashdir. Har bir hunarmand ustaning shogirdi bo'ladi. Hunarmandlar o'z hunarini avloddan avlodga an'ana tariqasida o'tkazib kelganlar. Ustoz o'zidan keyin bilimdon, iste'dodli shogird qoldirmasa, uning hayoti bekor o'tdi deyiladi. Usta qanchalik mohir, o'z hunarini yaxshi bilishidan qat'iy nazar, o'z bilimini, hunarini ishonchli odamga qoldirmasa, uning ishlarini davom ettiradigan kishi bo'lmaydi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy mashhur bir baytida quyidagi misralarni bejiz yozib qoldirmagan:

Hunarni asrabon netgumdir, oxir,

Olib tuproqqami ketgumdir, oxir!

Qadimda hunarmand va xaridor o'rtalaridagi munosabatlar odobi, mezonlari mavjud bo'lgan. Ular quyidagilardan iborta bo'lgan: savdoda poklik, halollik, adolatlilik, to'g'rilik, xushfe'llik, nafsini tiyish, kambag'al, bechoralarga xayri ehsan qilish, mahsulotning asl bahosini bilmaganlar bilan to'g'ri muomilada bo'lish, va'daga xilof ish qilmaslik, bajara olmaydigan ishga va'da bermaslik va shu kabi boshqalar.

Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishni oldimzga maqsad qilib qo'yar ekanmiz albatta uning an'alarini ham mukammal o'rganishni lozim. Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim va tarbiyaning bir-biri bilan uzoq yillardan buyon chambarchas bog'liq xolda yosh avlodni tarbiyalashda qo'llanib kelinayotgani sharq xalqlariga xoslikdir. Bugungi kunda ham ta'lim muassasalarida yosh avlodni milliy hunarmandchilik va amaliy san'at turlari haqida bilimlarini shakllantirish uchun yetarlicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Amaliy san'at (badiiy kulolchilik)" mutaxassisligi bo'yicha oliy ta'limi dasturini o'zlashtirish jarayoni misolida butun o'quv jarayoni davomida talabalarga bevosita ustozlik qilishning tobora ortib borayotgan ta'sirini kuzatish mumkin.

Kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish jarayonida o'qituvchilari va ustoz-murabbiylarning ta'sir nisbati barqaror o'zgarib bormoqda.

2 kurs. Talabalar oliy ta'limga o'tishgan. Ushbu bosqichda o'qituvchilarning dastlabki ustun ta'siri dastlabki asosiy kompetensiyalarni singdirishda namoyon bo'ladi. O'qituvchi asosiy nazariy bilimlar manbai sifatida, albatta, ushbu bosqichda etakchi rol o'ynaydi.

3 kurs. Uchinchi kurs o'quv dasturini yakunlash jarayonida talabalar o'zlarining birinchi jiddiy ijodiy ishlarini yaratadilar, ularni ishlab chiqarish jarayonida ular o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydilar,

ular uchun ishlab chiqarish faoliyatining eng qiziqarli yo'nalishlarini aniqlaydilar. Ushbu bosqichda o'qituvchi shartli ravishda etakchi rolni ustozga o'tkazadi. Kelajakda o'qituvchi yordamchi funksiyani bajaradi.

4 kurs. To'rtinchi yildagi o'quv jarayoni aslida faqat amaliy faoliyatdir. Butun nazariy blok va dastlabki amaliy ko'nikmalar kasbiy faoliyatga tayyorlik bilan birlashtirilgan. Talabalarning bir qator hisobot ishlari o'qituvchiga asosan tuzatuvchi va nazorat qiluvchi funksiyalarni qoldiradi.

Yaqin vaqtgacha yosh kadrlar tayyorlash zarurligini chin dildan tan olmagan bir qator korxonalar hozirda kadrlar siyosatini o'zgartirib, bo'lajak xodim uchun kurashga kirishmoqdalar. Aksariyat korxonalarining asosiy xodimlari asta-sekin pensiyaga yaqinlashmoqda. Shunday qilib, 5-10 yillik rivojlanish strategiyasiga ega korxonalar bugungi talabalarni keyingi ish bilan amaliy mashg'ulotlarga jalb qilishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Yosh xodimlarni qo'llab-quvvatlash choralari ishlab chiqilmoqda.

Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitish bosqichida kasbiy ishlarda ustoz-shogirdlik zarurligini inkor etadigan bir qator korxonalar mavjud. Ko'pincha, bunday korxonaga egasi yosh kadrlarni jalb qilish zarurligini anglab, ustoz-shogirdlikni tashkil etish jarayonini tashkil etmaydi. Bunday korxonaga xodimlarining asosan ish haqi, shuningdek, mavjud mutaxassislarining ustoz sifatida ishlashga roziligini ma'qullamaydi. Faqatgina ish beruvchi xodimni ustoz bo'lishga undashi mumkin, uning bevosita manfaatlari to'plangan tajribani yosh mutaxassislariga o'tkazishdir.

Faqat yuqori rahbariyat darajasida ustoz-shogirdlik zarurligini bilish bunday korxonaning yaqin kelajakda xodimlarning yo'qligini oldini oladi.

Yosh kadrlarni jalb qilishdan manfaatdor bo'lgan ish beruvchi eng yaxshisini olishni xohlaydi. Buning sababi shundaki, eng yaxshi talaba yaxshi xodim bo'lishi mumkin, amaliyot va moslashuvdan o'tish osonroq. Dunyo bo'ylab harakat eng yaxshilarni aniqlash va eng yaxshi unvon uchun sog'lom raqobatga imkoniyat yaratish uchun mo'ljallangan.

Masalan, asosiy toifa va o'smirlar uchun mahoratni bajarish vazifasi, donishmandlar mahorati toifasi uchun esa badiiy mahsulotni loyihalash va qisman bajarish taklif qilinadi.

Asosiy toifadagi mashg'ulotlarga tayyorgarlik jarayonida OTM talabalari orasidan ishtirokchilarga zamonaviy o'zbek graviyurasi texnikasi bo'yicha badiiy mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarda katta tajribaga ega bo'lgan ustozlar va maxsus fanlar o'qituvchilari biriktirildi. Ishtirokchilar va unga biriktirilgan ustozlarning raqobatbardosh hayajonlari ustoz-shogirdlik faoliyatining ijobiy ta'sirining butun spektrini ko'rsatdi. Ishlab chiqarish korxonalarini bazasida biriktirilgan ustozlar rahbarligida amaliyot o'tash bizga nafaqat qattiq, ya'ni o'ziga xos, chuqur texnologik bilim, ko'nikma va malakalarni, balki professional muhitda muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan oson kompetensiyalarni shakllantirishni boshlashga imkon berdi.

Bunday mashg'ulotni o'tkazish tajribasi ta'lim muassasasi va ish beruvchi kompaniyaning umumiy muvofiqlashtirilgan ishining barcha afzalliklarini aniq ta'kidlaydi. Bunday tadbirlar talabalarni rag'batlantiradi, ularning bilimlarini yanada amaliy, foyjali va mazmunli qiladi. Ishni baholash jarayonida hozirgi mutaxassislar nazariy tayyorgarlik davrida rivojlanmagan fikrlarga e'tibor berishadi.

Ustoz-shogirdlik nafaqat ish joyida yosh mutaxassislarni tayyorlash, balki nazorat, ya'ni kelajakda ta'lim muassasasiga o'qituvchi sifatida qaytishi mumkin bo'lgan shogirdlar ustida ishlashdir.

Pedagogik amaliyot doirasida ustoz-shogirdlik talabani o'z salohiyatini rivojlantirish va kasbiy shakllantirish yo'lida qo'llab-quvvatlash sifatida alohida rol o'ynaydi. Ta'lim muassasasining yosh mutaxassislariga ustoz-shogirdlik qilishning foydasi shundaki, ular o'z ishlarida qiyinchiliklar yuzaga kelganda o'z vaqtida malakali uslubiy yordam oladilar va keyingi kasbiy o'sishga undaydilar.

Barkamol qurilgan ustoz-shogirdlik tizimi ustoz-shogirdlik tizimiga jalb qilingan xodimlarning kasbiy darajasini oshirishga yordam beradi. Ustoz boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantiradi, ta'lim muassasasidagi mavqegini yaxshilaydi, professional sifatida obro'-e'tibor va hamkasblar ishonchini qozonadi. Yosh mutaxassis yoki shogird moslashish bosqichida o'z vaqtida yordam oladi, bu ularga OTMga tezroq ko'nikish imkonini beradi, murakkab ish vazifalarini hal qilishda, kasbiy va martaba rivojlanishida yordam oladi.

Ustoz-shogirdlikning samaradorligi uning individual tabiati bilan izohlanadi. Ustoz o'zi tomonidan qilingan xatolarga tezda munosabat bildirishi, ularni batafsil tahlil qilishi va ishning to'g'ri yo'nalishini ko'rsatishi mumkin. Ustozlar professional jamoani yaratish va yosh mutaxassislarni professional jamoaga qo'shishda muhim funksiyaga ega.

Talabaning kasbiy rivojlanishida ustozning shaxsiyati asosiy rol o'ynaydi. Ustoz-shogirdlik faoliyatini amalga oshirish uchun pedagogik mahorat darajasini doimiy ravishda rivojlantirish va takomillashtirish, ish shakllari va usullarini takomillashtirish, hamkasblar bilan tajriba almashish zarur. Har yili san'at bo'limida ochiq

darslar, uslubiy ma'ruzalar taqdim etish mumkin. Masalan:

\* amaliy san'at namunalari ustida ishlash orqali talabalarning ijodiy salohiyatini ochib berish bo'yicha uslubiy hisobot;

\* "Yangi O'zbekiston – ranglar timsolida" mavzusida master-klass; "Badiiy obraz yaratish" mavzusida ochiq dars;

\* mintaqaviy ilmiy-amaliy konferensiyada ma'ruza.

Samarali ustoz kasbiy mahorat musobaqalarida ishtirok etib, tinglovchilarga o'rnak ko'rsatishi kerak. Shogirdlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari quyidagilar bo'lib, ularni uch bosqichga bo'lish mumkin:

1. tanishish, o'zaro tushunish va ishonch munosabatlarini o'rnatish, mas'uliyat doirasini aniqlash, shogirdning ko'nikma va qobiliyatlaridagi kamchiliklarni aniqlash.

2. moslashuv dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, shogirdning kasbiy mahoratini sozlash.

3. shogirdning kasbiy moslashish darajasini va uning ishni bajarishga tayyorlik darajasini aniqlash.

Shogirdlar bilan ishlashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv afzal hisoblanadi. Ustoz badiiy qobiliyatini ro'yobga chiqarish zarurligiga e'tibor qaratadi. Ustoz shogirdlarning muvaffaqiyatini kuchaytirishga, yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish istagini qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi.

Shogirdlar bilan ishlashda ba'zi xususiyatlarni ta'kidlash mumkin. Shogirdlar bilan ishlash haqiqiy ish sharoitida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, bu jarayon ustoz va shogird o'rtasidagi yaqin shaxslararo aloqani, yosh o'qituvchining kasbiy pozitsiyalarining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib:

- talaba ushbu kasb bo'yicha mutaxassislarning haqiqiy faoliyati to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi, mashg'ulot davomida ularning kuchini baholay oladi;

- ta'lim muassasasi o'qituvchilari fikr-mulohaza va talabalarning tayyorgarligini ob'ektiv baholaydilar;

- ish beruvchi kompaniya mutaxassislari ta'lim jarayonining tuzatish mantiqiy lahzalariga e'tibor berish imkoniyatiga ega. SHuningdek, kelgusida ishga joylashish uchun eng istiqbolli ishtirokchilarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, amaliy san'at sohasida mutaxassislarni tayyorlash, ustoz-shogirdlikni qaror toptirish ta'lim muassasasi va xodimlarni yanada rivojlantirish va jalb qilishdan manfaatdor bo'lgan ish beruvchi o'rtasidagi chuqur o'zaro aloqasiz mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

D. A. Nozilov O'rta Osiyo dizayni tarixidan Toshkent "O'zbekiston" 1998

M. K. Rahimov O'zbekiston badiiy keramikasi Toshkent 1961

L. Jadova Современная керамика Узбекистана 1963

C. C. Булатов, М. О. Аширова Амалий санъат қисқача луғати 1992

M. Sh. Mannonova "O'zbek kulolchilik terminologiyasi" dissertatsiya

G.Shatskiy. Koyalardagi kadimgi rasmlar. T.; 1973.

C.Булатов. "Халқ таълими" журнали. Т.; 1998, 1-сон

Faxriddin, Rizouddin ibn. Ilmning o'n to'rt qanoti / Shogirdlik odobi /tarj. Jamalov Sagdulla. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2018. – 88 b.

Ron J. Aql vitaminlari. – Toshkent: FUTURE-BOOKS, 2021. – 383 b.

Rtveladze E. Taraqqiyotning manguilik chashmasi // <http://www.adolatgzt.uz/society/munosabat/4390>

To'raev B. Uchinchi muallim – O'zbekiston falsafasi yutuqlarini targ'ib qilgan vakil // [https://uza.uz/uz/posts/uchinchi-muallim-ozbekistonfalsafasi-yutuqlarini-targib-qilgan-vakil\\_332585](https://uza.uz/uz/posts/uchinchi-muallim-ozbekistonfalsafasi-yutuqlarini-targib-qilgan-vakil_332585)

Tursun, Ahmad Muhammad Hasan Basriy. – Toshkent: Qaqnus media, 2019. – 55 b.

## ИНТЕРНЕТДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШИ

Рахманов Саид Ибодуллаевич

Бўлим бошлиғи, Ўзбекистон пахта-тўқимачилик кластерлари уюшмаси, Тошкент, Ўзбекистон

*Аннотация. Мақолада ўзбек журналистикасининг янги, аммо тезкорлиги, аудиториясининг катталиги ва таъсир доирасининг кенглиги бўйича етакчилик қилаётган онлайн медиа томонидан пахта-тўқимачилик саноати масалаларининг ёритилиши таҳлил қилинди. Бу жараёнда Ўзбекистонда рақамли журналистиканинг шаклланиши ва ривожланиши босқичларига эътибор қаратилиб, мавзу мамлакатимиздаги рейтинг баланд бўлган “Uzreport.news”, “Daryo.uz”, “Gazeta.uz” сайтлари материаллари асосида ўрганилди. Мазкур сайтлар мисолида интернет тармоғида тўқимачилик соҳаси масалалари кўтариллиши, мавзунинг ёритилиши, материалларнинг ўзига хос жиҳатлари, муаллифлар маҳорати, ютуқ ва камчиликлари туркум материаллар асосида тадқиқ этилди. Ҳозирги ахборот асрида интернет журналистикасининг устун жиҳатлари, жумладан, мультимедиавий имкониятлардан қанчалик фойдаланилаётгани, жанрлар масаласи эътибор марказида бўлган. Мақоланинг долзарблиги шундаки, унда нисбатан кам ўрганилган иқтисодий журналистика муаммолари интернет нашрлари орқали кўриб чиқилган. Унинг бошқа ОАВ турларидан фарқли равишида тираж, саҳифа ҳамда эфир вақти сингари чекловчи тушунчалар мавжуд эмаслигига аҳамият қаратилиб, бу журналистларга ҳар қандай макон ва замонда, исталган форматда ахборот узатиши имконини бериши аниқ мисоллар орқали далилланган. Иқтисодий интернет нашрларни такомиллаштириши масалалари ўрганилиб, асосли таклиф ва тавсиялар берилганининг унинг илмий жиҳатдан янгилигини кўрсатиб турибди. Уларнинг амалиётга татбиқ этилиши эса иқтисодий интернет нашрлар аудиториясини янада кенгайтириши, таъсири кучини ошириши, тезкорлигини таъминлашга хизмат қилади, албатта.*

*Таянч сўзлар: онлайн медиа; интернет; иқтисодий журналистика; ахборот, жанр; ихтисослашув, таҳлил.*

## ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСОВ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ИНТЕРНЕТЕ

Рахманов Саид Ибодуллаевич

Заведующей отдела, Ассоциация хлопко-текстильных кластеров Узбекистана

*Аннотация. В статье проанализировано освещение вопросов хлопко-текстильной отрасли интернет-СМИ – новой, но динамично развивающейся узбекской журналистики, лидирующей по размеру аудитории и широте сферы влияния. В этом процессе было уделено внимание этапам становления и развития цифровой журналистики в Узбекистане, а тема изучена по материалам сайтов «Uzreport.news», «Daryo.uz», «Газета.uz», которые имеют высокий рейтинг в нашей стране. На примере этих сайтов в Интернете поднимались вопросы текстильной отрасли, освещалась тема, исследовались особенности материалов, мастерство авторов, достижения и недостатки серии материалов. В нынешний информационный век в центре внимания оказались основные аспекты интернет-журналистики, в том числе степень использования мультимедийных возможностей, вопрос жанров. Актуальность статьи заключается в том, что в ней рассматриваются относительно малоисследованные проблемы экономической журналистики посредством интернет-изданий. Акцент делается на том, что в отличие от других видов средств массовой информации здесь отсутствуют ограничивающие понятия, такие как тираж, полосное и эфирное время, и на конкретных примерах доказываем, что это позволяет журналистам передавать информацию в любом пространстве и времени, в любом пространстве и времени. любой формат. Изучены вопросы совершенствования экономических интернет-изданий, даны обоснованные предложения и рекомендации, что показывает его научную новизну. Их реализация послужит дальнейшему расширению аудитории экономических интернет-изданий, увеличению их влияния и, конечно же, обеспечению их скорости.*

*Ключевые слова: интернет-СМИ; интернет; экономическая журналистика; информация, жанр; специализация, анализ.*

*Кириш. Бугунги кунда онлайн медиа, яъни интернет журналистика анъанавий матбуотни ортда қолдираётгани айни ҳақиқат. Бу унинг тезкорлиги, аудиториясининг катталиги ва таъсир доирасининг кенглиги билан изоҳланыпти.*



Чиндан ҳам, интернет журналистика ўзида оммавий ахборот воситаларининг барча турлари имкониятларини мужассам этгани боис жуда тез оммалашди. Бинобарин, "...радио оммавий аудиторияни жалб қилиши учун 40 йил керак бўлди, телевидение эса бунга 14 йилда эришди, интернет тизимининг дунёвий аудиторияни жалб қилиши учун эса 4 йил кифоя қилди", (5, 42) холос.

Медиа оламига янги йўналиш бўлган интернет журналистикаси кириб келаётган дастлабки пайтда бир гуруҳ олимлар унинг истикболига шубҳа билан қараган бўлса, бошқалари тез орада ахборот бозорида етакчиликни қўлга олишига қаттиқ ишонган эди. Профессор И.Засурский интернетни мавжуд медиа-сиёсий тизимнинг бир кўриниши деб ҳисоблар экан (3, 36), ҳеч бир оммавий ахборот воситасининг аудиториясини интернет қамраб оладиган фойдаланувчилар сони билан тенглаштириб бўлмаслигини, яқин келажакда интернет орқали ҳукумат ва фуқароларнинг ўзаро алоқада бўлишлари биринчи ўринга чиқишини айтганди. Бугун ушбу фикр қанчалик ўзини оқлаганига ортиқча изоҳ шарт эмас, назаримизда.

Олимларнинг фикрича, ўтган асрнинг тўқсонинчи йиллари бошларида АҚШ, Англия, кейинчалик Италия, Норвегия, Сингапур, Австралия ва бошқа мамлакатларда электрон ҳукумат пайдо бўлгани онлайн медиа ривожига катта туртки бўлди. "АҚШда биринчи электрон газета 1990 йилда пайдо бўлиб, «The Electronic Club» деб номланган. Шундан сўнг оммавий нашрларнинг электрон намуналарини яратиш борасида ҳақиқий портлаш юз берди" (6, 23).

Ўзбекистонда ҳам интернет журналистика шаклланиши ва тараққий этишида худди шундай манзара кузатилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 8 июлдаги "Ахборот-коммуникацион технологияларни ривожлантиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори асосида давлат бошқаруви органлари фаолиятида ахборот-коммуникация технологияларни қўллашга доир дастур тасдиқлангач, катта аудитория интернет нашрларнинг аҳамиятини англай бошлади. Натижада интернет тармоғи ва онлайн медиа босқичма-босқич равишда анъанавий ОАВ оламига кириб келиб, унинг ривожига жадаллашиб кетди.

Юртимиз тадқиқотчилари ўзбек медиасида интернет журналистиканинг ривожини уч босқичга ажратиш ўрганашади.

Биринчиси, 2005-2007 йилларни ўз ичига олган бўлиб, бу пайтда анъанавий тарзда фаолият юритаётган босма нашрлар ўз электрон нусхаларини тарқата бошлади. Биринчилардан бўлиб «Халқ сўзи», «Народное слово», «Правда Востока» газеталарининг электрон нусхалари яратилди. Шунингдек, теле-радио каналлари кўрсатув ва эшиттиришларини интернет тармоғи орқали ҳам узатишга киришди.

Иккинчиси, 2007 йилга тўғри келади. Бу пайтда фақат интернетда фаолият юритадиган алоҳида нашрлар пайдо бўла бошлади. Яъни интернет оммавий ахборот воситалари ҳисобланмиш интернет газеталар, интернет теле ва радиоканаллар вужудга келди.

Учинчиси, 2007 йилдан кейинги ва ҳозирги даврни қамраб оладиган интернет журналистикаси ривожланиш босқичидир. Бу даврга келиб, интернет нашрлари профессионал нуқтаи назардан шаклланиб, ихтисослашув масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратилди. Жумладан, соф иқтисодий интернет журналистикаси намуналари ҳам вужудга келиб, асосий минбарлардан бири айлана бошлади. (Биринчи инфографикага қаранг).



Тадқиқотларга кўра, интернет журналистиканинг тараққий этишида интерактивлик тамойили энг асосий ва етакчи роль ўйнади. Интерактивлик, яъни икки томнлама мулоқот аудиторияни нофаол ахборот

қабул қилувчидан фаол қабул қилувчига айлантирди. Интернет журналистикасида эса ахборот олиш, тарқатиш ва уни қабул қилиш энди шу соҳага қизиққан ҳар қандай шахс учун оддий машғулотга айланди. Рақамли ОАВлар эълон қилинаётган ҳар бир материали учун алоҳида форумлар яратиш, шарҳ ва қайдлар учун жой қолдириш орқали аудитория фикрини ўрганишга, унинг қизиқишларини инобатга олиб, контент яратишга интила бошлади.

ОАВ ўз фаолиятини муайян соҳага ихтисослаштириб, аудиториянинг тор қатламларига хизмат кўрсатиш, уларнинг қизиқиш ва ахборотга бўлган эҳтиёжларини тўлиқ қоплашга интилиш орқали кўпроқ самарага эришиши мумкин. Интернет журналистикаси бўйича тадқиқотчи олима Д.Рашидованинг таъбири билан айтганда, анъанавий ОАВ “point to point”, яъни “нуқтадан нуқтага” ахборот узатган бўлса, интернет ОАВ ундан фарқли равишда “point to multipoint”, яъни “нуқтадан кичик нуқтага” ахборотни йўналтиради. Бу эса ихтисослашувга, шу жумладан, иқтисодий интернет нашрлари пайдо бўлишига олиб келди.

Бу ҳақида гап кетганда, биринчилар қаторида “Uzreport” ахборот агентлигини санаш мумкин. У юртимиздаги қалдирғоч интернет нашр ҳисобланади. У Ўзбекистонда 2005 йили илк бор ўтказилган UZ миллий домени Интернет-фестивалида хабар нашрлари йўналишида иккинчи ўринни эгаллаган эди. Биринчи ва учинчи ўринни эгаллаган сайтлар фаолиятини тўхтатганига кўп бўлди. Аммо “Uzreport” вақт синовларидан муваффақиятли ўтиб, фаолият йўналишларини тобора кенгайтириб бормоқда. Айни пайтда ушбу порталнинг мамлакат аҳолисини иқтисодий янгиликларга бўлган кундалик эҳтижини қондиришдаги роли катта. Унинг саҳифаларида банклар, биржалар, суғурта, қимматли қоғозлар бозори, тендер ва аукционлар, кўргазма ва форумлар, шунингдек, Ўзбекистоннинг иқтисодий ҳаёти ҳақидаги таҳлилий материаллар уч тилда нашр қилинади.

Кейинги йилларда унинг саҳифага “Finance.uz”, “Kapital.uz” сайтлари ҳам қўшилди. Уларда мамлакатимизнинг ижтимоий-иқтисодий, молиявий, бизнес соҳасига оид янгиликлар ва воқеалар кенг ёритиб борилади. Шу билан бирга, жаҳонда рўй бераётган иқтисодий ва молиявий янгиликлардан хабардор қилиб келяпти.

Асосий қисм. Ҳозирги глобаллашув шароитида ахборот каналларининг кўплиги, хабар тарқатиш усул ва технологияларининг бир хиллашуви, ахборот бозоридаги кескин рақобат онлайн журналистиканинг тезкор ахборот билан осон таъминлашига кенг йўл очди. Интернет журналистика анъанавий матбуотга қиёсан ўрганилганда, аввало, материал тақдим этиш имкониятининг катталиги билан устунликка эгаллигини эътироф этиш жоиз. Чунки унда босма матбуотдагидек саҳифалар, телевидение ёки радио сингари эфир вақти чекланмаган. Ахборотни исталган вақт ва маконда, энг мақбул форматда тақдим этиш мумкин. Қолаверса, иқтисодий жиҳатдан арзон бўлиб, муқобилларига нисбатан катта харажат талаб этилмайди. Шунинг учун кейинги пайтда журналистика истиқболи онлайн медиа билан боғланмоқда.

Интернет нашрларнинг мавзу кўлами ҳам ранг-баранг бўлиб, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маънавий-маърифий соҳалар тўлиқ қамраб олинди. Улар орасида иқтисодиётнинг муҳим соҳаларидан бири бўлган пахта-тўқимачилик саноати масалалари ҳам доимий диққат эътибор марказида бўлиб турибди.

Биз интернет нашрларида пахта-тўқимачилик саноати масалалари ёритилишини тадқиқ этиш учун “Uzreport.news”, “Daryo.uz”, “Gazeta.uz” сайтлари танлаб олиб, ушбу ресурслардаги мақолалар таҳлил қилдик. Мавзунинг ёритилиши, масаланинг кўйилиши, материалларнинг ўзига хос жиҳатлари, ютуқ ва камчиликлари кўриб чиқилди ҳамда илмий таклиф ва тавсиялар берилди.

“Uzreport.news” сайтнинг тўқимачилик мавзусини ёритишда ўзига хослиги шундаки, унда саноатнинг мазкур тармоғига доир одатий ахборотлардан имкон қадар қочилиб, асосан, эксклюзив янгиликлар берилади. Материаллар қисқа, лўнда, содда услубда ва фактларга бой ҳолда тақдим этилиши унинг ютуқларидан биридир.

Сайтда эълон қилинган “Ўзбекистоннинг иккита компанияси Қирғизистонда тўқимачилик фабрикаси куради” материални олайлик (2023 йил 30 ноябрь, <https://uzreport.news/economy/uzbekistonning-ikkita-kompaniyasi-ir-izistonda-tu-imachilik-fabrikasi-uradi>). Янгилик мазмун-моҳияти унинг сарлавҳасидан аён. Энг муҳим маълумот матнда эмас, балки тўғридан-тўғрида сарлавҳага чиқарилиб, “лид”, яъни кириш қисмида хабар тўлдирилмоқда. Яъни “Лойиҳа қиймати \$31 млнни ташкил қилиб, қурилиши жорий йилнинг декабрь ойида бошланиб, 2024 йил охиригача якунланади”, дейилади. Муҳим маълумот ва рақам хабар бошида тақдим этилгани яхши, албатта. Бироқ ушбу жумлада айрим сўзлар ноўрин қўлланилгани туфайли гапда ғализлик пайдо бўлган. Бизнингча, лид қисмидаги матн “Қиймати 31 млн долларлик лойиҳа бўйича қурилиш жорий йилнинг декабрь ойида бошланиб, 2024 йил охиригача якунланади”,

тарзида берилса тўғрироқ бўлар эди. Хабар матнида лойиҳа ҳақида маълумот берилар экан, фактларнинг қайта қўлланилиши ҳам кузатилади. Мана эътибор қилинг: “Йирик тўқимачилик фабрикаси Жалолобод вилояти Ноокен тумани Орол қишлоғида қурилиши режалаштирилган. Уларнинг қиймати \$31 млнга баҳоланмоқда. ...Лойиҳага кўра, завод қурилиши жорий йилнинг декабрь ойида бошланиб, 2024 йил охиригача якунланади. Қурилиш учун 20 гектар ер ажратилди”. Фикримизча, қисқа ахборотларда бундай далилларнинг такрор қўлланилиши материал сифатига салбий таъсир кўрсатиб, ўқувчилар эътиборини қочириши мумкин. “Истеъмолчи кўпи билан учта гапдан кейин хабарни ўқишдан тўхтаб, бошқа ишга чалғиб кетганига қарамай, у гап нима ҳақида эканлигини англаб олади. Шу сабабли янгиликлар сайти ёки газетасининг саҳифаларини кўздан кечириб чиқишга кўпи билан 10-15 дақиқа вақт сарфланади” (8). Шу боис замонавий тамойилларга кўра, интернет журналистикасида янгиликлар ҳажми ўртача 3-4 хатбошидан ошмаслиги мақсадга мувофиқ саналади.

Тўқимачилик санотига оид “Қуйи Чирчиқ туманида чиқиндидан маҳсулот ишлаб чиқариш йўлга қўйилади” хабари ҳам эксклюзивлиги билан ажралиб турибди (2024 йил 1 февраль, <https://uzreport.news/economy/-uyi-chirchi-tumanida-chi-indidan-ma-sulot-ishlab-chi-arish-yulga-uyiladi>).

Хабар ҳажман кичик бўлиб, атиги уч хатбошидан иборат. Шундай бўлса-да, янгилик ҳақида тўлиқ маълумот берилган. Биринчи хатбоши: “Қуйи Чирчиқ туманидаги “TST Cluster” пахта-тўқимачилик кластерининг “Tashkent Cotton Textile” корхонасида пахта толасини қайта ишлаш жараёнида ҳосил бўлаётган чанг-чиқиндилар махсус филтър ва ускуналар ёрдамида тутиб қолиниб, прессланмоқда”. Бу ерда ахборот жанрининг мумтоз саволлари бўлган “нима, қачон, қаерда” сўроқларига жавоб берилган. Кейинги жумлада эса лойиҳа аҳамияти янада кучайтирилади: “Келгусида прессланаётган чиқиндилар асосида ип ўраладиган конуслар ишлаб чиқариш режалаштирилган”. Охирги хатбошида эса янги лойиҳа учун яратилган технологик асос келтирилиб, унинг нафақат иқтисодий, балки экологик фойдали томонлари маҳорат билан очиб берилган. “Tashkent Cotton Textile” корхонаси Германия, Туркия, Швейцария, Италия каби давлатлардан келтирилган энг сўнгги замонавий, илғор технологик ускуна ва дастгоҳлар билан жиҳозланган. Бу эса амалиётга чиқитсиз технологияларни жорий қилиш, атроф-муҳитга ташланадиган чиқиндиларни кескин камайтириш имконини беради”. Ушбу материал хабар жанри олдида қўйиладиган талабларга тўлиқ жавоб беради. Ортиқча ташбеҳ, такрор сўз ва қайтариқ фикрлар йўқ. Ёзилиш услуби содда, тили раван, барча учун бирдек тушунарли эканлиги муаллифнинг ютуғи бўлган.

Яна бир материалда “Италиянинг “Original Marines” компанияси Ўзбекистонда болалар учун кийим ишлаб чиқаради” (2024 йил 21 февраль, <https://uzreport.news/economy/italiyaning-original-marines-kompaniyasi-uzbekistonda-bolalar-uchun-kiyim-ishlab-chi-aradi>), дея эксклюзив хабар берилади. Унда ахборот тақдим этишнинг “тўнтарилган эҳром” формуласидан фойдаланилган.

«Тўнтарилган эҳром» формуласига кўра, хабар таркиби қуйидагича шаклланади:

1-жадвал.



«Тўнтарилган эҳром» формуласига кўра, хабар таркибидаги ҳар бир қисм қуйидаги саволларга жавоб бериши керак:

2-жадвал



Хабарда Ўзбекистон элчиси Абат Файзуллаев Италиянинг машхур “Original Marines S.p.A.” компанияси ташқи бозорлар бўйича директори Гуалтеро Галли билан учрашув ўтказгани, чет эллик ҳамкорнинг юртимиз иқтисодиёти ва тўқимачилик саноатидаги ўзгаришлар ҳақидаги фикри берилган. “Ўзбекистон тўқимачилик тармоғининг етакчи корхоналари «BSCI», «ОЕКО-ТЕХ», «SEDEX», «GOTS», «ISO» каби ижтимоий ҳимоя, экологик, органик ва сифат талаблари бўйича халқаро сертификат ва нормаларга риоя қилади. Бундай ёндашув эса Италия компаниясининг ижтимоий барқарорлик, ходимларни муҳофаза қилиш, болалар учун кийимлар хавфсиз ва зарарсиз бўлишини таъминлаш сиёсатига тўлиқ мос келади”, дея Гуалтеро Галли сўзларидан иқтибос келтирилади. Фикримизча, ушбу эътироф материал орқали тақдим этилаётган янгиликдан ҳам кўра муҳимроқ. Сабаби, унда Италиянинг дунё мамлакатларида 150 дан зиёд дўконлар тармоғига эга компания раҳбарининг Ўзбекистон тўқимачилик саноатига юқори баҳоси, тизимда амалга оширилаётган ислохотларга хайрихоҳлиги ўз ифодасини топган. Ушбу жиҳат унинг ўқишлигини ошириб, материалдаги жузъий камчиликларни ёпиб кетган.

Хабарда «тўнтарилган эҳром» қоидасига амал қилинган. Жанр талабидан келиб чиқиб, урта фактологик асосга таянилган ҳолда, ахборотнинг моҳияти очиқ берилган.

“Uzreport.news” сайтида берилаётган иқтисодий мавзу, хусусан, тўқимачилик саноатига оид материаллар бошқа электрон нашрлар билан таққосланганда кутилмаган янгиликларни бериши, жанр талабидан келиб чиқиб, ихчам ҳажмда, сўзлашув тилига яқин бўлган содда усулда тақдим этилаётгани билан устунликка эга. Баъзи ҳолларда эса ўз манбасига эмас, балки бошқа манбаларга таяниб ахборот узатиши ҳоллари ҳам учрайди. Шундай бўлса-да, масалага ёндашувнинг ўзига хослиги, янгилик муфассал очиқ берилиши билан ютиб кетмоқда.

Журналистика назариясида хабар жанри “энг қулай ва осон” дея таърифланади. Бу ахборий материаллар қисқали ва ёзиш учун вақт талаб этилмаслиги билан асосланади. Аслида, хабар жанри энг мураккаб жанрлардан бири ҳисобланади. Айниқса, ҳозирги тезкор замонда янгилик бир зумда эскирадиган, вақтида тақдим этилмаса аҳамиятини йўқотадиган шароитда журналистдан катта маҳорат талаб этилади. Александр Амзин тўғри таъкидлаганидек, “Янгиликлар ўз вақтида берилиши керак. Муҳим воқеа-ҳодисалар ҳақидаги хабарлар долзарблик хусусиятларини тезда йўқотади. Янгиликлар камдан-кам ҳолларда 24 соатдан кўпроқ вақт давомида яшайди. Агар биз муҳим воқеалар ҳақида ўз вақтида ёзишга улгурмасак, бошқа бир таҳририят тезкор муносабатини қулай форматда бериши мумкин” (1, 7).

Жамиятга ҳар доим янгилик керак. Унга бўлган эҳтиёж ҳеч қачон сўнмайди, аксинча ортиб бораверади. Бу эса журналистларни доимо изланишга, керакли пайтда кутилмаган ахборот тақдим этишга ундаб келади. Ана шу жойда ахборот жанрининг оғирлиги кўзга яққолроқ ташланади.

Гап шундаки, янгиликларда қисқа матнда нисбатан кўпроқ ахборот берилиши керак. Бироқ маълумотнинг кўплиги, вақтнинг тиғизлиги репортёр олдига энг муҳимларини саралаб, тақдим этиш, бошқа айтганда, танлов масалини қўндаланг қилиб қўяди. Бу жойда журналистга маҳорат, тажриба ва қисман омад ёрдам беради. Ахир журналист жанр талабига кўра, воқеа-ҳодисага ўз муносабатини билдира олмайди, ўқувчига маслаҳат бериши, вазиятни боҳолаши, хулоса қилиши жанр қоидаси ва касб этикаси зид саналади. Репортёрнинг асосий вазифаси ўқувчи учун фойдали факт ва далилларни тақдим этишдир. Янгилик ўз номи билан янги факт ҳамда тафсилотлар билан аҳамиятли саналади. Унинг таҳлилий жанрлардан фарқли томони ҳам ана шунда. Том Стоппард топиб айтганидек, “Шарҳлар доимо арзон турса-да, далиллар жуда ҳам қимматга тушади”.

Мамлакатда энг оммабоп бўлган сайтлардан яна бири — “Daryo.uz” тўқимачилик саноатига доир муаммоли масалаларга эътибор қаратиши билан ажралиб туради. Бунга мисол тариқасида “Ўзимиз пахта етиштириб, толани дунё бозоридан ҳам қиммат нархда сотиб оляпмиз” (2023 йил 7 июль, <https://daryo.uz/k/2023/07/07/ozimiz-paxta-yetishtirib-tolani-dunyo-bozoridan-ham-qimmat-narxda-sotib-olyarmiz>) материални келтиришимиз мумкин. Унда Ўзбекистон Савдо-саноат палатаси томонидан наманганлик тадбиркорлар билан ўтказилган учрашув тафсилотлари ҳақида сўз юритилади. Материал ҳажм нуқати назаридан ахборот жанри талабларига мос келади. Олтита хатбошидан иборат. У тўқимачилик саноатидаги энг долзарб бўлган масалалар кўтарилгани билан алоҳида аҳамиятга эга. Хабарда ёзилишича, тадбиркорлар 20 дан ортиқ тизимли муаммолар ечими бўйича мурожаат қилган. Шундан иккитаси бевосита тўқимачилик саноатига тааллуқлидир.

Булар қуйидагилар:

— саноат корхоналари пахта толасини Республика хом ашё биржасидан дунё бозорига нисбатан ҳар бир килограммини ўртача 2000-3000 сўм қимматга сотиб олаётгани;

— экспортчи корхоналарга ҚҚС қайтарилиши муддати узоқлиги айланма маблағлар камайишига олиб келаётгани.

Аммо таҳририят мухбири кўтарилган муаммони омма эътиборига ҳавола этаркан, аноним йўлни танлайди. “Намангандаги тўқимачилик корхоналаридан бирининг вакилининг билдиришича” ёки “Яна бир тадбиркорга кўра” дея тадбиркорни номини очиклашдан тийилади. Бу эса материал таъсир кучини пасайтириб, айрим ўқувчиларда ишончсизлик, иккиланиш ҳиссини уйғотади. Лекин суратлардан унумли фойдаланилгани аудитория эътиборини ушлаб қолган. Чунки тадбир жараёнидан олгита ҳаракатдаги сурат берилган бўлиб, уларда савол йўллаётган тадбиркорларнинг ўйчан қиёфалари акс этган.

Интернет журналистикасида тасвирнинг таъсир кучи катта. Хусусан, муаммоли масалалар кўтарилганда, маҳорат билан олинган битта сурат ўқувчиларга бутун бошли матндан кўпроқ информация бериши мумкин. XX аср бошида “Time” газетаси муҳаррири Артур Брисбэйн визуал ахборот аҳамиятига баҳо бериб, ҳамкасбларига тавсиясида шундай дейди: Суратлардан фойдаланинг, зеро, у мингта сўздан афзалдир” (4, 341).

Сўнги изланишларга қараганда, ўқувчилар визуал маълумотларни кўпроқ эслаб қолар экан. Агар одамлар маълумотни оддий ахборот тарзида эшитса, уч кундан кейин улар атиги 10 фоизини эслашади. Аммо бунга визуал элементлар қўшилса, эслаб қолиш даражаси 65 фоизга кўтарилади. Инсон мияси 90 фоиз ахборотни визуал кўринишда қабул қилади. У визуал ахборотни матнга қараганда 60 000 марта тез қайта ишлайди (7).

Демак, оммавий ахборот воситалари, айниқса, интернет нашрлари визуаллаштиришга кўпроқ аҳамият қаратса, самарадорлик янада ошади. Бунинг исботи сифатида «Mashable» нашри тадқиқотини эслаш етарли. Унга кўра, сайтда эълон қилинадиган инфографикалар оддий мақолаларга нисбатан уч марта кўпроқ Tweet қилинади (10).

“Daryo.uz”да эълон қилинган “Ўзбекистонда пахта қуллиги тугади, терим энди “жазо” эмас” кичик шарҳи пахта-тўқимачилик соҳасидаги энг оғриқли муаммо ечим топганининг халқаро эътирофига бағишланади (2023 йил 19 сентябрь, <https://daryo.uz/k/2023/09/18/ozbekistonda-paxta-qulligi-tugadi-terim-endi-jazo-emas-corriere-della-sera>). Унда Италиянинг “Corriere della Sera” нашри Ўзбекистонда пахта терими бошланаётгани ҳақида ёзиб, далада мажбурий меҳнатга барҳам берилганини таъкидланади. “Пахта Ўзбекистон аҳолиси учун жазо ҳам эди, чунки ярим миллион катта ёшли аҳоли, икки миллион болалар ҳосилни териб олишга мажбур бўларди. “Ҳамма пахта теримига тайёр” шиори остида далага чиқиш асосий вазифа бўлган, бундан қочишга имкон йўқ эди. Бошқа барча ишлар ортга ташланган. Университетлар, мактаблар ва касалхоналар ёпилган. Шифокорлар, ҳамширалар, ўқитувчилар ва талабалар енг шимариб, пахтага чиқишга мажбур бўлган. Вилоятлар ўртасидаги мусобақада бутун ўзбек жамияти иштирок этар, бу мусобақа маҳаллий телевидение орқали ҳам намойиш этиларди. “Оқ олтин”ни энг кўп терган вилоят ғолиб деб топиларди”, деб иқтибос келтирилади. Мақола шарҳида ёзилишича, хориж матбуотида Ўзбекистонда кейинги йилларда амалга оширилган ислохотлар туфайли пахта-тўқимачилик саноатида жиддий ўзгаришлар рўй бергани олқишланган. Соҳада кузатилган энг катта янгиликлардан бири — кластер тизими йўлга қўйилиб, пахта етиштиришдан бошлаб, пахта толаси, газлама, сўнгра экспорт учун маҳсулот ишлаб чиқарилаётгани эътироф қилинган. Мақола якунида “Яқин ҳафталарда Ўзбекистоннинг пахта далаларида на шифокорлар, на ўқитувчилар ва университет профессорлари, на болалар бўлади. Халқаро меҳнат ташкилоти (Женевада жойлашган ХМТ) Жаҳон банки билан ҳамкорликда ўтказган текширувга мувофиқ, 2021 йилги ишлаб чиқариш циклида Тошкент ниҳоят мажбурий меҳнатга барҳам беришга муваффақ бўлди. ХМТ маълумотлари эълон қилиниши билан бир вақтда жаҳоннинг энг йирик тўқимачилик компаниялари ўзбек пахтасига бойкотни олиб ташлади ва Марказий Осиёда Ўзбекистон учун янги имкониятлар эшиги очилди” дея хулоса қилинади. Бундан англашиладики, Европанинг йирик тўқимачилик компаниялари, халқаро брендларнинг Ўзбекистон пахта-тўқимачилик саноатига бўлган муносабати ўзгарган. Бу эса миллий журналистика олдида янги вазифалар қўяди. Улар орасидаги бирламчиси, хорижлик ҳамкорларнинг қарашлари, фикр-мулоҳазаларини чет эл матбуоти орқали эмас, балки ўз манбаларига таяниб ёритишдир. Босма ва электрон ОАВнинг ҳозирги молиявий ҳолатида чет давлатларда ўз мухбирига эга бўлиши иқтисодий жиҳатдан имконсиздир. Бироқ бунинг муқобил йўллари ҳам йўқ эмас. Бу борада хорижда таҳсил олаётган иқтидорли ёшлар энг яқин кўмакчи, жамоатчи мухбирга айланиши мумкин, албатта.

Ҳозирги пайтда иқтисодий мавзулар сифатли ва тизимли ёритиладиган интернет нашрлари қаторига “Gazeta.uz” сайтини ҳам киритиш мумкин. Унинг биргина “Колумнистлар” бўлимида эълон қилинаётган иқтисодий мақолаларни бугунги кунда кўпчилик интиқ кутади. Сабаби, оддий: долзарб муаммо, чуқур

таҳлил, халқчил услуб, асосли таклифлар уйғунлиги.

Келинг, шу ўринда мазкур бўлимда эълон қилинган “Аграр ислохотларни амалга ошириш йўлидаги таҳдидлар” номли таҳлилий мақолани кўриб чиқамиз (2022 йил 8 июль, <https://www.gazeta.uz/uz/2022/07/08/agrarian-reforms/>). Мақола ҳажман катта бўлиб, унда аграсанотнинг барча тармоқларидаги ислохотлар қамраб олинган. Биз мавзуимизга алоқадор бўлган “Қишлоқ хўжалиги кластерлари бозор тамойилларига зид маъмурчиликнинг янги воситаси сифатида” ички сарлавҳа остида эълон қилинган қисмига мурожаат қиламиз.

Муаллифларнинг фикрича, сўнгги йилларда ташкил этилган «қишлоқ хўжалиги кластерлари» — бу давлат-монополия бошқарувига асосланган самарасиз шакл бўлиб, уларнинг ишлаш тамойиллари аграр ислохотларни амалга оширишга тўсқинлик қилмоқда. Мақоланинг ютуғи шундаки, унда кейинги пайтда муҳокамалар марказида бўлган кластер тизими ҳақидаги умумий гаплардан қочишиб, ҳуқуқий ва иқтисодий жиҳатдан чуқур таҳлил қилинган. “Қонунчилик ердан фойдаланишнинг учта шаклини назарда тутди: (1) фермер хўжалиги; 2) деҳқон хўжалиги; ва (3) кооператив хўжалик (ширкатлар). Бироқ, сўнгги йилларда тўртинчи шакл — қишлоқ хўжалиги кластерлари кенг қўлланилмоқда, ваҳоланки, қонун ҳужжатларида кластерлар ердан фойдаланиш шакли сифатида белгиланмаган”. Ўртачага ташланаётган шу каби фикрлар ҳуқуқий асосланиб, содда тилда, халқона усулда тушунтириб берилган. Бунинг исботини қуйидаги жумлада ҳам кўриш мумкин: “Давлат (барча кўринишларидаги) мажбурий давлат буюртмасидан воз кечса, иш ҳақи ўсишни бошласа, электр энергияси, сув ва газ учун субсидиялар қисқартирилса ёки уларга чек қўйилса, кластерлар ўзларининг рақобатдош устунликларини йўқотадилар ва юқори эҳтимоллик билан уларнинг аксарияти рақобатга дош беролмай қоладилар”. Тўғри, мақоланинг тили у қадар равон эмас, жумлалар узун тузилган, кўп жойларида ғализликлар бор. Бу материал дастлаб рус тилида ёзилиб, сўнгра ўзбек тилига ўгирилганининг таъсири бўлса керак. Биргина юқоридаги гапда 39 та сўз ишлатилган. Уни тўрт-бешта жумлага ажратиш ёки қисқартириб, “Мажбурий давлат буюртмасидан воз кечилса, субсидиялар қисқартирилса кластерлар рақобатдош устунликни йўқотади” шаклда бериши ҳам мумкин эди. Аммо бунда оддий ўқувчилар масала моҳиятини тугал англолмай қолиш эҳтимоли юқори. Қолаверса, фикрнинг тиниқлиги, баён этиш услубининг соддалиги боис гапнинг узун-қисқалиги кейинги ўринларга тушган.

Мақолада «Ўзбекистонда тўқимачилик кластери учун техник-иқтисодий асослаш» ҳисоботи (9) маълумотларига таянган ҳолда, тўқимачиликдаги нозик масалалар ҳам очиб берилган. Жумладан, “Ўзбекистон паст технологияли тўқимачилик маҳсулотлари экспортёри ҳисобланади, айти пайтда юқори кўшимча қийматга эга ва сифатли тўқимачилик маҳсулотларини импорт қилади. Пахта кластерлари пахтани асосан экспортга мўлжалланган калава-ип ишлаб чиқариш мақсадида сотиб олади”, дейилади. Эътироф этиш керак, бундай очик ва асосли таҳлиллар бошқа нашрларда шу пайтгача берилмаган. Шу жиҳатдан сайт колумнистлари миллий журналистикада камайиб кетган иқтисодий шарҳловчилар вазифасини бажариб, иқтисодий шарҳни қайта тиклашга катта ҳисса қўшаётгани қувонарли, албатта.

Муаллифлар фикрини давом эттирар экан, тўқимачилик саноатимиздаги асл ҳолатни ифодалайдиган навбатдаги далилларни келтиради: “Ишлаб чиқарилган калава-ипнинг 90 фоизи трикотаж ва фақат 10 фоиз қисмигина газлама тўқиш учун мос келади. Газлама тўқишга мўлжалланган иплар ишлаб чиқаришнинг технологик мураккаблиги туфайли Ўзбекистон бу соҳада муҳим иштирокчига айлана олмайди”. Шу каби муҳим фактлар таҳлил қилишда экспертларнинг босиқлиги, ортиқча ҳис-ҳаяжонга берилмасдан фикрларни тизимли баён этиб, рақам ва маълумотларни асослаб беришлари диққатга сазовор.

Шу билан бирга, мақолада айрим камчиликлар ҳам кўзга ташланади. Масалан, ички сарлавҳалар узун ҳамда жозибадор эмас. Баъзилари эса тугал маъно бермайди. Кичик сарлавҳалардан бири “Қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланишни ислоҳ қилиш орқали ҳал қилиниши зарур бўлган муаммолар” деб номланади. Ваҳоланки, уни қисқа ва жарангдор шаклда тақдим этиш мумкин эди. Ёки бўлмаса, матннинг баъзи жойларида академик тил устунлик қилади. Бу эса пахта-тўқимачилик соҳасидан узоқ бўлган кишиларда тушунмовчилик, кўшимча саволларни туғдириши мумкин. Шундай бўлса-да, у бошқа нашрларда кўтарилмаган аграсаноат тармоқларидаги тизимли муаммолар таҳлиliga бағишлагани билан қимматли.

Юртимизда олиб борилаётган очиклик сиёсати, сўз эркинлигини амалда таъминлашда қаратилган саъй-ҳаракатлар самараси ўлароқ, интернет нашрларида мана шундай тиш-тирноқли материаллар кўпаймоқда. Теша тегмаган мавзулар қаламга олинапти. “Сўз эркинлиги ҳаётимизга, сиёсатимизга ҳаёт бахш этади, одамлар ўртасидаги муносабатни эзгулаштиради, ҳокимиятга нисбатан ишонч уйғотади. Сўз эркинлиги жамиятни барқарорлаштиради, миллатнинг ақлий салоҳиятини ўстиради, иқтисодни

ривожлантиради ва натижада муқаррар фаровонликка олиб боради” (2, 194).

“Gazeta.uz” сайтыда таҳлилий чиқишлар билан бирга, тўқимачилик саноатига доир муҳим хабарлар ҳам мунтазам равишда бериб борилади. Янгиликлар тасмасидаги тўқимачилик соҳасига оид хабарлар, аввало, жарангдор сарлавахаси билан эътиборни тортади. Мана шулардан бири: “Пахта хомашёси нархларидаги фарқ туфайли кластерлар 6 трлн сўм зарар кўрди” (2023 йил 18 август, <https://www.gazeta.uz/uz/2023/08/18/textile/>). Аслида, бу эксклюзив хабар эмас. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан тадбиркорлар билан бўлиб ўтган очик мулоқотда очикланган маълумотлардан бири, холос. Мазкур тадбир тафсилотлари деярли барча интернет нашрларда тезкорлик билан ёритиб борилди. Бу жараёнда “Gazeta.uz”нинг муваффақияти яхши сарлавҳа қўйиш ҳамда маълумотларни расмий тилдан сўзлашув тилига “ўгириб” узатгани бўлди. Амалий журналистикада сочи оқарган устозлар айтганидек, “Яхши сарлавҳа — ярим муваффақият”, демакдир.

Сарлавҳалар қисқа, содда ва тушунарли бўлиши керак. Бироқ интернет журналистикасида нисбатан узунроқ сарлавҳалардан фойдаланилади.

Тадқиқотчилар буни сарлавҳа ва тагсарлавҳаларнинг қуйидаги функциялари билан изоҳлайдилар:

- ўқишга ундаш ва йўналтириш;
- ўқувчини тўхташга мажбур қилиш;
- мавзу ҳақида огоҳлантириш ва матнни идрок этишга тайёрлаш,;
- матнни қисмларга ажратиш, график жиҳатдан белгиланган жойда синдиришга ёрдам бериш;
- матн мазмунини очиб, унинг англашга ёрдам бериш.(1, 14).

Босма нашрларда аксарият ҳолларда икки-учта сўздан иборат сарлавҳалар қўйилса, интернет журналистикасида бу борада чегара кўзга ташланмайди. “Матннинг сарлавҳасида хабарнинг моҳияти деярли очиб берилиши лозим. Яъни сарлавҳа «Ким нима қилди?» ёки «Нима содир бўлди?» деган саволга жавоб беради” (8).

Интернет нашрларида янгиликларни узатишда кўпинча икки қисмли сарлавҳалардан фойдаланилади. Биринчи қисмида матн мазмун-моҳиятини очиб беришга қаратилган сўзлар чиқарилса, иккинчи қисмида у кимга тегишли эканлиги ойдинлаштирилади. Таҳлил қилаётганимиз “Gazeta.uz” сайтыда ҳам шу усул қўлланилади. Мана бир мисол: “Ўзбекистонда пахта нархини эркин бозор белгилайди — кишлоқ хўжалиги вазири” (2023 йил 20 октябрь, <https://www.gazeta.uz/uz/2023/10/20/cotton/>). Ушбу хабарда жанр талабларидан келиб чиқиб, унинг лид қисмида сарлавҳага тўлиқ аниқлик киритилган. “Кишлоқ хўжалиги вазири Азиз Воитов Ўзбекистонда пахтанинг нархини бозор иқтисодиёти қонунларига мувофиқ харидорлар (пахта-тўқимачилик кластерлари) ва сотувчилар (фермерлар) белгилашини таъкидлаб, бу соҳада давлат томонидан нарх белгилаш амалиёти бекор қилинганини эслатди”.

Сайт муҳбири пахта-тўқимачилик соҳадаги энг долзарб бўлган нарх-наво масаласини кўтариб, бунга масъул вазирлик биринчи раҳбарининг муносабатини келтиради. Сўнг нарх-наво белгилашининг кечикиши ортидан келиб чиққан танг вазият шарҳланиб, якуний қисмида жамоатчилик фаолларининг ҳолат юзасидан қарашлари, фикр-мулоҳазлари келтирилган. Жумладан, ижтимоий тармоқдан мана бу иқтибос олинган: Октябрнинг 10-санасига келиб ҳам, фермерлар пахта нархини билишолмай ҳалак. Кишлоқ хўжалиги вазири эса коптокни у ёқдан бу ёққа тепиш билан овора, ҳар куни турли гап-сўзлар, тахминлар тарқаяпти, мишмишлар болалаяпти, фермерлар ижтимоий тармоқларда пахта нархи бўйича ҳар куни савол беришмоқда. Вазирлик эса раддия беришдан нарига ўта олмаяпти. Пахтакор, фермер қийналгани қоляпти, холос. Фермерлар кенгаши ҳам мум тишлаб олган”.

«Тўнтарилган эҳром» формуласига кўра, хабар матннинг ҳар бир қисми жанр олдида қўйилган алоҳида саволларга тўлиқ жавоб беради.

Умуман олганда, “Gazeta.uz” сайти энг сифатли ва фойдали контент яраётган интернет нашри ҳисобланади. 16 йиллик фаолияти давомида «Янгиликларимиз халқ учун» шиорига содиқ қолиб, халқ кутган масалаларни олиб чиқаяпти. Жамоанинг бу борадаги заҳматли меҳнати юксак эътироф этилиб, 2009 ва 2012 йилларда UZ миллий домени интернет-фестивалида «Энг яхши ОАВ сайти» номинациясида 1-ўринга лойиқ кўрилган.

Яна бир эътиборли жиҳати, ушбу сайт иқтисодий мавзудаги материаллар тайёрлаш жараёнида факт ва рақамлар устида яхши ишлаши сезилиб туради. Бу профессионаликдан далолатдир.

Хулоса. Интернет нашрларида пахта-тўқимачилик саноати масалаларининг ёритилишига қаратилган тадқиқотимизнинг дастлабки натижаларидан келиб чиққан ҳолда, қуйидаги таклифларни берамиз:

Биринчидан, одатий хабарлардан воз кечиб, эксклюзив янгиликлар бериш йўлидан бориш керак.

Бугун аудитория учун ҳисобот руҳидаги “корпоратив ахборот”лар қизиқ эмас. Уларни тўқимачилик корхоналарининг ишлаб чиқариш жараёни эмас, балки ўша ишлаб чиқариш жараёни билан боғлиқ муммолар ва уларнинг ечими, амалиётга татбиқ қилинаётган янгилик ва ихтиролар ҳамда уларнинг самаралари муҳим.

Иккинчидан, интернетнинг мультимедиавий имкониятларидан кенгроқ фойдаланиш зарур. Бирок айрим сайтларда янгиликларни узатишда эски ва рамзий фотоларни фойдаланиш ҳолатлари учрайди. Ваҳоланки, материалларни тақдим этишда матн билан чекланиб қолмасдан, сурат, аудио, видео, инфографикалар ўз ўрнида ишлатилса, унинг таъсир кучи янада ортади.

Учинчидан, интернет нашрлар ўз манбасига таяниб, ахборот ва материаллар тарқатишга ўтиши лозим. Кейинги пайтда бир нечта манбаларга ҳавола қилинган материаллар бериш ҳоллари кўп учрамоқда. Оқибатда мавзулар ранг-баранглиги, фикрлар хилма-хиллиги сезилмаяпти.

Тўртинчидан, таҳлилий жанрга хос материалларни кўпайтириш вақти келди. Аммо аксарият сайтларда ахборот жанридаги хабарлар узатиш билан кифояланмоқда. Кутилмаган мавзуларга қўл урилмаяпти.

Бешинчидан, матн устида кўпроқ ишлаш зарур. Айрим материалларда услубий, грамматик ва имловий хатоларга йўл қўйилмоқда. Айниқса, бошқа тиллардан ўгирилган мақолалар матнида ғализликлар кўпки, бу ўқувчининг чалғитиши, нотўғри хулоса қилишга олиб келиши мумкин.

Олтинчидан, иқтисодий саводхонликни ошириш зарур. Баъзан иқтисодий термин ва ибораларнинг нотўғри қўлланилиши кўпол хатоларни келтириб чиқаряпти. Шунингдек, вазирлик ва идоралар номларини нотўғри ишлатиш, факт ва рақамларни текширмасдан узатиш ҳоллари, афсуски, учрамоқда.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, пахта-тўқимачилик саноати масалаларини ёритишда интернет нашрлари, хусусан, биз кўриб чиққан сайтларнинг ҳар бирини афзал жиҳатлари, ўзига хослиги, ютуқлари билан бирга, айрим камчиликлари ҳам бор. Уларни ҳисобга олган ҳолда, журналистиканинг ахборот, таҳлилий ва бадиий-публицистик жанрлари имкониятларидан ўз ўрнида фойдаланиш, материал тайёрлашда тасвир мавзуси, мақсадли вазифа ва маълумотлар билан ишлаш усуллари такомиллаштиришни таклиф этишимиз. Зеро, оммавий ахборот воситалари фаолиятининг самараси бирор ўтқир масалани олиб чиқиш билангина эмас, балки кўтарилган масала юзасидан ижтимоий ҳаётда жамоатчилик фикрини уйғотиши, унинг ечими бўйича асосли хулосалар чиқаришга туртки бўлиши билан ўлчанади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

Амзин. А. Интернет-журналистика. Как писать хорошие тексты, привлечь аудиторию и зарабатывать на этом. — Москва: «Издательство АСТ», 2020 г, 28 с.

Бахриев К. Сўз эркинлиги ҳақида сўз. – Тошкент: Олтин мерос пресс, 2023. – 194 б.

Засурский И. Масс-медиа второй республики. М. 1999. 270 с.

Качкаева А. Г., Шомова С.А. Мультимедийная журналистика. — Москва, 2017. — 416 с.

Қосимова Н., Тошпўлатова Н., Шофайзиева Н., Муратова Н. Босма ОАВ таҳририятлари учун ўқув қўлланма. — Тошкент, 2008 й, 77 б.

Қосимова Н. Интернет журналистиканинг технологик асослари. — Тошкент, 2008 й, 177 б.

Ганюшин А. А. Цифровая фотография в новых медиа.//Информационный гуманитарный портал «Знание. Понимание. Умение». 2013. №5. URL: <http://www.zpu-journal.ru/e-zpu/2013/5/>

Муҳайё Саидова. Янгиликлар журналистикаси: хабар қандай ёзилади?//xabar.uz сайти, 06.04.2022 й. <https://xabar.uz/jamiyat/yangiliklar-jurnalistikasi-xabar-qanday-yoziladi>

«Ўзбекистонда тўқимачилик кластери учун техник-иқтисодий асослаш» ҳисоботи// “Price Waterhouse Coopers Central Asia” ва “Caucus B.V. (PwC)” томонидан “Ajlan & Bros.” учун тайёрланган, 2019 йил. <https://mashable.com/advertise>.



## КОЛЕБАНИЯ СПИРАЛИ АРХИМЕДА С ПЕРПЕНДИКУЛЯРНЫМИ ПЛОСКОСТИ КРИВОЙ СМЕЩЕНИЯМИ

Рузиев Т.Р

доцент Бухарского государственного педагогического института

*Аннотация. В работе рассматриваются колебания спирали Архимеда. Дифференциальные уравнения движения интегрируются асимптотическим методом. Для этого основные дифференциальные уравнения в частных производных сводятся к обыкновенным дифференциальным уравнениям с переменными коэффициентами. Вязкоупругие свойства материалов учитываются с помощью комплексных модулей упругости. Приводится построение асимптотических разложений для собственных функций и собственных частот, соответствующих обоим видам колебаний многократно закрученной плоской спиральной пружины с закрепленными концами. Разработана методика получения асимптотических разрешающих уравнений на большом интервале изменения переменной  $\varphi$  и соответствующих граничных условий. Решение получено в виде рядов.*

*Ключевые слова: спирали Архимеда, обыкновенные дифференциальные уравнения, вязкоупругие свойства, смещения*

## VIBRATIONS OF ARCHIMEDEAN SPIRALS WITH DISPLACEMENTS PERPENDICULAR TO THE PLANE OF THE CURVE

Ruziyev T.R

Associate professor of Bukhara State Pedagogical Institute

*Abstract. The work examines vibrations of the Archimedes spiral. Differential equations of motion are integrated using the asymptotic method. To do this, the basic partial differential equations are reduced to ordinary differential equations with variable coefficients. The viscoelastic properties of materials are taken into account using complex elastic moduli. The construction of asymptotic expansions for eigenfunctions and eigenfrequencies corresponding to both types of oscillations of a repeatedly twisted flat spiral spring with fixed ends is presented. A technique has been developed for obtaining asymptotic resolving equations over a large range of changes in the variable  $\varphi$  and the corresponding boundary conditions. The solution is obtained in the form of series.*

*Keywords: Archimedes' spirals, ordinary differential equations, viscoelastic properties, displacements*

1. Введение. Спирали Архимеда широко применяются в машиностроении. Этот вид спиралей хорошо описывает манометрических измерительных устройств [1,2,3]. Кроме того, устройство можно устанавливать на уже смонтированной измерительной системе обычной конструкции. Разработанная в [4] эффективная модель - демпфирующее устройство для манометрических приборов, относится к измерительной технике и предназначена для защиты манометра от пульсации давления жидкости при измерениях среднего статического давления пульсирующих потоков жидкости. Сущность полезной модели заключается в том, что клапаны выполнены нормально закрытыми в виде подпружиненных относительно друг друга шариков, а на поверхностях клапанов и седел выполнены дроссельные канавки, обеспечивающие проход и дросселированные потока жидкости по поверхности их взаимного контакта [5,6,7]. Выше приведенные литературы охватывают широкий спектр моделей манометров произвольной конфигурации.

В настоящем времени в технике широко используются комбинированные спирали [8,9]. Таким образом, исследование динамики спиралей, а также исследование комбинированных спиралей для подачи жидкости являются актуальной задачей.

В данной работе рассмотрен случай колебаний спирали со смещениями, перпендикулярной плоскости кривой.

### 2. Методы

#### 2.1. Постановка задачи и методы решения

Уравнения движения для спирали Архимеда имеют вид:

Уравнения движения для спирали Архимеда имеют вид

$$\begin{aligned} & \frac{d^6 \omega}{d\varphi^6} + 9\mu r_1 \frac{d^5 \omega}{d\varphi^5} + [2 + \mu^2(10r_2 + 19r_1^2)] \frac{d^4 \omega}{d\varphi^4} + \\ & + [12\mu r_1 + \mu^2(5r_2 + 26r_1 r_2 + 8r_1^3)] \frac{d^3 \omega}{d\varphi^3} + \\ & + [1 + \mu^2(11r_2 + 20r_1^2) + \mu^4(r_4 + 6r_1 r_2 + 4r_2^2 + 7r_1^2 r_2)] \frac{d^2 \omega}{d\varphi^2} + \\ & + [3\mu r_1 + \mu^2(5r_2 + 26r_1 r_2 + 8r_1^3)] \frac{d\omega}{d\varphi} + \\ & + [\mu^2(r_2 + r_1^2) + \mu^4(r_4 + 6r_1 r_2 + 4r_2^2 + 7r_1^2 r_2)] \omega = \\ & = -\frac{\rho^2 \lambda}{q_0^3} \left( \omega - \frac{d^2 \omega}{d\varphi^2} + \mu r_1 \frac{d\omega}{d\varphi} \right), \quad \lambda = \frac{\rho \omega \mu^4}{\mu^4 \pi} \quad (1) \end{aligned}$$

Общее решение уравнений (1) имеет вид

$$\begin{aligned} Y(\varphi) &= \sum_{i=1}^2 C_i \sum_{k=0}^{\infty} \mu^k Y_{ik}(x) + \sum_{i=3}^6 C_i \sum_{k=0}^{\infty} \mu^k (\bar{Y}_{ik}(x) \cos \varphi + \bar{Y}_{ik}(z) \sin \varphi), \\ v(\varphi) &= \sum_{i=1}^2 C_i \sum_{k=0}^{\infty} \mu^k v_{ik}(z) + \sum_{i=3}^6 C_i \sum_{k=0}^{\infty} \mu^k (\bar{v}_{ik}(z) \cos \varphi + \bar{v}_{ik}(z) \sin \varphi). \quad (2) \end{aligned}$$

Здесь  $v_{i0} = Y_i(z)$ ,  $i = 1, 2$ , где  $Y_i$  - линейно-независимые решения уравнения

$$c \frac{d^2 v_0}{dx^2} + 3c_1 \frac{dv_0}{dx} + \frac{\lambda_0}{q_0} v_0 = 0, \quad (3)$$

а функции  $v_{ik}(z)$ ,  $k > 0$ , последовательно определяются из неоднородных уравнений, левые части которых связывают с левой частью уравнения (3), а правые части зависят от уже определенных функций  $v_{sj}(x)$  с индексом  $j < k$ .

Функции  $Y_{ik}(x)$  равны линейным комбинациям функций  $v_{ij}(x)$  с индексами  $j < k - 1$ , а  $Y_{i0}(x) = Y_{i1}(x) = 0$ .

Функции  $\bar{v}_{ik}(x)$ ,  $\bar{Y}_{ik}$  удовлетворяют уравнениям

$$\begin{aligned} \frac{4AC}{A+C} \frac{d^2 \bar{v}_k}{dx^2} + \frac{12AC}{A+C} r_1 \frac{d\bar{v}_k}{dx} + \frac{4AC}{A+C} (r_2 + r_1^2) \bar{v}_k + \frac{\lambda_0}{q_0} \bar{v}_k &= f_{1k}(\bar{v}_j + \bar{v}_j), \quad (4) \\ \bar{Y}_{ik} &= -\bar{v}_k + f_{2k}(\bar{v}_j + \bar{v}_j), \end{aligned}$$

причем при  $k = 0$  правые части обращаются в нуль, а при  $k > 0$  - зависят от функций с индексами  $j < k$ . Уравнения для определения  $\bar{v}_k(x)$ ,  $\bar{Y}_k(z)$ , получаются из (4) заменой  $\bar{v}_j$  на  $\bar{v}_j$ ,  $\bar{v}_j$  на  $-\bar{v}_j$ ,  $j = 0, 1, 2, \dots, k$ , а также  $\bar{Y}_k$  на  $\bar{Y}_k$ . Из этих уравнений находим

$$\begin{aligned} \bar{v}_{20} &= -\bar{Y}_{20} = X_1(z), & \bar{v}_{21} &= \bar{Y}_{20} = 0; \\ \bar{v}_{40} &= -\bar{Y}_{40} = X_2(z), & \bar{v}_{41} &= \bar{Y}_{40} = 0; \\ \bar{v}_{50} &= \bar{Y}_{50} = 0, & \bar{v}_{51} &= -\bar{Y}_{50} = X_1(z); \\ \bar{v}_{60} &= \bar{Y}_{60} = 0, & \bar{v}_{61} &= -\bar{Y}_{60} = X_2(z); \end{aligned}$$

где  $X_1, X_2$  - линейно-независимые решения однородных уравнений (4). Отметим сходство уравнения (3), а также (4).

Определитель  $\Delta$  системы уравнений (1) для определения постоянных

$C_i$ ,  $i = 1, 2, \dots, 6$ , в решении (2) при  $\mu = 0$  раскладывается на произведение  $\Delta = \Delta_1 \Delta_2$ , где

$$\begin{aligned} \Delta_1 &= Y_1(0, \lambda_0) Y_2(1, \lambda_0) - Y_2(0, \lambda_0) Y_1(1, \lambda_0) \\ \Delta_2 &= X_2(0, \lambda_0) X_2(1, \lambda_0) - X_2(0, \lambda_0) X_1(1, \lambda_0) \quad (5) \end{aligned}$$

Собственные функции, соответствующие корню уравнения  $\Delta_1 = 0$ , имеют в нем приближенные вид

$$v_0(x) = \psi(x) = Y_1(0, \lambda_0) Y_2(z) - Y_2(0, \lambda_0) Y_1(z), \quad Y_0(z) = 0, \quad (6)$$

а для корней уравнения  $\Delta=0$  нулевым приближением ищутся семейство собственных функций

$$V_0(\varphi) = -\Gamma_0(\varphi) = (C_{01}\cos\varphi + C_{02}\sin\varphi)\theta(x),$$

$$\theta(x) = X_1(0)X_2(x) - X_2(0)X_1(x). \quad (7)$$

Из старших приближений находим, что аналогом к собственной функции (6) имеет порядок  $\mu$ , а к соответствующему ему собственному числу - порядок  $\mu^2$ . Корни уравнения  $\Delta_2 = 0$ , так же как и в предыдущем случае, соответствуют двум различным собственным числам, различающимся на величину порядка  $\mu$ , и две собственные функции, которые с точностью до величины порядка  $\mu$  имеют вид (7), однако постоянные  $\bar{C}_{01}$  и  $\bar{C}_{02}$  уже связаны векторным соотношением.

Уравнение спирали Архимеда в полярной системе координат имеет вид

$$R(\alpha) = \frac{R_2 - R_1}{2\pi k} \alpha, \quad \alpha_1 \leq \alpha \leq \alpha_2, \quad \alpha_1 = \frac{2\pi k R_1}{R_2 - R_1}, \quad \alpha_2 = \frac{2\pi k R_2}{R_2 - R_1} \quad (8)$$

где  $R_1$  и  $R_2$  - расстояния концов спирали от начала полярной системы координат,  $k$  - число витков (не обязательно целое). Для того чтобы можно было применить возможный выше асимптотический метод, считаем, что  $k$  велико по сравнению с единицей, а также  $R_1 \neq 0$ . Находим кривизну

$$q_0(\alpha) = \frac{2\pi k}{R_2 - R_1} \cdot \frac{\alpha^2 + 2}{(\alpha^2 + 2)^{3/2}} \quad (9)$$

Теперь находим связь между полярным углом  $\alpha$  углом поворота касательной  $\varphi$ :

$$\varphi = \alpha - \alpha_1 + \frac{1}{\alpha_1} - \frac{1}{\alpha} + O(\mu^2) \quad (10)$$

С учетом (8), (9) и (10) получаем

$$q_0(z) = \frac{1}{(R_2 - R_1)x + R_1} \cdot \mu^2 \frac{(R_2 - R_1)^2 + 2}{R_1 R_2} \times$$

$$\times \frac{(x^2 - 2x)(R_2 - R_1)^2 + R_1 R_2}{2[(R_2 - R_1)x + R_1]^3} + O(\mu^4) \quad (13)$$

Уравнения (1) интегрируются в функции Бесселя (необходимые сведения о функциях Бесселя почерпнуть из [10, 12-15]):

$$x_{1,2} = [(R_2 - R_1)x + R_1]^2 J_{\pm \frac{1}{2}} \left\{ \frac{\sqrt{\lambda_0} [(R_2 - R_1)x + R_1]^2}{3(R_2 - R_1)} \right\} \quad (14)$$

$$y_{1,2} = [(R_2 - R_1)x + R_1]^2 J_{\pm \frac{3}{2}} \left\{ \frac{\sqrt{\lambda_0} [(R_2 - R_1)x + R_1]^2}{3\sqrt{2}(R_2 - R_1)} \right\} \quad (15)$$

С учетом частоты собственных (крутильных) колебаний, соответствующих корням уравнения  $\Delta_1 = 0$ , такими

$$\omega_k = \frac{3(R_2 - R_1)}{2\pi k R_1^2} \sqrt{\frac{B}{\rho S}} b_k + O(\mu^3) \quad (16)$$

где  $b_k$  -  $k$ -й корень уравнения

$$J_{\frac{1}{2}} = \left[ \left( \frac{R_2}{R_1} \right)^2 b \right] J_{\frac{1}{2}}(b) - J_{\frac{1}{2}}(b) \left[ \left( \frac{R_2}{R_1} \right)^2 b \right] = 0. \quad (17)$$

Пары близких частот собственных колебаний, соответствующих корням уравнения  $\Delta_2 = 0$ , равны

$$\omega_k^{(1,2)} = \frac{3\sqrt{2}(R_2 - R_1)d_k}{2\pi k R_1^2} \sqrt{\frac{B}{\rho S}} \times$$

$$\times \left\{ 1 \pm \frac{R_1^2 R_2 \Phi(R_2) \sqrt{\alpha_1^2 \cos^2 2\pi k + \alpha_2^2 \sin^2 2\pi k}}{2\pi k d_k [R_2^6 \Phi^2(R_2) - R_1^6 \Phi^2(R_1)]} \right\} + O(\mu^3). \quad (18)$$

$k$ -ый корень уравнения

$$J_{\frac{3}{2}}(d) J_{\frac{1}{2}} = \left[ \left( \frac{R_2}{R_1} \right)^2 d \right] J_{\frac{3}{2}} \left[ \left( \frac{R_2}{R_1} \right)^2 d \right] J_{\frac{1}{2}}(d) = 0. \quad (19)$$

если

$$a_i = \frac{3(R_2 - R_1)d_k}{R_1^3} \left[ R_2^4 \Phi(R_2) + (-1)^i \frac{J_{\frac{3}{2}} \left[ \left( \frac{R_2}{R_1} \right)^2 d_k \right]}{J_{\frac{1}{2}} d_k} R_1^2 R_2^2 \Phi(R_1) \right], i = 1, 2,$$

где

$$\Phi(R) = J_{\frac{3}{2}}(d_k) J_{\frac{1}{2}} \left[ \left( \frac{R_2}{R_1} \right)^2 d_k \right] - J_{\frac{1}{2}}(d_k) J_{\frac{3}{2}} \left[ \left( \frac{R_2}{R_1} \right)^2 d_k \right]. \quad (20)$$

Ввиду сложности уравнений (3), а также (4) частоты собственных колебаний, соответствующих собственным функциям (6) и (7), со сдвигами, перпендикулярными плоскости витков, таковы:

$$\omega_k = \frac{3(R_2 - R_1)d_k}{2\pi R_1^3} \sqrt{\frac{C}{\rho S} + O(\mu^2)}, \quad (21)$$

$$\omega_k^{(1,2)} = \frac{6(R_2 - R_1)b_k}{2\pi R_1^3} \sqrt{\frac{AC}{(A+C)\rho S} + O(\mu^2)}, \quad (22)$$

где  $b_k$  и  $d_k$  – корни уравнений (17) и (19).

### 3. Результаты и анализ

Поскольку порядок определителя частотного уравнения равен  $2n$ , то уравнение будет иметь  $2n$  корней, которые являются частотами собственных колебаний [16-18] спиральной пружины. Те значения  $k$ , при которых определитель равен нулю, являются круговыми частотами собственных колебаний [3].

Результаты численного эксперимента показали, что с увеличением количества базисных функций  $\mu_x$  и  $\mu_y$  частота колебаний стремится к некоторому предельному значению. Согласно расчетам (рис. 1), для получения удивительных результатов по первой собственной частоте [19-20] колебаний достаточно вычислить по пять базисных функций




Рис.1. Изменение частоты от геометрических параметров поперечного сечения пружины ( $R=0.0380$ ,  $r=0.0070$ ,  $h=0.0010$ м,  $\gamma=240^\circ$ )

Из рис. 1 видно, что с увеличением параметра  $a/b$  первая частота снижается экспоненциальным законом.

Заключение. Частоты (21) и (22) совпадают с полученными М. В. Хвингия при рассмотрении продольных колебаний конических пружин с постоянным шагом [11], ибо он пренебрегал углом подъема витков. То обстоятельство, что Хвингия заменял пружину эквивалентным брусом, не дало ему возможности получить частоты собственных колебаний.

## ЛИТЕРАТУРА

Safarov I. I., Sh T. M. X. A. M., Ruziyev T. R. Application Of The Method Of Finite Element For Investigation Of The Dynamic Stress-deformed Condition Of Pipeline Sides When Exposed External Loads //Case Studies Journal ISSN (2305-509X)-Volume. – 2017. – T. 6. – C. 38-45.

Kuldashov N. et al. Natural waves in a spatial viscoelastic cylinder with a radial crack //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 417. – C. 06014.

Teshaev, M., Safarov, I., Boltaev, Z., Sobirova, R. N., & Ruziev, T. (2022, November). Propagation of natural waves in extended viscoelastic plates of variable thickness. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2647, No. 1). AIP Publishing.

Safarov, I. I., & Boltaev, Z. I. (2018). Methods for Assessing the Seismic Resistance of Subterranean Hydro Structures Under the Influence of Seismic Waves. American Journal of Physics and Applications, 6(2), 51-62.

Safarov, I. I., Teshaev, M. X., Boltayev, Z. I., Nuriddinov, B. Z., & Ruziyev, T. R. (2022, December). Stationary deformation of cylindrical shells with viscoelastic filler. In Journal of Physics: Conference Series (Vol. 2373, No. 2, p. 022038). IOP Publishing.

Boltayev, Z., Safarov, I., Teshaev, M., Sharipova, D., & Ruziyev, T. (2022, November). On the action of normal moving load on a viscoelastic three-layer cylindrical shell. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2647, No. 1). AIP Publishing.

Ishmamatov, M. R., Avezov, A. X., Ruziyev, T. R., Boltayev, Z. I., & Kulmuratov, N. R. (2021, May). Propagation of natural waves on a multilayer viscoelastic cylindrical body containing the surface of a weakened mechanical contact. In Journal of Physics: Conference Series (Vol. 1921, No. 1, p. 012127). IOP Publishing.

Safarov, I. I., Marasulov, A., Akhmedov, M. S., & Ruziyev, T. R. (2017). Vibrational Processes In Curvilinear Rods Interacting With Viscous Liquid. Case Studies Journal, 6(5), 46-59.

Ibrahimovich, S. I., Sharipovich, A. M., Razzoqovich, R. T., & Aslonovich, B. S. Influence of Elastic Waves on Parallel Cylindrical Shells with Perfect Fluid.

Boltaev, Z. Safarov I and Razokov T 2020 Natural vibrations of spherical inhomogeneity in a viscoelastic medium Int. J Sci Technol Res, 3674-3680.

Kuldashev, N. U., Sh, A. M., Ruziyev, T. R., & Umarov, A. O. (2018). Bending Vibrations Polymeric Pipes of Variable Section with Interference inside the Liquid. World Wide Journal of Multidisciplinary Research and Development. WWJMRD, (4 (2)), 72.

Sh, A. M., Ruziyev, T. R., Umarov, A. O., & Atoyev, A. B. (2018). Spatial Oscillations Varied Viscoelastic Pipeline under AC Varied Internal Pressure. World Wide Journal of Multidisciplinary Research and Development. WWJMRD, (4), 2.

Safarov, I. I., Teshaev, M. K., Boltaev, Z. I., Ruziev, T. R., & Jalolov, F. B. (2024, March). Stationary non-axisymmetric deformation of a three-layer viscoelastic cylindrical shell under normal loading. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3045, No. 1). AIP Publishing.

Roziyev, T. (2022). ONKOLOGIK DAVOLASHDA GAMMA NURLARINING O'RNI VA AHAMIYATI. Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali, 2(2).

Болтаев, З. И., Собиров, С. Ж., Рузиев, Т. Р., & Рузиева, М. А. (2023). РАСПРОСТРАНЕНИЕ СДВИГОВЫХ ВОЛН В ВЯЗКОУПРУГИХ ДВУХСЛОЙНЫХ СРЕДАХ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 332-339.

## МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ МЕДИА И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Рузиева Саодат Хасановна

Преподаватель Бухарского государственного педагогического института.

*Аннотация: В этой статье представлен обзор многогранного мира мультимедийных инструментов и представлена информация об их специфических особенностях. В сегодняшней современной системе образования раскрыта основная роль и глубокое значение мультимедийных средств в обучении. Рассмотрены различные мультимедийные инструменты в образовании, выяснены их динамические функциональные возможности и возможности трансформации. Различные мультимедийные инструменты, такие как интерактивные доски, образовательные программы, платформы для видеоконференций и приложения виртуальной реальности, были рассмотрены и оценены на предмет их использования и эффективности в образовательной среде. Также в данной статье представлен подробный анализ конкретных преимуществ и недостатков использования мультимедийных инструментов, изучено их комплексное влияние на социальные нормы и культурный ландшафт и приведены результаты.*

*Ключевые слова: мультимедийные инструменты, технологии, образование, развлечения, бизнес, преимущества, недостатки, влияние, культура.*

## MULTIMEDIA MEDIA AND INNOVATIVE METHODS OF USING THEM

Ruzieva Saodat Hasanovna

BSPI, Foreign languages department teacher.

*Abstract: This article provides an overview of the multifaceted world of multimedia tools and presents information on their specific features. In today's modern education system, the primary role and deep significance of multimedia tools in teaching are revealed. Various multimedia tools in education are considered, their dynamic functionality and transformative potential are clarified. Multimedia tools such as interactive whiteboards, educational programs, video conferencing platforms, and virtual reality applications are examined and evaluated for their use and effectiveness in the educational environment. The article also presents a detailed analysis of the specific advantages and disadvantages of using multimedia tools, studies their comprehensive impact on social norms and the cultural landscape, and provides results.*

*Keywords: multimedia tools, technology, education, entertainment, business, advantages, disadvantages, impact, culture.*

## MULTIMEDIA VOSITALARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING INNOVATSION USULLARI

Ro'ziyeva Saodat Hasanovna

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

*Annotatsiya: Ushbu maqolada keng qamrovli multimedia vositalarining ko'p qirrali dunyosiga bir nazar tashlandi hamda vositalarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida multimedia vositalarining o'qitishdagi asosiy roli va chuqur ahamiyatini ochib berildi. Ta'limda turli xil multimedia vositalari ko'rib chiqilib, ularning dinamik funktsionalligi va transformatsion imkoniyatlariga oydinlik kiritildi. Interfaol doskalar, o'quv dasturlari, videokonferensaloqa platformalari va virtual reallik ilovalari kabi turli multimedia vositalari ko'rib chiqilib, ularning ta'lim muhitida qo'llanilishi va samaradorligi baholandi. Shuningdek, ushbu maqolada multimedia vositalaridan foydalanishning o'ziga xos bo'lgan afzallik va kamchiliklarining nozik tahlili taqdim etildi va ularning ijtimoiy normalar va madaniy landshaftlariga keng qamrovli ta'sirini o'rganilib, natijalar berildi.*

*Kalit so'zlar: multimedia vositalari, texnologiya, ta'lim, tarbiya, biznes, afzalliklar, kamchiliklar, ta'sir, dinamika, funktsionallik, transformatsiya, madaniyat.*

Мультимедийные инструменты стали неотъемлемой частью современного общества, играя ключевую роль в различных аспектах жизни людей. Они обеспечивают возможность создания, обработки, и распространения разнообразных форм информации с использованием различных средств, таких как текст, звук, изображения, и видео. В данной статье рассматривается разнообразие мультимедийных инструментов, их применение в различных сферах деятельности, а также их влияние на общество и

культуру.

Типы мультимедийных инструментов:

Существует множество различных типов мультимедийных инструментов, каждый из которых предназначен для определенных целей и задач. Среди них можно выделить следующие:

1. Графические редакторы: такие программы, как Adobe Photoshop и GIMP, предназначены для создания и редактирования изображений. Графические редакторы играют ключевую роль в создании мультимедийного контента, будь то дизайн веб-сайтов, рекламных материалов, или искусства. Их функциональность и универсальность делают их необходимым инструментом для широкого круга пользователей, от профессиональных дизайнеров до обычных пользователей, желающих создавать красивые и выразительные графические работы.

2. Видеоредакторы: программы, такие как Adobe Premiere Pro и Final Cut Pro, позволяют создавать и редактировать видеоконтент. Видеоредакторы играют важную роль в производстве мультимедийного контента, будь то создание видео для социальных сетей, ютуб-каналов, корпоративных презентаций или кинематографических фильмов. Их функциональность и удобство использования делают их необходимым инструментом для широкого круга пользователей, от начинающих видеоблогеров до профессиональных кинорежиссеров.

3. Аудиоредакторы: такие инструменты, как Audacity и Adobe Audition, используются для записи и обработки звукового материала. Аудиоредакторы играют важную роль в создании мультимедийного контента, будь то музыкальные композиции, подкасты, звуковые дорожки для видео или звуковые эффекты для игр и фильмов. Их функциональность и удобство использования делают их необходимым инструментом для широкого круга пользователей, от профессиональных звукорежиссеров до обычных пользователей, желающих создавать качественный звуковой контент.

4. Презентационные инструменты: например, Microsoft PowerPoint и Prezi, предназначены для создания и демонстрации презентаций. Презентационные инструменты широко используются в различных сферах деятельности, таких как бизнес, образование, научные исследования, маркетинг и другие. Они помогают представлять информацию и идеи более наглядно и убедительно, делая процесс коммуникации более эффективным и интересным для аудитории.

5. Анимационные инструменты: программы, такие как Adobe Animate и Blender, используются для создания анимированного контента. Анимационные инструменты играют важную роль в создании мультимедийного контента, внося вклад в различные сферы деятельности, включая киноиндустрию, рекламу, игровую индустрию, образование и многое другое. Их функциональность и удобство использования делают их необходимым инструментом для аниматоров, дизайнеров и всех, кто хочет создавать анимированный контент.

Применение мультимедийных инструментов:

Мультимедийные инструменты нашли применение во многих сферах деятельности, включая:

1. Образование: они используются для создания интерактивных учебных материалов, онлайн курсов, и виртуальных лекций, что улучшает процесс обучения и делает его более доступным и интересным для студентов. Применение мультимедийных инструментов в образовании играет ключевую роль в улучшении процесса обучения и стимулировании учебного процесса.



1-схема. Преимущества мультимедийных инструментов в обучении.

Вот некоторые основные способы использования мультимедийных инструментов в образовании:

- Интерактивные учебные материалы: Мультимедийные инструменты позволяют создавать интерактивные учебные материалы, такие как онлайн курсы, электронные учебники, веб-сайты и мультимедийные презентации.

- Визуализация концепций: С помощью мультимедийных инструментов можно визуализировать сложные концепции и процессы, делая их более понятными и запоминающимися для студентов.

- Обучающие видеоролики: Создание обучающих видеороликов является эффективным способом представления информации студентам. Видеоролики могут содержать объяснения концепций, демонстрации процессов, интервью с экспертами и многое другое.

- адаптация к различным стилям обучения: Мультимедийные инструменты могут быть адаптированы к различным стилям обучения, включая визуальный, аудиальный и кинестетический.

2. Развлечения: мультимедийные инструменты используются в игровой индустрии для создания видеоигр, анимационных фильмов, и музыкальных клипов, что обеспечивает разнообразие и качество развлекательного контента. Применение мультимедийных инструментов в развлечениях играет огромную роль в создании разнообразного и захватывающего контента для аудитории. Вот некоторые основные способы использования мультимедийных инструментов в развлечениях:

- Видеоигры: Мультимедийные инструменты используются для создания интерактивных видеоигр, которые являются одним из самых популярных форм развлечений. Они включают в себя разработку графики, анимации, звукового дизайна и программирование игровой логики, создавая захватывающие и увлекательные игровые миры для игроков.

- Анимация и фильмы: Мультимедийные инструменты используются в создании анимационных фильмов, мультсериалов, короткометражек и рекламных роликов. Они позволяют создавать уникальные персонажи, захватывающие сюжеты и впечатляющие спецэффекты, делая фильмы и мультфильмы интересными и визуально привлекательными для зрителей.

- Музыка и аудиовизуальные произведения: Мультимедийные инструменты используются для создания музыкальных композиций, аудиовизуальных произведений и музыкальных клипов. Они включают в себя аудиоредакторы, видеоредакторы, программы для создания спецэффектов и множество других инструментов, которые позволяют музыкантам и артистам создавать уникальный и запоминающийся контент для своей аудитории.

- Виртуальная реальность и дополненная реальность: Мультимедийные инструменты используются для создания виртуальных и дополненных реальностей, которые позволяют пользователям погрузиться в удивительные виртуальные миры и взаимодействовать с ними в реальном времени, создавая уникальные и захватывающие развлечения.

- Социальные медиа и онлайн платформы: Мультимедийные инструменты широко используются на социальных медиа и онлайн платформах для создания разнообразного контента, такого как фотографии, видео, статьи, аудиозаписи и многое другое.

3. Бизнес: они применяются для создания рекламных материалов, корпоративных презентаций, и обучающих видеороликов, что помогает компаниям продвигать свои продукты и услуги, а также обучать персонал.

- Реклама и маркетинг: Мультимедийные инструменты используются для создания рекламных материалов, таких как видеоролики, баннеры, рекламные брошюры и презентации, которые помогают компаниям продвигать свои продукты и услуги, привлекать новых клиентов и увеличивать продажи.

- Корпоративные презентации: Мультимедийные инструменты используются для создания корпоративных презентаций, тренингов и семинаров, которые помогают обучать персонал, представлять новые проекты и идеи, а также делиться информацией с партнерами и клиентами.

- Видеоконференции и вебинары: Мультимедийные инструменты позволяют проводить видеоконференции и вебинары, что упрощает коммуникацию между сотрудниками, партнерами и клиентами, особенно в условиях удаленной работы и глобальных бизнес-операций.

- Обучающие материалы: Мультимедийные инструменты используются для создания обучающих материалов, онлайн курсов и обучающих видеороликов, которые помогают обучать и развивать персонал, повышать его квалификацию и эффективность работы.

- Виртуальные туры и демонстрации: Мультимедийные инструменты позволяют создавать виртуальные туры по офисам, заводам, магазинам и другим объектам компании, что помогает привлекать



клиентов и партнеров, а также улучшает опыт взаимодействия с брендом.

- Социальные медиа и онлайн контент: Мультимедийные инструменты широко используются на социальных медиа и онлайн платформах для создания разнообразного контента, такого как фотографии, видео, статьи и аудиозаписи, что помогает компаниям устанавливать контакт с аудиторией, расширять свой онлайн присутствие и улучшать вовлеченность клиентов.



1-рисунок. Мультимедийные технологии

Преимущества и недостатки использования мультимедийных инструментов:

Использование мультимедийных инструментов имеет как положительные, так и отрицательные стороны. К преимуществам можно отнести:

- Возможность создания более привлекательного и интерактивного контента.
- Улучшение качества обучения и развлечений.
- Увеличение эффективности коммуникации и распространения информации.

Однако существуют и некоторые недостатки:

- Необходимость специальных навыков и знаний для работы с мультимедийными инструментами.
- Возможность искажения или неправильного восприятия информации из-за недостаточной компетенции в области создания мультимедийного контента.

Влияние на общество и культуру

Мультимедийные инструменты оказывают значительное влияние на общество и культуру, внося изменения в способы общения, развлечения, и обучения. Они способствуют развитию новых форм искусства, создают новые возможности для самовыражения и творчества, и углубляют понимание различных аспектов жизни через доступ к широкому спектру информации и контента.

Вывод: Мультимедийные инструменты играют важную роль в современном мире, обеспечивая возможность создания, обработки, и распространения разнообразных форм информации и контента. Их использование имеет как положительные, так и отрицательные стороны, но в целом они являются неотъемлемой частью современной культуры и общества. Их роль становится все более значимой в условиях быстрого развития технологий и цифровизации различных сфер деятельности. Важно продолжать исследования в области мультимедийных инструментов, чтобы лучше понимать их влияние на нашу жизнь и эффективно использовать их потенциал для развития образования, развлечений, бизнеса, и других областей. В конечном счете, правильное использование мультимедийных инструментов может способствовать созданию более интересного, информативного и разнообразного контента, что в свою очередь будет способствовать развитию общества в целом.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ И ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА

Собирова Шарофат Умедуллаевна

доцент Бухарского государственного педагогического института

*Аннотация: В статье рассматриваются общее понятие о педагогической технологии и соотношение метода, методики, технологии. Обосновывается сущность и структура педагогической технологии. Приводятся критерии технологичности педагогической технологии.*

*Ключевые слова: педагогические технологии, образовательные технологии, метод, методика технология, технологии обучения,*

## PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES BASED ON THE EFFECTIVENESS OF MANAGEMENT AND ORGANISATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Sharofat Umedullaevna Sobirova

Associate Professor, Bukhara State Pedagogical Institute

*Abstract: The article deals with the general concept of pedagogical technology and the relationship between method and technology. The correlation of method, technique, technology. The essence and structure of pedagogical technology are substantiated. The criteria of technological efficiency of pedagogical technology are given.*

*Key words: pedagogical technologies, educational technologies, method, methodology technology, learning technologies,*

В основе технологий образования и воспитания лежит идея управляемости учебно-воспитательным процессом, проектирование и воспроизводимости обучающего и воспитательного циклов.

Педагогическая технология - последовательная, взаимосвязанная система действий педагога, направленных на решение педагогических задач, или планомерное и последовательное воплощение на практике заранее спроектированного педагогического процесса.

Такое представление о педагогической технологии предполагает:

- возможность разработки различных выверенных педагогических технологий специалистами, имеющими высокий уровень теоретической подготовки и практический опыт;
- возможность выбора педагогических технологий в соответствии с целями, возможностями и условиями взаимосвязанной деятельности учителя и учащихся.

В педагогике широко используются понятия «педагогическая технология» и «образовательная технология». Педагогической энциклопедии «педагогическая технология» трактуется как «совокупность средств и методов воспроизведения теоретически обоснованных процессов обучения и воспитания, позволяющих успешно реализовать поставленные образовательные цели». Педагогическая технология также рассматривается как:

совокупность психолого–педагогических установок, предполагающих набор и компоновку форм, методов, способов, приемов обучения, воспитательных средств (при этом её рассматривают как организационно-методический инструментарий педагогического процесса) (Б. Т. Лихачев);

содержательная техника реализации учебного процесса (И. П. Беспалько);

описание процесса достижения планируемых результатов обучения;

продуманная во всех деталях модель совместной педагогической деятельности по проектированию, организации и проведению учебного процесса с безусловным обеспечением комфортных условий для всех его участников (Т. И. Шамова и Т. М. Давыденко);

системный метод создания, применения и определения всего процесса преподавания и усвоения знаний с учетом технических и человеческих ресурсов и их взаимодействия с процессом оптимизации форм образования;

системная совокупность и порядок функционирования всех личностных, инструментальных и методологических средств, используемых для достижения педагогических целей (М. В. Кларин)

М.И.Махмутов таким образом раскрывает смысл понятия педагогической технологии: «Технологию можно представить как более или менее жестко запрограммированный (алгоритмизированный) процесс

взаимодействия преподавателя и учащихся, гарантирующий достижение поставленной цели»[1].

По сути, образовательная технология – это система организации учебного процесса, обеспечивающая и гарантирующая достижение цели. Педагогическая технология - это строго научное проектирование и точное воспроизведение гарантирующих успех педагогических действий.

Таким образом, понятие «образовательная технология» имеет более широкое значение, чем «педагогическая технология» (для педагогических процессов), так как включает, кроме педагогических, еще разнообразные социальные, социально-политические, управленческие, культурологические, психолого-педагогические, медико-педагогические, экономические и другие смежные аспекты образовательного процесса. Образовательные технологии могут быть рассмотрены на трех уровнях: макроуровень (парадигма, концепция, методология), мидиуровень (учебный план, учебный предмет, программа, структурирование), микроуровень (занятие).

Следует четко разделять понятия метода, методики и технологии. Их соотношение можно представить таким образом:

Метод, лежащий в основе той или иной технологии, раскрывает структурный аспект всех выполняемых действий

Методика реализуется в образовательной практике с помощью определенной системы методов и приемов.

Технология обладает определенной системой предписаний, гарантированно ведущих к цели, т.е. инструментальной для ее достижения

Анализ содержания понятия «педагогическая технология» позволяет сделать вывод о том, что все определения не исключают, а взаимно дополняют друг друга, отражая различные позиции авторов в раскрытии сущности этого понятия.

В педагогической технологии цели образования задаются в следующих аспектах:

1. Диагностично поставленная цель означает:

- дано точное описание качества, которое необходимо сформировать;
- разработаны способы для диагностики этого качества;
- возможно изменение этого качества в процессе формирования;
- предложены критерии оценки качества (например, опознание, различие, владение основными алгоритмами, продуктивные действия, творческое применение).

2. Конструктивно поставленная цель – это цель с учетом профессиональных возможностей педагога и возможностей обучаемых.

3. Основой образования являются не только знания, умения и навыки, а также личность, её становление и развитие.

При всем многообразии взглядов на сущность, признаки, содержательные характеристики, в педагогике сложилось представление о педагогической технологии как содержательном обобщении, представленном тремя аспектами:

1) научным (педагогическая технология – часть педагогической науки, изучающая и разрабатывающая цели, содержание и методы обучения и проектирующая педагогические процессы);

2) процессуально-описательным (алгоритм процесса, совокупность целей, содержания, методов и средств достижения планируемых результатов обучения);

3) процессуально-действенным (осуществление технологического процесса, функционирование всех личностных, инструментальных и методологических педагогических средств)[4].

Педагогическая технология - процесс управления обучением, включающий в себя следующую цепочку: цель, средства, гарантированный результат. Технологическая цепочка педагогических действий, операций, коммуникаций выстраивается строго в соответствии с целевыми установками, имеющими форму конкретного ожидаемого результата;

Элементы педагогической технологии должны быть

воспроизводимы любым учителем, гарантировать достижение планируемых результатов (государственного стандарта) всеми школьниками; органической частью педагогической технологии являются диагностические процедуры, содержащие критерии, показатели и инструментальный измерения результатов деятельности.

Педагогическая технология может рассматриваться как совокупность внешних и внутренних действий, направленных на последовательное осуществление принципов обучения в их объективной взаимосвязи, где всецело проявляется личность педагога (Сластенин).

В структуру педагогической технологии входят:

Содержательная часть обучения, которая включает цели обучения и содержание учебного материала;

Концептуальная основа;

Процессуальная часть – технологический процесс, включает организацию учебного процесса, методы и формы учебной деятельности учащихся, методы и формы работы учителя, деятельность учителя по управлению процессом усвоения материала, диагностика учебного процесса[1].

Педагогическая технология должна удовлетворять некоторым основным методологическим требованиям - критериям технологичности, к которым относятся концептуальность, системность, управляемость, эффективность, воспроизводимость.

- Концептуальность. Каждой педагогической технологии должна быть присуща опора на научную концепцию, включающую философское, психологическое, дидактическое и социально-педагогическое обоснование достижения образовательных целей.

- Системность означает, что педагогическая технология должна обладать всеми признаками системы: логикой процесса, взаимосвязью всех его частей, целостностью.

- Управляемость предполагает возможность диагностического целеполагания, планирования, проектирования процесса обучения, поэтапной диагностики, варьирования средствами и методами с целью корректировки результатов.

- Эффективность, заключается в том, что современные педагогические технологии существуют в конкурентных условиях и должны быть эффективными по результатам и оптимальными по затратам, гарантировать достижение определенного стандарта обучения.

- Воспроизводимость подразумевает возможность применения (повторения, воспроизведение) педагогической технологии в других однотипных общеобразовательных учреждениях, другими субъектами.

В педагогической литературе классификации образовательных технологий представлены по различным основаниям. Рассмотрим классификацию образовательных технологий, предложенную А. Я. Савельевым:

по направленности действия (ученики, студенты, преподаватели и т.д.);

по целям обучения;

по предметной среде (гуманитарные, естественные, технические дисциплины и т.д.);

по применяемым техническим средствам (аудиовизуальные, компьютерные, видеокomпьютерные и т.д.);

по организации учебного процесса (индивидуальные, коллективные, смешанные);

по методической задаче (технология одного предмета, средства, метода)[1].

Классификация педагогических технологий (по В. Т. Фоменко), предполагающие построение учебного процесса:

на деятельностной основе,

на концептуальной основе,

на крупноблочной основе,

на опережающей основе,

на проблемной основе,

на личностно-смысловой основе,

на альтернативной основе,

на диалоговой основе,

на взаимной основе.

Педагогические технологии подразделяются на:

1) технологии обучения (дидактические технологии)

2) технологии воспитания.

Выделяют следующие виды образовательных технологий:

а) технологии обучения: технология модульного обучения, технология проблемного обучения, технология контекстного обучения, технология обучения в сотрудничестве, технологии проведения семинара в форме диалога, технология «Дебаты»;

б) технологии актуализации потенциала субъектов образовательного процесса;

-технологии актуализации мотивационного потенциала образовательной среды;

- технологии самопрезентации;
- технология формирования уверенности и готовности к самостоятельной успешной профессиональной деятельности;

- технологии развития критического мышления и др.;

в) экспертно-оценочные технологии;

- технологии рейтинга учебных достижений и др.

Соответственно этапам решения педагогической задачи различают:

- общие технологии (технологии конструирования, процесса обучения его осуществления);

- частные (технологии решения таких задач обучения и воспитания, как педагогическое стимулирование деятельности учащихся, контроль, оценка ее результатов)

- конкретные (анализ учебной ситуации, организации начала урока)[3].

Педагогическая технология взаимосвязана с педагогическим мастерством педагога, в данном случае педагогическое мастерство может рассматриваться как совершенное владение педагогической технологией.

Литература:

1. Подласый И. П. Педагогика: учебник / И.П. Подласый-2-е изд., доп.-М.: Изд. Юрайт: ИД Юрайт, 2011.- 576 с.

2. Боротко Н. М. Педагогика: учеб. пособие для студентов учеб. заведений, обучающихся по пед. специальностям (ОПФ.Ф.)-Педагогика/ Н. М. Боротко, И. А. Соловцова, А. М. Байбаков. –2-е изд., стер.- М.: Академия, 2009.- 492 с.- 425 с.

Abdirasilov S. “Tasviriy san’at o’qitish metodikasi”. Darslik. Toshkent. «Fan va texnologiya», 2012.

Yoldoshev J.G’., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. / Toshkent: O’qituvchi, 2004.

## SIRTQI TA'LIMNI MASOFAVIY SHAKLGA O'TKAZISHDA LMS MOODLE TIZIMINING AGILE YONDASHUVI IMKONIYATIDAN FOYDALANISH

*Sadullayev Ibrat Shuxratovich*

*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti, Buxoro davlat Pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrası  
o'qituvchisi*

<https://orcid.org/0000-0001-5425-8566>

*Annotatsiya: Tadqiqot ishi o'z oldiga sirtqi ta'lim shaklini masofaviy ta'lim kontekstida shakllantirish orqali o'quv jarayoniga moslashuvchan metodologiya g'oyalari joriy etish imkoniyatlarini taqdim etishni maqsad qilib qo'ygan. Bundan tashqari moslashuvchan yondashuvlarning mashhur – Scrum va Kanban texnologiyalari orqali amalga oshirish imkoniyatlarini taqqoslash hamda buni LMS Moodle masofaviy ta'lim tizimi yordamida amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi: moslashuvchan texnologiyalarning xususiyatlari, ulardan o'quv jarayonida foydalanish imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy nashrlarni to'plash va tahlil qilish; Moodle masofaviy ta'lim tizimidan foydalangan holda moslashuvchan metodik yondashuvlar bo'yicha talabalar ishini kuzatish.*

*Kalit so'zlar: Sirtqi ta'lim, masofaviy ta'lim, Moodle, Agile yondashuvi, Scrum, Kanban.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ГИБКИЙ ПОДХОДА СИСТЕМЫ LMS MOODLE ПРИ ПЕРЕВОДЕ ЗАОЧНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ДИСТАНЦИОННУЮ ФОРМУ

*Садуллаев Ибрат Шухратович*

*Докторант Бухарского государственного университета, Преподаватель кафедры Точных наук  
Бухарский государственный педагогический институт*

*Аннотация: Цель научно-исследовательской работы – предоставить возможности внедрения идей гибкие-методики в учебный процесс путем формирования формы заочного обучения в условиях дистанционного образования. Кроме того, были сопоставлены возможности реализации гибких подходов посредством популярных технологий Scrum и Kanban, а также рассмотрена реализация всех процессов с использованием системы дистанционного обучения LMS Moodle. Для достижения поставленной цели были использованы следующие методы: сбор и анализ научных публикаций, посвященных изучению особенностей гибких технологий, возможностей их использования в образовательном процессе; Мониторинг работы студентов по гибким методическим подходам с использованием системы дистанционного обучения Moodle.*

*Ключевые слова: Заочный образование, дистанционное образование, Moodle, Agile-подход, Scrum, Kanban.*

## USING THE POSSIBILITIES OF THE AGILE APPROACH OF THE LMS MOODLE SYSTEM WHEN TRANSFERRING CORRESPONDENCE EDUCATION TO A DISTANCE FORM

*Sadullaev Ibrat Shukhratovich*

*Doctoral student of Bukhara State University, Teacher of the department of Exact Sciences Bukhara State  
Pedagogical Institute*

*Abstract: The purpose of the research work is to provide opportunities for introducing the ideas of Agile methods into the educational process by creating a form of correspondence learning in distance education. In addition, the possibilities of implementing Agile approaches using the popular Scrum and Kanban technologies were compared, and the implementation of all processes using the LMS Moodle distance learning system was considered. To achieve this goal, the following methods were used: collection and analysis of scientific publications devoted to the study of the features of Agile technologies and the possibilities of their use in the educational process; Monitoring student work using Agile methodological approaches using the Moodle distance learning system.*

*Keywords: Correspondence education, distance education, Moodle, Agile approach, Scrum, Kanban*

*Kirish: Butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi sharoitida bitiruvchilarni tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablar ham o'zgarishlarga uchramoqda. Agile metodlari o'qitishning turli shakllariga*

tobora ko'proq integratsiya qilinmoqda, bunda Agile manifestining ta'lim kontekstiga moslashtirilgani juda qo'l keladi. Shu o'rinda sirtqi ta'lim shakli bo'yicha ham bir qancha islohotlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin. Jumladan, ta'limning ushbu shaklida zamonaviy elektron ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish, o'quv jarayonlarini masofaviy ko'rinishga o'tkazish orqali ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Oliy ta'lim muassasasida sirtqi ta'lim dasturlarini amalga oshirishda ta'limning masofaviy shakliga bosqichma-bosqich o'tkazilishi borasida amaliy islohotlar boshlangan [1,2]. Bo'lajak mutaxassislar o'quv fanlari bo'yicha yuqori kompetensiyalarga ega bo'lishi bilan birga, kirishimli va xushmuomala bo'lishi, jamoada ishlay olishi, muayyan sohada o'zini-o'zi takomillashtirishga intilishi kerak. Zamonaviy kadr barcha yangiliklardan xabardor bo'lishi, o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashishi, qarorlar qabul qilishi va ijobiy natijalarga erishishi kerak [3,4]. Shu munosabat bilan kelajakdagi kasbiy faoliyat muammolarini hal qilishga qaratilgan o'qitishning yangi shakllari va usullarini izlash zarurati paydo bo'ladi. Aynan shu sifatlarga ega zamonaviy uslub va yondashuvlar majmuasiga Agile moslashuvchan metodologiyasi misol bo'ladi [7].

Agile moslashuvchan yondashuvi bugungi kunda bir qator texnologiyalar, jumladan, Scrum, eduScrum, Kanban, ekstremal dasturlash, tejamkor dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va boshqalar uchun umumiy yo'nalish sifatida qo'llaniladi. Agile yondashuvi joriy etilgandan beri moslashuvchan texnologiyalar g'oyalari nafaqat dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda, balki ta'lim jarayonida ham o'z aksini topdi. Masalan, so'ngi yillarda Scrum yondashuvining mantiqiy davomi hisoblangan eduScrum tarqalish geografiyasi tobora oshib borishi ushbu yo'nalishning ta'lim jarayonida qanchalik samarali ekanligini belgilab beradi. Olingan joriy natijalarni doimiy nazorat qilgan holda talabalarni dolzarb amaliy masalalarni yechishga jalb etish va talabalarining ehtiyojlariga e'tibor qaratish ekstremal pedagogika tamoyillaridan hisoblanadi [8].

Tadqiqotning bir qismi ta'lim muassasasi yoki o'qituvchilar jamoasini boshqarish jarayonida moslashuvchan yondashuvlar tamoyillarini amalga oshirishga bag'ishlangan. Moslashuvchan yondashuv texnologiyalaridan masofaviy ta'limni tashkil etishda ham foydalanish mumkin [12;13]. Tadqiqot maqsadi – sirtqi ta'lim shakli o'quv jarayoni uchun masofaviy ta'lim kontekstida Agile texnologiyasi g'oyalarini joriy etish orqali moslashuvchan yondashuvi taqdim etish. Bunda Moodle masofaviy ta'lim tizimi funksional imkoniyatlari misolida Scrum va Kanban yondashuvlarini amalga oshirish mezonlarini taqqoslash orqali tegishli xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi: Birinchi bosqichda tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar o'rganildi, loyiha ishini tashkil etishning moslashuvchan metodologiyalarining Scrum va Kanban xususiyatlari aniqlandi va ulardan o'quv jarayonida foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Masofaviy ta'lim tizimida olingan ma'lumotlarni hisobga olgan holda, fan bo'yicha talabalarining jamoaviy ishi tashkil etilgan kurs ishlab chiqildi. Talabalar jamoalarga bo'lindi, ularning bir guruhi Scrum, ikkinchi guruhi - Kanban moslashuvchan metodikasi bo'yicha ishladi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida o'quv jarayonini kuzatish amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlarni umumlashtirish LMS Moodle tizimida masofaviy ta'lim kursini loyihalash bo'yicha tavsiyalarni shakllantirishga imkon berdi. Ularni o'rganish talabalar amaliyotda hosil qilgan ko'nikma va ish uslublarini qo'llash bilan bog'liq metodika g'oyalarini o'quv jarayoniga joriy etish imkonini beradi [4,5].


Argentinalik olim, Metropolitan ta'lim va mehnat universiteti professori Antonieta Kuzning "Scrum: Ta'lim uchun qo'llaniladigan yangi vosita" nomli risolasiga ko'ra ta'lim sohasida Agile yondashuvi, xususan Scrumni qo'llashga qiziqish ortib borayotganini ta'kidlaydi. Muallif asosan, dastlab regbi sport o'yinidan ilhomlanib shakllangan Scrum qanday qilib ta'lim muhitida jamoaviy ish va maqsadlar birligini rivojlantirish uchun moslashtirilganligini muhokama qiladi. Bundan tashqari talabalarda tashkilotchilik, rejalashtirish, yetakchilik va jamoaviy ishlash kabi umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishda faol ta'lim yondashuvlarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Scrum kabi tezkor metodologiyalarni tatbiq etish orqali talabalar ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan moslashuvchan va amaliy o'rganish tajribalari bilan shug'ullanishlari mumkin. Scrumning ta'lim tizimiga integratsiyasi o'z-o'zini tashkil qilish, hamkorlik va doimiy takomillashtirish orqali samarali o'rganish uchun qulay muhitni ta'minlashga qaratilgan. Bundan tashqari, Scrum yondashuvini ta'lim jarayoniga tatbiq etish talabalarining mustaqilligini oshirish va hamkorlikda o'rganishni rag'batlantirish uchun mavzularni boshqariladigan vazifalarga ajratishni o'z ichiga oladi. Tekshiruv, moslashish va shaffoflik kabi Scrum tamoyillarini qo'llash orqali o'qituvchilar ta'lim sifatini oshirishiga va talabalarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydigan tizimli asosni yaratishi mumkin [9].

Scrum va Kanban yondashuvlarining asosiy tamoyillari.

Moslashuvchan texnologiyalar tufayli dasturiy mahsulotni amalga oshirish uchun hayot tsiklining bosqichlariga tezkor javob berish va o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'ladi. Iste'molchi bilan o'zaro munosabatlarni, ta'lim

natijasini hujjatlardan ustun qo'yish va o'zgartirishga tayyorlik tamoyillari o'quv jarayonini tashkil etish hamda talabalarning ishidan olingan natijalarni tekshirishda qo'llanilishi mumkin. Ikkala yondashuv ham moslashuvchan va iterativ hisoblanadi. Iterativ yondashuvlar ish jarayonini qisqa takrorlashlar yoki sprintlarga bo'lishni o'z ichiga oladi

(1-rasm). Jamoa mustaqil ravishda maqsad va vazifalarni belgilashi hamda ularga erishish usullarini tanlashi mumkin. Ular o'z ishini muntazam ravishda rejalashtiradi va vaqt oralig'i (sprint)da uning bajarilishini nazorat qiladi. Ko'rib chiqilayotgan yondashuvlar orasidagi asosiy farqlar sprintning uzunligi va ko'p vazifalarni bajarish imkoniyatidir [14; 15].



1-rasm. Scrum va Kanban modelining grafik tasviri.

Scrum eng mashhur freymvorklardan hamda Agile metodikasi yondashuvlaridan biridir. Bundan tashqari, u "Tuzilmali yondashuv" deb ham ataladi. Scrum - bu yengil, tushunarli va tezkor freymvork bo'lib, u 1990-yillarning boshidan beri har xil turdagi loyihalarda keng qo'llanila boshlandi. Scrum freymvorki Scrum jamoalarini va ular bilan bog'liq rollarni, voqea va qoidalarni belgilab beradi. Scrum modeli bo'yicha sprintning uzunligi oldindan belgilanadi, u bir haftadan to'rt haftagacha bo'lishi mumkin. Vazifalar hal etilmasa ham, sprint ma'lum bir nuqtada tugaydi, barcha bajarilmagan vazifalar keyingi sprintga o'tkaziladi. Sprint boshlanishidan oldin bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarni muhokama qilish uchun yig'ilish o'tkaziladi. Barcha vazifalar orasida eng muhimlari belgilanadi, ularsiz "Tayyor mahsulotni yetkazib berish" bosqichiga o'tish mumkin emas. Bu vazifalar Backlog ko'rinishida guruhlangan hamda yangi vazifalar qo'shish mumkin emas, bu Scrumning o'ziga xos xususiyatidir.

Scrum rollarning aniq taqsimlanishi va jarayonlar ketma-ketligini nazarda tutadi. Scrum yondashuvlarida "Scrum ustasi", "mahsulot egasi", "jamoaa'zosi" kabi rollar bor va mos ravishda har bir loyiha ustida "Mahsulot egasi" va "Scrum ustasi" tomonidan muvofiqlashtirilgan kichik mutaxassislar jamoasi ishlaydi. Birinchisi natijaning dastlabki maqsadlarga mos kelishini ta'minlaydi, ikkinchisi esa jamoaning harakatlarini metodikaga muvofiq sozlash va yo'naltirish vazifasini nazorat qiladi. Barcha ishlar qisqa sprintlardan iborat bo'lib, uning boshida maqsadlar aniqlanadi, oxirida - natijalar solishtiriladi va tuzatishlar kiritiladi. Har kim vazifaning o'ziga xos qismini bajaradi va jarayonga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu yondashuv mahsulotni tezda yaratishga, jamoaa'zolarining yuqori motivatsiyaga ega bo'lishiga va samarasiz harakatlarga ortiqcha vaqt va pul sarflashning oldini olishga imkon beradi. Bu aniq belgilangan vaqtga ega sprintlar asosida ishlaydi. Qilingan o'zgarishlar to'planib so'ngra umumiy ravishda namoyish bo'ladi. Sprintlar o'rtasida o'zgartirish kiritilmaydi.

1940-yillarda Yanponiyaning Toyota kompaniyasida ishlab chiqilgan Kanban, tugallanmagan ishni cheklash va turli sohalarda ish oqimini tartibga solish uchun keng qo'llaniladigan vizual boshqaruv tizimiga aylandi. Asosan, Kanban ish jarayonini optimallashtirish va jarayonlarni soddalashtirish uchun yaratilgan oddiy va samarali metodikadir. Yapon tilidan kelib chiqqan "Kanban" atamasi "vizual karta" yoki "signal" deb tarjima qilinadi. Kanban vazifalarni va ularning tegishli tartibini yetkazish uchun kartalar yoki taxtalardan foydalangan holda ishning vizual tasviri sifatida ishlaydi. Har bir karta ma'lum bir ish yoki faoliyatni ifodalaydi, bu jamoalarga o'z ishlarining borishi haqida aniq, real vaqt rejimida tushuncha beradi. Ushbu oddiy yondashuv



shaffoflikni kuchaytiradi, bu esa jamoalarga o'z vazifalarini samarali tarzda hamkorlik qilish va boshqarishni osonlashtiradi. Aslida Kanban Agile metodikasining moslashuvchan qismi bo'lib, ish jarayonini vizuallashtirish va optimallashtirishga qaratilgan. Kanbanda Scrum yondashuvlaridan farqli ravishda aniq belgilangan rollar yo'q. Bundan tashqari tayyor bo'lgan o'zgarish shu zahoti namoyish bo'ladi. Eng asosiysi istalgan vaqt o'zgartirish kiritish mumkin. Kanban yondashuvida sprintning uzunligi barcha vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, Scrumda jamoaning maqsadi - sprintni ma'lum bir sanaga qadar bajarishga qaratilsa, Kanban yondashuvida sprint tushunchasi asosiy e'tibor iloji boricha ustuvor vazifalarning ko'p qismini hal qilishga qaratiladi. O'z navbatida bu jarayonda kutilganidan kamroq yoki ko'proq sarflangan vaqt bo'lishi mumkin. Kanban yondashuvida har bir sprint uchun alohida jamoa javobgar bo'lishi mumkin - dizayn jamoasi, ishlab chiqish guruhi, sinov guruhi. Shunday qilib, har bir jamoa yuqori darajada ixtisoslashgan bo'lib, alohida jamoada rollar bo'linmaydi [10,11].

Kanban doskasi Kanban freymvorkining yuragi hisoblanadi. Ushbu yondashuv jamoalarga vazifalar va loyihalarni boshqarishning soddalashtirilgan usulini taklif qilib, butun ish jarayonining vizual tasvirini taqdim etish qobiliyatiga ega. Kanban yondashuvining ustunligi uning soddaligidadir. U murakkab tuzilmalarni yoki qat'iy vaqt jadvalarini yuklamaydi; aksincha, ushbu yondashuv moslashuvchanlikni o'z ichiga oladi.

- Loyihaning turli bosqichlarini ifodalovchi ustunlari bo'lgan raqamli yoki doskada "Bajarish kerak", "Jarayonda" va nihoyat "Bajarildi" kabi ustunlardan foydalaniladi.


- Har bir vazifa karta bilan ifodalanadi, shuningdek, "Kanban kartalari" deb nomlanadi. Bu vazifa tavsiflari, ustuvor darajalar va tayinlovchilar kabi muhim tafsilotlarni ko'rsatadi.

- Ish davom etar ekan, ushbu kartalar har bir vazifaning joriy holatini aks ettiruvchi ustunlar bo'ylab harakatlanadi.

Scrum va Kanban yondashuvlarini qo'llashda har kuni yig'ilishlar o'tkaziladi, unda jamoa ma'lum bir sprintdagi ish natijalari to'g'risida hisobot beradi. Yig'ilish davomida "Backlog" dagi vazifalar "tugallangan" yoki "bajarilmoqda" deb belgilanadi. Har qanday qiyinchiliklar yuzaga kelganda, jamoa muayyan muammoning muqobil yechimlarini izlaydi. Sprintning yakuniy bosqichi - bu o'sish - o'quv fan moduli yoki ma'lum bir mavzu borasida bilimlarning o'zlashtirilishi bo'lishi mumkin. Keyinchalik, jamoa keyingi sprint uchun ish rejasini muhokama qiladi.

Muhokama. Masofaviy ta'limni tashkil etishda Scrum va Kanban yondashuvlarini amalga oshirish. Yuqorida ta'kidlab o'tilgani kabi sirtqi ta'lim shaklida o'quv jarayonlarini tashkil qilishda masofaviy ta'lim elementlariga tayangan holda ushbu yondashuvlaridan foydalanish mumkin. Masofaviy ta'limni tashkil etish uchun zamonaviy platforma loyihani boshqarish tizimi va aloqa vositalari rolini o'z zimmasiga oladi, jamoaviy tarzda birgalikda o'qitish uchun virtual maydon yaratadi. Quyida Moodle masofaviy ta'lim tizimida har ikkala yondashuvni amalga oshirish xususiyatlarini alohida ko'rib chiqamiz. Aslini olganda LMS Moodle tizimining tanlanishi uning mashhurliigi, mavjud imkoniyatlari hamda qulayligiga tayanadi. Shuningdek, kurs yaratuvchilarining o'qitish tajribasi va tizimning moslashuvchan funksional imkoniyatlari bilan bog'liq [16; 17].


Kurs tuzilishi nuqtai nazaridan, Scrum va Kanban yondashuvlariga muvofiqlik Product Backlog (barcha loyiha vazifalari ro'yxati) va vazifalarning bir qismini hal qilishga qaratilgan bir nechta Sprint Backlog (Sprint bloklari) mavjudligi bilan belgilanadi. Kursning yuqori qismida o'quv fani to'g'risida qisqsacha ma'lumot yoki kurs mualliflari to'g'risida ma'lumot va boshqa asosiy tushunchalar, masalan, fan bo'yicha sillabusni joylashtirish tavsiya etiladi. Scrum ustasi (o'qituvchi) va jamoa a'zolari (talabalar) o'rtasidagi o'zaro aloqani tashkil qilish uchun turli xil Moodle aloqa vositalaridan foydalanish mumkin: forum, chat, vebinarlar. Video qo'ng'iroqlarni tashkil qilish uchun Zoom xizmati kabi uchinchi tomon resurslaridan ham foydalanish mumkin. Ikkinchi holda, talabalarni videokonferensiyaga qulay tarzda ulash uchun "Giperhavola" elementi yoki maxsus kengaytmadan foydalanish mumkin (2-rasm). Vazifalar ro'yxati Moodle masofaviy ta'lim tizimida mavjud bo'lgan turli xil elementlardan iborat bo'lishi mumkin, masalan, "Topshiriq" elementi bunda juda mos tushadi. Ushbu element o'qituvchiga talabalarning elektron javob berishlarini talab qiladigan vazifalarni qo'yish imkonini beradi. Tizim talabalarga bajarilgan topshiriqlar bilan fayllarni to'g'ridan-to'g'ri serverga yuklash imkonini beradi, bu esa elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa ishonchlilik darajasi past aloqa vositalaridan foydalanishga hojat qoldirmaydi [18].



2-rasm. Masofaviy kurs umumiy tuzilishi.

Shunday qilib, kursning keyingi mavzularida (Sprint\_1, Sprint\_2, ..., Sprint\_N) sprint davomida jamoa a'zolariga kerak bo'ladigan vositalar: Checklist (nazorat ro'yxati), Forum va Chat elementlaridan ham foydalanish imkoniyati mavjud.

Chat elementi odatda 10-15 daqiqa davom etadigan kundalik qisqa uchrashuvlarni tashkil qilish uchun ishlatiladi. Ushbu mashg'ulotlar davomida jamoa a'zolari o'tgan ish kunidagi muvaffaqiyatlari bilan o'rtoqlashadilar va sprint topshiriqlarini bajarishni hamda olingan natijalarni muhokama qilishlari mumkin. Qolgan vaqtda talabalar mustaqil ravishda yoki kichik guruhlarda ishlaydilar, maxsus yaratilgan forumda turli savollar yuzasidan fikr almashib, munozara qilishlari mumkin. Quyida Checklist (nazorat ro'yxati) elementini batafsil ko'rib chiqamiz. Ushbu modul o'qituvchiga va sirtqi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalar guruhi uchun sprint vazifalari ro'yxatini (Sprint Backlog) yaratish imkonini beradi. Vazifalar barcha kurs topshiriqlari ro'yxatini o'z ichiga olgan umumiy blokdan tanlanadi (3-rasm).




3-rasm. Nazorat topshiriqlari ro'yxatini shakllantirish oynasi.

Bu yerda vazifaning ustuvorligi bo'yicha ro'yxatda yuqoriga yoki pastga siljitish, mavjud vazifani o'chirish yoki yangisini qo'shish orqali o'zgartirishlar kiritish mumkin. O'qituvchi ushbu ro'yxatni talabalar yoki jamoa sardorlari bilan birgalikda bilan videokonferentsiya orqali tuzadi yoki bu imtiyozni har bir jamoaning vakiliga topshirib, ularga kursda jamoa sardori rolini belgilaydi.

Natijalar. Tadqiqot ishida tavsiya etilgan yondashuvlar Moodle masofaviy ta'lim tizimining imkoniyatlari orqali ixtiyoriy vaqtda masofaviy kursni loyihani boshqarish tizimining qandaydir ko'rinishiga aylantirish

imkonini beradi. Checklist (nazorat ro'yxati), topshiriq, forum va chat kabi interaktiv kurs elementlaridan birgalikda foydalanish sirtqi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarni Agile yondashuvi metodikalarini qo'llagan holda masofaviy ta'lim tizimini samarali qo'llashga sharoit yaratadi. Bulardan tashqari Moodle masofaviy ta'lim tizimi misolida ikkita mashhur moslashuvchan texnologiyalar - Scrum va Kanban yondashuvlarini tatbiq etish imkoniyatlarini ilmiy-pedagogik jihatidan taqqoslash ishlari amalga oshirildi.

Masalan, har bir sprint topshirig'ini bajarib bo'lgach, talabalar uni bajarilgan deb belgilashi mumkin bo'ladi va o'qituvchi xuddi shu nazorat ro'yxatida butun guruh va har bir talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlar sonini alohida ko'rishi mumkin (4-rasm).



| First name ↓ / Surname | Heading | Item 1 | Optional Item 2 | Optional Item 3 | Optional Item 4 | Item 5 |
|------------------------|---------|--------|-----------------|-----------------|-----------------|--------|
| A A Q                  |         |        | ✓               | ✓               |                 |        |
| Admin User Q           |         |        |                 | ✓               | ✓               | ✓      |
| B B Q                  |         |        |                 |                 |                 |        |
| C C Q                  |         |        |                 |                 |                 |        |

4-rasm. Jamoaning natijalarini kuzatish oynasi umumiy ko'rinishi.

Barcha sprint vazifalari bajarilganda (Kanban yondashuvi bo'yicha) yoki joriy bosqich vaqti tugagach (Scrum yondashuvi bo'yicha), keyingi sprint uchun yangi nazorat ro'yxati tuziladi va jarayon shu tarzda davom etadi. Scrum va Kanban yondashuvlarini amalga oshirishdagi asosiy farqlar 1-jadvalda keltirilgan. Bir yondashuvdan boshqasiga o'tish kurs strukturasi qayta qurishni talab qilmaydi, balki kurs mavzulariga kichik tuzatishlarni kiritishni o'z ichiga oladi. Scrum yondashuvi uchun har bir mavzu uchun vaqtli kirish (deadline) sozlangan (ya'ni, talabalar faqat ma'lum, oldindan tuzilgan vaqt oralig'ida sprint topshiriqlariga kirishlari mumkin bo'ladi). Kanban yondashuvida vaqt chegarasi yo'q, lekin sprintning barcha vazifalari hal qilinishi kerak, shunga ko'ra yangi sprintga (mavzuga) kirishni shartga ko'ra kurs elementini (avvalgi sprintdagi nazorat ro'yxatiga ko'ra) tugatish kabi sozlash imkoniyati ham mavjud.

**Scrum va kanban yondashuvlarining o'ziga xos xususiyatlari.**

1-jadval.

| Mezonlar  | Scrum  | Kanban  |
|---|--|---|
| <b>Sprint uzunligi</b>                                | Oldindan belgilab olingan, 1-4 hafta   | Sprint maqsadiga erishishga bog'liq. Barcha vazifalar hal qilinganda sprint tugaydi         |
| <b>Vazifalarning ustuvorligi</b>                      | Ustuvor vazifalar boshida belgilanadi  | Jamoa vazifalarning ustuvorliklarini qayta taqsimlashi mumkin                               |
| <b>Ko'p vazifalilik</b>                               | Vazifalar ro'yxati (backlog) sprint boshida yaratiladi va oxirigacha o'zgarmaydi                 | Vazifalar ro'yxati (backlog) doimiy ravishda o'zgarishi mumkin, shu jumladan sprint paytida |
| <b>Loyiha jamoasi</b>                                 | Mahsulot egasi, guruh rahbari, mutaxassis (mutaxassislar baham ko'rishlari mumkin roli bo'yicha) | Mahsulot egasi, guruh rahbari, mutaxassis   |
| <b>Jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar</b> | Joriy sprint natijalarini muhokama qilish uchun har kuni tashkil qilinadi                        |   |

O'quv kursini boshlashdan oldin o'qituvchi kurs sozlamalarida guruh rejimini – "Ajratilgan guruhlar" (Isolated groups) kabi tanlashi, talabalarni kursga birlashtirishi va ularni jamoalarga taqsimlashi kerak. Bu orqali talabalarni guruhlariga ajratish imkoniyati hosil qilinadi.

Xulosa. Talabalar ishini tahlil qilish va kuzatish masofaviy ta'lim tizimidan foydalangan holda sirtqi ta'lim shakli o'quv jarayonini masofadan amalga oshirishda Agile yondashuvini joriy etish mumkin degan xulosaga kelishga imkon berdi. Xususan, o'quv jarayoniga moslashuvchan texnologiyalarni joriy etish uchun masofaviy o'qitish vositalaridan foydalanish bo'yicha Moodle masofaviy ta'lim tizimi misolida masofaviy kurs loyihasi, kurs ob'ektlarini sozlash variantlari va usullari taklif etilgan hamda talabalar ishini baholash uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan. Moodle masofaviy ta'lim tizimi orqali talabalar jamoa a'zolari sifatida o'zaro hamkorlik qiladilar, loyiha faoliyatini Scrum, Kanban yondashuvlari bo'yicha amalga oshiradilar hamda nazorat ro'yxati, topshiriq, forum va chat kabi kurs elementlaridan foydalanadilar.

Scrum tomonidan ta'minlangan tezkor ish usuli darslar va ta'lim sifatini yaxshilaydi, talabalarni rag'batlantiradi va manfaatdor tomonlarga doimiy takomillashtirish uchun bir xil sprint doirasida o'quv jarayonlarini baholashga imkon beradi. Talabalar jamoalarining imtixon hujjatlari va taqdimotlarini baholash uchun mahsulot egalari (o'qituvchi) bilan ko'rib chiqish muhokamalari, ma'lumotlarni olish va tahlil qilish hamda so'rov natijalarini tekshirish imkoniyatlari ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limda tezkor metodologiyalarni, xususan, Scrumni qo'llash an'anaviy o'qitish usullarini interfaol va rag'batlantiruvchi ta'lim tajribasiga aylantirish uchun istiqbolli strategiyani taqdim etadi. Tezkor tamoyillar va amaliyotlarni o'zlashtirgan holda, o'qituvchilar talabalarga hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, jamoaviy ishlashni rivojlantirish va ta'lim tizimining doimiy rivojlanib borayotgan davrida o'quv maqsadlariga yuqori samaradorlik ko'rsatkichlari bilan erishish imkonini berishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Scrum va Kanban kabi tezkor usullarni ta'lim kontekstiga integratsiyalashuvi o'rganish tajribasini oshirish, haqiqiy ilmiy-pedagogik muammolarni hal qilish va talabalarning faolligi va motivatsiyasini oshirishga imkon yaratib beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sadullayev Ibrat. (2023). OLIIY TA'LIM MUASSALARI SIRTQI TA'LIM SHAKLIDA ELEKTRON TA'LIM TIZIMINI JORIY ETISH JTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(16), 497–504. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/2139>
2. Sadullayev, I. (2022). LMS MOODLE TIZIMINING TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI. *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali*, 2(2).
3. Садуллаев, И. Ш., & Абдурахмонов, А. А. У. (2021). ЭЛЕКТРОННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕСУРСЫ КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ. *Вестник науки и образования*, (8-3 (111)), 71-73.
4. Sadullayev, I. (2022). SIRTQI TALIMDA TALABALARNING OZLASHTIRISH MONITORINGINI OLIB BORISH. *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali*, 2(2).
5. Садуллаев, И. Ш., & Зарипов, Н. Н. (2015). Персональная учебная среда учащегося в режиме дистанционного обучения. *Международна научна школа «Парадигма»*. Лято, (8), 227-232.
6. Sh, Sadullayev I., and N. N. Zaripov. «OTM boshqaruv samaradorligini va ta'lim jarayoni sifatini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish yollari.» *Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti jurnali* (2015): 170-174.
7. Belling, S. (2020). SUCCEEDING WITH AGILE HYBRIDS: PROJECT DELIVERY USING HYBRID METHODOLOGIES. In *Succeeding with Agile Hybrids: Project Delivery Using Hybrid Methodologies*. Apress Media LLC. <https://doi.org/10.1007/978-1-4842-6461-4>
8. Anderson R., Bendix L. eXtreme Teaching: A framework for continuous improvement. *Computer Science Education*, 2006, vol. 16, no. 3, pp. 175–184.
9. Kuz, A. . (2021). Scrum: A new framework applied to education. *Revista Eduweb*, 15(3), 10–17. <https://doi.org/10.46502/issn.1856-7576/2021.15.03.1>
10. Manokin M.A., Ozhegova A.R., Shenkman E.A. Agile methodology in education. *Universitetskoe upravlenie: praktika i analiz*, 2018, vol. 22, no. 4, pp. 83–96. 888888
11. Molodchik N.A., Nagibina N.I. Practice-oriented learning model development and implementation at the university based on agile principles. *Vestnik Permskogo natsionalnogo issledovatel'skogo politekhnicheskogo universiteta. Sotsialno-ekonomicheskie nauki*, 2019, no. 1, pp. 44–54. 999999
12. Yakhontova E.S., Kakhkharov Sh. Agile method in project management and competence of heads of educational organizations. *Preemstvennost v obrazovanii*, 2016, no. 13, pp. 22–26. 1010

13. Vaseva E.S., Buzhinskaya N.V. Realization of professional oriented trajectories for development of students at distance learning. *Informatika i obrazovanie*, 2020, no. 6, pp. 36–43. 1212
14. Metelskaya Yu.N., Shafranovich P.S. Using scrum, kanban in flexible software development projects for various fields of organizations. *Big Data and Advanced Analytics*, 2020, no. 6-3, pp. 370–373. 1515
15. Svyatenko A.S. Approaches to managing distributed testing teams and their cost effectiveness. *Nauka i biznes: puti razvitiya*, 2020, no. 9, pp. 44–47. 1616
16. Dronova E.N. Technologies of remote training in higher school: experience and difficulties of use. *Prepodavatel XXI vek*, 2018, no. 3-1, pp. 26–34. 1919
17. Teregulov D.F., Vaseva E.S., Buzhinskaya N.V. Remote technologies as a means of implementing international cooperation in the education area. *Professionalnoe obrazovanie v Rossii i za rubezhom*, 2020, no. 1, pp. 67–72. 2020
18. I.Sh.Sadullayev, M.R.Jo'rayeva, N.Sh.Shadiyeva, D.P.Mirzoyev, A.A.Jumayev. Ta'limda axborot texnologiyalari. *Elektron o'quv qo'llanma*. Buxoro. 2022 y.
19. Jo'rayeva N.O. Mustaqil ta'limni tashkil etishda mobil ilovalaridan foydalanish. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*. 2023 год №1. -273-27 b
20. Шодиев Р.Д., Жўраева Н.О. Таълимнинг мобиллашуви шароитида талабалар мустақил таълимини ташкил этиш ва ривожлантириш. *International conference on innovative development of education*. 2022/19.

## FAZODA PERPENDIKULYAR TO'G'RI CHIZIQLAR VA TEKISLIKLAR MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

Sadulloeva Dildora Ixtiyor qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

Jurayeva Nargiza Oltinboyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasida dotsenti

<https://orcid.org/0000-0002-3139-2217>

Аннотация:

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari 10-sinfida "Fazoda perpendikulyar to'g'ri chiziqlar va tekisliklar" mavzusini hozirgi axborot resurslari hamta ta'lim texnologiyalari yordamida o'quvchilarga o'qitish metodikasi haqida asosiy tushunchalar, metodlar hamda vositalardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan. Mavzu bo'yicha zaruriy tushunchalarni o'quvchiga yetkazish bilan birga mavzuga doir masalalar yechimlari ham keltirib o'tilgan, jumladan olimpiada masalalarini bajarish bo'yicha namunalar yechib ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: chiziq, perpendikulyar chiziq, parallel chiziq, tekislik, metod, masala, yechim.

## МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА ПЕРПЕНДИКУЛЯРНЫЕ ПРЯМЫЕ И ПЛОСКОСТИ В ПРОСТРАНСТВЕ

Саъдуллоева Дилдора Ихтиёр кизи

Студентка 3 курса Бухарского государственного педагогического института

Жўраева Наргиза Олтинбоевна

доцент Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье в 10 классе общеобразовательной школы даны инструкции по теме «Перпендикулярные прямые и плоскости в пространстве». Помимо донесения до студента необходимого понимания темы, также представлены решения вопросов, связанных с темой, в том числе примеры решения олимпиадных задач.


Ключевые слова: линия, перпендикуляр, параллельная линия, плоскость, метод, задача, решение.

1-masala. Fazoda  $M$  nuqta qanday hollarda bir qiymatli aniqlanadi?




- Ikki  $l_1$  va  $l_2$  to'g'ri chiziqlarning  $M$  nuqtada kesishishi sifatida;
- $l$  to'g'ri chiziq va  $T$  tekislikning  $M$  nuqtada kesishishi sifatida;
- $T_1$ ,  $T_2$ ,  $T_3$  uch tekislikning va  $l_1$ ,  $l_2$ ,  $l_3$  kesishish chizig'ining  $M$  nuqtada o'zaro kesishishi sifatida.

2-masala. Fazoda  $l$  to'g'ri chiziq qanday hollarda bir qiymatli aniqlanadi?



- $M_1$  va  $M_2$  nuqtasi bilan;
- Bitta  $M_3$  nuqtasi va  $\vec{a}$  yo'naltiruvchi vektori bilan;
- $T_1$  va  $T_2$  tekisliklarning kesishishi sifatida.

3-masala. Fazoda  $T$  tekislik qanday hollarda bir qiymatli aniqlanadi?



- Bir to'g'ri chiziqda yotmagan uchta  $M_1$ ,  $M_2$ ,  $M_3$  nuqtasi ushbu;
- $M$  nuqtada kesiluvchi ikki  $l_1$  va  $l_2$  to'g'ri chiziq ushbu;
- Ikki  $l_1$  va  $l_2$  parallel to'g'ri chiziq ushbu;
- $l$  to'g'ri chiziq va unda yotmagan  $M$  nuqta ushbu.

**To'g'ri chiziq va tekislik o'zaro parallel bo'lishi**


**1. Ikki to'g'ri chiziqning parallel bo'lishi.**

Ta'rif. Bir tekislikda yotib, kesilmaydigan to'g'ri chiziqlar parallel to'g'ri chiziqlar deyiladi.

Uchi to'g'ri chiziqning o'zaro parallel bo'lishlik belgisi:

Uchinchi  $l_3$  to'g'ri chiziqqa parallel bo'lgan ikki  $l_1$  va  $l_2$  to'g'ri chiziq o'zaro parallel, ya'ni (1-rasm)

$$(l_2 \parallel l_1, l_3 \parallel l_1) \Rightarrow l_2 \parallel l_1$$



**2. To'g'ri chiziq va tekisliklarning parallel bo'lishi.**


Ta'rif. Agar to'g'ri chiziq va tekislik kesilmasa, ular parallel deb atiladi.

To'g'ri chiziq va tekislikning parallel bo'lishlik belgisi:

Agar  $T$  tekislikda yotmagan  $l_1$  to'g'ri chiziq shu tekislikdagi barcha  $l_2$  to'g'ri chiziqqa parallel bo'lsa, unda  $l_1$  to'g'ri chiziq  $T$  tekislikka parallel bo'ladi (2-rasm).

Xossa: Berilgan  $T_1$  tekislikka parallel bo'lgan  $l_1$  to'g'ri chiziq ummii o'tuvchi har qanday  $T_2$  tekislik  $T_1$  tekislikka parallel bo'lishi yoki berilgan  $l_1$  to'g'ri chiziqqa parallel bo'lgan  $l_2$  to'g'ri chiziq bo'yicha kesib o'tadi (3-rasm):

$$(l_1 \subset T_2, l_1 \parallel T_1) \Rightarrow T_2 \parallel T_1 \text{ yoki } l_2 \parallel l_1$$



**3. Tekisliklarning parallel bo'lishi.**

Ta'rif. Kesilmaydigan tekisliklar parallel tekisliklar deyiladi.


Tekisliklarning parallel bo'lishlik belgilari:

a) agar  $T_1$  tekislikda yotuvchi kesilmaydigan ikki  $l_1$  va  $l_2$  to'g'ri chiziq ikkinchi  $T_2$  tekislikda yotuvchi kesilmaydigan ikki  $l'_1$  va  $l'_2$  to'g'ri chiziqzoriga parallel bo'lsa, unda  $T_1$  va  $T_2$  tekisliklar parallel bo'ladi, ya'ni (4-rasm)

$$(l_1 \parallel l'_1, l_2 \parallel l'_2) \Rightarrow T_1 \parallel T_2, \text{ bu yerda } l_1 \subset T_1, l_2 \subset T_1, l'_1 \subset T_2, l'_2 \subset T_2;$$

b) agar berilgan ikki  $T_1$  va  $T_2$  tekislikning har biri uchinchi  $T_3$  tekislikka parallel bo'lsa, unda berilgan ikki  $T_1$  va  $T_2$  tekislik o'zaro parallel bo'ladi, ya'ni (5-rasm)

$$(T_1 \parallel T_3, T_2 \parallel T_3) \Rightarrow T_1 \parallel T_2$$



Xossalari:

a) agar ikki  $T_1$  va  $T_2$  parallel tekislik uchinchi tekislik bilan kesilsa, unda tekisliklarning  $l_1$  va  $l_2$  kesishish chiziqlari parallel bo'ladi, ya'ni (6-rasm)


$$T_1 \parallel T_2 \Rightarrow l_1 \parallel l_2$$

bu yerda  $l_1 \subset T_1, l_2 \subset T_2$ ;

b) ikkita parallel tekislik o'zaro parallel kesmalar teng, ya'ni (7-rasm)

$$(T_1 \parallel T_2, l_1 \parallel l_2) \Rightarrow AV = SD,$$

bu yerda  $l_1 \cap T_2 = A, l_2 \cap T_2 = V, l_1 \cap T_1 = S, l_2 \cap T_1 = D$ .



**4. To'g'ri chiziqning perpendikulyarligi.**


Ta'rif. Agar ikki to'g'ri chiziq to'g'ri burchak ostida kesilsa, ular

perpendikulyar to'g'ri chiziqlar deb atiladi.

Mus ravishda ikkita  $l_1$  va  $l_2$  perpendikulyar chiziqlarga parallel bo'lgan kesuvchi ikki  $l'_1$  va  $l'_2$  to'g'ri chiziqlar perpendikulyar bo'ladi, ya'ni (8-rasm)

$$(l_1 \parallel l'_1, l_2 \parallel l'_2, l_1 \perp l_2) \Rightarrow l'_1 \perp l'_2$$

bu yerda  $l_1 \in T_1, l_2 \in T_1, l'_1 \in T_2, l'_2 \in T_2$



**5. To'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyarligi**

**Ta'rif** Agar  $T$  tekislikni kesuvchi  $l_1$  va  $l_2$  to'g'ri chiziqlar shu tekislikni kesishish nuqtasi orqali o'tuvchi har qanday  $l_3$  to'g'ri chiziq'iga perpendikulyar bo'lsa, unda  $l_3$  to'g'ri chiziq  $T$  tekislikka perpendikulyar bo'ladi.

**To'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyar bo'lishlik belgisi:**  
 agar to'g'ri  $l_3$  chiziq berilgan tekislikdagi kesikuvchi  $l_1$  va  $l_2$  to'g'ri chiziqlarga perpendikulyar bo'lsa, unda  $l_3$  to'g'ri chiziq  $T$  tekislikka perpendikulyar bo'ladi, ya'ni(9-rasm)  
 $(l_3 \perp l_1 \text{ va } l_3 \perp l_2) \Rightarrow l_3 \perp T$ ,  
 bu yerda  $l_1 \in T, l_2 \in T$ .


**6. Perpendikulyar va og'ma to'g'ri chiziqlar**

10-rasmunda  $BC$  - perpendikulyar,  $AC$  - og'ma,  $AB$  - og'maning soyasi (projeksiyasi) tasvirlangan.


11-rasmunda tekislikka o'tkazilgan teng og'malar proyeksiyalarning tengligi

tasvirlangan.

12-rasmunda ikkita og'madan qaysi biri katta bo'lsa, u'sha og'maning kata proyeksiyaga ega bo'lishligi



tasvirlangan.



**Mavzuga oid murakkab masalalar va ularni yechimlari:**

1. Iki to'g'ri chiziq orasidagi masofani topish formulasini isbotlang.

$$\operatorname{tg} \alpha = k, \sin \alpha = \frac{d}{|b_2 - b_1|}$$


$$\cos^2 \alpha = \frac{1}{k^2 + 1}$$

$$1 - \sin^2 \alpha = \frac{1}{k^2 + 1}$$

$$\sin \alpha = \frac{\sqrt{k^2 + 1}}{k^2 + 1} = \frac{d \cdot k}{|b_2 - b_1|}$$

$$\frac{k}{\sqrt{k^2 + 1}} = \frac{d \cdot k}{|b_2 - b_1|}$$

$$d = \frac{|b_2 - b_1|}{\sqrt{k^2 + 1}}$$



1. To'g'ri chiziqlar orasidagi burchak tangensni formulasini isbotlang.



$$\begin{aligned}
 180^\circ - \varphi &= \beta - \alpha \\
 \operatorname{tg}(180^\circ - \varphi) &= \operatorname{tg}(\beta - \alpha) \\
 -\operatorname{tg}\varphi &= \frac{\operatorname{tg}\beta - \operatorname{tg}\alpha}{1 + \operatorname{tg}\alpha \cdot \operatorname{tg}\beta} \\
 \operatorname{tg}\varphi &= \frac{\operatorname{tg}\alpha - \operatorname{tg}\beta}{1 + \operatorname{tg}\alpha \cdot \operatorname{tg}\beta} = \frac{k_1 - k_2}{1 + k_1 \cdot k_2} \\
 \operatorname{tg}\varphi &= \frac{k_1 - k_2}{1 + k_1 \cdot k_2}
 \end{aligned}$$

2. Nuqtadan to'g'ri chiziqgacha eng qisqa masofani aniqlash formulani keltirib chiqaring.



$$\begin{cases}
 y = -\frac{a}{b}x - \frac{c}{b} \\
 y_0 = \frac{b}{a}x + A = \frac{b}{a}x + \left(y_0 - \frac{b}{a}x_0\right) \\
 -\frac{a}{b}x - \frac{c}{b} = \frac{b}{a}x + \left(y_0 - \frac{b}{a}x_0\right) \\
 x = \frac{b^2x_0 - aby_0 - ac}{a^2 + b^2} \\
 y = -\frac{a}{b}x - \frac{c}{b} = \frac{a^2y_0 - abx_0 - bc}{a^2 + b^2} \\
 L = |PQ| = \sqrt{(x - x_0)^2 + (y - y_0)^2} = \\
 \sqrt{\left(\frac{b^2x_0 - aby_0 - ac}{a^2 + b^2} - x_0\right)^2 + \left(\frac{a^2y_0 - abx_0 - bc}{a^2 + b^2} - y_0\right)^2} = \\
 \sqrt{\left(\frac{-a(ax_0 + by_0 + c)}{a^2 + b^2}\right)^2 + \left(\frac{-b(ax_0 + by_0 + c)}{a^2 + b^2}\right)^2} = \frac{|ax_0 + by_0 + c|}{\sqrt{a^2 + b^2}}
 \end{cases}$$

3. Og'ma tekislik  $\alpha$  burchak tashkil etadi. Shu burchak uchidan tekislikda og'ma bilan  $\gamma$  burchak tashkil etuvchi va og'maning tekislikdagi proyeksiyasi bilan  $\beta$  burchak tashkil etuvchi to'g'ri chiziq o'tkazilgan.  $\cos\gamma = \cos\alpha \cdot \cos\beta$  ekanligini isbotlang.



**Yechilishi:** SA kesma  $T$  tekislikka o'tkazilgan og'ma bo'lsa, AB esa  $T$  tekislikda berilgan to'g'ri chiziq. Tekislik bilan SA og'ma orasidagi  $\alpha$  burchakni yasash uchun  $S$  nuqtadan  $T$  tekislikka perpendikulyar tushiramiz. SA ning  $T$  tekislikdagi proyeksiyasi AO ni yasaymiz.  $\angle SAO = \alpha$  bo'lsa,  $\angle BAS = \gamma$  va  $\angle BAO = \beta$ . Aytaylik,  $DA \perp AB$  bo'lsin, unda  $SA \perp AB$ .



$$\Delta SAB \text{ dan } \cos \gamma = \frac{AB}{SA}, \Delta SAO \text{ dan } \cos \alpha = \frac{OA}{SA}, \Delta OAB \text{ dan } \cos \beta = \frac{AB}{OA}.$$

$$\text{Unda } \cos \alpha \cdot \cos \beta = \frac{OA}{SA} = \frac{AB}{OA} = \frac{AB}{SA} \cos \gamma.$$

$SA = x$  bo'lsin.

$$\Delta SBA \text{ dan } AB = SA \cos \gamma = x \cos \gamma \quad (1)$$

$$\Delta SAO \text{ dan } OA = SA \cos \alpha = x \cos \alpha$$


$$\Delta OAB \text{ dan } AB = OA \cos \beta = x \cos \alpha \cdot \cos \beta \quad (2)$$

(1) va (2)  $\Rightarrow x \cos \gamma = x \cos \alpha \cos \beta$  x kesma uzamligi bo'lgani uchun har ikkala tomonini x ga bo'lib yuboramiz va  $\cos \gamma = \cos \alpha \cdot \cos \beta$  ni hosil qilamiz.

4. Tekislikda olingan  $CAB$  burchak  $60^\circ$  ga teng. Fazodagi  $M$  nuqtadan burchak uchigacha bo'lgan masofa 25 ga, burchak tomonlarigacha bo'lgan masofalar 20 va 7 ga teng bo'lsa,  $M$  nuqtadan tekislikkacha bo'lgan masofani toping.

Yechilishi:

Masala shartiga mos chizma chizib olamiz:



$$AM = 25, MC = 7, MB = 20 \text{ va } \angle CAB = 60^\circ; MO = h = ?$$

$$\Delta AMC: AC^2 = AM^2 - MC^2 \rightarrow AC^2 = 25^2 - 7^2 \rightarrow AC = 24$$

$$\Delta AMB: AB^2 = AM^2 - MB^2 \rightarrow AB^2 = 25^2 - 20^2 \rightarrow AB = 15$$

$$\Delta ABC: BC^2 = AC^2 + AB^2 - 2 \cdot AC \cdot AB \cdot \cos(\angle CAB) \rightarrow BC^2 = 441$$

$$\Delta MOC: OC^2 = MC^2 - MO^2 \rightarrow OC^2 = 7^2 - h^2 \rightarrow OC = \sqrt{49 - h^2}$$

$$\Delta MOB: OB^2 = MB^2 - MO^2 \rightarrow OB^2 = 20^2 - h^2 \rightarrow OB = \sqrt{400 - h^2}$$

$$\square ABOC: \angle CAB = 60^\circ, \angle ABO = 90^\circ, \angle ACO = 90^\circ \rightarrow \angle COB = 120^\circ$$

$$\Delta BOC: BC^2 = OC^2 + OB^2 - 2 \cdot OC \cdot OB \cdot \cos(\angle COB)$$

$$BC^2 = 49 - h^2 + 400 - h^2 - 2 \cdot \sqrt{49 - h^2} \cdot \sqrt{400 - h^2} \cdot \left(-\frac{1}{2}\right)$$

$$441 - 2h^2 + \sqrt{19600 - 449h^2 + h^4} = 441$$

$$\sqrt{19600 - 449h^2 + h^4} = 2h^2 - 8$$

$$h = \sqrt{37}$$

Javob:  $\sqrt{37}$

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. GEOMETRIYADAN masalalar to'plami. E. E. Jumayev. Toshkent. "ALQACHIR" – 2005
2. Погорелов А.В. "Геометрия 10–11", учебник. –М., Просвещение, 2009.
3. Jo'rayeva N. O., Barakayeva D.Z. Algebraik kasrlar ustida birgalikda bajariladigan amallar. Образование и наука в XXI веке». Выпуск №26 (том 6) (май, 2022). -812-822 стр
4. Jo'rayeva N. O., Vaxshulloeva D. Masalalarni tenglamalar yordamida yechish metodikasi. Образование и наука в XXI веке». Выпуск №26 (том 6) (май, 2022). -561-571 стр
5. С.Ходжиев, Н.О.Жўраева. Некоторые указания и решением текстовые задачи связанные с работой. Pedagogik akmeologiya (maxsus son), 2022. -114-122

## TALABALARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA INNOVATSION YONDASHUV

Safojev Husen Aminovich,

*Buxoro Davlat Pedagogika instituti. Harbiy ta'lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig'i, dotsent.*

*Annotatsiya: Vatanparvarlik tarbiyasi o'z xususiyatiga ko'ra murakkab va ko'p qirrali faoliyatdir. Jamiyatning eng muhim qadriyatlaridan biri sifatida u o'z mazmuni tarkibida ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy, tarixiy va boshqa xususiyatlarni qamrab oladi. Insonning o'z vataniga yuksak emotsional-ruhiy munosabatining ifodasi bo'lib, vatanparvarlik inson ma'naviy boyligining bir tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Haqiqiy vatanparvarlik har doim insonning ma'naviy, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligining uzviy birligi sifatida namoyon bo'ladi va Vatan manfaatlarini uchun inson faoliyatida harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan keng ko'lamlislohotlarda yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish va faol ishtirokini ta'minlash bugungi kunning eng muhim dolzarb vazifalaridan bo'lib hisoblanadi.*

*Kalit so'zlar: ta'lim, aqliy rivojlanish, qiziqish, vatan, jarayon, faoliyat, shijoat, yuksak ma'naviyat, bilim, vatanparvarlik, komponent, qonuniyat, metod, onglilik, faollik, pedagog.*

## ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА

Сафоев Хусен Аминович,

*Руководитель цикла специальной подготовки*

*факультета военного образования, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

*Аннотация: Патриотическое воспитание по своей природе является сложной и многогранной деятельностью. Являясь одной из важнейших ценностей общества, она включает в свое содержание социальные, политические, духовно-этические, культурные, исторические и другие особенности. Он является выражением высокого эмоционального и духовного отношения человека к своей Родине, а патриотизм считается составной частью духовного богатства человека. Истинный патриотизм всегда проявляется как органическое единство духовной, гражданской ответственности и общественной активности человека и служит движущей силой в деятельности человека во имя интересов Родины. Воспитание молодежи в духе военного патриотизма, уважения к нашим национальным традициям и ценностям, воспитание духовно зрелого и физически здорового поколения, надежной защиты ее прав и интересов, привлечение молодежи к военной службе в рамках масштабных реформ, проводимых в Вооруженных Сил и обеспечение их активного участия является одной из важнейших неотложных задач современности.*

*Ключевые слова: образование, интеллектуальное развитие, интерес, Родина, процесс, деятельность, энтузиазм, высокая духовность, знания, патриотизм, составляющая, законность, метод, осознанность, активность, педагог.*

## INNOVATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF THE SYSTEM OF EDUCATION OF STUDENTS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM

Safojev Husen Aminovich,

*Head of Special Training Cycle, Faculty of Military Education, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*

*Abstract: Patriotic education is a complex and multifaceted activity by its nature. As one of the most important values of society, it includes social, political, spiritual-ethical, cultural, historical and other features in its content. It is an expression of a person's high emotional and spiritual relationship to his homeland, and patriotism is considered a component of human spiritual wealth. True patriotism is always manifested as an organic unity of a person's spiritual, civic responsibility and social activity and serves as a driving force in human activities for the interests of the Motherland. Educating young people in the spirit of military patriotism, respect for our national traditions and values, bringing up a spiritually mature and physically healthy generation, reliably protecting*

*their rights and interests, and attracting young people to military service in large-scale reforms carried out in the Armed Forces. and ensuring active participation is one of the most important urgent tasks of today.*

*Basic concepts: education, intellectual development, interest, homeland, process, activity, enthusiasm, high spirituality, knowledge, patriotism, component, legitimacy, method, awareness, activity, pedagogy.*

Kirish. Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, zamonaviy bilim va konikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va sergayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbusi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining—Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga muvofiq yoshlarni milliy goya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etish vazifalari ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasining qabul qilinishi, mamlakatimiz yoshlarining vatanparvarlik tarbiyasini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Konsepsiyaning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

yoshlarni milliy goya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuygusini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan etuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekanini haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish - bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik tarbiyasi va etuk fuqaro etib voyaga etkazish muammosi davlatimiz va jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Jahondagi siyosiy vaziyatning tez o'zgaruvchanligi, ijtimoiy-siyosiy hayotning o'ziga xos tomonlari, davlatimiz mudofaa qobiliyatini tinmay oshirishga, yosh avlodni vatan himoyasiga tizimli tayyorlashni talab etmoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy etuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga etkazish, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish va faol ishtirokini ta'minlash bugungi kunning eng muhim dolzarb vazifalaridan bo'lib turibdi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning —Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, deb ta'kidlagan fikrlarini biz yoshlarimizning qalbiga singdirib borishimiz lozim.

Vatanparvarlik tarbiyasi o'z xususiyatiga ko'ra murakkab va ko'p qirrali faoliyatdir. Jamiyatning eng muhim qadriyatlaridan biri sifatida u o'z mazmuni tarkibida ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy, tarixiy va boshqa xususiyatlarni qamrab oladi.

Insonning o'z vataniga yuksak emotsional-ruhiy munosabatining ifodasi bo'lib, vatanparvarlik inson ma'naviy boyligining bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Haqiqiy vatanparvarlik har doim insonning ma'naviy, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligining uzviy birligi sifatida namoyon bo'ladi va Vatan manfaatlarini uchun inson faoliyatida harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatdga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Darhaqiqat, yuksak ma'naviyatli avlod, albatta, imkoniyat va sharoit yaratib beradigan davlatda kamol topadi. Yurtimizda zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng muhim masaladir va yoshlarga oid davlat siyosati siyosatning eng ustuvor pog'onasida, balki zamon talab qilayotgan yuksak darajadadir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalar yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish. Yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash.

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy- ma'rifiy tadbirlar, Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etish. ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarida ommaviy va harbiy-vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy prinsiplari ilmiylik, tarixiylik, aniqlik va tezkorlik, muntazamlilik, faollik, ta'lim va tarbiya ishlarining uyg'unligi, tarbiya jarayonining izchilligi, harbiy- vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish hisoblanadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko'nikma, mahorat va mustahkam irodani, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan omillardan iborat. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usullari ishontirish, mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag'batlantirish, o'rnatish va shaxsiy namuna hisoblanadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, yoshlarga e'tibor, ularning ma'naviy rivojlanishi va yetuk shaxs bo'lishidagi sa'y-harakatlar avvaldan boshlangan tizimli an'anadir. O'lmas an'ananing poydevori – yoshlarning ma'naviyati. O'zi aslida ma'naviyat nechog'lik ahamiyat kasb etadiki, ma'naviyatli insonlar doim maqsadiga erishadi? Yoshlarning ushbu talabalarga javob berishi uchun ular yashayotgan muhit bosh omildir. Shuning uchun avvalo, yosh avlodning yashash va ta'lim olish muhitini yaxshilash va bu yo'lda amaliy islohotlarni yo'lga qo'yish lozim yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, harbiy xizmatga nisbatan ularning mustaqil fikri va ijobiy qarashlarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirib, o'quvchi yoshlarning nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarini boyitish maqsadida mudofaa ishlari bo'limlari va harbiy qismlar, o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli sermazzun va qiziqarli tadbirlar tashkil etish, milliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumot berib borish. yoshlarning o'z tanlagan kasbini puxta egallashi va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi uchun yaqindan ko'maklashish.

Kitobxonlikni keng targ'ib etish, jamiyatda yuksak ma'naviyatni qaror toptirishda badiiy asarlarning roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish, milliy mafkuramizga zid bo'lgan yot g'oyalarga qarshi tanqidiy qarash va mafkuraviy immunitetni, o'ziga ishonch, hushyorlik va ogohlik tuyg'ularini mustahkamlash, yoshlarda faol hayotiy pozitsiya va o'zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, mas'uliyatni his etish, qat'iy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish, ularni qat'iyatli bo'lishga o'rgatish.

Muhokamalar va natijalar. Vatanparvarlik xususiyati o'z xalqiga, millatiga va inson o'zi yashayotgan jamiyat va davlatiga nisbatan bo'lishi mumkin. Bu xususiyatlar birlashib, vatanparvarlikning yagona yaxlit xususiyatini tashkil qilishi kerak, chunki O'zbekistonning har bir mas'uliyatli fuqarosi uning oilasi, millatining manfaatlari yurtimizning boshqa millat va elatlarining manfaatlari bilan uzviy bogliqligini yaxshi tushunadilar. O'zbekiston fuqarolarining vatanparvarligi o'zining kichik vatani, o'z millatiga mansubligi xususiyatini, shuningdek, butun mamlakat uchun, butun O'zbekiston uchun mas'uliyat hissini ifoda etadi.

Vatanimiz tarixiga nazar solsak, uning ozodligi, mustaqilligiga xavf tugilsa, butun xalqimiz hamisha uning

himoyasiga otlangan.

Vatan himoyasiga fuqarolarni axloqiy-ruhiy jihatdan tayyorlash, O'zbekiston Respublikasini harbiy xafvsizligini ta'minlashning ijtimoiy- siyosiy yo'nalishlaridan biridir. Bugungi kunda Vatan himoyachisiga zamonaviy jangovar texnika va qurollarni boshqarishni ishonib topshirish uchun, u avvalo, buni nima uchun, qanday maqsadlarda amalga oshirayotganini chuqur tushunib etishi kerak. Har bir o'quvchiga uning oilasi, do'stlari, mahallasi, qishlogu-shaharlari, shuningdek, shonli tarixga, buyuk ma'daniyat va o'lmas an'analarga ega bo'lgan jonajon O'zbekistoni borligini etkazish kerak. Shuningdek, o'quvchilarga bu boyliklarni- oila, do'stlar va Vatanni vaqti kelganda qo'lda qurol bilan himoya qilish zaruriyati tugilishini ham tushuntirish kerak.

Vatanni tahdidli kunlarda mohirona himoya qilish uchun, yoshlikdan bunga tayyorlanish kerak. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi maktab davrida ommaviy ravishda o'tkaziladi, va u o'quvchilar uchun ham qiziqarli bo'ladi. Buning uchun bunday mas'uliyatli va sharafli vazifani amalga oshiradigan o'qituvchilar bu tarbiyani olib borish uchun, uning ilgor zamonaviy nazariyasi va amaliyotini chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari kerak.

Bizning Qurolli Kuchlarimiz doimiy ravishda yoshlar bilan to'ldirib borilmoqda. Bu yoshlar qisqa muddat ichida zamonaviy jangovar texnika va qurol-aslahalarni o'zlashtirishi va ulardan mohirona foydalanishni o'rganishlari kerak.

Qurolli Kuchlardagi yosh askarning muvaffaqiyatlari ko'p jihatdan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimining maqsadga yo'naltirilgan ishlariga bogliq bo'ladi. Vatanparvarlik tarbiyasi yosh avlodning ongi, ruhiyati, iroda va jismoniy tayyorgarligiga maqsadli va uzluksiz ravishda pedagogik ta'sir etishdir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, madaniyinsonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishda ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy-pedagogik qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Ijtimoiypedagogik qadriyatlar turli ijtimoiy tizimlarda ish olib boruvchi va ijtimoiy ongda namoyon bo'luvchi qadriyatlarning tavsifi va mazmunini aks ettiradi. Bu ta'lim sohasidagi jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi g'oyalar, tushunchalar, me'yorlar, qoidalar, an'analar majmuidir.

Yosh avlodni vatanparvarlik tarbiyasi har doim zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib kelgan, chunki bolalik va o'smirlik-Vatanga bo'lgan muhabbat tuygusini shakllantirish uchun eng maqbul davr hisoblanadi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi bajaradigan vazifalar uning tuzilishini belgilab beradi. Tashkiliy jihatdan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimining tarkibiy qismlari axloqiy-ruhiy, tarixiy, vatanparvarlik, harbiy-texnik va jismoniy tayyorgarlik bo'lib hisoblanadi.

Vatan himoyachisini tayyorlash tizimini tuzish va uning samaradorligini oshirish uchun Vatan himoyasiga shaylik singari insonning murakkab sifatlaridan biri va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsad va vazifalarini bilish muhim ahamiyatga egadir.

Shunday bo'lsada, Vatan himoyasiga shaylik to'g'risidagi tasavvurlar bu sifatni barcha murakkab tomonlarini, uning butun xususiyatini ochib bermaydi. Bu shuni anglatadi-ki, Vatanni o'z hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsada, himoya qilishga shaylikni rivojlantirishni, inson xarakterida alohida ijobiy sifatarni shakllantirish bilan almashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasiga shaylikni ta'minlovchi butun o'quv tarbiya jarayonini yaratish uchun u to'g'risida yaxlit bir tasavvurga ega bo'lish kerak.

Mana shu munosabat bilan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tashkilotchilari umumiy pedagogika va psixologiya, shuningdek, harbiy pedagogika va psixologiya bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lishi zarur. Chunki, bu fanlarning ta'kidlashicha, Vatan himoyasiga shaylik, e'tiqod, tuygu, qa'tiyatlilik, mustahkam iroda, jismoniy chiniqqanlik va harbiy uquv singari shaxsni butun bir sifatleri majmuasini namoyon qiladi.

Bu sifatarning barchasi bir-biri bilan uzviy boglangan bo'lib, ular birgalikda Vatan himoyasiga shaylikning yaxlit bir tuzilishini hosil qiladi va bu insonning asosiy sifatlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Vatanparvarlik tarbiyasidagi har bir yo'nalishning vazifalari uch jihatda amalga oshiriladi:

o'quvchini birlamchi mehr, muhabbat, gamxorlik, haqiqat va gozallik singari axloqiy xususiyatlar bilan tanishtirish;

o'quvchini hayot va insoniylik mazmunini anglash uchun, uning ichki shaxsiy ruhiyatini faollashtirish;

o'z faoliyati va atrofdagi olamga ijodiy yondoshuvni shakllantirish.

Umumta'lim maktablaridagi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi:

o'quvchilarda fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik, shuningdek boshqa ahamiyatga molik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish va ularni jamiyat hayotining turli jabhalarida faol tarzda amaliy qo'llash malakalarini shakllantirish.

**Vazifalar:**

Umumta'lim maktablarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sohasidagi huquqiy-normativ ta'minoti tizimini shakllantirish;

Shaxsning fuqarolik-vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishning eng samarali innovatsion uslublarini joriy etish;

O'quvchilarni amaliy faoliyatga jalb qilish orqali vatanparvarlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimini shakllantirish;

O'quvchilarda harbiy va davlat xizmatiga ijobiy munosabatni shakllantirish;

O'quvchilarni o'zini-o'zi namoyon qilish'ga va ijtimoiy hayotga moslashishiga sharoit yaratish;

Maktabning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sohasidagi faoliyatini jamoat birlashmalari va davlat tashkilotlari bilan ijtimoiy hamkorligini ta'minlash;

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishning sharoitlari bo'lib, fuqarolik mas'uliyatini yuksak ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini tan olish, vatanparvarlik va Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga shaylik kabi tamoyillar hisoblanadi.

Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sohasida amaliy faoliyatni amalga oshirishda ilmiylik, insoniylik, demokratizm, O'zbekistonning madaniy va tarixiy merosi, uning ma'naviy qadriyatlari va an'analari, yoshlar tarbiyasidagi uzluksizlik, tarbiyaning samaradorligini ta'minlovchi shakl, uslublar va vositalarning rang-barangligi, uni har bir o'quvchiga yakka tartibda yondoshish asosida shaxsning qobiliyat va sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi, boshqa tarbiya turlari bilan uning uzviy bogliqligi ham juda muhimdir.

Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida bu tamoyillarni amalga oshirilishi, ularda davlat va harbiy xizmatga, Vatan himoyasiga munosib tarzda tayyorlanishga haqiqiy ma'nodagi qiziqishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim mezonlaridan biri o'sib kelayotgan yosh avlod oldiga jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bu borada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ma'no-mazmuni, shakl va usullari bilan qay darajada mutanosib ekani, yoshlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirish, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, fuqarolik pozitsiyasi, Vatanni sevish va uni ko'z qorachig'idek asrashga qaratilgan bilim va ko'nikmalarni oshirish uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish, milliy armiyamiz saflarini zamonaviy bilim va professional malakaga, mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlar bilan to'ldirib borish imkonini beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi, - Toshkent: O'zbekiston, 2022 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. —Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017 y. – 488 b.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
4. A.I.Ibragimov, X.X.Sultonov. Vatan tuyg'usi - T. 1996 y.
5. O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi, Respublika iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash Ulug'bek jamg'armasi. Yoshlarga donolar o'giti. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018.
6. file:///C:/Users/user/Downloads/+Pedagogika+Nazarov%20(5).pdf

## MASOFAVIY TA'LIMDA ETECH TEXNOLOGIYALARINING AFZALLIKLARI

Saidova Zaxro Rahmatullayevna,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti,

*Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim texnologiyasi bo'lgan EdTech texnologiyasining Masofaviy ta'limdagi o'rni va talabalarining bilim samaradorligini oshirishdagi vazifalari haqida so'z yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: raqamli ta'lim texnologiyalari, Masofaviy ta'lim, onlayn ta'lim, EdTech texnologiyalari, flipped classroom.*

Dunyoda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarni, jumladan, masofaviy ta'limni joriy etish, ularning didaktik asoslarini o'rganib, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish metodikasi va metodologik asoslarini takomillashtirish, talabalardagi ijodiy bilish faoliyatini modellashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Inson faoliyatining barcha jabhalarida masofaviy ta'limda innovatsion pedagogic texnologiyalardan foydalanishning ko'lamlari qanday bo'lishiga hamda bu texnologiyalar ijtimoiy mehnat samaradorligining oshishida qanday rol o'ynashiga bog'liq. Demak, masofaviy ta'limda sharoitida raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishni tadbiiq etish kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir.

Masofaviy ta'limda raqamli ta'lim texnologiyalar o'qituvchi va talabalar o'rtasida ta'limning to'liq mazmunini, shakl, metod va vositalar majmuasini amalga oshirilishini ta'minlashga yo'naltirilganligidir. Raqamli texnologiyalar orqali masofaviy ta'lim axborotlarni uzatish, tarqatish, qayta ishlash va saqlash texnologiyalarini o'z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalarini kirib kela boshladi, biz muloqot qilishdan tortib, ishlash, o'ynash yoki onlayn xarid qilishgacha raqamli texnologiyalaridan foydalanishni boshladik. Raqamli texnologiyalar ta'lim sohasida ham yangi imkoniyatlarni olib kirdi.» EdTech texnologiyasi ham ana shunday yangiliklarni olib kirivchi texnologiya bo'lib, «ta'lim» va «texnologiya» so'zlarining birikmasidan olingan bo'lib, inklyuziv va individuallashtirilgan o'rganish tajribasini yaratish uchun sinfga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini joriy etish amaliyotini anglatadi.

EdTech yaxlit ta'lim tajribasini yaratish uchun sinfga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni nazarda tutadi.


EdTech yoki e-learning sinflarda o'qituvchi rahbarligidagi ta'limni yaxshilash va talabalarining ta'lim natijalarini yaxshilash uchun mo'ljallangan apparat va dasturiy ta'minotni qo'llashni o'z ichiga oladi. Ushbu raqamli ta'lim texnologiyasini samaradorligini quyidagicha aniqlash mumkin:

«Tegishli texnologik jarayonlar va resurslarni yaratish, ulardan foydalanish va boshqarish orqali o'rganishni osonlashtirish va samaradorlikni oshirishni o'rganish

EdTech texnologiyasidan foydalanishda o'rganilayotgan jarayonlar va resurslarni loyihalash, ishlab chiqish, ulardan foydalanish, boshqarish va baholash nazariyasi va amaliyotini bajarish.

O'qitishda EdTech interaktiv proyeksiya ekranlari, doskalar, raqamli qayd planshetlari va talabalarga javob berish tizimlarini o'z ichiga oladi. EdTech o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlarni ochib, ularga yosh ongni boyitish va rag'batlantirish imkonini beradi.

EdTech texnologiyani muntazam o'quv faoliyatiga integratsiyalash orqali an'anaviy sinfda inqilob qilmoqda. Bu o'qituvchilar, talabalar va rahbariyatga o'quv muhitini qayta loyihalash va o'quv tajribasini oshirishda yordam beradi. EdTech tufayli o'rganishni 24\*7 jarayonga aylantirish mumkin, bunda talabalar o'quv materiallaridan kechayu kunduz foydalanishlari mumkin bo'ladi.





EdTech o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi aloqa bo'shlig'ini bartaraf etish orqali raqamli ta'limni amalga oshirishga imkon beradi. Talabalar texnologiyalarga sho'ng'ib ketgan bir paytda rivojlangan sinf o'quvchilarning kundalik hayoti texnik qurilmalarining bir qismiga aylanib ulgurgan. Aynan shuning uchun ham tanish moslamalar yordamida o'rganish o'quv-tarbiya jarayoniga yangi jihat qo'shib, o'quvchilar o'rtasida tushunchalarni yaxshiroq tushunishni ta'minlaydi.

EdTech-ning eng katta afzalliklaridan biri bu har bir talaba uchun qulay tezlikda shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'minlash qobiliyatidir. O'qituvchilarda talabalar o'zlariga mos keladigan video ma'ruzalarni yozib olish imkoniyati mavjud. Talabalar esa to'xtab, o'qitilayotgan dars haqida mulohaza yuritishlari va oldinga o'tishdan oldin bir necha marta ma'ruza tinglashlari mumkin. Bu ularning o'rgatilgan tushunchalarni to'liq tushunishlarini ta'minlaydi.

Bugungi kunda bizning ixtiyorimizdagi texnik vositalar guruh loyihalari va topshiriqlarini bajarishni osonlashtiradi. Onlayn taqdimot ishlab chiqaruvchilar va o'quv guruhlaridan tortib, matn protsessorlari va elektron jadvallargacha, EdTech hamkorlikni rivojlantiradi va konstruktiv suhbatlarni rag'batlantiradi. Onlayn o'quv vositalari va ilovalari talabalar uydan turib guruh mashg'ulotlari bilan shug'ullanishi va internet orqali o'z jamoasi bilan aloqada bo'lishlari mumkin bo'lgan noyob muhit va yo'naltirilgan muhitni yaratadi. O'rganish tezkor va interaktiv bo'lib, bu diqqatni kuchaytirishga olib keladi, natijada faollik yaxshilanadi.

Bugungi talabalar texnologiyalaridan foydalanishni yaxshi bilishadi va vaqtlarining ko'p qismini Internetda o'tkazishga moyil. Bu qiziqishni maqsadli narsaga jalb qilish mumkin, masalan, onlayn o'rganishni yoqimli tajribaga aylantirish. Raqamli doskalar, planshetlar, noutbuklar, proyektorlar va videokonferensiya texnologiyalari kabi texnologiyalarning kiritilishi sinfni hayajonli joyga aylantiradi va talabalarning qiziqishini oshiradi. O'quv jarayonini qiziqarli va interfaol o'yinga aylantirish orqali o'quvchilarni o'qishga ilhomlantirishi mumkin. Bu uchun ko'plab o'quv o'yinlari va ilovalari mavjud.

Texnologiya o'qitishning ahamiyatini oshirish va o'qituvchilar va talabalar uchun samaraliroq qilish orqali o'qitish amaliyotini yaxshiladi. Bu qiyin ta'lim amaliyotlarini amalga oshirish va qo'llab-quvvatlash imkonini berdi.



Raqamli ta'lim texnologiyasidagi yutuqlar natijasida o'qituvchilar o'z darslariga audio va video kabi multimedia elementlarini, shuningdek, ko'rgazmali qurollar va talabalarga yo'naltirilgan faoliyatni kiritish imkoniyatiga ega. Bu talabalar uchun o'rganishni qiziqarli qiladi va o'qituvchilarga o'quvchilar chalg'imasligidan xavotirlanmasdan darslarni davom ettirishga imkon beradi.

EdTech vositalari yordamida o'qituvchilar dars rejalarini samarali va to'g'ridan-to'g'ri onlayn kurslarida ishlab chiqishlari mumkin, bu esa har kuni dars rejalarini tayyorlashga sarflanadigan vaqtni qisqartiradi. Baholash va ma'lumotlarni yig'ish yanada samaraliroq va tezroq bo'ladi, chunki onlayn testlar ko'pincha onlayn o'qitish platformalari orqali avtomatik ravishda baholanishi va qayd etilishi mumkin. O'qituvchilar bepul o'quv materiallariga onlayn rejimda kirishlari va qog'ozsiz foydalanishlari mumkin.

EdTech talabalar har bir bo'lim uchun asosiy materialni mustaqil ravishda va o'z tezligida o'rganishlari uchun ma'ruzalar o'rniga onlayn videolar yaratish imkoniyatini taqdim etish orqali aralash ta'lim imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Flipped classroom kabi usullar natijasida o'qituvchilar dars vaqtlarini ko'proq talabalar bilan muloqotda bo'lishlari va muammolarni hal qilish ko'nikmalari ustida ishlashlari mumkin.

Aynan pandemiya davrida EdTech an'anaviy ta'lim to'xtagan bo'lishiga qaramay, uzluksiz o'qishni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynadi va shu bilan keng miqyosda ta'lim berish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Covid-19 butun dunyoni uyda qolishga majbur qilib, bizga o'qitish va o'rganishda onlayn ta'lim muhim ekanligini ko'rsatdi. Pandemiya an'anaviy sinfdan tashqari shaxsiylashtirilgan o'rganish imkonini beruvchi texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojni tezlashtirdi. O'shandan beri an'anaviy, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish imkonini bo'lmay qoldi.

Covid-19 pandemiyasi «sinfidagi ta'lim» tushunchasini tubdan o'zgartirdi. Ilg'or EdTech integratsiyasi

bilan kelajak sinf xonalari yanada rivojlanadi. Ta'lim va ta'lim sohasi mutaxassislarining fikriga ko'ra, ta'lim texnologiyalari faqat o'sib boradi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, kelgusi o'n yil ichida korxonalar talabalar uchun shaxsiy ta'lim tajribasini yaratish uchun texnologiyadan foydalanadilar. EdTech ta'limni hamma uchun ochiq qilishni maqsad qilgan va mustahkam raqamli ta'lim tizimi kelajakning hal qiluvchi qismi bo'ladi. O'zining ulkan salohiyati va keng ko'lamli ta'siri bilan kengayib borayotgan EdTech texnologiyasi talabalarning raqamli asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallashini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Mamatov D.N, Bekchanova Sh.B, Sadiqova A.V, Xo'jaev A.A. LMS moodle tizimi va undan foydalanishni o'rganish. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Tashkent, 2020 y. 90 b

Saidova Z.R., Bakieva Fotima Rakhmatullaevna, Jumaev Zafar Zarifovich, Xursanov Sherzod Ulaboyevich and Xayriyev Furqat Nusrato'g'li. Using Modern Information Technologies in the Lesson. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192

Bekchonova Sh.B. Fanlar bo'yicha raqamli ko'nikmalarni targ'ib qilish – raqamli dunyoda o'qitish uchun aralash ta'lim. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'limning transformatsiyasi”. Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ilmiy maqolalar va ma'ruza tezislari to'plami (2022 yil 18 noyabr). – Tashkent: “Imzo Print Media Group”, 2022. – 320-322 b

Mamatov D.N. Elektron axborot ta'lim muhitida kasbiy ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. Dissertatsiya. 2017 y. 46 b.

Андреев А.А. Введение в дистанционное обучение. О'quv metodik qo'llanma. — М.: VU, 1997 y. 123 b.

Толстобок, О.Н. Современные методы и технологии дистанционного обучения. Монография – М.: Мир науки, 2020.

Ibraimov A.E. Masofaviy malaka oshirishning pedagogik dizayni. Toshkent. “Lesson press”, 2020 y. 39 b.

Ibraimov A.E. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. Amaliy qo'llanma. Toshkent. “Lesson press”, 2020 y. 32 b.

E.S.Polat tahriri ostida //“Ma'sofaviy ta'lim” Darslik. Ed.Vlados markazi. - 1998. – S. 192.

## KONSENTRIK FRENEL LINZALARINING OPTIK KUCHI

Salimov Sardor Samadovich, Narzullayev Ulug'bek Amrillo o'g'li, Nishonov Nurali Farhod o'g'li  
BuxDPI Aniq fanlar kafedrasi o'qituvchisi

*Annotatsiya: Konsentratorlar - quyosh nurlari oqimining zichligini oshiradigan optik qurilmalardir. Yuqori haroratli qurilmalar yoki «quyosh pechlari» uchun qabul qilgichdagi radiatsiya zichligining oshishi  $3000^{\circ}\text{C}$  va undan yuqori haroratni yaratishga olib keladi, bu esa barcha o'tga chidamli materiallarni sintez qilish imkonini beradi.*

*Konsentratorlar energiyasini issiq davrlarda bo'lgan quyosh elektr stantsiyalari uchun ma'lum parametrlarga ega bug' ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan haroratni yaratishga imkon beradi.*

*Frenel linza sistemasining fokal nuqtasida nurlanish zichligining hosil bo'lish qonuniyatlari aks etuvchi sistemalarda bunday jarayon sifat jihatdan farq qiladi: elementlar nurning burchak o'lchamlariga teng emas va bog'liq sistemasining zichligiga bog'liq. Mazkur maqolada biz Frenel linzasining optik kuchi hamda muhim burchak kattaliklari haqida so'z yuritamiz.*

*Kalit so'zlar: linza, fokus nuqta, nur, Frenel linzasi, konsentrator, integral koeffitsient, prizma, spektr.*

## ОПТИЧЕСКАЯ СИЛА КОНЦЕНТРИЧЕСКИХ ЛИНЗ ФРЕНЕЛЯ

С.С Салимов, У.А Нарзуллоев, Н.Ф Нишонов  
БухДПИ. Преподаватель кафедры Точные науки.

*Аннотация: концентраторы - это оптические устройства, которые увеличивают плотность потока солнечного света. Для высокотемпературных приборов или «солнечных печей» увеличение плотности излучения в приемнике приводит к созданию температуры  $3000^{\circ}\text{C}$  и выше, что позволяет синтезировать все огнеупорные материалы.*

*Концентраторы позволяют создавать температуру, необходимую для выработки пара с определенными параметрами для солнечных электростанций, энергия которых находится в теплые периоды.*

*Законы образования плотности излучения в фокальной точке системы линз Френеля в отражающих системах такой процесс качественно отличается: элементы не равны угловым размерам луча и зависят от плотности связанной системы. В этой статье мы поговорим об оптической силе линзы Френеля, а также о значительных угловых величинах.*

*Ключевые слова: линза, фокус, луч, линза Френеля, концентратор, интегральный коэффициент, prizma, спектр.*

## OPTICAL POWER OF CONCENTRIC FRESNEL LENSES

S.S Salimov, U.A Narzullayev, N.F Nishonov  
BuxDPI. Teacher of the Department of Exact Sciences

*Abstract: Concentrators are optical devices that increase the density of the sunlight stream. For high-temperature devices or «solar furnaces», an increase in the radiation density in the receiver leads to a temperature of  $3000^{\circ}\text{C}$  and above, which allows the synthesis of all refractory materials.*

*Concentrators allow their energy to create the temperature necessary for the production of steam with certain parameters for solar power plants in hot periods.*

*In systems where the formation laws of radiation density at the focal point of a Frenel lens system are reflected, such a process is qualitatively different: the elements are not equal to the angular dimensions of the beam and depend on the density of the dependent system. In this article, we will talk about the optical power of the Frenel lens as well as important angular magnitudes.*

*Keywords: lens, focus, beam, Fresnel lens, concentrator, integral coefficient, prism, spectrum.*

*Konsentratorlar energiyasini issiq davrlarda bo'lgan quyosh elektr stantsiyalari uchun ma'lum parametrlarga ega bug' ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan haroratni yaratishga imkon beradi.*

*Linza sistemasining fokal nuqtasida nurlanish zichligining hosil bo'lish qonuniyatlari aks etuvchi sistemalarda bunday jarayon sifat jihatdan farq qiladi: elementlar nurning burchak o'lchamlariga teng emas va bog'liq sistemasining zichligiga bog'liq*

Prizma tomonidan sindirilgan nurlarning hosil bo'lgan deformatsiyasi integral koefitsiyent bilan bo'lganadi.

$$Z = \frac{\cos a \cos c}{\cos b \cos \delta} \quad (1)$$

Bu yerda  $a$  va  $c$  tushuvchi burchaklar (odatda  $i$  bilan belgilanadi), mazkur formuladagi  $b$  va  $\delta$  sinish burchaklari (odatda  $r$  bilan belgilanadi).

Linzaning silliq tomonida tushuvchi nurlar  $a=b=0$ , konstruksiyadan esa  $c$  va  $\delta$  burchaklari kelib chiqadi.

Qiyalik burchagi  $\alpha$  ning  $U$  teshikka bog'liqligini hisobga olgan holda formulani quyidagicha yozish mumkin.

$$tg \alpha = \frac{\sin U}{n - \cos U} \quad (2)$$

Hosil bo'lgan (1) va o'tuvchi nurlarning burchak o'lchamlari orasidagi nisbatni hisobga olib, quyidagi koefitsiyentni olamiz.

$$Z_{\alpha} = \frac{\cos \alpha}{\cos(\alpha + U)} = \frac{n - \cos U}{n \cos U - 1} \quad (3)$$

bu erda indeks  $\alpha$  formulani silliq tomoni tashqariga qaragan linzalarning turiga ishora qiladi.

Shunday qilib, sinishi nurining burchak o'lchami quyidagi formula bilan belgilanadi.

$$\varphi_f = Z_{\alpha} \cdot \varphi_0 \quad (4)$$

bu yerda  $\varphi_0$  - quyosh elementar nurining burchak o'lchami.

Konsentrik va Chiziqli Frenel linzalari uchun fokusli nuqta diametri tomonidan berilgan.

$$D_m = 2f \varphi_0 Z / \cos U \quad (5)$$

Ishchi profilga ega bo'lgan linzalar uchun, tushgan yorug'lik oqimiga qarab, ishchi profilning sinishi burchaklari  $p$  ni bildiradi va tegishli formulalar quyidagi shaklni oladi

$$tg \beta = \frac{\sin U}{1 - \sqrt{n^2 - \sin^2 U}} \quad (6)$$

$$Z_{\beta} = \frac{\sqrt{n^2 - \sin^2 U}}{\cos U}. \quad (7)$$

1-rasmda yorug'lik sinishi o'tkazuvchanligi  $n = 1,5$  bo'lgan shartli linzalar uchun  $Z_{\alpha}$ ,  $Z_{\beta}$ , burchaklar  $\alpha$  va  $\beta$  qiymatlari va  $K_{\alpha}$  va  $K_{\beta}$  konsentratsiya koefitsientlarining o'zgarishi grafiklarini ko'rsatadi.


$Z$  integral koefitsientlarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, agar diafragma burchaklari  $U$  teng bo'lsa,  $\beta$  modifikatsiyasining linzalari silliq tomoni tashqi tomonga qaragan

linzalarga qaraganda yuqori konsentratsiyaga ega (modifikatsiya a). Shunday qilib,  $U = 20^\circ$  bo'lgan konsentrik (aylanali) linzalari uchun bizda  $(K_\alpha/K_\beta)_i \sim 2$ , ya'ni. modifikatsiyadagi linzalarning konsentratsiyalash koefitsiyenti  $\beta$  modifikatsiyaga nisbatan 2 barobar yuqori  $\alpha$  dan ko'ra. Chiziqli Frenel linzasi uchun  $(K_\alpha/K_\beta)$  1 ~ 1,4 uchun, ya'ni konsentratsiya koefitsiyenti 40% dan yuqori.

Konsentratsiyali Frenel linzalari konsentrasiyalari Fokus nuqtasi markazida formula bilan hisoblanishi mumkin (0,5 mm ga qadar bo'lgan linzalari uchun, aks holda qadamning kattaligi bo'yicha markazlashtirilgan nuqta loyqasini hisobga olish kerak):

$$E_{max} = \frac{\tau E_0 \sin^2 U_m}{(Z\varphi_0)^2} \quad (8)$$

bu yeda  $E_0$  – to'g'ri quyosh radiatsiyasi,  $Wat/m^2$ ;  $\tau$  – Frenel linzasining yorug'lik o'tkazuvchanlik integrallik koefitsiyenti;  $\varphi_0$  – radius burchagi,  $U_m$  -linzalarning maksimal ochilish burchagi (burchak kattaligi);  $Z$  - mos keladigan modifikatsiyaning linzalari uchun integral koefitsient.



1-rasm. Frenel linzasi modifikatsiyalari  $\alpha$  va  $\beta$  parametrlarining sinishi ko'rsatkichi  $n = 1,5$  bo'lgan  $U$  ochilish burchagiga bog'liqligi.

Xromatik aberatsiyalarni hisobga olgan holda Fresnel linzalarining konsentratsion qobiliyati. Quyosh nurlari Fresnel linzasining prizma yuzlaridan o'tayotganda, spektrga aylanadi, umumiy holda elementar nur esa  $\Delta\delta$  burchak kengayishini oladi.

$$\Delta\delta = \frac{\sin \theta}{\cos b \cos \delta} \Delta n \quad (9)$$

Bu yerda  $\theta$  – prizmaning cho'qqi burchagi;  $b$  – sinish burchagi;  $\delta$  – chiquvchi nurlarning burchak kattaligi. Kiruvchi nurlanishga nisbatan turli xil ishchi profilli prizmalar uchun  $\Delta$  va  $d$  ning qiymatlari (yo'nalish bo'yicha yoki qarshi) boshqacha bo'ladi. Linza uchun modifikatsiya burchagi bo'lmish  $\alpha$  burchagini quyidagi formula orqali hisoblab topish mumkin.

$$\Delta\delta = \frac{\sin U \Delta n}{n \cos U - 1} \quad (10)$$


Linza uchun modifikatsiya burchagi  $\beta$  ning qiymati oshadi

$$\Delta\delta = \frac{n \operatorname{tg} U \Delta n}{\sqrt{n^2(1 - 2\sqrt{n^2 - \sin^2 U} + n^2) - \sin^2 U}} \quad (11)$$

Linzadan o'tishidan keyin elementar nurning burchak o'lchami bo'ladi.

$$\varphi_m'' = \varphi_m + \Delta\delta \quad (12)$$

bu yerda  $\varphi_m$  – linzadan o'tgan elementar monoxromatik nurning burchak kattaligi.



2-rasm: Frenel linzasi yuzlaridagi elementar nurlar  $\varphi_0$  spektriga parchalanish hosil bo'lishi

Quyosh qurilmalarida xromatik aberatsiyani faqat quyosh elementi o'lchamlari nuqta linzalarining markazlashtirilgan nuqtasiga mutanosib bo'lgan hollarda hisobga olish kerak. Odatda quyosh panellarda ko'p marta elementar nurning tasviridan kattaroq va shuning uchun xromatik aberatsiyalarni hisobga olinmasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Д. С. Стребков, Э. В. Тверьянович. Солнечные электростанции концентраторы солнечного излучения. Москва. Юрайт. 2019. 11-19.

Sardor, S. (2023). QUYOSH KONSENTRATORLARI FOKUSINING YORUG'LIK ZICHLIGI TAQSIMOTI. Innovations in Technology and Science Education, 2(15), 61-67.

Samadovich, S. S. (2022). FRENEL LINZASIDA YORUG'LIKNING DIAMETIRINI ANIQLASH. Евразийский журнал академических исследований, 2(2), 383-385.

Samadovich, S. S. (2023). FRENEL LINZASINI SUV CHUCHUTGICHLARDA QO'LLANILISHI. Наука и технологии, 1(3).

## TA'LIMDA KENGAYTIRILGAN HAQIQAT (AR) TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

*Sattorov Sardor Abdumuratovich*  
*Termiz davlat pedagogika institute o'qituvchisi*

*Abdumo'minov Burxonjon Sunnatillo o'g'li*  
*Termiz davlat pedagogika institute o'qituvchisi*

*Eshboyev Umid Shuxrat o'g'li*  
*Termiz davlat pedagogika institute o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari ta'limda kuchli vosita sifatida paydo bo'lib, o'quvchilarni jalb qilish va o'rganish tajribasini oshirishning innovatsion usullarini taklif etadi. Ushbu maqola AR texnologiyalarini ta'lim sharoitlariga integratsiyalashning afzalliklarini o'rganadi. Unda AR qanday qilib o'quvchilarning faolligini oshirishi, chuqur o'rganish tajribasini osonlashtirishi, ma'lumotlarni saqlanishini yaxshilashi va talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishi muhokama qilinadi. Bundan tashqari, maqola o'rganishni shaxsiylashtirish, turli xil o'rganish uslublarini qondirish va talabalarni raqamli dunyoda kelajakdagi martaba uchun tayyorlash uchun AR potentsialini o'rganadi. Umuman olganda, AR texnologiyalari ta'limni o'zgartirish va talabalarni 21-asrda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun istiqbolli yo'lni taklif etadi.*

*Kalit so'zlar: kengaytirilgan haqiqat, ta'lim, texnologiya, o'rganish, jalb qilish*

## ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ДОПОЛНЕННОЙ РЕАЛЬНОСТИ (AR) В ОБРАЗОВАНИИ

*Саторов Сардор Абдумуратович*  
*преподаватель Термизского Государственного педагогического института.*

*Абдумоминов Бурханджон Суннатилло угли*  
*преподаватель Термизского Государственного педагогического института.*

*Эшбоев Умида Шухрат угли*  
*преподаватель Термезского государственного педагогического института.*

*Аннотация: Технологии дополненной реальности (AR) становятся мощным инструментом в образовании, предлагая инновационные способы вовлечения учащихся и повышения качества обучения. В этой статье рассматриваются преимущества интеграции технологий AR в образовательную среду. В нем обсуждается, как AR может повысить вовлеченность студентов, способствовать более глубокому обучению, улучшить сохранение данных и способствовать сотрудничеству между студентами. Кроме того, в статье исследуется потенциал AR для персонализации обучения, адаптации к различным стилям обучения и подготовки студентов к будущей карьере в цифровом мире. В целом, технологии AR предлагают многообещающий способ изменить образование и подготовить студентов к успеху в 21 веке.*

*Ключевые слова: дополненная реальность, образование, технологии, обучение, вовлечение.*

## BENEFITS OF USING AUGMENTED REALITY (AR) TECHNOLOGIES IN EDUCATION

*Satorov Sardor Abdumuratovich*  
*Termiz State Pedagogical Institute is a teacher*

*Abdumo'minov Burkhanjon Sunnatillo ugli,*  
*teacher at Termiz State Pedagogical Institute*

*Eshboyev Umid Shukhrat ugli,*  
*a teacher at Termiz State Pedagogical Institute*

*Abstract: Augmented reality (AR) technologies are emerging as a powerful tool in education, offering*

*innovative ways to engage students and enhance the learning experience. This article explores the benefits of integrating AR technologies into educational settings. It discusses how AR can increase student engagement, facilitate deeper learning experiences, improve data retention, and foster collaboration among students. In addition, the paper explores the potential of AR to personalize learning, accommodate different learning styles, and prepare students for future careers in the digital world. Overall, AR technologies offer a promising way to transform education and prepare students for success in the 21st century.*

*Keywords: augmented reality, education, technology, learning, engagement*

Kirish. So'nggi yillarda texnologik yutuqlar ta'lim sohasida inqilob qila oldi, o'rganish tajribasini oshirish uchun yangi vositalar va usullarni taklif qilgan holda rivojlanishning yuqori nuqtasiga olib chiqdi. Katta e'tiborni jalb qilgan shunday texnologiyalardan biri bu kengaytirilgan haqiqat (AR) deyish mumkin. AR raqamli ma'lumotlar va virtual ob'ektlarni real dunyo muhitiga birlashtirib, foydalanuvchilarga interaktiv va immersiv tajribani taqdim etadi. Ta'lim kontekstida AR an'anaviy o'qitish usullarini o'zgartirish va qiziqarli va dinamik o'quv muhitini yaratish imkoniyatiga ega.

Ta'limda AR dan foydalanish shunchaki yangilik emas; u talabalarning ta'lim natijalarini oshirishi mumkin bo'lgan aniq imtiyozlarni taklif qiladi. Raqamli ma'lumotlarni real dunyoga joylashtirish orqali AR mavhum tushunchalarni yanada aniqroq va tushunishni osonlashtiradi. Shuningdek, u talabalarga virtual ob'ektlar va muhitlar bilan ilgari imkonsiz bo'lgan usullar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish imkonini beruvchi amaliy o'rganish tajribasini taqdim etishi mumkin. Bu ma'lumotni yaxshi saqlashga va murakkab mavzularni chuqurroq tushunishga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, AR o'rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qilish orqali talabalarning faolligini oshirishi mumkin. U turli xil ta'lim uslublari va afzalliklarini qondirishi mumkin, bu o'quvchilarga o'z tezligida va ularga eng mos keladigan tarzda o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, AR talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishi mumkin, chunki bu ularga interaktiv loyihalarda birgalikda ishlash va o'rganish tajribalarini baham ko'rish imkonini beradi.

Umuman olganda, ta'limda AR texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari juda ko'p va ahamiyatlidir. Ushbu maqolada biz ushbu afzalliklarni batafsil ko'rib chiqamiz va ta'lim natijalarini yaxshilash uchun ARni ta'lim sharoitlariga qanday qilib samarali integratsiya qilish mumkinligini muhokama qilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ta'limda AR texnologiyalaridan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri bu talabalarning faolligi va motivatsiyasini oshirish qobiliyatidir. AR ilovalari o'quvchilar e'tiborini tortadigan va o'rganishni yanada qiziqarli qiladigan interaktiv va immersiv o'rganish tajribasini yaratishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, talabalar an'anaviy o'rganish usullariga nisbatan AR dan foydalanishda ko'proq ishtirok etadilar (Klopfer va boshq., 2008; Dunleavy va boshq., 2009). Ishtirok etishning kuchayishi ta'lim natijalarini yaxshilashga va o'rganishga nisbatan ijobiy munosabatga olib kelishi mumkin[1].

AR texnologiyalari o'quvchilarga virtual ob'ektlar va muhitlar bilan o'zaro aloqada bo'lish imkoniyatlarini taqdim etish orqali o'rganish tajribasini ham oshirishi mumkin. Misol uchun, tarixni o'rganayotgan talabalar AR-dan tarixiy joylar va artefaktlarni o'rganish uchun foydalanishlari mumkin, bu esa o'z bilimlarini hayotga olib keladi. Ushbu amaliy yondashuv o'quvchilarga murakkab tushunchalarni tushunishga va ma'lumotni saqlashni yaxshilashga yordam beradi (Billinghurst va boshq., 2001; Akçayır & Akçayır, 2017)[4].

Ta'limdagi ARning yana bir afzalligi - bu o'quv tajribasini o'quvchilarning individual ehtiyojlari va afzalliklaridan kelib chiqqan holda shaxsiylashtirish qobiliyatidir. AR ilovalari tarkib va sur'atni har bir talabaga moslashtirib, moslashtirilgan o'rganish tajribasini taqdim etishi mumkin. Ushbu shaxsiylashtirilgan yondashuv turli xil o'rganish uslublari va qobiliyatlarini qondirishi mumkin, bu esa ta'lim natijalarini yaxshilashga olib keladi (Jonson va boshq., 2016; Li va boshq., 2017)[3].

AR, shuningdek, talabalarga interfaol loyihalarda birgalikda ishlashga imkon berish orqali hamkorlikda o'rganishni rivojlantirishi mumkin. Masalan, talabalar AR-dan virtual taqdimotlar yoki simulyatsiyalar yaratish, jamoaviy ish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun foydalanishlari mumkin. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv o'quv natijalarini oshirishi va talabalarni jamoaviy ish va hamkorlikni talab qiladigan kelajakdagi martaba uchun tayyorlashi mumkin (Dunleavy va boshq., 2009; Huang va boshq., 2010)[2].

Ta'limda AR texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari:



| Ta'limda AR texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari: |   |
|--|---|
| Kengaytirilgan talabalar ishtiroki:                          | AR talabalarga real vaqt rejimida virtual ob'ektlar bilan o'zaro ta'sir qilish imkonini beradi va amaliy o'rganish tajribasini beradi. Misol uchun, biologiyani o'rganayotgan talabalar AR-dan hujayralar va organizmlarning 3D modellarini o'rganish uchun foydalanishlari mumkin, bu ularning murakkab tushunchalarni tushunishlarini kuchaytiradi. |
| Immersiv ta'lim tajribasi:                                   | AR texnologiyasi interaktiv va immersiv o'rganish tajribasini yaratish orqali talabalar e'tiborini jalb qilishi mumkin. Raqamli ma'lumotni real dunyoga qo'shish orqali AR o'rganishni yanada qiziqarli va rag'batlantiradi, bu esa diqqatni jamlash va ma'lumotni saqlashni yaxshilashga olib keladi.  |
| Ma'lumotni saqlashning yaxshilanishi:                        | Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, AR ko'p sensorli o'rganish tajribasini taqdim etish orqali ma'lumotni saqlashni yaxshilashi mumkin. Vizual, eshitish va kinestetik hislarni jalb qilish orqali AR talabalarga ma'lumotni an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samaraliroq saqlashga yordam beradi  |
| Hamkorlikni rag'batlantirish:                                | AR talabalarga interfaol loyihalarda birgalikda ishlash imkonini berish   |

**Кенгайтirilgan talabalar ishtiroki:** AR talabalarga real vaqt rejimida virtual ob'ektlar bilan o'zaro ta'sir qilish imkonini beradi va amaliy o'rganish tajribasini beradi. Misol uchun, biologiyani o'rganayotgan talabalar AR-dan hujayralar va organizmlarning 3D modellarini o'rganish uchun foydalanishlari mumkin, bu ularning murakkab tushunchalarni tushunishlarini kuchaytiradi.

**Immersiv ta'lim tajribasi:** AR texnologiyasi interaktiv va immersiv o'rganish tajribasini yaratish orqali talabalar e'tiborini jalb qilishi mumkin. Raqamli ma'lumotni real dunyoga qo'shish orqali AR o'rganishni yanada qiziqarli va rag'batlantiradi, bu esa diqqatni jamlash va ma'lumotni saqlashni yaxshilashga olib keladi.

**Ma'lumotni saqlashning yaxshilanishi:** Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, AR ko'p sensorli o'rganish tajribasini taqdim etish orqali ma'lumotni saqlashni yaxshilashi mumkin. Vizual, eshitish va kinestetik hislarni jalb qilish orqali AR talabalarga ma'lumotni an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samaraliroq saqlashga yordam beradi.

**Hamkorlikni rag'batlantirish:** AR talabalarga interfaol loyihalarda birgalikda ishlash imkonini berish orqali hamkorlikda o'rganishni osonlashtirishi mumkin. Masalan, talabalar AR-dan virtual taqdimotlar yoki simulyatsiyalar yaratish, jamoaviy ish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun foydalanishlari mumkin.

**Shaxsiylashtirilgan ta'lim:** AR o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va afzalliklari asosida o'rganish tajribasini shaxsiylashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Tarkib va sur'atni har bir talabaga moslashtirib, AR turli xil o'rganish uslublari va qobiliyatlarini qondirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari ta'limda muhim afzalliklarni taqdim etadi, o'quvchilarning faolligini oshiradi, chuqur o'rganish tajribasini taqdim etadi, o'rganishni shaxsiylashtiradi va hamkorlikda o'rganishni rag'batlantiradi. Ko'rib chiqilgan adabiyotlar shuni ko'rsatdiki, AR an'anaviy o'qitish usullarini o'zgartirish va o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondiradigan dinamik va interaktiv o'quv muhitini yaratish imkoniyatiga ega.

Raqamli ma'lumotni real dunyoga qo'shib, AR o'rganishni yanada aniqroq va tushunishni osonlashtiradi, bu esa ma'lumotni yaxshi saqlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, AR har bir talabaga mos ravishda tarkib va sur'atni moslashtira oladi, bu esa turli o'rganish uslublari va qobiliyatlariga moslashtirilgan o'rganish tajribasini taqdim etadi.

Bundan tashqari, AR talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishi mumkin, bu ularga interfaol loyihalarda birgalikda ishlash va o'rganish tajribalarini baham ko'rish imkonini beradi. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv nafaqat ta'lim natijalarini oshiradi, balki talabalarni jamoada ishlash va muloqot qilish qobiliyatini talab qiladigan kelajakdagi martaba uchun tayyorlaydi.

Umuman olganda, ta'limda AR texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari juda katta va istiqbolli. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, AR o'qituvchilar uchun talabalarning ta'lim natijalarini oshirish va talabalarni 21-asrda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun qimmatli vositani taklif qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

Klopfer, E., Squire, K., & Jenkins, H. (2008). Environmental Detectives - The development of an augmented reality platform for environmental simulations. *Educational Technology Research and Development*, 56(2), 203-228.

Dunleavy, M., Dede, C., & Mitchell, R. (2009). Affordances and limitations of immersive participatory augmented reality simulations for teaching and learning. *Journal of Science Education and Technology*, 18(1), 7-22.

Billinghurst, M., Weghorst, S., & Furness, T. (2001). Shared Space: An Augmented Reality Approach to Computer Supported Collaboration. *Proceedings of the Virtual Reality International Conference (VRIC)*.

Akçayır, M., & Akçayır, G. (2017). Advantages and challenges associated with augmented reality for education: A systematic review of the literature. *Educational Research Review*, 20, 1-11.

Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., & Freeman, A. (2016). *NMC Horizon Report: 2016 Higher Education Edition*. The New Media Consortium.

САТТОРОВ, С. (2023). ДАРС ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАР ОНГЛИ ИНТИЗОМЛИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies*, 1(6), 3-8.

Sattorov, S. Discipline and the dyad of «master-study» SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 5 MAY 2023 UIF-2022: 8.2| ISSN: 2181-3337| SCIENTISTS. UZ <https://doi.org/10.5281/zenodo.7949575>.

Abdimuradovich, S. S. (2022). THE MAIN FACTORS OF INDISCIPLINE AMONG STUDENTS OF GENERAL EDUCATION SCHOOLS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(12), 242-247.

Abdumo'minov, BS o'g'li, & Nuraliyeva, FA qizi. (2023).

---

**“TEXNIK IJODKORLIK VA KONSTRUKSIYALASH” FANINI TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISHDA “EVRIK METOD”DAN FOYDALANISH**

*Sayfullayeva Dilafro‘z Axmadovna*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti, “Texnologik ta’lim” kafedrasida dotsenti*  
<https://orcid.org/0000-0002-0980-5812>

---

*Akobirova Madina Bo‘ronovna*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti, 13.00.02 – ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi 2-bosqich tayanch doktoranti,*

---

*Annotatsiya: Ushbu maqolada “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fanini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida o‘qitishda “Evristik metod” dan foydalanish va uning imkoniyatlari, shart-sharoitlari, fanning ma’ruza, amaliy va tajribasini o‘rganish va o‘qitish jarayonida konstruksiyaning yangi qirralarini ko‘ra bilishda va o‘rganishda, mustaqil fikrlashda, ijodiy tafakkurni rivojlantirishda “Evristik metod” shakllaridan “Evristik savollar” va “Evristik eksperimentlar” metodining o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida yoritib berilgan.*

*Tayanch iboralar: Texnik ijodkorlik, konstruksiya, evristik metod, didaktika, yondoshuv, eksperiment, konstruktiv texnologiya, ijodiy stereotiplar, grafik va analitik loyihalash, loyihaviy diskriminantlar, radiusografiya.*

**ПРИМЕНЕНИЕ “ЭВРИСТИЧЕСКОГО МЕТОДА” В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТУ «ТЕХНИЧЕСКОЕ ТВОРЧЕСТВО И КОНСТРУИРОВАНИЕ» НА ОСНОВЕ КЛАССИФИЦИРОВАННОГО ПОДХОДА**

*Сайфуллаева Дилафруз Ахмадовна*  
*доцент кафедры Технологического образования в Бухарском государственном педагогическом институте*

---

*Акобировна Мадина Буруновна*  
*Бухарский государственный педагогический институт, базовый докторант 2 курса по специальности 13.00.02-теория и методика воспитания*

---

*Аннотация: В данной статье рассматривается использование «Эвристического метода» в преподавании предмета «Техническое творчество и конструирование» с учётом дифференцированного подхода. Обсуждаются возможности этого метода, условия, лекции, практика и опыт изучения предмета, а также новые аспекты конструирования. Раскрывается роль и значение «Эвристических вопросов» и «Эвристических экспериментов» в рамках «Эвристического метода» для развития творческого мышления, самостоятельного мышления и обучения.*

*Ключевые слова: Техническое творчество, конструирование, эвристический метод, didaktika, подход, эксперимент, конструктивная технология, творческие стереотипы, графический и аналитический дизайн, дискриминанты дизайна, рентгенография.*

**USING THE «HEURISTIC METHOD» IN TEACHING THE SUBJECT OF «TECHNICAL CREATIVITY AND CONSTRUCTION» BASED ON A CLASSIFIED APPROACH**

*Sayfullyeva Dilafruz Akhmadovna*  
*Bukhara State Pedagogical Institute «Technological Education» Associate Professor*

---

*Akobirova Madina Buronovna*  
*Bukhara State Pedagogical Institute, basic doctoral student of the 2nd degree in the specialty 13.00.02-theory and methodology of education.*

---

*Abstract: This article explores the use of the «Heuristic Method» in teaching the subject «Technical Creativity and Design» based on a differentiated approach and its possibilities, conditions, lectures, practice, and the experience of studying the subject, as well as new aspects of design. The role and significance of «Heuristic Questions» and «Heuristic Experiments» from the forms of the «Heuristic Method» in education, independent thinking, and the development of creative thinking are clarified during the teaching and instruction process.*

*Keywords: Technical creativity, design, heuristic method, didactics, approach, experiment, constructive technology, creative stereotypes, graphic and analytical design, design discriminants, radiography.*

Hozirgi jadal rivojlanayotgan Yangi O‘zbekistonda bo‘lajak o‘qituvchilarni texnik ijodkorligini, tafakkurini rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Ta‘lim sohalarida zamonaviy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish va jamiyat oldida turgan muammolarni bartaraf etish yangi avlod ixtirochilarini tayyorlash darajasiga bog‘liq. Bo‘lajak o‘qituvchilarga politexnik ta‘lim berish orqali hozirgi ishlab chiqarish sanoatiga xos texnik-texnologik, konstruktorlik va ishlab chiqarish faoliyatlarining asoslarini egallanishiga erishiladi. Talabalarda texnik ijodkorlikni, kreativ fikrlashni, muloqotchanlikni, innovatsion goyalarni, tafakkur va tasavvurni, ijodiy stereotiplarni rivojlantirishda Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanining o‘rni beqiyosdir.

Oliy ta‘lim muassasalarida texnologik ta‘lim yo‘nalishlarida “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fani majburiy fanlar blokiga kiruvchi fan bo‘lib, 2 semestr o‘tiladi. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fani umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘qitiladigan «Texnologiya» fani bilan bevosita aloqador bo‘lib, texnologiya fani quyidagi yo‘nalishlar asosida o‘qitiladi: servis xizmati, texnologiya va dizayn, umumlashtirilgan yo‘nalish.

“Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fanini o‘qitishdan maqsad talabalarga texnik ijodkorligini rivojlantirishning ijtimoiy - pedagogik muammolari; texnik ijodkorlik faoliyatining tashkiliy asoslari; ixtiro, kashfiyot, ratsionalizatorlik takliflari va patent axboroti; texnik ijodkorlik masalalarini yechish metodlari; dizayn va modellashtirish; ergonomika va dizayn asoslari; texnik modellashtirish va konstruksiyalash; o‘quvchilar texnik ijodkorligi faoliyatiga rahbarlik qilish, sinfdan va maktabdan tashqari muassasalarda texnik ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish; o‘quvchilar texnik ijodkorligini rivojlantirish kabi masalalarni o‘rgatish vazifasini bajarish va ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qiladi. Talabalarga servis xizmati bo‘yicha konstruksiyalash va modellashtirish bo‘limi mazmunida texnologiya fanini 5-9 sinflarda o‘qitishda tikuvchilik buyumlarini konstruksiyalash va tanlangan fason asosida kiyim fasonlarini o‘zgartirish, ya‘ni, modellashtirish va kiyim maketlarini tikish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qiladi.

“Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fani talabalar uchun qiziqarli bo‘lib, egallayotgan bilimlarining mustahkamligi va mukammalligini ta‘minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi.

Ijodkorlikka bo‘lgan ehtiyoj psixofiziologik jihatdan qaralganda, o‘z rivojlanishida bir nechta bosqichlarda amalga oshadi. Bulardan birinchisi havas - ehtiyojning eng sodda shakli bo‘lib, inson tomonidan ongli boshqariladi. Ikkinchisi, nisbatan yuqoriroq rivojlanish bosqichi bo‘lgan xohish ham inson tomonidan ongli boshqarilib, u shaxsning ma‘lum buyum yoki hodisaga nisbatan munosabatlari majmuasini ifodalaydi. Uchinchi, eng murakkab bosqich bo‘lgan qiziqish xohish va u bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar asosida yuzaga keladi. Qiziqish hayotdagi tashqi ta‘sir, shaxs faoliyati hamda ta‘lim-tarbiya jarayoni ta‘sirida shakllanib boradi. Bu holatlar psixologik omillar - diqqat, idrok, tushuncha, xotira, fikrlash, sezgi va iroda xislatlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatib, shaxsning shakllanishida alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

“Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fani ham psixofiziologik jihatdan qaralganda, talabalarni texnik tafakkurini va mehnatga qiziqishini, ijodiy munosabatini rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida fan-texnika taraqqiyotini jahon standartiga chiqish istak va xoxishini uyg‘otish, mahsulot sifatini tubdan yaxshilashni, ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta‘minlay oladigan yosh avlodni tarbiyalash hamda psixologik omillar asosida eng muhim vazifa ya‘ni bo‘lajak mutaxassislariga ijodkorona ta‘lim berish orqali diqqat, idrok, tushuncha, xotira, fikrlash, sezgi va iroda xislatlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatib, hozirgi ishlab chiqarish sanoatiga xos texnik-texnologik, konstruktorlik va ishlab chiqarish faoliyatlarining asoslarini egallanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

“Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fanini o‘qitishda o‘qituvchi o‘quv adabiyotlarini yaratish va shu bilan bog‘liq bo‘lgan ta‘lim mazmunini belgilash, o‘quv jarayonini tashkil etish, yondashuvlar va o‘qitishning samarali metodlarini tanlash, chuqur didaktik tahlil o‘tkazishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi-mutaxassisda sohalar bo‘yicha aniq puxta bilim, kompetensiyaviy tajriba va tegishli ko‘nikma, malakalar talab etiladi.

“Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fanini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida o‘qitish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ta‘lim individuallashtirish;
- talabalarining qiziqishi va o‘zlashtirish imkoniyatlarining inobatga olinishi;
- talabalarni hamkorlikda ishlashga o‘rgatish;

- o'quv materiali mazmunini samarali o'zlashtirish;
- kasbiy faoliyatlarni bosqichma bosqich o'rganish;
- barcha talabarni o'zlashtirishini ta'minlash.

“Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fanida o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

zamonaviy didaktikaning yetakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari; o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi; xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi;

muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;

u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;

talabalarining yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;

talabalarining darsga tayyorgarlik darajasi;

o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;

o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatleri;

o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi.

O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi.

“Evristik metod” ta'lim jarayonida tafakkur mustaqilligi nisbatan yuqori bo'lishini ta'minlaydi, ta'lim oluvchilarda mustaqil mulohazalar uyg'otadi, muhokama qilishga, xulosa chiqarishga undaydi. Bu metodning asosiy shakli muhokama hisoblanadi. Suhbat metodida tarbiyachi ko'proq sukut saqlashi, eshitishi talab qilinsa, evristik metodda adabiy haqiqatlar tarbiyachi bilan fikr almashishlar, birgalikdagi tadqiqot va kuzatishlar orqali o'zlashtiriladi. Evristik metod ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, o'z holicha ishlash va yaratish xususiyatlarini oshiradi.

Evristik ta'lim metodini qo'llashda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish talab etiladi. O'qituvchi bilimlarning bir qismini talabalarga ma'lum qiladi, qolganini esa talabalar bilish topshiriqlarini yechish jarayonida savollariga javoblar topish asosida o'zlashtiradi, o'zlari bilimlarni mustaqil egallashadi.

O'qituvchi tomonidan qo'yilgan masalani bir necha qarashlarga ajratilishi, ularni bajarishda talabalarining ketma-ketlikka rioya etishlari muhim metodik jihat sanaladi. Shu bois mazkur metod qisman izlanuvchan metod ham deb ataladi.

Talabalarda fanning turli sohalaridan iloji boricha kengroq ma'lumotlarni o'zlashtirishi bilan birga ularda mustaqillik, hayotga ijodiy munosabat malakalarini tarkib toptirishi kerak. Ana shu maqsadda o'qitishni talabalarining u yoki bu shakldagi ta'limiy faoliyati tadqiqotni eslatadigan, talabalar uchun “kashfiyotlar” bilan tugaydigan, ya'ni ular mustaqil holda xulosa chiqaradigan va qandaydir amaliy vazifani hal qiladigan metodlarga asoslanish taklif etiladi. Evristik ta'lim metodlari o'quv jarayonida talabalar zarur bilimlarni o'zlari izlanib topishi, ijodiy fikrlashi, mustaqil ishlashi, bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llashi, xulosa chiqarishlariga yo'naltiradigan pedagogik jarayondir.

“Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fanini o'qitishda o'rganilayotgan konstruksiyaning yangi qirralarini ko'ra bilishga o'rgatadi, mustaqil fikrlashga, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Evristik metodlardan bir nechasi bilan tanishamiz.

“Evristik savollar” metodi. Bu metodda tanlangan hodisa yoki obyekt to'g'risida ma'lumot to'plash maqsadida 7 ta tayanch so'roq so'zlari asosida savollar tuzish talab etiladi. Kim? Nima? Qaerda? Qachon? Qanday? Qay tarzda? Nima uchun? so'roqlari bilan boshlanuvchi savollar tuzish va ularga javob topish jarayonida yangidan-yangi “Qachon va qay tarzda?” “Kim va qachon?”, “Kim va nima uchun?” kabi savollar yuzaga keladi. Bunda eng original, betakror savollar va aniq javoblar yuqori baholanadi. Maqsad – o'rganilayotgan kiyim va obyekt konstruksiyasining mazmun-mohiyatiga chuqur kirib borish, talabalarining tahliliy va mantiqiy fikrlash malakasini oshirishdan iborat. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash faniga oid topshiriqlar: A) “Texnik modellashtirish tushunchasiga oid evristik savollar tuzing”. B) “Badiiy modellashtirish tushunchasiga oid evristik savollar

tuzing”.Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanining “Ayollar pidjagi asos chizmasini konstruksiyalash va gradatsiyalash” mavzusi misolida oladigan bo’lsak,



“Evristik savollar” metodi orqali talabalarga yangi mavzu borasida tushuncha berish oson va qiziqarli bo’lib hisoblanadi. Ushbu metodni o’qituvchi guruhni tabaqalashtirgan holda gomogen guruhlar yoki juftliklarga ajratib chiqadi va quyidagi savollarni beradi:

Pidjak so’zi nimani anglatadi?

Pidjak qanday kiyimlar turkumiga kiradi?

Pidjak qachon urfga kirgan?

Kimlar pidjak fasonlarini yaratgan?

Nima uchun pidjak yengllari ikki chokli bo’ladi?

Konstruksiyasi tayyorlangan pidjak andazasi qay tarzda gradatsiyalanadi?

Ilk marotaba pidjak qayerda kiyilgan?

kabi so’roqlari bilan boshlanuvchi savollar tuzish va ularga javob topish jarayonida yangidan-yangi “Qachon va qay tarzda?” “Kim va qachon?”, “Kim va nima uchun?” kabi savollar yuzaga keladi. Bunda eng original, betakror savollar va aniq javoblar yuqori baholanadi.

Inson miyasi o’z ishini “yengillashtirish”, “qulaylashtirish” uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma’lum bo’lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g’oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo’lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko’rinishlar ham yetakchi o’rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo’shiladi. Qolaversa, “oqim bo’ylab suzish” mustaqil fikrlashdan ko’ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo’yicha inson ongiga “so’rov” berilganida odatiy ma’lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Masalan, “moda” deganda go’zal liboslar, reklamadan tushmaydigan fason, model va hokazolarni tasavvur qilish, fashion podyumlarida kiyimlarini reklama qilayotgan modellarni ko’rish qolip asosida fikrlashning ko’rinishi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o’zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg’amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yaratoladi.

“Evristik eksperimentlar” metodida tanlangan model qanday usulda loyihalaniishi ustida eksperimentlar, tajribalar o’tkazilib xulosalarga kelinadi. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanini o’qitishda bu metoddan foydalanib, buyuk ajdodlarimiz tomonidan kashf etilgan matematik formulalarni, qoidalarni konkret qiymatlarda sonli eksperimentlarda tekshirish vazifasi talabalarda qiziqish uyg’otishi tabiiy. Natijalar hozirgi zamonaviy konstruktiv texnologiyalari usullaridan foydalanib olingan qiymatlar bilan solishtiriladi. Bir necha asrlar avval olingan ilmiy natijalarning to’g’riligini o’zlari aniqlaganlarida, talabalarda milliy g’urur, iftixor tuyg’ulari uyg’onadi.

Misol sifatida «Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash» fanining amaliy mashg’ulotlardan “Belli kiyimlarni konstruksiyalash” mavzusini tabaqalashgan yondoshuv asosida talabalar bilimlarini tabaqalashtirib ularni 3 guruhga ya’ni gomogen guruhlariga ajratib olamiz va har bir guruhga belli kiyimlarni turli usullarda konstruksilashni vazifa qilib topshiramiz. Amaliy mashg’ulot evristik eksperimentlar usulida olib boriladi.


1-gomogen guruhga garafik va analitik usulda kiyimni loyihalashni vazifa qilib topshiramiz.

Biz bilamizki, dastlabki ma’lumotlar tavsifiga qarab mavjud bo’lgan konstruksiyalash usullarini 2 sinfga bo’lish mumkin. I sinfga mansub usullar, turli odam gavdasining o’lchamlariga va qo’shimcha haqlarga kiyim

detallarini turli bo'laklanishi hamda ularning shakl hosil qilishi haqida ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, ular kiyim detallarining muhim konstruktiv nuqtalari joylanishini taxminan aniqlaydi. II sinfga mansub usullar, ancha aniq bo'lib, ular kiyimning etalon — nusxasining yoyiladigan sirtini o'lchashga asoslangan. Kesishuvchi sirtlar usuli, Chebishev usuli, mulyaj va to'r-kanva usullari shular jumlasidandir. II sinf usullari materialning geometrik strukturasi ro'y beradigan o'zgarishlarni hisobga olishga asoslangandir. Materiallarning geometrik strukturasi o'zgarishi, ularning fazoviy holatdan tekis holatga o'tishi natijasida ro'y beradi. II sinfga mansub konstruksiyalash usullari turli yo'llar bilan olib boriladi.

Masalan, o'zaro kesishuvchi sirtlar usuli — grafik va analitik usullari bilan; Chebishev turlari usuli 5 usul bilan: 3 7 1) grafik; 2) to'r-kanva usuli; 3) tekis akslar usuli; 4) aralash usul; 5) analitik usullar. Kiyimni loyihalashda konstruktiv parametrlarni aniqlashning umumiy prinsiplarini ko'rib chiqamiz. Kiyimni konstruksiyalashda grafik qurishlarning asosiy elementlari quyidagilardan iboratdir: kiyim va uning alohida detallarining gabarit o'lchamlarini aniqlovchi gorizontalar hamda vertikal konstruktiv chiziqlardan iborat bazis to'rni chizish; chizmaning konstruktiv nuqtalar joyini yo'llar yordamida aniqlash; andazali egri chiziqlarni chizish.

Kiyimning konstruksiya asoslari. Kiyimni konstruksiyalashda grafik qurishlarning asosiy elementlari quyidagilardan iboratdir: kiyim va uning alohida qismlarining gabarit o'lchamlarini aniqlovchi gorizontalar hamda vertikal konstruktiv chiziqlardan iborat bazis turini chizish; chizmaning konstruktiv nuqtalari joyini yo'llar yordamida aniqlash; andazali egri chiziqlarni chizish; loyihaviy diskriminantlar yordamida ikkinchi tartibli egri chiziqlarni chizish; radiusografiya.



Belga oid kiyimlarning detallar yoyilmasi gabaritlarini aniqlovchi vertikal va gorizontalar turi 17-rasmda ko'rsatilgan. Ayollar yubkasi yoyilmasi turining gorizontalar va vertikal chiziqlari quyidagicha nomlangan:

1-1 — bel chizig'i; 2-2 — son chizig'i; 3-3 — etak chizig'i; I-I — orqa o'rta chizig'i; III-III old.

Odam tanasining yuqori qismi uchun mo'ljallangan kiyimning detallari yoyilmasi chizmasini chizishdagi gorizontalar va vertikal chiziqlarning bazis turi:

a — old va orqa bo'lak; b — yeng. 4-1 orqa chizig'i; III—III- yon choki joylanishi. Shimning detallari yoyilmasi turning gorizontalar chiziqlari (17- rasm, b) quyidagicha nomlanadi: 1—1 — bel chizig'i; 2—2 — son chizig'i; 3—3 — qadam (dumba) chizig'i; 4—4 — tizza chizig'i; 5—5 — pastki qism. Vertikal chiziq faqat bitta — shimning old va orqa bo'laklarining o'rta (buklanish) chizig'i.

2-gomogen guruhga TSMITI usuli bo'yicha kiyimni loyihalashni vazifa qilib topshiramiz.

TSMITI usuli bo'yicha kiyim konstruksiyasini qurish xususiyatlari

Odam tanasi tuzilishi haqidagi dastlabki ma'lumot 27 o'lcham qiymatlaridan, kiyim shakli haqida esa 20 ta qo'shimcha haqlardan iborat. TSMITI usuli bo'yicha, konstruksiya asosi chizmalarini chizishni dastlabki hisoblashlardan boshlanadi. Avval yeng kengligi hisoblanadi va uning asosida yengning boshqa parametrlari (yeng boshi balandligi  $V_{yeng}$  bosh bal., yeng boshi uzunligi  $D_{yeng}$  bosh uz., yeng o'mizi uzunligi  $D_{yeng}$  o'm. uz., balandligi  $V_{o'm}$  bal. va kengligi  $S_{hyeng}$  o'm.k), orqa Shorq. va old Shold. kengliklari, kiyim to'kisligi uchun umumiy qo'shimcha haq miqdori  $P_k$ , sm:

$S_{hyeng} = O_{yelk} + P_{o.yelk}$ ;

$V_{o'm} = d_{qo'l.v} \cdot P_{yeng}$  o'm. keng. +  $P_{yost.} + 1$ ;

$$\begin{aligned} \text{Vyeng.bosh.} &= \text{Vyeng. o'm} (1+N) + \text{Pyeng.bosh.bal.}; \\ \text{Dyeng.bosh} &= 1,51(0,5\text{Shyeng} + \text{Vyeng.bosh}); \\ \text{Do'm} &= \text{Dyeng.bosh.}/(1 + N); \\ \text{Shyeng o'm.} &= (0,6—0,62) \cdot (\text{Dyeng. o'm} - \text{Vyeng.o'm.}) - (\text{Pis.q.} - \text{Pyost}); \\ \text{Shorq} &= \text{Shor} + \text{Por.k} + \text{Pi.b.} + (0,3—0,4); \\ \text{Shold} &= \text{Shk} + (\text{SkII} - \text{SkI}) + \text{Pold.k} + \text{Pi.b.}; \\ \text{Pk} &= (\text{Shorq} + \text{Shold} + \text{Shyeng o'm}) - \text{SkIII} \end{aligned}$$

3-gomogen guruhimizga esa O'zaro Iqtisodiy hamjihatlikka a'zo davlatlarining kiyimni konstruksiyalashdagi yagona usuli (O'IH, KKYAU) universal usul orqali kiyimni loyihalashni vazifa qilib topshiramiz.

O'zaro Iqtisodiy hamjihatlikka a'zo davlatlarining kiyimni konstruksiyalashdagi yagona usulining tavsifi, tamoyillari va xususiyatlari O'IH a'zo davlatlarining kiyimni konstruksiyalashning yagona usuli (O'IH, KKYAU) universal usul hisoblanib, erkaklar, ayollar va bolalar kiyimini konstruksiyalash uchun qo'llaniladi. (O'IH, KKYAU) usulining eng umumiy va universal qismi bo'lib asosiy konstruktiv kesmalar tizimi va ularni aniqlash usuli hisoblanadi. Tizim barcha kiyim konstruksiyasi turlarida takrorlanadigan kesmalardan iborat bo'lib, ular ikki qismga bo'linadi (tananing yuqori va pastki qismlari uchun). Asosiy konstruktiv kesmalar tizimi moda, texnologiya va materiallar xossalari bog'liq emas. Har bir hisoblash formulasiga o'zining tartibli raqami berilgan va barcha kiyim turlarini konstruksiyalashning umumiy ketma-ketligi ishlab chiqilgan. Konstruktiv kesmalar o'z ichiga o'lcham qiymatlarini va turli qo'shimcha haqlarni oladilar. Konstruktiv kesmalarining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$AV = kyTy + ay + P \text{ bu yerda:}$$

AV — konstruktiv kesma;

ky — o'lcham qiymati qismini aniqlovchi koeffitsiyent;

Ty — o'lcham qiymatining tarkibli raqami;

ay — absolut a'zo;

P — barcha qo'shimcha haqlarning summar miqdori.

Evristik metodni "Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash" fanini o'qitishda qo'llashning kamchiliklari sifatida quyidagilarni ta'kidlashimiz mumkin:

1. Usul o'qituvchidan katta samaradorlik va mashaqqatli mehnat, tajriba va tayyorgarlikni kutadi.

2. Dastlabki bosqichda talabalarga yetarlicha ko'rsatma kerak, agar u berilmasa u talabalarga uncha xush yoqmasligi mumkin. Ushbu uslubda talabaning umuman fan mohiyati to'g'risida noto'g'ri g'oyani shakllantirishiga olib kelishi mumkin bo'lgan amaliy ishlarga juda katta ahamiyat beriladi.

"Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash" fanini o'qitishda "Evristik metod" larni qo'llash orqali quyidagi afzalliklarga ega bo'lamiz:

Talabalarga mustaqil izlanish odatini rivojlantiradi.

O'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini boshqarish odatini rivojlantirish. Bu talabalar o'rtasida ilmiy munosabatlarni rivojlantiradi, ularni haqiqat va halollikka aylantiradi, shunda ular haqiqiy tajribalar orqali qarorlarga kelishni o'rganadilar.

Talabalarda mehnatsevarlik odatini shakllantirish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida o'qitishda "Evristik metod" larni qo'llash yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Madina Bo'ronovna Akobirova, Mirjon Sharopov Nurxonov g'li, Teaching technology of hands crafts subject into English language. Asian Journal of Multidimensional Research, 2021. P-1549-1555

Akobirova Madina Bo'ronovna, Ixtisoslik fanlarni xorijiy tilda o'qitishda interfaol metodlarning ahamiyati. "International conference on innovative development of education 2022/20". 2022/12/28. B-42-47

Dilafroz Ahmadovna Sayfullayeva, Madina Buronovna Akobirova. A communicative approach to teaching students in english of their specialties. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. B.404-408

Akobirova M. B., Nurxonov g'li M. S. Teaching technology of hands crafts subject into English language //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 10. – C. 1549-1555.

Sayfullayeva D. et al. Improving the quality of education in higher educational institutions with the using innovative educational technologies //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2647. – №. 1.

Sayfullayeva D. A., Rustamov E. T., Rayimova D. D. Innovative Technologica: Methodical //Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 37.



## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARNING EKOPSOXOLOGIK KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

*Turakulov Buri Norboevich,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "psixologiya" kafedrasida dotsenti,*

*Annatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ekopsixologik kreativ qobiliyatini rivojlantirishning motivatsiya usullari, ijodiy fikrlashning ekopsixologik omillar, innovatsion ta'lim, masalalari haqida fikr yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: Bo'lajak, boshlang'ich sinf, o'qituvchi motivatsiya, ijodiy fikrlash, ekopsixologiya, yekologik madaniyat, innovatsion ta'lim.*

*Аннотация: В статье рассматриваются мотивационные методы развития эколого-психологических творческих способностей будущих учителей начальной школы, экopsихологические факторы творческого мышления, инновационное образование, проблемы.*

*Ключевые слова: Будущее, начальная школа, мотивация учителя, творческое мышление, экopsихология, экологическая культура, инновационное образование.*

*Kirish: Ekologik muammolar keskinlashib borayotgan zamonaviy dunyoda kelajak avlodlar o'rtasida yekologik madaniyat va xabardorlikni shakllantirish muhimdir. Ushbu jarayonda asosiy rollardan birini bolalarning yekologik tafakkuri va xulq-atvorini shakllantirishga ta'sir qilish uchun noyob imkoniyatga yega bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'ynaydi. O'qituvchilarning yekologik madaniyatini samarali rivojlantirish uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yekologik va psixologik ijodiy qobiliyatlarini innovatsion rivojlantirishga yordam beradigan psixologik omillarga e'tibor qaratish lozim. Ushbu omillar o'qituvchilarning yekologik ta'limda innovatsion yondashuvlarni qo'llash uchun zarur bo'lgan o'ziga xos ko'nikmalari, qobiliyatlari va motivatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.*

ASOSIY QISM. Yangi O'zbekistonda zamonaviy ta'lim muassasalaridagi integratsiyalashgan ta'lim, o'quvchining bilim faoliyati va mustaqillik fikrlash hamda o'quv amaliyotida yo'naltirish ta'lim sifatida yangi natijalarga erishishga yordam beradi. Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida belgilab berilgan atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi yangi O'zbekistonning ekologik ta'lim-tarbiyasida "Yangi O'zbekistonni barpo ekologik tarbiyalashda atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida belgilangan «Aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkorlik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish". Shu munosabat bilan O'zbekistonda iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuvini amalga oshirish bo'yicha Milliy harakatlar rejasi, 2019-2030, 2030-yillarda "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategiyalar, yangi davlat boshqaruvini shakllantirish bo'yicha Milliy harakatlar rejasi ishlab chiqildi va qabul qilindi[1] tizimi Barqaror rivojlanish sohasida ekologik ofatlarning oldini olish kabi ulkan maqsadlarni amalga oshirishda o'quvchilariga ekologik ta'lim berish texnologiyasini taqdim etish.

Psixologik omillar, shu jumladan hissiy, kognitiv va motivatsion jihatlar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yekologik ongini, ijodiy tafakkurini va yekologik muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga ta'sir qiladi. Ular o'qituvchilarga tabiat bilan hissiy aloqani rivojlantirishga, tahliliy ko'nikmalarni yaxshilashga va ularni amalga oshirishda ijodiy g'oyalar va jasoratni targ'ib qilishga yordam beradi.

Ushbu ishning maqsadi kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yekologik va psixologik ijodiy qobiliyatlarini innovatsion rivojlantirishga yordam beradigan psixologik omillarning maqsad va vazifalarini ko'rib chiqishdan iborat. Biz ularning yekologik ongni shakllantirish, ijodiy fikrlashni rag'batlantirish, tabiat bilan hissiy aloqani rivojlantirish, yekologik muammolarni tahlil qilish va hal qilish qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash, boshlang'ich maktab o'qituvchilarining o'z-o'zini samaradorligi va motivatsiyasini oshirishdagi roliga e'tibor qaratamiz.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yekologik va psixologik ijodiy qobiliyatlarini innovatsion rivojlantirishning psixologik omillarining maqsadlaridan biri kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishdir. Bu ularga yekologik ta'limga yangi va innovatsion yondashuvlarni topishga, o'quvchilarning yekologik madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan qiziqarli va samarali o'quv materiallari va texnikalarini yaratishga imkon beradi. Maqsad atrof-muhit muammolarining ahamiyatini bilishlari, o'z

harakatlarining atrof-muhitga ta'sirini tushunishlari va bu xabardorlikni o'z o'quvchilariga yetkazishlari.

Psixologik omillarning vazifasi kelajakdagi boshlang'ich maktab o'qituvchilarining tabiat bilan hissiy aloqasini rivojlantirishdir. Bu ularga tabiatning go'zalligi va o'ziga xosligini ochishga, unga bo'lgan muhabbat va g'amxo'rlikni rivojlantirishga yordam beradi, bu keyinchalik o'z o'quvchilariga o'tadi. Psixologik omillar kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yekologik muammolarni tahlil qilish va innovatsion yechimlarni topish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Qiyinchilik ularga tanqidiy fikrlashni qo'llash va o'quv muhitida yekologik muammolarni hal qilishda ijodiy bo'lish imkonini berishdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yekologik va psixologik ijodiy qobiliyatlarini innovatsion rivojlantirishning psixologik omillarining maqsad va vazifalari ularning yekologik ongini, ijodiy tafakkurini, tabiat bilan hissiy aloqasini, yekologik muammolarni tahlil qilish va hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga, ijodiy salohiyatni qo'llab-quvvatlashga, o'z-o'zini samaradorligini va motivatsiyasini oshirishga qaratilgan. Bu ularga yekologik tamoyillarni o'quv jarayoniga joriy yeta oladigan va o'quvchilarni tabiat va barqaror rivojlanishga g'amxo'rlik qilishga ilhomlantiradigan samarali va innovatsion o'qituvchilar bo'lishga yordam beradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yekologik va psixologik ijodiy qobiliyatlarini innovatsion rivojlantirishning psixologik omillarining mazmuni bir nechta asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, bu yekologik ta'limga innovatsion yondashuvlarni izlashga yordam beradigan ijodiy fikrlashni rivojlantirishdir.

Ikkinchidan, o'qituvchilar yekologik muammolarning ahamiyatini va ularni hal qilishdagi rolini tushunishlari uchun yekologik ongni shakllantirish.

Uchinchi jihat-tabiat bilan hissiy aloqani rivojlantirish, bu o'qituvchilarga atrof-muhitga hissiy bog'liqlik va g'amxo'rlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash va innovatsion yondashuvlar orqali yekologik muammolarni tahlil qilish va hal qilish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Bundan tashqari, ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash va o'z-o'zini samaradorligi va motivatsiyasini oshirish ham psixologik omillar tarkibiga kiritilgan. Bu jihatlarning barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida yekologik madaniyatni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun zarur bo'lgan yekologik va psixologik ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

И.В.Скрипичникова и Н.А.Перцева считают, что психологопедагогическое сопровождение девиантных подростков может выступить весомым фактором профилактики девиантного поведения в образовательной организации может выступить весомым фактором профилактики девиантного поведения в образовательной организации [10].

Таким образом, под психолого-педагогическим сопровождением подростков, склонных к девиантному поведению, мы вслед за О.В.Леоновой, понимаем технологию, предназначенную для оказания помощи в решении возникающих у обучающихся проблем [9].

Для психолого-педагогического сопровождения подростков, склонных к девиантному поведению, создание ситуаций поддержки для включенности подростка, склонного к девиантному поведению, становится создание ситуаций поддержки для включенности подростка, склонного к девиантному поведению, становится создание ситуаций поддержки для включенности подростка, склонного к девиантному поведению. Психолого-педагогическая деятельность по сопровождению подростков, склонных к девиантным формам поведения, в образовательной организации реализуется в направлениях

поддержки и решения задач личностного, ценностно-смыслового самоопределения и саморазвития, построения конструктивных отношений, формирования жизненных навыков и социального опыта, профессионального самоопределения и предупреждения девиантных проявлений.

Основные требования, предъявляемые к проведению психолого-педагогического обследования учащихся с девиантным поведением, заключаются в необходимости выполнения общей диагностики такого поведения. Данная диагностика в своей сути совпадает с общей диагностикой личности и имеет комплексный характер, включающий социально-психологические, социально-педагогические, психологические и медицинские аспекты.

Для целенаправленной диагностики и профилактических мероприятий, проводимых в отношении учащегося, требуется получить согласие его родителей (законных представителей). Однако, если учащемуся уже исполнилось 15 лет, он самостоятельно и добровольно принимает решение о прохождении диагностического тестирования.

Примерный алгоритм действий при обследовании ребенка (подростка) с девиантным поведением включает следующие этапы: сбор психологического и медицинского анамнеза, выяснение формулирования проблемы в интерпретации самого ребенка и/или его близких, определение структуры девиации, выявление нарушенных социокультурных норм, формулирование гипотез о причинах и продолжительности девиации, проверка гипотезы при помощи психодиагностики, планирование психокоррекционного воздействия в зависимости от психологического диагноза.

При сборе психологического анамнеза важно узнать такую актуальную информацию, как всегда ли данная проблема существовала у ребенка и в чем именно она выражалась, с какого момента она возникла. Также необходимо выяснить, что изменилось в структуре семьи перед возникновением проблемы, что изменилось в условиях жизни семьи, кто первым обратил внимание на данную проблему и как сам ребенок ее воспринимает, а также что уже было сделано для ее решения и мнение о ней членов семьи и значимых близких.

Взаимодействие с ребенком должно основываться на эмоциональной связи и психологическом контакте. Важно быть заинтересованным во всем, что происходит с учащимся, и искренне сочувствовать его проблемам, стремиться понять происходящее в его подростковой душе и сознании. Взаимопонимание между психологом и подростком обеспечивается эмпатией, вниманием, сердечностью и искренностью.

На сегодняшний день существует множество диагностических методик, которые помогают выявить отклоняющееся поведение и факторы риска делинквентного поведения. В работе могут быть использованы такие методики, как «Методика диагностики склонности к отклоняющемуся поведению» А. Н. Орел, «Методика диагностики межличностных отношений» (модификация Лири-Собчик Л.Н.), «Модифицированный опросник для идентификации типов акцентуаций характера у подростков» (модификация теста А.Е. Личко), «Тест личностных акцентуаций» В.П. Дворщенко, «Методика многофакторного исследования личности Кэттелла» (детский и подростковый вариант) и другие.

В работе с подростками рекомендуется использовать программно-методический комплекс «Диагност-Эксперт+», который позволяет детально оценить индивидуально-психологические и поведенческие особенности подростков с проблемами в поведении, склонность к отклоняющемуся поведению, типы копинг-механизмов, тревожность, агрессивность и враждебность.

При выявлении признаков девиантного или делинквентного поведения, подтвержденных жалобами со стороны учителей, родителей или одноклассников, учащегося необходимо направить на комплексное обследование в ПМПК, учитывая расширение категорий детей и подростков, подлежащих такому обследованию.

В заключении психолого-медико-психологической комиссии обязательно должны содержаться обоснованные выводы о наличии или отсутствии у ребенка особенностей в физическом и (или) психическом развитии, а также отклонений в поведении. Также важно определить наличие или отсутствие необходимости создания специальных условий для получения ребенком образования, коррекции нарушений развития и социальной адаптации на основе специальных педагогических подходов.

Помимо этого, необходимо предоставить рекомендации по определению формы образования и образовательной программы, которую ребенок может успешно освоить. Также важно указать на необходимость определенных форм и методов психолого-медико-педагогической помощи, а также создания специальных условий для более эффективного получения образования.

Заключение психолого-медико-психологической комиссии является важным документом, который



играет решающую роль в дальнейшем образовательном процессе ребенка. Оно содержит основные выводы и рекомендации, опирающиеся на обширный анализ данных, полученных в процессе медицинских и психологических обследований ребенка. Такой анализ позволяет определить, какие меры и действия следует предпринять, чтобы обеспечить максимальную эффективность образовательного процесса для данного ребенка.

Основные специалисты, занимающиеся коррекционно-развивающей работой с обучающимися, у которых есть девиантное поведение, - педагог-психолог и/или социальный педагог. Успешность программы сопровождения определяют ключевые ориентиры, которые непосредственно влияют на нее. Один из таких ориентиров - устранение факторов, способствующих развитию девиантного поведения. Для этого необходимо устранить индивидуально-психологические особенности личности и нарушения в сфере социальной коммуникации. Задача педагога-психолога заключается в изменении поведения, преобразовании идей и ценностей, развитии конструктивных межличностных отношений, коррекции самооценки, я-концепции, тревожности/страхов/эмоциональной неустойчивости. Педагог-психолог использует разнообразные методы работы, такие как коммуникативные тренинги, занятия по саморазвитию, тренинги, направленные на преодоление негативных установок, фобий, комплексов, нестабильной самооценки, а также коррекцию агрессивного поведения. В индивидуальной работе педагог-психолог включает практику развития резистентности к негативному социальному влиянию, формирование положительных установок и проведение упражнений по развитию ассертивных навыков и жизненных навыков.

Названные компетенции дают возможность обучающемуся противостоять негативному влиянию среды, проявить себя в спорте, развить способность к совладающему поведению, саморегуляции и самоконтролю.

Как профилактические меры девиантного поведения эффективно применять физическую культуру и спорт, досуговую и трудовую деятельность. Профилактический подход, направленный на утверждение альтернативного девиантному поведению, также является эффективным.

Для реализации коррекционно-развивающей работы с обучающимися можно использовать следующие психолого-педагогические технологии и методы:

1. Сказкотерапия: групповое сочинение историй, драматизация сказок, анализ сказок.
2. Арт-терапия: аппликация, лепка из глины, рисование и конструирование из бумаги и картона, а также популярные антистресс-раскраски.
3. Визуализация: рисование в воображении себя идеального и реального.
4. Психогимнастика: упражнения на выражение различных эмоций.
5. Игровые методы: сюжетно-ролевые и подвижные игры.
6. Моделирование и анализ проблемных ситуаций.
7. Этические беседы.
8. «Скилл-терапия» (развитие саморегуляции и навыков самоконтроля).
9. «Шейпинг» (целенаправленное моделирование поведения, которое ранее не было свойственно обучающемуся).
10. «Гиперкоррекция» (восстановление разрушенного порядка вещей, принесение извинений и взятие на себя дополнительных обязанностей по сохранению социально приемлемого поведения).
11. Метод реконструкции характера обучающегося (переоценка отрицательных качеств и нетерпимое отношение к ним).
12. Методы перестройки мотивационной сферы и самосознания.
13. Восстановление здорового образа жизни, при котором отрицательные качества, вредные привычки и отрицательные потребности неприемлемы.
14. Разъяснение существующего законодательства о правах и обязанностях обучающихся.

Рекомендации по конструктивному общению с подростком.

Прежде всего, важно применять принципы ненасильственного общения. Активное слушание, использование «Я-высказываний» и отказ от речевой агрессии создают атмосферу взаимного уважения и понимания. Вместо обвинений и нравоучений лучше сосредоточиться на своих чувствах и последствиях поведения подростка.

Когда возникает конфликтная ситуация, следует начинать диалог спокойно: «Я узнал(а), что тебя наказали в школе, и чувствую беспокойство». Необходимо объяснить, почему считаете такое поведение неприемлемым, но нужно дать подростку высказаться и нужно выслушать его точку зрения. Не нужно

пытаться руководить ситуацией, а важно предоставить ребенку возможность принять самостоятельное решение. Важно выработать единые правила и требования, при этом сделать подростка соучастником процесса.

Литература:

1. Александровская, Э. М. Психологическое сопровождение школьников. – Москва: Академия, 2012. – 208 с.
2. Бердникова, А.Г. Психолого-педагогическое сопровождение как составляющая образовательного процесса // Сибирский педагогический журнал. – 2013. – № 5. – С. 240–242.
3. Дмитриев, М.Г. Психолого-педагогическое сопровождение социализации подростков с делинквентным поведением в условиях летнего специализированного лагеря // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. – 2011. – Выпуск 80, № 10. – С. 86–90.
4. Дроздецкая, И.А. Особенности социально-педагогического сопровождения подростков с девиантным поведением. – Санкт-Петербург: Питер, 2016. – 160 с.
5. Зайцева, И. А. Коррекционная педагогика. – Москва: Март, 2004. – 198 с.
6. Казин, Э. М. Психолого-педагогические аспекты решения проблем социальной адаптации и здоровья обучающихся // Отечественная и зарубежная педагогика. – 2018. – Выпуск 2, № 2 (49). – С. 129–137.
7. Каткова, А. С. Психолого-педагогическое сопровождение подростков с девиантным поведением в массовой школе // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2016. – № 6-3. – С. 92–95.
8. Кулагина, И. Ю. Педагогическая психология: учеб. пособие. – Москва: Сфера, 2008. – 480 с.
9. Леонова, О.В. Формирование региональной целевой программы социальной профилактики девиантного поведения в молодежной среде. – Волгоград : ВАГС, 2006. – 23 с.
10. Скрипичникова, А.В. Психолого-педагогическое сопровождение подростков, оказавшихся в трудной жизненной ситуации, как фактор профилактики девиантного поведения // Поволжский педагогический поиск. – 2019. – № 1 (27). – С. 64–70.
11. Субботина, Л. Г. Модель взаимодействия субъектов воспитательно образовательного процесса в психолого-педагогическом сопровождении учащихся // Сибирский психологический журнал. – 2007. – № 25. – С. 120–125.
12. Шершень, А. В. Девиантное и отклоняющееся поведение: соотношение понятий // Научный поиск курсантов: сборник материалов вузовской научно-практической конференции, посвященной Году науки. 2017. – Могилев: Учреждение образования «Могилевский институт Министерства внутренних дел Республики Беларусь», 2017. – С. 63–64.

---

## “KESIK KONUS VA UNING SIRTI” MAVZUSINI INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA O‘QITISH METODIKASI

*Qurbonov G‘ulomjon G‘afurovich*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasida dotsenti,*  
*<https://orcid.org/0000-0002-9508-5056>*

---

*To‘yboyeva Zarina Avez qizi*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi*

---

*Annotatsiya. Mazkur maqolada “Kesik konus va uning sirti” mavzusini interfaol usullar yordamida zamonaviy o‘qitish metodikasi haqida tavsiyalar berilib, o‘quvchilar uchun tashkil etilgan zamonaviy metodlar; ularni bilimni oshirish va qiziqishlarini uyg‘otish va fanlararo bog‘lagan holda darsni qiziqarli tashkil etishi hamda mavzuning mohiyatini o‘quvchilarga to‘liq yetkazib berish ko‘zda tutiladi. O‘qituvchilar darsni yanada qiziqarli o‘qitishlari uchun ulardan aktyorlik mahorati, sinfni boshqara olish qobiliyati, o‘quvchilarni o‘ziga jalb etib, interfaol usullardan o‘z o‘rnida foydalana olish haqida so‘z boradi.*

*Kalit so‘zlar: Konus, kesik konus, konus sirti, yon sirt, asos, to‘la sirt, o‘q kesim, hajm, konusning yasovchisi, balandlik, yuza, asos yuzi, o‘xshashlik koeffitsiyenti.*

## МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА “РЕЗЦОВЫЙ КОНУС И ЕГО ПОВЕРХНОСТЬ” С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

*Курбанов Гуломжон Гафурович*  
*Бухарский государственный педагогический институт, доцент кафедры точных наук,*

---

*Туйбоева Зарина Аvez кизи*  
*Студентка 3 курса Бухарского государственного педагогического института*

---

*Аннотация. В данной статье даны рекомендации по современной методике преподавания темы «Разрезание конуса и его поверхность» с использованием интерактивных методов, современных методов, организованных для учащихся, повышающих их знания и интерес, а также интересной организации урока путем соединения межпредметного и призван максимально полно донести до учащихся суть темы. Чтобы учителям было интереснее преподавать урок, им нужны актерские навыки, умение управлять классом, умение привлекать учеников и использовать интерактивные методы вместо них.*

*Ключевые слова: Конус, усеченный конус, поверхность конуса, боковая поверхность, основание, твердая поверхность, осевое сечение, объем, образующая конуса, высота, поверхность, базовая поверхность, коэффициент подобия.*

## METHODOLOGY OF TEACHING THE SUBJECT «CUTTER CONE AND ITS SURFACE» USING INTERACTIVE METHODS

*Kurbanov Gulomjon Gafurovich*  
*Bukhara State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Department of Exact Sciences,*

---

*To‘yboyeva Zarina Avez kizi*  
*3rd grade student of Bukhara State Pedagogical Institute*

---

*Abstract. In this article, recommendations are given about the modern teaching methodology of the topic «Cut cone and its surface» using interactive methods, modern methods organized for students, increasing their knowledge and interest, and interesting organization of the lesson by linking interdisciplinary and It is intended to fully convey the essence of the topic to the students. In order*

for teachers to teach the lesson more interestingly, they need acting skills, the ability to manage the classroom, and the ability to attract students and use interactive methods in their place.

*Key words:* Cone, truncated cone, cone surface, side surface, base, solid surface, axis section, volume, cone generator, height, surface, base surface, similarity coefficient.

Kirish. Bugungi kunga kelib ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'quvchilardan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Nimaga aynan qisqa vaqt? Chunki o'quvchi diqqatini juda uzoq vaqt davomida darsga qarata olmaydi, tez chalg'ib qoladi. Shu sababli o'qituvchi dastlab o'quvchi diqqatini o'ziga jab qilib olib, qisqa vaqtda mavzuni o'quvchiga tushuntira olishi kerak. Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi — dedi Prezidentimiz. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda biz o'qituvchilar yanada mas'uliyatli bo'lishimiz kerak. Ta'limda pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi o'qitish tizimida o'quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqish, o'quvchilarni o'quv materiallarini shunchaki yod olishlaridan, avtomatik tarzda takrorlashlaridan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Shundagina o'quvchilar muhim hayotiy yutuq va muammolar, o'tiladigan mavzularning amaliyotga tatbiqi bo'yicha o'z fikriga ega bo'ladi, o'z nuqtai nazarini asoslab bera oladi. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar: pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi; o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi; o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi; o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi; o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi, pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur. Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayoniga qo'llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – bilim jarayoni o'zaro muloqoti asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir.

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining Matematika kursidan ma'lum bo'lgan “ Kesik konus va uning sirti ” mavzusini o'qitish bo'yicha ayrim mulohazalar keltiriladi va uslubiy ko'rsatmalar beriladi.

Asosiy qism. Maktab matematika kursidan bizga yaxshi ma'lumki, “ Kesik konus va uning sirti ” mavzusi “ Konus va uning sirti “ mavzusidan keyin keladigan mavzu bo'lib, o'quvchi konus, konusning sirti, yon sirti, to'la sirti, konusning o'q kesimi, konusning hajmi, konusning yasovchisi haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lsagina, kesik konus va uning sirti mavzusini tushunishda, o'zlashirishda qiyinchilikka uchramaydi. Bunda yangi mavzu bayoniga o'tishdan oldin o'tilgan darsni o'quvchilar hukmiga “Savol-javob” o'yini bilan bilimlarini mustahkamlab olishimiz mumkin. Bu o'yindan o'quvchilarni 2 guruhga ajratamiz va o'qituvchi tomonidan savollar berila boshlanadi. Topilgan savolga 1 bal berilib boriladi. Bu o'yin muhokamalar bilan o'tkaziladi.

O'tilgan mavzuni shu tarzda mustahkamlab olsak bo'ladi. O'quvchilar navbat bilan savollarga javob beradilar. Bu jarayonda o'qituvchi javobning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligiga qarab izoh va to'ldirishlar qilishi mumkin:


|                               |  |
|-------------------------------|--|
| A) Konusning yon sirti-       | $1. \pi \cdot r \cdot l + \pi \cdot r^2$     |
| B) Konus hajmining formulasi- | $2. \pi \cdot r \cdot l$                     |
| C) Konusning to'la sirti-     | $3. \frac{1}{3} \cdot \pi \cdot r^2 \cdot H$ |

Bu metodlardan foydalanishning afzalliklari o'quvchilar fikrini ochiq namoyon qilishadi, o'tgan mavzuni qay darajada tushunganliklarini bilib olish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyor ekanligiga ishonch hosil qilgach, yangi mavzu bayoniga o'tishi mumkin.

Kesik konus va uning sirti.

Konusni uning asos tekisligiga parallel va uni kesib o'tadigan tekislik bilan kesamiz. Natijada u ikki bo'lakka ajraladi. Ulardan biri mazkur konusga o'xshash bo'lgan konusdan, ikkinchisi esa kesik konus deb ataluvchi jismdan iborat bo'ladi (1-rasm). Kesik konus ikkita doira – kesik konusning asoslari va yon sirti bilan chegaralangan (2-rasm). Kesik konusni to'g'ri burchakli trapetsiyaning kichik yon tomoni atrofida aylanishidan hosil bo'lgan jism sifatida ham qarash mumkin (3-rasm).



Kesik konusning balandligi uning ikki asosi orasidagi masofaga teng bo'ladi. Kesik konus yon sirtining yuzi quyidagi formula yordamida hisoblanadi.

$S_{yon} = \pi l (r_1 + r_2)$ , bu yerda  $l$ ,  $r_1$ ,  $r_2$ , mos ravishda, konusning yasovchisi va asoslarining radiuslari (2-rasm). Kesik konusning to'la sirti uning yon sirti va asoslari yuzi yig'indisiga teng:

$$S_{to'la} = S_{yon} + \pi \cdot r_1^2 + \pi \cdot r_2^2 = \pi \cdot l (r_1 + r_2) + \pi \cdot r_1^2 + \pi \cdot r_2^2.$$

$$S_{to'la} = \pi \cdot (r_1^2 + r_2^2 + l \cdot (r_1 + r_2)).$$

Kesik konusning hajmi.

Teorema. Balandligi  $H$ , asoslarining yuzi  $S_1$  va  $S_2$  ( $S_1 > S_2$ ) ga teng bo'lgan kesik konusning hajmi  $V = \frac{1}{3} H(S_1 + \sqrt{S_1 S_2} + S_2)$  ga teng.

Agar kesik konus asoslarining radiusi  $r_1$  va  $r_2$  ga teng bo'lsa, kesik konusning hajmi:  $V = \frac{1}{3} \pi H(r_1^2 + r_1 r_2 + r_2^2)$  ga teng bo'ladi.

Shuningdek, oldingi paragrafda piramidalar uchun ifodalangan xossa konuslar uchun o'rinli bo'ladi:

Teorema. Hajmi  $V$ , balandligi  $H$  va asosining yuzi  $S$  ga teng bo'lgan konus asosiga parallel tekislik bilan kesilganda, hajmi  $V_1$ , balandligi  $H_1$  va asosining yuzi  $S_1$  ga teng bo'lgan konus hosil bo'lgan bo'lsin.

U holda

$$\frac{S_1}{S} = \left(\frac{H_1}{H}\right)^2 = k^2, \quad \frac{V_1}{V} = \left(\frac{H_1}{H}\right)^3 = k^3$$

bu yerda  $k$  – konuslarning o'xshashlik koeffitsiyenti.

Yangi mavzuga oid ma'lumotlar berilgach, ulardan foydalanib darslikda keltirilgan misollar tahlil qilinadi.

1-masala. Konus asosining radiusi  $R$  bo'lib, uning o'q kesimi esa to'g'ri burchakli uchburchakdan iborat. Kesik konus o'q kesimining yuzi hisoblanin(4-rasm).




4-rasm

Berilgan:  $SAB$  — konus,  $\Delta SAB$  — to‘g‘ri burchakli,  $OA=R$ .  $S_{\Delta SAB}$  hisoblansin.

Yechilishi. Konusning o‘q kesimi teng yonli to‘g‘ri burchakli  $\Delta SAB$  dan iborat. Shuning uchun,  $\angle SAB = \angle SBA = 45^\circ$ .  $SO$  balandlikni o‘tkazsak, teng yonli  $\Delta SAO$  ni hosil qilamiz, chunki  $\angle SAO = 45^\circ$ . Demak,  $SO = OA = R$ . U holda

$$S_{\Delta SAB} = \frac{1}{2} \cdot AB \cdot SO = \frac{1}{2} \cdot 2R \cdot R = R^2.$$

2-masala. Konusning balandligi  $h$  ga teng. Agar kesimning yuzi konus asosining yuzidan to‘rt marta kichik bo‘lsa, kesim asosdan qanday uzoqlikda o‘tishi kerak? (5-rasm)



5-rasm

Berilgan:  $SAB$  — konus,  $SO \perp AB$ ,  $SO = h$ ,  $A_1B_1 \parallel AB$ ,  $S_{as} = 2 \cdot S_{kes}$ .  $OO_1$  topilsin.

Yechilishi. Berilishiga ko‘ra, kesim asosga parallel bo‘lganligidan,  $\Delta SOA \sim \Delta SO_1A_1$  bo‘ladi va o‘xshash uchburchaklar uchun  $\frac{OA}{O_1A_1} = \frac{SO}{SO_1}$  proporsiyani yozamiz. Ikkinchi tomondan,

$S_{BS} = 2S_{kes}$  yoki  $\pi \cdot OA^2 = 2\pi O_1A_1^2$ . U holda  $OA = 2O_1A_1$  va  $\frac{OA}{O_1A_1} = 2$ . Shartga ko‘ra,  $SO=h$ ,  $SO_1 = SO - OO_1 = h - x$ ,  $x = OO_1$ . Bu ifodalarni proporsiyaga keltirib qo‘ysak,  $\frac{h}{h-x} = 2$ ,  $2h - 2x = h$ ,  $2x = 2h - h = h$ ;  $x = \frac{h}{2}$ . Demak,  $OO_1 = \frac{h}{2}$ .

3-masala. Kesik konus asoslarining radiuslari  $R$  va  $r$ . Kesik konusning ikkita yasovchisi orqali uning asosidagi aylananadan  $90^\circ$  li yoy ajratuvchi kesim o‘tkazilgan. Bu kesim asosning tekisligi bilan  $60^\circ$  li burchak tashkil qilsa, uning yuzi hisoblansin (6-rasm).


Berilgan:  $OO_1AA_1BB_1$  — kesik konus,  $\angle ACB = 90^\circ$ ,  $\angle K_1KO = 60^\circ$ ,  $OA = R$ ,  $O_1A_1 = r$ .  $S_{AA_1B_1B}$  hisoblansin.

Yechilishi.  $AA_1B_1B$  teng yonli trapetsiyadir. Uning asoslarining o‘rtalaridagi  $K$  va  $K_1$  nuqtalarni tutashtirsak,  $KK_1 \perp AB$  bo‘ladi. Uch perpendikulyar haqidagi teorema asosan,  $OK \perp AB$  bo‘ladi. Shu sababli kesim va asos tekisligi orasidagi ikki yoqli burchakning chiziqli burchagi  $\angle K_1KO = 60^\circ$  bo‘ladi. Berilishiga ko‘ra,  $AOB$  to‘g‘ri burchakli va teng yonlidir:  $OA = OB$ ,  $AOB = 90^\circ$ . U holda  $AB = \sqrt{R^2 + R^2} = R\sqrt{2}$ ,  $OK = BK = \frac{R\sqrt{2}}{2}$ . Shunga o‘xshash,  $A_1B_1 = r\sqrt{2}$ ;  $OK_1 = \frac{r\sqrt{2}}{2}$  bo‘ladi.  $K$  nuqtadan kesik konusning pastki asosiga perpendikulyar o‘tkazamiz:  $K_1E \perp OK$ ,  $KE = OK - OE = OK - O_1K_1$ ;  $KE = \frac{R\sqrt{2}}{2} - \frac{r\sqrt{2}}{2} = \frac{(R-r)\sqrt{2}}{2}$  bo‘ladi. So‘ngra to‘g‘ri burchakli  $\Delta KEK_1$  dan:

$$\cos 60^\circ = \frac{KE}{KK_1}, KK_1 = \frac{KE}{\cos 60^\circ} = \frac{(R-r)\sqrt{2}}{2 \cdot \frac{1}{2}} = (R-r)\sqrt{2}.$$

U holda teng yonli  $AA_1B_1B$  trapetsiyaning yuzi:

$$S_{kes.} = \frac{AB + A_1B_1}{2} \cdot KK_1 = \frac{(R+r)\sqrt{2}}{2} \cdot (R-r)\sqrt{2} = R^2 - r^2.$$



6-rasm

Shu bilan yangi mavzu bayoni tugadi. Endi o'quvchilar mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarini bilish maqsadida "Kungaboqar" metodidan foydalanamiz. Guruhlarga kungaboqar barglari shaklida tayyorlangan qog'ozlarni tarqatamiz va o'tilgan mavzu yuzasidan savol beramiz. O'quvchilar qog'ozlarga javoblarni yozib doskaga yopishtiradilar. Keyin guruhlarini har bir tog'ri javob uchun 1 balldan baholaymiz.

Mavzuga oid testlar:

1. Kesik konus asoslarining radiuslari 3 va 6 dm, yasovchisi esa 5 dm. Kesik konus o'q kesimining yuzi hisoblansin.

- A) 40      B) 36      C) 42      D) 32      E) 48

2. Kesik konus asoslarining radiuslari 3 va 6 dm, yasovchisi 5 dm bo'lsa, uning yasovchisi va asos tekisligi orasidagi burchak topilsin.

- A)  $\arctg \frac{1}{2}$       B)  $\arcsin \frac{4}{5}$       C)  $\arcsin \frac{3}{5}$       D)  $\arcsin \frac{3}{4}$       E)  $2\arctg \frac{1}{2}$

3. Konusning balandligi 2 dm, asosining radiusi 17 sm. Konusning uchidan o'tib, asosining markazidan 12 sm uzoqlikda yotgan kesimning yuzi hisoblansin.

- A) 2      B) 3      C) 2,4      D) 2,8      E) 2,1

4. Kesik konus asoslarining radiuslari 11 va 27 sm, yasovchisi va balandligining nisbati 17:15 kabi. Kesik konus yon sirtining yuzi hisoblansin.

- A)  $1144\pi$       B)  $1200\pi$       C)  $960\pi$       D)  $1180\pi$       E)  $1292\pi \text{ sm}^2$ .

5. Konusning yasovchisi 25 sm, to'la sirtining yuzi  $224\pi \text{ sm}^2$  bo'lsa, uning balandligi topilsin.

- A) 2      B) 18      C) 26      D) 24      E) 21 sm.

6. Kesik konusning yasovchisi a va asosi tekisligi bilan  $60^\circ$  li burchak tashkil etadi. Kesik konus o'q kesimining diagonali shu burchakni teng ikkiga bo'ladi. Kesik konus yon sirtining yuzi hisoblansin.

- A)  $\frac{11}{4}\pi a^2$       B)  $3\pi a^2$       C)  $\frac{19}{4}\pi a^2$       D)  $\frac{5}{2}\pi a^2$       E)  $4\pi a^2$

7. Kesik konusning hajmi  $129\pi \text{ sm}^3$ , balandligi 9 m, yasovchisining asosidagi proyeksiyasi 5 m. Kesik konus yuqori asosining radiusi topilsin.

- A) 4      B) 2,5      C) 1      D) 3      E) 2 sm.

Dars yakunida har ikkala guruh yig'gan ballar hisoblanib g'olib guruh aniqlanadi hamda har bir guruhdan darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilariga matematika kursining "Kesik konus va uning sirti" mavzusini o'qitish jarayonida maqolada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish orqali darsning o'tilgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuni bayon qilish, mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash qismlarini samarali tashkil etish mumkin. Umuman darsni yanada samarali, natijador va qiziqarli qilib tashkil qilishda ta'limning turli interfaol usullaridan foydalanish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baxvalov S.V., Modenov P.S., Parxomenko A.S. Analitik geometriyadan masalalar to'plami. T.Universitet,

586 b, 2005 y.

2. Погорелов А.В. Аналитик геометрия. Т., Ўқитувчи, 1983 й.

3. Вахвалов S.V., Modenov P.S., Parxomenko A.S. Analitik geometriyadan masalalar to‘plami. T.Universitet, 586 b, 2005 y.

4. Jo‘rayeva N. O., Sattorova X.B. Sfera va shar tenglamasi. kesma o‘rtasining koordinatalari mavzusini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. Образование и наука в XXI веке». Выпуск №26 (том 6) (май, 2022). -709-723 стр

5. С.Ходжиев, Н.О.Жўраева. Некоторые указания и решением текстовые задачи связанные с работой. Pedagogik akmeologiya (maxsus son), 2022. -114-122

6. С.Ходжиев, Н.О.Жўраева. Применение алгоритмического метода при решении неравенств. Образование и наука в XXI веке». Выпуск №25 (том 4) (апрель, 2022). стр -1088-1099

7. Jurayeva N.O. Specific aspects and principles of the method of organizing independent education of students. Actual problems of modern science, education and training”. №8, Xorazm, 2022. – P. 23-27.

8. Jo‘rayeva N. O., Vaxshulloyeva D. Masalalarni tenglamalar yordamida yechish metodikasi. Образование и наука в XXI веке». Выпуск №26 (том 6) (май, 2022). -561-571 стр

9. Jo‘rayeva N. O., Negmurodova S.G’. Sirkul va chizg’ich yordamida yasashga doir masalalar. Образование и наука в XXI веке». Выпуск №26 (том 6) (май, 2022). -824-834 стр

10. Jo‘rayeva N. O., Tosheva M.M. Sferaga ichki va tashqi chizilgan ko‘pyoqlar va aylanish jismlari mavzuni o‘qitish metodikasi. Образование и наука в XXI веке». Выпуск №26 (том 6) (май, 2022). -536-546 стр



## XORIJIY TIL O'QITISH METODLARI: TARIXIY EKSKURS

Usmonxodjayeva Moxiraxon Abdumalikxodjayevna,  
O'qituvchi, Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

*Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy til o'qitish metodlari tarixiy taraqqiyot nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Xususan, grammatika-tarjima metodi, bevosita metod, audiolingval metod, audiovizual metod, aralash metod va kommunikativ metod kabilarning paydo bo'lishi, pedagogik imkoniyatlari va til ta'limidagi ahamiyati yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: grammatika-tarjima metodi, bevosita metod, audiolingval metod, audiovizual metod, aralash metod va kommunikativ metod.*

## МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ: ИСТОРИЧЕСКИЙ ЭКСКУРС

Usmonxodjaeva Moxiraxon Abdumalikxodjaevna  
Преподаватель, Ташкентская область, Чирчикский государственный педагогический университет,

*Аннотация: В данной статье методы преподавания иностранного языка анализируются с точки зрения исторического развития. В частности, освещены появление грамматически-переводного метода, прямого метода, аудиолингвального метода, аудиовизуального метода, смешанного метода и коммуникативного метода, педагогические возможности и значение в языковом образовании.*

*Ключевые слова: грамматика-переводной метод, прямой метод, аудиолингвальный метод, аудиовизуальный метод, смешанный метод и коммуникативный метод.*

## METHODS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE: A HISTORICAL EXCURSION

Usmonkhodjayeva Mohirakhan Abdumalikkhodjayevna,  
Teacher, Tashkent region, Chirchik State Pedagogical University

*Abstract: In this article, methods of teaching a foreign language are analyzed from the point of view of historical development. In particular, the emergence of the grammar-translation method, the direct method, the audiolingual method, the audiovisual method, the mixed method and the communicative method, pedagogical possibilities and implications in language education are highlighted.*

*Keywords: grammar-translation method, direct method, audiolingual method, audiovisual method, mixed method and communicative method.*

Kirish. Kishilik jamiyatining ajralmas va juda muhim sohalaridan biri bo'lgan xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish globallashtirish sharoitida yanada dolzarbroq masalaga aylanib bormoqda. "Idrokli yoshlarimizning ko'pchiligi uch til egasi"[1] ekanligi o'tgan asrning ikkinchi yarmidayoq ziyoli qatlamimiz diqqat-e'tiborida bo'lganligi xorijiy til o'qitish metodikasining tarixiy genezisi va rivojlanish tadrijini tadqiq etishni taqozo etadi.

Xorijiy til o'qitish metodikasining tarixiy genezisi va rivojlanish tadriji yoritilgan adabiyotlarda metodlar tarjima, tarjimasiz, aralash va qiyosiy kabi turlarga ajratilganligini guvohi bo'lamiz. Prof. J.Jalolov ularni quyidagi turlarga ajratadi va har bir metod turi tarafdorlariga batafsil to'xtalib o'tadi[2] (1-rasm).

Sohaga oid adabiyotlar tahlilidan ayon bo'ladiki, milliy tadqiqotlarimizda xorijiy til o'qitish metodlari tarixi muayyan aspektlarda o'rganilgan bo'lib, aynan nemis tilini chet til sifatida o'qitish metodikasiga tarixiy genezisi va rivojlanish tadriji tadqiqot predmeti sifatida alohida e'tibor qaratilmagan. Bu esa bizning oldimizga mazkur bo'shliqni to'ldirish vazifasini qo'yadi.

1-rasm. Chet til o'qitish metodlari tarixi (J.Jalolov)



1-rasm. Chet til o'qitish metodlari tarixi (J.Jalolov)

Tarixan XIX asrda Yevropa gimnaziyalarida fransuz, ingliz kabi tillarni o'rganishga ehtiyoj oshib boradi. Grek, lotin kabi "qadimiy" tillarni o'rganishda asoslanilgan grammatika-tarjima metodi (GTM) ushbu davrga kelib ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan edi. Aslida "o'lik" tillarni o'rganishda urf bo'lgan mazkur metodning zamonaviy tillarni (fransuz va ingliz kabi) o'qitishda ham foydalanilishiga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:


o'sha davr gimnazial ta'limida o'quvchilarning aqliy saviyasini tarbiyalash asosiy maqsadlardan sanalib, bunda matematika va chet tillar bilan mashg'ul bo'lish muhim sanalgan. O'quvchilar o'z aql-idrokklarini til tizimi va mantiq'i orqali mashq qilishlari zarur bo'lgan. Bu borada adabiy til namunalari ("Mumtoz adabiyot") maqsadga eltuvchi vosita sanalgan;

gimnaziyada ta'lim olayotgan o'quvchilarning til o'rganishlari ular uchun "imtiyoz" sifatida qaralgan va natijada ular kichik guruh sanalagan "ziyoli" qatlamga kira olgan;

gimnaziyalar taklif qilinayotgan yangi (asosan fransuz va ingliz) tillar "qadimgi" (lotin va grek) tillarga "raqobatchi" bo'lishi talab etilgan va shu sababdan qadimgi tillarni o'rganishda urf bo'lgan GTMdan foydalanishdan o'zga chora bo'lmagan[3].

GTMning "klassik" konsepsiyasiga ko'ra, o'quvchilar guruhi bir til vakillari bo'lishi va ularning yoshi, bilim darajasi bir xil hamda ular juda "bilimli" bo'lishi kerak edi. Bu holni gimnaziya ta'limida ham kuzatish mumkin bo'lgan.

GTMda darsning borishi an'anaviy ketma-ketlikda bo'lgan. Dars grammatik mavzuni tushunitirish bilan boshlanishi, so'ngra shu grammatik qoidaga asosan gaplar tuzilgach, matn o'qilishi yoki tarjimalar qilinishi va matnlar yozilishi urf bo'lgan (2-rasm). Dars jarayonida asosan grammatika oid mashqlar, ona tilidan nemis tiliga yoki aksincha matnlari tarjima qilish, erkin insho yozish, matn mazmunini hikoya qilib berish, hikoya davomini yozish, diktant yozish ta'lim mazmuniga aylangan.



2-rasm. GTMda odatiy dars bosqichlari

GTM borasida tanqidiy qarashlar ko'plab olimlar tomonidan bayon etilgan. Jumladan, "bevosita metod" tarafdori V.Vietor GTMni zamonaviy, muomaladagi tilni (fransuz va ingliz) o'lik til vositalari va qoidalari yordamida o'qitilayotganligini, bu kabi qoidalar muomaladagi tilni o'qitishga umuman to'g'ri kelmasligini ochiq tanqid qiladi. Shuningdek, grammatika qotib qolgan qoidalarga bo'ysunmasligi, balki u ham jamiyatda bo'lgani kabi, ya'ni nima kecha dolzarb bo'lsa, bugun unutiladi, nima bugun to'g'ri bo'lsa, ertaga noto'g'ri bo'lishi ham mumkin degan qoidaga amal qiladi, deb ta'kidlagan[4].

XIX asrning so'nggi choragiga kelib GTMdan asta-sekin voz kechilgach, xorijiy til ta'limiga "bevosita metod"[5] kirib kelgan. GTMdan farqli o'laroq, chet tilni o'qitish va o'rganishda ona til ishtiroki rad etilganligi sababli mazkur metod "bevosita metod" deb nomlanib, u sohaviy adabiyotlarda "anti-grammatika metodi", "isloh metodi", "rasional metod", "tabiiy metod", "konkret metod", "intuitiv metod" va "analitik metod" kabi nomlar bilan atalishining guvohi bo'lamiz[6].

V.Vietorning "Til ta'limini qayta kerak yoki "qachongacha???" deb nomlangan kitobchasi chop etishi bilan mazkur metodning kelib chiqishi bog'lanadi. Olimning fikriga ko'ra, yangi tillarni o'qitish jarayonida yozma nutq va grammatikadan qochish lozim va GTMning qotib qolgan, o'zgaras qoidalari doimiy rivojlanishda bo'lgan tillarni o'rgatish uchun yaramaydi[7]. Ushbu metodda asosiy e'tibor og'zaki nutqni o'qitishga qaratilishi sababli talaffuzni o'rgatish muhim sanaladi hamda fonetik bilim va fonetik yozuv (transkripsiya) dars jarayonida o'rganiladi. XIX asrning 90 yillarida bevosita metod o'quv rejalarga ham kiritilib, "yangi tillarni o'qitishdan maqsad barcha yuqori sinflarda o'zgartirildi, jumladan, bunda asosiy e'tibor chet tilni og'zaki va yozma ravishda amalda qo'llashga qaratildi, grammatika esa faqat maqsadga erishish vositasi hisoblanadi"[8]. Bu o'z navbatida

GTM va bevosita metodlarning ko'plab farqli jihatlari mavjudligini ifodalaydi (3-rasm).

|   |  |  |
|---|--|--|
| <b>1. Kognitiv (GTM) tushunish, fahmiga yetish;</b> | <b>Yozma nutqni o'rganish, til haqida bilim berish;</b>  | <b>Ona tili materialni tushuntirish tili, chet tilni o'rgatish vositasi (GTM);</b> |
| <b>Tanqidiy (BM-bevosita metod)</b>                 | <b>Og'zaki nutqni o'rgatish, nutq qo'nikmalarini o'zlashtirish</b>                               | <b>Dars jarayonida Ona tilidan foydalanishdan voz kechiladi (BV)</b>               |
| <b>2. Deduktiv (GTM), ya'ni qoidadan misolga;</b>   | <b>Ongli harakat, fahmiga yetish;</b>  | <b>Har qanday jarayon ona tili orqali (GTM);</b>                                   |
| <b>Induktiv (BM), ya'ni misoldan qoidaga</b>        | <b>“Ko'p o'ylamasdan” amalda qo'llash</b>  | <b>Ona tili xalaqit beruvchi unsur deb qaraladi (BM)</b>                           |
| <b>3. Ikki tilli (GTM);</b>                         | <b>Chet til ona tilida tushuntiriladigan formal sistema, shu sistema haqida ma'lumot berish;</b> | <b>Ona tili taqdimot vositasi;</b>   |
| <b>Bir tilli (BM)</b>                               | <b>Chet til muomila vositasi, uni ona tilisiz muomila vositasi sifatida o'rganish</b>            | <b>Ona tili rad etiladi</b>  |

### **3-rasm. Grammatika-tarjima metod (GTM) va bevosita metod (BM)ning o'zaro farqli jihatlari (Sh.Gnusman)**

Tadqiqotimiz tahlillari shuni ko'rsatadiki, bevosita metod asosida audiolingval metod (ALM) va o'z navbatida, uning asosida audiovizual metod (AVM) kelib chiqqan. ALM atamasi so'zma-so'z tarjima qilinsa, “tinglab-gapirish metodi”, ya'ni tilni tinglab-gapirish yo'li bilan o'rganish ma'nosini anglatadi. Diaxronik aspektida tadqiq etilsa, “ALM 1-jahon urushidan so'ng yuqori sinflarda zamonaviy tillarni o'qitish maqsadida o'quv rejaga kiritilib, amaliyotda Berlits metodi deb nomlanuvchi metoddan foydalanilgan”[9]. Zamonaviy tillar xalqaro aloqa vositasiga aylana boshladi va o'quvchi dars jarayonida chet tilni doimo qo'llashi tufayli hamda o'quvchiga taqlid qilish yo'li bilan o'zida tilni his qilish qobiliyatini tarbiyalab borgan, shuningdek, chet til qonuniyatlarini asta-sekin induktiv yo'l bilan “kashf qilgan”. Shu tarzda AQShda ALM vujudga kelishida ijtimoiy sabablarning o'rni katta bo'lgan: 2-jahon urushi tugagandan so'ng chet tillarni, ayniqsa, yapon, xitoy kabi tillarni biladigan mutaxassislar yetishmasligi, intensiv kurslar va tinglash asosida tashkil qilingan chet til kurslari orqali harbiy tarjimonlarni tayyorlash amaliyotining samaradorligi va uzoq vaqt talab etmasligi, xalqaro savdo-sotiqning kengayishi, turizmning jadal rivojlanishi, ilmiy va madaniy aloqalarning kuchayishi va shu kabilar Amerikada yangi metod - ALMning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Metodika tarixi yoritilgan adabiyotlarga ko'ra audiolingval metodning rivojlanishi navbatdagi metod – audiovizual metod[10] (AVM)ning vujudga kelishiga olib keldi. Tilni imkoni boricha ko'proq optik ko'rgazmalilik bilan bog'lashni maqsad qiladigan AVM Fransiyada shakllangan bo'lib, audiovizual kurs deganda xorijiy til ta'limining boshlang'ich bosqichida qo'llaniladigan Peter Guberina tomonidan asos solingan usullar nazarda tutiladi hamda bu dastlab fransuz tili kursi shaklida Voix et Images de France nomi ostida amaliyotga tatbiq qilingan. P.Guberinaning o'zi ushbu kursni “audio-vizual, global-struktural metod” deb atagan[11].

Mazkur metodning ALMdan farqli tomoni shundaki, o'quvchiga avval nutq vaziyati haqida vizual vositalar orqali ma'lumot taqdim etiladi va so'ngra shu vaziyatga oid ifoda shakllari beriladi. Demak, dars jarayonida yangi mavzu materiali taqdimoti o'zgaradi: avval til hodisasining shakli (tinglash-takrorlash) va undan keyin uning mazmuni tushuntiriladi[12]. Shuningdek, rasmlar va rasmlar qatoridan til materiali taqdimoti jarayonida faqat ma'noni ochish maqsadida emas, balki til materialini mashq qilish va amalda qo'llash jarayonida ham unumli foydalaniladi. “Ilmiy asoslangan va universal xarakterga ega bo'lgan ta'lim metodi nihoyat audiovizual metod bo'lib dunyoga keldi”[13].

O'tgan asrning 50-yillarida GTM va ALMlar elementlari va prinsiplari birlashib, chet til ta'limi tarixiga

Aralash metod (AM) bo‘lib kirib kelgan. Bu davrga kelib nemis tilini chet til sifatida o‘qitish alohida fan bo‘lib shakllana borgan va bunda “Nemis tili chet elliklar uchun”[14] nomli darslikning chop etilishi muhim rol o‘ynadi.

Mazkur darslikning o‘ziga xosligi shunda ediki, unda chet til ta‘limidan ko‘zlangan maqsad (og‘zaki nutqni o‘rgatish), o‘quv guruhlarining xususiyatlari (ma‘lum bilimga ega bo‘lgan katta yoshdagi kishilar, guruhlar tarkibining turli-tumanligi) va o‘quv sharoiti (nemis tili tabiiy sharoiti) hisobga olingan holda darslar rejalashtiriladi va olib boriladi. Bundan tashqari, ushbu metodda mualliflar GTMning ta‘lim uchun qimmatli tamoyillari bo‘lmish grammatika va so‘z boyligini sistemaga solib o‘rganish, shu bilan birga ALMning dars tuzilishi va mashqlarni shakllantirish, taqdim etish borasidagi yutuqlarini ham saqlab qolishgan va darslikka kiritishgan[15].

Darslikda mavzular quyidagi ketma-ketlikda shakllantirilgan va shu asnoda dars mashg‘uloti tashkil etilishi maqsad qilingan (4-rasm):




O‘tgan asrning 50-yillarida chet tillarni faqat gimnaziya o‘quvchilari o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishib, bu o‘ziga xos bir imtiyoz sifatida qaralgan. Ular umumiy o‘quvchilarning 5-10 %nigina tashkil etgan. Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan ingliz tili barcha o‘quvchilar o‘rganishi uchun o‘quv predmeti sifatida kiritilishi bu holatni butunlay o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Maktab o‘quvchilari bilan birga xalq oliy o‘quv yurtlarida katta yoshlilar ham chet tillarni o‘rganishni boshlashi mavjud metodlar, o‘qitish usullarini o‘zgartirish zarurati uyg‘otdi.

Bu davrga kelib xorijiy til ta‘limidan ko‘zlangan maqsad pragmatik tilshunoslik tadqiqotlari natijalariga tayanilib, tilni tilga oid shakl tizimi emas, balki inson faoliyati sohasi (muomala-til orqali biror faoliyatni bajarish) deb talqin qilganligini guvohi bo‘lamiz. Shuningdek, “ALM va AVM uchun muhim nazariy asos bo‘lgan bixevioristik ta‘lim nazariyasi ham tanqidga uchradi hamda chet tillarni o‘rganish bu “xulqni programmashtirish” emas, balki bu ongli (kognitiv) va amaliy (kreativ) jarayon hisoblanadi”[16]. Shu tarzda 70-yillarga kelib chet til ta‘limida “muomala qilishni o‘rgatish” bosh maqsadga aylanishi, o‘z navbatida, yangi “kommunikativ metod”ning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Xorijiy tillar ta‘limi tarixiga oid manbalarga ko‘ra, o‘tgan asrning 70-yillari boshida kommunikativ metodning ikkita yangi – pragmatik va pedagogik yo‘nalishlari rivojlandi[17].

Pragmatik yo‘nalishda suhbatdoshiga o‘z fikrini yetkaza olish, tili o‘rganilayotgan mamlakatda qiyinchiliklarsiz “yo‘l”ni topib yura olish, kishilar bilan muloqotga kirisha olish, OAV va matbuot materialini tushuna olish maqsadlarida chet til o‘qitila yoki o‘rganila boshlagan. Boshqacha aytganda, xorijiy tillar “kundalik hayot, kundalik muloqot” uchun o‘rganilgan va bu muayyan me‘yorlar orqali “o‘lchandi”, ya‘ni imtihon qilina boshlandi. Shu tarzda 1972 yilda Gyote-instituti va katta yoshlilarga nemis tilini o‘qitish muassasasi – Xalq oliy o‘quv yurtlari kengashi hamkorligida til bilimlarini baholovchi imtihon va uni ifodalovchi sertifikat ishlab chiqilgan. Natijada, xorijiy tilda nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o‘qib tushunish va yozuv turlarida ko‘nikmalar hosil qilish chet til ta‘limi asosiy maqsadiga aylanishi, o‘z navbatida, mavzu va matnlar tanlash jarayonida, til tizimi (grammatika)ga oid mashqlar tuzish va o‘quv materialini taqsimoti sohasida ham o‘zgarishlarni taqozo etdi.

Xulosa o‘rnida yana shularni qayd etish mumkinki, xorijiy til ta‘limi metodlarining rivojlanishi umumiy hamda o‘quv predmetiga oid maxsus shart-sharoitlar bilan uzviy bog‘liq. Bu ta‘lim maqsadlari, usullari (metod va vositalari) hamda bilim, malaka va ko‘nikmalar nazoratini rejalashtirish va tashkil qilishda hamohanglik bo‘lishini taqozo etadi.



### 1.6-rasm. Chet tili o'qitish metodikasi tarixiy bosqichlari

Ta'lim maqsadlari va dars berish usullarining o'zaro uzviy bog'liqligi chet til ta'limining turli metodik konsepsiyalari tahlili misolida ko'rsatib o'tildi. Bunday bog'liqlik ta'lim nazorati va metodlari o'rtasida ham mavjudligi o'z-o'zidan tushunarli. Shuning uchun nima o'rgatilsa, o'sha sinab ko'rilishi, qanday o'rganilsa, shunday tekshirilishi zarur. Boshqacha so'z bilan aytganda, har qanday metodga xos o'qitish usullari, tamoyillari va mashq shakllari xuddi shunday nazorat usullari, tamoyillari va mashq shakllarida o'z aksini topishi kerak. Bunday dasturiy bog'liqlik holatlari har bir o'quv guruhi uchun xorijiy til ta'limining maxsus konsepsiyasini loyihalashda e'tibordan chetda qolmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

G'afur G'ulom. Ko'p tilni bilishning xosiyati// O'qituvchilar gazetasi, 1965-yil 16-sentabr („Toshkent oqshomi“ gazetasining 1989-yil 6-aprel sonida „Ko'p tilni bilish xosiyati“ nomi bilan qayta bosilgan).

Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – B. 4.

Eppert F. Lexikon des Fremdsprachenunterrichts. – Bochum: Kamp, 1973. –S.124-130.

Victor W. Der Sprachunterricht muß umkehren! Ein Beitrag zur Überbürdungsfrage. Gebr. Henninger, 1882. –S. 12.

Nemis tilida “Die direkte Methode” deb ataluvchi ushbu metodni prof. J.Jalolov “to'g'ri metod” deb nomlagan. Biz o'z izlanishimizda “bevosita metod” tarzida tarjima qilishni ma'qul topdik.

Morris John F. The Art of Teaching English as a Living Language. – London. 1966.

Victor W. Der Sprachunterricht muß umkehren! Ein Beitrag zur Überbürdungsfrage. Gebr. Henninger, 1882. –S. 12; Hollen W. Didaktik des Englischunterrichts. –Darmstadt: Wissenschaftliche Buchgesellschaft. 1979, – R.229.

Bender J. Zum gegenwertigen Stand der Diskussion um Sprachwissenschaft und Sprachunterricht. – Frankfurt/Main: 1979, –R.16.

Bim I. L. Metodika obucheniya inostrannym yazykam kak nauka i teoriya shkolnogo uchebnika. — M.: Russkiy yazyk, 1977. –288 s.

“Audio-vizual” tushunchasi lotincha audire–tinglamoq, videre– ko'rmoq so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilinsa, “tinglab-ko'rish metodi” ma'nosini anglatadi.

Strack W. Fremdsprachen - audio-visuell. – Bochum: Kamp. 1973. – S. 9.

Real W. Methodische Konzeptionen von Englischunterricht. – Paderborn: Schöningh. 1984, – S. 33-34.

Lado R. Language Teaching. – New York: Me Graw-Hill. –r. 147.

Schulz D., Griesbach N. Deutsche Sprachlehre für Ausländer. – Munchen: Germany Max Hueber Verlag, 1955.

Qarang: Galskova N. D., Gez N. I. Teoriya obucheniya inostrannym yazykam: lingvodidaktika i metodika : ucheb. posobie. M., 2004.

Firges J. Die CREDIF-Methodik-Versuch einer kritischen Bestandsaufnahme// Die Neueren Sprachen, H.3, 224-237.

Demyanenko M. Ya., Lazarenko K. A., Kislaya S. V. Основы общей методики обучения иностранным языкам. – Kiev: Вища shkola, 1976. - 282 s.

## TALABA YOSHLARDA MA'NAVİY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Xajiyeva Iroda Adambayevna,*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali filologiya fanlari nomzodi, dots.nt "O'zbek tili va ijtimoiy fanlar" kafedrası mudiri*

*ORCID ID: 0000-0001-7084-5701*

*Annotatsiya. Maqolada talaba yoshlarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy, metodologik va metodik yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil etilgan. Talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyati muammosiga oid mahalliy va xorijlik olimlar ilmiy tadqiqotlaridan misollar keltirilgan. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari tarkibiy bo'linmalarga ko'ra, ajratib ko'rsatilgan. Shaxs ma'naviyatini shakllantirish muammolari pedagogika va psixologiya nuqtayi nazaridan asoslab berilgan. «Ma'naviy qadriyatlar» konsepsiyasining mazmuni ochib berilgan va ushbu hodisa haqidagi g'oyalar tarixiy va didaktik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Talaba shaxsini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan butun iyerarxik qadriyatlar tizimi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, texnika oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari, omillariga alohida e'tibor qaratilgan. Ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish bosqichlari, shuningdek vazifalari, faoliyat turlari jadval tarzida ko'rsatib berilgan. Innovatsion texnologiyalardan texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida o'qitish vositasi sifatida foydalanishning zarurligi ilmiy tadqiq qilingan. Ma'naviy axloqiy qadriyatlarni texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga tushuntirishning pedagogik psixologik xususiyatlari tahlil etilgan. Ayrim ilmiy tadqiqotlardan misollar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar. Ma'naviy qadriyatlar, pedagogik-psixologik omil, didaktik ta'minot, shaxs madaniyati, taraqqiyot strategiyasi, axborot texnologiyalari, tajriba-sinov, konsepsiya.*

## ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ МОЛОДЕЖИ

*Хажиева Ирода Адамбаевна*

*Кандидат филологических наук, доцент кафедры узбекского языка и*

*Ургенчский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми*

*Аннотация. В статье анализируются педагогические возможности научно-теоретического, методического подходов к развитию духовных ценностей у младших школьников. Представлены примеры научных исследований отечественных и зарубежных ученых по проблеме духовно-нравственной культуры студенческой молодежи. Выделены особенности развития духовных ценностей у студентов технических вузов по структурным подразделениям. Проблемы формирования духовности личности обоснованы с точки зрения педагогики и психологии. Раскрывается содержание понятия «духовные ценности» и анализируются представления об этом явлении с историко-дидактической точки зрения. Показана вся иерархическая система ценностей, важная для совершенствования личности студента. Также особое внимание уделено педагогико-психологическим основам и факторам совершенствования дидактического обеспечения развития духовных ценностей у студентов технических вузов. Этапы развития духовных ценностей, а также задачи, виды деятельности показаны в виде таблицы. Научно исследована необходимость использования инновационных технологий в качестве средства обучения студентов технических вузов. Анализируются педагогико-психологические особенности разъяснения духовно-нравственных ценностей студентам, обучающимся в области технологий. Приведены примеры из некоторых научных исследований.*

*Ключевые слова. Духовные ценности, педагогико-психологический фактор, дидактическое обеспечение, культура личности, стратегия развития, информационные технологии, апробация опыта, концепция.*

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL VALUES IN YOUTH STUDENTS

Khajieva Iroda Adambaevna

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Social Sciences Urgench branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorezmi

*Abstract. The article deals with the pedagogical possibilities of scientific-theoretical, methodological approaches to the development of spiritual values in primary schoolchildren. Examples of scientific research by domestic and foreign scientists on the problem of spiritual and moral culture of student youth are presented. The features of the development of spiritual values among students of technical universities by structural divisions are notified. The problems of the formation of personal spirituality are justified from the point of view of pedagogy and psychology. The content of the concept of "spiritual values" is revealed and ideas about this phenomenon are analyzed from a historical and didactic point of view. The entire hierarchical value system is shown, which is important for improving the student's personality. Also, special attention is paid to the pedagogical and psychological foundations and factors for improving didactic support for the development of spiritual values among students of technical universities. The stages of development of spiritual values, as well as tasks and activities are shown in table form. The need to use innovative technologies as a means of teaching students of technical universities has been scientifically investigated. The pedagogical and psychological features of explaining spiritual and moral values to students studying in the field of technology are analyzed. Examples from some scientific studies are given.*

*Keywords. Spiritual values, pedagogical and psychological factor, didactic support, personal culture, development strategy, information technology, testing of experience, concept.*

KIRISH. Bugungi kunda talaba yoshlarda milliy ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik kabi g'oyalarning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mazmunidan chuqur o'rin olgan bo'lib, bu oliy o'quv yurtlaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirishni taqazo etmoqda. Chunki "milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" shiori jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq, ma'rifat kabi qadriyatlar asosiy o'rin egallaydi. O'z navbatida ta'kidlash joizki, dunyoning mafkuraviy manzarasi o'zgargan, globallashuv jarayonlari jadallashgan bugungi kunda yoshlarga ma'naviy qadriyatlar va ularning mohiyatini anglatishni ijtimoiy hayotning o'zi taqazo qilyapti. Shu boisdan Prezidentimiz tomonidan ma'naviy-ma'rifiy muhitni sog'lomlashtirish va bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlaganlaridek, dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman.

Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. [3].

Ma'lumki, talabalik-yoshlik davrida shaxsda intensiv rivojlanish kuzatiladi. Bu davrda yoshlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shaxs ongida shakllantirish uchun maqsadli faoliyatni yo'lga qo'yish va bu jarayonni amalga oshirishga shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy ma'naviy qadriyatlarni takomillashtirishning pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil qilish hozirgi kun pedagogika, psixologiya fanlari taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Qadriyatlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati haqida professorlar O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Inomova, M.Davletshin, A.Atoev, F.Nasriddinov, T.Usmonxujayev, X.Rafiyev, U.Ibrohimov, R.Abdumalikov, F.Axmedov, X.Meliyev, Sh.D.Mardonov, O.Jamoliddinovalarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbekistonda shaxs ma'naviyati va uning komilligini shakllantirish muammolari falsafiy, siyosiy, tarixiy, sotsiologiya va pedagogika nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Xususan, shaxs va uning shakllanishining pedagogik-psixologik va ma'naviy aspektlari M.Ochilov, K.Xoshimov, R.Jo'rayev, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Maxmudova, U.Mahkamov, M.Inomova, M.Quronov, S.Ochilov, N.Ortiqov, Sh.Xalilova, S.Shodmonova,

Sh.Olimovlar, ijtimoiy tarbiya, shaxs ijtimoiylashuvining pedagogik asoslari M.Quronov, Sh.Sodiqova, F.Mustafayeva, N.Egamberdiyeva, Z.Qurboniyozova kabilardan tomonidan o'rganilgan.

Talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyati muammosi falsafa, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, pedagogika va boshqa fanlar doirasida faoliyat olib boruvchi xorijlik olimlar tomonidan ham tadqiq qilingan. Yoshlarda yaxshilik, go'zallik kabi fazilatlarni shakllantirishning falsafiy muammolari N.A.Berdiyeva, A.N.Leonteva [7] kabi tadqiqotchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini tarbiyalashning mohiyati haqidagi nazariyalar xorijlik olimlar Ye.V.Bondarevskaya, Ye.P.Belozetsev, T.I.Vlasova, N.L.Selivanova kabi tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan.

#### METOD VA METODOLOGIYA.

Maqolada tadqiq etilayotgan mavzuni yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari, qaror va farmonlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mavzu kuzatish, qiyosiy tahliliy metod asosida muhokamaga tortildi.

#### NATIJALAR

Texnika oliy ta'lim universitetlari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish muhitini yaratish quyidagi tashkiliy-psixologik-pedagogik talablarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- ta'limning eng muhim qadriyati sifatida ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining ijodkorligiga yo'naltirish;

- turli xil ta'lim dasturlarini taqdim etish orqali talabalarning individual-psixologik xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonida qadriyatlarga sodiqlik munosabatlarini o'rnatish;

- ochiqlik, oshkoralik, hamkorlik, korporatizm va kollektivizm ruhini qo'llab-quvvatlash;

- samarali rag'batlantirish tizimining mavjudligi (rag'batlantirish-yoshlarga motivatsiya beradi);

- universitetni ochiq ijtimoiy tizimga aylantirish, bu ta'lim innovatsiyalarini, ta'lim yo'nalishlarini inobatga olib, talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning didaktik ta'minotini doimiy ravishda takomillashtirishni nazarda tutadi.

#### MUHOKAMA.

Ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis tayyorlashning muhim shartlaridan biri - bu talabalarda ma'naviy qadriyatlarga sodiqlikni yuksaltirish bilan bog'liq tashkiliy va boshqaruv faoliyatiga psixologik tayyorgarlikdir. Yoshlarning kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy-madaniy identifikatsiyasi ko'p jihatdan uning shakllanish darajasiga bog'liq. Ta'lim jarayonida talabalarni faqatgina kasbga yo'naltirish, tanlangan mutaxassislikning nazariy asoslari va majburiy ishlab chiqarish amaliyoti bilan tanishtirish, boshqacha qilib aytganda, kasbiy faoliyatga tayyorlash emas, balki talabalarning me'yorlar, an'analar, milliy qadriyatlarni o'zlashtirishi va buning natijasida ular o'zlarining hayoti, kasbiy faoliyatlarida mazkur fazilatlarga sodiq qolishlariga erishmoq darkor.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga talabalarni ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan maxsus o'quv fanlarini joriy etish mamlakatimiz oliy ta'limini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. O'z navbatida talabalarda tashkiliy sodiqlikni shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. Bunga, albatta, xulq-atvor normalari, an'analar, urf-odatlar va boshqa elementlarni o'zlashtirish va qabul qilish bilan bog'liq tashkilot madaniyati, shu bilan birga, tashkiliy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlariga qadriyatlar, qoidalar, me'yorlar, xulq-atvor uslublari, dunyoqarash, jamoadagi shaxslararo munosabatlar bilan belgilanadigan psixologik iqlim, aloqa tizimi va muloqot tili kiradi.

Ma'lumki, pedagogik psixologiyaning obyektini shaxs va uning xatti-harakati tashkil etadi. Qolaversa, pedagogik psixologiya ikki fanning o'zaro hamkorligi asosida yuzaga kelgan. Psixologik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, faoliyat shaxslararo munosabatlar tizimi tariqasida, hamkorlik tarzida namoyon bo'ladi. Faoliyatda inson shaxsi (uning xususiyatlari) aks etadi. Ong bilan faoliyat birligi prinsipiga asoslanish orqali shaxs kamol topadi, shaxslararo munosabat amalga oshadi, ijtimoiy tajribalar o'zlashtiriladi, shaxs o'zaro ta'sir yordamida ijtimoiylashadi, milliy qadriyatlarni o'zida singdiradi.

Ta'lim tarbiya bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi, subyektga obyektiv ta'sir o'tkazish tufayli bilimlar egallanadi, muayyan shaxsiy fazilatlar tarkib topadi. Ta'limning mohiyatiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish dasturiy asosda, iyerarxik tarzda singdiriladi. Ta'lim muayyan guruh va jamoani shakllantiradi, shaxslararo munosabat maromlari bilan tanishtiradi, shaxsiy fazilatlarining tarkib topishiga, subyektning ijtimoiylashuviga sezilarli ta'sir o'tkazadi [6].

Talaba tahsil olishi jarayonida belgilangan fanlar doirasida nazariy bilimga ega bo'ladi. Berilgan ma'lumotlarni qabul qilish har bir talabaning subyektiv, individual xususiyatiga bog'liq jarayondir. Shu bois



talabalarda nazariyaning amaliyotda namoyon bo'lishi ham turlicha shaklda kechadi. V. I. Maksakova ta'biri bilan aytganda, bilish va amaliyot, o'z navbatida shaxsiy hayot ma'nosi va ahamiyati, uning namoyon bo'lish shakli va usullarini taqdim etadigan moddiy borliqni yaratuvchisiga xos subyektivlik mezonini aks ettiradi.[12].

O'z-o'zidan anglashiladiki, talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish yoxud rivojlantirish uning subyektiv tanlovidan kelib chiqadi. Bu ularning rivojlanish davriga ham bog'liq. Ya'ni yoshlik davri shaxs taraqqiyotining boshqa davriga nisbatan murakkab xususiyatga ega. Muayyan kasb egallash arafasida turgan yoshlar xayol, tasavvuf va istaklar oralig'ida psixologik va intellektual rivojlanishni boshdan kechiradi.

Shaxs hayotda tom ma'noda "subyekt"ga aylanadi. Bu dinamik va qarama-qarshiliklarga to'la jarayondir. Ya'ni tinch va bir maromda kechmaydi. Hayotda "subyekt"ga aylanish shaxsning xayol, qiziqsh, tasavvur va maqsadlari bilan bir qatorda obyektiv shart-sharoit bilan ham bog'liqdir.

K.A.Abulxanova-Slavskaya shaxs hayotining bu davrida ko'tarilish davri sifatida baholab, hayotning qolgan vaqtini hech qanday e'tiborsiz, past darajada kechadi,[10] - deya e'tirof etadi. Biroq shaxs hayotining har bir davrida o'ziga xos qadriyatlar tizimi mavjud bo'ladi.

Biz tahlilga tortgan masala yuzasidan B.G.Ananevning fikrini keltirish o'rinli deb hisoblaymiz: "yoshlarning hayotiy maqsadlarini ilm olish, muloqot muloqot belgilaydi".

Psixologlarning so'nggi yillarda o'tkazgan tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida ta'kidlash joizki, talaba yoshlarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishga didaktik ta'minotni takomillashtirish orqali erishish mumkinligini ko'rsatmoqda. Ularning fikricha, guruhda hamkorlikdagi faoliyat idrok va xotiraning o'sishiga ijobiy tasir ko'rsatib, fikrlash jarayonini tezlashtiradi va faoliyatini samaraliroq qiladi.

Ma'lumki, texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalar chuqur nazariy va amaliy bilimlar hamda kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi bilan birga ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarga to'g'ri baho berishi va hal eta olishi, turli vaziyatlarga mustaqil munosabat bildirishi, milliy va umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lishi, o'z millati va Vatanini sevishi, u bilan faxrlanishi, milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni hurmat qilishi, asrashi va ularni rivojlantirishga o'zining hissasini qo'shishi, jismoniy jihatdan sog'lom va barkamol, ma'naviy-axloqiy, ruhiy, siyosiy, ekologik dunyoqarashga ega, fuqarolik madaniyati shakllangan etib tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

Shu bois ham oliy ta'lim o'quv rejasi birinchi blok qismiga bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlar kiritilib, ularning o'qitilishi bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda, ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ma'naviy-axloqiy taraqqiyotsiz hayotni tasavvur etib bo'lmasligi sezilmoqda. Zero, oliy ta'lim talabasi – jamiyatimizning ertangi yetuk, yuqori malakali mutaxassisidir [5]. Uning qalbi va ongida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish masalasi dolzarb bo'lib qolaveradi.

Bizning nuqtayi nazarimizcha, texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tarkibiy bo'linmalarga ko'ra, ajratib ko'rsatish kerak. Bular quyidagilardir:

- texnika universitetining gumanitar fanlarga ixtisoslashtirilgan universitetga nisbatan xususiyatlari;
- texnika universitetida tahsil olayotgan talabalarning xususiyatlari;
- texnika universitet talabalarining o'quv faoliyatining xususiyatlari va nihoyat, uning asosiy dinamik xususiyatlarida (diqqatni jamlash, qiziqish va boshqalar) o'quv faoliyatini rag'batlantirishning o'ziga xos xususiyatlari [9-11].

Universitet shaxs oliy ma'lumot oladigan ta'lim muassasasining bir turi bo'lganligi sababli ta'lim muassasasining xususiyatlari oliy ta'lim tizimining asosiy elementlarining xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda berilgan ta'rifga ko'ra, ta'lim tizimi bu davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejalarini va o'quv dasturlarini; davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini; ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni; ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi [1].

Kasb-hunar ta'limi tizimida gumanitar yo'nalishlarga nisbatan texnik mutaxassisliklar sezilarli darajada ko'p. Texnika oliy o'quv yurtlari ularda mutaxassislar tayyorlash uchun seminar mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha mutaxassisliklarga oid laboratoriyalar ko'rinishidagi kuchli moddiy-texnik baza, fanlar bo'yicha zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan o'quv xonalari, talabalarni maxsus kasbiy tayyorlash uchun texnik-texnologik baza bo'lishini talab qilishi bilan ajralib turadi. Agar gumanitar oliy o'quv yurtida mutaxassislar tayyorlash uchun

kutubxona, o'quv xonalari va professor-o'qituvchilar tarkibi yetarli bo'lsa, texnika oliy o'quv yurtlarida bu prinsipial jihatdan yetarli emas. O'quv rejasining aksariyat fanlari uchun obyektiv ravishda kuchli laboratoriya bazasi bo'lishi kerak, bundan tashqari, eng yangi texnologiya va texnologiyalarga mos kelishi lozim. Bu katta moliyaviy investitsiyalar, tegishli binolar va boshqalarni talab qiladi. Qolaversa, nodavlat universitetlar orasida texnik universitetlar deyarli yo'q.

Texnika universiteti talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish xususiyatlarini oqilona aniqlash, birinchi navbatda, «ma'naviy qadriyatlar» konsepsiyasining mazmunini ochib berish va ushbu hodisa haqidagi g'oyalarni tarixiy va didaktik nuqtayi nazardan tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Mantiqiy va tarixiy tadqiqot usullarining uyg'unligi zamonaviy didaktikada ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning xususiyatlarini ham, tendensiyalarini ham ochib berishi mumkin.

E.G'.G'oziyev tadqiqotlarida tahlil etilganidek, talabalarning o'quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari, o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'zini-o'zi nazorat qilish, baholash, inson faoliyatini aniqlash... kabi tushunchalar haqidamulohaza yuritish mustaqil tafakkurning rivojlanishi, bilim jarayonining qiziqarli tashkil etilishi bilan bog'liq. Bu talabalar faoliyatida yangi muvaffaqiyatlarga erishishning ijodiy manbaidir.[15]

“Har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda, desak, adashmagan bo'lamiz”, [2]- deb ta'kidlagan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

“Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim” [4].

Talaba shaxsini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan narsa butun iyerarxik qadriyatlar tizimini yaxlit ko'rish, tushunish va qabul qilishdir: umuminsoniy (insonparvarlik, adolat, demokratiya, erkinlik), umumiy madaniy (ijod, uyg'unlik, bunyodkorlik, ma'naviyat, axloq), milliy ma'naviy va tarbiyaviy (Vatanga muhabbat, Vatanni himoya qilishga tayyorlik, tinchliksevarlik, milliy va diniy bag'rikenglik, mehnatsevarlik, sog'lom turmush tarzi); shaxsning har tomonlama va uyg'un rivojlanishi, kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirishi; shaxsiy (hayotga e'tibor berish, o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi anglash, sog'liq, do'stlik, sevgi, oila, baxt, farovonlik, mehnat, ijod va boshqalar). Shu bilan birga, Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, fuqarolik kabi qadriyatlar davlatimiz mafkurasining tarkibiy qismlari sifatida qaraladi va talabalarning ijtimoiy faolligini, fuqarolik mas'uliyatini, qonun va hokimiyatga hurmatni, o'z-o'zini anglashini rivojlantirish, birdamlik va kollektivizm ruhini tarbiyalash Yangi O'zbekiston sharoitida eng muhim tarbiyaviy vazifalardir.

Axborot kommunikatsion texnologiyalarning o'ziga xos imkoniyatlarini shu sohaga moslashtirgan holda ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalardan texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida o'qitish vositasi sifatida foydalanish nihoyatda muhimdir.

Ta'kidlash joizki, Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlarida ham ijtimoiy-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ilmiy dunyoqarashni, yuksak ma'naviyat va demokratik madaniyatni, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirish kabi talablarni ta'minlash lozimligi alohida uqtirilgan. Mamlakatimizda ta'lim islohotlarining hozirgi bosqichida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq bo'lib, aynan axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali zamonaviy ta'lim tizimida talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, uning didaktik ta'minoti turlari va shakllarini hamda ularni xalqaro ilg'or tendensiyalar asosida takomillashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi va moddiy-texnika bazasi rivojlantirilmoqda.

Bunda ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish; yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish; aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish; ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish kabi uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari 2019-yil 31-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-sonli «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarorida belgilan berilgan edi.

Pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va talabalarning yo'nalishiga mos psixologik yondashuv texnika oliy ta'lim muassasasida faoliyat maqsadiga erishishni belgilovchi holatlar majmuini ifodalovchi pozitsiya hisoblanadi. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonining samaradorligi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va amalga oshirish, shuningdek, universitetda qadriyatlarni o'rganish muhitini shakllantirish kerakligini ko'rsatdi. O'z navbatida talabalarning taraqqiyot davriga mos psixologik yondashuvni taqozo etadi.

Talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda faqat dars mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmay, qiziqarli suhbatlarni tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir. V.Karimova bu jarayonni quyidagicha izohlaydi: "Muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo'ladi va shunisi bilan insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi.

... Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy, samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladi. [16].

XULOSA. Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning samaradorligini oshiradigan amaliy yechimlarni topish zarurati tug'iladi.

Shu munosabat bilan talaba yoshlarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning eng muhim pedagogik talablari – talabalar jalb qilinadigan faoliyatning yo'nalishlari va mazmunini asoslash; ushbu faoliyatning mustaqil xususiyatini ta'minlaydigan motivatsiya tizimini ishlab chiqish; talaba shaxsini faollashtirish va subyekt pozitsiyasiga o'tkazish usullarini amalga oshirishni talab qiladi.

O'rganishlar va tahlillar asosida quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

- talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun, avvalo, qadriyatlarining ta'lim tizimi va muayyan ta'lim muassasasidagi o'rnini aniqlash;
- shaxsning taraqqiyot davriga mos ravishda subyektivligi va individualligini inobatga olish;
- talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishda ma'naviy kompetentlikni shakllantirish va uni ijtimoiy hayot hamda obyektiv shart-sharoitlar bilan uyg'unlashtirish talab etiladi. Bu talabaning axloqiy me'yorlar va ma'naviy qadriyatlarga nisbatan subyektiv tanlovi asosida munosabatni yuzaga keltiradi;
- oliy ta'lim muassasasida ma'naviy, pedagogik-psixologik fanlarni o'qitishga qisman e'tibor qaratilishi talabaning qiziqish, maqsad, tasavvurlar va ijtimoiy hayot murakkabliklari orasida qolishiga olib keladi;
- shaxsning o'ziga va boshqa shaxslarga nisbatan munosabatini anglashi, qadriyatlarni tanlay olish, ma'naviy-axloqiy muammolarga qiziqish, ularning yechimini tafakkur va o'z dunyoqarashi nuqtayi nazaridan izlashga intilishi, o'z-o'zini hurmat qilishi, tushunishi va ma'naviy barkamol inson sifatida shakllanishi uchun ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yil O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasi tantanali ochilish marosimidagi nutqidan. 20-fevral 2020-yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi. <https://uznews.uz/posts/46663>
4. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to'plami). –T; "O'zbekiston", 1997. B.198;
5. Komilov T., Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati. O'zR FA, "Fan", 2000. B.20.
6. Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. - T; "O'zbekiston", 1997. B.48.
7. Боташева Х.Ю. Педагогические условия формирования духовно-нравственных ценностных ориентации студентов вуза [Текст] /Х.Ю. Боташева // Образование - наука - технологии: Всерос. науч.-практич. конф. - Майкой: МГТУ, 2007. - С. 33-34.
8. Khadjieva I.A. (2019). Development of spiritual and moral values of students on the basis of innovative technologies. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 7(12).
9. Khadjieva I. The role of spiritual values in the light of the idea of the harmoniously developed person in the education process. *Mintaqada zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari.* №1ю 2017. 60-64-б.

## INFORMATIKA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR FANINI O‘QITISHDA QUIZLET VA KAHOOT PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH

*Xolmurodov Behzod Botir o‘g‘li*

*BuxDU tayanch doktoranti, BuxDPI Aniq fanlar kafedrasida o‘qituvchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning “Informatika va raqamli texnologiyalar” fanini o‘qitishda Kahoot platformasi orqali bilim, ko‘nikma va malakalarini xolis baholash, ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini rag‘batlantirish va reytingini aniqlashdan iborat. Talabalar bilimni tekshirish va baholashdan maqsad talabalar bilimining sifatini, rivojlantirish darajasini ta‘minlash va ularni rag‘batlantirishdan iborat bo‘lib, bilim olishga qiziqishini takomillashtirishdir.*

*Kalit so‘zlar: Kahoot, Quizlet, Quizlet Live, pop-viktorina, Interaktiv, Kartochka, raqamli texnologiya, onlayn test yaratuvchi platformalar.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЛАТФОРМ QUIZLET И KAHOOT В ПРЕПОДАВАНИИ ИНФОРМАТИКИ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Xolmurodov Behzod ugli*

*Докторант БухДУ, преподаватель кафедры точных наук БухДПИ*

*Аннотация: Целью данной статьи является объективная оценка знаний, умений и навыков студентов при преподавании дисциплины «Информатика и цифровые технологии» с использованием платформы Kahoot, стимулирование их интереса к обучению и определение их рейтинга. Целью проверки и оценки знаний обучающихся является обеспечение качества и уровня развития знаний обучающихся, а также поощрение их, повышение интереса к обучению.*

*Ключевые слова: Kahoot, Quizlet, Quizlet Live, поп-викторина, Интерактив, Карта, цифровые технологии, платформы для создания онлайн-тестов.*

## USE OF QUIZLET AND KAHOOT PLATFORMS IN TEACHING COMPUTER SCIENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES

*Xolmurodov Behzod Botir o‘g‘li*

*Doctoral student of BuxDU, teacher of Exact Sciences Department of BuxDPI*

*Abstract: This article aims to objectively assess the knowledge, skills and abilities of students in the teaching of “Informatics and digital technologies” using the Kahoot platform, to stimulate their interest in learning and to determine their rating. The purpose of checking and evaluating students’ knowledge is to ensure the quality and level of development of students’ knowledge and to encourage them, to improve their interest in learning.*

*Keywords: Kahoot, Quizlet, Quizlet Live, pop-quiz, Interactive, Card, digital technology, online test creation platforms.*

Ta’limda pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi o‘qitish tizimida talabani dars jarayonining markaziga olib chiqish, talabalarni o‘quv materiallarini shunchaki yod olishlaridan, avtomatik tarzda takrorlashlaridan uzoqlashtirib, mustaqil va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Shundagina talabalar muhim hayotiy yutuq va muammolar, o‘tiladigan mavzularning amaliyotga tatbiqi bo‘yicha o‘z fikriga ega bo‘ladi, o‘z nuqtai nazarini asoslab bera oladi. Bugungi kungacha test yaratuvchi dasturlardan ta’lim jarayonida foydalanib kelingan va raqamli texnologiyalar davrida bu yanada rivojlanmoqda. Lekin dars jarayonida onlayn test yaratuvchi platformalardan deyarli foydalanilmaydi [1].


Hozirgi rivojlangan texnika asrida internet axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish kerak. Shu paytgacha test yaratuvchi dasturlar ustida olimlar ko‘plab ilmiy ishlar ustida ishlashgan va amalda sinab ham ko‘rishgan. Lekin mana qancha yillar o‘tib bu qo‘llanilgan metodika eskirmoqda va dars jarayonida bir xillik yuzaga kelmoqda. Buning natijasida talabalarda darsda zerikish ularning fanga bo‘lgan qiziqish yo‘qligiga sabab bo‘lmoqda. Shu o‘rnida shuni aytib o‘tish lozimki, ta’lim turi ham o‘ziga xos yaxshi tomonlari va kamchiliklarga ega. Qanday shakldagi ta’lim bo‘lmasin, o‘rganuvchida kuchli xohish va iroda bo‘lsa, albatta katta-katta yutuqlarga erishish mumkin.

Ta’lim jarayoni an’anaviy yoki masofaviy ta’lim bo‘lishidan qat’iy nazar talabalarning fanga qiziqishini

orttirish ularni o'z ustida ishlashlari uchun undash mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Talabalar dars jarayonida bilim olishga bo'lgan ishtiyoq, tirishqoqlik, qiziqish, dars jarayoni boshlanishini intizorlik bilan kutish ko'nikmalarini shakllantirish kerak. Shundagina ta'limda ancha o'sish va rivojlanish bo'ladi. Shu sababli biz kelajakda barkamol yetuk shaxslarni tashkil toptiramiz [2-3].

Hozirgi fan texnika rivojlangan davrda dars jarayonida interaktiv test yaratuvchi onlayn platformalardan foydalanish talabalarning bilimini nazorat qilish, fanga bo'lgan qiziqishini orttirish va dars jarayonining qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Quizlet va Kahoot platformalardan foydalanib talabalar bilimini nazorat qilish darsda interaktiv savol javob o'tkazish talabalarni fanga qiziqishini orttirishi mumkin [4-5].


Kahoot - o'yinga asoslangan o'quv platformasi bo'lib, o'qitish jarayonlarida interfaol ta'lim texnologiyasi sifatida foydalaniladi. Uning o'quv o'yinlari "kahoots" foydalanuvchi tomonidan yaratilgan ko'p tanlovli viktorinalar bo'lib, ularga veb-brauzer orqali kirish mumkin ilova. Kahoot platformasi talabalar bilimini tekshirish, formativ baholash uchun yoki an'anaviy sinf faoliyatidan tanaffus sifatida foydalanish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Kahoot platformasini ishchi oynasi

Kahoot kabi platformalar ko'plab uchraydi. Ulardan biri Quizlet platformasidir.

Quizlet bu o'qituvchilar uchun testlar yaratish ajoyib vositasi bo'lib, fan bo'yicha baholashni tez va oson amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu hatto talabaga fanni mukammal darajaga o'rganishni taklif qilish uchun yetarli platforma. Bundan tashqari Quizlet platformasi raqamli pop-viktorina ma'lumotlar bazasidir. Unda 300 milliondan ortiq o'quv to'plamlari mavjud bo'lib, ularning har biri flesh-kartalar palubasiga o'xshaydi. Shuningdek, u interaktiv bo'lib, o'z o'quv to'plamini yaratish yoki boshqalarnikini klonlash va tahrirlash imkoniyatiga ega.(2-rasm)



2-rasm. Quizlet platformasini ishchi oynasi

Endi ikkala platformani ishchi holatida imkoniyatlarini ko'rib o'tamiz.

Kahoot imkoniyatlari

Kahoot - interaktiv o'quv texnologiyalari orqali talabalarni jalb qilishda ishlatiladi

Ushbu platforma o'yin formatida testlar, so'zlashish va boshqa tadbirlar tuzish uchun mo'ljallangan

Qo‘shimcha qulayliklar talabalar uchun motivatsiyani oshirishga yordam beradi  
O‘yin turlarini tuzish va qo‘shimcha funksiyalar orqali o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida samarali aloqani ta‘minlaydi.

Quizlet imkoniyatlari

Talabalar o‘zlarining vazifalari, kuzatish malakalari, va testlarni yaratishlari uchun foydalanishadi

“Kartochka” uslubi orqali so‘zlashishni o‘rganish uchun muhim ma‘lumotlarni yodlashni ta‘minlaydi


Quizlet Live nomli o‘yin rejimida guruhlar halqasi bilan qo‘shilib o‘ynashga imkon beradi

Umumiy o‘zlashtirilgan ma‘lumotlar bazasi orqali talabalar boshqa foydalanuvchilar bilan materiallar almashishadi.

Har bir platforma o‘zining foydalanuvchilari va maqsadlariga qarab, “kuchli”likni baholash muammolari o‘zgaradi. Ba‘zi o‘qituvchilar va talabalar uchun Kahoot, boshqalari uchun Quizlet kuchli bo‘lishi mumkin. Tanlashda muayyan maqsadlaringiz va talablaringizni hisobga olib, keyin variantlardan qaysini tanlashda yordam bera oladi. Hozirgi kunda Kahoot platformasi boshqa platformalarga nisbatan ko‘p imkoniyatlar va qulayliklarga ega bo‘lganligi sababli keng qo‘lanilmoqda. Kahoot platformasi orqali “Informatika va raqamli texnologiyalar” fanini o‘rganish, o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash va mustaqil o‘rganish juda oson.


Kahoot platformasida har bir test savollari uchun vaqt belgilangan bo‘ladi shu vaqt ichida talabalar javob berishlari kerak bo‘ladi. Vaqt tugagach yoki barcha talabalar test savollariga javob bergach ularning natijasi shu zahoti ekranda paydo bo‘ladi. Agar savolni javobini qanchalik tez va to‘g‘ri javob bersa ushbu talabaga ko‘proq ball qo‘shiladi. Test yakunlanganda podium ya‘ni birinchi, ikkinchi va uchinchi, o‘rinlar aniqlanadi. Talabalar interfaol doska, proyektor, monitor yoki VNC orqali virtual ulashiladigan ekran kabi umumiy ekran atrofida to‘planishadi. O‘yin jarayoni oddiy: barcha talabalar o‘z qurilmalarida bir vaqtning o‘zida savollarga javob berishadi. Savollar ekranda birin-ketin talabalarga ko‘rsatiladi. Ishtirokchilar har bir to‘g‘ri javob uchun ball oladi. Test oxirida ekranda barcha ishtirokchilarning savollariga javob berish paytida to‘plagan ballari ko‘rsatiladi. O‘yinda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tish shart emas. Testlarni saytdagi katalogdan tanlash mumkin. Shuningdek, siz yangi viktorinalar yaratishingiz mumkin - ko‘pincha bu vazifani o‘qituvchi bajaradi. Kahoot platformasida o‘qituvchi roli asosiydir. O‘qituvchi quydagi tartibda test yaratadi

Kahoot yaratishda <https://create.kahoot.it> orqali ro‘yxatdan o‘tiladi.(3-rasm)



3-rasm. Ro‘yxatdan o‘tish oynasi

Ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng ishchi oynasi ochiladi. Ishchi oynada yuqori o‘ng tomonda Create tugmasini bosish orqali yangi kahoot yaratiladi. (4-rasm)




4-rasm. Yangi Kahoot yaratish

Create tugmasini bosganda ikkita bo'lim ko'rsatadi: Kahoot va Course. Bulardan Kahoot bo'limini tanlab yangi kahoot yaratishimiz mumkin. (5-rasm)



5-rasm. Test yaratish oynasi

Mazkur oynaga savol matni va javoblarini kiritamiz. Javoblarni kiritib bo'lgandan keyin to'g'ri javobga to'g'ri belgisini qo'yib saqlaymiz (6-rasm)



6-rasm. Test kiritish jarayoni

Yangi savolni qo'shish uchun ishchi oynaning chap tomonidagi "Add question" tugmasi bosiladi. Barcha savollarni yaratib bo'lgandan keyin ishchi oynaning "Setting" bo'limidan yaratilgan kahootga nom berish, izoh yozish, fonga rasm tanlash, musiqani o'zgartirish va tilni o'zgartirish mumkin. Ishchi oynaning o'ng tomidagi "Question type" bo'limidan savolning turini, ajratilgan vaqtni, har bir javob uchun beriladigan ballning miqdorini tahrirlash mumkin. Barcha bosqichlarni bajarib bo'lgach ishchi oynaning yuqori o'ng tomonidagi "Save" tugmasi

orqali saqlanadi.

Ushbu oynaning chap tomonida qatnashuvchilarning ishchi oynasi. O'ng tomon o'qituvchining ishchi oynasi. O'qituvchi o'z ishchi oynasida hosil bo'lgan PIN kodni talabalarga uzatadi va o'quvchilar shu PIN kod orqali testni boshlashadi.(7-rasm)



7-rasm. G'olibni taqdirlash

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki "Informatika va raqamli texnologiyalar" fanidan darsi jarayonini Kahoot, onlayn test yaratuvchi o'yinli platformalarda elektron testlar kompleksini yaratish va uni ta'limda qo'llash natijasida talabalarga bilim berish uchun onlayn platformalardan foydalanib dars samaradorligini oshirish mumkin. Bunda talabalarning mustaqil fikrlashini, darsga qiziqishini orttirish, o'tilgan mavzuni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lishiga, darslikdan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish ko'nikma va malakalari shakllanishiga, talabalarni ilmiy izlanishga yo'naltirishda xizmat qiladi.

Onlayn platformalar orqali talabalarga doimiy ravishda bilim berib borishda interaktiv o'yinli testlar yaratish va ulardan o'quv jarayonida foydalanish lozimligi, shuningdek platformalarni yanada takomillashtirish va yangi loyihalarini yaratish bo'yicha zaruriy bilimlar o'rgatiladi.[7-10]

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.G. Zaxarov. Ta'limda axborot texnologiyalari: oliy ta'lim uchun darslik. darslik muassasalar / I.G. Zaxarov. - M.: «Akademija», 2008., 338-bet
2. Alijon Hamroyev. "Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish zamonaviy ta'lim konsepsiyasining asosi." PEDAGOGS jurnali 1.1 (2022): 35-37..
3. A.Sh.Rashidov. "Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda smart-auditoriyadan foydalanib o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023 yil 12-son. 247-251 bet
4. Зарипов Н. Н. Использование иностранного опыта в обучении информатике и информационным технологиям в школе //Проблемы современного образования. – 2020. – №. 6. – С. 213-218.
5. A.Sh.Rashidov. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda fanlararo integratsiya // Kasb-hunar ta'limi ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal, - Toshkent, 2022. №1. – 84-87 b
6. Xolmurodov B. Matematika fanini o'qitish samaradorligini oshirishda kahoot platformasidan foydalanish //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
7. Tolibjon M., Behzod X. Diskret parametrli ikkinchi tartibli operatorli matritsani chegaralanganlikka tekshirish // Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – T. 2. – №. 10. – С. 669-675.
8. Xolmurodov B., Hayitova A. Fok fazosining qirg'ilgan ikki zarrachali qism fazosida berilgan diskret parametrli ikkinchi tartibli operatorli matritsani chiziqlilikka tekshirish //Prospects of development of science and education. – 2023. – T. 1. – №. 10. – С. 104-107.
9. Sadullayev I. Sirtqi talimda talabalarning o'zlashtirish monitoringini olib borish //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
10. Sadullayev I. Boshlang'ich ta'limda PHET interaktiv simulatorlardan foydalangan holda dars samaradorligini oshirish //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
11. Jo'rayeva N.O. Mobile Softwareanwendungen zur Organisation unabhängiger Bildung// Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol. 2, Issue 1.5 (2022), – P. -661-664. (13.00.00; № 7).



## THE ROLE OF INTERACTIVE GAMES IN TEACHING ENGLISH GRAMMAR

Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi

Tashkent university of applied sciences Faculty of history and philology Teacher of department of foreign language and literature

*Abstract: Today, there are various fields in modern linguistics, the most important of which is the study of the grammar of a language. Grammar is very important in learning a language. But today's students face several difficulties in learning grammar. In order to overcome such difficulties, many linguists have conducted some researches. Most of these scholars have said that using different games is the most important way to learn and teach the grammar of the language. In this article, the author talked about the role and importance of modern language games in learning and teaching English grammar. She tried to prove his ideas by giving examples from the theories of scientists in this regard.*

*Keywords: method, games, interactive methods, English, grammar games, activities, teaching strategies, linguistics, grammar, teaching.*

## РОЛЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ ИГР В ОБУЧЕНИИ ГРАММАТИКИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Ягубова Нигораксон Иброхимджон кизи

Ташкентский университет прикладных наук Факультет истории и филологии  
Преподаватель кафедры иностранного языка и литературы

*Аннотация: Сегодня в современной лингвистике существуют различные области, важнейшей из которых является изучение грамматики языка. Грамматика очень важна в изучении языка. Но сегодняшние студенты сталкиваются с рядом трудностей в изучении грамматики. Чтобы преодолеть подобные трудности, многие лингвисты провели исследования. Большинство из этих ученых заявили, что использование различных игр является наиболее важным способом изучения и преподавания грамматики языка. В этой статье автор рассказала о роли и значении современных языковых игр в изучении и преподавании грамматики английского языка. Она пыталась доказать свои идеи, приводя примеры из теорий ученых на этот счет.*

*Ключевые слова: метод, игры, интерактивные методы, английский язык, грамматические игры, занятия, стратегии обучения, лингвистика, грамматика, обучение.*

## INGLIZ TILI GRAMMATIKASINI O'QITISHDA INTERFAOL O'YINLARNING AHAMIYATI

Yoqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti Tarix va filologiya fakulteti Chet tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

*Annotatsiya: Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda turli xil sohalar mavjud bo'lib, ularning eng muhimi biror bir tilning grammatikasini o'rganish hisoblanadi. Biror tilni o'rganishda grammatikaning ahamiyati juda kattadir. Lekin bugungi kun o'quvchilari grammatikani o'rganishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bu kabi qiyinchiliklarni bartaraf qilish maqsadida ko'p tilshunos olimlar izlanishlar olib borishgan. Bu olimlarning ko'pchiligi tilning grammatikasini o'rganish va o'rgatishda turli xil o'yinlardan foydalanish eng muhim usul ekanligini aytishgan. Mazkur maqolada muallif ingliz tili grammatikasini o'rganish va o'rgatishda zamonaviy til o'yinlarining roli va ahamiyati haqida so'z yuritgan. Bu boradagi olimlarning nazariyalaridan misollar keltirgan holda o'z fikrlarini isbotlashga harakat qilgan.*

*Kalit so'zlar: metod, o'yinlar, interfaol metodlar, ingliz tili, grammatika o'yinlari, mashg'ulotlar, o'qitish strategiyalari, tilshunoslik, grammatika, o'qitish.*

**Introduction.** Our country is currently engaged in a number of noteworthy initiatives to ensure that the President's directions for improving the foreign language education system are carried out. According to our chief of state, in order for a business owner to compete worldwide and completely grasp their speciality, he or she must be fluent in both spoken and written foreign languages.

The current article focuses on how games can be used to teach grammar to students of different skill levels. This book represents the range of scientific investigations carried out by numerous scientists on this subject. The theories, opinions, and actual evidence from various scientists who research games are presented in this work. Therefore, the study's objective was to show students how effectively games teach grammar as a sub-skill.

The definitions given in the dictionaries state that grammar is “a science that studies the structure of words and sentences; a system of rules and principles followed in the construction of oral and written speech”. Teaching English Grammar in Malaysian Primary Schools defines grammar as a language system. Grammar is commonly referred to as the «rules» of language, even though there are no rules in any language. The guidebook states, “It is also believed that just because a language is spoken according to rules, it does not necessarily follow that the rules existed before the language”. After all, sounds are the foundation of human language, which evolved into words, phrases, and sentences.

Methods. Nguyen in “How to teach Grammar communicatively” which was carried out at Nong Lam university with the involvement of 100 students and 10 teachers, suggested ways to present and practice new grammatical rules communicatively for students learning and enjoying at the same time [5;42-48]. The methodology he carried out included games that played an important part in teaching grammar communicatively. Also emphasized in the results, “games are as “vital part” of a teacher’s equipment because they provide not only practice but also an amusing and challenging recipe from other classroom activities”.

Luong studied the application of games in grammar review lessons for sixth graders. The study consisted of a survey with the involvement of 8 teachers and 225 students from three high schools and an experimental project with 82 students within 3 months. The results showed a rapid improvement of students’ ability in using grammatical knowledge in written tests and oral performance as well [7; 21-26].

Nguyen in “Teaching and learning Grammar through games in the tenth grade at Hung Vuong high school” indicated the necessity of games for easing the difficulties, exciting the atmosphere in teaching and learning Grammar [6; 12-19].

The results emphasized that for the teachers who just follow the tasks given in the textbook and do not create any games activities lead a grammar lesson to a boring, hard-digesting experience to their students and surely, do not meet the need for more interesting and effective grammar classes. One of the best solutions is through games which meet the purpose of creating a relaxing and motivating atmosphere for most learners.

For the teachers who just follow the tasks given in the textbook and do not create any games activities lead a grammar lesson to a boring, hard-digesting experience to their students and surely, do not meet the need for more interesting and effective grammar classes.

Parallel bajarilish: muvofiqlashtirish va sinxronlashtirish qobiliyatiga ega parallel iplarda obyekt usullarini ishga tushirish; oddiy foydalanuvchi interfeysini yaratish. Shu bilan birga, Scratchda umuman tilning va obyektga yo'naltirilgan tilning, masalan, protseduralar va funktsiyalarning muhim parametrlari, parametrlarni uzatish va qiymatlarni qaytarish (global o'zgaruvchilar orqali tashqari), rekursiya, obyekt sinflarini aniqlash, meros va polimorfizm, istisnolardan foydalanish, matn kiritish va fayllarni kiritish va chiqarish. Biroq, bu va ehtimol ba'zi boshqa tarkibiy qismlar yaqin kelajakda tilga qo'shilishi shubhasizdir[6].

Ko'rib turganimizdek, Scratch haqiqatan ham boy xususiyatlarga ega. Shu bilan birga, uni o'rganishni boshlash uchun, o'qish qobiliyatidan tashqari, hech narsa talab qilinmaydi, chunki dastur tayyor rangli bloklardan iborat. Deyarli barcha birinchi sinf o'quvchilari ushbu darajaga to'g'ri keladi. Bolalar, o'spirinlar va dasturlashni o'rganishni istagan har bir kishi uchun dasturlash yanada qiziqarli va qulay bo'lishi uchun Scratch eng yaxshi hisoblash va interfeys dizaynidan foydalanadi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, Scratch dasturdagi garafik imkoniyatining qulayligi tufayli, kichik yoshdagi bolalar ham sodda multimediya loyihalarini bajara oladi. Shu bilan birgalikda, dastur tuzish jarayonini ham oson o'zlashtiradi. Bundan tashqari ekrandagi qahramonlarini harakatga keltirishi, liboslarini va rangini xohishga qarab o'zgartirishi mumkin.

Scratch dasturlash tilini o'rgatish usuli bolalar va yangi boshlanuvchilarni dasturlash dunyosi bilan tanishtirish uchun samarali va qulay yondashuvdir. Vizual dasturlashga asoslangan Scratch oddiy va intuitiv interfeysni taqdim etadi, bu esa bolalarga sintaksisga emas, balki dasturlashning mohiyatiga e'tibor qaratish imkonini beradi.

Turli o'quv materiallari va loyihalarini o'z ichiga olgan tuzilgan o'quv kurslari orqali Scratch metodologiyasi dasturlash asoslarini izchil va chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydi. Tajriba qilish, o'z loyihalarini yaratish va sinab ko'rish imkoniyati o'quvchilarga ijodiy fikrlashni rivojlantirish va interaktiv usullarda o'z fikrlarini ifoda etish imkonini beradi.

Juftlik dasturlash va guruh loyihalari kabi interfaol ta'lim usullari talabalarning hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Scratch-da o'z loyihalari ustida ishlash o'quvchilarning motivatsiyasini rag'batlantiradi va ularda muvaffaqiyat hissini beradi.

Shunday qilib, Scratch dasturlash tilini o'rgatish usuli nafaqat dasturlashning aniq ko'nikmalarini egallashni ta'minlabgina qolmay, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va o'ziga ishonch kabi umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Bu ta'lim sohasida dolzarb va samarali vosita bo'lib qolmoqda, talabalarga tez o'zgaruvchan raqamli dunyoga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rganishga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

“Scratch для юных программистов” Голиков Д. В.2011

“Scratch для детей” Мажед Маржи Москва 2017

“Informatika va axborot texnologiyalari”: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik: D. T. Kamaltdinova, D.M. Sayfurov- Toshkent: “Tasvir”, 2020.-112 b.

V.M. Turapov “Scratch dasturi imkoniyatlari”- Samarand-2021, 22 bet.

Tursunov S.Q “Ta'limda axborot texnologiyalari” (II-Tom) –Toshkent 2019.

## TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Shomurodov Oybek Norqulovich*

*Buxoro davlat universiteti Tasviriy va amaliy san'at kafedrasida dotsenti*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada tasviriy san'at darslarini tashkil etishda zamonaviy pedagogika texnologiyalardan foydalanish usullari, pedagogikadagi yangilanish jarayonlarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish va maktabda tasviriy san'atni o'qitishda pedagogik texnologiya masalasi haqida to'liq bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: tasviriy san'at, pedagogik texnologiyalar, yangilanish, tematik kompozitsiya.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ

*Шомуродов Ойбек Норкулович*

*Доцент кафедры Изобразительного и прикладного искусства Бухарского Государственного Университета*

*Аннотация. В данной статье полностью раскрыты методы использования современных педагогических технологий при организации занятий изобразительным искусством, применение процессов педагогического обновления в образовательной практике, а также вопрос педагогической технологии преподавания изобразительного искусства в школе.*

*Ключевые слова: изобразительное искусство, педагогические технологии, обновление, тематика, состав.*

## USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FINE ARTS

*Shomurodov Oybek Norkulovich*

*Associate Professor of Fine and Applied Arts Department of Bukhara State University*

*Abstract. This article fully describes the methods of using modern pedagogical technologies in the organization of fine art classes, the application of pedagogical renewal processes to educational practice, and the issue of pedagogical technology in teaching visual arts at school.*

*Key words: fine art, pedagogical technologies, renewal, thematic composition.*

**KIRISH.** Hozirda ta'lim muassasalarida dars o'tishning turli yangi loyihalari orqali sinov tajriba sifatida nazariy amaliy dars tashkil qilish usullari qo'llanilmoqda. Tasviriy san'atda olib borilayotgan ishlarning hajmi va turlari xam nihoyatda xilma xilligi bilan boshqa fanlardan ko'ra qo'shimcha oddiy va murakkab jarayonlarni rassom pedagogdan talab qilib turishi bilan farqlanadi.

Ma'lumki, yangilanish – bu butun tizimning muayyan qonuniyatlar asosida ichki o'zgarishidir.[1] Pedagogik yangilanish deganda dunyo miqyosida sodir bo'layotgan global o'zgarish va rivojlanishning va natijasini yaxshilashga yo'naltiriladigan pedagogik tizim ichida sodir bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar majmuasi nazarda tutiladi.

Yangi zamon bilan uyg'un pedagogik faoliyat butun pedagogik tizimni sifat jihatidan takomillashtirishda yuqori darajadagi natijalarga erishuvni kafolatlashga xizmat qiladigan yangi g'oyalar, jarayonlar, vositalar, usul, uslublarning yaxlit holatdagi ifodalanishidir

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Ma'lumki, inson va uning jamiyatining harakatlantiruvchi kuchi - bu inson tafakkuridir. Tafakkur - bu aql-idrok va dunyoviy bilimlar majmuasidir Ma'lumki, har bir mamlakat va jamiyat o'zining ta'lim-tarbiya tizimiga va o'qitish texnologiyasiga ega bo'ladi. Lekin bu texnologiyada, albatta, jahon va umuminsoniy ta'lim-tarbiya tizimidan va o'qitish texnologiyasidan ijodiy foydalanib, undan bahramand bo'linadi[2].

Shu bois o'quv fanlarini pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, maktablarda tasviriy san'at o'quv predmetini yangi pedagogik texnologiyada o'qitishga o'tilmoqda.[3] Buning uchun tasviriy san'at o'quv predmeti darslari bo'yicha didaktik materiallar, ko'rgazmalar, metodik adabiyotlarni tayyorlash va ishlab chiqarish zarurligi bugungi kunimizdagi muhim vazifa bo'lib qolyapti.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya sohasida pedagogik texnologiyadan tasviriy san'atni o'qitishda foydalanish va uning samaradorligiga erishish uchun ham o'ziga xos didaktik jarayonning o'rganib chiqilishi zarur bo'ladi.

Maktabda tasviriy san'atni o'qitishda pedagogik texnologiya masalasi bilan hozirgacha biron-bir tuzukroq ilmiy asar yoki metodik-didaktik qo'llanma chop etilgani yo'q. Shuning uchun bu masalada mulohaza yuritishda masala kengroq o'rganilib, texnologiya, pedagogik texnologiya va so'ngra tasviriy san'atni o'qitishda pedagogik texnologiyadan foydalanish masalasi tahlil qilinishini lozim topdik.

Ma'lumki, tasviriy san'atning dars mashg'ulotlari besh turdagi mashg'ulot xarakterida yoki texnologiyada amalga oshiriladi:

1. Narsaga qarab rasm ishlash.
2. Tematik kompozitsiya ustida ishlash.
3. Dekorativ amaliy-bezak san'ati.
4. Haykaltaroshlik ishlari.
5. San'atshunoslik asoslaridan tashkil topgan mashg'ulotlar turlarida olib boriladi

Bu darslarning texnologiyasi bir mazmunda bo'lsada, ulardagi ta'lim berish texnologiyasi albatta bir-biridan farqlanadi. Ya'ni «narsani o'ziga qarab rasm chizish» mashg'ulotlarida naturadan, buyumning o'zini ko'rib, undan shaklning imkoniyati boricha naturadan tasvirlanadi. Tematik kompozitsiyada esa o'quvchilar o'ylab-o'ylab, uzoqlarga qarab, nimalarnidir esga olish asosida rasm chizadilar. Haykaltaroshlikda esa, qalam-bo'yoq bilan emas, loy-plastilin bilan, oz bo'lsada, jismoniy mehnat vositasidagi mashg'ulotlar.

Tasviriy san'atni o'qitishning pedagogik texnologiyasi - o'quvchilarga tasviriy san'at bo'yicha bilim-malaka berish, shu asosda shaxsni rivojlantirish qonun-qoidalarini o'zida mujassam etgan holda oldindan rejalashtirilgan natijani kafolatlaydigan pedagogik faoliyatdir desak, uning didaktik jarayoni va metodik yo'nalishi qay tarzda talqin etiladi?

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Pedagogik texnologiya - murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan va, o'z navbatida, bu bosqichlarning har biri o'ziga xos amallardan iborat bo'ladi.[4] Agar biz tasviriy san'atning dars mashg'uloti, ya'ni 45 minutli vaqt ichida barcha imkoniyat, shart-sharoit, vosita, didaktika, metodik uslublardan (qanday darajaligidan qat'i nazar) foydalanib, kafolatlangan natija uchun amalga oshirilayotgan faoliyat - ning barchasi tasviriy san'at darslarining pedagogik texnologiyasi bo'ladi. Shuningdek, tasviriy san'at bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim-malakalar didaktikaning tarbiyaviylik prinsipiga amal qilingan holda olib boriladi.

Chunki maktab tasviriy san'ati o'quv predmeti o'quvchilarni badiiy-axloqiy, estetik mehnatga, o'z xalqiga, Vataniga, ota- bobolar ijodiga katta hurmat bilan qarashga o'rgatadi. Yana tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi va didaktikasi talabiga ko'ra, har bir dars - o'quvchilarga berilayotgan bilim va malakalami shu darsning o'zida amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lib, darsning asosiy qismida berilgan yangi bilim va ma'lumotlar asosida rasm chizish amaliyoti bajariladi. Bu fanning ushbu imkoniyati va shart-sharoitiga ko'ra, uning dars texnologiyasida ijobiy o'zgarishlar namoyon bo'ladi.

Yana tasviriy san'atni o'qitishda g'oyat ahamiyatga molik bo'lgan didaktik prinsip - o'quvchilarning tasvirlash qobiliyati, bilimi, malakasiga mos holda o'qitishga shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratishdan iboratdir. Bu prinsip o'quvchilarning barchasini rasm ishlashga va tasvirlar yaratishga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Tasviriy san'at o'quv fanining dars va ta'lim texnologiyasi talabiga ko'ra, o'qituvchi dadil harakat qiladigan, o'ylab gapiradigan, toza, aniq nutq-tovushda qisqa, mazmunli, imo-ishoralardan ko'proq foydalana oladigan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tasviriy san'at fani o'qituvchisi yaxshi tinglaydigan, mantiq chiqara oladigan, yana o'qishni, yozishni, gapirishni va chiza olishni yuksak darajada egallagan bo'lishi zarur. Umuman, tasviriy san'at o'qituvchisi o'zining ijodkorligi, tashabbuskorligi va adolatli bo'lishi bilan boshqa fan o'qituvchilaridan farq qiladi. Chunki u doimo rasm chizish, bevosita san'at asari yaratish bilan mashg'ul bo'lishi kerak. U har kuni biron yangilik yaratish taraddudida bo'ladi.

Yana u o'z tashabbusi bilan tasviriy san'at kabinetini tashkil etadi. U har kuni biron narsa (didaktik material, ko'rgazma qurol) yasaydi. Natura fondini ko'paytirish bilan shug'ullanadi. Pedagogik mahoratini oshirib borishi uchun o'z ustida ishlaydi. Tasviriy san'atning mahoratli o'qituvchisi o'z darslarini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida ishlashga moslashtirib boradi.

Tasviriy san'atni o'qitishda o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyaning «Dars texnologiyasi» dan foydalangan holda:

- modulli o'qitish texnologiyasidan;
- tezlashtirib o'qitish texnologiyasidan;
- muammoli o'qitish texnologiyasi asosida o'quvchilarni mustaqillik, tashabbuskorlik va ijodkorlik asosida bilim-malaka olishga o'rgatadi;

- tabaqalashtirib o'qitish texnologiyasi kabi prinsiplardan foydalanib, darslar samaradorligini oshirib boradi.

O'qituvchi o'quvchilarni yangi darsga, yangi o'quv materialiga olib kirishi, tayyorlashi uchun yangi pedagogik texnologiyaning motivatsiya deb ataladigan didaktik jarayonidan foydalanadi. Darhaqiqat, inson ijodiy faolligi uning har tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson hayoti, turmush tarzi, undagi o'zgarishlar atrof muhitdagi buyumlar qurshovida kechadi.

Rang-barang buyum va jismlar borliqqa go'zallik va nafosat baxsh etadi, insonga shu qonuniyatlar orqali qarashga undaydi. Respublikamizning barcha ta'lim jabhalarida bo'lganidek, tasviriy san'at sohasi ustida anchagina izlanishlar olib borilgan. Ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish sohasida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan faol ta'lim berish usullarini amalda tatbiq qilish ustida ijobiy ishlar qilinmoqda.

Hozirgi kunda shubhasiz eskirgan pedagogik usullar yordamida yangicha sifatli ta'lim olish mumkin emas. Ta'lim jarayoni zamon bilan hamnafas yangi innovatsion texnologiyalarni talab qilmoqda. Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlarini tasviriy san'atga bog'lash bilan shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va ijodiy tafakkurini amaliyotga tatbiq etishga olib keladi. Bunda esa uning eng muhim yo'nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish va kasbiy ixtisoslashuvining faollashuviga olib keladi.

Tasviriy san'at o'quv jarayonida mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Ta'limda innovatsiya (STEAM)" loyihasi), interfaol metodlar (aqliy hujum, tushunchalarni aniqlash, chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi) hamda (klaster, B-B-B chizmasi, «Nima uchun» chizmasi, «Qanday» diagrammasi va toifalash jadvali) kabi grafik organayzerlardan unumli foydalanish mumkin.

Yo'nalishiga ko'ra talabalarning pedagogik intellekt darajasi hamda kasbiy layoqatini aniqlashga qaratilgan turli metodik usullardan, nostandart testlardan foydalanish kompyuter vositalari orqali amalga oshiriladi. Bunda testli vazifalar faqat so'zlar ifodasi emas, balki animatsiyali lavhalar ko'rinishida bo'ladi. Kompyuter texnologiyalarini qo'llash orqali talabalarda darsni tushunish, ma'lumotlarni tez qabul qilishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, talabalardagi shaxsiy xislatlarini ham tarbiyalaydigan ijodiy faoliyatlarga jalb qilinadi. Tasvirli badiiy bezaklar ijobiy ruhiy muhitni yaratib, ularda muayyan madaniy-axloqiy xususiyatlar shakllana boshlaydi, dunyoqarashlari kengayadi. Kompyuterdagi axborot almashish tamoyillari an'anaviy darsni tashkil etish bilan birgalikda uni qayta ko'rish imkoniyatlarini ochib beradi.

Innovatsion texnologiyalar yordamida tasviriy san'at asarlarini keng va yaxlit idrok etish uchun imkon beradigan mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratiladi. Kompyuterlar orqali tasviriy san'at asarlarini tahlil qilish, muzeylar va galereyalar bo'ylab virtual sayohatlar uyushtirishda har xil ovozli matnlar, musiqa, animatsion bezaklardan foydalanish bilan real hayotdagidek ko'rish imkoniyatini beradi. Tasviriy san'at, adabiyot, musiqa va umuman olganda badiiy ijodkorlikda innovatsion texnologiyalarning o'zaro bog'liqligini amalda sinash talabalarning mashg'ulotlardagi faol ishtirokini jonlantirishga xizmat qiladi.

Ta'limning o'zaro bog'liqligi talabalardagi bilim olish va san'atga qiziqishlarini oshiradi. Yangicha ta'lim usullari ta'sirida talabada keng fikrlash, yuqori izlanish, yangiliklar yaratish bilan uni asoslash, amaliyotga tatbiq etish vositasi sifatida munosabatda bo'lish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarlik hissi shakllanib, mustaqil ijodkorlik tajribasi oshadi. Yangi avlod multimedia texnologiyalari bilan faol shug'ullanganda talabalardagi san'at asarlarini idrok qilish tezroq shakllanadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarning faol qo'llanilishi zamonaviy talabaning assotsiativ fikrlashi, tasavvur qilishi hamda badiiy tarzda his etish holati rivojlanadi. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan tasviriy san'at darslari yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalashda yetakchi o'rinni egallaydi.

Buni tushunib yetgan ko'plab pedagog-rassomlar tasviriy san'at mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llashda kompyuter vositalaridan unumli foydalanib kelishmoqda. Ular bu vositalar orqali mavzuga oid «mahorat darslari», jahondagi mashhur san'at muzeylariga sayohat, buyuk rassomlar asarlaridan iborat 3D videoroliklar namoyishi, grafik organayzerlar va nostandart testlardan foydalanishadi. Shu jumladan, pedagogning shaxsan o'zi kompozitsiya yaratish jarayonini amalda ko'rsatib, amaliy mashg'ulotlarning qiziqarli o'tishiga erishmoqdalar.

XULOSA. Hayotimizdagi yangi shart-sharoitlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonida kompyuter vositalari va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni axborot hajmining ko'payib ketganligi, jamiyatdagi ilmiy-

texnologik rivojlanish bilan izohlash mumkin. Pedagogik faoliyat bosqichma-bosqichligini nazarda tutadigan innovatsion texnologiya bo'lajak mutaxassisni hayotiy hamda o'quv faoliyatini mustaqil ko'ra oladigan, unga kreativ yondasha oladigan faol, ijodkor shaxsni shakllantirishga qaratadigan zamonaviy jarayon hisoblanadi. Ta'limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga samarali ta'sir etuvchi omillaridan biridir. Pedagogik innovatsiya - ta'lim jarayoni sifatini oshirish va pedagogik amaliyotni sifat jihatdan yaxshilashni maqsad qiladi. Shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy ta'limni kompyuter grafikasi kabi o'quv jarayonida qo'llash imkonini oshiradigan innovatsion texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Taklif qilinayotgan tasvirni ko'rish bilan birga talabaning obrazli fikrlashi materialni yaxlit qabul qilishiga bu katta yordam beradi. Ularda nazariy va ko'rgazmali materiallarni o'zaro mujassamlashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turg'unboyev K., Rizayev A. «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar». Andijon 2008.
2. I.Yuldashev, I.Pulatov, M.Qurbonova «Tasviriy san'at asarlarini idrok etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yo'llari» O'quv uslubiy qo'llanma.
3. Nabiev M., Azimova B. «Rasm chizishga o'rgatish metodikasi». T.: O'qituvchi, 1976.
4. Xasanov R. «Tasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasi» Fan dasturi. TDPU– 2007.

## MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TARBIYA FANLARINI O'QITISH METODIKASI

*Smetova Jumabiyke Hamidullayevna*

*Toshkent amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Maqolada OTMda tarbiya fanini o'qitish asosida mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish orqali fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning kompetensiyalarini aniqlash, tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish va topshiriqlar bilan ishlashda ta'lim traektoriyasi qulay va amaliy ahamiyatga ega metod, usul va texnologiyalarni tanlash, talabalarni mustaqil ta'lim asosida mantiqiy fikrlashga, ijodiy izlanish doiralarini kengaytirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.*

*Kalit so'zlar: pedagogika, oliy ta'lim, tizim, tarbiya fanlari, mustaqil ta'lim, topshiriqlar tuzish, pragmatika, didaktika, metodika, gibrid, traektoriya, kompetentsiya.*

## МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ УЧЕБНЫХ НАУК, ОСНОВАННАЯ НА ИСПОЛЬЗОВАНИИ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ

*Сметова Джумабийке Хамидуллаевна*

*Ташкентский университет прикладных наук – старший преподаватель кафедры педагогики.*

*Аннотация. В статье на основе преподавания науки об образовании в высших учебных заведениях определяются компетенции развития умений мышления путем создания самостоятельных учебных задач, создания самостоятельных учебных задач из учебных предметов, а также выбора методов, методов и технологий, имеющих удобное и практическая образовательная траектория в работе с заданиями., описаны идеи, которые помогают студентам логически мыслить на основе самостоятельного обучения, расширять рамки творческих исследований.*

*Ключевые слова: педагогика, высшее образование, система, педагогические науки, самостоятельное образование, создание заданий, прагматика, didaktika, методология, gibrid, траектория, компетентность.*

## METHODOLOGY OF TEACHING EDUCATIONAL SCIENCES BASED ON USING INDEPENDENT LEARNING TASKS

*Smetova Jumabiyke Hamidullayevna*

*Tashkent University of Applied Sciences is a senior teacher of the Department of Pedagogy*

*Abstract. In the article, on the basis of teaching the science of education in higher educational institutions, determining the competencies of developing thinking skills by creating independent educational tasks, creating independent educational tasks from educational subjects, and choosing methods, methods and technologies that have a convenient and practical educational trajectory in working with the tasks. , ideas that help students to think logically on the basis of independent education, to expand the scope of creative research are described.*

*Key words: pedagogy, higher education, system, educational sciences, independent education, assignment creation, pragmatics, didactics, methodology, hybrid, trajectory, competence.*

*Kirish.*

Jahonda globallashuv va axborotlashish jarayonlari, innovatsion ta'lim muhitida yuzaga keladigan mustaqil ta'lim topshiriqlarida, pedagogik-metodik o'zgarishlar kiritishni taqozo etib, bu borada Tarbiya fanlarini o'qitishning ahamiyati ortib bormoqda. Tarbiya fanlarini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi pedagogik OTM muassasalarida o'qitish amaliyotida gibrid ta'limda amalga oshirilmoqda bu aynan 4+2 pedagogik amaliyoti bunga yaqqol misol bo'ladi. Tarbiya fanlarini o'qitish hamda pedagogik kasbiy tayyorgarlikkacha bo'lgan didaktik kompetensiyalarni rivojlantirish muammolari pedagogik OTMlar kesimida o'rganilmoqda. Rivojlangan davlatlardagi, ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim topshiriqlarini tashkil qilish tizimi (Bright Hub Education) tarbiya fanlarini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvlar olib borilayotgan pedagogik oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyalarining rivojlantirish darajasini oshirib borish zarurligini ko'rsatadi.

Dunyoda bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarni, didaktik-metodik kompetentligini rivojlantirishda gibrid ta'lim modellarini samarali qo'llash mexanizmlarini rivojlantirish, metodik o'qitish vositasida tarbiya

fanining ta'limiy jarayonida, mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish orqali, ilmiy adabiyotlarda mustaqil topshiriqlarini mazmuniga, foydalilik darajasiga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, talabalarning didaktik-metodik kompetentligini shakllantirishning amaliy- va ilmiy metodik ta'minotini rivojlantirish, masofaviy va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishning an'anaviy va noan'anaviy shakllarini tarbiya fani ta'lim sohalariga adaptiv qo'llash, didaktik-metodik tizimini ishlab chiqish va foydalanish muhim dolzarblik kasb etadi. Ayniqsa, gibrud ta'lim sharoitida pedagogik oliy ta'limdagi o'qituvchilarning didaktik-metodik tayyorgarligini jadallashtirish, pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishga tayyorlashning mustaqil ta'lim topshiriqlar tizimidan foydalanish yanada dolzarblik kasb etadi. Tarbiya fanlarini o'qitish metodikasida bugunga qadar mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish didaktik, kommunikativ, tahliliga doir keng tadqiqotlar olib borilgan. Lekin tarbiya fanlarini o'qitishda pragmatik, didaktik xususiyatlari tizimli o'rganilgan emas. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2017–2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida "ta'lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish"[2] alohida ta'kidlangan. Zero tarbiya fanlarini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlari global masalalar sirasida markaziy o'rinni egallaydi.

Shunga ko'ra, pedagogik oliy ta'lim tizimida tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlar tuzish, pragmatik, didaktik, metodik jihatdan o'rganib, ularning pedagogik-didaktik qiymati va ijtimoiy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan mazkur tadqiqot katta ahamiyatga ega.

Respublikamizda oliy ta'lim pedagogikasida tarbiya fanlarini o'qitishni samarali usullarini keng joriy etish, yangi 3- Renesans pedagogikasi sharoitida talabalarni mustaqil ta'lim bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tarbiya fanlarini o'qitish metodikasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida kasbiy kompetensiyalardan foydalanish didaktik kompetensiyalarning rivojlanishiga olib kelish ko'zda tutilmoqda. Tarbiya fani ta'lim mazmunini o'rganishga qo'yilgan aniq malaka talablari asosida bilim, ko'nikma va malakalari metodik imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatib turibdi. Bu esa, innovatsion-axborot ta'limi sharoitida Tarbiya fanini o'qitishda metodik kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimi va texnologik modelini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishning, didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga yega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar yetamiz"[1]. Shu ma'noda pedagogika oliy ta'lim tizimida "Tarbiya" fanini o'qitish zarurati, didaktik kompetensiyalarga asoslangan, xususan, tarbiyaviy bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish zarurati mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi RF 60-sonli[3], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi RF-134-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-ardagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsersiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi RF-5712-son va 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi RQ-4623-son Qarorlari, hamda 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-son "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Tarbiya fanlarini o'qitish amaliyotida gibrud ta'limda nazariy va amaliy OTMda o'qitilayotgan Tarbiya fanini o'qitish metodikasi, Tarbiya fanini o'qitishning innovatsion texnologiyalari, Milliy tarbiya asoslariga oid fanlarni o'qitish, uni didaktik kasbiy tayyorgarlikka bo'lgan kasbiy kompetensiyalardan foydalanish va undagi muammolarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalari, jumladan, University of Pennsylvania, University of California, Northwestern University, Boston University (AQSh); Australian National University (Avstraliya); University of Nice Sophia Antipolis, University of Bordeaux (Fransiya); Oxford University Language Centre (Angliya); Peking University



Sophia University, University of Tokyo (Yaponiya); Baki Dövlət universiteti (Ozarbayjon); Moskva davlat universiteti, Boshqirdiston davlat universiteti (RF); Qozoq milliy universiteti (Qozog'iston); shuningdek, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika unioversitei, Toshkent amaliy fanlar universiteti (O'zbekiston) da olib borilmoqda.

Tarbiya fanlarini o'qitishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan metodik foydalanish, tarbiya fanlarini o'qitish tizimida, uni didaktik kasbiy tayyorgarlikkacha bo'lgan kasbiy kompetensiyani rivojlantirish umumiy tamoyillari, tarbiyaning jarayonlari va tarbiya metodlari masalasida dastlabki pragmatik g'oyalar amerikalik faylasuf va pedagog Djon Dyui[4], Skatkin M.N.[28] fanlarni o'qitilishida muammoli mustaqil ta'lim topshiriqlarini tadqiq qilgan. Uning mustaqil ta'lim topshiriqlari tavsifi va tasnifiga doir yondashuvlaridan dunyo miqyosida foydalaniladi. Tarbiya fanlarni birliklarini izohlash, ularning pedagogik va psixologik talqini bo'yicha Rubenshteyn S.L.[24]., metodik amaliyoti bo'yicha Leontev A.N. [14] ruhshunoslikdagi sezish, anglash kategoriyalari Ponomarev Ya.A.[22]., tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida tarbiya fanlarini o'qitish, uni avaylab-asrash, milliy qadriyat sifatida ulug'lashga doir ilmiy izlanishlar uzluksiz ravishda olib boriladi. Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Mugla Universiteti (Turkiya), Indiana University (AQSh), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters, Oxfords university (Buyuk Britaniya), Belfield pedagogical university Germany (Germaniya), Научный центр гуманитарных исследований (Rossiya) kabi ko'plab ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Kasbiy tayyorgarlikkacha bo'lgan kasbiy kompetensiyani rivojlantirish muammolari, tarbiya fani ustida ishlash mustaqil ta'lim orqali o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari tizimli ishlab chiqilgan. (Ulyanovskiy gosudarstvennyy universitet); bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar yuzasidan kuzatishlar olib borilgan (Bright Hub Education); pedagogika fanlarini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvlar olib borilayotgan (Payomi Donishgohi Milliy To'chikiston), (Janubiy Qozog'iston pedagogika universiteti oliy ta'lim muassasalarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlanatish ustuvor vazifa sifatida qo'yilgan. Jahon ta'lim tizimida interaktiv o'qitish tizimidan foydalanish (interactive E-learn) bo'yicha tadqiqotlar yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Purdue University (AQSh), interaktiv ta'limni amalga oshirish BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD), pedagogik ta'limga oid muammolari (Baku: Azərbaycan Dövlət Pedagoji Universiteti) mavzularida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil ta'limni tashkil etish jarayoni, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodik foydalanganligini aniqlash va baholashning nazariy, konseptual asoslari, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha R.X.Djurayev [9]., N.A.Muslimov [17]., O'.Q.Tolipov [29]., Sh.S.Sharipov [31]., Q.T.Olimov [24]., O.A.Qo'ysinov [23] va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlari olimlari O.A.Abdulina [5]., V.P.Bespalko [7], Yu.S.Mozdokova [10]., E.F.Zeer [12]., I.A.Zimnyaya [13]., A.S.Markova [15]., S.N.Mironenko [18]., V.A.Slastenin [27]., M.N.Skatkin [28], va boshqalar tomonidan pedagogik oliy ta'limda kadrlarni kasbiy tayyorlashning umumnazariy asoslari, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda ta'lim mazmunini loyihalash hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, integrativ ta'lim, o'qitishning metodik tizimi konsepsiyasi va modelini yaratish xususiyatlari, kasbiy tayyorlash samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Xorij mamlakatlarning B.Blum, B.Skinner, R.Mohan, G.Kulanthavel, H.Miuakawa kabi olimlarning tadqiqotlarida ta'limda integratsiya, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, kasbiy kompetentlik masalalari, kasbiy-pedagogik rivojlanganlik muammolari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish nazariyasi va amaliy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator pedagogik turkum fanlarni o'qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Pedagogik turkum fanlarni tizimlashtirishda uzviylik va uzluksizligini ta'minlash borasida pedagogik-metodik yondashuv, mustaqil ta'lim topshiriqlarni ham uzluksiz ta'lim tizimi uchun uzviylik tamoyili asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi tavsiflandi. M.Quronov hammuallifligida yaratilgan Tarbiya darsliklarda umumiy o'rta ta'lim tizimida birinchi marta mustaqil topshiriqlaridan foydalanishni kuzatishimiz mumkin[4]. "Tarbiya" fani darsliklarida, asosan, mantiqiy savollardan foydalanib kelingan. Demak OTMga kelayotgan yoshlar bugungi yangi darsliklarda berilgan topshiriqlardan xabardaor.

O'quv materiallarini pedagogik ta'lim jarayonida o'rganishning didaktik-metodik yondashuviga xos tarzda N.Muslimov[17], M.E.Axmedova [6]., L.Zaripov [11]., kabi pedagogika fanining o'qitish metodikasiga munosib

darajada hissa qo'shgan olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar muayyan darajada e'tibor qaratilgani kuzatiladi.

Rus pedagoglari S.L.Rubenshteyn [24], A.N.Leontev [14] ta'lim jarayonida umumiy pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida amaliyotga mustaqil ta'limni tatbiq etishni taklif etadi.

J. A. Ponomarev [22] va O.R.Roziqov [26] kabi olimlar mustaqil ta'lim topshiriqlari va ularning didaktikada tutgan o'rni, vazifalari haqida kuzatishlar olib borgan. Jumladan, A.N.Leontev [14] "mustaqil ta'lim topshiriq" tushunchasini quyidagicha xarakterlaydi: "Mustaqil ta'lim topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib oldinga qo'yilgan aniq maqsaddir". M.E.Axmedova [6] pedagogik ta'lim mazmunida ilmiy nazariy va metodik asoslarini o'rgatishni nazarda tutilishini, mantiqiy savol berish ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Jahon pedagogikasida mustaqil ta'lim topshiriqlarining metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan Avstraliyalik olim, professor Jak Richards maxsus shug'ullangan. Shuni ta'kidlash joizki, G'arb pedagogikasining didaktik jarayoni amaliylikka asosiy e'tiborni qaratadi. Dastlabki pragmatik g'oyalar Amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui [12] tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. J.Russell [25], G.Owens [21], mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish va topshiriqlar bilan ishlashda ta'lim traektoriyasi qulay va amaliy ahamiyatga ega metod, usul va texnologiyalarni tanlash asosida ishlashni tavsiya etadi.

Pedagogik oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanishning bugungi ahvolini o'rganish va pragmatik mazmundagi o'quv topshiriqlarining tarbiya ta'limidagi o'rnini belgilash, tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish, uning dastur talablariga mosligini qiyosiy o'rganish, shuningdek, ularni o'qitish bilan bog'liq muammolarning sabablarini aniqlash va yechimlar taklif qilish muhim ahamiyatga ega. Tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish asosida talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, transfer metodlarni ishlab chiqish va model xarita mexanizmlarini takomillashtirish, tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish asosida fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning kompetensiyalarini aniqlash, tarbiya fanlarining oldida turgan dolzarb muammolardir.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, tarbiya fani pedagogik ta'lim mazmunini, o'qitish metodikasining submodulini nazariy va amaliy holati asosida didaktik ta'minotini ishlab chiqishga doir ilmiy taklif va tavsiyalarning ishlab chiqilganligi, gibrid ta'lim sharoitida tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlar tuzish, pedagog-o'qituvchilarning kompetentligidan foydalanishning pedagogik-didaktik kompetentligini rivojlantirishning konseptual asoslari ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi. Pedagogik oliy ta'limda tarbiya fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish asosida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qitish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida, mustaqil ta'lim topshiriqlar tuzishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishga tayyorgarlik, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishga ongli yondashish, didaktik, o'qish va o'rganishning tizimli tavsif kasb etishi, tarbiya fanini o'qitishda mantiqiy savol va topshiriq tushunchalariga oid komponentlar bilan mustaqil ta'lim topshiriqlar tuzishning ichki va tashqi yo'nalishlardagi integratsiyasini real ta'limiy sharoitlarda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. –14-b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 2017 yil 7 fevral. PF-4947-son.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. –www.lex.uz

M. Quronov., Ye.Risikova., O.Tegay., O.Usmanova., S.Hafizov. Tarbiya 6-sinf darsligi. T.: G.Gulom nomidahi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2020y.-109 b.

Абдуллина О.Л. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования: для пед. специальностей высших учебных заведений. – 2-изд., перераб. и доп. – М.: Просвещение, 1990. – 141 с.;

Axmedova M.E Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari pedagogika fanlari doktori uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati T.:2023-54-b.

Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: "Просвещение", 1995. – 336 с.;

Джон Дюи. Общество и его проблемы Жохн Девей. Тхе Публис анд итс Проблемс. Денвер, 1927. / Дж. Дюи. Общество и его проблемы. — Перевод с английского: И. И. Мюрберг, А. Б. Толстов, Е. Н.

Косилова. — М., 2002.

Джурраев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – Т.: УзНИИПН им Т.Н. Кари-Ниязова, 1995. — 43 с;

Моздокова, Ю.С. Коммуникативно-деятельностный подход к интеграции инвалидов: социальнo-культурный аспект: дисс.... д-ра пед. наук: 13.00.05. — Москва, 2006. - 555 с.;

Zaripov L.R.Kredit-modul tizimi asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish pedagogika fanlari doktori uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati T.:2023-60-b.

Зеер, Э.Ф. Психология профессионального образования – М.: Издательство Московского психологo-социального института; Воронеж: Издательство НПО “МОДЕК”, 2003. – 480 с.;

Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования– 2003. № 5. С. 34-42.;

Леонтев А.Н. Проблем развития психики. – М.: Педагогика, 1972.-576 с.

Маркова А.К. Психология профессионализма.–М.:Знание,1996.–308 с.;

Магзумов П.Т. Педагогические основы трудового становления личности школьников: Автореф. ... докт.пед.наук. – Т.: 1991. — 41 с.;

Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. Diss. ... ped. fan. dokt. – Т.: 2007. – 315 b.;

Мироненко С.Н. Интеграция педагогического и технического знания как условие подготовки педагога профессионального обучения к диагностической деятельности. Дисс. ...канд.пед.наук. – Череповес.: 2014. – 164 с.;

Miyakawa H., Industrial Technology Education. For All. Aichi University of Education. Japan, 2004.;

Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari: Dis. ... ped. fan. dokt. – Т.: 2005. – 286 b.;

Owens, G. The Modelle in “Universities Quarterly”// Universities Quarterly, Higher education and society. - Vol. 25. - № 1. - P. 20-27.

Пономарев Я.А. Психология творчества и педагогика, 1976. -280 с.

Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy–pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2019. – 200 b.

Рубенштейн С.Л. Проблемш общей психологии. – М.: Педагогика, 1976. - 416 с.

Russell, J.D. Modular Instruction // A Guide to Design, Selection, Utili-zation and Evolution of Modular Materials. — Minneapolis, Minnesota: Burgess Publishing Company, 1974. — 164 p.;

Rozikov O.R. Teoreticheskie osnovi optimalnogo primeneniya sistemi uchebnix zadach v obuchenii i shkolniki (na materialax gumanitarnix predmetov). Avtoreferat diss...dok. ped. nauk. – Tbilisi, – 1986. -50 s.

Slastenin V.A. Pedagogika: uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix uchebnix zavedeniy. – М.: 2000. – 512 s.;

Skatkin M.N. Problemi sovremennoy didaktiki. - М.: Педагогика, 1984. –108.

Tolipov U.K. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Dis. ...ped.fan.dokt. – Т.: 2004. – 314 b.

Turdiqulov E.O., Djuraev R.X. va boshqalar. Integratsiyalashgan ta'lim nazariyasi va amaliyoti. – Т.: 2009. – 176 b.

Sharipov Sh.S. Talabalar ixtirochiligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari: Diss. ... ped.fan.nom. – Т.: 2001. – 140 b.

Jurnal Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan 2020 yil 6 oktyabrda o'tgan.  
Jurnal har oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.  
Jurnalning hajmi 60x84, 1/8, A-4;

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2020 yil oktyabrdan nashr etilmoqda.

Pedagogika, psixologiya, filologiya va tilshunoslik, matematika, fizika va mexanika, texnika fanlari, tabiatshunoslik, tarix va falsafa, turizm va iqtisodiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalari, geografiya sohalardagi ilmiy va ilmiy-uslubiy materi-allarni o'z ichiga oladi. Nashr qilingan materiallar mualliflari O'zbekiston Respublikasi hamda yaqin va uzoq xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchi-izlanuvchilari.

Jurnalning kalit so'zlari:

Oliy pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti; umumiy va maxsus pedagogika va psixologiya, pedagogika va innovatsiya, integratsiya, O'zbekiston, Rossiya va xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi; ta'lim jarayoni; ko'p madaniyatli va mintaqaviy ta'lim; III Renessans, XXI asrdagi ta'lim; ta'lim va tarbiya sohasidagi milliy va qadriyat ustuvorliklari; ta'lim sifatini monitoring qilish; uzluksiz pedagogik ta'lim tizimi; ta'lim dasturlari; umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari; o'qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta'lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami № 8882

Bosh muharrir: B.B.MA'MUROV

**Bosishga ruxsat etildi:** 10.06.2024 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.

Buyurtma raqami №0324

«FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar.

<https://interscience.uz/> saytida joylashtirildi

